



# “O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN‘ATINING YANGI TENDENSIYALARI”

*Respublika yosh tadqiqotchi va magistrning  
ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari to‘plami*



2023-yil  
may

7  
A-11

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM  
VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
YUNUS RAJABYI NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA  
SAN'ATI INSTITUTI  
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI



“O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATINING  
YANGI TENDENSIYALARI”



*Respublika yosh tadqiqotchi va magistrning ilmiy-amaliy  
konferensiyasi materiallari to'plami  
2023-yil/may*



TOSHKENT – 2023

M

ni  
da  
sa  
in  
k,  
m  
o,  
in  
iz  
V  
ti

UO'K: 78.071.1(575.1) (092)

BBK: 85.31g(50')

A II

**“O‘zbek milliy musiqa san‘atining yangi tendensiyalari” mavzusidagi Respublika yosh tadqiqotchi va magistrning ilmiy-amaliy konferensiyasi // Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti. – Toshkent - 2023. 374-bet.**

**Mas‘ul muharrir va to‘plab nashrga tayyorlovchilar:**

**O.Axmedova** – O‘zMMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari nomzodi.

**A.Sunnatillayev** – O‘zMMMSI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi sektori boshlig‘i.

**Tahrir hay‘ati a‘zolari:**

**O.Nazarbekov** – O‘zMMMSI rektori, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri.

**A.Zokirov** – O‘zMMMSI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.

**O.Axmedova** – O‘zMMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, filologiya fanlari nomzodi.

**B.Matyoqubov** – O‘zMMMSI professori, san‘atshunoslik fanlari nomzodi.

**R.Oripova** – O‘zMMMSI “O‘zbek adabiyoti, tillar va gumanitar fanlar” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi.

**Sh.Berdixanova** – O‘zMMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini mudiri, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**N.Haydarova** – O‘zMMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi.

**N.Botirova** – O‘zMMMSI Ilmiy kengash kotibi, “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi.

**Taqrizchilar:**

**S.Begmatov** – O‘zMMMSI professori, s.f.n., O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi direktori.

**Ch.Ergasheva** – O‘zDK “O‘zbek musiqa tarixi” kafedrasini mudiri, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plamda **“O‘zbek milliy musiqa san‘atining yangi tendensiyalari”** mavzusidagi Respublika yosh olim, tadqiqotchi va magistrning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari joy olgan bo‘lib, unda o‘zbek milliy musiqa san‘ati, istiqbollari va uni yanada rivojlantirish, o‘zbek milliy musiqa san‘atining yangi tendensiyalariga bag‘ishlangan yosh olim, magistrant, doktorant va mutaxassilarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

*Mazkur to‘plam materiallari O‘zMMMSI Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashining 2023-yil “28” - apreldagi 2-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*



**“AGAR BIZ ASL, HAQIQIY SAN‘ATNI BILMOQCHI,  
O‘RGANMOQCHI BO‘LSAK, AVVALO, MUMTOZ MAQOM  
SAN‘ATINI BILISHIMIZ, O‘RGANISHIMIZ KERAK”**



*“Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san‘atining o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Agar biz san‘atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo, mumtoz maqom san‘atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”.*

**SHAVKAT MIRZIYOYEV**  
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



## TABRIK SO‘ZI



### Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Ilm olish, izlanish va o‘rganish inson umriga mazmun bag‘ishlashi bilan birga, Vataniga, xalqiga manfaat keltiradigan komil shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste‘dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ustoz-shogird an‘anasini davom ettirish masalalari davlatimizning ustuvor vazifalariga aylanib bormoqda. Davlatimiz tomonidan yoshlarning har tomonlama barkamol va yetuk, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan insonlar bo‘lib yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratilib, katta e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Zero, yoshlar – har qanday jamiyatning ertasidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari hamda xalqaro standartlarga mos keladigan oliy ta‘lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oliy talim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo‘lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo‘lmoqda. Bu jarayonda ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida



so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Qolaversa, milliy musiqa, xususan, an‘anaviy va akademik musiqa hamda raqs san‘atini rivojlantirish, ijrochilarning kasb mahoratini oshirish va bu yo‘nalishda iqtidorli yoshlarni aniqlab, qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu boradagi amaliy sa‘y-harakatlar bugun o‘z natijalarini ko‘rsata boshladi.

Kuni kecha 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan mug‘om festivalidan farzandlarimiz qaytib kelishdi. Bu festivalga R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi, shuningdek, Namangan, Buxoro va Farg‘onadagi ixtisoslashgan musiqa maktablaridan 6 nafar o‘quvchini yuborgan edik. Turli yo‘nalishlarda bizning farzandlarimiz sovrindorlar qatoridan joy egalladi. Ular orasida “Eng yosh maqomchi” nominatsiyasi g‘olibi ham bor. Bunaqasi hali bo‘lmagandi. Bu yurtimizda Prezidentimiz rahbarligida maqom san‘ati rivojiga bo‘lgan e‘tiborning mevasi.

Kechagina yuragimiz achishgancha bu san‘at turining chalajon holatini kuzatib, nahotki shunday san‘atimiz yashab qolmaydi, deya umidsizlikka tushgan paytlarimiz bo‘lgan edi. Lekin, shukrki, bu san‘atimiz yana “hayotga qaytdi”. Eng sinovli damlarda ham madaniyat, san‘at sohasi rivojiga e‘tibor zarracha susaymagani, muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlangani bu sohaning ahamiyati naqadar muhim ekanini ko‘rsatib turibdi.


So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san‘at, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish maqsadida qator Farmon va qarorlar qabul qilinmoqdaki, bu amalda keng imkoniyatlar eshigini ochib, ijodiy yutuqlar, xalqaro miqyosdagi e‘tiroflarga zamin yaratmoqda. Jumladan, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-



tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarorlariga qarorlari hamda 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" Davlat dasturidagi vazifalar ayniqsa, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb etish, yoshlarning ijodiy, ta'lim sifatini oshirishga erishish, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, iqtidorli talabalar, yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida biznesinkubator, startup, ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish, ilmiy salohiyatni yuksaltirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish innovatsion sifatini yanada yaxshilash, elektron modullar tashkil etish vazifalari yuklatilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida ham yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ta'lim tizimida malakali mutaxassislar tayyorlash, iqtidorli talaba yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish, OTMning jozibadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy-innovatsion ishlanmalari, starap loyihalarini amaliyotga keng joriy qilish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Respublika Yosh olimlar kengashi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan "O'zbek milliy musiqa san'atining yangi



tendensiyalari" mavzusidagi yosh tadqiqotchi va magistrning Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ham ana shu ishlarning amaliy davomi sifatida e'tirof etish mumkin. Konferensiya ishidan ko'zlangan asosiy maqsad, respublikamizda o'zbek milliy musiqa san'ati bo'yicha bajarilayotgan ilmiy ishlar bo'yicha o'zaro fikr almashish hamda yosh olim, magistrant, doktorant va mutaxassilarning ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish hisoblanib, ushbu anjumanda respublika yosh tadqiqotchilarning tajribalari o'rganiladi, muhokama etiladi va tavsiyalar yaratiladi, muammolar hamda ularning yechimlari bo'yicha xulosa hamda takliflar tayyorlashdan iboratdir.

Konferensiya mavzusi bugungi kunning eng dolzarb mavzulardan biri bo'lgan o'zbek milliy musiqa san'atining yangi tendensiyalari bag'ishlangan bo'lib, o'zbek milliy musiqa san'atining ta'lim sohasida o'qitishning innovatsion usullarini keng joriy etish, ustoz-shogird an'alarini takomillashtirish, milliy musiqa san'atimizni asrab-avaylash, umuman milliy madaniyatimizni o'rganishga, tadqiq etishga qaratilgan. Ishonamizki, mazkur anjuman doirasida milliy musiqa san'atiga oid alohida mavzular bo'yicha tashkil qilinayotgan munozara maydonlari bu yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashish, istiqboldagi o'zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlarini belgilash, yangi g'oya va loyihalarning boshlanishiga turtki beradi.

Zotan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy aytganidek,

Bu gulshan ichraki, yo'qdur baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

Ya'ni bu dunyoda abadiy qolmoq mumkin emas, biroq yaxshi nom qoldirmoq katta saodatdir. Shunday ekan, ushbu konferensiya ham barchamizdan yaxshi nom qoldirish uchun xizmat qilsin.


Men yana bir bor tashkilotchilar va barcha ishtirokchilarni anjuman bilan chin dildan tabriklayman va konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

**NAZARBEOV OZODBEK AXMADOVICH,**  
*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy*  
*musiqa san'ati instituti rektori.*



## I SHO'BA



### O'ZBEK MAQOM SAN'ATINING IJROCHILIK MASALALARI

#### UFAR USULINING MAQOM YO'LLARI VA XALQ MUSIQASI TARKIBIDAGI SHAKLLARI VA O'ZIGA XOSLIK JIHATLARI

**Ma'rufjon RASULOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI*

*3-bosqich mustaqil izlanuvchisi (PhD).*

*Ilmiy rahbar: Soyibjon BEGMATOV,*


*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI professori, s.f.n.,*

*O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori.*

**Annotatsiya:** *Ilmiy maqolamizning asosiy maqsadi Ufar usullarining o'ziga xosligi hususida fikr yuritimiz. Xalq musiqasi tarkibidagi va maqomlardagi shakllari, vazifalarini musiqashunos ustozlar risolalaridagi ma'lumotlarga va xalq musiqasi ijrochiligidagi amaliyotda sinalgan uslublarga, xulosalarga tayanib Ufar usullarining funksional jihatlari ko'rib chiqamiz. jumladan xalq orasida ommalashgan, xarakter tomonlama ta'sirchan xalqchil "Ufar"lar hususida maqomlardagi o'rni, vazifasi, funktsionalligi taxlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *usullar, ufarlar, xarakter, funktsionallik, Shashmaqom, maqom, vazmin, yengil, ufarlarning xususiyatlari.*

**Аннотация:** *Основная цель нашей научной статьи – поразмышлять об уникальности Уфарских Ритм(усул)ов. Рассмотрим функциональные аспекты Уфарских Ритм(усул)ов на основе сведений о формах и функциях народной музыки в структуре и статусе музыковедов, апробированных в практике народного исполнительства методов и выводов. В частности, были проанализированы положение, функция и функциональность популярных в народе и влиятельных по своему характеру должностей, задач и функций уфаров.*




**Abstract:** *The main goal of our scientific article is to reflect on the uniqueness of Ufar rhythms. We will consider the functional aspects of Ufar rhythms based on the information on the forms and functions of folk music in the structure and status of musicologists and methods tested in the practice of folk music performance and conclusions. In particular, the position, function, and functionality of the positions, tasks, and functions of the Ufars, popular among the people and influential in terms of character, were analyzed.*

Shashmaqom cholg'u - Mushkilot va ashula - Nasr bo'limlaridan tashkil topgan monumental turkumiy asardir. Shashmaqomning usullar tizimi alohida bir jarayon. Shu jarayonda qo'nim topgan bir qator usullar tizim doirasida bir xillilikni namoyon etsa, ularni alohida xar bir usulga individual munosabatda yondoshilsa turli variantlilik jihatlari, xarakter va jilvakorlik, hattoki shakliy turlanishlarni mavjudligiga iqror bo'lishimiz mumkin. Ufarlar Nasr bo'limining har ikki guruh sho'balarida uchratish mumkin bo'lgan, yakuniy o'ynoqi, sho'x, tantanavor bayram kayfiyatlariga ega asarlardir.

Maqomlarning Ufar qismi – raqs bilan bog'liq bo'lib, yakka ashulachi yoki bir necha ashulachilar ijro etadi. Shashmaqom tarkibida yigirmaga yaqin muayyan va murakkab tizimda alohida ahamiyatga ega bo'lgan usullar mavjud. Masalan Tasnif, Tarje', Gardun, Muhammas, Saqil, Saraxbor, Talqin, Nasr, Mo'g'ulcha, Savt, va x.k. Shu usullar orasida Ufar o'ziga hos yakunlovchilik xususiyatiga egaligi bilan turkumlarning ohirgi qismidan o'rin olgan.

Ufarlarning shashmaqomda alohida bo'lim sifatida qarash borosida yana bir musiqashunos olim Otanazar Matyoqubovning quyidagicha fikrlari mavjud: "Ufarlarning alohida bo'lim sifatida qaralishida haqiqatdan ham mantiqiy asos bor. Istilohda "bo'lim" tushunchasi ma'lum tartibdagi ko'pqisimlikni anglatadi. Shunga ko'ra, cholg'u va ashula bo'limlarining har biri alohida doyra usuli va kuy vazni bilan belgilangan qator qismlarni nazarda tutadi Ufarlarning ko'pqisimligi esa o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi"<sup>1</sup>

Bu bilan Ufarlarni turkum tarkibidagi bir bo'lak yekanligi, turkumning bosh qismining ohang materialidan ishlangan asar




ekanligiga ishora qiladi. Shu bilan birga ufarlar maqomlarning ashula bo'limida shahobchalar hamda sho'balarning mustaqilligi e'tirof etiladi. Maqomlar tarkibiga kirgan xar qanday usul o'zining alohidalik xususiyatiga ega bo'lishi muqarrar. Chunki turkumni zanjir kabi tushunsak, xar bir bo'lak alohida va ular bir biriga bog'langan. Bu xususda Ufarlar o'ziga bir katta ma'suliyatlarni, vazifani olganligini ham tasavvur qilish mumkin. U ham bo'lsa turkumni yakunlash. Xulosalash va yakuniga yotkazish desa ham bo'ladi.

Maqomlar bastakorlik ijodiyotning namunasi bo'lsa manbaalarda yozilishicha ko'proq bir biriga o'xshatib, yoki o'xshatish usullariga hos holda ishlanganligi xususida fikrlar bayon etiladi. Shashmaqomning tarkibiy tuzilmalaridan o'rin olgan namunalar ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, ashulalar va kuylarning o'xshash namunalarini yaratishda usullar ham o'zining katta ta'siri borligini ko'rsatadi va buni kampozitorlik ijodiyotidagi variatsiyalarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Asosiy mavzular usullar, ritmlar hisobiga variatsiya qilinadi.


“Ma'lum maqom tarkibida otdosh sho'ba (jumladan, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Ufari Ushshoq kabi)lar doira usulining turlicha bo'lishi bilan bir-biridan farqlanadi. Shashmaqom tarkibidagi qismlarni tushunish uchun ularning murakkab doyra usullarini ajratish, shu usul jo'rligida eshita olish lozim. Oddiy xalq kuylarida usul bilan kuyni birgalikda tinglash maqomdagi kabi murakkab emas.

Maqomlar ashula bo'limida esa, doyra usulidan tashqari she'r o'lchovlari ham maqom qismlarining xarakterini belgilab beruvchi omillardandir. Chunki olti maqomning bir xil nom bilan ataluvchi sho'ba yoki qismlarida doyra usuli va she'r o'lchovlari o'xshashdir.

Qo'lyozma manbalarida keltirilgan doyra usullari namunalar orasida (Gardun, Muhammas, Saqil, Ufar, Talqin kabi) Shashmaqom kuy va ashula yo'llari uchun ham asos qilib olingan ritm o'lchovlarini uchratish mumkin. Masalan, ularda keltirilgan Ufar usulini shunday tasavvur etish mumkin:



Bu usul maqomlarda va o'zbek-tojik xalq kuy va ashula yo'llarida ko'plab uchraydi.



Kuyga jo'r bo'ladigan doyra usuli dastlab kuy yo'lining xakteri, uning harakat doirasi, ritmik-intonatsion xususiyatlariga bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyinchalik usullar kuyning holatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kuy turli usullarga tushirilganda juda katta o'zgarishlarga uchraydi. Shashmaqom shakllanishi va uning taraqqiyoti jarayonida bunday doyra usullarining roli juda katta bo'lgan edi. Shu usullar vositasi bilan Shashmaqom yo'llari uchun ayniqsa xarakterli bo'lgan ritmik va melodik variatsiyalar ishlanib, maqomlar takomillashib bordi, amal naqsh va peshravlarning xilma-xil turlari paydo bo'ldi.

Bunday doyra usullarining nomi saqlanib qolgan bo'lsa-da, keyingi davrlarda ular kuyning xarakteriga bog'liq holda juda katta o'zgarishlarga uchraganini alohida aytib o'tmoq lozim.”<sup>2</sup>

Shashmaqom usullari xususida fikr yuritganda qayd etish joizki, Shashmaqomning tarkibidan o'rin olgan barcha sho'balarning nomlanishi usullar nomi bilan bog'liqdir. Saraxbor, Talqin, Nasr, Savt, Mo'g'ulcha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar, Tasnif, Gardun, Muxammas, Saql va xokazo.

Shashmaqomning usullar tizimi ham oddiydan murakkabga tamoyili asosida shakllantrilgan. Har bir usulning o'z nomi, formulasi va shashmaqom turkumida o'rni mavjuddir.

Abdurauf Fitrat yozadi: “Ufar (o'yin) butog'i deb Ufar uchun belgili son yoqdir. Ustod musiqiyshunoslar bir maqomning mushkilot ham nasrida bo'lg'on kuylarning hammasini ufar usulida chaladirlar, shuning uchun majlisning istagiga qarab, o'yin majlisini davom ettira beradirlar”<sup>3</sup>.

Abdurauf Fitrat Shashmaqomni uch butoqqa ajratib izohlaydi unga ko'ra birinchisi faqatgina cholg'u bilan ijro etiluvchi qism Mushkilot bo'limi, ikkinchisi chog'u ham ashulachi ijrosidagi Nasr bo'limi, uchunchisi cholg'u, qo'shiq, o'yin (tans) yoxud cholg'u ham o'yin bilan birgalikda ijro etiluvchi Ufar qismi.

Quyida biz Is'hoq Rajabovning “Maqomlar” kitobidagi Shashmaqomda Ufarlar masalasiga oid nisbatan boshqacha yangi fikrlarni keltiradi.

<sup>2</sup> Rajabov I. “Maqomlar” T.2006. (169 b)

<sup>3</sup> Abdurauf Fitrat. “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” T.1993. (16-b)



“Ufarlar masalasiga kelsak,” -deb yozadi olim, “– ularni ham maqomlarning maxsus qismi qilib ajratiladiki, bu to‘g‘ri emas, albatta. Chunki Ufarlar asosan Talqin, Nasr,Savt, Mo‘g‘ulcha kabi sho‘balarning Ufar doyra usuliga tushirilgan variantidir. Shu mulohazalarga suyanib biz maqomlarni ikki bo‘limiga ajratib: 1. Maqomlarning cholg‘u bo‘limi, 2. Maqomlarning ashula (vokal) bo‘limi sifatida qarab chiqamiz. Birinchi bo‘lim turli hajmdagi ko‘pgina cholg‘u yo‘llarini o‘z ichiga oladi. Maqomlarning ashula bo‘limida mustaqil va bir necha shoxobchalari sho‘balar va Ufarlar uchraydi”<sup>4</sup>.


Shashmaqom va o‘zbek maqom yo‘llariga mansub asarlarning lad va usul tizimi hususida musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov “Maqomot” kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi. “Musiqada agar parda makon (nag‘malarning o‘rni, joylashuvi) bo‘lsa iyqo‘ (usul, vazn) zamon omili, vaqt oqimining tartiblashuvidir. ; nag‘malar orasida o‘tadigan vaqt (iyqo‘) maqom ilmida, odatda, usul tushunchasida mujassamlanadi. Parda nuqtai nazaridan maqomot, muayyan lad tizimini tashkil qiladi. Boshqa bir o‘lchamda maqomot ma‘lum usul tizimidan iborat. Klassik musiqaning bizdagi mavjud shakllari, eng avvalo, aynan shu ikki jihatdan tartiblashadi; parda hamda usullarga qarab maqom turkumlarining tarkibiy qismlari belgilanadi. Bir so‘z bilan aytganda, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent yo‘llari ana shu parda va usul o‘lchamlarining muvofiqlashgan tizimidan iborat”<sup>5</sup>.

Ma‘lumki Shashmaqom ikki ulkan bo‘limdan iborat bo‘lib bular: cholg‘u va ashula bo‘limlaridir. Odatda ular mushkilot (cholg‘u) va nasr (ashula) bo‘limi deb yuritiladi. Xar bir bo‘limining Shashmaqom turkumiga xos bo‘lgan tarkibiy qismlari mavjuddir. Shashmaqom cholg‘u yo‘llariga kiradigan asarlar oddiy va murakkab usullardan tashkil topgan.

Ya‘ni maqomlarning cholg‘u bo‘limidagi kuy yo‘llarining doyra usullari turli-tumandir. Cholg‘u bo‘limdagi kuy yo‘llari aksariyat xollarda shu doyra usullari nomi bilan ataladi. Shashmaqom cholg‘u bo‘limi quyidagi usulli kuylarni o‘z tarkibiga oladi. Tasnif, Tarjee‘, Gardun, Muxammas, Saqil. Musiqachi bastakorlar o‘tmishda doyra usullarini ifodalashda ma‘lum qoidaga asoslangan ritmlar uslubini ham

<sup>4</sup> Rajabov I. “Maqomlar” T. 2006. (157 b)

<sup>5</sup> O. Matyoqubov. Maqomot, T., 2004. (160 b)



yaratganlar va ular mumtoz musiqa namunalarida o‘z o‘rnini topgan yoki usullarni turli nomlar bilan ataganlar masalan Chapandoz, Chanbar va xokazo. “Cholg‘u bo‘limlaridagi kuy yo‘llarining har biri mustaqil cholg‘u qismlar hisoblanadi va o‘zlarga mansub bo‘lgan maqomlar nomi bilan qo‘shib aytiladi. Masalan, Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Saqili Navo, Samoyi Dugoh, Muxammasi Iroq, Garduni Segoh va hokazo. Shashmaqomning bu cholg‘u yo‘llari kuy tuzilishi jihatidan juda murakkab va puxta yaratilganligi bilan ajralib turadi.”<sup>6</sup> deb yozadi is‘hoq Rajabov.

Shashmaqomning nasr bo‘limi ikki guruhga bo‘linadi va ular birinchi gurux sho‘balari xamda ikkinchi gurux sho‘balari deb nomlangan. Ushbu jarayonni Is‘hoq Rajabov quyidagicha izoxlab o‘tadi. “Shashmaqom shakllanishining dastlabki davrlarida ashula bo‘limining birinchi guruhiga kiruvchi Saraxbor, Talqin, Nasr kabi sho‘balar, ularning taronalari va Ufarlar yaratilgan bo‘lsa, keyingi yillarda Shashmaqom tarkibi boyib bordi, unga bastakor-sozandalar yangi-yangi sho‘balar qo‘shdilar.”<sup>7</sup>


Shashmaqom Nasr bo‘limi tarkibiga kirgan sho‘balar o‘ziga hos kichik turkumdir va bir nechta asarlardan iboratdir. Kichik turkum tarkibiga kirgan asarlar odatda “tarona” deb yuritiladi. “Maqomlarning birinchi qismidagi sho‘balari – Saraxborlar, Talqinlar, Nasrlar va ularning taronalari hamda Ufarlar birin-ketin ijro etiladi. Dastlab Saraxborlar taronalari bilan ijro etilib, Talqinlarga va ularning taronalariga o‘tiladi. Keyin Nasr yo‘llari taronalari bilan o‘qilib, Ufarlar ijro etiladi. Shu bilan oxirgi suporish orqali Shashmaqom ashula bo‘limining birinchi qismi tugallanadi.”<sup>8</sup>

Odatda Saraxbor, Talqin, Nasrlarning asosiy usullari Shashmaqom tarkibidagi maqomlarda o‘zgarmaydi. Ushbu kichik turkumlarning asosiy qismlaridan keyin keladigan taronalar usullari turlichadir. Taronalar xar bir maqomda o‘ziga hos tarkiblashgan bo‘lib, muayyan usullar tizimida shakllangan. odatda taronalar nomlanmagan va raqamlar bilan belgilangan. Taronalarning usullari orasida oddiy va murakkab usullar mavjuddir.

<sup>6</sup> Rajabov. I Maqomlar T. 2006. (165 b)

<sup>7</sup> Rajabov. I Maqomlar T. 2006. (241-242 b)

<sup>8</sup> Rajabov. I Maqomlar T. 2006. (207 b)



Shashmaqomning birinchi gurux shoʻbalaridan keyin ikkinchi gurux shoʻbalari tarkiblashgan. “Shashmaqom maʼlum bir chegarada toʻxtab qolmadi, balki oʻz tarkibiy doirasini kengaytirib bordi. Shunday qilib, Savt va Moʻgʻulchalar tipida bir necha shoʻbalar yaratildiki, bular Shashmaqom ashula boʻlimining ikkinchi qismidagi shoʻbalar guruhiga kiritildi.”<sup>9</sup>

Savt va moʻgʻulchalar ham kichik turkum hisoblanadi va muayyan besh asardan iborat. Ularni taronalardan farqi oʻz usullari nomi bilan atalishidir. Ularni aloxida asar sifatida ham va turkum sifatida ham ijro etish mumkin. Ikkinchi guruh shoʻbalar turkumi muayyan usullarga asoslangan va bu tizim barcha savt va moʻgʻulchalarda qatʼiy ravishda saqlaniladi.

Savt va moʻgʻulcha usuli deyarli bir xil. Lekin ijroda boshlanish jarayoni bilan farqlanadi. Undan keyin Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufarlar keladi. X-XVII asr musiqa risolalarida shu qoidaga asoslangan doyra usullarining namunalarini koʻplab keltiriladi. Bunda, asosan, uzun va qisqa boʻgʻinlarning ifodasi boʻlgan undosh harflardan boʻgʻinlar tuzilib, boʻgʻinlar birikmasi esa sheʼr oʻlchovlari va doyra usullarining ruknlarini tashkil etadi.

“Doyra usullarida ishlatiladigan bu ruknlar aruzdagi vaznlarni ham ifodalay olgan. Oʻtmishda sozanda va xonandalar aruz qoidasini bilmagani holda “tan-tana-tananan” kabi ritm turoqlari vositasi bilan ashula yoʻllariga mos keladigan sheʼrlarni ham tanlab olganlar”<sup>10</sup>

Maqomlarda usullar asosan doyra yordamida saqlanadi. Mushkilot boʻlimida bitta, nasr va ufarlarda ikki uch doyra ijro etiladi. Nasr boʻlimida usul ashulachining ovozi bilan baland boʻlmasligi eng sodda va muxim jixatlaridan sanaladi.

Oʻzbek xalq musiqa sanʼatining salmoqli qismini tashkil etuvchi maqom anʼanalari tarixan uzun va murakkab taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan. Bu kabi ijodkorlik hamda ijrochilik mezonlari ilk bor saroy sanʼatkorlari kasbiy faoliyatining mahsuli sifatida oʻz ifodasini topgan va keyinchalik uning ogʻzaki uslub sharoitidagi rivojlanishi keng tus olgan.

Oʻzbekistonda maqomshunoslik yoʻnalishining asoschilaridan biri maqomshunos olim Isʼhoq Rajabov (1927-1982) tomonidan

<sup>9</sup> Rajabov. I Maqomlar T. 2006. (242 b)

<sup>10</sup> Rajabov. I Maqomlar T. 2006. (168 b)



amalga oshirilgan musiqiy sharqshunoslik qamrovidagi tadqiqotlar natijasida sohaning bir qator ilmiy muammolari oʻz yechimini topgan. Shu bilan birga XIII-XVII asrlarda keng qoʻllanilgan “Oʻn ikki maqom” nazariy tizimi oʻziga xos tahlil etilgan, avvalgi va keyingi maqom yoʻllari bilan qiyoslangan, sharqona nota yozuvi haqida xolis tushuncha hosil boʻlgan.

Shashmaqom uzil kesil XVIII – asrning birinchi yarmida, oʻzbek – tojik xalqlarining musiqiy janri sifatida yuzaga kelgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Shashmaqom haqidagi maʼlumotlarni Ahmad Donish, Sadridin Ayni, Abdurauf Fitrat va boshqa mualliflarning asarlaridan topish mumkin.

Shashmaqomning yaxlit toʻplam sifatida avlodlarga saqlanib qolishida, kelajak – avlodning oʻtmish madaniy tarixini oʻrganishida katta manbaa – bu milliy mumtoz kuylarimizni nota koʻrinishidagi yozma manbaʼlaridir. Shu jarayonni boshlab va oʻzining beqiyos hissasini qoʻshgan rus kompazitori V.A.Uspenskiydir. U avvalambor oʻz eʼtiborini musiqiy merosi boy boʻlgan Oʻzbek va Turkman xalqlariga qaratgan.

Usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillaridir. Ularni ajrata olish maqomlar qiyofasini toʻgʻri tushunishga imkon beradi.

Oʻtmishda mashhur boʻlgan Saqil, Hafif, Ramal, Xazaj, Du-yak, Ufar, Foxtiy, Turk, Muxammas, Avsat, Chorzarb, Zarbul-Futh, Durafshon, Samoiy, Chanbar, Miatayn kabi ritm oʻlchov bahrlari va doyra-nogʻora usullari bizning kungacha yetib kelgan. Bu usullar musiqa asarlari, xususan maqom yoʻllarida uchraydi. Ular qachon va kim tomonidan yaratilgani bizga qorongʻi. Ularni sodda yoki murakkabligiga qarab, oldin-keyin yaratilganini bilib olish mumkin.

Maʼlumki, maqom yoʻllarining eng zarur unsurlaridan biri doyra usullaridir. Doyra usullari maqom, kuy va ashula yoʻllarini xarakterli tomonlarini ochib berishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shu bois boʻlsa kerak Shashmaqom usullari va usullar tizimi alohida uslubda va tizimda oʻz isbotini topgan. Tizimlilik ularni turkumiyligini taʼminlagan boʻlsa alohidalik jihatlarida rang baranglik alomati koʻp uchraydi. Odatda bunday hollarda usullar maʼlum darajada turlanadi, sayqallanadi tizimlashadi, sokinlashadi, jadallashadi va x.k buning ham zaminida xarakter mavjudligini unutmazlik lozim.



Ufarlarning boshqa usullar kabi o'ziga xosligi, muayyan metroritmik asosligi, muayyan xususiyat kasb etishi, badihaviylik jihatlari, turlanish imkoniyatlari ularni har tomonlama xalqchil va mukammalliligini dalolatidir. Shu bois bo'lsa kerak ufarlar butun dunyo xalqlari musiqa merosida o'ziga xos milliylik jihatlama sug'orilgan namunalar alohida o'rin olgan. O'zbek musiqa merosining usullar tizimida ufarlar alohida o'ringa ega. Ufarlar juda ko'p jihatliligi bilan boshqa usullardan ajralib turadi. Shu o'rinda o'zining mukammallik jihatlari bilan e'tiborli jihatlari namoyon etadi. Bu jarayonda ufarlarning eng muhim jihatlari kelib chiqadi. Avvalo usullarning muqimligi bo'lsa, ikkinchidan bu usullarning turlanishi, kuy va ohanglarning xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Maqomlar tarkibida buning eng mukammal tizimini ko'rishimiz mumkin.


“Maqomlardagi asosiy kuy mavzui ko'pincha ritmik va melodik variatsiyalar vositasi bilan turli shakllarga tushiriladi. (Cholg'u yo'llarda kuy mavzui o'zgaruvchidir). Ularga yangi-yangi melodik tuzilmalar kiritish bilan kuy yo'li takomillashtiriladi, ularning ta'sir kuchi ortib boradi. Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas, Saqil yo'llari birin-ketin ijro etilar ekan, ulardagi lad asosi va kuy mavzuining yaqin bo'lgani, kuy jumlarining rang-barang, ohangdorligi va yoqimliliigi hamda doyra usullarining turli-tumanligi bilan butunlay sezilmay qoladi; bunda ijodkor bastakorlarning juda ham ustalik bilan yaratgan maqom yo'llarining originalligi yaqqol ko'zga tashlanadi.”<sup>11</sup>

Musiqa merosimizda usullar tizimining nihoyatda mukammal tizimga egaligi ularning ko'pjihatlilik xususiyatlarida namoyon bo'lish bilan birga, usullarning atama tizimida ham ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. “Yuqorida aytib o'tilgan maqomlarda bir xil ism bilan atalgan kuy yo'llarining lad asosi va kuy mavzulari boshqa-boshqa bo'lsa-da, doyra usuli bir xil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Demak, ularning Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas kabi nomlar bilan atalishiga sabab, dastlab ulardagi bo'lgan usul birligidir.”<sup>12</sup>










Shashmaqomda nomlangan Ufar sho'balaridan tashqari Ufar baxrli taronalar ham mavjud ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin bular:

11 Rajabov I. "Maqomlar" T.2006. (165 b)

12 Rajabov I. "Maqomlar" T.2006. (165 166 b)



### Shashmaqomning nasr bo'limi birinchi guruh sho'ba taronalaridagi ufar usullari


	Saraxbori buzruk tarona I =100, III =104; Saraxbori Dugoh tarona IV =96; Orazi Dugoh tarona I =84; Saraxbori Segoh tarona II =84-88, III =88-92, Saraxbori Iroq tarona III =92-96.
	Soraxbori buzruk tarona II =112.
	Uzzol taronasi =108.
	Saraxbori Rost tarona IV =104-108.
	Nasri Ushshoq tarona =96; Saraxbori Segoh tarona V =96.
	Nasri Ushshoq tarona II =108.
	Gulyor-u Shaxnoz =54; Dugoh husayniy suporishi =104.
	Nasri Bayot tarona I =116; Bozurgoniy =120-126.
	Orazi Navo tarona I =108; Bayoti Sheroziy II =96-



	100; Dugoh huayniy IV =92. tarona III =92.
	Bayot II =96-100.
	Oromijon =96-100 (Dugoh).
	Chorgoh II =80.
	Saraxbori Segoh tarona V-VI =100-104.
	Nasri Segoh tarona =92.
	Gul Uzorim (segoh) =116.
	Saraxbori Iroq tarona IV =104; tarona 5 =96-100; Muhayri Iroq tarona III =104.
	Saraxbori Iroq tarona VI =100-104;
	Muhayyari Iroq tarona I =92.
	Hush kelding (bozurgoniy varianti) =84-88.

Shashmaqom tarkibidagi Ufarlar Shashmaqom nasr bo'limining birinchi ikkinchi guruh sho'balari yakunlovchi qismlari hisoblanadi. sho'x usul, Shashmaqomda jonliroq ijro etiladigon qism va yakuniy qismlarning nomi.

Ufari Uzzol




Ufari Ushshoq




Ufari Bayot



Ufari Chorgoh



Ufari Segoh




Ufari Iroq



Usullar ham jonli jarayon hisoblanadi. Shu bois ijro paytida sozanda tomonidan turlicha sayqallanishi, turlanishi mumkin. Usullarning turlanishi mumtoz, ya'ni maqomlar ijrosida nisbatan kamroq kuzatiladi. Lekin ijro amaliyotida ular mislsiz darajada sayqallanadi, badihaga uchraydi. Odatga ko'ra usullar ijro paytida ikki yo'nalishga hos tarzda turlanadi. Birinchisi doyra yakka ijrochiligida, ya'ni o'xshash usullar o'ziga hos bir tizimda ijro etiladi. Buni yakkaxonlik deymiz. Asar mohiyatiga qarab turli sayqallar bilan bezaklanadi va dinamik rivojga erishiladi. Keyinchalik 1930-yillarda "O'zbek davlat musiqali teatri" nomini olgan gastrol gruppasi qatnashchisi Usta Olim Komilov Moskvada o'tkazilgan butun ittifoq xalq ijodiy olimpiadasida bir qator raqsbob turkumlar orasida Ufar xarakterli kuylar ham bo'lganligi Ufarlarning milliy ruxdagi quvnoqlik, sho'x kuychan, raqsbob ekanligidandir. Olimpiadada "Daromadi gul o'yin", "Ufari soxta", "Katta o'yin" kabi o'yinlarni doyrada ijro etgan.

Ijrochilik amaliyotida Ufar usulining yigirmadan ortiq ko'rinishi (metro ritmik formulalari) mavjudligini qayd etish lozimdir. Albatta, vazmin Ufarlar, vohaviy xususiyatiga ega Ufarlar, mumtoz Ufarlar, o'ynoqi Ufarlar va xokazo. Ular bir tizimga jamlanganida quyidagi manzaraning guvohi bo'lamiz:



5)

6)

7)

8)

9)

10)

11)

12)

13)

14)

15)

16)

17)

18)

Qayd etish joizki, har bir Ufar muayyan usul sifatida o'z o'rni, xarakteri, ritmik formulasi, sur'ati va xususiyatiga ega. Ularning ijroda qo'llanish qonun qoidalariga o'rni bilib, sura'tini har tomonlama asar, ijro, muhit va vazifalaridan kelib chiqib va ularga amal qilinsa ayni muddao bo'lardi.

Avvalo qayd etish kerakki har bir asar o'zining xarakteri asosida muayyan usul formulasi va talqin mezonlariga egadir. Ijro amaliyotida shunga asoslanish bilan birga variantlarini tanlash va talqinda turli usullarni qo'llash imkoniyatlaridan keng foydalanishadi. Lekin mumtoz, ayniqsa maqomlar ijrosida qoidalarga rioya qilinishi talab etiladi buni biz usullarning o'ziga qarab ilg'ab olishimiz mumkin. Ufar usullar o'z xarakteriga qarab ham ijro amaliyotida janrlar yo'nalishlariga xos o'zgarishlarga uchrashini ko'rish mumkin.

Barcha usullar kabi Ufarlar ham ayrim manbalarda o'ziga xos tarzda o'rganilgan. Jumladan, Abdurauf Fitrat o'z tadqiqotlarida faqat Talqin, Nasr, Savt, Mo'g'ulcha kabi sho'balarning doyra usuliga moslashtirilgan varianti bo'lganligi uchun alohida qismga ajratilmay Maqomlarni ikki bo'limga Mushkilot, Nasr bo'limlariga ajratib ko'rib chiqadi. Usullarning 17 namunasini keltiradi.

Ufar – lug'aviy ma'nosi hozircha aniq emas. Hozirgi nota kitoblarida suporishlar ko'pincha ufarlarga qo'shib yuborilgan. Ularni alohida berilsa aniqroq va durustroq bo'lar edi. Shashmaqom ashula




bo'limining birinchi qismidagi Ufarlar Nasrlar asosida ishlangan ularni ma'lum ritmik va melodik variatsiyasidir.

Buzrukda: Ufari Uzzol,  
 Rostda: Ufari Ushshoq,  
 Navoda: Ufari Bayot,  
 Dugohda: Ufari Chorgoh,  
 Segohda: Ufari Segoh  
 Iroqda: Ufari Muhayyari Iroq

Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan manbaalarda Ufar ma'lum doyra usulining nomi ekanligiga urg'u beriladi. Xalq orasidagi Ufarlar maqomlardagiga nisbatan yengilroq ijro etilishi qayd etiladi. Masalan quyidagicha ritmik formulalardagi Ufarlar: takt ritm o'lchovi 3\4; va 6\8.

Ufarlar nisbatan yengilroq ijrosi sabab odamda hushchaqchaqlik, hushkayfiyat paydo qiladi. Ashulachilar va o'yinchilar jo'rligida ham ijro etilgan shuning uchun ham ba'zi musiqashunoslar Ufarlarni Shashmaqomning o'yin qismi deb ham hisoblaganlar. Shashmaqom ashula bo'limining I qismi shunday tartibda Saraxbor – Taronalari – Suporish – Talqin – Suporish – Nasr – va ularning Taronalari – Ufarlar bir butun xolatda ijro etiladi. Ufarlar keng variantlilik xususiyatiga egadir. Misol tariqasida juda ko'p namunalarni keltirish mumkin. Bulardan biri Farg'ona-Toshkent yo'llaridan Abduraxmonbegi II, Ufari Buzruk maqomidagi Savti Sarvinoz Ufarining yengilroq varianti ekanligidir. Umuman olganda Shashmaqom variantlilik xususiyatiga boy katta turkum deb baholasak, tabiiyki Shashmaqom tarkibiga kiruvchi Ufarlar ham bundan mustasno emas. Ufarlar muayyan usul sifatida o'z o'rni va jozibasiga ega. Ularning ijroda qo'llanish qonun qoidalari mavjud va shunga amal qilinsa ular kuy bilan hamohanglikni to'g'ri va to'la tashkil qilib o'z xususiyatlarini namoyon etadi.

Har bir usulni o'nlab turlarini ijro etish odat tusiga kirgan. Buni usullarning jilvalanishi deb ham tushunish mumkun. Chunki har bir usulni kuchli hissalarining almashinishi, kuchli va kuchsiz zarblarning turlanishi va maydalanishi hisobiga har bir usulning bir qator namunalari shakllanadi. Masalan: Ufar usulining amaliyotda



yigirmadan ortiq jilvasini kuzatish mumkun. Zamonaviy jarayonda esa buni yanada ko'paytirishga imkon bo'layotganligini qayd etish mumkin.

Xalq usullarini ramziy manoda uch qismga bo'lish mumkin.

1) Asl xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan holda yuzaga kelgan va milliy qadriyatlar bilan sug'orilgan haqqoniy usullar.

2) Mumtoz usullar.

3) Ijod etilgan usullar.

Quyida biz Raxmatilla Samadov o'zining "Zarblar xazinasini" o'quv metodik qo'llanmasida jamlangan "Terma usullar tarkibiga kirgan usullar sharhi" to'plamidan o'rin olgan usul namunalardan Ufar nomlilarini keltiramiz. Jumladan:


– Ufari Chapandoz 1-misol – Ufar usulining teskari zarb bilan kelishi. Ya'ni, avval nisbatan kuchli xissa, keyin kuchli xissaning navbatma-navbat kelishiga aytiladi. Ufari Chapandoz deganda Ufarni (teskarisi) chappasiga terib ijro etish tushuniladi. Nota namunasida quyidagicha ko'rinishga egadir. Raqs san'atida Ufar mayda qadam bilan yurish ma'nosida ham ishlatiladi. Misol № 1




– Ufari Soxta 2-misol – terma usullarda keltirilgan soxta ufarning asosiy Ufardan farqi bir meyordagi Ufarning o'rniga teskari zarblar bilan ifoda etiladigan Ufarlarning kelishidir. Usulning ijrosi nomlanish ma'nosidan ham bunga ishora qiladi va buni tushunish u qadar qiyin emas. Misol № 2



– Ufari Soxta Rezi 3-misol – soxta ufarning ko'rinishlari qay darajada jilvalansa, rezda ham mayda zarblar bilan ifodalanishidir. Misol № 3



Fikrni muxtasar qilib shuni aytib o'tish joizki, o'zbek xalq va mumtoz musiqa merosi darhaqiqat, an'analarga boy va rang-barangligi bilan mukammal va murakkab tizimni tashkil etadi. Musiqiy meros



tarkibidan o'rin olgan har bir asar, har bir usul, har bir janr o'zining muqum o'rniga, xarakteriga, badiiy obraziga va shakliga egaligi bilan xarakterlanadi. Usullar tizimning o'zi bir butun jarayon ekanligiga amin bo'ldik. Bu jarayonning tarkibidan o'rin olgan Tasnif, Tarje' yoki Saraxbor, Talqin – har biri alohida usul va tazim tarkibining alohida majmuidir. Ya'ni, bular turkumning tarkibiy bo'lagi bo'lsa, ikkinchidan alohidalikka ham da'vogaridir. Shuning uchun har bir asar ko'pjihatlilik xususiyat kasb etishini e'tirof etish lozimdir.

Musiqiy meros tarkibidan o'rin olgan ufarlar (usullar), betakrorligi, ko'pjihatliliigi, turlarga boyligi, rang-barang jilolanishlari bilan boshqa usullardan farq qilishi aniqlandi. Ijro amaliyotida ufarlarning 20 dan ko'p namunalari mavjudligi va amaliyotda keng qo'llanilishi fikrimizning dalilidir. Bunga ufarlarga xos bo'lgan quyidagi jihatlar sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas:

1. ohistalik, soddalik va vazminlik;

2. jonli, yurg'izilgan, o'ynoqi


3. vohaviy xususiyatga ega va x.k

Ushbu xususiyatlardan kelib chiqqan xolda Ufarlar turlanishi va guruhlarga ajratilishi mumkin. Masalan: oddiy, sodda, murakkab, vazmin, sho'x va x.k.; sur'atga asoslanib, tez va sekin qilish, jilo beradigan sayqallarga asoslanib; usulning kuchli hissalarini o'zgartirishlarga tayanib Ufarlar turlanadi va turlanish jarayonida o'zining xarakterlovchi ahamiyat ham kasb etadi.

Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan manbaalarda Ufar ma'lum doyra usulining nomi ekanligiga urg'u beriladi. Xalq orasidagi Ufarlar maqomlardagiga nisbatan yengilroq ijro etilishi qayd etiladi. Masalan quyidagicha ritmik formulalardagi Ufarlar: takt ritm o'lchovi 3/4 va 6/8.

Raqs san'atida Ufar mayda qadam bilan yurish ma'nosida ham ishlatiladi. Misol tariqasida Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobida "Ufari Chapandoz" nomli Ufar usuli namunasini keltirganmiz.

Avvalo qayd etish kerakki, har bir asar o'zining xakteri asosida muayyan usul formulasi va talqin mezonlariga egadir. Ijro amaliyotida shunga asoslanish bilan birga variantlarini tanlash va talqinda turli usullarni qo'llash imkoniyatlaridan keng foydalanishadi. Lekin mumtoz, ayniqsa, maqomlar ijrosida qoidalarga rioya qilinishi talab



etiladi. Ufar usllar o'z xarakteriga qarab ham ijro amaliyotida janrlar yo'nalishlarga xos uchrashini ko'rish mumkin.

Masalan: Shashmaqomning ashula bo'limlaridagi Ufarlar; Savt va Mo'g'ulchalar - II sho'balarida keladigan ufarlar; Xalqchil, o'ynoqilik va jozibadorlikning ehtimoli ko'proq kuzatiladigan namunalari; Surnay kuy yo'llarida ko'proq foydalaniladigan Ufarlar namunalari va h.k.


Ufarlarning Shashmaqomdagi o'rni va vazifasi yakunlovchi vazifa bajarish bilan xarakterlangan. O'rganilgan Ufarlar o'ziga xos jozibasining ohangi mag'zi, timsollarda namoyon bo'lgan. Har bir Ufarlar o'z jozibasiga muayyan metro-ritmik rang-baranglik va umumiy jihatdan yagona formulaga yakdillanuvchi (birlashuvchi, barqarorlashuvchi) xususiyatga ega. Ushbu xususiyat asarning xarakteri, maqsadini, vazifasini aniqlashga hamda timsol jozibasini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shashmaqom yuzaga kelib, shakllangan davrdan buyon bir joyda qotib qolmadi. Takomillashib sayqallanib, talab va sharoit taqazosi bilan boyitilib, avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Muhimi ijodkorlar uchun ijod manbai sifatida qadrlanib ekanligi va mukammalligini namoyon etib kelmoqda. Ufarlar talqini qanchalar turlanmasin, ijodiy badihaviyligi negizida ularning zabardastligi hamda vazifasi xarakteri jihatdan juda o'rinli muhim timsol ekanligi o'z ahamiyatini isbotlab kelmoqda. Ufar usullarini kompozitor va bastakorlar ijodida milliy mumtoz musiqa merosidan iqtibos qo'llanilishini solishtirish ishlari musiqashunoslar tomonidan olib borilgan va amaliyotga nazariy tahlili bilan tadbiiq etilib kelinayotganligi fikrimizning dalilidir.

Bugungi kunda tarbiyalanib kelayotgan yosh barkamol avlod erishilgan yutuqlarga tayanib, hozirgi jonli an'analarni, shu jumladan ufarlarni ham o'tmish musiqa risolalarida qayd etilgan nazariy qarashlar bilan qiyosiy o'rganish e'borga loyiqqligini e'tirof etish lozimdir. Qayd etish joizki, milliy mumtoz musiqa merosimimiz sanalmish Shashmaqom – nafaqat o'tmish madaniyatini ifodalovchi qadriyat, balki bugungi ijodiy intilishlarga ilhom bahsh etuvchi va ayni chog'da istiqbolga intilgan ma'naviy qudratdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent. 1997.
2. Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi Toshkent: 2008.



3. Виноградов В.С. Классические традиции Иранской музыки.

4. Гафурбеков Т. Фолклорные истоки узбекского профессионального творчества. Тошкент: "Ўқитувчи", 1984.

5. Джами Абдурахман. Трактат о музыке. /Пер. С перс. А.Н.Болдырева. коммент. В.М.Беляева. Тошкент. 1960.

6. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2004.

7. Ibn Sino Abu Ali. Javomi' il mul-musiqiy. Qohira, 1956.

8. Ибрагимов О.А. Фергано-ташкентские макамы. Ташкент 2006 г.

9. Ibrohimov O. Maqom va makon. Toshkent: 1996.

10. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent: 1997.

11. Ikromov I. Lutfullaev A. Doyra. Toshkent: 2012.

12. Yo'ldoshev A. Doyra jilolari. Toshkent: 2010.

13. Коваль Г.Л. Интонирование Узбекской традиционной музыки. Ташкент: "фан", 1990 г.

14. Кароматов Ф.М. О локальных стилях Узбекской традиционной музыки. М., 1964 г.

15. Kamolxo'jaev A. Liviev A. Doyra darsligi. Toshkent: 1985.

16. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent: "Musiqa", 2004.

17. Matyoqubov O. Og'zaki professional musiqa asoslariga kirish. Toshkent: "O'qituvchi", 1983.

18. Mamadaliev Fattohhon. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2001.


19. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent: 1998.

20. Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1995.

21. Oyxo'jaeva Sh. Maqom taronalari. Toshkent. 2011.

22. Rajabiy Yunus. Muzika merosimizga bir nazar. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978.

23. Rajabiy Yunus. Shashmaqom. Toshkent. 2007.




24. Marufjon, R. (2022). A Matter of Rhythm in Oriental Classical Music. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(6), 80-84.

25. Rasulov, Ma'rufjon Mamiirjon O'g'li, and S. M. Begmatov. "Maqomlarda usullar o'rni va ahamiyati (farg'ona toshkent maqom yo'llari usullari misolida)". *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 810-821.

26. [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=UZ7Sh6oAAAAJ&citation\\_for\\_view=UZ7Sh6oAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UZ7Sh6oAAAAJ&citation_for_view=UZ7Sh6oAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)

27. Rasulov M. M. O'., Begmatov S. Maqomlarda usullar o'rni va ahamiyati (Farg'ona Toshkent maqom yo'llari usullari misolida) //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 810-821.



## O'ZBEK MUMTOZ MUSIQAMIZNING OMMALASHISHI: "SHASHMAQOMNING NASR BO'LIMI BIRINCHI GURUH SHO'BASI SARAXBORI DUGOH MISOLIDA"

*Nodira HAYDAROVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Soibjon BEGMATOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI professori, s.f.n.,  
O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori.*


**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda mumtoz musiqa san'atimizning rivojiga qaratilayotgan e'tibor, nomoddiy madaniy meros sifatida qarorlar qabul qilinishi, maqomlarning turli yo'nalishdagi faoliyatlari va tor doiradan bosqichma-bosqich keng doiraga o'tayotgani, amaliyotdagi natijalarining sarhisobi Shashmaqomning Saraxbori Dugoh asari misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** maqom, mumtoz musiqa, qaror, dunyo sahnalari, xonanda, havola, YouTube, QR kod, ommalashish, Saraxbor, Dugoh, Nasr, ijrochi, mahorat.

**Аннотация:** В статье анализируется внимание, которое сегодня уделяется развитию нашего классического музыкального искусства, принятие решений как нематериального культурного наследия, деятельность макомов в различных направлениях и постепенный переход от узкого круга к широкому, обобщение результатов практики пример работы Сарახбори Дугох Шашмакома.

**Ключевые слова:** маком, классическая музыка, решение, мировые сцены, ссылка, певца, YouTube, QR-код, популярность, Сарახбор Дугох, Наср, исполнитель, мастерство.


**Abstract:** The article analyzes the attention paid today to the development of our classical musical art, decision-making as an intangible cultural heritage, the activities of makoms in various directions and the gradual transition from a narrow circle to a wide one, generalization of the results of practice, an example of the work of Sarakhbori Dugoh Shashmakom.



**Keywords:** *maqom, classical music, solution, world scenes, link, singer, YouTube, QR code, popularity, Sarakhbor Dugoh, Nasr, performer, skill.*


Maqom san'ati o'zining tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqomlarimiz asrlar davomida yetuk shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli hamda samarali mehnati, ijodiy tafakkuri o'laroq noyob san'at sifatida sayqal topib kelgan. Ushbu jarayonning barhayotligi esa ijrolarning yangilanib, ijod qilib borilishi bilan bog'liqdir. Ilk bor VII-VIII asrlarda xalq musiqasi negizi va mahalliy professional ijrochilik an'alarining rivoji yirik turkumli janrlar shakllanishiga olib keldi. Jumladan, Borbod ijodiga mansub "Husravoniy" turkumi [1. 11 b.]. IX-X asrlarda maqomsimon cholg'u va ashula –cholg'u asar va turkumlar rivojlandi. XI-XIII asrlardan boshlab, to XVII asrgacha Yaqin va O'rta Sharqda "Duvozdagmaqom" – 12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliyotida qo'llangan. XVIII asrda Buxoroda yangi turkum – "Shashmaqom" uzil-kesil shakllandi. XIX asrda "Xorazm maqomlari" turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga keladi. Keyinchalik "Shashmaqom" va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi uslublari va ko'rinishlari zamonaviy talqinda rivoj olgan bo'lsa, XX asrda maqomchilik san'ati rivojlanib, yetuk sozandayu xonandalar va bastakorlar ijodi va repertuarlaridan o'rin oldi. Ular zamonaviy nota yozuvlari orqali to'plamlar sifatida nashr etildi, ularni nazariy va amaliy o'zlashtirish ishlari amalga oshdi.

Ushbu san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. 2003 yil noyabr oyida "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb tan olindi. 2008 yilda esa umumjahon Reprerentativ ro'yxatiga kiritildi. O'tgan tarixiy davrda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. O'zbek "Shashmaqom"i nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'lgan.



Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, 2020-yildan Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini muvofaqqiyatli boshlagani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim.


Milliy musiqa an'analari yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislarining, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Zikr etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilish zamon talabidir. Davlatimiz raxbari Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 17-noyabrda PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining davlat muassasasi shaklida O'zbek milliy maqom san'ati markazi (keyingi o'rinlarda — Maqom markazi) faoliyatini tashkil etish haqidagi taklifi ma'qullansin"[9] – deya maqom san'atining rivoji, targ'iboti yo'lidagi amallarga keng yo'l ochib berdi. An'analarni targ'ib qiluvchi markazning maqsadlariga - o'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar an'analari, buyuk bastakorlar, hofiz hamda sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash, targ'ib qilish, xalqimizni musiqiy merosimizning eng go'zal an'alaridan bahramand etish, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kamol toptirish kabi qator vazifalar kiritilgan. O'zbek milliy maqom san'ati markazi tarkibida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli faoliyat olib bormoqda. Dastlab professional maqom ansambli folklorshunos, O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy tomonidan 1959 yili tashkil etilgan. Ansambl tomonidan 1960-1962 yillarda "Shashmaqom"



va "Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari" turkumlariga kiruvchi cholg'u va asosan, ashula yo'llari ilk bor gramplastinkaga yozila boshlangan va nashr etilgan. 1976 yilda ansambl rahbari, akademik Yunus Rajabiy vafotidan so'ng O'zbekiston xalq artisti Orif Alimaxsumov, O'zbekiston san'at arbobi Shavkat Mirzayev, O'zbekiston xalq artisti G'anijon Toshmatov, O'zbekiston xalq hofizi Isroil Vahobov unga rahbarlik qildi. Ayni paytda ansambl rahbari — O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov. Maqom ansambli a'zolari shu kunga qadar bir necha chet mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, o'z konsert dasturlarini namoyish qilib kelgan. Uzoq yillar davomida bu dargohda yetuk xonanda va sozandalar xizmat qilgan.

2018 yil ilk bor Shaxrisabzda "Xalqaro maqom san'ati anjumani" o'tkazildi va har ikki yilda muntazam anjuman o'tkazilishi davom etishi rejalashtirildi. Tadbir doirasida "Maqom musiqa san'atining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya, jahon va O'zbekiston maqomot san'ati ustalarining yakka konsertlari, maqom ansambllari, xonanda va sozandalarning ko'rik-tanlovi, sayillar, mamlakatimizning dunyoga mashhur shaxslari hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida zamonaviy va kreativ usulda sahnalashtirilgan dastur namoyishlari, maqom san'ati tarixiga oid ko'rgazma, o'zbek, fors, arab, ingliz va rus tillarida nashr etilgan ilmiy asarlar hamda ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar namoyishi san'atning keng doiraga targ'ibotida yetakchilik qilib kelmoqda.

O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etuvchi maqom yo'nalishlari - yalla (maqomot janri asosida yaratilgan yallalar), katta ashula, Buxoro "Shashmaqomi", "Xorazm maqomlari", Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari kiradi. [8] Ijtimoiy tarmoqlardagi erkinliklarga, axborotlar va ma'lumotlarning jadal ommalashayotganiga qaramay, zamonning texnik imkoniyatlaridan mutaxassislar yetarli darajada foydalanmayotgani ayniqsa yosh avlod soha vakillari uchun katta nuqson desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz yetuk ajododlarimiz bilan faxrlanishdan tashqari, bo'lajak avlodni tarbiyalashda ularga tatabu qilishimiz kerak. Vaholangki XIX-XX asrlarda ijod qilgan bastakorlarimizga bugungi avlod ijodkorlarini ijod qilish va ijod mahsulini ommalashtirish imkoniyatlarini solishtirsak ulkan tafovut borligini kuzatamiz. Maqomlarimizning turli shakl, ijro yo'llarini erkin ommalashishida yetarli darajada kamchiliklar mavjudligi mutaxassislar



sust harakatlanishidan dalolat xolos. Maqom san'ati dargohida yurgan ko'plab ijrochilarimiz esa, ijtimoiy tarmoqlarda professional ijrochilarni kuzatuvchilarga yetkazish o'rniga havaskor ijrochi kabi (aksariyat hollarda gitara jo'rligida) turli ommabop qo'shiqlarning noprofessional ijrochilarini tarmoqlarga joylash bilan mashg'uldirlar. Birgina Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutining zalida deyarli barcha tadbirlarida maqomlardan ijrochilar dasturga kiritiladi. Asar nomi, ijrochisi kabi muhim ma'lumotlar bilan turli ijtimoiy kanallarda yoritilsa, xalqimizning ma'nan didli tinglovchi bo'lib tarbiyalanishiga ham oz bo'lsada hissa qo'shishi mumkin. Bundan tashqari An'anviy xonanda va sozanda bitiruvchilarning ham ijrolari joylanib borsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrlarni yozishdan yagona maqsad maqom san'atini dunyoga emas, avvalo o'z xalqimizga ommalashtirish va targ'ib qilishni jadallashtirish, mumtoz musiqa ohanglarini xalq ongiga singdirishning ayrim usullari haqida munosabat bildirishdir.

"Dugoh" maqomi badiiy asar sifatida o'ziga xos shaklga ega. Parda tizimi sifatida u to'rtta Dugoh, Chorgoh, Oraz va Xusayniy parda tizimlarini o'z ichiga oladi.[3. 70 b.]

Shashmaqom nasr bo'limidagi Saraxbori Dugoh ijrosini turli jabhalardan izlaganda - shu soha ijrochilari, O'zbek milliy maqom san'ati markazi radio arxivi, musiqaga oid kanallarda mavjudligini kuzatish mumkin. Saraxbori Dugoh youtube video hostingida ilovada keltirilgan havola va QR kod bilan kiritilgan jadvaldagi ro'yhat aniqlandi. Aniqlangan yozuvlarning barchasi ham video ko'rinishida emas. Bular 1968 yil Maqom kechasida yozib olingan audioyozuv Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli ijrosi hamda Raxmatjon Qurbonov ijrolari ularning suratiga yozilgan yozuvdir, kuzatuvchilari ham turli raqamlarda ifodalangan. Kelgusida ushbu jadval nafaqat Saraxbori Dugoh maqomi misolida balki, barcha mumtoz musiqa merosimizning ko'plab video, audio yozuvlari misolida xalqimiz hamda dunyo bo'ylab tinglovchilar e'tiborini jalb etishiga shubha yo'q.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. -T.: "Niso poligraf" 2017.



alohida meros qoldirgan san'atkorlardan biridir. Darhaqiqat, maqom ilmi va amaliyotini puxta egallagan xonanda, o'z ijodiyoti davomida zabardast hofizlar ta'limini olib, zamonasining yetuk xonandalari qatoridan munosib o'rin oldi. O'ziga xos ijro uslubi bilan ijroda, ustozshogird mezonida, talqinda ovoz va cholg'uning go'zal uyg'unligiga erishishga muvassar bo'ldi.

Firoq anduhida qadam qo'ydi Adam sari,

Topolmassiz ayo, do'stlar mening nomu nishonimni.

*Mahmudjon Tojiboyev*

M.Tojiboyev yoshlikdan musiqiy muhitda ulg'ayib, bobosi Davronboy hofiz qo'llarida ilk musiqiy sabog'ini o'zlashtirgan. Keyinchalik esa Quva shahridagi Bolalik qayrag'och qishlog'ining mashhur hofizlaridan Egamberdi Mamatov, Solijon va Ibrohimjon Umarov, Xasan Rahimovlardan milliy mumtoz ashulalarni o'rganadi. Ma'lum vaqtdan so'ng Toshkent madaniy oqartu texnikumiga o'qishga kirib, u yerda ilk musiqa savodini oladi. Tehnikumda o'qib yurgan kezlarda turli xil kontsertlarda faol qatnashdi. Ana shunday kontsertlarning birida musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulla Karomatov e'tiboriga tushadi.

Keyinchalik musiqashunos olimning taklif va yordami tufayli M.Tojiboev Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kiradi. U yerda hofizlik an'analarini ustozlar Orif Alimahsumov, Fattohxon Mamadaliyevdan, sozandalik sirlarini betakror ustoz Turg'un Alimatovdan, ansambl ijrochiligi mahoratlarini esa Shavkat Mirzayevdan o'zlashtiradi.

1984-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlab, O'zRadio qoshidagi maqomchilar ansamblida yakkaxon xonanda sifatida o'z ish faoliyatini boshlaydi. Ansamblda M.Tojiboyev ko'plab ustozlar qatorida O'zbekiston xalq hofizi Ochilxon Otaxondan saboq olib, 17 yil davomida shogird bo'lib yonida yuradi. Yosh hofiz bilan bu zabardast buyuk ustozning munosabatlari ustozshogirdlik darajasidan ham ziyoda bo'lgan. Ulardan nafaqat maqom ijrochilik sirlarini balki, ma'naviyatni, insoniylikni o'rganadi. O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Xotamovdan esa nuqtadonlik va musiqa ilmini o'rganadi. Mahmudjon Tojiboyev o'zining ilk ijrochilik qadamlarida ularning yaratgan asarlaridan biri "Bu oqshom" ashulasini o'rganib, radioga yozadi va asarning ilk ijrochisi sifatida xalqqa taqdim etadi. Xonanda ijrosidagi



mazkur ashula keyinchalik o'ziga xos mashhurlikka erishib, xalq orasida ommalashib ketadi. Sababi yetuk hofiz asarni ustoz Orifxon Xotamov ko'nglidagidek maromiga yetkazib ijro etgan edi [1].

M.Tojiboev ustoz Orifxon Xotamovning mehri va ishonchini shu darajada qozongan ediki, betob bo'lib yotgan paytlarida Orifxon Xotamov ustoz Jo'raxon Sultonovdan qolgan ashulalarni va o'zi bastalagan barcha yangi asar namunalarni ijod ahliga qolaversa yosh avlodga yetkazishni ularga ishonib topshirib ketgan ekanlar. Sozandalik borasida esa ustoz T.Alimatovning e'tirofiga sazovor bo'ladi [2].

M.Tojiboyev hofizlik an'analarini maqom ijrochiligining zabardast hofizlari Hamroqul Qori, Mamatbuva Sattorov, Komiljon Otaniyozov, Yunus Rajabiy, Ortiqho'ja Imomho'jaev, Jo'raxon Sultonov, Mamurjon Uzoqovlarni o'ziga g'oyibona ustoz deb bilib, ularning ijro yo'llarini ham mukammal o'zlashtiradi.

Xonandaning maqom ansamblidagi faoliyati rosmana e'tirofga loyiqdir. Avvalo ustozlar bilan hamnafaslikdagi ijodi bo'lsa, ustozlardan o'rganib oltin merosga qoldirgan yozuvlari alohida ahamiyatga egadir. Ansambl bilan birgalikda Osiyo, Amerika, Yevropa va Shimoliy Afrika mamlakatlarida gastrollarda bo'ladi. Ijrochilikda erishgan yutuqlarining samarasini 1987 yilda Y.Rajabiy nomli Respublika Yosh maqom ijrochilari tanlovida g'oliblikka erishib san'atini namoyon etadi. Shu bilan birga o'zining ijro repertuarini bir qator mumtoz asarlar bilan boyitadi.

Jumladan: "Saraxbori Navo", "Saraxbori Dugoh", "Mo'g'ulchai Segoh", "Navro'zi Sabo", "Nimcho'poniy"; Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan "Dugoh Husayniy", "Chorgoh", "Ushshoq", "Shahnozi Gulyor", "Bayot"; katta ashula namunalaridan "Yovvoyi Chorgoh", "Yolg'iz", "Ey dilbari jononim", "Bog' aro"; mumtoz ashulalardan "Topmadim", "Asiriy" va "Adoiy", "Chorzarb", "Bozurgoniy" kabi asarlarni keltirish mumkin.

Xonanda 15 yildan ko'proq vaqt davomidagi va Maqom ansamblidagi faoliyati rosmana samarali, barakali va albatta xayrli bo'lganligi uning keyingi ijodiy faoliyatida o'z samarasini namoyon etadi. Bu albatta bevosita Oliy ta'lim jarayonida olib borgan faoliyatlar bilan bog'liqdir. Mahmudjon Tojiboyev ko'p yillik amaliy faoliyatdan so'ng Toshkent davlat konservatoriyasida pedagogik



faoliyatini boshlaydi. 2000 yildan esa konservatoriyasi dotsenti o'zbek milliy musiqa san'ati rivojiga qo'shgan samarali hissasi, ijodiy va amaliy izlanishlari davlatimiz tomonidan yuksak baholanib O'zbekiston xalq hofizi faxriy unvoni bilan taqdirlanadi.

Umrining so'nggi kunlarigacha bu dargohda Ustoz o'z shogirdlariga xonandalik ilmidan, musiqa cholg'u ijrochiligidan qolaversa, adabiy merosdan ham saboq berib, professional xonanda, sozanda va maqom nazariyotchilarini tarbiyaladilar.

Ustozning konservatoriyadagi faoliyatlarini 6-7 yo'nalishda olib borganliklarini qayd etish lozimdir. Bular maqom xonandaligi, (yakka va jo'rovozlik), sozandaligi, pedagogik, dramaturg, bastakorlik va maqom matnlarini sharhlovchisi kabi yo'nalishlardir. Bu yo'nalishlarning barchasi maqom san'ati ijodiyoti, ijrochiligi va ta'limoti uchun eng muhim bo'lgan jihatlar ekanligini e'tirof etishimiz mumkin:

Maqom xonandaligi, (yakka va jo'rovozlik) Ustozning hayotidagi asosiy kasbi va bu kasb bilan elga tanildi, ustozlar o'gitlarini o'zlashtirib, maqom, bastakorlik asarlari va o'zining yaratgan asarlarini ijro etib, shogirdlarga o'rgatib ulkan meros qoldirdi. Xonandalikni yakka ijrochiligi – hofizlik va hamnafaslik an'alarini qayta jonlantirib xalqimizga yosh, lekin rosmana elimizni qadrlab ushbu an'anani davom ettira oladigan bir qator yosh xonandalarni hamnafas sifatida tarbiyalab yetishtirdi.

Xususan biz bilamizki, XX asr oxirgi chorak davridan hamnafaslik ijro uslubiga e'tibor kamaydi. Bu muammoni ustoz ta'lim jarayonida tiklash o'rnliligini pedagogik faoliyati bilan namoyon etdi. Ustoz o'z shogirdlari orasida Shashmaqom ilmi va ijrochilik an'alarini mukammal idroklash, musiqiy merosga ijodiy yondashish kabi hofizlik an'alarini shakllantirishga katta e'tibor qaratib, o'sha vaqtda yo'qolib borayotgan "Hamnafaslik" an'anasini qayta tiklaydi. Bu yo'lda zabardast hamnafas ustozlar Mamatbuva Sattorov – Jo'raxon Sultonov, Jo'raxon Sultonov – Mamurjon Uzoqov, Orifxon Xotamov – Hakimjon Fayziyev kabi ustozlar maktabidan o'zlashtirganlarini o'zlari ham amalda ko'rsatib bir qator asarlarni ijro etishga muvaffaq bo'ldilar. Ustozlar Mahmudjon Yo'ldoshev, ilk shogirdlaridan Erkin Ro'zimatovlar bilan hamnafaslikda bir qator maqom namunalarini va katta ashulalar ijro etib radioning oltin fondiga muhrlaganlar.



Mazkur an'anani davom ettirgan holda shogirdlarining ovoz imkoniyatlari va ranglarini, salohiyatini, ya'ni eshitish qobiliyatini, hattoki fel-atvorini bir-biriga to'g'ri keladiganlarini tanlab,

"biring aka biring uka bo'lib, bir-biringizdagi kamchiliklaringizni to'ldirib turasizlar" deb maslahatlar berib, shogirdlar orasida hamnafaslik an'anasini yo'lga qo'yidilar va bir qator hamnafaslarni tarbiya qildilar. Hozirgi kunda Ustoz sabog'ini o'zlashtirgan hamnafaslar O'zbekiston xalq artistlari Furqat Ashuraliyev – Elmurod Ahmedov shuningdek, Respublika miqyosidagi ko'rik tanlovlar g'oliblaridan Akmal Usmonov – Alisher Abdugafirov, Mo'minjon Sadriddinov – Doniyor Nazarov, Alisher Azimov – Xushnud Solijonov, Orifjon Ergashev – Mirjalol O'rinboevlar xalq xizmatida bo'lib, turli dargohlarda o'z faoliyatlarini olib borishmoqda.


Sozandalik sohasida maqom san'atida qo'llaniladigan barcha cholg'ularni mukammal talqiniga erishdilar. Tanbur, sato va dutorda ustoz san'atkor Turg'un Alimatovning shaxsan duolarini olishga erishdilar. Yosh avlodga o'rnak darajasidagi ijro merosini o'rgatib, meros qilib qoldirdilar.

Pedagogik faoliyat ustozning qalbidagi eng oliyhimmat ne'mat sifatida gavdalandi. Buning chekini topish qiyin. Ular ustozning shogirdlari ijrosida mujassamdir. Ular haqida va nomlari maqolaning turli joylarida keltirildi. Bizning nazarimizda ustozning shogirdlari hozirgi davr maqom xonandaligida o'zini yorqin, bilimli ijroni namoyon etayotgan ijrochilar sifatida o'zlarini ko'rsatmoqdalar;

Dramaturg - Ustoz ushbu yo'nalishda ham qalam tebratib, dramaturg Hayitmat Rasul bilan birga "Maqomi Tanho" spektakliga, "Shashmaqom" biddiy va hujjatli filmlariga senariylar yozganlar.

Bu asarlar teatr sahnasini ko'rib, Marg'ilon musiqali maqom teatrida sahnalashtirildi.

Ustozning shoirlikka davosi bo'lmagan, lekin bir qator sermazzun va mumtoz adabiyotimiz an'analari negizida yaxshigina g'azallar yozishga muvaffaq bo'lgan. Ularni ko'pchiligi o'zlari bastalagan asarlarda va yosh bastakorlarning asarlarida qo'llanilgan. Mahmudjon Tojiboyev Kaykovusning "Qobusnoma" asarida keltirilgan hofiz va sozandalik borasida zikr etilgan pand va nasihatlariga amal qilib, o'z davrida azizu mukarram hofiz va sozandalardan bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz.



Bastakorlik ijodiyotida ustoz barakali faoliyat olib borganliklarini alohida qayt etish lozim.

Sababki maqom ijodiyotining zamonaviy ko'rinishlariga mos asarlar yaratganliklari ko'pchilik tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda. Bu borada ustoz tomonidan bir qator turkumiy ashulalar, maqom yo'llarida bastalangan ashulalar, qolaversa, ko'plab milliy estrada yo'nalishidagi asarlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ustoz maqom va maqom yo'llarida ijod etish an'anasini davom ettirgan holda "Nasri Buzruk", "Savti Segoh", "Saraxbori Ushshoq", "Toshkent Iroqi", kabi bir qator turkumiy asarlar va "Tebratma ko'p", "Aylanur", "Barno bo'libsiz", "O'zbekistonim", "Sevmay bo'lurmi sizni" kabi ashulalar yaratishga muvaffaq bo'lgan [3, B.67].


Ijodkorning Yusuf Saryomiy g'azaliga bastalangan Ochilbek Matchanov ijrosidagi "Faryodi

Ushshoq" asari 2020 yili o'tkazilgan Bastakorlar o'rtasida "Maqomlar asosida yaratilgan eng yaxshi asar" Respublika tanlovida 1-o'ringa loyiq deb topildi.

Maqom matnlarini sharhlovchisi – Ustoz adabiyotga ham mehr quygan g'azal bilimdoni sifatida buyuk allomalardan Shams Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Xorazmiy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Huvaydo, Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi barcha mumtoz adabiyotimiz namoyandalarning ijodlarini mutolaa qilish bilan birga ularni idroklab xalqimizga tushunarli holda sharxlab yetkazishda o'z hissasini qo'shganlar [4, B.68].

Fikrimiz dalili sifatida ularning "Zulfing" nomli o'quv qo'llanmasi misol bo'la oladi. Mazkur o'quv qo'llanmada Shashmaqom va mumtoz musiqa namunalarida aytiladigan g'azallar tabdili keltirilgan. Ayniqsa oxirgi uch yil davomida 100 ga yaqin maqom va mumtoz yo'lda yaratilgan bastakorlik asarlarini, mumtoz ashulalarni sharhlab, ijro etib "Video dars" ko'rinishida xalqimizga taqdim etganliklari yoshlar uchun dasturi amal sifatida xizmat qilayotganligini e'tirof etish lozimdir.

Shu qatorda alohida e'tirof etish lozimki, Ustoz nafaqat adabiyot balki boshqa barcha fanlarni ham puxta egallagan va idroklagan bilimdoni bo'lganlar. Bizni nazdimizda ularning ilmi cheksizdek edi go'yo. Xoh koinot falakiyotshunoslik bo'lsin, hox tibbiyot odam anatomiyasi bo'lsin, tabiiy fanlar matematika yoki fizika deysizmi,



hattoki Qur'on oyatlari tavsirini qilib, yoshlarga tushunarli darajada sharhlab, tushuntirib, saboq berar edilar. Biz shogirdlar ularni o'zimizga "Jonli ensiklopediya" deb bilar edik. Ustozning qoldirgan merosi hali ko'p yillar davomida o'rganamiz va saboq olishimiz uchun dasturi amal bo'lishi begumondir.


So'nggi yillarda yurtimizda milliy musiqa, milliy qo'shiqchilik, maqom san'ati rivoji yo'lidagi islohotlardan, yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan ruhlanib, yanada kuch-g'ayrat bilan ishlashga astoydil kirishgan, o'z kasbining haqiqiy jonkuyari, fidoyisi bo'lgan tolmas ijodkor internet tarmoqlarida ham jonli tarzda maqom shinavandalari va yosh avlod vakillari uchun maqom saboqlarini berib kelayotgan edilar. Ammo bu savobli ishlari uzoqqa cho'zilmadi. Sababi 2020-yil 11-iyul kuni to'satdan, og'ir hastaliklari tufayli vafot etdilar.

2021-yil mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida Pezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan marhum san'atkor Mahmudjon Tojiboyev "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandilar. Navoiy tili bilan aytganda "Jomiy-ul fazoil" rutbasiga ega inson ya'ni o'zida yetuklikni, oliyanoblikni, samimiyligni, jamiki yaxshi fazilatlarini o'zida jam etgan inson Mahmudjon Tojiboyev yetuk va buyuk darg'alarning munosib davomchisi edi [5].

Ularning yorqin xotirasi qalblarimizda mangu saqlanadi, haqiqiy san'at jonkuyarlari, maqom shinavandalari va shogirdlari yuragida yashaydi. Ularning tugallanmay qolgan ishlarini biz shogirdlar baholi qudrat davom ettirishga harakat qilamiz!

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Madaniyat va ma'rifat" kanali "Kaftdagi chiziqlar" ko'rsatuvidan. <https://youtu.be/iaflm3K0mDE>
3. Begmatov S. Hofizlik san'ati. T. 2007.
4. Begmatov S. "Hofizlik san'ati. T. 2007.
5. "Hayot notasi" ko'rsatuvidan O'zbekiston xalq hofizi Isroil Vahobov intervyusi. [https://t.me/mahmudjon\\_tojiboyev\\_master\\_klass](https://t.me/mahmudjon_tojiboyev_master_klass)
6. "Navo" kanali "13-studiya" teleko'rsatuvidan [https://t.me/mahmudjon\\_tojiboyev\\_master\\_klass](https://t.me/mahmudjon_tojiboyev_master_klass)



## MAQOM IJROCHILIGIDA G'IJJAK SOZIDA JO'RNAVOZLIK

**Sarvar ALIMOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI*

*2-bosqich magistranti.*

**Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI*

*"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasini mudiri,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada maqom xonandalariga g'ijjak sozida jo'rnavozlik qilish va ijro etish uslublariga oid ko'rsatma dars jarayonini olib borishda yosh sozandalarda ko'nikma hosil qilishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqom xonandaligi, jo'rnavoz, g'ijjak, dars jarayoni, sifatli ta'lim.


**Аннотация:** В данной статье даются наставления исполнителям макамов по стилям аккомпанемента и исполнения гижак соз, направленные на формирование навыков у юных музыкантов.

**Ключевые слова:** макомное пение, чорнавоз, гжжак, учебный процесс, качественное образование.

**Abstract:** This article provides instructions and recommendations for maqam performers on the styles of accompaniment and performance in gijjak. Tips for young musicians are also discussed during the lesson.

**Key words:** Maqom singing, accompaniment, gijjak, lesson process, quality education.

Bugungi kunda yurtimizda juda ko'plab sohalarda yangilanishlar, islohotlar va rivojlanishlar kun sayin ortib bormoqda. Xususan ta'lim sohasida ham bir qancha yangi tizimlar va modullar ishga tushirildi. Amalga oshirilayotgan bunday ishlar albatta O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi hamda bilimli va malakali kadrlar yetishtirishga qaratilgan. Bu borada avvalo davlat siyosatining o'zni bilan bir qatorda soha mutaxassislarining izlanishlari,




amaliyotdagi tajribalar, yangi zamonaviy bilimlarning o'zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlangan yangi 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nom berilishining o'zida insonni e'zozlashga qolaversa talim sohasini yanada takomillashtirishga, ilg'or va sifatli ta'lim tarbiya berishga asosiy urg'u berilganligi davlatimizda ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratilganidan dalolat beradi.

Ma'lumki O'zbekistonda madaniyat va san'at jabhasida ta'lim tizimi ko'p yillik tajribaga asoslangan holda boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim tizimi bo'g'inida tizimli yo'lga qo'yilgan. Bu tizim uzoq yillardan buyon shaklan o'zgarishlarga uchragan bo'lsada, lekin mohiyat va mazmun saqlanib kelmoqda. Ayniqsa so'nggi besh yillikda Maqom san'ati sohasida katta burilishlar ro'y berdi. Alohida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilishi, Raspublika Maqom markazi ochilishi, viloyatlarda ham maqom ansambllari tuzilishi, joylarda maxsus ixtisoslashgan maqom maktablari faoliyat boshlashi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu talim dargohlarida asosiy maqsad etib O'zbek maqomlarining mukammal ijro xususiyatlarini, tub ildizlarini, falsafasini shuningdek uning ilmiy jihatlari o'rganib, tinglovchilarga milliy musiqamizning nodir na'munalarini taqdim etib borishdir. Bu orqali o'zbek xalqining o'ziga hos milliy, madaniy ko'rinishini ochib berishdan iborat.

Maqomlar o'z tarkibiga nihoyatda betakror kuy va ashulalarni jo etgab bo'lib, biri biriga o'xshamas ohanglar inson ruhiyatini oziqlantiradi. Mana necha ming yillarki bu asarlarni ijro etishda inson ovozi hamda turli milliy sozlardan foydalanib kelinmoqda.

Yuqorida keltirib o'tgan ta'lim muassasalarida bugungi kunda Maqom cholg'u ijrochiligi, Maqom xonandaligi va ansambl sinflari maqom ijrochilarini tayyorlashda katta xizmat qilishmoqda. Bu murakkab san'at turi ta'lim oluvchilarga ustoz shogird an'analari, maxsus o'quv rejalar, qolaversa zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatilib kelinmoqda. Bu faoliyatda xonandalarga va sozandalarga dars davomida jo'rnavozlik qilish uzoq yillardan buyon saqlanib kelmoqda. Lekin ming afsuslar bo'lsinki jo'rnavozlik ko'nikmasini o'rgatishga qaratilgan maxsus ta'lim aynan an'anaviy ijrochilik yo'nalishida tizimli yo'lga qo'yilmagan. Jo'rnavozlik kasbi xaxira o'rin sifatida saqlanib qolgan va ayni damda bu yo'nalish



faqatgina sozandalarning yillar muobaynida orttirgan tajribasi va ko'nikmasi o'laroq ravnaq topmoqda.

Ushbu maqolada biz maqom xonandalariga jo'rnavozlik qilish bo'yicha tajribalardan kelib chiqib, jo'rnavozlik sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislariga ko'rsatma va tavsfiyalar berishga xarakat qilamiz.

Bilamizki maqom ta'limoti yo'lga qo'yilgan barcha ta'lim muassasalarida maqom xonandaligi sinfida dars jarayonini o'qituvchi, o'quvchi (talaba) hamda bir yoki ikki nafar jo'rnavoz ko'rinishida tashkil etiladi. Bunda albatta inson ovozigacha eng yaqin soz g'ijjak sozida jo'rnavozlik misolida keltirib o'tamiz.

Xonandaga jo'rnavozlik qilish sozandadan katta bilim, texnik mahorat va tajriba talab etadi. Bu ko'nikmalarga ega bo'lgan jo'rnavoz ish jarayonida o'qituvchining dars jarayonidagi mashaqqatini kamaytiradi va darsning sifatli o'tishiga katta ta'sir ko'rsatadi. "Jo'rnavoz sozanda ish jarayonida quyidagi muhim jihatlarga ega bo'lishi lozim;

Barch maqom parda tovushqatorlarini amaliy va nazariy bilishi;

Maqom usullarini yod bilish va his qilish;

Asar tarkibiy qismini ajrata olishi, namudlarni yod bilishi;


Ashula matnini yod bilish va xirgoyi eta olish;

Erkak va ayol xonandalar ovoz diapazonini bilish;"<sup>13</sup>

kabi birlamchi bilim ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu ma'lumotlar bugungi kunda O'zMMSE ARM EK telegram botida elektron ko'rinishda ham mavjud bo'lib, bevosita adabiyotlar bilan tanishib chiqish mumkin. (Adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi).

O'quvchiga yoki talabaga birlamchi dars jarayoni o'tib bo'lingandan so'ng asar bevosita jo'rnavoz bilan ishlash jarayonida kamchiliklar bartaraf etiladi, asar sayqallanadi. Bu jarayonda sozanda kamonni asar matnidagi so'zlarning bo'g'inlariga parallel ravishda tortishi, xonanda nafasini sezib ijro etishi darkor. Ayniqsa so'zdagi urg'u tushgan xarflarni kamon yordamida bo'rttirib turish xonandaga ijro davomida yordam berib boradi. Usul va soz ohangi bir biriga juda mutanosib kelishi kerakki, ijro etilayotgan asarning dinamikasi, sozanda va xonanda o'rtasidagi jarayon bir biriga xalaqit bermasligi

<sup>13</sup> O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov bilan suhbatda yozib olindi.



lozim. Ashulaning yuqori oktavalarda yangrovchi avj qismlarida g'ijjakchi jo'rnavoz aksincha pastgi oktavalarda jo'r bo'lib yurishi juda axamiyatli. Kamon tortish san'ati g'ijjakchida yakka va jo'rnavozlikda alohida yondashuv talab etadi. Shuning uchun bu jarayonlarni sozandalar to'g'ri talqin etishlari lozim. Kuy ashulaning tasirchanligini oshiradi. Tinglovchiga ashula ma'nolarini anglashda, madaniy dam olishida katta rol o'ynaydi. Eng asosiysi xonandaning usul va pardada ravon yurishini taminlaydi. Ijro jarayonida sozlarning jo'r bo'lishi qadim-qadimdan kelayotgan an'ana bo'lib, bu xaqida o'tmish musiqashunos olimlar shunday deb yozishgan. "Bizda "Shashmaqom"dan birtasi chalinmoqchi bo'lg'anda majlisning tubandagi yo'sinda borishi lozim ko'rilgandir: ikki tanbur, bir dutor, yoxud ikki tanbur bilan bir qobuz (qobuz bo'lmagan uchunchi tanbur kamoncha bilan chalinadir), ikki yo uch xofiz o'tiradirlar, cholg'ular ishga kirishadir. Bir kishi "chirmanda" (doira-daf) bilan usul saqlaydir." [2, B.12].

Abdurauf Fitratning yuqoridagi fikrlarida soz va ovozning ijro qoidalari aks etgan. Sozlarning yakka va birgalikdagi xonanda ovozigacha jo'r bo'lishdagi nozik xususiyatlarini chuqur o'rgangan. Xozirgi kunda ham amaliyotda buni ko'rish mumkin. Yakka xonandaga agar boshqa sozlar bo'lmagan taqdirda tanbur sozi eng qulay jo'rnavozlik qila olish imkoni bo'ladi. Shuning uchun qadimdan xofizlar tanbur chalishni yaxshi o'zlashtirishgan. Qolaversa musiqiy olim kamonli cholg'ular qo'biz (xozirda g'ijjak) va sato cholg'usiga ishora qilgan. Bu holatda sozlarning soni ortganda, ya'ni ansambl holatiga kelgandagi ko'rsatmalari aks etgan. Bugunga kelib esa bu cholg'ularning soni yanada kengaydi. Ijro imkoniyatlar oshdi. Dasturlar boyidi. Endilikda bu jarayonlarni yanada rivojlantirish, nazariy asoslarini o'rganish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shunday ekan ijrochilik sohasida hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar bisyor. Bu vazifalarni ijodiy jarayonda aniqlab, ularni bartaraf etish, eng asosiysi maqom san'atini yanada rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, milliy qadryatlarimiz va milliy ohanglarimiz ruhida tarbiyalashdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish Toshkent 1983.

2. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -T.: "Fan" nashriyoti, 1993.

3. Toshmuhamedov M. G'ijjak darsligi. T., 1995.

4. Rajabov I. Maqomlar Toshkent-2006.

5. Begmatov S., Matyuqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari Toshkent-2006.


6. Mulla Bekjon Raxmom o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda Xorazm musiqiy tarixchasi. T., Mumtoz so'z, 2014.

7. Mulla Bekjon Raxmom o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi" T., Mumtoz so'z. 2014

8. Qodirov N. G'ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar 2016.

9. Azizboyev. S. An'anaviy cholg'u ijrochiligi. Navro'z nashriyoti. Toshkent-2019.

10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.



## QUVVAI HOFIZASI KUCHLI SOZANDA

**Zeboxon NABIYEVA,**

*Namangan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi*

*"Musiqiy-nazariy fanlar" kafedrasi yetakchi o'qituvchisi,*

*Namangan davlat universiteti 2-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** *Jahon sahnalarida va o'zbek musiqada madaniyatida o'zining betakror ijrolari bilan behisob muxlislarga ega bo'lgan mohir sozanda Mahmudjon Muhammedovning hayoti va ijodi, o'zbek musiqasi tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. San'at namoyandasini hayot va ijod yo'llari zamonaviy jarayonda ibratli ahamiyatga ega. Mazkur maqolada o'zining erishgan ijrochilik uslubi natijasida etuk sozanda sifatida shakllangan, ijrochilik amaliyotida mukammal ijro uslubiga erishgan va ijro maktabini yaratgan benazir ustoz san'atkor, kamtarin inson, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahmudjon Muhammedov faoliyati xususida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ustoz, sozanda, teatr, nay, g'ijjak, chang, dutor, ohang.*

**Аннотация:** *Особое значение в истории узбекской музыки имеет жизнь и творчество Махмуджона Мухаммедова, искусного музыканта, имеющего бесчисленное количество поклонников своими уникальными исполнениями и выступлениями на мировой сцене и в узбекской музыкальной культуре. В докладе говорится о творчестве заслуженного артиста Узбекистана Махмуджона Мухаммедова, создателя своей исполнительской школы. Уникальный мастер-исполнитель, скромный и безупречный человек, сформировавшийся как зрелый музыкант в результате своего особого исполнительского стиля, а также добившейся в исполнительской практике совершенного исполнительского стиля.*

**Ключевые слова:** *Наставник, музыкант-исполнитель, театр, най, гиджак, чанг, дутар, мелодия.*

**Abstract:** *The life and work of Mahmudjon Muhammedov, a skilled musician who has countless fans with his unique performances on the world stage and in Uzbek music culture, is of special importance in the history of Uzbek music. The ways of life and creativity of an artist*



are of great importance in the modern process. This article talks about the work of Mahmudjon Muhammedov, a unique master artist, humble person, honored artist of Uzbekistan, who was formed as a mature musician as a result of his accomplished performance style, achieved a perfect performance style in performance practice and created a performance school.

**Key Words:** Teacher, musician, theater, nay, gijjak, chang, dutor, melody.


*Tingla bu nay ne hikoyat aylagay,  
Ul judoliqdin shikoyat aylagay.  
Jaloliddin Rumi.*

Nay tasaffuvda oshiq, ya'ni ilohiy ishq oshig'ining ramziy obrazidir. Orif va oqil insonning, o'zini, ilohiy ishq yo'liga bag'ishlagan insoni komilning lutfi nihoyatda oshiqona va laziz bo'lishi kerak. O'zini toza hayotidan ayrilgan nayning "Judolikda shikoyatlar qilishi" orif insonning ruhi kabi hamisha boqiy ruhiyat olamiga intilishi kabitir [1, B.22].

O'zbek musiqa madaniyatida toza qalbli, ruhi pok orif insonlar talaygina. Shulardan biri Mahmudjon Muhammedovdir. Bu insonga Yaratgan tomonidan g'oyibona qobiliyat in'om etilgan bo'lib, ilohiy nay sozining judolik shikoyatini, ya'ni mungli ohangini butun qalbi bilan his qila olgan va uning mukammal talqiniga erishgan. Shuning uchun bo'lsa kerak uning naydagi ijrosini tinglagan har bir tinglovchi, oshiq muhabbatini o'z qalbida tuga oladi go'yoki.

Mahmudjon Muhammedov asli san'atkorlar oilasidan bo'lib, 1926-yil 3-martda Namangan viloyati, san'atkorlar oilasida tavallud topgan. Oilaviy muhit tufayli yosh sozanda turli sozlarga mehr qo'yadi. Sozlar ichida esa nay cholg'usi uning ko'nglidan chuqur joy egallaydi.

Sozandaning katta san'at olamiga kirib kelishida Namanganlik ustoz san'atkor Usta Ro'zmat Isaboyev xizmatlari katta. Uni ilk bor Namangan shahridagi musiqali teatrga olib kirgan inson [2]. 1950-yillarda Mahmudjon Muhammedov oilasi bilan Toshkentga ko'chib ketishadi. U yerda dastlab O'zbek estrada teatrida, so'ngra O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi Tamaraxonim ansamblida faoliyat yuritadi. O'sha paytlarda O'zbekiston xalq artisti Dadaali Soatqulov




filarmoniyaning direktori va badiiy rahbari edi. Ustoz san'atkor ishga kelgan Mahmudjon Muhamedovni yorug' yuz bilan "Bizga Sizdek mohir ijrochilar kerak" deb quchoq ochib, ishga qabul qiladi.

Oradan 2-3 kun vaqt o'tgandan so'ng Tamaraxonim ansambl xizmat safari bilan Moskva shaxriga borishi kerak bo'lib qoladi. Tamaraxonim o'zi Moskvada bo'lib, ansambl sozandalarini kutib olishini aytadi. Mahmudjon Muhammedov esa endigina ansamblga ishga kirgan paytlari edi. Yangi hodim konsert dasturidan behabar. Lekin ziyrak va kuchli xotira egasi bo'lgan mohir sozanda Moskvaga yetkunga qadar dastur asarlarini yonidagi sozandalardan 3 marotaba ijro etishdayoq yodlab oladi. Moskvaga yetib borishganda Tamaraxonim yangi sozandaga hayron bo'lib qarab, "ijro dasturini bu cholg'uchi qachon o'zlashtirib, qanday chaladi" deb ikkilanish ko'zi bilan qaraydi. "Birinchi kungi dastur tayyorgarliklari boshlanadi. M.Muhammedov esa asarlarni ansambl bilan birga mukammal va chiroyli talqinda ijro etadi. Uning mahoratiga lol qolgan Tamaraxonim sozandani yuz ko'zidan o'pib bag'riga bosib, sozandadan mamnunligini izhor etadi. Bu voqea quvvayi hofizasi kuchli sozandaning Tamaraxonim bilan ilk tanishuvi bo'ladi [3].

Oynai jahon orqali xalqqa bergan intervyusida Mahmudjon Muhammedov Tamaraxonim bilan birga olib borgan faoliyati haqida shunday deydi: "Men Tamaraxonim bilan uning ansamblida 26 yil davomida xizmat qildim, birga ishladim. Ular bilan ko'p mamlakatlarda xizmat safarida bo'lib, ilk safarimiz Moskva shahrida, keyin Eron davlatida bo'lgan. Keyinchalik Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Tailand, Norvegiya, Gollandiya, Shvetsariya, Afrika qit'asidagi Nigeriya, Gana,

Efiopiya, Kamerunda, Fransiyaning Parij, Italiyaning Rim shaharlarida, arab diyorlarining Yaman, Saudiya Arabistoni va boshqa ko'plab shaharlarida bo'lib, o'zbek milliy musiqa merosimiz namunalarini eshittirganmiz. Ular milliy asarlarimizga oshiq bo'lib, mendan Chorgoh, Dugoh, Cho'li Iroq asarlarini chalganimni magnit tasmalariga yozib olishgan".

Ushbu gostrollar va konsert namoyishlari sozandaning ustozona imkoniyatlarini oshirib, xalqaro miqyosda targ'ib etilishiga sabab bo'lgan. Zero, uchrashuv-konsertlar doimo tasodiflar bilan boyib



borgan Jumladan, ustoz eslaydi: - "Indoneziyadagi katta stadionda kontsert beryapmiz.

*O'z chiqishim bilan ishtirok etib, milliy kuylarimiz qatorida Indoneziyaning mashhur xalq kuylaridan birini ham ijro qilganimda 55 ming xalq meni ismimni aytib, "Mahmud, Mahmud, Mahmud – mister Mahmud, muslim Mahmud" deb olqishlaganlarida ruhimga ruh qo'shilgan. Yaratganning menga yozgan taqdiridan juda minnatdorman. Butun dunyo xalqining olqishigi sazovor qilib, aziz qilib qo'yganiga shukrlar aytaman". "Kontsert dasturidan so'ng Indoneziyaning prezidenti Suxartoning shaxsan o'zi Mahmudjon Muhammadovga qimmatbaho, nihoyatda noyob va nodir mato, ya'ni fil suyagidan yasalgan nay sovg'a qilgan ekan. Bu sovg'a nafaqat M.Muxammedovga, balki o'zbek san'atiga berilgan baho ham edi" [4, B.21-23].*


Vatanga qaytganida esa uni o'z xalqi yana bir sovg'a bilan kutib oladi. Hukumat tomonidan uni "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni bilan taqdirladi.

Bu insonning shunday o'ziga xos xususiyati bor ediki, qaysi davlatga bormasin o'sha davlatning milliy kuylarini o'rganib, maromida ijro etib, hurmati va muhabbatini qozonar edi. Shulardan afg'oncha, iroqcha, eroncha, turkcha, pokistoncha, maldavancha, hindcha, afrikancha kuylarini juda go'zal talqinda ijro etib, magnit tasmalariga yozib qoldirganlar.

Ustoz nafaqat nay cholg'usi, balki dutor cholg'usini nafis cherta olganligi, kamon cholg'usida mohirona kamon torta olganligi, chang cholg'usida esa turli xil murakkab asarlarni ustozona ijrochisi bo'lganligini ko'plab ustozlarimiz ta'kidlab o'tishgan.

1959-1960-yillarda M.Muhammedov Yunus Rajabiy tashkil etgan maqomchilar ansamblida davrining ustoz san'atkorlari bilan birga faoliyat olib boradi.

Nayning dardli nolasiga shaydo bo'lgan bu qalbi daryo inson o'zidan oldingi ustozlarni Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Dadaali Soatqulov, Ayub Qodirovlarning ijro yo'llarini tinglab, o'zining betakror nay ijrolik uslubini yaratishga muayassar bo'ladi. Keyingi avlodning ergashishi natijasida bu ijro maktabiga aylandi va bugungi kunga qadar ko'plab shogirdlar yetishib chiqdi va ta'lim tizimida davom etmoqda.



Bulardan mohir sozandalar Abduhoshim Ismoilov, Abdulahad Abdurashidov, Abdurahmon Xoltojiyev, Ahmadjon Dadayevlar ustoz sozandadan cholg'uchilik ijro mohoratlarini nozik sirlarini o'rganganlar. Keyingi naychi avlod vakillari M.Muxammedov maktabini o'rganib, o'zlariga ustoz deb bilishadi. Hozirda esa xalq e'tiboridagi Ahmadjon Sobirov, Qosimjon Raxmatov, Toxir


Qahhorov, Xurshid Oripov kabi naychi sozandalar ustoz ijro uslubini o'zlashtirib, barakali ijod qilib kelishmoqda. Ustaning shogirdlaridan biri Tohir Qahhorov ustoz M.Muhammedovning yorqin xotirasiga bag'ishlab, "Nay navosi" nomli o'quv qo'llanmasini yozib nashr etadi. O'quv qo'llanmada ustoz ijro etgan asarlarining notalar matni keltirilgan bo'lib, ustoz uslubida ijro etish niyatida bo'lgan yosh sozandalarga dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Shogirdlaridan biri Abduhoshim Ismoilov o'zining bastakorlik ijodiyotiga kirib kelishida ustoz ta'limining o'rni beqiyosligini ta'kidlaydi. Uning ijro yo'llarini o'zlashtirib, o'zining ilk asari "Bo'lmas" ashulasini (I.Bo'ronov ijro etgan) aynan ustoz M.Muhammedov ijro yo'li asosida bastalaganini xotirlaydi [5].

O'zbek cholg'u musiqasi bilimdoni va ulkan salohiyat egasi bo'lgan Mahmudjon Muhammadov o'zbek musiqa merosidagi asl namunalar, eski cholg'u yo'llaridagi asarlarni qayta tiklab, shogirdlariga o'rgatishga ham ulgurdi. Mohir sozanda, hozirda ustoz san'atkor Ahmadjon Dadayevga (1977-78y) Farg'ona vodiysining eski cholg'u yo'llaridan surnay yo'llaridagi Hojiniyoz

I,II va "Surnay dasht navosi" nomli kuylarni; Ustozning tiklagan "Surnay dasht navosi" kuyiga ilk bor ustoz sozanda va bastakor Shavkat Mirzaev tomonidan Gadoiy so'zi qo'yilib, ashula yo'li yaratildi. Bu asar davrimiz ustoz san'atkorlari Isoq Kataev, Munajat Yo'lchiyeva, Kamoliddin Rahimovlar tomonidan go'zal talqinlarda ijro etildi. Bugungi kunda ham bu ulug'vor asarlar yosh hofiz va sozandalar ijro dasturidan o'rin egallagan.

Darhaqiqat Mahmudjon Muhammadovning san'ati buyuk, nafasi esa boshqa naychilardan ajralib turgan. Uning nafasi ilohiy sadoli nolalar bilan yangraydi. Ajralib turuvchi jihati esa, turli xalqlarning milliy kuylarini asl hoida va ular bilan milliy ohanglarimizni uyg'unlashtirgan holda mohirona bezaklar berib ijro eta olganligidadir.




Musiqashunos olim Soibjon Begmatov ta'biri bilan aytganda yumshoq tabiatli, juda ozoda, o'tkir fikrlovchi, tabiatan nozik ta'b inson bo'lgan M.Muhammedov bu hislatlari uning ijro uslubida ham o'z aksini topgan [6, B.48].

O'ylaymizki, Mahmudjon Muhammedov ijro maktabi bardavom bo'lib, uning shogirdlari, kelajak avlod naychi va mumtoz sozandalar, nabira shogirdlari tomonidan ustoz yo'lini davom ettiriladi, nay ohangini shina vandalariga tarannum etishda davom etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy kulliyot. 1-jild "Sharq nashriyoti" T.:1999.
2. M.Muxammedovning qizi Mohira ona bilan suhbat.
3. Usta Ro'zmat Isaboyevning o'g'li changchi San'at Ro'zimetovning televedeniye orqali bergan intervyusi.
4. Abdurahmonov R., Abdurahmonov O. Nay sehri. T.: 2013.
5. Ismoilov A. bilan suhbatdan.
6. Begmatov S., Matrasulov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. T.: 2008.
7. Ubaydulloyev S., Ismoilov A. Sog'inganimda. Monografiya. T.: 2022.



## **MAQOM MAKTABI O'QUVCHILARIDA MAQOM IJROCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Dilmurod QURBONOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Salohiddin AZIZBOYEV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI professori.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada maqom maktabi g'ijjak sinfi o'quvchilarini bosqichma-bosqich ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish borasida so'z boradi. Shuningdek yosh soha pedagoglariga ushbu jarayonlarni amalga oshirishda maslahat va takliflar ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** G'ijjak, o'quvchi, maqom maktabi, pedagog, dastur, dars o'tish, tayyorlov.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается поэтапное формирование исполнительских навыков учащихся начальной школы Макома. Также советы и предложения по реализации этих процессов будут даны педагогам молодежного сектора.

**Ключевые слова:** Гиджак, ученик, школа макама, педагог, программа, учеба, подготовка.

**Abstract:** This article deals with the step-by-step formation of performance skills of students of the grade school of Makom. Young pedagogues like Suning will be given advice and suggestions on implementing these processes.

**Key words:** Gijjak, pupil, makam school, pedagogue, program, study, preparation.

Tobora rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrida o'tmish an'analariga yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikalardan munosib foydalanish hamda komil inson tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga ta'sir eta oladigan omil sifatida qaraladi. Respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan hususan musiqa ta'limiga bo'lgan e'tibor fikrimizning yaqqol dalilidir.




Uchinchi Renessans poydevori qo'yilayotgan "Yangi O'zbekiston" sharoitida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida natijaga ishlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida pedagoglar salohiyatini yuksaltirish, oliy ta'limda tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, uzluksiz musiqa ta'limi tizimining barcha bosqichlarida ustoz-shogird an'anasini rivojlantirish, ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maqom maktablarida g'ijjak cholg'usida maqom cholg'u ijrochiligini yangi sifat darajasiga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga chiqdi.

"Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son Qarorida ta'kidlanishicha, istiqbolda "Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash" ustuvor vazifa etib belgilandi. Respublikamiz ta'lim tizimida integrativ va innovatsion jarayonlarning jadallashuvi musiqa ta'limida malakali, kasbiy shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, musiqa ta'limi tizimini yangi o'qitish metodlari, sifatli repertuar, o'quv adabiyotlari, ustozlar ijro an'alarini izlab topish, maqom ijrochiligini sayqallash va o'rganishni taqozo etmoqda. G'ijjak cholg'usida ijrochilikni yangi sifat darajasiga ko'tarish uning o'qitilishi samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib, bunda maqom ijrochiligi an'alarini yoshlarga o'rgatish zarurati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda g'ijjak ijrochiligida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan ijro uslublaridan talab darajasida foydalanish xalq musiqasi va maqom ijrochiligining o'ziga xosligini to'laqonli yoritishda yana bir imkoniyat bo'lib, undan yetarlicha foydalanib kelinmoqda.

O'zbek milliy sozlar guruhiga kiruvchi g'ijjak, sato, qobizlar, o'z tuzilishi, ijro imkoniyatlari ovoz tembri jarangdorligi va boshqa xususiyatlari bilan rang-barangdir.

*G'ijjak* - O'rta Osiyo xalqlari, xususan o'zbek va tojik xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg'u asbob bo'lib, uning eng qadimiy namunalari ikki simli bo'lgan. Keyinroq olti, yetti simli g'ijjaklar ham ishlatilgan. Hozir xalqimiz



orasida keng tarqalgan to'rt simli g'ijjak sozi o'zining ijro imkoniyati bilan ma'lum darajada yevropaning skripka soziga yaqindir. Shuning uchun ham ayrim ijrochilar g'ijjak o'rniga skripkadan ham foydalanadilar.

*Alt g'ijjak* - asosiy g'ijjakning biroz kattaroq qilib ishlangan turi. Uning to'rtta tori bo'lib, torlar oralig'i sof kvinta intervaliga sozlanadi. Birinchi tor birinchi oktavadagi *lya*, ikkinchi tor birinchi oktavadagi *re*, uchinchi tor kichik oktavadagi *sol*, to'rtinchi tor esa kichik oktavadagi *do* tovushlariga sozlanadi. Notalari alt kalitida yoziladi.

*Bas g'ijjak* - asosiy g'ijjakning katta qilib ishlangan bir turi bo'lib, Yevropa sozlaridan violonchel cholg'u asbobiga o'xshaydi. Uning to'rtta tori bo'lib, torlar oralig'i sof kvinta intervaliga sozlanadi.

G'ijjak sozida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishning ahamiyatini alohida tadqiqot sifatida o'rganib, bu borada amalga oshirish lozim bo'lgan nazariy va amaliy faoliyat yuzasidan barcha mavjud uslubiy materiallarni to'plash, tizimga solgan holda amaliy ijrochilikda qo'llashning samarali yo'l va usullarini ilmiy asosda ko'rsatib berish zarur. Bu esa, o'z navbatida g'ijjak ijrochiligini o'rganishni yangi sifat bosqichiga ko'tarishga shart-sharoit yaratadi. Aynan bu amalga oshirilishi lozim bo'lgan dasturlar ixtisoslashtirilgan maqom maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablarida namuna sifatida qo'llab, keyinchalik uni o'rta maktablarda ham keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu pedagogik jarayonda nafaqat maqom va milliy ijrochilik san'ati o'rgatiladi balki milliy oxanglarga muhabbati baland tinglovchilar auditoriyasi shakllanishiga turtki bo'ladi.

Asosiy masalaga e'tibor qaratsak yosh o'quvchilarning g'ijjak cholg'usida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilish asosiy vazifa etib belgilangan. Uning uchun ushbu ko'nikmalarni hosil qilishda pedagoglar quyidagi vazifalarga ahamiyat qaratishlari lozim.

Maqom cholg'u ijrochiligi tarixiga oid materiallar bilan tanishish;

G'ijjak ijrochilik maktablari tarixiga oid tadqiqot ishlari bilan tanishish;

Yillar davomida rivojlanib kelgan Farg'ona vodiysi g'ijjak ijrochilik maktablari vakillari borasidagi materiallarni to'plash va o'rganish;



Farg'ona vodiysi g'ijjak ijrochilik maktablari vakillari ijodiga doir materiallar bilan tanishish;


Farg'ona vodiysi g'ijjak ijrochilik maktablari vakillari tomonidan takomillashtirilgan ijro uslublarini o'rganish.

Mazkur masalalar keng va atroflicha tahlilga jalb etilgan bo'lib, keltirilgan holatlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini yana bir bora tasdiqlaydi. Chunki yetarlicha dasturlar bazasi shakllantirilmagan, o'quvchilarga dars jarayonini boshlash samarasizdir.

Ixtisoslashtirilgan maqom maktabi o'quvchilari tomonidan g'ijjak cholg'usida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilish borasida ta'limiy-ijroviy tadbirlarni yanada jonlantirish, ushbu ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda imkoniyatlarini nazarda tutgan holda ular bilan ijrochilik faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularga maxsus dastur sifatida quyidagilar tavsiya etiladi. Avvalo jarayonda birinchi o'rinda o'quvchining sinfi, istedodi va orttirgan ko'nikmalarini inobatga olish lozim. Bu taqsimot ularga asar tanlash jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Dastlabki sinflarda o'quvchiga g'ijjak tuzilishi, aplikaturasi, sozning umumiy jixatlari bilan tanishtirish qolaversa sozga bo'lgan mexrini oshirish maqsadida texnik vositalardan foydalangan xolda mohir sozandalar tomonidan ijro etilgan asarlarni eshittirish va video yozuvlarini namoyish etish (G'.Xojiqulov, A.Imoilov, O'.Qodirov audio va video yozuvlari) maqsadga muvofiqdir. Agarda namuna sifatida ko'rsatilgan mashxur sozandani o'quvchi o'zi tanisa nur ustiga a'lo nur. Albatta jarayonda bevosita o'qituvchi tomonidan ijro etib berilgan go'zal va mohirona asar o'quvchida katta ta'surot qoldiradi va qiziqishi ortadi. Bunda asarlarning oddiy, o'rta va murakkablik darajasi pedagog tomonidan to'g'ri tanlanishi lozim.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda asosan g'ijjak sinfiga 5-sinfdan o'qishga qabul qilinishini hisobga olib, dasturlarni sinflarga taqsimlab chiqamiz.

5-sinf: g'ijjak tuzilishi, tarixi, ijrochining o'tirish xolati, kamon ushlab, aplikatura, ochiq simlarda kamon tortish bilan tanishtiriladi. Bir oktavali gammalar chalish o'rgatiladi.



6-sinf: Shashmaqom cholg'u bo'limidan Tasnif va Tarjelarning xonalaridan parchalar. Oddiy usulda ijro etiladigan maqom, xalq va bastakorlar asarlaridan namunalar.

7-sinf: Bu bosqichda o'quvchiga avval chalgan asarlarini to'liq shakllarini berib, ijro texnikasi va asarning ruxiyatini ko'rsatib berish boshlanadi. Bundan tashqari turkumli asarlardan namunalar berish tavsiya etiladi. Xalq va bastakor asarlarining el ichida mashhur bo'lgan asarlarini dastur sifatida tanlash, bu sinf yoshidagi o'quvchilarga yangi ilhom bag'ishlaydi. Misol Sharob 1, 2, Malaksan, Qo'shchinor, Tanovorlar vb.

8-sinf: Bu sinfda nisbatan murakkabroq Gardun, Qashqarcha, Soqiynoma kabi maqom usulidagi asarlar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Bular bilan bir qatorda o'quvchining texnik mahoratini oshirishga qaratilgan turli mashqlar, 2 oktavali 4 ta belgigacha bo'lgan major va minor gammalari, uchtovushliklar va ularning aylanmalarini ijro ettirish yonma-yon olib boriladi.

9-sinf: Bu sinfda Shashmaqomning murakkab asarlari bo'lmish 16 taktli Muxammas, 24 taktli Saqil kuylari beriladi. Undan tashqari Shashmaqomning Nasr yo'liga murojat etish tavsiya etiladi. Nasr yo'lidagi ashullarning o'quvchi tanlovi asosida tanlash orqali amalga oshiriladi. Misol Muxammasi Bayot, Saqili Rak-rak, Mug'ulchai Navo, Savti Chorgoh v.b.

10-sinf: Bu bosqich yuqori sinf o'quvchilari bo'lganligi bois, asarlarni mohiyatan yuksak ijrosini talab etish ko'zda tutiladi. Bunda mohir ijrochilardan talab etiladigan ko'rsatgichlarga qisman yoki to'liq erishilgan bo'lishligi lozim. Dasturlarni ko'lami esa kengayib, endilikda ijrochi imkoniyatidan kelib chiqib, turli hil aralash usuldagi asarlarni bemalol ijro etish kerak.

11-sinf: Bu sinf bitiruvchi sinf bo'lganligi bois, asosiy urg'u bitiruv imtihoni va oliy ta'lim muassasasi qabul imtihonlariga tayyorlovga qaratiladi. Bunda asarlar yetuk ustozona ijro etish ko'nikmalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Kelajakda davom ettirishi maqsad etgan oliy ta'lim dargohiga kirish talablaridan kelib chiqib dastur tanlanadi. Bugungi kunda ushbu dastur Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida qabul talablaridan kelib chiqib, Shashmaqom Mushkilot bo'limidan Tasnif, Tarje, Gardun, Muhammad va Saqillardan biri; Nasr



bo'limidan turkumli asar; Xalq va bastakor asarlaridan 1 donadan asar ijro etish ko'zda tutilgan. (boshqa musiqa ta'lim muassasalari talablarida farq bo'lishi mumkin) Pedagoglardan ushbu talablar doirasida dastur tanlash, o'quvchining kelajakdagi yuksalishiga katta xizmat qiladi.


Shuni aytish kerakki, o'quvchi bilan dars jarayonida har bir asarning nazariy taxlili, tarixi va asarga xos voqeliklar bilan tanishtirish o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, bilimini oshiradi xamda darsning qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Qolaversa zamonaviy interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash, yangi zamonaviy ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda dars olib borish, ta'lim sifat darajasini ko'taradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish juda dolzarb va ma'suliyatli vazifa xisoblanadi. Su sababli pedagoglar nafaqat kasbiy mahorati balki bola psixologiyasi, ustoz-shogird an'analari, soxadagi xorij tajribasi va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib faoliyat olib borishi talab etilmoqda. Maqolada keltirib o'tilgan tafvsiyalar soha pedagoglari uchun foydali bo'lishi va yosh ijrochilarni tarbiyalashdagi sharaflari faoliyatlarida oz bo'lsada xizmat qilishiga ishonaman.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent 1987.
2. Fayzulla M. Karomatli O'zbek xalqi cholg'u musiqasi. Toshkent 2004.
3. Qodirov N. G'ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar. "Musiqa" nashriyoti. Toshkent - 2016.
4. Musiqa psixologiyasi R. Qodirov "Musiqa" nashriyoti. Toshkent 2016.



## MAQOMGA BAG'SHIDA QILINGAN UMR

(O'lmas Rasulov hayoti va ijodi misolida)

**Umidjon PARDAYEV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI

2-bosqich magistranti.

"Maqom xonandaligi" kafedrasi jo'rnavozi.

Ilmiy rahbar: **Shaxida BERDIXANOVA,**

"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasi mudiri,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya:** Ushbu maqola kamon ijrochiligida Buxoro maktabning yorqin namoyondasi O'lmas Rasulovning hayot va ijodiy faoliyatiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** O'lmas Rasulov, Bastakor, Buxoro Shashmaqomi, Shashmaqom cholg'u bo'limi, Shashmaqom ashula bo'limi, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari.


**Аннотация:** Данная статья посвящена жизни и творчеству яркого представителя бухарской школы смычкового исполнительства Олмаса Расулова.

**Ключевые слова:** Олмас Расулов, Композитор, Шашмакомы Бухари, Шашмаком музыкальное отделение, Шашмаком вокальное отделение, Статусные дороги Фергана-Ташкент.

**Abstract:** This article is devoted to the life and creative work of Olmas Rasulov, a bright representative of the Bukhara school of bow performance.

**Key words:** Olmas Rasulov, Composer, Shashmaqom of Bukhara, Shashmaqom musical department, Shashmaqom singing department, Ferghana-Tashkent status roads.


O'z umrini milliy musiqamiz gultoji bo'lmish maqom sanati bag'ishlagan insonlardan biri mohir sozanda, honanda va betakror bastakor, maqomdon ustoz O'zbekiston Xalq artisti, professor O'lmas Rasulovdir. 1951-yil 12-yanvar Surxondaryo viloyatining Denov tumanida dehqon oilasida tavallud topgan. 5 yoshida og'ir hastalikka uchrab uning ko'zlari ko'rmay qoladi. Dastlabki ta'limni Buxoro shahridagi 24-ko'zi ojizlar maktab-internatida olgan. Maktab davrida



g'ijjak cholg'usini ilk bor Aminjon Nasriddinovdan o'rganadi. Mumtoz musiqaga bolaligidan ko'ngil qo'yganligidan 6-7 sinfda o'qib yurgan kezlari musiqiy ijodga kirib kela boshlaydi. "Habibiy so'ziga bastalangan "Bo'stonlarim bor" ashulasi uning bastakorlikdagi ilk asari hisoblanadi".<sup>14</sup> 1967-yildan 1971-yilga qadar Buxoro musiqa bilim yurtida tahsil oladi. Bu dargohda maqom san'atining puxta bilimdonlari Ma'rufjon Toshpo'latov, Qodir Subhonovlardan tahsil olgan. Bilim yurtini tamomlab shu yili Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga qabul qilinadi. Konservatoriyada Obid Xolmuhammedov sinfida tahsil oladi. 1972-yili "Sharq musiqasi" fakulteti tashkil qilingandan keyin An'anaviy ijrochilik kafedrasiga o'tkaziladi va Faxriddin Sodiqov sinfida saboq oladi. 1976-o'qishni tamomlab pedagogik ish faoliyatini o'zi tahsil olgan Buxoro musiqa bilim yurtidan boshlaydi va 1987-yilga qadar ushbu dargohda yoshlarga maqom sirlarini o'rgatadi. O'lmas Rasulov 1977-yili Buxoro shahar ma'rifatchilar uyida "Sayqal" maqomchilar ansamblini tuzishda faol ishtirok etgan.

1987-yil Toshkent davlat konservatoriyasiga ishga taklif etilgan va 1995-yilga qadar faoliyat olib borgan O'lmas Rasulov bu yillar oralig'ida, O'tkir Qodirov, Salohiddin Azizboyev, Qahramon Umarov, Jaloliddin Matyoqubov, Ulug'bek Otajonov kabi yetuk sozandalarga g'ijjak sozining sirlarini, O'zbekiston xalq hofizi Soyibjon Niyozov, mohir maqom honandasi O'lmas Olloberganov, Gulzoda Xudoynazarovalarga maqom honandaliginig sirlarini o'rgatgan. Konservatoriyada ishlash bilan bargalikda 1987-1994 yillar "Zarafshon" ashula va raqs ansanblida ham sozanda, bastakor sifatida ijodiy faoliyat olib borgan. So'ngra Buhoroga qaytib, 1995-2000-yillar Buxoro davlat pedagogika universitetida bir muddat o'qituvchi va kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat olib boradi. 2002-yili Toshkent musiqa kolleji, keyinchalik umrining oxirigacha O'zbekiston davlat san'at madaniyat institutida pedagogik va ijodiy faoliyati olib bordi. Pedagogik faoliyati davomida ko'plab yetuk sozanda va xonandalarga ustozlik qilgan O'.Rasulovning yakka ijrochilarga, sozandalar va xonandalar ansambliga dars berish metodikasi o'ziga xos edi. Ayniqsa xonandalarni tarbiyalashda ovozni yo'lga qo'yish va to'g'ri nafas olish

<sup>14</sup> Begmatov S. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017. 126-bet.



mashqlaridan tashqari har bir talabaga ma'lum kitoblar o'qish va g'azal yod olish kabi topshiriqlarni asar o'rganish mobaynida muntazam berib borganliklarini shogirdlari bilan suhbatlashish davomida ko'p eshitganmiz.

O'.Rasulov nafaqat Buxoro Shashmaqomini mukammal bilgan, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari va bundan tashqari Xorazm maqomlarini ham puxta bilgan maqomdon ustoz edi. O'zidan oldin ijod qilgan barcha bastakorlar ijodini hamda yetuk ustoz hofizlar va sozandalarni ijro yo'llari va maktablarini chuqur tahlil qila olgan, o'zbek musiqasi tarixi va nazariyasini o'zlashtirgan, musiqiy, dunyoviy, diniy bilimlari juda ham keng qamrovli edi. Bir so'z bilan aytganda ko'p kitob mutolaa qilar edi. O'lmas Rasulovni o'ziga hos jihatlardan biri aruzni puxta bilganligi va g'azallarni tahlil qila olishi mumtoz shariyatda keladgan forsiy va arabiy so'zlarni sharhlay olganligidir.

G'ijjak cholg'usida o'ziga hos ijro yo'li va maktabini yarata olgan zabardast sozandalardan biri hisoblangan O'.Rasulov kamon ijrochiligida Buhoro ijro maktabining yorqin namoyondasi sifatida ko'riladi. Hofizlik yani xonandalikda ham mayin, shirali hasta ovozga ega bo'lgan va ijro mobaynida so'zlarni dona-dona, nolalar (melizm)larni yirik-yirik ishlatishi bilan boshqa ijrochilardan ajralib turgan. O'.Rasulovning ovoziga maqomshunos olim sanatshunoslik fanlari doktori O.Matyoqubov o'zining kitobida shunday ta'rif beradi "O'lmas Rasulov ko'lami uncha keng bo'lmasa ham, o'ziga xos xasta va yoqimli ovoza ega, u nafaqat benazir cholg'uchi, balki shirin nafas hofiz ham. Ashulachi sifatida juda keng dasturi bor".<sup>15</sup> "O'.Rasulov O'zbekiston teleradiokompaniyasi musiqiy yozuvlar "Oltin xazina" siga elikka yaqin kuy va qo'shiqlar yozdirdi. Uning ijrosida "Eshvoy", "Guluzorim", "Buhoro To'lqini", "Ajam Taronalari", "Muhammasi Buzruk", "Sarahbori Iroq", "Tortadur"<sup>16</sup> kabi kabi asarlar betakror ijro qilingan. O'ziga hos ijro yo'li va maktabiga ega ekanligini aynan Buhoroda musiqiy bilim va tarbiya olganligi va ko'plab zabardast ustozlardan ta'lim olganligidan deb bilamiz.

Bir qator zabardast maqom bilimdonlaridan saboq olgan va yoshlarga shu asnoda nafaqat g'ijjak cholg'usi va cholg'u ansambli,

<sup>15</sup> Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent, 2004. 301-bet

<sup>16</sup> Qodirov N. G'ijjak ijrochiligi maktabi. Toshkent, 2011. 127-bet.




maqom xonanadiligidan ham saboq bergan, maqom bilimdoni hisoblangan O'Imas Rasulov bastakorlik faoliyatida o'z davrida maqomga murojaat qilgan sanoqli bastakorlardan biri hisoblanadi. G'ijjak, manzum cholg'ulari uchun kuylar, kino va videofilmlar uchun kuy va ashulalar shuningdek maqom yo'llarida ham bir qator asarlar ijod qilgan. "Bobur", "Layli va Majnun", "Kecha va Kunduz", "Imom al-Buhoriy" videofilmlariga musiqa bastalagan. Aynan videofilmlarga bastalagan musiqalari orqali bastakor xalq orasida nom qozongan. Uning g'ijjak va manzur cholg'ulari uchun bastalagan asarlari ham o'quv yurtlarida o'rgatilmogda va bugungi kungacha Respublika mitqiyosida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlarda mohir kamonchilarning ijro repertuaridan joy olib kelmoqda. Shulardan "Tahayyul", "Hayol", "Karashma", "Seni eslab", "Dil mavji", "Visol", "Tasavvur", "Hijron", kabi cholg'u kuylaridir.

"O'Imas Rasulov g'ijjak, manzur sozlariga kuylar yaratish bilan birgalikda ansanbl jo'rluk qiladigan hamda ansanblga mo'ljallab ham asarlar bastalagan. Ulardan 1989-yilda to'qilgan g'ijjak va ansanbl jo'rligida "Diydor", 1996-yil ansanbl uchun "Dil tasnifi", 2003-yili g'ijjak va ansanbl jo'rligida "Kamon ufari", 2004-yilda g'ijjak va ansanbl jo'rligida "Oypalak" kuylarini alohida takidlab o'tishimiz mumkin."<sup>17</sup>

Bastakorning har bir yaratgan kuyi o'ziga hosligi bu mumtozona ahamiyat kasb etishi va kuy mavzusi bir biriga o'xshamasligidadir. Ayniqsa "Noz" deb atalgan kuyini ijro qilish uchun sozandadan ijro mahorati, nola (melizm)larni aniq chalish va bir oz texnika ham talab qilinadi. O'.Rasulovning Boshqa bastakorlardan farqli tomoni maqom cholg'u yo'li qonuniyatlariga mos keladigan asarlar ijod etganligidir. Bu asarlar "Dil tasnifi" va "Muhammasi Nabiulloh" deb nomlangan kuylardir. Avvalo o'z nomi bilan Shashmaqomning cholg'u yo'li hisoblangan Mushkulot bo'limi bosh kuy mavzusi tasnif so'zi berilgan. Bu kuyga maqomshunos olim san'atshunoslik fanlari nomzodi S.Begmatov o'zining "Bastakorlar ijodi" kitobida shunday tarif bergan: "Asarning metro-ritmik asosida 2/4 o'lchovi bo'lsada, tasnif usulining qoidasiga mos holda uch taktli kuy hajmiga asoslangandir.

<sup>17</sup> Qodirova D. Sozanda va bastakor O'Imas Rasulov. Diplom ishi. Toshkent, 2004. 47-bet.



Asarning shakli maqomlar cholg'u qismi kabi xona, bozgo'y tamoyiliga asoslangan va Re frigiya tonalligida yozilgan".<sup>18</sup> Bu asar 1996-yil bastalangan. 1999-yil ilk bora "V Respublika maqom ijrochilari" tanlovida Buxoro san'at bilim yurti o'quvchilaridan tarkib topgan sozandalar ansanbli tomonidan ijro qilingan va II o'ringa loyiq ko'rilgan.


Muhammasi Nabiulloh kuyi haqida bastakorning o'zi O'zbekiston teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida "Kundaliklar" ko'rsatuvida bergan intervyusida Oisha r.a haqidagi risolani o'qib, shundan tasirlanib yozganligini aytadi. Muhammasi Nabiulloh ham xona, bozgo'y tuzilmasida va Muhammas usulida 2/4 16 taktli o'lchovda ijod qilingan bo'lib, 2016-yil Eronning poytaxti Tehron shahrida bo'lib o'tgan "Muhammad" (s.a.v) 2-xalqaro musiqa festivalida ilk bor bastakorning o'zi tomonidan ijro qilingan. Hali hech bir bastakorning ijodida aynan Shashmaqom cholg'u yo'llari qonuniyatlar asosida bastalangan biron bir kuyini uchratmaganmiz. Bu jihat ham bastakorning ustaligi va maqom san'atiga bo'lgan mehr-muhabbati va o'z kasbiga bo'lgan fidoiyligidan darak beradi.

Mumtoz shariyatni yani aruzni bilganligi, maqom bilimdoni bo'lib uning qonuniyatlari va tuzilmasini chuqur o'rganganligi uchun O'.Rasulov ijodi davomida Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Bobur kabi mumtoz shoirlar g'azallariga ko'p murojaat qilgan. Asarlarning mavzusi keng ko'lamli ishq-muhabbat, pand-nasihat, bahoriy kayfiyat hisoblanadi. "Ijodi davomida yuzdan ortiq qo'shiq va ashulalar yaratgan. Shular orasida Alisher Navoiy g'azaliga: "Vaslidin darmoni yo'q", "Kerak erdi", "Muvofiq kiydilar", "Ko'ngil", "Yaxshi qol", "Nazzora qilma", "Ul otashin lal", Bobur g'azallariga: "G'unchadek ko'nglim", "Ko'rgaymen", Mashrab sheriga: "Dilbari hush adoymen", "Sig'madim", Cho'lpon so'ziga "Muhabbatning saroyi", "Kimlar" kabi ashulalardir".<sup>19</sup>

O'.Rasulov nafaqat mumtoz shoirlar balki o'tgan asrda yashab ijod qilgan shoirlar sherlariga kuy bastalagan. Bular "Parvona",

<sup>18</sup> Begmatov S. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017. 128-bet.

<sup>19</sup> Begmatov S. "Bastakorlar ijodi". Toshkent, 2017. 130-bet.




“Qo‘limda paymona” (Mahzuna), “Taronayi sho‘x”(M.G‘afforova) kabi ashulalardir. Bastakor o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlarning ijodiga yuzlangan. “Majnunatol” (T.Hamid), “Kulgumizdan yangrasin olam” (E.Vohidov), “Tingla bulbul” (Zulfiya), “Dunyo ketar surinib” (H.Hudoyberdieva), “Yorim” (Shukur Qurbon), “Sevgilim” (J.Jabborov, S.Zohidova), “Kel”, “Gulim majnunatol”, “Shirur keltirdim”, “Rayhon etib kel”, (T.Ahmad), “Ey go‘zal”, “Baxtimiz Taronasi”, “Buxoroni sog‘indim”, “Buxoriy bitta” (S.Salim Buxoriy)<sup>20</sup> kabi she‘rlarga musiqa bastalab xalqimizga manzur qilgan.

Bastakorning “Sig‘madim” ashulasi Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga tayangan holda ijod qilingan. Unda Navo namudining ohanglari qo‘llanilgan. Asarni maqomshunos S.Begmatov tahlil qilib boshlanish ohanglarini Bayoti Sheroziy turkumining IV taronasiga yaqinligini etirof qilgan.<sup>21</sup>

O‘.Rasulov umrining oxirgi yillarida ham ijoddan to‘xtamadi. G‘ijjak cholg‘usi uchun “G‘uluv”, “Mohim mening” kabi go‘zal kuylar, Buxoro To‘lqiniga Mo‘g‘ulcha (Mo‘g‘ulchay To‘lqin), Buxoro Irog‘iga Qashqarcha (Qashqarchay Buxoro Irog‘i) kabi Shashmaqom ashula yo‘llariga hos asarlar ijod qildi. Bu ikki ashula o‘z nomiga xos biri Mo‘g‘ulcha usulida, biri Qashqarcha usulida bo‘lib ashula yo‘lida uchraydigan namud va avjlardan ham samarali foydalanilgan. Mo‘g‘o‘lchay To‘lqin Mo‘g‘ulcha usulida 5/4 o‘lchovida Navoiyning “Aylangiz” radifli g‘azaliga bastalangan. Asar to‘liq maqom ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘balari tarkibiga kiruvchi Mo‘g‘ulchanning tarkibiy tuzilishi (daromad, miyonxat, dunasr, namudlar avj va furovard) qonuniyatlari asosida bastalangan. Muhayyari chorgoh namudi rivojlantirilib foydalanilgan. Bastakor bu asari bilan 2020-yili Bastakorlar orasida o‘tqazilgan “Maqom yo‘llarida yaratilgan eng yaxshi asar” respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan va faxrli III-o‘rinni egallagan. Bastakorlar uyushmasida bo‘lib o‘tgan tanlovda Mo‘g‘ulchay To‘lqin asarini O‘zbekiston Xalq hofizi Soyibjon Niyozov ijro qilgan. Qashqarchay Buhoro Irog‘i Qashqarcha usulida 4/4 o‘lchovida Mashrab g‘azaliga bastalangan. G‘azalning mazmuni nasihatomb bo‘lib, kuy mavzuida avji zebo pari va furovarddan oldin ushshoq namudining kichik ko‘rinishi kelishi bilan boshqa asarlardan

<sup>20</sup> Begmatov S. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017. 130-bet.

<sup>21</sup> Begmatov S. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017. 131-bet.



farq qiladi. Buhoro Irog‘ining shaxobchalarida qashqarcha bo‘lmaganligi va turkumni to‘ldirish uchun bastakor tomonidan bastalangan va Toshkent viloyati namunali maqom ansambliga Buxoro Irog‘i turkumini o‘rgatish davomida Qashqarchay Buxoro Irog‘ini Soyibjon Niyozovga o‘rgatgan va O‘zbekistonradikompaniyasi ovoz yozish studiyasida ijro qildirgan. Bastakor ijodi davomida malum g‘azal yoki kuy ohanglaridan ilhomlangan. Bu haqda uning o‘zi shunday deydi: “Ajdodlarimizning g‘azallaridagi har bir so‘z zamirida katta mano yotadi. Men go‘zal o‘xshatishlarga, istioralarga o‘ralgan ishq-muhabbat haqidagi sherlarga kuy yozishni yaxshi ko‘raman. Lekin ijod shunday narsaki, hamma sherlarga ham kuy bastalab bo‘lmaydi. Buning uchun ruhan yaqinlik kerak”.<sup>22</sup>

O‘.Rasulov 2018-yil Prezidentimizning qarorlariga asosan tashkil etilgan ansambllardan biri O‘zbekiston xalq hofizi Soyibjon Niyozov badiiy rahbarlik qilgan Toshkent viloyati namunali “Maqom” ansanbli tashkil topgan kundan boshlab yosh maqomchilarga ustozlik qildi. Ansanbl ijro dasturlarni deyarli o‘zi tuzdi va xonanda, sozandalarga ijro talqinlarini o‘rgatib O‘zbekiston teleradiokompaniyasi ovoz yozish studiyalarida yozdirdi. Bir qator telvideniyedagi “Javohir”, “Zebo pari” kabi musiqiy ko‘rsatuvlarda o‘zi bosh bo‘lib ansanbl bilan birgalikda qatnashdi. Ansamblga Sarahbori Navo va uning taronalari, Nasrulloiy va taronalari, Buhoro Irog‘i va shaxobchalari kabi turkumli asarlarni o‘rgatdi.

Maqom bilimdoni, hasos bastakor, jonkuyar ustoz O‘.Rasulov 70 yoshida 2020-yili vafot etdi. Umri davomida o‘zbek milliy musiqasi gultoji hisoblangan maqom san‘atini o‘rganish va o‘rgatish va u asosida ijod qilishdan charchamadi. Yetuk ijrochilarga ustozlik qildi. Mohirona soz va ovozdagi ijrolari va ijod qilgan asarlari bilan o‘zbek musiqasi tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. T; 2017.
2. Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligi maktabi. T; 2011.
3. Qodirova D. Sozanda va bastakor O‘lmas Rasulov. Diplom ishi T; 2004.

<sup>22</sup> Ohang bilan omuxta umr. O‘.Rasulov bilan S.Jumayev suhbat. Guliston jurnali. 1994-yil. 5-son. 52-bet.



4. G'ofurbekov T. O'zbekiston musiqa madaniyati. T; 2019.
5. G'ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri. T; 2019.
6. Matyoqubov O. Maqomot. T; 2004
7. Guliston jurnali. 1994 yil. 5-son.



## NAVO MAQOMIDA ARUZ VAZNI

**Muxlis QURBONOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI*

*2-bosqichi magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Komila BO'RIYEVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI dotsenti.*

**Annotatsiya:** An'anaviy xonandalikda maqomlarni va maqom yo'lidagi asarlarni ijro etish uchun ularning she'riy matnlariga alohida ahamiyat bermaslikning iloji yo'q. Shu sababdan ushbu ilmiy maqolada Navo maqomidagi aruz vazni masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, o'zbek adabiyoti, she'riyat va musiqa, vaznlar, qisqa va cho'ziq hijolar, ruboiynavislik.


**Аннотация:** В традиционном пении нельзя не обращать особого внимания на их поэтические тексты для исполнения макамов и произведений на пути макама. По этой причине в данной научной статье освещены вопросы веса Аруз в статусе Наво.

**Ключевые слова:** фольклор, узбекская литература, поэзия и музыка, гири, короткие и длинные стихотворения, каллиграфия.

**Abstract:** In traditional singing, it is impossible not to pay special attention to their poetic texts in order to perform maqams and works on the path of maqam. For this reason, this scientific article covers the issues of Aruz weight in the status of Navo.

**Key words:** folklore, Uzbek literature, poetry and music, giri, short and long poems, calligraphy.

She'r va musiqa azaldan bir biriga yaqin, yo'ldosh, egizak san'at turlari sanaladi. Ularning o'zaro bog'lanish rishtalari xilma xil va o'ziga xos. Dastlabki mushtarak negizlardan ajralib chiqqach, she'riyat va musiqa alohida san'at sifatida yo'l tutib, inson ongi hamda xis tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishning nozik siru asrorlarini kashf eta boshladi. Maqom san'atida esa ular birlashadi, yuksak uyg'unlikda biri ikkinchisini to'ldirib, sayqal berib, yangi ijodiy qirralarni ochishga xizmat qiladi. Musiqa og'ushida uning jozibali ohanglariga chulg'angan nozik so'z, she'ming ta'siri yanada kuchliroq va



lazzatliroq bo'ladi. Agar she'r so'zga singdirilgan kuy desak, nazm va navo uyg'unlashgan maqom san'atida yana bir karra ortiq musiqiylik kuchga kiradi. Vazn, kuychanlik va mutanosiblikdan yaralgan she'r qo'shiq va musiqaning, yagona ijod chashmasining ramzidir. Oddiy qo'shiq ana shu nozik va serqatlam aloqalarning dastlabki bosqichi. Mukammal ixtisoslashgan maqom san'atida esa bu uyg'unlik yanada yuksak darajada, mumtoz musiqa va mumtoz she'riyat tutashuvida namoyon bo'ladi. Unda kuy she'rga, she'r kuyga qo'shimcha qanot bog'lab, chuqur ma'nolar hamda ruhiy holatlarga da'vat etadi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" asarida shunday hikmatlar bitilgan: "Soz chalinib, yoqimli xonish qilinganda, eshituvchining hayoti, naqdi unga fido bo'lsa ne g'am. Ko'ngul quvvati yaxshi cholg'uchidan, ruh ozig'i hush ovozdandur. Xushxon mutribdan dard ahlining o'ti tez bo'lur. Har bir sozandaning sozi dardliroq bo'larkan, uning chertishi yarali Yurakka ta'sirliroq tegadi. Porloq yuzli mutrib xalqumidan yoqimli qo'shiq taratib, hol ahlining kuygan bag'ridan tutun chiqaradi." Har bir maqom muayyan ruhiy holat sanaladi. Lekin bu qalb holatlarini, xis tuyg'ularni so'z bilan ta'riflash mushkul. Shu bilan birga, so'z vositasida izxor etib bo'lmaydigan fikrning o'zi yo'qligi ham taajjublidir. She'rda esa musiqaga o'xshash tuyg'u xayajoni va so'zga xos ma'nodorlik mavjud. Shuning uchun ham she'riyat, ayniqsa, lirik kayfiyatlar bilan sug'orilgan g'azaliyot ruhan maqom kuylariga aynan mos tushadi va jonli ijroda bir biriga chambarchas bog'lanib ketadi.

She'riyatimizda yaratilgan ruboiylarning aksariyat misralari ikkinchi rukni mafoilun bulgan axrabi maqbus shahobchasiga mansub turt ulchovga asoslanadi. Buning sababi ushbu vaznlarda qisqa va cho'ziq hijolarning joylashishi tufayli hosil bo'luvchi yoqimli, salobotli ohangda albatta. Bu to'rt vazn quyidagilardir:

- Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar.
- Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.
- Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb.
- Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi axtam.

O'zbek adabiyotida (Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Avaz ijodida) yaratilgan bir vaznli 150 ruboiydan 100 tasi ushbu shahobcha o'lchovlarida bitilgan. Ikkinchi rukni mafoiylunga teng axrabi makfuf shahobchasi tarkibiga kiruvchi to'rt vazndan yuqoridagi maqbuz



shahobchasi o'lchovlariga nisbatan ruboiynavisligimizda nisbatan kamroq foydalanilgan. Bular:

- Hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar.
- Hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall.
- Hazaji musammani axrabi makfufi ajabb.
- Hazaji musammani axrabi makfufi axtam vaznlaridir.

Ikkinchi rukni mafoiylunga teng bo'lgan axrabi solim shahobchasiga mansub to'rt vazn esa she'riyatimizda mutlaqo qo'llanmagan. Buning sababi ushbu o'lchovlar o'rtasida, ya'ni ikkinchi va uchinchi ruknlarda besh yoki olti cho'ziq hijoning yonma-yon kelishi tufayli og'ir ohang hosil bo'lishidir. Bu to'rt vazn:

- Hazaji musammani axrabi solimi axrami abtar.
- Hazaji musammani axrabi solimi axrami azall.
- Hazaji musammani axrabi solimi ajabb
- Hazaji musammani axrabi solimi axtam.

Axrab shajarasi vaznlaridan har biriga xos xususiyatlar va ularning she'riyatimizda qo'llanish ko'lamini shu vaznlardan har qaysisi haqidagi ma'lumotlardan bilib olishingiz mumkin. Endi esa maqom she'rlarida ko'p uchraydigan aruz vaznlari haqida to'xtalib o'tamiz!

HAZAJI MUSAMMANI AXRABI MAKFUFI SOLIMI AZALL vazni axrab shajarasidagi ruboiy ulchovlaridan biri bo'lib, hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznidan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilangina farqlanadi.

- Uning ruknlari va chizmasi bir misrada
- Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fo'

-----V V -----V V -----

shaklidir. Ya'ni oldingi uch rukni yuqoridagi vazn singari bo'lib, oxirgi ruknigina mafoiylun aslining azall tarmog'i fo'ga teng.

Ushbu o'lchov ruboiynavis shoirlarning asarlari misralarida kam bo'lsa-da qo'llangan. Jumladan, Shashmaqomning Dugoh maqomidagi Oraz Dugohning ikkinchi taronasida ijro etilgan Alisher Navoiy qalamiga mansub:

- Yoshing'a bag'ir qoni chu erdi monand,
- Ko'z asradi yoshdek bulub andin xursand.
- Turmodi ko'zumda yetkach ul sarvi baland,



Bulmas kishi farzandi kishiga farzand.  
ruboysidagi 1-, 2-, 4-misralar shu xil o'lchovda bitilgan. Bobur yaratgan

Ahbobg'a qilsang guzar, ey yel, nogoh

Ul jam'ni bu yeo'zumdin etgil ogoh:

Siz kurgandek eson-salomattur biz,

Siz dogi eson bulg'asiz inshoolloh.

ruboysining birinchi va to'rtinchi misralari ushbu

vazn asosida yozilgan. Munisning

Har damki xayolingni qilurman, ey shux,

Ummidi visolingni qilurman, ey sho'x.

O'lgan tanima ravon kirar shirin jon,

Chun yodi zulolingni qilurman, ey sho'x

ruboysidagi barcha qofiyadosh misralar mazkur ulchovda yozilgan. Munisning ushbu ruboysi bilan esa Dutor maqomlaridan biri sanalgan Urganji maqomi ijro etiladi.

HAZAJI MUSAMMANI AXRAMI ASHTARI MAKFUFI AJABB vazni ham axram shajarasiga mansub ruboiy o'lchovlaridan bo'lib, ruknlari va chizmasi bir misrada

maf'ulun foilun mafoiylu faal

----- u — u ----- V V —

tarzidadir. Uning tarkibini mafoiylun aslining axram tarmog'i maf'ulun (sadr va ibtidoda),

ashtar tarmog'i foilun (oldingi hashvda), makfuf

tarmog'i mafoiylu (keyingi hashvda) hamda ajabb

tarmogi faal (aruz va zarbda) ruknlari tashkil etadi. Ushbu

o'lchovda 4 qisqa va 8 cho'ziq hijoning yuqoridagi tarzda takrorlanishi axram shajarasining boshqa vaznlarig'a nisbatan yengilroq ohangni hosil qiladi. Mazkur o'lchov Alisher Navoiydan boshlab Bobur, Ogahiy kabi shoirlar yaratgan ruboiylarda kam bo'lsa-da qo'llanib turgan. Jumladan,

Alisher Navoiy qalamiga mansub

Xushtur bo'isoq ikovla hamdam senu men,

Bir-birga desak yetushsa har g'am senu men.

Bulsoq bor esak haramg'a mahram senu men,

Mug' dayri aro bo'lsa vatan ham senu men



ruboysining birinchi misrai mazkur o'lchovda bitilgan. Bobur yozgan

Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,

Sen shu'lase, ul shu'lag'a men quldurmen.

Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,

Shahmen elga vale sanga quldurmen

ruboysidagi uchinchi misra ham ushbu vazn asosida

yaratilgan. Shashmaqomning Nasri Ushshoq taronasida ijro etiladigan Ogahiy yozgan

To tushti firoq o'tig'a bemor ko'ngul,

Yuz dardu g'amu alamg'a duchor ko'ngul.

Davron sitami tiyg'idin afgor ko'ngul,

Bo'lmish mandin malulu bezor ko'ngul!

ruboysining oxirgi misrai ham mazkur o'lchovdadir.

"Axrami Axrab" shaxobchasi vaznlari haqida to'xtalamiz.

HAZAJI MUSAMMANI AXRAMI AXRABI SOLIMI ABTAR vazni axram shajarasidagi ruboiy o'lchovlaridan bo'lib, uning ruknlari va chizmasi bir misrada

maf'ulun maf'ulu mafoiylun fa'

tarzidadir. Uning tarkibini mafoiylun aslining

axram tarmog'i maf'ulun (sadr va ibtidoda), axrab

tarmog'i maf'ulu (oldingi hashvlar o'rni), solim

ko'rinishi mafoiylun (keyingi hashvlarda) hamda abtar tarmog'i

fa' ruknlari tashkil etadi. Ikkitagina

qisqa va to'qqiz cho'ziq hijoning bu xil takrori og'ir

ohang hosil qiladi. Sh u tufayli bu o'lchov ruboiynavisligimizda

kam qo'llangan. Mazkur vaznda yozilgan

dastlabki misralarni Hofiz Xorazmiy ruboiylarida ko'ramiz.

Chunonchi, uning

Ishq ichra qachonki benishon bulgayman,

Qul ham bulsam shohi zamon bulg'ayman.

Xoki qadamingga bosh quyub yer o'psam,


Olamning ichinda komron bo'lgayman

ruboysining ikkinchi misrasi shu o'lchov asosida yaratilgan edi.

Alisher Navoiyning:

Olam tarki kishiga himmatdin erur,

Kim kup shiddat ul sori rag'batdin erur.



Nafsingg'a qayu alamki shiddatdin erur,  
Maxfiy tutmoq onn muruvvatdin erur.  
ruboysidagi ikkinchi va to'rtinchi misralar ushbu o'lchov asosida yozilgan.

Muhayyari Iroqning ikkinchi taronasida ijro etilgan Boburning  
Bir zulfdin, ey kungul, parishon bulma,  
Bir yuzga ham asru zoru hayron bulma.  
Men senga demonki, tarki ishq et, lekin,  
Andoq qilkim, so'ngra pushaymon bulma  
ruboysidagi oxirgi misra ham shu o'lchovda.

Vaznlarni aniqlash usullariga to'xtalib o'tamiz. Maqomlarda ijro etilgan u yoki bu she'riy asarning vaznini aniqlash uchun avvalo taqti' yoki chizmalar asosida bahr aniqlanadi, so'ng she'r baytlarining necha rukndan tashkil topgani belgilanadi. Ma'lumki. bayt to'rt rukndan tashkil topgan bo'lsa murabba' (to'rt ruknli), olti rukndan iborat bo'lsa musadsas (olti ruknli). Sakkiz rukndan tuzilgan bo'lsa. musamman deb ataladi. Ruknlar soni undan ko'p bo'lsa, ularning soni ko'rsatilib, "16 ruknli", "20 ruknli" deb atalaveradi. Mustahzod shaklida bitiladigan she'r esa 12 ruknli bo'lib, vazn oxirida "mustahzod" so'zi qo'shib aytiladi. Shundan keyin she'r baytlarida qo'llangan ruknlarning turlari, nomlari aniqlanadi. Agar baytdagi barcha ruknlar u yoki bu aslning o'ziga teng bo'lsa.

Bunday vazn, ya'ni ruknlari faqat asllarga teng, ya'ni o'zgarishga uchramagan degan ma'noda solim (sog'lom) deb yuritiladi. Agar b.tytda tarmoq ruknlar ham qatnashgan bo'lsa, ular pomma-nom sanaladi. Bahr nomi, baytniig necha ruknli ekanligi, ruknlarning nomlari she'r vaznini ifodalaydi. Masalan, Boburning

Xazon yaprog'i yanglig gul yuzung hajrida sargardim,  
Kurub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim

baytining barcha ruknlari mafoiylun asliga teng, baytdagi ruknlar soni esa sakkizta. Binobarnn, she'r hazaj bahrining sakkiz ruknli o'lchovida yozilgan bo'lib, ruknlari aslning o'zigagina tengligi uchun she'r vazni hazaji musammani solim deb ko'rsatiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Boburning ushbu g'azali Navo maqomining Nasri Bayotida va Dugoh maqomining Oromijon asarlarida ijro etiladi.

Ogahiyning  
Ey jamolingdur jahop zebandasi,



Oyu kun ermas oning monandasi

baytining o'lchovini aniqlasak, unda foilotun va foilun ruknlari ishtirok etganini ko'ramiz. Foilun tarmogi ham foilotun aslidan hosil bo'lgan, demak she'r ramal bahrida yozilgan. Baytdagi ruknlar soni 6 ta. Demak musaddas. Xar qaysi misradagi 1 -2 -ruknlar foilotunning asliga, oxirgi ruknlar shu aslning mahzuf tarmogi-foilunga teng. Binobarin, she'r vazni ramali musaddasi mahzuf deb ataladi. Uvaysiy qalamiga mansub

Ey gul, jigarim qoni uzoringga munosib,  
Yuz porali kunglum dogi xoringga munosib.

baytining o'lchovini aniqlasak, uning ruknlari  
maf'ulu mafoiylun mafoiylun faulun

tarzida ekanini ko'ramiz. Ushbu tarmoq ruknlarning har biri mafoiylundan hosil bo'lgan, ya'ni bayt shu asl takroriga asoslanuvchi hazaj bahridadir. Baytdagi ruknlar soni sakkizta, ya'ni musamman. Maf'ulu - mafoiylun aslning axrab tarmog'i, mafoiylun - makfuf, faulun esa mahzuf tarmog'i. Shunga kura she'r vaznini hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf deb kursatamiz.

Yuqoridagi ifoda - bayt (she'r) vaznining qisqa ifodasi, chunki unda faqat ko'llangan tarmoq rukn nomigina ko'rsatilib, uning o'rni ham, solim rukn ham ko'rsatilmagan. Shuning uchun bu xil ifoda aruz ilmi bilan mukammal tanish bulmagan kishiga she'r vazni haqida aniq tasavvur berolmaydi, Bayt (she'r) vaznining to'liq ifodasini berish uchun esa har qaysi rukn, jumladan, asllar nomini va o'rmini aniq ko'rsatish talab qilinadi, ya'ni sadr, ibtido', hashv, aruz va zarb ruknlari o'lchovi ta'kidlanadi. Jumladan, yuqoridagi misolda baytdagi sadr va ibtido' ruknlari o'rnida mafoiylunning axrab tarmog'i - maf'ulu, hashvlar o'rnida shu aslning makfuf tarmog'i mafoiylun, aruz va zarb ruknlari o'rnida esa mafoiylunning mahzuf tarmogi faulun qo'llangan. Shunga ko'ra bayt vaznini hazaji musammani sadr va ibtido' - axrab, hashvlar - makfuf, aruz va zarb - mahzuf deb ko'rsatiladi. Ana endi baytdagi hamma ruknlar o'rnida qaysi tarmoq ruknlar qo'llangani aniq bo'ldi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, she'rlar vaznini ko'rsatishda asosan uning qisqa ifodasi qo'llanadi. Lekin aruz ilmidan xabardor kishi baytga nazar tashlab vaznning to'liq ifodasini aniq.vay oladi.



Vasl — (arabcha “ulanish”) aruz tizimi asosida yaratilgan she’riy asarlarni ifodazi o’qish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni undan keyin turgan hamda unli bilan boshlangan hijoga qushib talaffuz etish hodisasi. Ana shu qoidaga amal qilinmasa, hijolar tartibi buzilib, ohangga jiddiy putur yetadi. Jumladan, Dugoh Husayniy lida ijro etilgan Muqimiyninng


Navbahor ochildi gullar sabza bo’ldi bog’lar,  
Suhbat aylaylik, kelinglar, juralar, o’rtog’lar  
baytini vaznga muvofiq o’qish uchun “suhbat” so’zining “bat” hijosi oxiridagi “t” undoshini undan keyin turgan so’zdagi “ay” hijosiga ulab “tay” tarzida talaffuz etish kerak bo’ladi. Alisher Navoiy qalamiga mansub

Bu gulshan ichraki yuqtur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.  
baytidagi “shan” va “dat” hijolari oxiridagi “n” va “t” undoshlari ulardan keyin turgan hijolarga qo’shilgan holda “nich”, “te” tarzida o’qilishi shart. Aks holda qisqa hijo o’rnida turgan “shan” va “dat” hijolari cho’ziq hijo hosil qilib, vaznning buzilishiga sabab bo’ladi.

She’riyatimizda bu hodisa juda kup uchraydi (qarang: “Aruz vaznidagi she’rlarni ifodali o’qish”).

Vasli “ho”. Aruz tizimida yaratilgan she’riy misralardagi ayrim yopiq hijolarning oxirgi undoshini vazn gaqozosi bilan o’zidan keyin turgan va “h” undoshi bilan boshlanuvchi hijoga qo’shib o’qish hodisasi. Bu jarayonda, odatda “h” undoshi tushib qoladi. Ushbu hodisa kam bo’lsa-da, o’zbek adabiyotida, xususan, xalq og’zaki ijodi ta’sirida ijod qilgan va “turkona” deb ataluvchi sodda uslubga rioya qiluvchi shoirlarning asarlarida uchraydi. Jumladan, Soqinomial Savti sabo asarida ijro etiladigan Muqimiyning “Tanobchilar” asaridagi

Buldi taajjub qiziq hangomalar,  
Arz etayin emdi yozib nomalar  
baytidagi “qiziq” so’zi oxirida turgan “q” undoshi keyingi “han” hijosiga ulab tazaffuz qilinadi. Bu jarayonda “h” undoshi tushib qolib, «q» “g” ga aylanadi va “g’an” (qizi — g’angomalar tarzida) o’qiladi. Mashrab qalamiga mansub  
Kuzuma ko’rinur mani dilbarim har qayonada,  
Ishqini yor ayladim o’zuma bu zamonada



baytining birinchi misrasidagi “dilbarim” so’zining oxirgi “m” undoshi o’zidan keyingi “har” hijosiga q.ushib o’qilganda “h” undoshi tushib qolib mazkur hijo “mar” tarzida talaffuz qilinadi.

Vofir bahri (“vofir” arabcha so’z bo’lib, “mo’l” ma’nosini ifodalaydi) aruzning asosiy o’lchovlaridan bo’lib, “mafoilatun” aslining takroriga asoslanadi. Jumladan, uning sakkiz ruknli solim ko’rinishi ruknlari va chizmasi har misrada

Mafoilatun mafoilatun mafoilatun mafoilagun  
V — V V — V — U U — V — V V — V — V V —  
tarzidadir.


Vofir bahri arab she’riyati uchun maxsus bo’lib, fors-tojik va turkiy she’riyatlarda undan foydalanilmagan. Alisher Navoiy o’zining “Me’zonul avzon” asarida ushbu bahr haqida yozar ekan, vofiri musammani solim vazniga Shashmaqomdagi Mustaxzodi Navoda ijro etiladigan

Firoq o’tidin kuyar badanim, tafidin erib oqar jigarim,  
G’amim budururki, bog’lanibon yuzung sari tushmagay nazarim.  
baytini, vofiri musaddasi solim vazniga esa  
Ne furqat erur seningsizin o’rtanur yurakim,  
Ne bo’lg’ay: agar menga guzar aylasang mirakim  
baytini misol qilib keltirgan edi.

Bobur uzining “Muxtasar”ida vofir bahrining jami 21 vazniga turkiy tildagi o’z she’rlarini misol qilib keltirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Zahiriddin Bobur. Muxtasar / Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. — T.: Fan, 1971. — 413 b.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. MAT. 20 tomlik. — T.: Fan, 1989. T. 4. — 560 b.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 20 tomlik. — Toshkent: Fan, 1991. T.7. — 392 b.
4. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirik. — T.: Fan, 1992.



## XONANDALIK SAN'ATIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

*Husniddin XUSANOV,*

*O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası  
katta o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi.*

**Annotatsiya:** *Insonning ma'naviy kamolotida, uning ruhan poklanishida, asosiy mezonlardan biri, bu – mumtoz musiqa san'atidir. Musiqa - inson kamolatiga erishishda eng ma'nauv ozuqlantiradigan uning tarbiyasiga sezilarli darajada foydali ahamiyatga ega bo'lgan omil hisoblanadi. Musiqa yosh avlodni tarbiyalashda uning aqliy intellektualini oshirishda bolaning dunyo qarashini, teran fikrlashida boshqa sohalar bilan uzviy bog'liqligini anglatgan holda yoshlarning yaxshi xulq egasi bo'lib tarbiyalanishida xizmat qiladi.*


**Kalit so'zlar:** *an'ana, xonandalik, "ustoz-shogird", musiqa, ijro.*

**Аннотация:** *Классическая музыка является одним из главных критериев духовной зрелости человека, его духовного очищения. Музыка является наиболее значимым фактором развития человека и фактором, оказывающим значительное благотворное влияние на его образование. В воспитании подрастающего поколения музыка служит повышению умственных и интеллектуальных способностей ребенка, воспитанию мировоззрения ребенка, в его глубоком мышлении, в неразрывной связи с другими областями.*

**Ключевые слова:** *традиция, пение, "устоз-шогирд", музыка, исполнительство.*

**Abstract:** *Classical music is one of the main criteria for the spiritual maturity of a person, his spiritual purification. Music is the most meaningful factor in the development of a person, and it is a factor that has a significant beneficial effect on his education. In the education of the young generation, music serves to raise the child's mental and intellectual abilities, and to bring up the child's world view, in his deep thinking, to be inextricably linked with other areas.*

**Key words:** *tradition, singing, "ustoz-shogird", music, performance.*



Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir.

Musiqaning samoviv yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantirib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan.

Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir.

Musiqani tinglash madaniyati boshqa uni ijro qilish madaniyati umuman boshqa shaxsni tarbiyalaydi. Musiqa ijro qilgan yoshlar bevosita musiqada hayotning ijtimoiy tashvishlarini ranglarda ko'radigan, ijtimoiy holatlarga ta'sirchanlikni ya'ni insoniylikni yuqori daraja his qilib tarbiyalanadi. Musiqani eshitish orqali tarbiyalangan yoshlar ham biroq ijtimoiy holatga o'z fikrini aniq ifodalaydigan bo'lib tarbiyalanadi. Fikri bilan his tuyg'ularni chambarchas bog'lagan yoshlar albatta keng dunyo qarashga ega bo'lgan yoshlar, ma'nauv yuksak insoniy fazilatlariga ega shaxs bo'lib kamol topadi. Shunday yoshlarning kamol topishida musiqa ijrochiligining turli ansambllari, orkestrlari ijrosining repertauridan o'rin olgan turli musiqiy janrlari yoshlarni hayotga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirib boradi. Asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan, xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan mumtoz ashulalar, ularning targ'ibotchilari bo'lmish ulug' hofizlarning ijodi yezgulikka qaratilgani tufayli hamisha e'tiborga, e'tirofga munosibdir. Ustoz san'atkorlarnig ijodiy merosini




o'rganib, uni yanada keng targ'ib etish, yosh avlod qalbtga singdirish ma'suliyatli va sharaflil vazifa bo'lib qolaveradi.

Bugungi kunda o'zbek milliy musiqa merosini o'rganish va yanada rivojlantirish borasida kuplab ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, azal-azaldan ustoz va shogirdlik an'anasi mavjud bo'lib, ayniksa san'at soxasida bunga e'tibor juda kattadir. Ustoz – shogird munosabatlari ajdodlarimizning an'analaridan biri bo'lib ushbu an'anadan yosh avlodni tizimli kamolotga yetkazishda foydalanib kelingan. Shuning uchun ham "Ustoz" degan ibora bizga nonday arzandadir. Butun mashrik zaminda ustoz-shogirdlik an'anasi chukur hurmat, izzat-ikrom va o'zgacha oliy makom kadriyatlar shoxsupasining eng to'ridan joy olgan. Ashula va raks ansambllari musika ijrochilik san'ati, ustoz-shogird an'analarining barcha barcha hususiyatlariga ko'ra, uzok o'tmishga borib takaladi.

Yangi davr o'zbek milliy musikasining tarakkiy topishida milliy an'analar muhim o'rin tutadi. "Ustoz-shogird" an'anasi o'zining ko'p yillik tarixi va yuksak e'tirofi ila asrlar davomida yashab kelmokda. Shuni ta'kidlash joizki, an'anaviy xonandalik namunalari "ustoz-shogird" an'anasining bardavomligi orkali avlodan-avlodga o'tib, rivojlanib kelgan. Bu tamoyil musikiy ijodning barcha yo'nalishlarida muvaffakkiyatli natija beradi.

Zamonaviy o'zbek an'anaviy ijrochiligi yangi boskichda ko'rsatishda ko'plab ishlar amalga oshirilmokda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan islox kilish, jaxon standartlariga mos kadrlar yaratish borasida tashlanayotgan odimlar o'z natijasini bermokda. Hozirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida, O'zbekiston davlat konservatoriyasida turli ta'lim yo'nalishlarida yosh kadrlar yetishtiriladi. Albatti oliy ta'lim dargohida mutaxassis-pedagog, hofiz-pedagoglar sabok beradilar, o'kuv kurslarida talaba-yoshlarni tayyorlaydilar. Men tahsil olayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston xalk hofizlari Beknazar Do'stmurodov, Orolmirzo Safarov, Ahmadjon Dadayevlar singari professional mutaxassislar saboq beradi. Ularning tahsil berish jarayonida aynan "ustoz-shogird" an'anasining qo'llanishi, sohada katta natijalar bermokda. Hozirgi yakkaxon xonandalik, jamoa boshqaruv uslubiyoti, yakkaxon sozandalik, ashulachilar ansambli, raqs, o'zbek va jahon musiqasi tarixi singari darslar talaba ijrochilik



san'atini rivojlantiradi, kasbga yo'naltiradi, ijodiy jarayonlar bilan yaqinlashtiradi. Ustozlar ta'limida talabaning sozandalik mahoratiga alohida e'tibor qaratishadi. Milliy cholg'ularimizni chala olgan ijrochining mahorati yanada rivojlantiriladi. Ham xonandalik ham sozandalik mahorati shakllangan ijrochida musiqani his etish, ovoz pardalaridan to'g'ri foydalanish, mukammal ijro yuzaga keladi.

O'zbekistonda milliy musiqa san'atini taraqqiy toptirishda izlanishlar va islohotlar ko'lami kengayib borayotgan vaqtda "ustoz-shogird" an'anasining bardavomligi muhim o'rin tutadi. Ustoz san'atkor o'z shogirdini mahoratini shakllantirishda muntazam ishlaydi, jonli ijro, bastakorlik mahorati, adabiy vaznlar bilan, ayniqsa aruz vazni qoidalari bilan ishlash talablaridan foydalaniladi. Institutda barcha sharoitlar yaratilgan, o'quv auditoriyalari, axborot resurs markazi shular jumlasidandir. Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan – cholg'u va aytim (ashula) yo'llari (turkumlari)dan iborat bo'lib, ularni "ustoz-shogird" an'anaviy maktabida tahsil ko'rgan malakali kasbiy cholg'uchi va ashulachi-hofizlargina mukammal ijro eta oladilar. Maqomlar asosan og'zaki an'ana tarzida ya'ni ustozdar shogirdga "og'zaki uslub" vositasida o'tib, yashab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda an'anaviy ijrochilik san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha izlanishlar zamonaviy o'zbek an'anaviy ijrochilik san'atida "ustoz-shogird" an'analariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Aynan mazkur sohada bu an'ana muhim o'rin tutadi. Agarda an'anaviy ijrochilik san'atida nazariy bilimlar hamda amaliy soha mazkur an'ana asosida rivojlantirilmasa, natijada an'anaviy ijrochilik san'atining asl holatida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi.

Biz tadqiqot olib borayotgan mavzu ko'lamida ham bu an'ananing ishlash tamoyili yuqori o'rinda turadi. Bunda ustoz ijro jarayonida adabiy til normalariga rioya etishi, umuman olganda o'zbek mumtoz adabiyoti hamda badiiy ijod qonuniyatlaridan foydalana olishi lozim. O'zbek an'anaviy ijrochilik san'atining asrlar davomida avlodan-avlodga o'tishida ushbu an'ananing hissasi beqiyos. Oltin merosga aylangan musiqiy asarlar "ustoz-shogird" an'anasi asosida yaralib, saqlanib kelinmoqda.



Inson borligini, ma'naviy taraqqiyotini musiqiy madaniyatsiz tasavvur kilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida uchmas iz qoldirgan barcha allomalar musiqa va qo'shiqchilik san'atining boy imkoniyatlaridan to'la foydalanishga, san'at orqali ma'naviy kamolot chukkilarini zabt etishga muvaffaq bo'lganlar.

Musiqa va adabiyotning chambarchas bog'liqligi, an'anaviy xonandaning ijodiy potentsialli va izlanishlari doirasida yaratilgan musiqiy asarlar an'anaviy ijrochilik namunalarigina bo'lib qolmay, balki xalq boyligi, madaniyati merosi hisoblanadi. Ijod – ilohiy jarayon, ayniqsa, milliy musiqaning taraqqiyoti, yangidan yangi "hayoti" uchun bag'ishlangan kuch ijodkorning shahsini asrlarga muhrlaydi, ruhiyat va ko'ngil sog'inib tinglaydigan milliy ashulalar dunyoga kelaveradi. An'anaviy xonandalik taraqqiyoti zamirida bevosita o'zbek mumtoz adabiyotining sara namunalaridan foydalangan holda yangi ijrolar yaratiladi.

El olqishiga sazovor bo'lgan xalq hofizlarining hayoti, ijodi, ustozlari, shogirdlari, aytim yo'llari haqida qisqacha ma'lumot berish barobarida, bastakorlik ijodi, ovoz imkoniyatlari va turlari borasida axborot berishga harakat qilindi. Ulardan Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, G'anijon Toshmatov, Jo'raxon Sulstonov, Saidjon Kalonov, G'ulomjon Xojiqulov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov va Rahmatjon Tursunov kabi bastakor va ijodkorlarni tazkirasi sifatida xayoti va ijodi borasida qisqacha to'xtalib o'tiladi. Zamonaviy ijodiy jarayonlarni rivojlantirish, soxada yetuk va malakali kadrlar tayyorlash, "ustoz-shogird" an'anasining bardavom bo'lishida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi;

Bunda xonanda nafaqat ma'lum g'azalni yoki she'rni o'qishi, balki adabiyotni sevishi, ko'p badiiy kitoblar mutolaa qilishi lozim. Xonanda tasavvurida badiiy-ruxiy kenglik, so'z mohiyatini xis eta bilish, milliy mintalitetni va vatanparvarlik g'oyalari shakllanadi.

Milliy musiqa merosimizga bo'lgan hurmat va e'tirof yuksakligi, inson qalbida yanada kurtak ochishi zamirida an'anaviy xonandalarning ijodiy faoliyati yotadi. Bu insonning nafaqat musiqiy bilimi kengayishi, axloqiy tarbiyasi, ruhiy olami, ma'naviy kamoloti o'sadi va dunyoqarashi kengayadi.

Xalqimiz madaniyatini va ma'naviyatini yuksaltirish, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga e'tibor hamda ularning



dunyoqarashlarini kengaytirishda, erkin fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishda milliy musiqaning durdonalari va an'anaviy qo'shiqlarimizning avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og'izdan-og'izga o'tib, kuylanib, sozlar orqali chalinib kelingan.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri xisoblangan musiqa har soxada, ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, jismoniy mehnat soxiblaridan to aqliy mehnat axillarigacha - hamma san'at ne'matlaridan baxramand bo'ladi, ertangi kunning yanada porlok bo'lishi uchun intiladi.

Ulug' ajdodlarimiz musiqa va qo'shiqchilik sa'natining inson shaxsini kamol toptirish, oliyijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak baxo berganlar. Musiqiy madaniyatning barcha turlari kishilarga badiiy-estetik zavq beribgina qolmay, ilmiy tushunchalar bilan ifodalash g'oyat mushkul bo'lgan olam sirlari haqida bilimlar beradi, hayot xaqiqatini badiiy-estetik vositalar orqali idrok etishga yaqindan yordam beradi.

Komillar, ulug' allomalar nazarida so'zi loxiy va muqaddasdir. Qo'shiqchilik san'ati mo'jizaviy va sehrli kuchga ega bo'lgan so'zga ohang vositasida jozibadorlik bag'ishlaydi, uning ta'sir kuchini yanada oshiradi, so'zga yangi hayot beradi. Musiqaning hamohangligi tufayli so'zinson qalbi va shu'rini larzaga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi kuchga aylatadi. Xullas, mamlakatimizda komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan hozirgi sharoitda ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan musiqiy madaniyatimizning urni beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayev O'. Cholg'u ijrochiligi va ansambl. Navoiy-2019.
2. Yo'ldoshyeva N. O'zbek xalq musiqa ijodi. Toshkent-2007.
3. Botirova H. O'zbek xalq musiqa ijodi tarixi. <https://znanio.ru/media>
4. Muyassarov F. Musiqa va hayot. Toshkent -2021




## O'ZBEK AHOLI SOZANDA YAKKA-YOLG'IZ VA JAMOA BO'LIB IJRO QILISHINING KREATIV KOMPETENTLIGI METODLARI

*Islam MURATBAEV,  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti magistranti.*

**Annotatsiya:** Maqolada, Kreativ-kompetentlik metodlar haqida, o'zbek aholi sozining kelib chiqishi, orkestrning paydo bo'lishi, yakka-yolg'iz va jamoa bo'lib, ijro usullari haqida yozilgan. O'zbekistonda soz asbob turlaridan, torli, uplama va urma - soz asboblar guruhlaridan iborat bo'lib, funksiyalari, ijro imkoniyatlari va turlari bilan ko'pincha Tojik va boshqa xalqlarning soziga o'xshash turlarini o'rganish. Musiqa madaniyati fanini o'rgatish metodikasi pedagogika - psixologiya fanlari bilan uzluksiz aloqador hisoblanadi. Kasbga kompetentlik mutaxassis tomonidan farqli bilim, tajribani egallashi emas, u balkim, har bitta yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarni o'zlashtirilishi nazarda tutiladi. Shuning uchun, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini hammavaqt boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlash va ularni dars vaqtida qo'llay olishni nazarda tutilishi, noma'lum vazifalarni bajarish, bir-biriga tiyrama zid mashg'ulotlardan foydalanish, kutilmagan vaqtda harakat rejasiga ega bo'lishni o'rgatish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ, kompetent, dedaktika, metod, vokal, funktsiya.

**Аннотация:** В статье рассказывается о креативно-компетентностных методах, о происхождении узбекской народной музыки, о возникновении оркестра, о методах сольного и коллективного исполнения. В Узбекистане слово состоит из типов инструментов, групп струнных, флейтовых и ударных инструментов, функции, возможности исполнения и с видами, часто изучающими виды, сходные с таковыми у таджиков и других народов. Методика преподавания предмета музыкальная культура считается неразрывно связанной с педагогико-психологическими науками. Профессиональная компетентность




подразумевает не приобретение специалистом различных знаний, опыта, а усвоение им интегративных знаний и действий по каждому направлению. Поэтому компетенция подразумевает постоянное обогащение специальных знаний, изучение новой информации, поиск новой информации и умение применять ее во время урока, выполнение неизвестных задач, использование занятий, противоречащих друг другу, обучение владению планом действий в непредвиденное время.

**Ключевые слова:** креатив, компетентность, дидактика, метод, вокал, функция.

**Abstract:** The article describes creative competence techniques, the origins of the Uzbek population, the emergence of the orchestra, solo and collective, and the methods of performance. In Uzbekistan, the sound consists of asbop types, string, uplama and percussion instrument groups, functions, performance capabilities and to study the Sozi-like species of Tajik and other peoples most often with their species. The methodology for teaching the science of music culture is continuously associated with pedagogical-psychological sciences. Competence in the profession is not the acquisition by a specialist of different knowledge, experience, he is intended to master integrative knowledge and actions in each direction. Therefore, it is envisaged that competence will be able to enrich the knowledge of the specialist all the time, learn new information, look for new information and be able to apply them during classes, perform unknown tasks, use activities contrary to each other, teach to have an action plan at an unexpected time.

**Key words:** creative, competent, deductive, method, vocal, function.

Kreativ-so'zi lotincha "Creato" so'z bo'lib yaratuvchi va ijodiy ma'nolarni ifoda etadi. O'qitishning sifatini yaratuvda o'qituvchining dedaktika tomonidan yaratuv mexanizmlari katta ahamiyatga ega. Kompetent -inglizcha "competence" so'zidan olinib, qobilyat so'zini ifoda etadi. Pedagogik kreativlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o'tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog'lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g'alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkoralik bo'lmagan joyda, ma'muriyatchilik va




o'qituvchining irodasi bilan dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga rahna solinsa ijodiy hamkorlik barham topadi. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda har bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi [3, B.156].

O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir. Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta ma'suliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda.

O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin [3, B.156-158].

O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

Kasbga kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbga bo'lgan taqribiy o'zgarish uchun kerakli bilim, ko'nikma va tajribani egallashi, ularni amalga a'lo darajada qo'llashdir. Kasbli kompetentlik



mutaxassis tomonidan yumush davridan amalga oshirishi uchun kerakli bo'lgan bilimlar, ko'nikma va tajribani amalga a'lo darajada qo'llab bilishlikka aytiladi [3, B.48].

Musiqqa madaniyati fanini o'rgatish metodikasi pedagogika - psixologiya fanlari bilan uzluksiz aloqador hisoblanadi. Kasblik kompetentlik mutaxassis tomonidan farqli bilim, tajribani egallashi emas, u balkim, har bitta yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishi na'zarda tutiladi.

Shuning jo'rligida, kompetensiya mutaxassislik bilimlarni hamma vaqt boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, izlash va ularni yumush vaqtida qo'llay olishni nazarda tutadi. Kasbli kompetentlik qiyin hollarda noma'lum vazifalarni bajarish, bir-biriga tiyrama zid mashg'ulotlardan foydalanish, kutilmagan vaqtda harakat rejasiga ega bo'lishida ko'rinadi. O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr "laboratoriyasi"ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1. U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi.
2. U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi.
3. U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.
4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil "kashf etilishi" olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin [3, B.158].

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o'quvchilarning o'quv jarayoniga munosabati o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ta'sir jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish



usullariga, o'quv natijalariga qo'yiladigan baho tizimiga bog'liqligini ko'rsatdi. Kreativlik va o'zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog'liq.

Zero, faqatgina yangicha yondashuv asnosida hamkorlik vujudga keladi va hamkorlikda ijodkorlik o'z ifodasini topadi.

Dadaktika - yunoncha o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi degandi ifoda etadi. Dadaktika mexanizmlarga ko'ra kreativ yondashuv tashkil etish o'qtuvchilarni tanqidlar, yaratuvchilik tarafdin fikrlash va aniq ma'lumotlar asosida bilimlarga ega bo'lmoqni ro'yobga oshiradi [4, B.89].

Kreativlik ijodiy jihatdan yondashuv o'qish mashg'ulotlarini (DTS) moslashtirish, o'sha satri o'qituvchilardan dars vaqtida kreativ ijodiy jihatdan yondashuv taminlashga xizmat qiladigan metod hisoblanadi. Pedagogik ta'lim mazmunini rivojlantirish quyidagi uch bosqichta ro'yobga oshiriladi :

1. Umumiy nazariylik bosqich.
2. O'qish bosqichi.
3. O'qish materiallari o'zgartirish bosqichi.

Musiqqa ta'limi shartli ikki bosqichga bo'linadi. Birinchisi, tayyorlovchi bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maktab - bolalarning musiqqa o'qishni o'zlastirish. O'sha vaqt davomida bolalar musiqqa tovushlarining baland - pasligi va bolg'alanuvchangligi ka'bi o'ziga mos xususyatlarini ajratib bilishlikni o'rganish va nota yozishini o'rganishga tayyorgarlik ko'rishi zarur. Ikkinchi bosqichta nota savodi, yangi musiqqa tovushlarining grafikali usul - nota yozishi o'rganishga kirishadi [5, B.110].

Musiqqa ko'plab asrlar davomida insonga hamkor bo'lib, uni hayoti davomida his - tuyg'ularini va qalb kechimalarini, mulohazalarini va orzularini mujassamlashtirib kelgan. Insoniyat jamiyatining umumiy rivoji hamda bitta xalqning konkret turmush sharoitiga mos musiqasi rivojlanadi. Har bir xalqning boy mazmuni, janr va ba'diyy obrazlari har xil tovushlar o'ziga mosligi ritmikasi, melodiyasi (tovush) tuzilishi, soz yaratilishi bilan farqli yoqimlilik bilan ajralib turadi.[1, B.89].

Vaqlar o'tib, aholi ustalari tomonidan qamish yoki bambukdan surnay va nay yasalgan. Qadimiy Sharq madaniyatida o'zbek aholi soz paydo bo'ldi. Ular ko'p asrlar davomida o'ziga mos ovozlarni saqlab



qoldi. Yaralish tuzilishiga qarab nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bizlarning milliy shaklu-shamoyillari bizga qadar yetib keldi. XIV asrning 60-70-yillarda Toshkent, Moskva, musiqqa ixlosmandlari ijrosida konsert ijodiy markaziga aylandi. 1877-yildan e'tiboran Toshkentga, Samarqandga, Farg'ona va boshqa shaharlarga yetuk musiqqa, gastrollar va dramatikali guruhlar kela boshladi. O'tgan asrning 70-80-yillarida O'rta Osiyo aholisining (hayoti, san'ati, marosimlar,) rus va xorijiy etnografyali - folklorshunoslikning boshlanishi bo'ldi.

Aholi madaniyatining tarkibiga kirgan sozandachilikqa qiziqish shundan kelib chiqqan. 1917-yil g'alayonnan so'ng uzbek musiqqa san'ati jadal rivojlana boshladi. Birinchi o'n yillikdan - oq musiqqa ta'limi, folklorchilik, ijrochilik hunarilari yaxshi yutuqlarga erishdi. Musiqqa o'quv yurtlari Toshkentdagi aholi koncervatoriyasi (1918) va uning Samarqandtagi, Farg'ana (1919), Buxaradagi (1920) filallarinda katta yumushlar olib borildi. Ularda asosan o'zbek aholi sozandachiligi hamda Yevropaning musiqqa soz asbablari (fortepiano, skripka, damli asboplar) chalishdi [2, B.157].

Shu sababli, yosh respublikaning ko'p shaharlarida musiqqa qiziqqanlarga keng yo'l ochildi. O'zbek xalq aholisining zamon hunarining talantli dramaturgi, ustoz Xamza Xakimzoda Niyoziy musiqqa san'atiga katta hissa qo'shgan.

O'zbek aholi sozandachilarining qad ko'tarishi, jahon sinf qo'shiqchilarining badiiy asarlari o'zlashtirilishi, O'zbekiston qo'shiqchilarining aholi soz uchun yozilgan badiiy asarlar yozuvidagi ijodi davomida o'zbek aholi soz ijrochilik san'ati rivojlanishiga yo'l ochildi. Shu bilan yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni tejankor va yetuk qilib tayorlash masalasi kun tartibiga kiritildi.

Hozirgi zamon yoshlarimiz badiiy jihatdan yetuk rivojlangan, ularning ilm-fan o'rganishiga, o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ta'limga aloqador yangilik va qonunlardan habardor bo'lishiga undaydi. O'rta asr ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos jihatlaridan biri sozandachilar bitta turdagi soz asbobni cherta olgan va tarona yarata olgan. Sozandachilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari bo'lgan. Ulug' olimlarimiz musiqqa madaniyatining inson hayotiga juda kerakli sohalardan biri bo'lganligidan, o'zlari alohida musiqqa madaniyatida kitob yozgan, Farabiy (873-950) "Katta musiqqa




kitobi” (kitob ol -musiqa ol kabr), Ibn Sinoning (980-1037) ”Davolash kitobi”, (Kitobi uchta shifo) kabi olimlarimiz kitoblar yozib ketgan. O‘zbek xalq soz asboblarining turlari juda ko‘p bo‘lib, dutor, tanbur, rubob, chang, qashqar rubobi, nay, karnay, surnay kabi ko‘p soz asboblari bor. Xalq sozlari orkestrida tuzilgan, O‘zbekistonda birinchi xalq soz orkestri 1937-jilda N. Mironov tashkil qilgan. “Nota orkestri” deb atalgan bu jamoat O‘zbekiston davlat filarmoniyasining sozandachilari bitta yerga jamlandi [4, B.76].

Tarkibi milliy soz, fortepiano, trubadan iborat bo‘lib, repertuardan bo‘lsa, ishlov berilgan “Qorinavo” “Segoh” kabi o‘zbek milliy taronalarini hamda xorijiy qo‘shiqlarining badiiy asarlari o‘rin olgan. 1938-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi yonma-yon O‘zbek aholi soz orkestri ochildi. Bu orkestr san’atimizda o‘ziga xos o‘ringa ega. O‘zbek xalq soz asboblarini yakka-yolg‘iz bo‘lib chalishda, o‘quvchilar bilan, birga asarni yodlash, shtrixlarga e’tibor berishda, dinamik belgilarga, ritmni saqlash, belgilarga qarash, umumiy aytganda, kompozitor asarni qanday yozilgan bo‘lsa, barchasini shunday yetkazib berish zarur [5, B.47].

O‘qituvchi jamoat bilan ishlaganda har bitta asbobning ijro shaklini bilishligi, bir-birini tinglashni o‘rgatish shart hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabbarov A., Begmatov S., Azamov M. O‘zbek musiqa tarixi. Toshkent. 2018.
2. Qo‘chqorova N.M. Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik. Toshkent. 2022.
3. Ortiqov T. Musiqa o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2010.
4. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. O‘qituvchi. –T.:1995.



## MAHALLIY USLUBLAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN DUTOR IJROCHILIK MAKTABLARINING QIYOSIY TAHLILI

**Mehrixon MO‘MINOVA,**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*“Vokal va cholg‘u ijrochiligi” kafedrasini o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dutor ijrochilik yo‘llarining o‘ziga xosligi, ijro va aytim yo‘llaridan tashkil topgan mahalliy uslublari, zamonaviy dutor ijrochiligining rang-barang yo‘nalishlari, moxir sozandalar hamda sozgar ustalar haqida batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dutor, genesis, kamer, jo‘rnavoz, maqom yo‘llari, tembr, diapazon, folklor.

**Аннотация:** В данной статье подробно описывается своеобразие дуторного исполнительства, локальные стили исполнения и речи, различные направления современного дуторного исполнительства, искусные музыканты и мастера-созгары.

**Ключевые слова:** дутор, генезис, камера, концертмейстер, статусные пути, тембр, диапазон, фольклор.

**Abstract:** This article describes in detail the originality of dutor performance, local styles of performance and speech, various areas of modern dutor performance, skillful musicians and sozgar masters.

**Key words:** dutor, genesis, camera, concertmaster, status ways, timbre, range, folklore.

Xalq cholg‘ulari har bir millatning ma’naviy boyligi xisoblanib, yillar davomida o‘ziga hos tarzda shakllanib rivojlanib keldi va bugungi kunda ham o‘z nufuzini yo‘qotmadi. O‘zbek cholg‘ulari haqiqatdan ham milliy madaniyatimizning noyob hazinasi hisoblanadi, zero, ular misolida o‘zbek xalqining boy tarixiy, ijro amaliyoti va noyob san’atini aks etilgandir. Bu borada milliy o‘zbek xalq cholg‘ulari, turfa ijrochilik san’ati ma’nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e’tirof etish joizdir.



O'zbek xalq cholg'ulari ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g'ijjak, chang, qonun kabi har tomonlama mukammal kamer sozlarni ijrosini asosan saroylarda qo'llab kelishgan. Har bir cholg'u o'zining genesizi va takomillashish tarixiga ega. Asrlar mobaynida milliy cholg'ularning shakli, tembri, ovoz diapazoni va o'ziga xos ijro yo'llariga asos solingan. Dutor, manbalarda yozilishiga ko'ra, Farobiyning "Kitabul musiqai al Kabir" risolasi, F.Karomatovning "O'zbek musiqa cholg'uchiligi" asarlarida keltirilishicha shakliy jihatdan o'zgarmagani e'tirof etiladi.

Dutor barcha cholg'ular orasida o'zining tabiati, nazokatli ohangi, sirli sadosi bilan hamisha ajralib turgan. Cholg'uning sadolanish jarangi unchalik keskin bo'lmagan va bir muncha mayin bo'lgani bois, uni xonaki (kamer) sozlar qatorida o'rin egallashi asosiy sabab bo'lgan. Dutorning turli ko'rinishlari mavjudligiga qaramay cholg'uning nozik o'ziga hos jihatlari saqlanib qolinlgan. Bu cholg'u asosan ayollar ijro amaliyotida qo'llanilgan.

Dutor azal-azaldan O'rta Osiyoning turli vohalarida o'z shevasi va an'anasi asosida iste'molda bo'lib kelgan. Xalq ommaviy ijro yo'llari, daydi yoki yovvoyi hamda an'anaviy mumtoz ijro yo'llari doimo xalq dutor ijrochilik amaliyotini bezab kelgan. Dutor aslida, xalqona uslubga moyilligi bilan mumtozlik darajasigacha rivojlangan.

Dutor xalq cholg'u ijrochilik amaliyotida o'z o'rniga ega bo'lgan va turli cholg'ular bilan jo'rnavozlikda, davr madaniyati rivojida munosib o'rin tutgan hamda kerakli cholg'u sifatida qadrlangan. Shu bois bo'lsa kerak, bizning zamonamizga kelib dutorning xilma-xil tarkibiy ansambllari, yakkanavozlikdagi ijro uslublari yanada ko'paydi. Dutor cholg'usining ijro yo'llari xam o'ziga xos qirralariga ega. Xususan, mamlakatimizning har bir vohasi - Xorazm, Samarqand-Buxoro, Kashqadaryo-Surxondaryo va Farg'ona-Toshkent mahalliy uslublari o'zining betakror janr va shakllari, ijro va aytim yo'llaridan tashkil topgan uslub bo'yicha ajralsa, dutor ijrochiligida ham o'ziga xos maktab va yo'llari shakllanishiga zamin yaratib berdi. Mazkur uslublarda ichida Xorazm va Farg'ona-Toshkent maxalliy yo'llari aloxida e'tiborga molik. Nafaqat folklor va professional ijrochilik san'atida, balki, ijrochilik amaliyoti uchun asos bo'lgan milliy cholg'u sozlarining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi [1;4].



Dutor ijro uslublarning vohalarda takomillashib borishi natijasida uning turfa ijrochilik maktablari vujudga keldi. Har bir ijro maktabi ushbu vohalarning betakror va o'ziga xos xalqchil an'analari, shevalari va urf-odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Buni biz hatto cholg'u sozining tuzilishi va ko'rinishida ko'rishimiz mumkin. Xalq ijodiyoti amaliyotida dutor chalg'ish, yakkanavoz va jo'rnavoz soz, hattoki an'anaviy uslubda o'zining maxsus maqom yo'llarini yaratishiga ham sabab bo'lgan. Buning yorqin misoli Xorazm dutor maqomlari tashkil qilinishini e'tirof etishimiz mumkin.

XX asrga kelib dutor ijrochiligi kasbiylik borasida katta yutuqlari bilan e'tiborga tushadi. Taniqli sozandalarning maktablari, yakka soz ijrochiligi, ayniqsa, ustozona uslubda o'z o'rniga ega bo'ldi. Bu albatta, avvalo dutorning o'tmish ijrochilik amaliyotida erishgan ijro imkoniyatlari, xalq orasida dutor ijro an'alarini rasm qilgan mohir ijrochilar ijodi bilan baholanadi. Respublikamizda tanilgan taniqli dutor sozandalari qatorida T.Alimatov, O.Qosimov, G.Mo'minova, I.Arabov, U.Yunusov, S.Qosimov nomlarini iftixor bilan tilga olishimiz mumkin.

Sozgar ustalar A.Zufarov, A.Melixo'jaev, A.Nurxo'jaev kabilar mamlakatimizda mazkur cholg'uni saqlab qolishi va ijro an'alarini rivojiga katta xissa qo'shib kelayotgani xech kimga sir emas. Albatta dutor ijrochiligining keng ommalashuvi ijrochi san'atkorning samarali mehnati, badiiy ijodi mahsulining natijasidir. Shinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo'lib bordilar. Yaratilgan o'ziga xos ijro uslublarda vaqt o'tib katta ijrochilik maktablarini yuzaga kelishini ta'minlab berdi. Bu borada biz Xorazm dutor ijrochiligi, Qo'qon ijro maktablarini eslashimiz joiz. Masalan, Xorazm dutor ijrochilik uslubiga nisbatan Samarqand ijro yo'li o'zgacha ekanligi Abdurauf Fitrat tomonidan ham o'z vaqtida qayd etilgan edi: "Bu kunlarda bizning eng mashhur dutorchimiz samarqandlik Hoji Abdulaziz qo'lini taxtaga urmay chalg'oni uchun uning dutori havas bilan tinglanadir"[1]. A. Fitrat shu bilan Samarqand ijro an'analari o'zining o'zgacha jarang va tarovatiga ega ekanini tasdiqlagan.

Bu borada Farg'ona-Toshkent vohasining dutor ijrochilik uslublari ham juda rang-barang ekanligini aytib o'tish lozim. Chunki, bu vohada ijro uslublari ko'p. Faqat Qo'qon dutor ijrochilik maktabining o'zigina, o'ziga xos an'alar bilan sug'orilgan. Bu



an'analarni birgina «Qo'qoncha» asarini ijro yo'llarida ham ko'rish mumkin. Dutorning shaxdam shiddatli talqini, zarblarining rang-barangligi, chap va o'ng qo'llar mohirligi va jozibaliligi uslub ijrochiligining asosiy "mag'zi" hisoblanadi.

Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida san'atkor sozandalarning alohida ijro uslublarning ahamiyati katta. Shuning uchun Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubida biz ko'p shaxsiy dutor ijrochilik maktablari shakllanganining guvohi bo'lamiz. Zamonaviy dutor ijrochiligi rang-barang uslublar bilan yillar osha boyib, o'z taraqqiyoti jarayonida davr talabiga moslanib konsert sahnalarida yuqori o'rnini egallab kelmoqda. Bunga, ma'lum ma'noda dutorning o'quv tizimi jarayoni, ya'ni maktab, litsey, kollej va oliy o'quv muassasalarining dasturidan joy olganligi ham sabab bo'ldi. Bu borada zamon talabiga javob beruvchi yangi avlod o'quv darsliklari, qo'llanmalari, uslubiy nashrlari, o'quv dasturlari yaratilayotgani e'tiborga molik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.Karomatov "O'zbek musiqa cholg'uchiligi.", -T.,-1987.
2. <https://docs.yandex.ru/docs/view?url=ya> Dutor cholg'usining ijro yo'llari Iroda Riqsiev O'zDK magistranti T., 2022 y.-4 bet
3. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -M., 1926.
4. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). The emergence and development of music. In *Archive of Conferences* (pp. 49-52).
5. SultonaliMannopov, A., AbdusalomSoliev, U., & TokhirShokirov, R. (2021). Development of Uzbek National Singing Art during Independence. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6845-6853.
6. Abdulhay Karimov Tursinovich, & Alijon Ergashev Abdullayevich. (2022). Milliy-an'anaviy musiqiy cholg'u sozlarining tasnifi. *Archive of Conferences*, 245-248.
7. Ahmadjon Nurmuhamedjanov, & Ismoiljon Rustamov (2022). Yoshlarning ijtimoiy faolligida madaniyat va san'at muassasalaridagi



to'garaklarning o'rni. *Science and innovation*, 1 (C2), 48-50. doi: 10.5281/zenodo.657842

8. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 74-77

9. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). Musiqa san'atining hozirgi kundagi o'rni. *Scientific progress*, 3 (2), 841-845.

10. Isakov Ulug'bek To'xtasinovich (2022). O'zbek musiqa madaniyati rivojlanish jarayonlarining nazariy-metodologik asoslari, manbalari hamda uni o'rganishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1 (1), 625-636. doi: 10.5281/zenodo.6529117

11. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1 (1), 196-199.

12. Durdona, M. (2021, May). About dutor and his performance. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).

13. Nasritdinova, M., Nigora, M., & Murodova, D. (2022, February). Uzbek folk art and its place in public life. In *Archive of Conferences* (pp. 44-48).

14. Nasretdinova, M., Toshaliyev, D., & Murodova, D. R. Q. (2022). An'anaviy ijrochilik san'atining hozirgi davr muammolari. *Scientific progress*, 3(2), 846-850.

15. Murodova, D. (2021). The concept of musical thinking and its stages of development. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.



## MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK SAN'ATI

*Nasibaxon IBROHIMOVA,*  
*Andijon davlat universiteti,*  
*San'atshunoslik fakulteti talabasi.*  
Ilmiy rahbar: **Hilolaxon BOTIROVA.**  
*Andijon davlat universiteti dotsenti.*

**Annotatsiya:** O'zbek milliy cholg'ulari va ularda ijrochilik san'atining jahon bo'ylab targ'iboti tobora keng ko'lamda tus olmoqda. Ushbu maqolada esa O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining kechasi va buguni haqida ma'lumot olasiz.

**Kalit so'zlar:** o'zbek, cholg'u, Mustaqillik, rivojlanish, *Renessans, ijro, "Sog'diyona"*.


**Аннотация:** Популяризация узбекских национальных музыкальных инструментов и искусства игры на них получает все более широкое распространение. В этой статье вы получите информацию о прошлом и настоящем исполнительского искусства на узбекских народных инструментах.

**Ключевые слова:** узбек, музыкальные инструменты, независимость, развитие, *Renessans, исполнение, "Согдиена"*.

**Abstract:** The popularization of Uzbek national musical instruments and the art of playing them is becoming more and more widespread. In this article, you will receive information about the past and present of performing arts on Uzbek folk instruments.

**Keywords:** *uzbek, musical instruments, Independence, development, Renaissance, performance, "Sog'diyona"*.

Har bir narsaning o'z yaralishi va uning shakillanish tarixi, buguni va kelajagi bo'lgani kabi har bir millatning etnik, madaniy va musiqiy O'zbek musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, asrlar davomida shakillanib kelgan. Tarixdan ma'lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o'z madaniyati va san'ati, shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bo'lib, ularning ma'naviy boyligi xisoblangan. Ayniqsa, Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati xar bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va amaliy ijrochilik



maktabiga ega bo'lgan. Sharq xalqlarining musiqiy boyligi bo'lgan maqom, mug'om, navba, raga, kyui singari musiqiy ijrochilikning aniq turkumlari turli davrlarda turli ko'rinish va yo'nalishlar bilan ijro etilib kelingan va rivojlangan.

Mustaqil mamlakatimizda xalqchil va yuksak mumtoz kasbiy musiqa na'munalarini avaylab-asrash, yangi zamon ruhi ila ravnaq toptirish hamda nafaqat respublikamiz, balki jahon sahnalari uzra keng targ'ib qilish imkoniyatlari yuzaga kelganligini mamnuniyat bilan qayd etmoq kerak.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalari bo'lganidek madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz urf-odatlarimiz, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tilash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi (2002.y), O'zbek milliy akademik drama teatri (2002.y) estrada musiqasini rivojlantirish to'g'risidagi va boshqa bir qancha qaror va farmonlarning qabul qilinishi, bir qancha mutaffakir va allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubileylari halqaro miqqiyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatni rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir.

O'zbek milliy cholg'ulari va ularda ijrochilik san'atining jahon bo'ylab targ'iboti ham tobora keng ko'lamda tus olmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Turg'un Alimatov va uning farzandi Alisher Alimatovlar o'zaro jo'rnavozlikda tanbur, dutor va sato cholg'ularida o'zbek mumtoz kuylarini 1991-yil AQShda. 1996-yil Germaniyada, 1995-1997-yillari Angliya va 1997-yili Fransiyada yuksak mahorat bilan ijro etishga muvaffaq bo'lganlar.

1991-yil tashkil etilgan "Sog'diyona" Davlat xalq cholg'ulari kamer orkestri "Buyuk ipak yo'li" o'Iroq qadimda yuzaga kelgan Sharq va G'arb musiqa madaniyatlari aro yuzaga kelgan o'zaro bog'lanish an'analari yangi davrda davom ettirish yuksak maqsadi bilan o'z faoliyatini boshlagan edi. Ushbu orkestr o'tgan yillar ichida badiiy rahbar va dirijor F.Abdurahimova boshchiligidagi Germaniya,




Ispaniya, Misr, Turkiya kabi davlatlarda konsert safarlarida bo'lib, milliy cholg'ularda o'zbek kuylari bilan bir qatorda jahon klassik musiqasining namunalarining ham munosib ijrolarini namoyon etdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 1995-yil 20-oktabrdagi "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonga binoan O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida 1996-yilda "O'zbeknavo" gastrol konsert birlashmasi (2001-yildan "O'zbeknavo" estrada birlashmasi nomini olgan) tashkil etilgan. San'atning barcha sohalari, madaniy-ma'rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublikamizning birinchi Prezidentining doimo e'tibor markazida bo'lib kelgan.

Mustaqillik sharofati bilan fanning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berdi, milliy an'ana va milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Insonlar yangicha tafakkurga, yangicha nigoh va yangicha fikrlash doirasiga ega bo'ldilar. Shu jumladan milliy musiqiy san'atimizda ham sezilarli darajada o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, "Ilhom - XX" simfonik musiqa va "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivallarining aynan O'zbekiston zaminida o'tkazilishi jahonshumul ahamiyatga egadir.

Qayd etish lozimki, yangi davr O'zbekiston musiqa san'ati ijrochilik amaliyotida o'z o'rniga ega bo'lgan xalq cholg'ulari orkestri jamoalarining ham soni, ham qadri kun sayin ortib bormoqda. Mustaqillikka qadar respublikamizda asosan ikkita yirik professional jamoa – To'xtasin Jalilov (1938) nomidagi Davlat Akademik xalq cholg'ulari orkestri va Doni Zokirov (1957) nomidagi Davlat xalq cholg'ulari orkestri faoliyat ko'rsatib keldi. Endilikda bunday jamoalar soni yilma-yil sezilarli darajada ko'paymoqda. Jumladan, 1991-yili "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestri, 2000-yilda "O'zbek raqs" qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri, 2011-yilda "Navro'z", 2015-yilda esa "Istiqlol yoshlari" nomli xalq cholg'ulari kamer orkestrlari o'z ijodiy faoliyatini boshladi. Tarkib va jamoa imkoniyatlariga muvofiq repertuarga ega bu orkestrlarda ijrochilik amaliyoti yangicha yondashuvlar asosida boyimoqda.


Mustaqillikdan so'ng Respublikamiz madaniy hayotida misli ko'rilmagani o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, unutilayozgan milliy



qadriyatlar, ko'p asrlik marosim va urf-odatlarining tiklanishi, qadimiy va hamisha navqiron shaharlar – Samarqandning 2750 yilligi, Buxoro, Xiva, Qarshi va Toshkent shaharlarining 2500 yilligi, Marg'ilonning 2000 yilligi, shuningdek, Alpomish dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan yirik anjumanlarning o'tkazilishi bu fikrga yaqqol dalildir. Ayni paytda "O'zbekiston – Vatanim manim", "Asrlar sadosi", "San'atimiz ustalari", "Yagonasan, muqaddas Vatan", "Kamalak yulduzlari", "Ona yurt ohanglari", "Nihol" kabi qator ko'rik-tanlovlarining o'tkazilishi xalqimiz ma'naviy hayotida muhim o'rin tutayotganligi barobarida o'z Vataniga muhabbatli, xalqiga sadoqatli barkamol avlod tarbiyasida ham ahamiyatli bo'lmoqda.

Yosh mahoratli sozanda va xonandalarimiz jahon miqyosida o'tkazilayotgan xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritishlari Respublikamizda san'atga nechog'lik katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga o'zbek musiqasining ko'p asrlik badiiy an'analari hamda uning Sharq xalqlari musiqasi bilan qadimdan mushtarakligi xalqaro sahnalar uzra jahon afkor ahliga tobora keng namoyon bo'layotganligi quvonarlidir. Bu o'rinda 1997-yildan e'tiboran ko'hna Samarqand shahrida har ikki yilda bir marotaba muntazam o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining ahamiyati katta bo'ldi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Sharq musiqasi – Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o'rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda".

1996-yildan boshlab ishtirokchilar safi kengayganligi tufayli ushbu sana Respublika miqyosida o'tkazila boshlandi. Va nihoyat, 2001-yildan e'tiboran ko'p ovoqli ansambl va orkestrlar festivaliga aylandi. 2008-yildan bu festival "Navro'z sadolari" deb yuritila boshlandi. Ushbu tadbirning o'tkazilishiga "Sog'lom avlod" Xalqaro nodavlat jamg'armasi, "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi (2008), O'zbekistondagi Shveysariya elchixonasining Shveysariya hamkorlik byurosi (2012), Birlashgan millatlar tashkilotining Informatsion Markazi (2015) hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati (2017) yordam bera boshladi.




2015-yildan e'tiboran ushbu festival Xalqaro tadbirga aylandi. Festivalda matabgacha ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, musiqa kolleji va akademik litseylar hamda oliy o'quv yurtlarining ijodiy jamoalari ishtirok etishdi. Shuningdek Qoraqalpog'iston, Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikistondan hamkasb mehmonlarimiz o'z badiiy jamoalari bilan tashrif buyurishdi. Olti kun davomida har bir badiiy jamoa o'z ijrochilik mahoratini namoyish etdi. Shu bilan birga milliy cholg'ular bilan tanishtirish darslari ham o'tkazildi. Jamoalar va ishtirokchilar soni ko'payganligini inobatga olgan holda ularni tinglash ikkiga bo'lindi, ya'ni 2016-yildan boshlab, juft yillarda musiqa kollejlari, akademik litseylar hamda oliy o'quv yurtlari badiiy jamoalari, toq yillarda esa maktabgacha ta'lim muassasalari hamda bolalar musiqa va san'at maktablarining ansambl va orkestrlari festivalda ishtirok etishi belgilab olindi

Yuqorida bayon etilgan fikr mulohazalarni umumlashtirilgan xolda, quyidagilarni alohida ta'kidlash o'rinlidir. O'zbekiston musiqa san'atining yangi davrdagi hayoti Respublikamizda amalga oshirilgan va oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tub islohotlar bilan bog'liqdir. Unga xolisona baho berilar ekan, endigi musiqiy muhit, bir tomondan milliy tiklanish, ma'naviy poklanish yo'lidagi ijtimoiy - madaniy jarayonlarning katta oqimiga tutashganini, boshqa tomondan esa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga xos murakkabliklarga duch kelganligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda san'at va madaniyatga qaratilayotgan e'tibor anchagina ko'paygan bunga yaqqol misol sifatida esa 2018-yil 6-10-sentabr kunlarida Shahrisabz shahrida o'tkazilgan xalqaro "Maqom" anjumanida Prezident Sh.Mirziyoyevning shaxsan o'zlari ishtirok etishi va ushbu anjumanda dunyoning 75 davlatidan 300 dan ortiq san'atkorlar ishtirok etgani bilan ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari 2019-yil Qoraqalpog'istonda Bo'zatov tumanida tashkil etilgan, 2021-yildan Prezident tashabbusi bilan tumanning obro'sini, dovrug'ini butun O'zbekistonga tanitish uchun "Bo'ztov FEST" Yoshlar Ovozi tanlovini o'tkazish an'anaga aylanmoqda. 2021-yili yorqin iste'dodli yoshlarni kashf etgan mazkur tanlov baxshichilik, an'anaviy ijro, opera va estrada yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilmoqda.

2021-yil 28-yanvar kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha o'tkazgan




videoselektor yig'ilishida maktabni bitirgan bola kamida bitta kasb bilan birga bitta milliy cholg'u asbobini chalishni bilishi shartligini aytib o'tgan edi. Shundan so'ng 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarorini imzoladi. Qarorga ko'ra 2022/2023-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi. 10130 ta maktab, 323 ta bolalar musiqa maktabi, 826 ta madaniyat markazi 7 turdagi milliy cholg'ular bilan 3 to'plamdan ta'minlanadi. Buning uchun 205 mlrd so'm ajratiladi.

Bugungi kunda sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik namunasini yuqorida bir qator misollar bilan keltirib o'ttik. Bu kabi sohani rivojlantirishga doir chora-tadbirlar hamda yuksak e'tibor va imzolangan farmon, qarorlarning ijrosini ta'minlash doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan sohaga qaratilayotgan g'amxo'rlik va imkoniyatlar yaqin kelajakda tub o'zgarishlarga olib keladi va o'z samarasini ko'rsatadi desak xato bo'lmaydi. Bunday yuksak e'tibor hamda ishonchni his qilgan holda biz kabi yosh yetishib chiqadigan mutaxassislar hamda soha xodimlari ham yanada shijoat bilan ishlashi, madaniyat va san'at sohasi ravnaqiga bor kuch va salohiyatini safarbar etishi lozimdir. Shunday ekan, Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli, salohiyatli, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi".

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent. 2019.
2. Ibrohimov O.A., Xudoyev G'.M., Musiqa tarixi. "Barkamol fayz-media" nashriyot uyi. Toshkent 2018.
3. Madraximov B.X. O'zbek Musiqa Tarixi. "Barkamol fayz-media" nashriyot uyi. Toshkent 2018.
4. Tashmatova A. "Ijrochilik san'at tarixi" "Musiqa" nashriyoti Toshkent. 2017.
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/02/03/musiqa/>



## MAQOM SAN'ATIDA XORAZM MAQOMLARI

(Dutor maqomlari)

**Furqat OMONKELDIYEV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI

2-bosqich magistranti.

"Nihol" mukofoti sovrindori.

Ilmiy rahbar: **Nodira PIRMATOVA,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI dotsenti,

"Maqom xonandaligi" kafedrasasi mudiri,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek xalqining qadimdan ma'lum bo'lgan Xorazm "Tanbur chizg'ilari" asosida yozilgan Xorazm olti yarim maqomlaridagi usullar va Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobida keltirilgan usullar to'g'risida ma'lumotlar ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqomi Rost, Tarje'i Rost, peshravi Rost va Peshravi Gardun, Muhammasi Ushshoq, Saqili Navo.

**Аннотация:** Данная статья написана на основе известных издавна узбекскому народу хорезмских "линий танбура" и приемов хорезмских шести с половиной макамов и приемов, представленных в книге "Музыкальная история Хорезма" Мухаммада Юсуф Девонза, сын муллы Бекжона Рахмана, сведения о нем подверглись научному анализу.

**Ключевые слова:** Макоми Рост, Таржеи Рост, Пешрави Рост и Пешрави Гардун, Мухаммаси Ушшак, Сакили Наво.

**Abstract:** This article is written on the basis of the Khorezm "tanbur lines" known to the Uzbek people for a long time and the techniques of the Khorezm six and a half maqams and techniques presented in the book "Musical History of Khorezm" by Muhammad Yusuf Devonz, son of Mullah Bekjon Rahman, information about him was subjected to scientific analysis.

**Key words:** Makomi Rost, Tarjei Rost, Peshravi Rost and Peshravi Gardun, Mukhammasi Ushshak, Sakili Navo.




Xorazm qadimiy va mo'tabar musiqiy diyor ekanligi, hayotiy haqiqatning amaldagi isbotlaridan biri, unda milliy maqomlarning ilk shakllaridan biri bo'lmish Dutor maqomlarini alohida nav sifatida xanuzgacha yashab kelayotganligidir. Bu musiqiy navning o'q izdizlari, aslini olganda juda qadim zamonlarga, yozma xujjatlar bilan belgilangan tarixi esa, Xorazmshoxlar davriga boradi.

Biroq, mazkur zamonlarda ular "Dutor maqomlari" emas, "navba", "roh" (kuy yuli), kug (kuy) va boshqa nomlar bilan yuritilgan. Eski iboralar orasida ma'no mazmuniga ko'ra, bugungi Dutor maqomlari tushunchasiga yaqin turadigan atama, bu "navba" (lug'aviy ma'nosi "qator", "izma-iz") deb yuritilgan. "Navba" iborasi Xorazm va Mavoraunnaxrda XVII - XVIII asrlargacha iste'molda bo'lgan. Mintaqada Shashmaqom atamasi joriy etilishi bilan, "navba" tushunchasi iste'moldan qola boshlagan.

Afsuski, milliy musiqa merosimizning "og'zaki kitobi" sho'ro siyosatining qatag'on yillarida eskilik sarqiti tamg'asi bilan iste'moldan chetlashtirildi. Keyingi "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" siyosati avj olgan paytlarda "Dutor maqomlari" iborasi sun'iy ravishda Olti yarim maqom bilan qo'shib yuborilgan mujmal "Xorazm maqomlari" tushunchasi soyasida qolib ketgan edi.

Endi, mustaqillik davrida qaror topgan, klassik musiqamizning ustivor milliy maqomlar, maqomot tushunchalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, Dutor maqomlari, Olti yarim maqom bilan bir katorda, azaldan unga muvoziy ravishda rivojlanib kelayotgan nav ekanligi tobora aniqroq ayon bo'lmoqda. Agar chuqurroq razm solsak, "Buxoro Shashmaqomi" nomi bilan yuritiladigan majmua ham aslida, Fitrat ta'biri bilan aytilganda, Olti yarim maqom xamda Dutor maqomlariga muvoziy "Asl Shashmaqom" va "Sho'bacha" qatlamlaridan iborat ekanligini e'tiborga olmoq zarur.

Umuman mumtoz musiqa rivojlanishi jarayonini bunday navlarga ajratilishi ijtimoiy hayot talablari, qolaversa, musiqiy zavq ehtiyojlaridan kelib chiqqan urf-odatlar deyish mumkin. Chunki "Asl Shashmaqom" va "Olti yarim maqom"lar nav sifatida hashamatli saroy ziyofatlarida, xoslar davrasida, nafosatli va ixtisoslashgan soz muhitida, "Sho'bacha" va "Dutor maqomlari" esa, alohida musiqiy zavq muxlislarining kengroq davralarda o'tadigan majlis va bazmlarida joriy etiladigan "dasturi amal" tarzida shakllangan. Bu navning, xos




Olti yarim maqom va Asl Shashmaqom navlaridan farqli ravishda, "El maqomlari" deyilishining asosiy sabablaridan biri ham shunda bo'lsa kerak.

O'rni kelganda, shuni ham qayd etish lozimki, xashamatli saroy maqomlari (ya'ni, Olti yarim maqom va Asl Shashmaqomni) tasnifotining har bir jihati - mushkilot va nasrlar doirasi, ular tarkibidagi bo'lim va qismlar mantiq jihatidan ilmiy asosda puxta ishlangan musiqiy inshoot (qurilma). Ularning o'rnini o'zgartirish yoki vazifalarini almashtirish, maqom turkumlarining asrlar davomida barqarorlashgan (ya'ni "musiqiy marosimga" aylangan) tartib va nizomlarni buzilishi deb qaralgan. Bir so'z bilan aytilganda, Olti yarim maqomning har biri va umumiy majmuasi musiqiy nizomlar - parda, usul va tasnifot qoidalariga asoslangan barqaror musiqa shakllaridir.

El maqomlari xos navlarga nisbatan birmuncha ochiq va erkin tarzda hayotga tadbiiq etiladigan qonun-qoidalar doirasi. Olti yarim maqom va Asl Shashmaqomning umumiy tartibini ramziy ma'noda boshi, o'rtasi va oxiri qat'iy belgilangan "musiqiy majmua" degan edik. Shu nuqtai nazardan Dutor maqomlarida erkinlik tamoyillari ustivorligini inobatga olib, uning umumiy qiyofasini "dasturi amal" (amaldagi dastur - repertuar) deb belgiladik. Dasturi amal - sozanda xotirasida saqlanadigan kuy va ashulalar majmuasini nazarda tutadi. Uning boshlanishi, o'rtasi va oxiri aniq belgilanmasada, umumiy andozasi barqaror yashab kelaveradi. Ijroda ular majlis kayfiyatiga hamda eshituvchilarning talab va ehtiyojlariga qarab izmga solinib borilaveradi.

Yuqorida qayd etilganidek, "og'zakilik" tom ma'nodagi nota yozuvi vositalarisiz ijro etilib kelinayotgan bizning klassik musiqamizning tabiiy yashash sharoiti. Og'zakilik Sharq musiqa mafkurasining kamchiligi emas, aksincha, ustivor ichki xususiyati va bu sifat, unga nisbatan nota yozuvini inkor qilishga asos ham emas, albatta. Sharqda nota yozuvining turli xillari oldin xam bo'lgan va hozir ham joriy etilmoqda. Ammo bugungi kunda musiqiy merosimizning chuqur qatlamlarini izchil tahlil etishda, uning negizidagi qonun-qoidalarni tushunib yetishda avlodlar xotirasida barqaror saqlanib kelayotgan ramziy-majoziy "musiqiy matnlar" qatlami - barhayot urf-odatlarining jonli jarayoni, eng ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.




To'g'ri, musiqiy mantiq negizlari nuqtai nazaridan, ilmiy risolalar, ashyoviy dalillar (qadimiy cholg'u asboblari, soz manzaralari, buyuk rassomlar ishlagan musiqiy majlis va bazmlarning tasvirlari yoki milliy cholg'ularning ikki-uch asr muqaddam ishlangan tarixiy ahamiyatga molik nusxalari), noyob ovoz yozuvlari, el og'ziga tushgan rivoyat, hikoya va boshqa og'zaki ma'lumotlar amaldagi jonli urf - odatlarga nisbatan juda muhim qo'shimcha manbalar vazifasini bajaradi.

Ana shu nuqtai nazardan, XX asrning 30-yillaridan e'tiboran siyosiy tazyiqlar girdobiga tushib qolgan mumtoz urf-odatlar qatorida "El maqomlari" ham sun'iy ravishda jonli musiqiy jarayondan birmuncha chetlashtirila boshlandi. Oqibatda, bugungi kunda, Dutor maqomlarining umumiy holatini tasavvurga keltirish o'ziga yarasha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu ma'noda bizning mumtoz musiqamizga xos, ya'ni "og'zakilik" mafkurasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, jonli urf-odatlardan so'ng, birlamchi manba hisoblanuvchi nota matnlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ishonchli nota matnlari jihatidan, qatag'onlik davrida matonatli ma'rifatchi va ayni chog'da Dutor maqomlarining zukko bilimdoni, mohir dutorchi va musiqiyshunos Komil Devoniy xatga tushirgan nusxalar o'z sohasi uchun eng nodir manba va ishonchli xujjat. Komil Devoniyning "tanbur chizig'i" nota tizimi vositasida bitilgan Dutor maqomlarining noyob nusxalarini ilmiy va amaliy jihatlardan eng mukammal matnlar deyish mumkin. Unda bitilgan asarlarni jonli ijrolar hamda boshqa ma'lumotlar bilan solishtirganimizda, bu mo'tabar musiqiy navimizning badiiy, ilmiy va tarixiy timsoli yanada izchil va to'laroq namoyon bo'ladi.


Manbashunoslik nuqtai nazaridan shuni aytish kerakki, Dutor maqomlarining Muhammad Komil Devoniy qo'li bilan yozilgan ikki noyob nusxasi ma'lum. Birinchisi, taxminan, 20-yillarning ikkinchi yarmida, har holda "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobi nashridan keyin e'lon qilingan, "noma" shaklidagi ro'yxat. Bu nota yozuvi noma tarzida bitilganligi sababli, zamondoshlar uni "dutor o'ramasi" deb yuritganlar. Har holda bu qo'lyozma, "Xorazm musiqiy tarixchasi" nashridan keyin e'lon kilingan bo'lishi kerak. Zero, o'z ilmiy qarashlarida, xususan, Xorazm musiqiy merosining nazariy asoslarini mutolaa kilishda



“tanbur chizig‘i” yozuvlarini birlamchi va ustivor manba sifatida qurgan risola mualliflari Mullo Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalar Muhammad Komil Devoniy bilan yaqin va do‘stona munosabatlarda bo‘lgan bo‘lsalarda, bu ro‘yxatga murojaat etmaydilar.

Dutor maqomlarining musiqiy matnlari yozilgan ikkinchi nus‘xasi, sal keyinroq, taxminan 20-yillarning oxiri - 30-yillarning boshlarida aynan shu muallif tomonidan bitilgan va 2002-yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga taqdim etilgan antiqa qo‘lyozmadir. Bu ro‘yxatlarning tashqi shakl-shamoyili boshqacha bo‘lsa-da, ichki mazmuni aynan bir xildir. Mazkur qo‘lyozmada xos Olti yarim maqom va ma‘muliyy Dutor maqomlarini yonma-yon keltirilishi hamda musiqiy asarlarni so‘z matnlari, tarkibiy qismlarning nomlari va doyra usullari bilan mufassal yozib olinganligining o‘zi, mazkur ro‘yhatning tanbur chizish nus‘halari qatorida alohida o‘ringa qo‘yadi. Shu bilan birga, uning tarkibidagi izchil ma‘lumotlar Dutor maqomlar atrofidagi parokanda axborotlarni ma‘lum bir tartibga keltirishda va mumtoz musiqamizning antiqa navi haqida ilmiy hamda amaliy taraflardan dalillangan taassurotlarni paydo qilish imkoniyatini beradi.

Darxaqiqat, Dutor maqomlarida gap ko‘p. Birinchidan, musiqiy nav sifatida u Olti yarim maqom va Shashmaqomdan oldinroq yuzaga kelgan musiqiy shakl. Bevosita Dutor maqomlari xaqidagi mulohazalarimizni boshlashdan oldin, yana bir umumiy tamoyil xususida to‘xtalib o‘tish joiz. Gap shundaki, mumtoz musiqamizning o‘q ildizlaridan bo‘lmish Dutor maqomlarining yon tomirlari ilmiy-nazariy ildizlarga mansub va xos Olti yarim maqomdan ko‘ra, o‘zga ma‘muliyy nav va shakllarga ko‘proq tutashib ketgan. Jumladan, Dutor maqomlarini, El maqomlari (urfiy maqomlar) sifatida, Xorazm vohasining azaliy she‘riy-musiqiy navlaridan bo‘lmish ilohiy aytim - suvoriylar, mushtaraklik xususiyatlari bilan sug‘orilgan doston yo‘llari, xalfa yo‘llari, el sozandalarining dasturlariga chambarchas ulanib ketganligining guvohi bo‘lamiz. Shu bilan birga, ayni chog‘da, Dutor maqomlarining negizida mumtoz musiqamizning qadimiy, sifatlari qaror topganligini kuzatishimiz mumkin. Ularning asoslari to‘g‘risidagi mulohazalarni ilm nuqtasidan boshlaydigan bo‘lsak, eng avvalo, shuni



qayd etish lozimki, Sharq klassik musiqasining uchta bosh omili - parda, usul va ular kesishuvida yuzaga keladigan shakl mezonlari ekanligini yana bir karra eslab o‘tmog‘imiz lozim.

Parda (musiqiy asarning parda asosi - ladi) nuqtai nazaridan Dutor maqomlari tarkibida Sharq mumtoz musiqasining o‘q ildizi. Unda “Maqomot” tizimining Roviy, Iroq va Navoiy kabi qadimiy unsurlari saqlanib qolganligi ham alohida diqqatga sazovor. Ma‘lumki, bu belgili nomlar azaliy O‘n ikki maqom parda tizimi tarkibidagi ramziy-majoziy nishonlardan hisoblanadi. Masalaning mohiyatini to‘g‘ri tushinish uchun, eng avvalo, bu atamalar turli manbalarda, jumladan, Dutor maqomlarida lug‘aviy va istilohiy ma‘nolar jihatdan aralashib tushganligiga e‘tibor qaratish lozim. Atamalarning ikkitasi o‘zbekcha imloda “Roviy” va “Iroq” tarzida keladi. Uchinchi eski Xorazm laxjasida “Navoiy” shaklini olgan. Ularning barchasini yagona tizimga tizib mumtoz maqom yo‘llari sifatida ko‘radigan bulsak, Roviy - Raxoviy, Navoiy - Navo, Iroq esa aslan shu maqomlarning o‘zini nazarda tutayotganligini guvohi bo‘lamiz. Boshqa Dutor maqomlarining nomlanishida ularning ichki ma‘no va mazmuniga aloqador o‘zga musiqiy ramzlar o‘z aksini topgan. Ularning ayrimlarida asrlar qa‘ridan kelayotgan badiiy majozlar, qadimiy afsonaviy tafakkur asoratlari va dostonchilik urf-odatlarini hamda musiqa va she‘riyatni umumiy mushtaraklik negizlardan alohida san‘at sohalari sifatida ajralib chiqish davrida yuzaga kelgan mumtoz nav va shakllarga aloqador tomonlar aks ettirilganligi kuzatiladi.

Dutor maqomlari Xorazm maqomot tizimidagi eng qadimiy qatlamlardan biridir. O‘tgan asrning 30-yillarida Sho‘ro davrida boshqa milliy musiqiy qadriyatlarimiz qatori dutor maqomlari atamasi ham butunlay iste‘moldan chiqarila boshlangan edi. Mustaqillik sharofati tufayligina qaytadan musiqiy istilohga kiritildi. O‘tmishda Xorazmda dutor maqomlarining aytim qismlariga ilohiy so‘zlar qo‘yilganligi bois sho‘ro davrida (davr talabiga mos g‘azallar o‘qilmaganligi sababli) unutila boshlangan.

Dutor maqomlarining olti yarim maqomdan farqli tomonlari quyidagicha tahlil etildi: Olti yarim maqomning ichki qismlari usullar nomi bilan ajratilgan. Dutor maqomlarida olti yarim maqomga qaraganda ichki qismlari erkinroq tartibda tuzilgan.



Olti yarim maqom amaliyotda butun boshli bir kuy pardalarining nomlari bilan yuritiladi. Ular oltita: “Rost”, “Navo”, “Segoh”, “Dugoh”, “Buzruk”, “Iroq”. Har birining ichida yana qo‘shimcha ladlar va pardalar bor.

Oltita asosiy ladning har birining ichida yana to‘rttadan bo‘lim bor. Misol uchun, Rost maqomi ichida “Ushshoq”, “Sabo”, “Panjgoh” degan ladlar bor. “Buzruk” maqomida “Uzzol”, “Rahoviy” (“Nasrullovi” deyiladi) degan ladlar uchraydi. Olti yarim maqom tanbur pardalariga, dutor maqomlari dutor pardalariga moslanib ishlangan. Dutor maqomlarining olti yarim maqomdan yana bir farqi shundaki, ular bir o‘lchamli ladlar bo‘lgani uchun bir nom bilan yuritiladi: Zihiy Nazzora, Urganjiy, Miskin, Rovi, Axyor, Iroq, Choki giribon.

Dutor maqomlarining birlamchi qismlari zarbul qadim usulida bo‘lmasdan, ixcham usulda ishlangan. Shashmaqom va olti yarim maqomda ko‘p uchraydigan “Avji turk”, “Avji zebo pari” va “Muxayyar” avjlari dutor maqomlarida uchramaydi.

Og‘zaki an‘anada saqlangan dutor maqomlari turkumlarini o‘rganish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, xususan, parda tuzilishlari borasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olti yarim maqom tizimidagi “Tani maqomi Buzruk” va “Orazibom” asosida tovushlar hamda ularning harakati va parda tizimi bir xil. Lekin kuydagi ohang va ayniqsa, doyra usullari bir-biridan sezilari farq qiladi.

Xorazmda Dutor maqomlarini qog‘ozga ko‘chirishga ko‘p harakatlar qilingan. Bu haqda “Xorazm musiqiy tarixchasi”da bunday deyilgan: “Qanbar bobo dutor sozini so‘ng darajada yaxshi bilganidek, dutor go‘yandaligida ham birinchi erdi. Bir necha zamonlar dutor nag‘malarini qog‘oza ko‘churmak uchun xiyalag‘ina tirishqon bo‘lsa ham orzusina yetusha bilmadi”. Risolada Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon soniy zamonlarida dutor nag‘malarina maxsus bir chiziq chiqarmoqni o‘ylanib bir xili sa‘y-g‘ayrat qilinganligi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon soniy zamonlarida Muhammad Sharif Qambar dutor kuylarining chertilishidagi qo‘l vaziyatlarini qog‘ozga tushira olmagan.

Pahlavon Mirzaboshi va uning o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzaboshi boshlagan ishni shogirdi Komil Devoniy dutor




maqomlarining tanbur chizg‘ilari tamoyillari asosida tartiblashtirib yozib olgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi San‘atshunoslik institutida №571-1-5 raqamli Matyusuf Xarrotovning arxivi saqlanadi. Ushbu arxivda eni 20 sm., uzunligi 13,30 m. bo‘lgan qog‘ozga ko‘chirilgan dutor maqomlarining noma shaklidagi nusxasi mavjud. Nusxada dutor maqomlariga mansub “Rahoviy”, “Sadri Iroq”, “Ag‘yor” va “Choki giribon” turkumlari to‘lalgicha ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida saqlanayotgan tanbur chizg‘ilarining K.Devoniy nusxasida Olti yarim maqomning ashula yo‘llari va yettita Dutor maqomi: Zihiy Nazzora, Urganjiy, Miskin, Rahoviy, Sadri Iroq, Oxyor, Choki giribon deb nomlanuvchi turkumli aytim yo‘llari to‘la kiritilgan. Devoniy nusxasida yozilgan maqom yo‘llari boshidan oxirigacha doyra usullari bilan berilgan hamda barcha musiqiy tuzilmalar she‘r bo‘laklariga muvofiq ravishda taqsimlangan. Faqatgina yirik tuzilmalar – xona, bozgo‘y, ohang (so‘zsiz “o” lab aytiladigan lavha)lar emas, ular xona tarkibidagi kichik jumalarning chegaralari ham maxsus ishora (tik strelka) bilan belgilab chiqilgan. Kuy tarkibining bunday izchil taqsimlanishi, nota yozuvidan unumli foydalanish, shuningdek, kuyning ichki mantig‘i hamda urg‘ulari va boshqa o‘ziga xosliklarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov O. “Sahih suvoriylar” Toshkent 2004.
2. Suyundikovich J.I. (2020).TARIXNI O‘QITISH METODIKASI RIVOJLANISHI TARIXIDAN. Fan va ta‘lim, 1 (5), 195
3. K.Avaz “Olis ohanglar” – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 1997.
4. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – M.: 1925.
5. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda “Xorazm msusiqiy tarixchasi”, “Yozuvchi” nashriyoti, Toshkent, 1998. 2-nashr.
6. Matyoqubov O. Maqomot. – T.: - Musiqqa, 2004.
7. Matyoqubov O. Og‘zaki an‘anadagi o‘zbek professional musiqa asoslariga kirish. – T.: O‘qituvchi, 1983.



8. Matyakubov O. Uzbekskaya klassicheskaya muzika. Kniga 1: Istoki: uchebno-literaturnoye. – T. Yangi asr avlodi, 2015.

9. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Книга 2: Теоретические основы: учебно-литературное. – Т. Yangi asr avlodi, 2015.

10. Yusupova M., Ibrohimov O., E.Yafasova “Sharq taronalari” Maqolalar to‘plami T.: 2007.

11. Mannopov S. O‘zbek xalq musiqa madaniyati. - Yangi asr avlodil, – T.: 2004.

## AN’ANAVIY XONANDALIKDA BARITON OVOZINING O’RNI

**Suhrob JUMAYEV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: **Sardor TOJIBOYEV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida  
katta o‘qituvchisi.


**Annotatsiya:** Maqolada avvalo bugungi kunda yurtimizda qaysi ovoz turlarining qanchalik darajada tarqalganligi, ovozlar shakllanishida tabiiy iqlimning o‘rni haqida so‘z boradi. An’anaviy xonandalikda aynan qaysi ovoz turlariga ehtiyoj ko‘pligi haqida ma’lumot keltiriladi va ba’zi terminlarga ta’rif beriladi. An’anaviy xonandalik jamoalarida bariton ovozigacha ega xonandalarning o‘rni haqida ma’lumot keltiriladi. Soha mutaxassislarining ushbu ovoz turi bilan bog‘liq ba’zi holatlarga o‘z fikrlari va ba’zi ijrochilarga misollar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ovoz, bas, bariton, tenor, registr, daromad, furovard, avj, namud, “oltin o‘rtaliq”, tessitura.

**Аннотация:** Прежде всего, в статье говорится о распространенности голосотипов в нашей стране на сегодняшний день, и о роли природного климата в формировании голоса. Приводится информация о том, какие типы голоса наиболее необходимы в традиционном пении, и определяются некоторые термины. Дана информация о роли певцов-баритонистов в традиционных певческих коллективах. Вот некоторые мнения отраслевых экспертов о некоторых случаях этого типа голоса и примеры некоторых исполнителей.

**Ключевые слова:** Голос, бас, баритон, тенор, регистр, усиление, вперед, пик, семпл, «золотая середина», tessitura.

**Absratct:** First of all, the article talks about the prevalence of voice types in our country today, and about the role of the natural climate in voice formation. Information is provided on which types of voice are most needed in traditional singing, and some terms are



*defined. Information is given about the role of baritone singers in traditional singing groups. Here are some industry experts' opinions on some instances of this voice type and examples of some performers.*

**Key words:** *Voice, bass, baritone, tenor, register, amplification, forward, peak, sample, golden mean, tessitura.*

Bugungi kunda yurtimizda musiqa san'ati sohasida faoliyat ko'rsatayotgan san'atkorlar orasida turli ovozga ega bo'lgan xushovoz xonandalar mavjud. Tinglovchilar tomonidan sevib tinglanadigan asarlar ham har turli ovoz sohiblari ijrosidadir. Tinglovchi didi ham turlicha. Qanaqa ijro bo'lishidan qat'i nazar sifatli ijro mahsuliga qarab talab katta bo'ladi. Ko'pincha tinglovchilar tenor ovozli xonandalar ijrosidagi asarlarni tinglayotganlarining guvohi bo'lamiz. Bu holatning (erkak ovozlarning aksar qismi tenor ekanligi sabab ehtimol) iqlim sharoitiga ham bog'liqligi bor. Ba'zi qarashlarda aytiladiki, iqlimi nisbatan issiqroq, quruqroq o'lkalarda yuqori registrlil ovozga ega xonandalar ko'proq uchraydi:

“Inson halqumidan jaranglaydigan ovoz – go'zal ovoz degan g'oya, ovozning mahoratli chiqarilishi insonning jismoniy tuzilishiga ham bog'liq. Ovozlar hatto og'iz, burun, tanglay kabi a'zolarining joylashuviga va katta kichikligiga bog'liqdir. Masalan: og'zi nisbatan katta, tanglayi keng, burni uzun bo'lgan xonandalar ovozi o'ta jarangdor, rang-barang, boy tembrli va yuqori pardalarda bemalol ovozi qiynalmay chiqib tushadigan qobiliyatga ega bo'ladilar. Bundan tashqari bo'y uzunligi, o'pkaning kengligi ham yetuk ovoz sohibi bo'lishda katta ahamiyatga ega. Ovozlarning tozaligi va keng ko'lamliligi tabiiy iqlim sharoitiga ham bog'liq. Masalan, dengiz yoki okean bo'ylarida yashovchi xonandalar ovozi juda jarangdor bo'lib, erkak xonandalarning ovozlari juda go'zal, rang-barang tembrga ega bo'ladi. Issiq o'lkalarda, ya'ni ekvatorga yaqin mamlakatlarda xonandalarning ovozlari nisbatan quruqroq yoki jarangdorligi nisbatan sustroq bo'lib, tenor va bariton ovozlari ko'plab uchraydi. Ekvatordan Shimolga tomon surilib borgan sari ovozlar turi kamayib tenor, bariton, bas va yo'g'on bas kabi ovoz ko'lami va turlari yo'g'onlashib boradi. Shimoliy Muz okeaniga yaqin mamlakatlarda esa bas ovozli xonandalar ko'payadi. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan sinalib, aniq dalillar bilan



isbotlangandir”.<sup>23</sup> Shundan kelib chiqadiki, iqlimi issiq, kontinental bo'lgan O'zbekiston hududida yetishgan xonandalar ovozlari ko'p hollarda yuqori registrdadir. Bariton ovoziga ega bo'lgan xonandalar nisbatan kam. Ba'zida esa bas ovoziga ega xonandalar ham uchrab turadi.

An'anaviy xonandalik amaliyotidan kelib chiqadigan bo'lsak ko'p hollarda yuqori ovoz ko'lamiga ega bo'lgan xonandalarga talab katta. Buning o'z sabablari ham bor. Chunki diapazoni ikki yarim uch oktava oralig'ida bo'lgan maqomlarning aytim yo'lidagi asarlarda xonanda ovozi yuqori registrdagi erkinlikka ega bo'lmasa ijroda ba'zi muammolarga duch kelish mumkin. Nafaqat maqom ijrochiligi, balki katta ashula, bastakorlik asarlarida ham yuqori pardalarda xonanda uchun erkinlik, yengil kuylay bilish talab etiladi. Lekin bu bilan ushbu janrlarda yoki hamnafaslikda o'rta va past registrdagi ovozlar ishtirokiga talab past deb bo'lmaydi. Shunday ekan bariton ovozining ham an'anaviy xonandalikdagi o'rnini belgilab olishimiz zarur.

**Bariton** ovoziga qisqacha ta'rif: “Bariton (ital. baritono, yun. barus – vazmin, past; ton – tovush) – erkak xonandalar ovozining bir turi, balandligi jihatidan bas bilan tenor oralig'ida. Diapazoni katta oktavadagi lya-si bilan birinchi oktavadagi sol o'rtasida. Lirik va dramatik turlarga bo'linadi. O'zbek xonandalaridan Muhiddin Qoriyoqubov, Nasim Hoshimov, Sason Benyaminov, xorijiy xonandalardan Ditrix Fisher-Diskau, Muslim Magomayev, Georg Ots, Dmitriy Xvorostovskiylar bariton ovozlari bilan mashhur”.<sup>24</sup>

**Registr** so'ziga qisqacha ta'rif: “Registr (lot. registrum – ro'yxat, lot. regestum – yozib qo'yish, topshirib qo'yish) – ma'lum bir maqsadda bir qism tovushqatorining qo'shni tovushlar bilan qo'shilib kelishi (bu ko'proq tembr birligiga xos). Odatda registr baland (yuqori), o'rta va past bo'lib ajratiladi. Ashulachilar ovozi esa ko'krakdan, o'rta va yuqori (eng baland) turlarda bo'ladi”.<sup>25</sup>

<sup>23</sup> Matyakubov Sh. “An'anaviy ijrochilik tarixi” fanidan o'quv-qo'llanma (magistratura bosqichi uchun). – Toshkent, 2018. Xonandalik ovozlarning maqomotda tutgan o'rni va ovoz bezaklari (mellizmlar) (mavzusidan).

<sup>24</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi I. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 634-bet.

<sup>25</sup> Akbarov I. “Muzika lug'ati”. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 280-bet.



**Tessitura** soʻziga qisqacha taʼrif: “Tessitura (it. tessitura) – cholgʻu asbobi yoki kishi ovozining biror musiqa asarida ishlatilgan eng pastki va yuqorigi tovushlari oraligʻi (hajmi)”.<sup>26</sup>

Bizga maʼlumki anʼanaviy xonandalikda asar ijro etilishi (katta ashulada avjdan) aksariyati maqom va bastakorlarning ijod mahsulida pastki registrdan boshlanadi (daromad). Asarning oʻrta qismlariga kelganda dastlab miyonxat va dunasrga koʻtariladi hamda avjga tayyorlanadi. Avjlarning ikki turi Turk avji va Avji Zebo Pari oʻtiladi yoki namudlarga. Soʻngra yana pastki pogʻonalarga zamzama uslubida Furovardga qaytiladi. Shunday ekan bariton ovozigga ega boʻlgan xonandalar oʻzlarini erkin his etadigan va “oltin oʻrtaliq” deb nomlanuvchi pardalarda kuylashlari maʼquldir. Asarlarni jamoa boʻlib ijro etganda ham bariton ovozi xonandalarga aynan shu “oltin oʻrtaliq”ga toʻgʻri keluvchi pardalarda kuylash tavsiya etiladi. Zero ushbu usul anʼanaviy xonandalik jamoalarida muntazam qoʻllaniladi.

Xonandalikda har bir ovozning oʻz oʻrni bor. Ammo yuqorida aytib oʻtilgan ovoz turlarining xonanda imkoniyati bilan bogʻliq baʼzi holatlari va ijrochilikka taʼsir etgan jihatlari mutaxassislar tomonidan oʻrganilgan. Quyida esa anʼanaviy xonandalikdagi past ovozlari va ular bilan bogʻliq baʼzi holatlarga soha mutaxassislarining fikrlari keltiriladi:

“Bayot va Chorgoh sozlarining yoʻqolib ketishi sabablaridan yana biri – past ovozi xonandalar oʻz ovozlari moslashtirgan holda bosh pardadan (re – birinchi oktava) Bayot va Chorgohlarni ijro etishmoqda. Ayrim nota toʻplamlarida ham shunday yozilib chop ettirilgan”.<sup>27</sup>


“Maqom yoʻllarini yakka kuy va ashulalar tarzida yakka sozanda – xonandalar yoki joʻrovoz sanʼatkorlar ijro etganlar. Turkum va yakka asar holida ijro etish usullarining mavjudligi Shashmaqom shoʻbalarida lادلarni turlicha oʻzgarishlarga olib keldi”.<sup>28</sup> Bunda ham oʻylaymizki, ushbu holat xonanda ijrochilik imkoniyatlariga borib taqaladi.

“...xonandalar baʼzan oʻz ovozi imkoniyatlariga qarab, lادلarni oʻzgartirib, baland yoki past pardalardan ayta berganlar. Ladni maʼlum tayanch pogʻonalardan biriga koʻchirib, maqom turkumini qonuniy

<sup>26</sup> I. Akbarov “Muzika lugʻati”. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. 349-bet.

<sup>27</sup> F. Mamadaliev “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2001. 25-26-betlar.

<sup>28</sup> Yozib oluvchi Yunus Rajabiy “Shashmaqom” VI Iroq. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1975. 185-bet.



harakatiga putur yetkazmasdan ijro eta berish mumkin. Masalan, Savti Navo “fa” notasidan boshlanib, avj qismini aytishda xonanda qiynalsa, uni 4 parda past – “do”dan boshlab ayta bergan va hokazo.

Ayniqsa maqomlarni turkum tarzida emas, balki ayrim holda ijro etilganda bunday oʻzgarishlar boʻlishiga keng yoʻl ochiladi”.<sup>29</sup>

Eshituvchining yuqori ovozi boʻlgan munosabatiga bogʻliq yana bir eʼtiborli holat: “Islom odobi sharoitida shirali, goʻzal ovozi qadrlash zaminida nafosatli ashulachilik madaniyati vujudga kelgan. Shunga koʻra jarangli va baland tessiturali erkak tenor ovozi eng yuksak neʼmat hisoblangan”.<sup>30</sup> Lekin bu bilan bariton ovozi xonandalarning eshituvchilari, shinavandalari kam deb ham boʻlmaydi. Buni bariton ovozi mashhur xonandalarning mavjudligi va ularning sevib tinglanishi bilan isbotlashimiz mumkin.

#### **Bariton ovozi ega xonandalarning ijodiga qarashlar:**

“Mulla Toʻychi Toshmuhamedov ijrosidagi ashulalarning sehrli taʼsirchan kuchi yana shunda ediki, sanʼatkor gʻazallar, qoʻshiq matni ustida betinim, zargarona ish olib borardi. Ayniqsa talaffuz masalasi xonandaning diqqat markazida turardi (ayrim xonandalarimiz ustoddan bu borada ham oʻrnak olsalar yomon boʻlmasdi). Tub maʼnodagi lirik xonandaning yuksak isteʼdodi, nafosati, jozibali va turli jilolarga boʻysunadigan, oʻtkir hamda taʼsirchan, inson qalbini rom eta oladigan baritonal tembrli ovozi tinglovchilarni hayratda qoldirardi. Xalq oʻrtasida “Toʻychi hofiz yoʻli” degan ibora keng tarqalgan”.<sup>31</sup>

Bastakor, xonanda va sozanda (nay, dutor), oʻzbek musiqa merosining toʻplovchisi, Oʻzbekiston xalq artisti (1953), Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi boʻlmish Yunus Rajabiyning ovoz turi ham aynan baritonga misol boʻla oladi.

Xonanda va sozanda (tanbur), Oʻzbekiston xalq hofizi (1990) Hasan Rajabiyning ovoz turi bas-bariton ovozi turiga mansub. Ayniqsa yuqorida aytganimizdek maqom ansamblida asarning ilk pardalaridagi kirish qismlarini Yunus Rajabiy keyingi yozuvlarda esa Hasan Rajabiy kuylagan. Buning misolini maqom ansambli ijrosidagi asarlarda koʻrishimiz mumkin.

<sup>29</sup> Yozib oluvchi Yunus Rajabiy “Shashmaqom” VI Iroq. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1975. 186-bet.

<sup>30</sup> O. Matyoqubov “Maqomot”. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2004. 268-bet.

<sup>31</sup> B. Nasriddinov “Toʻychi hofiz”. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1971. 57-bet.



Xonanda, O'zbekiston xalq artisti (1987) Sherali Jo'rayevning ovoz turi esa lirik bariton ovoz turiga mansubdir. Bunday misollarni yana ko'p keltirsa bo'ladi.

Xonandaning asosiy maqsadi ijro etiladigan asarni tinglovchiga to'laqonli yetkazish. Bunda ovoz turining ahamiyati keyingi bosqichlarda turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nasriddinov B. "To'ychi hofiz". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.
2. Matyakubov Sh. "An'anaviy ijrochilik tarixi" fanidan o'quv-qo'llanma (magistratura bosqichi uchun). – Toshkent, 2018.
3. Mamadaliev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari". – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2001.
4. Matyoqubov O. "Maqomot". – Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2004.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi I. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
6. Yozib oluvchi Yunus Rajabiy "Shashmaqom" VI Iroq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
7. Akbarov I. "Muzika lug'ati". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.



## CHOLG'U IJROCHILIGIDA USTOZLAR MAKTABI, AMALIY TAJRIBALAR

(G'ijjak misolida)

**Muhiddin USMONOV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqich magistranti.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
Ilmiy rahbar: **Abduhoshim ISMOILOV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI faxriy professori,  
O'zbekiston xalq artisti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek maqom ijrochiligida g'ijjak cholg'usining o'z o'rni va ahamiyati, uning rivojlanish tarixi, shuningdek, Andijon g'ijjakchilik maktabining rivojlanish xususiyatlari, ustoz sozandalarning amaliy tajribalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** g'ijjak, ijro, uslub, mahorat, sozanda, davomiylik, rivojlanish, tajriba, malaka, ijrochilik.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются роль и значение инструмента жижжак в исполнительском узбекском статусе, история его развития, а также особенности развития анижанской школы гиджак, практический опыт мастеров-музыкантов.

**Ключевые слова:** гиджак, музыка, исполнение, стиль, мастерство, музыкальность, преемственность, развитие, опыт, мастерство, исполнение.

**Abstract:** This article discusses the role and significance of the zhizhzhak instrument in the Uzbek performing status, the history of its development, as well as the features of the development of the Anizhan school of zhizhzhak, and the practical experience of master musicians.

**Key words:** gijjak, music, performance, style, mastery, musicality, continuity, development, experience, mastery, performance.

Ijrochilik san'atida g'ijjak ijrochiligi alohida o'rin tutadi. Sababi torli kamonlicholg'ular turiga mansub g'ijjak sozi ham o'zbek cholg'ularining qadimiylaridanbiridir. O'zbek musiqa ijrochiligi



taraqqiyoti mobaynida ushbu cholg' u turli ko' rinishlarda, turfa xil sozandalar guruhlari tarkibida, yakkanavoz cholg' u sifatida, shuningdek, hofizlarga jo' rnavozlik qilishda keng qo' llanib kelinganligi ma' lum.<sup>32</sup> Bu jarayon albatta sozning o' z sozgar ustalaridan tortib, mohir ijrochi sozandalarini ham yetishtirib chiqarishi tabiiy. Yetuk sozandalar esa asrlar davomidacholg' uning ijro imkoniyatlarini hamda ijrochilik san' atini rivojlantirib kelishgan.

Bugun Respublikamiz miqyosida yetuk ustoz sozandalar bilan birga, ko' plab mohir g' ijjakchi sozandalarni sanab o' tish mumkin. O' zbekistonda mavjud ijodiy jamoalar tarkibida sozandalar o' zbek musiqa ijrochilik san' ati, musiqa cholg' u sozlari, xususan, g' ijjak sozini ham nafaqat mamlakatimizda balki chet ellarda ham targ' ibot qilishib mutaxassislar vatinglovchilar e' tirofiga sazovor bo' lishmoqda.

O' zbek xalq kuylari va qo' shiqlariga umrboqiylik baxsh etgan, ularga o' z san' atibilan sayqal berib, qayta jonlantirgan ustoz bastakorlar, sozanda va xonandalarninignomlarini hurmat bilan tilga olishimiz kerak. Muhiddinhoji Najmiddinov, Sobirjon Siddiqov, Komiljon Jabborov, Mamadaziz Niyozov, G' anijon Toshmatov, O' lmasRasulov, Abduhoshim Ismoilovlar ana shunday ustozlar jumlasidandir. Ushbuzabardast ustozlar va shular singari mashhur sozanda va bastakorlar o' zlarining ijrochilik mahoratlari bilan asrlar mobaynida saqlanib, boyitib kelingan o' zbekmusiqa san' atiga betakror hissa qo' shib kelganlar va bu xayrli ish hamon davometmoqda.

Bugungi kunda milliy san' atimizning barcha turlarida bo' lganidek, sozandalik san' atining o' ziga xosliklarini saqlab qolish, rivojlantirish, yangicha tus berish borasida ustoz sozandalar qatorida yosh iqtidorli ijrochilar tomonidan ham ma' lum izlanishlar olib borilmoqda.

O' zbek milliy sozandalik san' atida shakllangan yakka, ikki yoki undan ortiq cholg' u sozlar ishtirokidagi ijro uslublari, ularning turli milliy va umummilliy ko' rinishlari takomillashib, yangi ijrochilik uslubiga ega bo' lgan turli oqimlarning vujudga kelishi kuzatilmoqda.

Guruhli cholg' u ijrochiligi san' atida badiha (improvizatsiya) uslubidagi yo' nalish paydo bo' ldi. Mazkur oqim milliy musiqamiz tabiatidan yaxshi boxabar, nazariy va amaliy mushohadali, ijroviy

<sup>32</sup> Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. – T., 2001.



imkoniyatlari yuqori darajadagi sozandalar O' zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov (g' ijjak), O' zbekistonda xizmat ko' rsatgan artistlar Abdulaxad Abdurashidov (nay), Abdurahmon Xoltojiyev (qonun) hamda Umarali Bulturov (ud), Qo' chqor Saidov (doira) hamkorliklari natijasida vujudga keldi. Guruh ijrosidagi asarlarning shakliy qurilmasi, intonatsion xususiyatlari, tovush bezaklari, usullar majmui o' zbek musiqiy ijrochilik an' analariga xos va mos tarzda, tovushqatori temperatsiyalanmagan sozlar ishtirokida yaratildi.

Ijro jarayonida sozandalar tomonidan sof cholg' u asarlaridan tortib aytim yo' llariga qilinadigan jo' rnavozlik asnosida to' satdan, erkin, (eksrompt) tarzda ishlatiladigan turli "qochirimlar" mazkur guruh amaliyotida odat tusiga kirib bordi. Aynan ushbu hodisa g' ijjak, nay, qonun cholg' ularining texnik imkoniyatlarini to' la ochib berilishi natijasida badiha uslubining shakllanishiga asos bo' ldi. Ijrodan ijroga qochirimlar bilan birgalikda kichik musiqiy lavhalardan foydalanila boshlandi.

A. Ismoilov tomonidan badiha uchun maxsus kuy bo' lagi to' qilib, kompozitsiya bilan bog' liq barcha unsurlar "uy sharoitida", g' ijjak, ud, qonun cholg' ulari imkoniyatlari hisobga olingan holda, yaxlit asarning shakl-qolipi tayyorlanadigan bo' lindi. Qisqasi, ijro qilinadigan asarning ohang to' qimasi, kompozitsiya andozasi muayyan mashqlar davomida me' yoriga yetkazilishi odat tusiga kirdi. Ushbu guruh ijro uslubiga xos bo' lgan mahorat, ijro paytida keladigan ilhom, ohang tarovati va tovush bezaklarini jozibador ijro qilishga imkon yaratdi. Oddiy "payvand" dek tukigan musiqiy lavhalarni tizimlashtirish, sozandalar orasidagi o' zaro mutanosiblikni ta' minlash natijasida ohang yaxlitligiga erishildi va har bir asar o' ziga xos badiiy yechimda nihoyalanadigan bo' ldi. Bunda asar sur' ati, uning barqarorligi g' ijjakning zimmasida bo' lib, doirachi tomonidan hosil qilinadigan ostinant ritmik shakl qo' shimcha hamusul sifatida sadolanadi. Yakka cholg' u tomonidan amalga oshiriladigan badiha paytida ohang tizimida ishtirok etmaydigan cholg' ular kvarta, kvinta, oktava intervallarida sadolangan holda usul berib turadilar. Odatda barcha kuylar ijrosi o' rtacha sur' atda boshlanadi. Badiha asosan asarning avj nuqtalarida, tovush kuchi kuchaytirilib, sur' ati tezlashtirilishi hisobiga amalga oshiriladi. Jarayon susaytirilmasdan, o' ta tez sur' atda dastlab, g' ijjakchi ijrosida boshlab beriladigan badihani naychi va qonunchi "ilib ketadi". Kuyning to' laqonli ifodasi



musiqa ijrochiligida ma'lum bo'lgan unsurlardan tashqari cholg'ularning tembr, akustik xususiyatlari va g'ijjakchi tomonidan beriladigan "jo'shqin turtki" evaziga boyitiladi. Yuksak texnik darajada hosil qilinadigan ohang tizimi va bezaklar mantiqiy izchillikka erishgan holda sayqallashadi hamda guruhning muvaffaqiyatli chiqishlarini ta'minlaydi.

Ijrochilar zahirasidagi kuy bo'laklari, usullar majmui, tovush bezaklarining ilgaridan mavjudligi, bir tomondan ohang shakli, ikkinchi tomondan cholg'uchilar yakdilligi natijasida erishiladigan ijro tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada guruh tomonidan aks ettiriladigan milliy musiqiy-estetik me'yor badiha jarayonini tomosha darajasiga ko'tarilishida muhim omil vazifasini o'taydi. Guruh faoliyatida mustaqillik mavzusiga bag'ishlangan asarlar alohida o'rin olgan. A.Ismoilovning "To'yona", "Dil bayrami", "Buyuk chinor", "Ahmad Farg'oniy" va yana qator asarlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, mohir g'ijjakchi va bastakor A.Ismoilov 1952-yilning 9 iyunida Farg'ona viloyati Quva tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. Bolaligidan musiqaga qiziqadi va havaskorlik to'garagiga qatnaydi. 1967-yili Farg'ona musiqa bilim yurtiga, 1975 yilda esa Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kiradi. 1980 yilda o'qishni tamomlab Yu. Rajabiy nomidagi maqom ansamblida ijodiy faoliyatini boshlaydi. 1983-yilda o'tkazilgan Respublika maqom ijrochilarining tanlovida birinchi o'rin sovrindori bo'ladi. A. Ismoilov ham mohir g'ijjakchi ham iste'dodli bastakordir. U yaratgan musiqiy asarlarda an'anaviy uslub va zamonaviy musiqa vositalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'ziga xos ohang va usullar kashf etgan holda ta'sirchan. Shu sababli muxlislar tomonidan har bir asar ishtiyoq va muntazirlik bilan kutib olinmoqda. Masalan: "O'zbekiston", "Toshkentim", "Bo'lmas", "Noz", "Yulduzim", "Majnunol", "Tog'lik qiz", "Sening kulishlaring", "Uchrashuv", "Netay" kabi qo'shiq, ashula va yallalari hamda "Holim so'rma", "Gullola", "Tong", "Hayoli qiz", "Dil nolasi", "To'yona", "Qalb sadosi" kabi bir qator cholg'u va raqs kuylari musiqa muxlislarining dilidan joy olgan. Yu. Rajabiy nomidagi "Maqom ansambli" badiiy rahbari A.Ismoilov ko'p qirrali faoliyati bilan o'zbek musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shib, barakali ijod qilmoqda.



Bir qator g'ijjakchi sozandalarning ijro uslubida umumiy xususiyatlar seziladi va bu borada tahliliy ishlar va ilmiy xulosalarni amalga oshirish lozim. Masalan, Komiljon Jabborovning ijro uslubi Farg'ona-Toshkent g'ijjak ijrochiligida keng tarqalgan bo'lib, bu an'anani G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, Abduxoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Axmadjon Dadayev, Ziyovuddin Qosimov, Ravshan va Ulug'bek Hojiqulovlar hamda O'tkir Qodirov kabi bir qator g'ijjakchi sozandalar tomonidan davom ettirilib kelinmoqda. Ushbu hodisani ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, tadqiq etish va asosiysi ta'lim jarayoniga tadbiiq etish juda dolzarb masaladir. Yana shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ayrim ma'lum va mashhur g'ijjakchilarimizning ijro uslublari unutilib bormoqda. Masalan, To'xtasin Jalilov, G'anijon Toshmatov va Mamataziz Niyozovlar ijro maktablarining deyarli unutilib borayotganligi kishini qayg'uiga soladi. Ustoz g'ijjakchilarning ijrochilik uslublari qayta tiklab rivojlantirish, targ'ib qilish va yo'lga qo'yish oldinda turgan yana bir o'ta muhim vazifalardan biridir.

Bizningcha, ushbu muammolarni hal etishda bir qancha ishlarni amalga oshirmoq zarur:

- eng avvalo o'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lgan ustoz g'ijjakchilarning ijrochilik yo'llarini mutaxassislar imkon qadar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishlari zarurligi va uning negizida yoziladigan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma va boshqa ilmiy manbalarda batafsil yoritib berilishi;


- ushbu yozilajak ilmiy manbalar asosida musiqiy ta'lim muassasalarining barcha bosqichlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga ustoz g'ijjakchilarning ijro uslublari o'rgatish;

- ustozlar ijrosidagi asarlarning nota matnlarini tuzish. Bunda ularning uslubiga xos xususiyatlar, ijro bezaklari, ijroviy-texnik jihatlar, talqin masalasi va shu kabi boshqa jihatlarni aniq ifoda etish zarur;

- yosh g'ijjakchi sozandalarga ta'lim berishda ustozona uslublardan keng va unumli foydalanish;

- o'quvchi va talabalarning ijro dasturlarini xilma-xil uslubdagi asarlardan namunalar kiritgan holda tuzishga alohida e'tibor qaratish;

Agar yuqorida sanab o'tilgan ishlarni amalga oshirsak, juda ko'plab ijobiy natijalarni qo'lga kiritamiz. Jumladan: o'quvchi-




talabalarimiz an'analar vorisiyligidan bahramand bo'ladilar va ayniqsa, ularning hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamon va «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'sirlari doirasiga tushib qolishning oldi olinadi. Chunki, boshqa xalqlarning ijroviy xususiyatlari milliy musiqamizga ham o'ziga xos ta'sir o'tkazishi hech kimga sir emas. Bu bilan boshqa xalqlarning san'atini qoralamoqchi emasmiz, balki, o'zimizning nodir va mo'tabar musiqa san'atimizni turli xil yaxshi yomon «shamollardan» asrash ko'zda tutilmoqda.

Dars berish jarayonida ta'lim oluvchining ijro imkoniyatlari va xususiyatlarini ustozlar ijro uslubi bilan qiyosiy solishtirish va tahlil qilish orqali ijro dasturi tuzilsa, yangi yo'nalishlar yaratish imkoniyatlari vujudga keladi. Ya'ni, ta'lim oluvchiga ustozlarning ijro uslubini ham hissiy, ham ijroviy, ham psixologik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilishga o'rgatish, uning shaxsiy (individual) uslubini yuzaga keltirishida asos vazifasini o'taydi. Shuningdek, ijrochining ijro uslublarida ustozlarning ijro xususiyatlari aniqlangan holda, ijro dasturini ular tanlagan yoki ishtiyoq bildirgan uslublarga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Natijada, g'ijjak ijrochiligidagi uslublar davomiyligini ta'minlash bilan birga, bugungi kun ruhi bilan sug'orilgan rang-barang yangi uslublarni paydo bo'lishiga zamin yaratiladi."

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – T.: O'qituvchi. 1995.
2. Петросьянс А.И. Инструментоведение. – Т.: Изд. лит. и иск., 1990.
3. Xudoyev G'. G'ijjak cholg'u ijrochiligi an'analari". Toshkent 2014.
4. Toshmatov O'. Cholg'u ijrochiligi tarixi va taraqqiyoti" (Ma'ruza) profes. O'zDSM. 2015.



## TO'XTASIN JALILOV BASTALAGAN ASARLARINING MAQOM MANBALARI

**Nodirjon SOBIROV,**

*V.A. Uspenskiy nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola ulug' bastakor To'xtasin Jalilov haqida bo'lib, uning ijodiy faoliyati davomida maqom manbalaridan qanchalik va qay tarzda foydalangani haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maqom, bastakor, kuy, ashula, musiqali drama, sozanda, xonanda, dirijor.

**Аннотация:** В данной статье речь идет о великом композиторе Тохтасине Джалилове, и обсуждается, как много и как он использовал источники макама в течение своего творчества.

**Ключевые слова:** статус, композитор, мелодия, песня, музыкальная драма, музыкант, певец, дирижер.

**Abstract:** This article is about the great composer Tukhtasin Jalilov and reflects on how and in what way he used the sources of maqom during his creative career.

**Key words:** makom, bastakor, melody, song, musical drama, lyricist, singer, conductor.

O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun ordeni sohibi", ulug' bastakor, mahoratli sozanda, hofiz va tashkilotchi rahbar To'xtasin Jalilov ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida unutilmas iz qoldirdi.

"Musiqiy san'at sohasida uning hayotida ro'y bergan burilishni ustoz shunday eslaydi: - "Orif garmon tashkil qilgan "Tashviqot aravasi" nomli ansamblda ishlab yurgan kezlrimda 1919-yili shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy Farg'onada 1918-yili tashkil qilgan "Yosh musulmonlar sayyor teatri" bilan Andijonga keldi. Ana shu teatr jamoasi bilan bizning ansamblimiz Hamza tuzgan "Sharq kechasi" nomli konsert dasturida jaranglagan Hamzaning otashin nutqi, zamonaviy she'r va qo'shiqlarini maroq bilan tingladim, yod oldim va ularning ta'sirida yashadim. Mazkur kechada men ham xalq kuy va



ashulalaridan ijro etdim. Konsertdan so'ng Hamza meni qizg'in tabrikladi. Menga bo'lgan munosabatini rahbariyatimizga izhor qilgan ekan. Hamza bilan uchrashuv menda juda katta taassurot qoldirdi va mening san'atkorlik faoliyatimda keskin burilish bo'ldi. 1920-yilda mening yoshligimga qaramay Andijon viloyat musiqali drama teatriga musiqa rahbari lavozimiga tayinlandim" [5, 36-b.].

San'atkor T.Jalilovning bastakorlik ijodiyoti shu teatrdan ishlab yurgan paytlarida boshlanadi. Sahnada qo'yilayotgan asarlarga xalq musiqa merosidan tanlab kiritadi. So'z mazmunidan kelib chiqqan holda ayrim kuylarning jumllarini o'zgartirib, o'zi ham yaxshigina kuylar yaratadi. Barchaga mashhur bo'lib ketgan bastakor ilk bor yaratgan kuylari orasida "Signal" nomli kuy ham juda ham mashhur bo'lib ketadi.

Bastakor T.Jalilov Andijon teatriga musiqa rahbari lavozimiga tayinlangan yildan boshlab, sahnaga qo'yilayotgan spektakllarga xalq musiqa merosidan tanlab, kirita boshlaydi. Xususan, dramaturg Komil Yashinning "Lolaxon", Sobir Abdullaning "Qashqar qizi", G'ulom Zafariyning "Erk bolalari" va "Halima", Shamsiddin Xurshidning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi spektakllariga ilk bor o'zbek va uyg'ur xalq qo'shiq, yalla, ashulalar hamda cholg'u musiqalar tuzilgan. Keyingi yillarda ayniqsa, Muqimiy nomidagi musiqali teatrga badiiy rahbar va bosh dirijor lavozimida ishlagan yillarida "Tohir va Zuhra", "Nurxon", "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Qurbon Umarov", "G'unchalar", "Orzu" (S.Abdulla pyesalari), "Farg'ona hikoyasi" (H.G'ulom pyesasi) kabi musiqali dramalarga yaratgan musiqalarni simfonik orkestrga moslashtirdi. Bunda B.Brovsin, L.Stepanov, G.Mushel, A.Sobitov kabi kompozitorlar bilan hamkorlikda ishladi.

"T.Jalilovning asarlarida haqiqiy o'zbekona shiddat, joziba, dard, hayajon, sharqona sir, yangilikka intilish kabi unsurlar mujassam topgan", - deb yozadi san'atshunoslik fanlari nomzodi S.Begmatov [4, 46-b.]. Darhaqiqat, bunga "Otmagay tong", "O'ynasin", "Parvona bo'libman", "Bahor ayyomida", "Yolg'iz", "Ishq seli", "Qora ko'z", "Gulistonim mening", "Kuylasam" kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Har bir asar o'zining shakl va dramaturgik tarkibining mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. Yana shuni aytish kerak, bastakorning aksariyat ashulalari musiqiy dramalar uchun ishlangan.



Shu bilan birga, uning asarlarida bastakorlikka endigina kirib kelayotgan Yevropa musiqasining shakliy an'analari ham o'zbekona ohanglar va jozibalar asosida ko'rina boshlagani musiqashunoslar tomonidan qayd etiladi.

"To'xtasin Jalilov vodiy bastakorlik maktabining XX asrdagi ijodboshilaridan ekanligini teran anglab, deyarli bir yarim mingyillik mo'jizakor san'at an'alarini tiklashga intilgan. Ittifoqo, zamon zayllaridan kelib chiqib, yangicha, ba'zan tubdan yangi ijodiy tamoyillarni kashf etgan" [3, 187-b.], - deb yozadi san'atshunoslik fanlari doktori To'xtasin G'ofurbekov.

Bastakorning ilk asari mashhur "Signal" (1920) kuyida o'zbek musiqa merosidagi ohang va ritmik omillarni uchratishimiz mumkin. T.G'ofurbekovning ta'kidlashicha T.Jalilovning "Signal" kuyi "Dugoh" maqomining ayrim ashula, ayniqsa, cholg'u yo'llari va bularning Shashmaqomdagina emas, balki "Mushkuloti Dugoh" deb ataluvchi surnay variantlari asosida ijod etilgan ekan.


"Demak, o'n besh asr mobaynida bastakorlik san'atida muayyan ijodiy an'ana tusini olgan, xalq orasida ma'lum kuylar asosida, bulardan semantik jihatdan tub mazmun-mohiyatni o'zgartirgan yangicha asarlar yaratishdek tamoyilni T.Jalilov nihoyatda puxta anglaganligi va mohirona foydalana olishi yaqqol namoyon bo'ladi" [3, 189-b.].

"Signal" kuyi o'zbekona ohanglardagi sho'x, jo'shqin, erkin asar bo'lib, marsh uslubida yaratilgan. Kuyni eshitib yana shuni ham sezish mumkinki, bu asar o'zbek va rus ohanglarining o'ziga xos uyg'unligida yaratilgan. O'zi umuman manbalardan ma'lum bo'ladi, marsh usuli o'sha davrning jo'shqinlikka chorlovchi xarakterdagi asari sifatida keyingi bastakorlar ijodida ham keng ommalashib borgan ekan. Darhaqiqat, To'xtasin Jalilovning "Signal" asari ham bunga yorqin misol bo'la oladi.

"Signal" asari birinchi bo'lib kuy shaklida yaratilgan. Marsh uslubi o'zbekona ohangda yaratilganligi kuyga o'ziga xos joziba baxsh etgan. Asar damli cholg'ular orkestri ijrosida keng ommalashdi. Bu esa kuyni qo'shiqqa aylanishi uchun zamin yaratdi va unga munosib so'z qo'yildi. "Signal" asari hozirgacha o'z mavqeyini saqlab kelmoqda.



## Signal



To'xtasin Jalilov uslubi xalq musiqalaridan foydalanishda juda ustalik va maxorat bilan qo'llanilgan. To'xtasin Jalilov har qanday jozibali asarning yangicha variantini yaratishda eng mohir va usta bastakorlardan hisoblanadi. Bastakorning "Dovruq" ashulasi o'zbek musiqa ohanglari va usullari asosida yaratilgani ma'lum. "Gulistonim mening" ashulasida esa "Talqini Bayotning" bosh mavzusi asos qilib olinadi. Bastakor ko'plab spektakllarga musiqa yaratishda maqomlardan va xalq kuylaridan ustalik bilan mohirona foydalangan. Masalan, "Muqimiy" spektaklidagi bosh qahramon Obidaxonning "Oshkor" ashulasi xalq qo'shig'i "Galdir"dan olingan. "Tohir va Zuhra" (S.Abdulla librettosi, 1940) musiqali dramasidagi bosh qahramon Tohirning "Ayirmish" ariyasi Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'bxalarining talqin usuliga asoslangan.

To'xtasin Jalilovning shoh asarlaridan hisoblangan "Tohir va Zuhra"dagi barchaga tanish bo'lgan "Otmagay tong" duetidir. Bu mo'jizakor kuy zamirida mashhur "Ol xabar" xalq ashulasi yotadi. Ayniqsa, Fattohxon Mamadaliyev talqinida juda go'zal ijro etilgan, bu asarga bastakor o'ta nozik sayqal bergan. Hatto, buni aniqlash murakkab masalaga aylanib qolganday bo'ladi.

Mo'g'ulchayi Buzrukni qashqarcha ashula yo'li qisqa shaklda To'xtasin Jalilov "Tohir va Zuhra" operasida Xorazm malikasi Mohim ariyasi sifatida foydalanilgan. Ko'plab bastakorlar singari To'xtasin Jalilov ham Navro'zi Saboning talqinchasi asosida "Tohir va Zuhra" operasi uchun "Ishq seli" deb boshlanadigan ariya yozgan.

Atoqli bastakor "Tohir va Zuhra" musiqali drama va operasida "Chapandozi Savti Navo"dan foydalanib Tohir ariyasi va uning asl yo'lidan Zuhra ariyasini yozgan. Tohir ariyasi qahramonning ichki tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalaydi. Unda adolatsizlik, shavqatsizlik



zamonida ishq muhabbat oyoq osti qilinishi oqibatida ayanchli ahvollar kelib chiqishi aks etgan.

"Taronayi Bayot", "Bayot 2" ashula yo'llaridan ham To'xtasin Jalilov ustalik bilan foydalanib "Bog' aro", "Ey ko'ngul" deb nomlanadigan ashulalar bastalagan. Mana ko'rib turganimizdek, ulug' bastakor To'xtasin Jalilov milliy maqom san'atimizning bilimdoni bo'lgan va undan juda ham samarali va unumli foydalangan.

Umuman O'zbekiston xalq artisti, bastakor sozanda T. Jalilov benazir mahorat bilan ajoyib qo'shiq lirik ashulalar va 40 dan ortiq musiqali spektakllar yaratadi. U XX asr musiqasi tarixi sahifalarida chuqur iz qoldirgan ulug' bastakor, mahoratli sozanda, tashkilotchi rahbar, xushovoz hofiz, qobiliyatli dirijor sifatida ibratli hayot yo'lini bosib o'tib, bugungi kunda ham namuna sifatida gavdalanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov I. To'xtasin Jalilov. Toshkent, 1978.
2. Jabborov A.H. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari (ma'lumotnoma). Toshkent, 2004.
3. G'ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri. Toshkent, 2019.
4. Begmatov S.M. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017.
5. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M.. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent, 2018.
6. Internet (Google topilmalari va Wikipediya) ma'lumotlari.



## O'ZBEK MILLIY MUSIQASIDA NAMUDLAR MASALASI

*Nargiza BEKBOYEVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
Vokal san'ati: an'anaviy xonandalik  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy musiqasi, xususan maqom ijrochiligida namudlar masalasi o'rganilib, maqomshunos olim Is'hoq Rajabovning namudlar nazariyasi ustida olib borgan ilmiy izlanishlari keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Maqom, Safiuddin Urmaviy, Davrlar kitobi, Namud, Shashmaqom, Is'hoq Rajabov, Avj, Namudi Uzzol, Namudi Muxayyari Chorgoh, Namudi Ushshoq, Namudi Navo, Namudi Oraz.

**Аннотация:** В данной статье исследуется вопрос закономерностей в узбекской национальной музыке, особенно при исполнении макамов, а также приводятся научные исследования, проведенные ученым-макамологом Исхаком Раджабовым по теории макамов.

**Ключевые слова:** Маком, Сафиуддин Урмави, Книга веков, Намуд, Шашимаком, Исхак Раджабов, Авдж, Намуди Уззол, Намуди Мухайяри Чоргох, Намуди Ушшак, Намуди Наво, Намуди Ораз.

**Abstract:** This article examines the issue of regularities in the Uzbek national music, especially when performing makams, and also provides scientific research conducted by makamologist Iskhak Radjabov on the theory of makams.

**Key words:** Makom, Safiuddin Urmavi, Book of Ages, Namud, Shashmakom, Iskhak Rajabov, Avj, Namudi Uzzol, Namudi Muhayari Chorgoh, Namudi Ushshak, Namudi Navo, Namudi Oraz.

Har bir davlatning, millatning o'z madaniyati, ma'naviyati, an'ana-udumlari va albatta milliy ruhi bo'ladi. Bu esa asrlar davomida shakllanib avloddan-avlodga an'ana asosida o'tib, saqlanib kelinadi. Bizning shunday beqiyos milliy boyliklarimizdan biri maqomlarimizdir. Maqom Sharq xalqlarida qadim zamonlardan mavjud bo'lgan janr hisoblanadi.



Maqom arabcha - "joy", "makon", "o'rin" degan ma'noni anglatib, musiqa istilohida, cholg'ularda tovush hosil etiladigan joy, ya'ni parda degan ma'noni bildiradi.

Maqomlar sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan bo'lsada, maqom atamasi Sharq xalqlari musiqasida taxminan IX asrlardan qo'llanila boshlangan. Xususan Safiuddin Urmaviyning "Davrlar kitobi" da "maqom" so'zi uchramaydi, balki maqom o'rnida "davr", "doira", "shadd" kabi terminlar yuritiladi.

Yaqin va O'rta Sharq mumtoz musiqa nazariyasida XIII asrga qadar maqomlar soni aniq belgilanmagan. Safiuddin al-Urmaviy maqom nomlaridagi parda tuzilmalarini ilmiy tasniflab, O'n ikki maqom tizimini ishlab chiqqan. Ushbu tizim bir muncha takomillashtirilgan holda qariyb XVII asrga qadar qo'llanib kelingan.

Namudlar Shashmaqomda eng muhim masalalardandir. Namud tojikcha "ko'rinish", "namoyon bo'lish" ma'nosidagi so'z bo'lib, muayyan kuy yoki ashula tuzilmasining turli sho'balarning tarkibidagi ko'rinishi demakdir. Namudlar ko'pincha maqom sho'balarning boshlanishidagi kuy jumlaridan olinadi va ular boshqa sho'balarning avji sifatida foydalaniladi. Mashhur Rajabiylar sulolasining yorqin vakili, yirik maqomdon, tanbur va dutor sozlarida mohir ijrochi Is'hoq Rajabovning 1963-yili nashr etilgan "Maqomlar masalasiga doir" nomli monografik tadqiqotida ilk bor namud atamasini qo'lladilar hamda namudlarni ilmiy asoslab berdilar. Ustozning samarali izlanishlari o'laroq maqomlarda o'ndan ortiq namud va 2 ta maxsus avj (Turk, Zebo Pari) borligi ma'lum bo'ldi. Shuni aytib o'tish joizki, Shashmaqomning te'ran imiy-ijodiy asoslarini ishlab chiqishda, hozirgi zamon musiqa madaniyatida tutgan mavqeyini va badiiy estetik qiymatini ko'rsatishda, maqomlarning tub mazmun-mohiyatini ochib berishda Is'hoq Rajabovning hissasi juda kattadir.

Aytib o'tganimizdek namudlarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib sho'balarning avji sifatida ham ishlatiladi. Biz oldin avj masalasiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Avj o'zi nima? Bu asli arabcha so'z bo'lib lug'aviy ma'nosi "balandlik", "cho'qqi" degan ma'noni bildiradi. O'zbek milliy qo'shiqchilik-ashulachilik amaliyotida avj asosan uch toifadagi qisman farqli ma'nodoshlikni kasb etadi.



**Birinchi**dan, avj – muayyan musiqiy asarning eng baland, cho‘qqi pardasining lo‘nda ifodasi. Bunday keng ma‘no beruvchi avj atamasidan cheklanmagan holda foydalaniladi.

**Ikkinchi**dan, avj deganda rivojlangan musiqiy shaklning yuqori pardalarda gavdalanuvchi davomliroq bo‘lagi, tuzulmasi tushuniladi. Shunisi diqqatga sazovorki, hajman yirik, baland avjli kuy tuzulmalari asosan bastakorlik ijodiyotining maxsuli bo‘lmish ashula, katta ashula, suvora, maqom yo‘llari hamda cholg‘u asarlariga xosdir.

**Uchunchi**dan, avj so‘ziga qo‘shilgan holda bir juft maxsus kuy nomi. Ular “Zebo Pari avji” va “Turk avji” deb yuritilib, faqat mumtoz musiqa asarlarida uchraydi. Ushbu noyob kuylar matni mudom baland pardalarda bayon etilib, muayyan asar shaklining avj tuzilmalaridan namoyon bo‘lishi mumkin. Xuddi shu boisdan “ZeboPari” va “Turk” kuy nomlari avj so‘zi bilan uzviy bog‘langan.

Xulosa qilish mumkinki, aksariyat qo‘shiq namunalarida avjlarning birinchisi mavjud. Ashulaning ham ifoda, ham shakllantiruvchi vositalari qatorida birinchi va ikkinchi tushunchadagi avjlar, maqomlarning cholg‘u yo‘llarida ikkinchi toifasi, aytim yo‘llarida esa uchalasi ham muayyan o‘rin tutadi. Namudlarni ham aynan shunday murakkab toifadagi avjlar sirasiga kiritish mumkin.

Namudlarni ajratib olmay turib, maqom yo‘llarining tarkibiy bo‘laklarini, ularning kuy qiyofasini tasavvur etish mumkin emas. Shuning uchun ham namudlar masalasi alohida ahamiyatga egadir. Masalan, Buzruk maqomidagi Nasri Uzzol sho‘basining boshlanishidagi 3 yoki 4 kuy jumlasini butunicha olinib, boshqa sho‘balarining tabiatiga, doira usuliga moslashtirilgan holda avj sifatida foydalaniladi va Uzzol namudi deb ataladi. Namudlar maqomlarning sho‘balarida yakka holda shuningdek, guruhma-guruh qilib ishlatilishi mumkin. Ijrochi-hofizlar o‘z xohishlariga, ovoz imkoniyatlariga hamda tajribasiga qarab, namudlarni maqom ijrosida turlicha ishlatganlar. Masalan, bir hofiz uch-to‘rttagacha namud ishlatib, boshqasi ularning birini butunlay tushirib qoldirib, ijro etishi mumkin. Ular guruh bo‘lib kelganda maqom ashula yo‘llarida bir-biriga mos kelishi, ashula ruhi va mazmuniga halal bermasligi kerak.


Namudlar soni o‘ndan ortiq bo‘lib, ular: Namudi Uzzol, Namudi Muxayyari Chorgoh, Namudi Ushshoq, Namudi Navo, Namudi Oraz, Namudi Bayot, Namudi Dugoh, Namudi Segoh, Namudi Nasrullovi va



boshqalardir. Namudlar ko‘pincha Talqin va Nasr deb ataladigan sho‘balardan olinadi. Namudlarning nomlanishidan ham ular maqomlarning qaysi sho‘basidan olinganligini bilish mumkin. Masalan, Namudi Ushshoq- Nasri Ushshoqdan, Namudi Dugoh-Dugohi Husayniydan, Namudi Oraz – Orazi Navodan, Namudi Segoh – Nasri Segohdan, Namudi Bayot – Nasri Bayotdan, Namudi Uzzol – Nasri Uzzoldan, Namudi Bayot – Nasri Bayotdan, Namudi Uzzol – Nasri Uzzoldan, Namudi Muxayyari Chorgoh – Nasri Chorgohdan olinganligi ma‘lum. Lekin namud sifatida foydalanilgan melodik jumlar sho‘balar tarkibida ularning kuy qiyofasi, kuy harakati va doyra usuli xarakteriga moslab olinadi.

Shunday qilib, asosan yuqorida nomlari ko‘rsatilgan namudlar maqom yo‘llarida keng qo‘llaniladi. Ular maqomlarda turlicha ishlatiladi. Yuqorida aytilgan namudlardan tashqari, maqom yo‘llarida ishlatiladigan ma‘lum ashula qismlarining Zebo pari, Turk deb atalgan avjlar ham uchraydi. Bu avjlar namud deb atalmasa-da, uning funksiyasini bajaradi. Ular ma‘lum sho‘balardan olinmagan, balki bastakorlar tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan. Shuning uchun ularni namud, ya‘ni ma‘lum maqom ashula bo‘lagining boshqa sho‘balaridagi ko‘rinishi deb bo‘lmaydi.

Namudlar qayerdan olingan bo‘lmasin, Shashmaqom ashula bo‘limlaridagi turli sho‘balarda ishlatiladigan ashula avji ko‘rinishlaridandir. Shuning uchun maqom yo‘llarini tinglash jarayonida ularning avjlarida ba‘zi o‘xshash unsurlar mavjudligi sezilib turadi va bir ashula yo‘lidagi avj qismi bilan ikkinchisi o‘xshashdek tuyuladi. Namudlardan ma‘lum maqomlarning sho‘balarida foydalanishda kuy tuzilishining qonuniy rivojlanishi, kuy yo‘llarining ruhi, qiyofasi va lad asosining xos tomonlarini hisobga olish zarurdir. Bu esa namudlarning bir – biriga va sho‘balarga bog‘lanishida mos kela olishi hamda ashula ruhi va mazmuniga halal yetkazmasligini ta‘minlaydi. Masalan, Namudi Oraz Buzrukda va Iroqda, Turk avji esa Rost, Navo hamda Iroqda maqomlarida butunlay ishlatilmaydi. Bunga sabab, o‘sha namudlarning u yoki bu maqom yo‘llariga har tomonlama mos kelmasligidir. Namudi Uzzol, Namudi Ushshoq, Namudi Segoh va Zebo pari esa namud vazifasi bilan cheklanmay balki, asosiy kuy va boshqa namudlar orasida vositachi vazifasini ham bajaradi.



Yuqorida aytilganidek, Is'hoq Rajabov namudlarni ilmiy va nazariy jihatdan yoritib berdi. 1966-1975-yillarda Yunus Rajabiy to'plab notaga olgan Shashmaqomning 6 jildlik kitobining 6-jildida Namudlar ko'rsatkichi berilgan bo'lib, bu jadvalda maqom sho'balari va ularda qo'llangan namudlarning nomlari hamda Shashmaqomning 6 jildlik kitobidagi asarlarning taktlar hajmi va betlari kiritilgan. Jadval ostida esa sho'ba va shahobchalarda keladigan namudlarning ijrosi haqida ma'lumotlar ham berilgan. Bu esa namudlarni yanada yaxshiroq tushunish va o'rganishda muhim vositadir.

Umuman namudlar Shashmaqom ashula bo'limidagi sho'balari qiyofasini tushinishda muhim belgilardandir. Namudlarni ajratib olmay turib, maqomlar haqida to'g'ri tasavvur hosil bo'lmaydi. Shunday qilib namudlar, asosan yuqorida nomlari ko'rsatilgan maqom yo'llarining ma'lum ko'rinishidir. Ular maqomlarda turlicha ishlatiladi.

Is'hoq Rajabovning olib borgan tadqiqotlari Namudlar nazariyasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari orqali shuni aytishimiz mumkin, namudlarni bir-biridan ajratib olmay turib, maqom yo'llarining tarkibiy bo'laklarini, ularning kuy qiyofasini tasavvur etish mumkin emas. Shuning uchun ham namudlar masalasi alohida ahamiyatga egadir. Har bir maqom ijrochisidan maqom yo'llarini, maqom sho'balarini mukammal o'rganish uchun namudlarni yaxshi bilish hamda ularni ajrata olish, qolaversa, ijro mobaynida qo'llash uchun katta tajriba talab etiladi. Ma'lum maqom sho'balarida muayyan namudlar guruhi ishlatilar ekan, bunda bastakor-sozandalar kuyning yo'nalishi, uning hissiy ta'siri va ichki qonuniyatlarining xarakteriga mos kelishiga katta ahamiyat berganlar. Bu hol esa, maqom yo'llarida namudlarni guruh qilib ishlatilganligi tasodifiy emasligini ko'rsatadi. Maqom sho'balarida ishlatilgan har bir namud ashulaning kuy rivojlanishida muhim o'rin tutishi, uning shaklini kengaytirib borishi, va hissiy mazmunining chuqurlashishiga katta yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov I. "Maqomlar masalasiga doir". Toshkent. 1963.
2. Hasan Rajabiy. "Rajabiynoma". Toshkent. 2016.
3. Akbarov I. Musiqqa lug'ati. Toshkent, 1997.
4. Yunusov R. "Faxriddin Sodiqov". Toshkent. 2005.



## ОБ ИЗУЧЕНИИ РИТМИКИ СТИХОСЛОЖЕНИЯ АРУЗ ПРИЁМАМИ ИГРЫ НА ДУТАРЕ

*Дилрабо АБДУРАШИДОВА,*

*Магистрант 2-го года обучения*

*Кафедра традиционного инструментального  
исполнительства*

*УзНМИИ института им. Юнус Ражабий.*

*Научный руководитель: Малика ЗИЯЕВА,*

*профессор УзНМИИ института им. Юнус Ражабий,*

*Заслуженный артист Узбекистана.*

*Аннотация: Ushbu maqola aruz vaznidagi she'riyat ritmini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada uni dutor chalish usullari bilan o'rganish taklif etilgan. Muallif ularning yaqin munosabatlarini o'rnatishga harakat qildi. Ilmiy yangilik savolning tuzilishi va tadqiqot usulining o'zida ko'rinadi. Milliy musiqashunoslikda birinchi marta she'r ritmi amaliy jihatdan – dutor ijrosidagi zarbli birikmalari orqali o'rganiladi va o'zlashtiriladi. Maqolada she'rning ritmi dutor sozning zarb kombinatsiyalari bilan qanday bog'lanishi va o'zlashtirilishi; dutordagi zarblar bilan she'r zarbi atonin tizimi tomonidan qanday aniqlik ko'rsatilishi va kuylanishi, vofir, komil, ramal, hazaj, rajaz, mutadorik va mutaorib kabi vaznlarning invariant ritmik tuzilishining dutorchilar tomonidan to'g'ri ijro etilishi va o'zlashtirilishi haqida savollar ko'rib chiqiladi.*

*Калит so'zlar: Versifikatsiya, aruz, ritm, zarbalar, chalish texnikasi, dutor.*

*Аннотация: Настоящая статья посвящена изучению ритмики стихосложения аруз. В работе предлагается изучить её приёмами игры на дутаре. Автором предпринимается попытка установить их тесную взаимосвязь. Научная новизна видится в самой постановке вопроса и методе исследования. Впервые в отечественном музыковедении ритмика стиха изучается и осваивается практическим способом — штриховыми комбинациями игры на дутаре. В работе рассматриваются вопросы, как ритмика стиха может соотноситься и осваиваться штриховыми комбинациями музыкального инструмента, как*



именно со штрихами на дутаре она квалифицированно указывается и скандируется системой атонин, каким способом инвариантные ритмические структуры стихосложения, известные как вофир, комил, рамал, хазадж, раджаз, мутадорик и мутақориб, адекватно исполняются и познаются музыкантами-исполнителями на дутаре.

**Ключевые слова:** Стихосложение, аруз, ритмика, штрихи, приёмы игры, дутар.

**Abstract:** This article is devoted to the study of the rhythm of aruz versification. The paper proposes to study it with the methods of playing the dutar. The author attempts to establish their close relationship. Scientific novelty is seen in the very formulation of the question and the method of research. For the first time in national musicology, the rhythm of verse is studied and mastered in a practical way - by stroke combinations of playing the dutar. The paper deals with the questions of how the rhythmic of a verse can be correlated and mastered by the stroke combinations of a musical instrument, how exactly it is qualified and scanned by the atonin system with the strokes on the dutar, how the invariant rhythmic structures of versification, known as vofir, komil, ramal, hazaj, rajaz, mutadorik and mutaқorib are adequately performed and recognized by dutar players.

**Key words.** Versification, aruz, rhythm, strokes, playing techniques, dutar.

Поэтическое стихосложение аруз<sup>33</sup> привлекает внимание многих учёных сферы музыки и литературы. И это естественно, так как музыка, поэзия и танец изначально относились к синкретическому явлению. Их всегда рассматривали вместе, во взаимосвязи. А объединяющим их началом являлся Его Величество РИТМ! Неспроста на Востоке поэзию считают музыкальной, а музыку — поэтической. Именно ритмическое начало, объединяя их, придаёт им условие в совместном гармоничном сосуществовании.

<sup>33</sup> Аруз (ар.) — квантитативная система стихосложения, основанная на чередовании долгих и кратких слогов. Разработал эту системы арабский учёный-филолог Халил ибн Ахмед аль-Басри в VIII веке. Поэтому вначале она какое-то время функционировала в арабской поэзии, а потом уже распространилась в поэзии других стран Ближнего и Среднего Востока, в том числе в персидской и тюркской.



Известный учёный-музыковед О.Матякубов об этом пишет следующее: «Ритм — это то начало, которое объединяет музыку с другими видами искусства и литературой. Это относится к музыке и поэзии, тем более, когда речь идет о квантитативной ритмике, которая считается явлением синкретическим, где слиты закономерности и музыки, и стиха» [7, с. 66].

Стихосложение аруз являлся предметом внимания многих известных учёных и исследователей классической музыки Шашмаком, в частности А.Фитрата, С.Айни, И.Раджабова, Ф.Кароматова, О.Матякубова и др. В трудах учёных эта тема не являлась предметом специального исследования, однако в выявлении размеров стиха, применяющихся в том или ином разделе цикла Шашмаком, они обращали особое внимание.

О связи музыки и поэзии, в том числе стихосложения аруз и вокальной музыки, посвящены диссертационные работы Т.Соломоновой [8] и Р.Султановой [9, 10]. Учёные в основном рассматривали вопросы ритма в узбекском песенном наследии, о взаимосвязи ритмоформулы усул и ритма мелодии в вокальных частях цикла Шашмаком. Здесь выполнена огромная работа в выявлении закономерностей связи музыки и поэзии. Однако сама система стихосложения аруз или её ритмическая основа не являлась предметом специального изучения.

Теперь отметим работу А.Абдурашидов — «Омузиши авзони шеър ва мусики (Аруз ва мусики)» (Изучение ритмики стиха и музыки (Аруз и музыка), которая посвящена именно изучению ритмики стихосложения аруз. Учёный впервые рассматривает ритмику стихосложения в соотношении с музыкальным метроритмом и приходит к выводу о том, что они между собой тесно взаимосвязаны. В результате исследования учёный пришёл к следующим выводам: ритмика основной части (*асли*<sup>34</sup>) стихосложения аруз строится в основе двух музыкальных

<sup>34</sup> *Асли* (букв. (ар.) от сл. *асл* — «основной», «коренной», «оригинал») — название первой основной части стихосложения аруз.



размеров 7/8 и 2/4 (или 4/8), а производная — (*фаръи*<sup>35</sup>) — только в одном размере 6/8 [1, с. 23-25; 2, с.62; 3, с.19-22].

Целью настоящей статьи является рассмотрение ритмики стихосложения аруз лишь основной части, строящейся в размерах 7/8 и 2/4. В работе предпринимается попытка изучить и освоить ритмику стихосложения аруз практическим способом — методом игры на дутаре. Поэтому в задачи входят:

1) Разъяснить, как активные ритмические периоды (*давр*), составившие разновидности поэтических стоп (*рукн*) и размеров (*вази*) стихосложения основной части (*асли*) — *вофир*, *комил*, *рамал*, *хазадж*, *раджаз*, *мутадорик* и *мутакориб*, озвучиваются и осваиваются приёмами игры на дутаре?

2) Установить способ скандирования ритмики стихосложения приёмами игры на дутаре.

Всё это отчётливо проясняет степень изученности настоящей темы исследования. Научная новизна видится в самой постановке вопроса и методе изучения. Впервые в современном таджикском и узбекском музыковедении ритмика стиха (стихосложения) изучается и осваивается практическим способом — штриховыми комбинациями игры на дутаре. Автор считает, что избранный метод исследования даст возможность взглянуть на предмет изучения ритмики стиха и музыки с эмпирической стороны и решать научно-практические проблемы изустным способом. Ведь это в конечном итоге является приоритетом и предпочтением нашей давней традиции: с одной стороны, рассматривать звуковысотные основы в условиях шкалы музыкального инструмента, с позиций пальцев левой руки исполнителя, а с другой — изучать ритмическую систему во взаимосвязи культуры исполнения на музыкальном инструменте — в сочетании с ритмическими комбинациями правой руки исполнителя. И если фиксация звуковысотной основы в традиции осуществлялась и по настоящее время осуществляется в контексте шкалы инструмента (к примеру, уд—Дувоздахмаком, танбур—Шашмаком), то ритмическая система фиксируется и познаётся методом ударов по

<sup>35</sup> *Фаръи* (букв. (ар.) от сл. *фаръ* — «производный», «ответственный») — название второй производной части стихосложения аруз.



струнам музыкального инструмента, выполняемых приёмами игры на нём.

Известный учёный-музыковед Т.Джани-заде о роле музыкального инструмента в фиксации и описании музыкальных ритмов *ико'* пишет следующее: «В поисках способов описания и классификации музыкальных ритмов знатоки музыки опирались с самого начала не на практику игры на ударных инструментах, а на практику игры на струнном инструменте — и это был «ударный» по своей сути инструмент *ал-'уд*» [6, с. 360]. То есть музыкальный инструмент изначально являлся главным средством квалифицированного описания и познания ритмики музыкальных и поэтических построений.

Идея об изучении ритмики стихосложения аруз приемами игры на дутаре возникла у автора в период учёбы в Академии макома на занятиях у преподавателя А.Абдурашидова по классу «Аруз и музыка»<sup>36</sup>. В начале в виде эксперимента автор изучала разновидности ритмики стихосложения аруз на примере собственного исполнения на дутаре. В результате пришла к выводу, что данный способ для практической науки может явиться принципиально важным и иметь перспективу применения в познании, как ритмики стиха, так и других аспектов музыкально-поэтического творчества.

Изучая особенности ритмики стихосложения аруз по методике А.Абдурашидова прежде всего отметим, что учёный рассматривает квантитативную ритмику стиха в соотношении с музыкальным метроритмом. При этом квантитативная ритмика, которая определяется чередованием кратких и долгих слогов, рассматривается им как есть, неакцентной. Однако порядок их построений учёный связывает с законами музыкального метроритма. Так, на основе двух размеров тактовой системы и разновидностей ритмоформул (*усул*) А.Абдурашидов устанавливает ритмические разновидности стихосложения, известных как *вофир*, *комил*, *рамал*, *хазадж*, *раджаз*, *мутадорик* и *мутакориб*. Первые пять из разновидностей ритмов строятся в

<sup>36</sup> Автор настоящей статьи проходила занятие по предмету «Аруз и музыка» вместе с учащимися школы «Шашмаком» при Академии макома в форме свободного посещения с 2013 года.



размере 7/8, а остальные две — в размере 2/4. На нотном примере они выглядят следующим образом (Рис.1):

Рисунок 1. Разновидности ритмики стихосложения аруз основной части (*асли*), строящиеся в размере 7/8 и 2/4

1) Ритмика стихосложений, строящаяся в размере 7/8.

2) Ритмика стихосложений, строящаяся в размере 2/4.

Теперь рассмотрим, как ритмика стихосложения аруз основной части (*асли*) озвучивается и осваивается приёмами игры на дутаре:

Сразу отметим, что извлечение звуков на дутаре происходит ударами пальцев правой руки. Как уже известно, между собой они отличаются с одной стороны, по функции — основной-вспомогательный (активный-пассивный), а с другой, по характеристике сторон их ударов — внешней-внутренней. Внешняя сторона пальца склонна к акцентным ударам, а внутренняя, к неакцентным [4, с. 21-22].




Способ обозначения ударов пальцами по струнам дутара осуществляется следующим образом: 1) все удары, выполняемые пальцами правой руки вниз, обозначаются знаком «п», а вверх — знаком «v»; 2) все разновидности ударов по струнам дутара в нотах указываются с заглавной буквы наименований пальцев: мизинец — *жимжилок* указывается буквой *ж*, указательный — *курсаткич бармок*, буквой *к* и большой — *бош бармок*, буквой *б* [4, там же]. В нотах все они вставляются над ритмическими долями.

Между тем способ скандирования ритмики осуществляется в следующем порядке: 1) все разновидности ударов вниз, выполняемые пальцами правой руки по струнам дутара, носят функцию акцентного характера и поэтому скандируются ритмослогами *та* или *тан*. И наоборот, 2) все разновидности ударов вверх, выполняемые пальцами по струнам дутара, носят функцию неакцентного характера и поэтому скандируются ритмослогами *на* или *нан*. Чередование ударов по струнам в обе стороны осуществляется ритмическая комбинация со скандированием ритмослогов в смещенном виде: *та (тан)* и *на (нан)* (Рис.2).

Рисунок 2. Выражение и озвучивание ритмики стихосложения аруз основной части (*асли*) приёмами игры на дутаре

1) Ритмика стихосложения в размере 7/8.

2) Ритмика стихосложения в размере 2/4



Мушторик  $\frac{2}{4}$  б к ж  
v v v v  
ни ни тан

Мутакориб  $\frac{2}{4}$  к ж б  
v v v v  
на тан ни

УСУЛ:  $\frac{2}{4}$  бум бак бум  
v v v v

Как видим из вышеприведённого примера все разновидности ритмики стиха строятся на основе ритмаформулы *усул*. Это ещё раз удостоверяет, что ритмика стихосложения аруз выстроена в согласии с законами музыкального метроритма.

Все параметры ритмики стиха, музыки и приёмов игры на дутаре в соотношении между собой выглядят следующим образом (см. табл. 1, 2 и 3):

1. Указание пальцев правой руки исполнителя
2. Указание направлений ударов вниз и вверх по струнам дутара
3. Схема кратких и длинных слогов стихосложения
4. Музыкальный ритм (тактовая система)
5. Слоговое скандирование музыкального ритма (*атонин*)
6. Слоговая формулировка стихосложения (*афоъил*)
7. Слоговое скандирование ритмоформулы *усул* (*бакобум*)

Итак, если рассматривать все параметры ритмики стиха, музыки и приёмов игры на дутаре на примере трёх ритмических кругов (*доира*) — *Муъталифа*, *Муджталиба* и *Мунфарида* (или *Муттафика*)<sup>37</sup>, то они в соотношении между собой выглядят таким образом (табл. 1, 2 и 3)

Таблица 1. Ритмический круг — *доираи Муъталифа*

№	Ритмические периоды ( <i>адвор</i> )	
	2-й ритмический период — <i>даври солими Вофир</i>	4-й ритмический период — <i>даври солими Комиз</i>
1	б ж б к ж	б к ж б ж
2	v п v v п	v v п v п
3	v — v v —	v v — v —
4	$\frac{7}{8}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$	$\frac{7}{8}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$
5	на-тан на-па-тан	на-па-тан на-тан
6	ма-фо-ъи-ла-лун	му-та-фо-ъи-лун
7	бум ба бум ба-ка бум	бум ба бум ба-ка бум ба бум

<sup>37</sup> Названные ритмические круги приводятся в работах учёного А.Абдурашидова [1,3].



Таблица 2. Ритмический круг — *доираи Муджталиба*

№	Ритмические периоды ( <i>адвор</i> )		
	1-й ритмический период — <i>даври солими Рамаз</i>	2-й ритмический период — <i>даври солими Хавадж</i>	4-й ритмический период — <i>даври солими Раджиз</i>
1	ж б ж б	б ж б ж	б ж б ж
2	п v п v	v п v п	v п v п
3	— v — —	v — — —	— v — —
4	$\frac{7}{8}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$	$\frac{7}{8}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$	$\frac{7}{8}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$
5	тан-на-тан-нап	на-тан-нап тан	нап-тан-на-тан
6	фо-ъи-ло-лун	ма-фо-ъи-лун	мус-таф-ъи-лун
7	бум ба бум ба-ка	бум ба бум ба-ка бум	бум ба бум ба-ка бум ба бум

Таблица 3. Ритмический круг — *доираи Мунфарида* (*Муджталиба*)

№	Ритмические периоды ( <i>адвор</i> )	
	2-й ритмический период — <i>даври солими Мушторик</i>	3-й ритмический период — <i>даври солими Мутакориб</i>
1	б к ж	к ж б
2	v v п	v п v
3	— v —	v — —
4	$\frac{2}{4}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$	$\frac{2}{4}$ $\downarrow$ $\downarrow$ $\downarrow$
5	ни на тан	на тан ни
6	фо-ъи-лун	фа-ъи-лун
7	бак бум бак	бак бум бак бак

Таким образом, изучая особенности построения ритмики стихосложения аруз в соотношении с приёмами игры на дутаре, автор приходит к следующим выводам:

1. Исследование ритмики стихосложения аруз приёмами игры на дутаре является весьма актуальным, позволяет новым взглядом рассмотреть и раскрыть особенности построения ритмики стиха и музыки, и тем самым внести коррективы в понимании практического освоения музыкально-поэтической ритмики в условиях современной музыкальной науки
2. Ритмика стихосложения аруз легко подаётся к практическому изучению и освоению приёмами игры на дутаре<sup>38</sup>.

<sup>38</sup> По характеристике ритмических комбинаций дутар имеет богатый потенциал. Поэтому ритмические структуры, встречающиеся в стихосложении аруз, по сравнению с возможностями ритмических комбинаций на дутаре, являются весьма простыми. И в этой связи исполнителям на дутаре не будет составлять какого-либо труда в их ускоренном освоении.



3. Результаты исследования могут принести пользу в дело развития таджикской и узбекской национальной музыки и применены в дальнейшем в системе специального музыкального образования

#### Список литературы:

1. Абдурашидов А.А. Омузиши авзони шеър ва мусики (Аруз ва мусики) (Изучение ритмики стиха и музыки (Аруз и музыка)). Учебное пособие, 2-е издание, исправленное — Душанбе: Контакт, — 2002. — 52 с. (на таджикском языке)

2. Абдурашидов А. Ташкули авзони рубой дар матни адвори зарбии мусиқӣ (Формирование стихосложения рубаи в контексте музыкальных ритмических периодов) // Фалак ва масъалаҳои таърихӣ-назариявӣ мусиқии тоҷик, Душанбе, «Адиб», 2009 — С.60-97

3. Абдурашидов А.А. Фарҳанги тафсирии истилоҳоти Шашмаком. (Толковый словарь терминов Шашмакома) — Душанбе: Адиб, 2016. — 400 с.

4. Абдурашидова Д.А. О функции пальцев правой руки и приёме их применения на дутаре. // Научный журнал «Музыковедение», № 5. 2023 — С.20-24

5. Асильов М.А., Васильев Ф.Н. Дутор дарслиги — Школа игри на дутаре, для учащихся музыкальных школ и училищ, издательство «Уктувчи», Ташкент, 1969 — 136 с.

6. Джани-заде, Т. М. Природа исламской музыкальной ритмики *ика'*. [Текст] // Музыка в контексте ислама: традиции Ирана: сб.статей // Ислам и музыка. Вып.1 / пер. с перс.: В.Норик, И.Гибадуллин, Н.Тарик; науч. ред. Т.М.Джани-заде. — М.: ООО «Садра», 2019. — С. 324–398.

7. Матякубов, О. Р. Фараби об основах музыки Востока [Текст] / О. Р. Матякубов. — Ташкент: ФАН, 1986. — 88 с.

8. Соломонова Т. Вопросы ритма в узбекском песенном наследии. — Ташкент.: «ФАН», 1978. — 68 с.



9. Султанова Р. О взаимосвязи усуля и ритма мелодии в вокальных частях Шашмакома. — Ташкент.: «ЯНБ», 1998. — 329 с.

10. Султанова Р.Р. Ритмика вокальных частей Шашмакома / Р. Султанова. - Ташкент: Яни, 1998. — 124 с.





faqat ma'shuqaning la'bidan tomgan "asal"gina to'tiyodek davo bo'la oladi, degan mazmun hosil bo'ladi.

Xalq tabobatida to'tiyo o'simligini qaynatib-ilitilgan suvi ko'z xiraligini davolashda qo'llanilgan. Ikkinchi misradagi "tuzindin" so'zi tuz, ya'ni "to'g'ri", "haq" ma'nolarini anglatib, yor (Alloh)ning haq marhamati (oyatlar) nazarda tutilmoqda. Oraz namudidan so'ng, Navo namudi ijro etiladi. Ushbu namudlar ohanglari bir-biriga silliq bog'langani bois ko'p hollarda birin-ketin ijro etiladi.

Sho'balarning tuzilishida namudning o'zidan keyin keladigan namud bilan silliq bog'lanishi, kuy ohangining mos kelishi va tinglovchining qulog'iga g'aliz eshitilmasligiga e'tibor berilgan. Ana shu qoidalarga binoan maqomlarda namudlarni guruh shaklida qo'llanilishi maqomshunos olim Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" kitobida quyidagicha tartibda keltiriladi:

Namudi Uzzol – Namudi Muxayari Chorgoh;

Namudi Ushshoq – Namudi Uzzol – Namudi Muxayari Chorgoh;

Namudi Ushshoq – Namudi Muxayari Chorgoh;

Namudi Segoh – Namudi Ushshoq – Turk;

Namudi Segoh – Turk;

Namudi Segoh – Namudi Navo – Namudi Oraz;

Zebo – pari – Namudi Muxayari Chorgoh;

Zebo pari – Namudi Navo;

Namudi Oraz – Namudi Navo yoki aksincha;

Namudi Bayot – Namudi Navo;

Namudi Muxayari Chorgoh – Namudi Dugoh.


Navo namudining o'ziga hos xususiyati shundaki, ushbu namudning kuy ohangi o'ta mungli emas. Mazkur namudda qo'llaniladigan nola ham maqom ijrochiligida juda mashhurdir.

Navo namudi:

La'ling sharobi bo'ldi ko'ngul dardina davo,

Bul dard jonga etti, vale ul davo qani?

Bayt mazmuni: Sening labingdan tomayotgan hayotbaxsh tomchilar dardmand ko'ngullarni jonlantiradi, meni umrim ham tugab, jon tanani tark etish arafasida turibdi ammo, o'shal davodan – labing "sharob"idan darak yo'q. Shu o'rinda sharob so'zi xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Qadimdan musulmonlar ko'p sohalar qatori dorishunoslik ilmiga ham asos solganlar. O'simliklardan tayyorlangan



dorilar odatda achchiq bo'lib, iste'mol qilish qiyin bo'lgan. "Dorini ichishni osonlashtirish uchun unga shirinlik qo'shilgan va suyuq holda tayyorlash ham birinchi bo'lib musulmonlarning aqliga kelgan. Ular bunday dorilarni sharob deganlar. G'arbliklar o'sha nomni biroz o'zgartirib, "sirop" deb atashadi". Bundan tashqari, sharob tasavvuf ta'limotida Allohning ishq ma'nosini ham bildiradi. Kamolga yetgan kishining qalbi esa, qadah deb yuritiladi.

Keyingi qism Navo namudining davomi o'laroq avj hisoblanib, asarning eng yuqori pardalarida ijro etiladi. G'azal mazmunidagi eng yuqori nuqta ham aynan mana shu baytdir.

Avj:


Yuzumni oltin etdi sening ishqing ey, sanam,

Mundoq baqirni oltin etar kimyo qani?

Bayt mazmuni: Sening ishqing, firoqing yuzimni shu darajada sarg'aytirdiki, chehram oltinga aylanib qoldi. Sening ishqingga duchor bo'lmasimdan avval, yuzim oddiy mis tanga kabi edi. Misni oltinga aylantiruvchi kimyo, ya'ni sening ishqing meni yuksak maqomga olib chiqdi.

Mumtoz adabiyot namoyondalari o'z g'azallarida aql bovar qilmas ishlarni amalga oshirish omili sifatida "kimyo" so'zini qo'llashgan. Bugungi kunda kimyo – ma'dansunoslik fani deb tushuniladi. Bundan tashqari, kimyo muayyan falsafiy ta'limotni ham ifodalaydiki, qalam ahli bejizga ushbu atamaga tayanmagan. Inson mukammal mavjudot bo'lgani holda, komil bo'lib yaralmaydi. Aslida o'zagi bir bo'lgan ushbu ikki so'z mutlaqo turli ma'no anglatadi. Inson komillik darajasiga yetishi uchun bir necha bosqichlarni bosib o'tishi, mehnat qilishi, mashaqqatlarga bardosh berib, ularni sabr va ilm orqali yengishi lozim. Bunda, inson avvalo o'zini va o'zini yaratganni taniy olishi, ikki dunyo haqiqatlarini to'laqonli anglamog'i darkor. Inson zoti bu ilmlarni egallashi, amal qilishi va komil inson bo'lishi – aql bovar qilmas tushuncha. Buning uchun inson dunyoviy hoyu-havas sifatleri bilan to'lgan qalbini tozalab, uni sof, nafis sifatlar bilan band qilishi kerak. Bu xuddi misni oltinga aylantirishdek mushkul ishga o'xshaydi. Ana shunday vazifani amalga oshirish ta'limotini ajdodlarimiz – kimyo deb atashgan.

Imom Muhammad G'azzoliy hazratlari o'zining "Kimyoi saodat" asarida shunday deydi: "Inson mujohada, ya'ni riyozat va ibodat birla



jamoli bokamol davlatiga muyassar bo'lg'usidir. Ul kimyokim, mis va birijni (bronzani) sof oltin darajasiga yetkazish martabasiga yetkurmak dushvordur va har kishi ham kimyogarlik ishini bilmas.

Munga o'xshash bu kimyokim, inson gavxarini baxoyim (hayvonot) sifatlari, kudurat ixsosiyatidin (hissiyotlaridin) maloika (farishtalar) sifatlari safo va nafosatiga yetkurgayki, afsofi hamida birla saodatini topgay". Islom dinining xujjati bo'lmish G'azzoliy hazratlari ham kimyo ilmini murakkabligini tushuntirib, inson uni egallabgina, ikki dunyo saodatining nasibadori bo'lishi mumkin deb hisoblaganlar.

Saraxbori Navo turkumining avj qismi so'zsiz ijro (hang) orqali yakunlanib, so'nggi bayt – furovard kuylanadi. Bu qismda odatda g'azalning maqta' qismi ijro etiladi.

Furovard qismi so'z manti:

Husning zakoti bergali bir qulni izlasang,


Sakkokiytek bu dunyoda bir benavo qani?

Baytning mazmuni. Husn ham katta ne'mat – davlat hisoblanadi. Shariat yuzasidan katta davlatga ega bo'lgan kishi o'z boyligidan faqir-miskin kimsalarga "zakot" bermog'i lozim. Zakot esa, muhtoj kimsalarga beriladi. Agar shunday muhtoj kimsani izlasang, Sakkokiydan o'zga bu zakotga haqliroq jahonda kim bor?

Furovard qismida kuy asta-sekin pastki pardalar tomon harakatlanadi. Ikkinchi misrada asar boshlanishidagi kuy jumlasini eslatuvchi ohang ijro etilib, dastlabki pardada asar yakunlanadi.

Saraxbori Navo sho'basi yakunlangach, navbat bilan taronalar ijro etiladi. Saraxbori Navoning birinchi taronasi tojik xalq so'zi bilan ijro etilgan:

1-tarona. Uning doira usuli:



Ey vay! Mo dar in shaxrem dil pobasti tu,  
 Ey vay! Sho'xi man az tu fig'on (yor) az dasti tu,  
 Ey vay! Be maxovot xuni oshiq rexti,  
 Ey vay! Dodu faryodu fig'on (yor) az dasti tu  
 Ey soqiy biyor az chomi may,  
 Mutrib navo az changu nay,  
 Bar man bigo' in qissaro,



Az man shunav in nag'maro.  
 Bastam dili xud bo zulfi dildor  
 Pobasta shudam, bo ishq giriftor.  
 Chabre makunet bo g'am giriftor  
 Raxme bixured ba sinaafgor  
 Ey sho'xi sitamgari chafokor.

Shashmaqomdagi maqomlarning so'z matnlari orasida fors-tojik tilidagi she'rlarning mavjudligi ushbu durdona asarlar majmuini ikki xalqning, o'zbek va tojik xalqlarining nomoddiy-madaniy merosi ekanligidan dalolat beradi.<sup>39</sup> Bundan tashqari, ustoz hofizlar maqomlarni ijro etishda davradagi tinglovchilarga ham e'tibor berganlar. Ularning ta'bi va saviyasiga qarab, maqomlarni she'riy vazni bir xil bo'lgan bir necha g'azallar bilan ham ijro etishgan.

2-tarona:



Keldilar karam aylab kulbam ichra janonlar,  
 Har birisi jonimdan ham aziz mehmonlar.  
 Tiyra shomi hijronim ravshan etdilar kundek,  
 Yuzlarin ochib har yon necha mohi tobonlar.  
 O'lturub, qurub halqa ichgali mayi ishrat,  
 Berdilar qadahlariga majlis ichra davronlar.  
 No'sh etib necha sog'ar har biri bo'lib sarxush,  
 Boda tobidin ochti yuzlarin gulistonlar.

Mazkur tarona Saraxbori Navo turkumiga yakun yasaydi. Taronasohangida, talqin usulida suporish atalmish qism ijro etiladi. Suporish – topshiruv hisoblanib, yakunlanadigan sho'baning keyingi sho'baga uzilishsiz ulanishi uchun xizmat qiladi va navbatdagi sho'baning doira usulida ijro etiladi. Saraxbori Navo turkumidan so'ng Talqini Bayot sho'basi kelgani uchun suporish talqin doira usulida ijro etiladi. Bundan tashqari, suporishlar yakunlovchi xususiyatga ham egadir.

Shu o'rinda Navo maqomining Mustahzodi Navo asarini ijro etishda qo'llaniladigan g'azalda foydalanilgan Vofir bahri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Vofir bahri ("vofir" arabcha so'z bo'lib, "mo'l" ma'nosini ifodalaydi) aruzning asosiy o'lchovlaridan bo'lib,

<sup>39</sup> Musulmankulov R. Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika (X-XV vv.) – M.: Nauka, 1989.



“mafoilatun” aslining takroriga asoslanadi.<sup>40</sup> Jumladan, uning sakkiz ruknli solim ko‘rinishi ruknlari va chizmasi har misrada

Mafoilatun mafoilatun mafoilatun mafoilagun  
V — V V — V — U U — V — V V — V — V V —  
tarzidadir.

Vofir bahri arab she‘riyati uchun maxsus bo‘lib, fors-tojik va turkiy she‘riyatlarda undan foydalanilmagan. Alisher Navoiy o‘zining “Me‘zonul avzon” asarida ushbu bahr haqida yozar ekan, vofiri musammani solim vazniga Shashmaqomdagi Mustaxzodi Navoda ijro etiladigan

Firoq o‘tidin kuyar badanim, tafidin erib oqar jigarim,  
G‘amim budururki, bog‘lanibon yuzung sari tushmagay nazarim.  
baytini, vofiri musaddasi solim vazniga esa  
Ne furqat erur seningsizin o‘rtanur yurakim,  
Ne bo‘lg‘ay: agar menga guzar aylasang mirakim  
baytini misol qilib keltirgan edi.

Bobur uzining “Muxtasar”ida vofir bahrining jami 21 vazniga turkiy tildagi o‘z she‘rlarini misol qilib keltirgan.

Boburning:

Xazon yaprog‘i yanglig gul yuzung hajrida sargardim,  
Kurub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim<sup>41</sup>

baytining barcha ruknlari mafoiylun asliga teng, baytdagi ruknlar soni esa sakkizta. Binobarin, she‘r hazaj bahrining sakkiz ruknli o‘lchovida yozilgan bo‘lib, ruknlari aslning o‘zigagina tengligi uchun she‘r vazni hazaji musammani solim deb ko‘rsatiladi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, Boburning ushbu g‘azali Navo maqomining Nasri Bayotida ijro etiladi.

Kuy tarkibiy bo‘laklarini shakl nuqtai nazaridan ikki hilga ajratish mumkin. Birinchidan, biror-bir tugallangan musiqiy fikrni ifodalovchi nisbatan mustaqil tuzilmalar shaklidagi kuy bo‘laklari. Ular qatoriga kuy shaklining namud, miyonxat, furovard, dunasr kabi belgili bo‘laklari kiradi. Mazkur kuy unsurlari odatda muayyan she‘r matnining mantiqan tugal bo‘laklari ya‘ni bayt va misralarga to‘g‘ri keladi. Ikkinchidan, asosiy she‘r matnidagi tashqaridagi zamzama, hang va dumchalar. Ular namud, miyonxat, furovard andozalaridan

boshqacharoq tarzda shakllanadi. Zamzama ixcham, kichik kuy jumlasida kelsa, hang va dumcha, umuman, mustaqil shaklga ega bo‘lmasdan, boshqa tuzilmalar tarkibiga qo‘shilib ketadi. Demak, kuy shakllanishining ekspozitsion (tashqi) pog‘onasida namud, miyonxat, furovard, dunasr va qisman zamzama muayyan bo‘laklar, hang hamda dumchalar esa qo‘shimchalar vazifasini bajaradi. Shuningdek, shakllanishning umumiy jarayonida kuy va she‘r bo‘laklarining muvofiqligi bosh omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ilgarilari ustozlar bemalol so‘zlarni bo‘lib, ijro qilaverishgan. Chunki u davrdagi eshituvchi ashulaga tashna va aruzni chuqur biladigan shinavandalar bo‘lishgan. Hozirgi davrda esa eshituvchi, nafaqat eshituvchi aksariyat xonandalar ham so‘zning mazmuniga e‘tibor bermaydilar. Chunki so‘zni tushunmaydi va tushunmagani uchun musiqadan bahra olishadi xolos. Xozirgi eshituvchiga so‘zni tushuntirish maqsadida xonandalar so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirishlarni yaxshi o‘rganishlari va qerda qaysi joyda nafas olishni tizimlashtirib olishlari kerak. Shunda eshituvchiga maqomning ohangini yetkazish barobarida so‘zlarini ham aniq va lo‘nda, bo‘linmagan holda yetkazishni ta‘minlaydi.



Tizimlashtirish aruzga zarar yetkazmagan holatda nafasni so‘zlarni aytib bo‘lgach, keyingi so‘z boshlanishidan oldin olish kerak, ya‘ni so‘zning o‘rtasida emas. Bundan maqsad talaffuz qilinayotgan so‘zning butunligini saqlab kuylashdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

5. Zahiriddin Bobur. Muxtasar / Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. – T.: Fan, 1971. – 413 b.
6. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. MAT. 20 tomlik. – T.: Fan, 1989. T. 4. – 560 b.
7. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1991. T.7. – 392 b.
8. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirik. – T.: Fan, 1992.

<sup>40</sup> Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafasoti. – T.: Fan, 2006.

<sup>41</sup> Bobir Zahiriddin. Muxtasar / Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. – T.: Fan, 1971.



## O'ZBEK MAQOMLARI ETNOGRAFIYASI

**Eldor SHONAZAROV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Munojat YO'LCHIYEVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI professori,  
O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston Qahramoni.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbek maqomlari etnografiyasiga tegishli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda O'zbek maqomlari ustida ish olib borgan musiqashunos va etnograflar: V.A.Uspenskiy, N.Mironov, Ye.Romanovskaya, M.Yusupovlar haqida ilmiy va biografik ma'lumotlar berilgan. Talaba ushbu mavzuga talaba ijrochi sifatida o'zining imkon darajasidagi izlanishlari va ustoz bilan olib borgan suhbatlari asosida shaxsiy fikrini bildirishga harakat qilgan.


**Kalit so'zlar:** etnografiya, an'ana, maqom, musiqashunos, nota.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения об этнографии узбекских макамов, в которых содержатся научные и биографические сведения о музыковедах и этнографах, работавших над узбекскими макамами: В.А.Успенском, Н.Миронове, Е.Романовской, М.Юсупове. Ученик попытался высказать свое личное мнение по этой теме на основе своих исследований в качестве студента-исполнителя и своих бесед с преподавателем.

**Ключевые слова:** этнография, традиция, статус, музыковед, нотация.

**Abstract:** This article provides information about the ethnography of Uzbek maqams, which contains scientific and biographical information about musicologists and ethnographers who worked on Uzbek maqams: V.A.Uspensky, N.Mironov, E.Romanovskaya, M.Yusupov. The student tried to give his personal opinion on the topic based on his research as a student-performer and his conversations with the teacher.

**Key words:** ethnography, tradition, status, musicologist, notation.



Asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni, an'anaviy musiqamizni yoshlar ongiga chuqur singdirish, har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek maqomlari etnografiyasini o'rganish orqali ajdodlarimizning boy madaniy va ma'rifiy o'tmishini yanada teran anglash mumkin. Ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan nodir ma'naviy boylik hisoblangan maqom asarlari asrlar osha turli axloqiy tushunchalarni betakror badiiy shaklda kishilar qalbiga singdirishda bebaho sarchashma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Etnografiya ijtimoiy fanlardan bo'lib, xalq va elatlarning kelib chiqishini, etnik tarixini, madaniy-maishiy turmush tarzini, an'anaviy mashg'ulotlarini o'rganadi. O'zbek maqomlari etnografiyasi esa o'zbek xalqining ma'naviy me'rosi bo'lmish maqomlarning kelib chiqishini, rivojlanish jarayoni va tarixini o'rganadi.

Etnografiya – xalq haqidagi fandir. Etnografiya atamasi qadimgi yunon tilidagi – “etnos” – xalq, “grafos” – yozish so'zlarining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, uning tub ma'nosi “xalqlarni ta'riflash, “elshunoslik” demakdir. Etnografik bilimlar eng qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lsa-da, lekin mustaqil fan sifatida XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Dastlab bu atamani XVII asr boshlarida nemis yozuvchisi Iogann Zummer ishlatgan, XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida (1808-yilda) shu nom bilan maxsus jurnallar chiqa boshlagan. “Etnografiya” atamasi mashhur fransuz olimi, tabiatshunos va fizigi Jan Jak Anper tomonidan 1830-yilda taklif qilingan. Har bir xalq yoki elat, avvalo, tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko'p milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi. O'tmish ajdodlarimiz an'analari, qadriyatlari asrdan-asrga, avloddan-avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizning saqlanib qolishida xalq og'zaki badiiy ijodining roli beqiyos bo'ldi. Jumladan, maqomlarimizning saqlanib, bizgacha yetib kelishida ustoz-shogird an'anasining o'rni beqiyosdir. Ushbu an'ana amaliyotda qo'llanilishi natijasida maqomlarimiz ustozdan shogirdga og'zaki tarzda o'tib, rivojlanib kelgan.

An'ana – jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birgalikda xalq tafakkuri bilan yaralgan turli ma'naviy qadriyatlarining jamoaviy holda




saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli hisoblanadi. Binobarin, ma'naviy qadriyatlarning avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib yashashi an'ana yoki an'anaviylikdir.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi. XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki ba'zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi. Bu borada V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zarur. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar.

V.A.Uspenskiy - ko'p vaqtini etnografiya ishlariga bag'ishlaydi. Bir necha yillar davomida O'rta Osiyoda yashovchi xalqlarning qo'shiqlarini notalashtiradi. O'rta Osiyo xalqlari musiqa folklorini o'rganish, targ'ibot qilish uchun ilmiy markaz tashkil etilib, unga Uspenskiy rahbar etib tayinlanadi. U 1923-yili Buxoroga borib Shashmaqom bilimdonlari Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodovlar ijrosida Shashmaqomni notaga yozib olishga muvaffaq bo'ladi.

V.A.Uspenskiy 1925, 1927, 1929-yillarda Turkmaniston taklifiga binoan folklor ekspeditsiyalarini tashkil etib, Turkman xalq musiqasini notaga yozib oladi. V.A.Uspenskiy xalq qo'shiqlari va kuylarini yozib olish birga ularni qayta ishladi, musiqa san'atining turli shakl va janrlarida rang-barang asarlar ham yaratadi. Xalq ohanglarini notalashtirish bir qancha mehnatni talab etardi. Bu ishlarda unga Buxoro xalq hofizlari, musiqachilar Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonovlar,



Samarqandlik Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarovlar, Farg'ona vodiysidan Usta Olim Komilov, Yusuf qiziq Shakarjonovlar, Xorazmlik Matyoqub Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrayim Yoqubovlar o'zbek xalqining qimmatli musiqiy merosini yozib qoldirishda o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. V.A.Uspenskiy Farg'ona vodiysida keng tarqalgan katta ashulalarni ham birinchi bo'lib notaga olgan. Katta ashulalar musiqa jo'rlligisiz ijro etilib, ashulachidan katta mahorat talab etadi. Bu ashulalarni o'zbek xalqi juda sevib tinglashar edi. Katta ashulalar ijrochilari Akbar Haydarov, Muhammadjon Do'stmuhammedov va Yunus Rajabiyalar bo'lganlar. Keyinchalik yangi ishga qo'l urgan V.A.Uspenskiy Shashmaqomning ashula qismini Shonazar Soxibovdan yozib oladi. Shonazar Soxibov Domla Halim Ibodovning farzandi edi. "Rost", "Talqini Ushshoq", "Nasri Ushshoq", "Sabo" shular jumlasidandir.


N.Mironov - 1918-yili tashkil topgan "Turkiston xalq konservatoriyasi" kengashi a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. V.A.Uspenskiy boshchiligidagi ish boshlagan "Musiqiy etnografik va teatr" bo'limiga N.Mironov o'rinbosar etib tayinlanadi. O'zbek san'atkorlaridan 1922-yili "Etnografik musiqiy ansambl" tuzib, O'rta Osiyoning yirik shahrlarida va Moskvada 1926-yilda 80 ta konsert berishadi. Shu yillari u yana Toshkent, Samarqand, Buxoro, Kavkaz, Sibir va Mongoliya bo'ylab folklor ekspeditsiyalarini tashkil etib, 200 dan ortiq qo'shiq va kuylarini notaga yozib olishga muvaffaq bo'ladi. 1928-yili professor Fitrat va N.Mironov zimmasiga Samarqand shahrida "Musiq va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti"ni tashkil qilish vazifasi yuklanadi. Institut faoliyati va uch yo'nalishda joriy qilinadi. Ya'ni, o'zbek xalq va Ovro'po cholg'u asboblarida talabalarni o'qitish, milliy va Ovro'po raqslarini o'rgatish, musiqa me'rosini o'rganish va targ'ibot qilish. Milliy musiqa merosni talabalarga o'rgatish niyatida u Buxoro, Xorazm va Farg'ona vodiysidan mashhur san'atkorlarni va Rossiyadan ham ayrim mutaxassislarni ishga taklif qiladi. O'zbek va Tatar tillarida "Boshlang'ich musiqa nazariyasi" darsligini tayyorlaydi. "Музыка узбеков" (Samarqand, Moskva, 1929), "Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока" (Samarqand-Moskva, 1931), "Музыка таджиков" (Moskva, 1932) kitoblarini nota misollari bilan yozadi va uning rahbarligida



talabalar: M.Ashrafiy "Buxoro", Sh.Ramazonov ("Xiva" va T.Sodiqov "Farg'ona" xalq qo'shiqlarini notaga yozib "Песни Ферганы, Бухары и Хивы" nomli to'plam Toshkentda 1931-yili chop etilgan. N.Mironov rahbarlik qilgan mazkur institutda M.Ashrafiy, M.Burhonov, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, A.Halimov, D.Zokirov, M.Leviyev, M.Nasimov, F.Shamsuddinov, B.Inoyatov, N.Hasanov, Sh.Sohibov, F.Shahobov va boshqalar o'qishgan.

Ye.Romanovskaya - konservatoriya va musiqa texnikumidagi o'qituvchiligi bilan ayni paytda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashadi. Xalq ijrochilaridan kuy va qo'shiqlarni notaga yozib olib, to'plamlar chop ettiradi. Masalan, 1931-yil mashhur kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy va uning shogirdlari I.Akbarov va H.Muhamedovalar bilan hamkorlikda Farg'ona vodiysi bo'ylab etnografik ekspeditsiyalarda qatnashib, asosan o'zbek ayollari, jumladan, L.Sarimsoqova ijrosida bir talay o'zbek xalq qo'shiqlarini notaga yozib yozib oladi. 1934-yili I.Akbarov bilan Xorazm viloyatida o'tkazilgan folklor-ekspeditsiya safarida ham ko'plab xalq kuy va qo'shiqlarini yozib kelib, 1939-yilda "Хорезмская классическая музыка" nomida kitob chop ettiradi. 1935-yil Tojikistonning Tog'libadaxshon bo'ylab folklor ekspeditsiyasidan ham ko'pgina xalq musiqa namunalari notaga oladi. 1936-yilda Buxoro viloyati bo'yicha o'tkazilgan folklor ekspeditsiyasida qatnashib, yozib olingan 90 ta zamonaviy qo'shiqlardan 55 tasini notaga oladi. 1939-yili Farg'ona vodiysi bo'ylab o'tkazilgan ekspeditsiyada Hamza qo'shiqlarini va Hamzaga bag'shlangan xalq qo'shiqlarini notaga yozib olib, 1941-yilda nashrdan chiqaradi. 1939-yili u oxirgi marta Toshkent viloyatida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyasida qatnashib, bir talay kuy-qo'shiqlarni yozib oladi. Ye.Romanovskaya 30-yillarda o'tkazilgan folklor-ekspeditsiyalarning natijalarida, yuqorida zikr qilingan to'plamlardan tashqari 1939-yili ikki kitobdan iborat "O'zbek xalq qo'shiqlari"ni, 1941-yilda ikki tomlik "Узбекские частушки" nota to'plamlarini nashrdan chiqaradi[6].

Matniyoz Yusupov – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, sozanda, xonanda, etnograf, kompozitor Matniyoz Yusupov XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning ko'p dilrabo qo'shiqlari, musiqali dramalari, opera va baletlari, xalq cholg'ulari




orkestri uchun yaratgan asarlari xalq nazariga tushdi. Ayniqsa, "Xorazm maqomlari", "O'zbek xalq musiqasi"ning ikki jildidan iborat nota yozuvi to'plamlari unga shuhrat keltirdi va bu ishlari diqqatga sazovordir[7].

Matniyoz Yusupovning diqqatga sazovor yana bir jihati shunda-ki, kompozitor, folklorshunos o'z ijodiy faoliyatida Xorazm xalq musiqa merosi namunalari notaga yozuviga olib, ularni "Xorazm qo'shiqlari" (1960-y.VII-1962-y; IX-tomlar 1959-y. "Xorazm maqomlari" nomlari bilan, akademik va bastakor Yunus Rajabiy chop ettirgan "O'zbek xalq musiqasi" to'plamlari tarkibiga kiritadi. U 1980-1987-yillarda "Xorazm maqomlari" nota yozuvini qayta ko'rib chiqib, to'ldirib, Ilyos Akbarov tahriri ostida chop ettiradi va Respublika Davlat mukofotiga (1990-yil) sazovor bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabborov A.H. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Yangi asr avlodi, Toshkent, 2004.
2. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent, 2006.
3. Safarov O., O'rayeva D., Qurbonova M.. O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. O'qituvchi, Toshkent, 2007.
4. Abdullayev R.S. O'zbek mumtoz musiqasi. "Yangi nashr", Toshkent, 2008.
5. Yu.Rajabiy. O'zbek maqomlari. Shashmaqom. Toshkent 2007.
6. Романовская Е. Статьи и доклады. Записки музыкального фолклора. Ташкент, 1957.
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.



## MAQOM TA'LIMIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANASINING QADIMIY KO'RINISHI

**Malika QURBONOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Komila BO'RIYEVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI dotsenti,*

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*

**Annotatsiya:** Aslida qadimdan turli sohalarda ustoz-shogirdlik an'anasi mavjud bo'lgan. Ustoz-shogirdlik tushunchasi yuksak milliy qadriyatlarimizdan hisoblanib, bunda asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelinadi. Ushbu ilmiy maqolada maqom ta'limida ustoz-shogir an'anasi va uning qadimiy ko'rinishi haqida fikr yuritiladi.


**Kalit so'zlar:** Maqom, madaniyat va san'at, xalq ijodiyoti, "ustoz-shogird" an'ana, qadimiy.

**Аннотация:** На самом деле с древних времен существовала традиция наставничества-ученичества в различных областях. Концепция мастера-ученичества считается одной из наших высоких национальных ценностей, и процедуры, сформированные веками, соблюдаются. В данной научной статье рассматривается традиция учитель-ученик в статусном образовании и ее древнее появление.

**Ключевые слова:** Статус, культура и искусство, народное творчество, традиции "устоз-шогирд", древность.

**Annotation:** In fact, since ancient times there has been a tradition of tavnichestvo-apprenticeship in various fields. The notion of master apprenticeship is considered one of our high national values, and procedures shaped over the centuries are followed. In this scientific state, the teacher-student tradition in status education and its ancient appearance are considered.

**Key words:** Status, culture and art, folk art, tradition "master-student", antiquity.



O'zbekistonda milliy an'analar, urf-odat, marosimlarni yaratuvchi va saqlab qoluvchi, asrab - avaylab kelajakka eltuvchi yagona kuch - bu oila, ota- ona va ustozlardir. Mustaqillik yillarida qilingan ulkan, jahonshumul tarixiy ishlar, Prezidentimiz faoliyatiga siyosatiga e'tibor bersangiz, ularda xalqimizni xalq qilgan asriy an'analarimiz, urf-odatlarimizga doimiy g'amxo'rlik, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlash yetakchi tamoyillarda ekanligiga amin bo'lasiz.

Insoniyat olamida an'analarning tarixi juda qadimiy bo'lib, ilk asoslari qadimiy madaniyat davri bilan bohlanadi. Dunyoda o'z urf-odatleri, milliy an'alariga ega bo'lmagan birorta xalq yoxud millat yo'q. An'anlarni har bir xalqning o'zi yaratadi va o'z milliy odatleri bilan faxrlanadi.

Maqom ijrochiligida qadimdan ustoz - shogirdlik an'anasi mavjud aslida. Chetdan qaraganda xonandalik osondek tuyuladi. Tanburning torleri chertilsa, ajib kuy taralaveradigandek ko'rinadi. Ashula aytish uchun esa ozgina ovoz bo'lsa kifoyadek.... Yo'q aslida unday emas. O'sha bizga oddiy bo'lib ko'ringan tanbur, g'ijjak, xatto doirani chalish uchun ham tug'ma qobiliyat hamda mahorat kerak. Insonning o'zida bo'lgan iste'dodni to'g'ri yo'lga solish, uni kamolga yetkazish uchun esa, adbatta murabbiy ustoz zarur. Kingaki chinakam ustoz, jonkuyar murabbiy nasib etsa - bu uning baxti. Ana shunday ustozlar qo'lida tahsil olgan san'atkorlarning kamoli yuksak, el- yurt orasida obro'yi baland bo'ladi. Shogirdlar kamoli, ustozlar jamoli, deb bejiz aytishmagan.

Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovozga ega bo'lish lozimdir. Maqomlar, odatda bir necha yillar davomida hamda ustoz-shogird qabilidagi ta'lim asosida o'zlashtiriladi. Maqomlarni - "Sifatsiz ijro etish - deb yozadi maqomdon olim I.Rajabov - maqom yo'llari haqida noto'g'ri tasavvur qoldirishi mumkin"<sup>42</sup>. Bu mumtoz musiqa merosimizning asrlar osha o'z badiiy va estetik imkoniyatlari saqlab kelishining asosini bildiradi.

Shu bilan birga qayd etish lozimki, "Maqom yo'llari ijrosi uchun hofizda keng diapozon, yoqimli ovoz va yuksak aytish texnikasi bo'lishi shart."<sup>43</sup>

<sup>42</sup> Rajabov I. "Maqomlar masalasiga doir". T: 1963.

<sup>43</sup> Ko'rsatilgan manba.



Aslida qadimdan turli sohalarda ustoz-shogirdlik an'anasi mavjud bo'lgan. Ustoz-shogirdlik tushunchasi yuksak milliy qadriyatlarimizdan hisoblanib, bunda asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelinadi.

Ota o'z o'g'lini ustozga shogirdlikka berarkan, "eti sizniki, suyagi bizniki", deya lutf qilgan. Bu bilan ustozga o'g'lining kelajak taqdirini bus-butun ishonib topshirayotganini bildirgan. Ustoz ham shogirdi taqdiriga o'zini mas'ul bilib, bor iqtidoru hunarini unga yuqtirishga intilgan. Oilaviy muhitda yetarli talabchanlik ko'rmagan bolani qat'iy tartib-qoidaga ko'niktirgan.

Xuddi shunday maqom ijrochiligida ham shogird oila a'zolari, xususan otasi tomonidan ustoziga topshirilgan va ustoziga unga nafaqat maqom ijrochiligining barcha siru sinoatini o'rgatgan, balki uning tarbiyasiga ham javobgar bo'lgan. Har bir ustozning o'z tartibi va qoidasi bo'lgan. Shogird ustoziga yonida yurar ekan mana shu qoidalarga rioya etishi lozim bo'lgan, aks holda shogird orqasiga, ota uyiga qaytarib yuborilgan. Bu esa o'sha davrda isnod sanalgan. Shunday ekan, shogirdni ustoz qabul qildimi, bo'ldi, shogird ustozining barcha talablarini bajarib, ijrochilikning barcha siru sinoatlarini o'rganishga tirishgan. Albatta ustoz-shogirdlik munosabatida o'ziga xos tartib qoidalar, ustozlikning va shogirdlikning qoidalari mavjud bo'lgan va bu haqda bir nechta asarlarda ma'lumotlar keltirilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy" kitobida ustoz qanday bo'lishi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma'lumot beriladi: "Agar komil ustoz kim deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar ham bo'lmasligi kerak.

Agar shogirdlik binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodlat ustiga, deb aytgin. Irodlat nima deb so'rasalar, ustoz nimaiki aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngil bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir. Agar shogird uchun nima yaxshi deb aytsalar, pok e'tiqod, deb ayt, chunki faqat e'tiqod kishini murodga yetkazadi..."<sup>44</sup>

<sup>44</sup> Husayn Voiz Koshifiy Futuvvatnomai sultoniy. Toshkent, 2011.



Keyin shogirdlik odobi haqida gap ketadi. Ular sakkizta, deydi muallif. Ustozga birinchi bo'lib salom berish, ustoz oldida oz gapirish, boshni egib turish, ko'zni har tomonga yugurtirmaslik, masala so'ramoqchi bo'lsa, oldin ijozat olish, ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik, ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik, o'tirish-turishda hurmatni to'la saqlash.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hazratlari o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarini eslang: Alisher Navoiy hayotda ham, ijodda ham Abdurahmon Jomiyga ixlosmand shogird ekanini namoyon etib turadi. "Xamsa"chilikda uning an'anasini davom ettiradi. Ustozining "Nafahotul uns" asarini yanada boyitib, "Nasoyimul muhabbat" nomli yangi asar yaratadi. Dostonlarida ham, ko'plab boshqa asarlarida ham ustoziga nomini tilga olib, unga bo'lgan izzat-hurmatini kamoli ehtirom bilan izhor etadi. Ayni chog'da, bu ikki allomaning Samarqandda istiqomat qilgan Xoja Ahror Valiyga bo'lgan ixlosi g'oyatda ibratlidir. Bu zoti shariflarning o'zaro pir-muridlik, ustoz-shogirdlik munosabatlari o'sha davr siyosat maydonida ham, madaniy-ma'naviy sohalarda ham katta ijobiy muhit yaratilishiga, tinchlik-barqarorlik, fuqaro huquqlari daxlsizligiga xizmat qilgani tarixdan ma'lum. Ustoziga bo'lgan sadoqatini ijodda ham, hayotda ham oliy maqomda ado eta olgan Alisher Navoiyning ustozlik faoliyati ham asrlar davomida ibrat namunasi bo'lib kelmoqda.<sup>45</sup>

Tarix sahifalaridan bu kabi misollarni ko'plab topish mumkin. Qozizoda Rumi va Mirzo Ulug'bek o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari so'zimizning yaqqol misoli. Ilm istab Turkiyaning Bursa viloyatidan Samarqandga kelgan Qozizoda Rumi shahzoda Ulug'bekka ustozlik qildi. Falakiyot va matematika fanlaridan chuqur bilim berdi. Mirzo Ulug'bek taxtga o'tirgach, ustoziga ko'rsatmalari bilan ish tutib, ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratdi. 1420 yili bunyod etilgan madrasaga Qozizoda Rumiyni bosh mudarris qilib tayinladi. Keyinchalik ustoz-shogird hamkorligida rasadxona qurildi, Samarqand falakiyot va matematika akademiyasi tashkil bo'ldi. O'z navbatida, Mirzo Ulug'bek ham Ali Qushchi kabi zabardast shogirdlarni tarbiyaladi. Ali Qushchi Qozizoda Rumi vafotidan keyin rasadxonadagi ilmiy kuzatish ishlariga rahbarlik qildi. Shu tarzda,

<sup>45</sup> Porso Shamsiyev. "Jomiy va Navoiy", Toshkent, 1969.




Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin ustozlari ishlarini Ali Qushchi, undan keyin nabira-shogirdi Miram Chalabiy davom ettirdi. Ulug'ustozlarning olamshumul yangiliklarini yangi sharoitda takomilga yetkazdi. Uning xizmatlari tufayli Samarqand olimlari erishgan yutuqlar Yevropaga, so'ng butun dunyoga yoyildi.

Qadimda shogirdlarning mashg'ulotlari saroyda maxsus ajratilgan joyda va muntazam ravishda o'tkazilgan. Ularning ishini nazorat qiladigan rahbarlar bo'lgan. Malakali maqomdonlar safini doim to'ldirib borish maqsadida eng obro'li ustozlarga shogirdlar tayyorlash vazifasi yuklangan. "Ustoz-shogird" maktabi uzoq muddat davomida raqs, musiqa va she'riyat asoslarini o'rganishga imkon ochgan. Shogirdlar yoshligidan maqomlarning parda va usul tizimlari, kuy va ashulalarning ijrochiligiga doir nozik masalalarni puxta o'zlashtirib, katta san'atda faoliyat ko'rsatishga tayyorlanganlar. Bir so'z bilan aytganda, maktab o'taganlar. Maktab ko'rmagan malakasiz aytuvchi yoki cholg'uchi saroy sozandasi bo'la olmagan. "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" degan gap ham, eng avvalo, murakkab sozandalik kasbida ilm va mahorat naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashga qaratilgan. Shuning uchun ham chinakam ustoz mazkur hunarning e'tiqod tayanchi bo'lib kelgan. Ustoz va maktab bor joyda hunar aynib, soha bachkanalashib ketishiga yo'l qo'yilmagan. Maktab yaratgan ustoz - benazir san'atkordir. Munosib shogird esa, ustozning ko'chirma nusxasi, unga quruqtaqlid qiluvchi emas, balki o'zidan nimadir qo'shib, yuksak an'analarni davom ettirishga qodir yangi niholdir.

Saroyda xizmat qilgan katta ustozlarni oladigan bo'lsak, ularning har biri o'z kasbini mukammal egallagan va maktab yaratgan shaxslar. Masalan, Matyoqub Pozachi ashula aytishda va tanbur chalishda tengsiz sozanda hisoblangan. U tanburdan shu darajada mayin tovush chiqarar va temir noxun zarbi xalaqit bermasligi uchun tirnoqlarini o'stirib chalar ekan.

Oldingi ustoz-shogird maktabida maqom ta'limi, odatda usullarni o'zlashtirishdan boshlangan. Shogird avval ustoz yonida doyra chalib, usullarni obdon o'rgangandan so'ng, unga maqomlarning kuy yo'llari hamda parda tizimining nozik sifatlari o'rgatila boshlangan. Fitrat ham Shashmaqom tasnifotini doyra usullarining ta'rif va tavsifidan boshlaydi. Shu munosabat bilan u Shashmaqom tarkibida 16 ta maxsus



belgilangan nomli va 8 ta nomsiz usullarni sanab o'tadi. Ularning eng oddiysi ikki hissadan iborat Saraxbor usuli.

"Ustoz-shogird" maktabida ovoz tarbiyasiga juda katga ahamiyat berilgan. Umidli o'smirlar doim mazkur san'at sirlarini tajribali ustozlardan o'rganish va o'z mahoratini muntazam oshirib borishga intilganlar. Darhaqiqat, noyob ovoz sohiblari ushbu san'atsevarlik axloqi va odobi muhitida o'zlarining tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirib, yuksak kamolot darajasiga yetkazishga muayassar bo'lganlar. Ularning ayrimlari esa chinakam ustoz hofiz bo'lib yetishganlar. Bo'lajak hofizlar bir necha soat davomida to'xtovsiz ashula aytish, ayniqsa, murakkab avjlarni eng yuqori pardalarda ravon va qiynalmasdan ijro etish uchun ovoz paylarini chiniqirib, nafas yo'llarini quvvatlash maqsadida suv ostida maxsus mashqlar bajarganlar.

Ma'naviy tarafdin ustoz har bir hunarning e'tiqod ramzi, uni muqaddas tutib inson kasb - koridan baraka topib, yuqori martabaga erishmog'i. Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" degan naql bor. Har bir namozda salovot o'qilganda, avval payg'ambarlarga (Odam Atodan Muhammad sallallohu a'layhi vasallamgacha) so'ngra ustozlar va undan keyingina ota-onalar haqiga duo qilinadi.

Amaliy nuqtai nazardan ustoz - muayyan ixtisos sohasining siru asrorlarini puxta egallagan va hunar o'zlashtirishni oliy darajaga yetkazgan komil inson. Masalan, musiqada ustoz — kuy chalib, o'zidan bir narsalar qo'shib, mahoratini nafis san'at maqomiga ko'targan sozanda. San'atda yaratuvchilik iste'dodi aslida Alloh in'om etgan oliy ne'mat, albatta. Ustoz tomonidan u muqaddas qobiliyat sifatida avaylab-asraladi. O'zlashtirilgan san'at sirlarini faqat aziz farzandlar va eng sadoqatli shogirdlar bilan baham ko'rish mumkin. Kasb hunarning siru asrorlarini begona qilish yoki nomaqbul shogirdlarga ravo ko'rish gunoh hisoblangan. Hunarni oyoq osti qilish esa piri-arvoqlar g'azabini uyg'otadi degan e'tiqod bo'lgan. Shuning uchun ham tarixiy tajribadan ma'lum bo'ladiki, ustoz-shogird silsilasida oilaviy an'analarni hal qiluvchi ahamiyat kasbetadi. Odatda, sozandalar oilasidan yetishib chiqqan. Tashqaridan kelgan shogirdlar ishonchni oqlab, unga sadoqat bildirgandagina ustozlar ularga mehr qo'ya boshlaydi. Ana shu tariqa maqom ijrochilarining asrlar davomida shakllangan maktab va uslublari zaminida yangi oqimlar paydo bo'ladi. O'z navbatida bu



yangiliklar ham silsilaga aylanib maqom an'analarida vorisiylik rishtalari uzluksiz davom etib boraveradi. Sozandalar kamolot sari intilishida muqarrar uchta bosqichni bosib o'tadilar. Birinchisi, biron-bir yetuk san'atkor, ustozning iziga ergashish, uningdasturi (kuy vaashulalari) vaustlubini o'zlashtirish. Ikkinchisi, bilim va malakalarini kengaytirish, o'zga maktab vakiyalarining ijodidan bahramand bo'lish. Uchinchisi, "erishgan bilim va tajribalar" asosida o'z ustlubini shakllantirish. Ana shu murakkab ijodiy jarayonda o'z yo'lini topishda ustozning ahamiyati eng muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ustoz timsoli, uning hurmat va e'tibori an'analarning o'ziga xos iymon va vijdoni vazifasini bajaradi.

"Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", degan maqol bu hikmatni aniq va lo'nda izhor etadi. Kexsa sozandalarning aytishlaricha, Ota Jalol Abdulaziz iste'dodini yuqori baholagan hamda Shashmaqom borasidagi uning intilishlarini diqqat bilan kuzatib borgan. Gap shundaki, Ota Jalol va Hoji Abdulaziz yoshlari deyarli teng, iste'dod hamda salohiyati bir-biridan kam bo'lmagan, lekin muqaddas ustoz-shogird munosabatlaridagi ikkita buyuk san'atkor. Ular umumiy uslub (Buxoro-Samarqand) doirasidagi ikkita yirik yo'nalish vakillari. Ota Jalol tom ma'nodagi saroy sozandasi. Tor muxlis va shina vandalar doirasida rivojlanib kelgan bu uslubning qonun - qoidalari juda qat'iy belgilangan. Ustozlar ijodi — maqom san'atining jonli qomusi. Ijrochining umri an'analar hayotiga nisbatan qisqa. Ammo aynan shu ustoz-shogird izmidagi davomiylik, vorisiylik an'analar uzluksizligini, bir butunligini ta'minlaydi. Ustozlar merosi ikki-uch naslga o'tib, ma'lum bir maktabni tashkil qiladi. Jonli an'ana ustoz yo'lining shogird tomonidan aynan takrorlanishini yoqtiradi.

Har bir yangi nasl o'zidan nimadir qo'shib, ustoz yo'lini obod etishi taqozo qilinadi. Shu tariqa doimiy yangilanish - an'anaviy san'atning yashash qonuni yuzaga keladi. An'ana - bu mavjud narsalarni shunchaki takrorlash emas, balki o'tmish merosni chuqur hazm qilib, qaytadan dunyoga keltirish, unga yangi hayot baxsh etishdir. Shuning uchun xalq nazari tushgan ustozlar ijodini mutolaa qilish qadimiy maqom an'alarini ularning jonli bo'g'inlari misolida o'rganish imkoniyatini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:




1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli / "Xalq so'zi", 2019-yil 22-oktabr, №2 18;

3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.



## SHASHMAQOM TURKUMIDA TALQIN SHO‘BALARI

(Talqini Chorgoh misolida)

**Murodjon ERGASHALIYEV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSS

“Maqom xonandaligi” kafedrası 3-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: **Nilufar BOTIROVA,**

“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola og‘zaki an‘anadagi kasbiy professional musiqaning noyob namunasi hisoblangan Buxoro Shashmaqomidagi Talqin sho‘balariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Talqin sho‘balari xususida umumiy va Dugoh maqomi tarkibidan o‘rin olgan Talqini Chorgoh sho‘basiga batafsil to‘xtalib o‘tiladi.


**Kalit so‘zlar:** maqom, Shashmaqom, turkum, talqin, chorgoh, sho‘ba.

**Abstract:** This article is dedicated to Talqin shubas in Bukhara Shashmaqom, which is considered a unique example of professional music in the oral tradition will be discussed in this article.

**Key words:** makom, Shashmakom, turkum, talqin, chorgoh, shuba.

Hududimizda maqom san‘atining paydo bo‘lish va rivojlanishi ilk o‘rta asrlarga borib taqaladi. Maqomlar kabi turkumli asarlar VI asrda yashab o‘tgan mashhur bastakor, sozanda Borbadning ijodida dastlab kuzatilgan. Uning Xusravoniy turkumi O‘rta Osiyoda turkumchilik an‘anasining boshlanishi hisoblanadi. Maqom so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, o‘rin-joy degan ma‘noni anglatadi. Musiqada maqom atamasi tarixan ko‘plab ma‘nolar o‘laroq istiloh etilgan. Bulardan eng ko‘p uchraydigani – tovush hosil qilinadigan joy, ya‘ni parda ma‘nosida kelishidir. Maqom muayyan pardadan boshlanadigan lad-tonallikni hamda ularga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi [1, B.20]. O‘rta asrlarga oid musiqiy risolalarda “O‘n ikki maqom” (Duvozdah maqom) haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Ushbu o‘n ikki maqom tizimi va uning tarkibiga kirgan 24 sho‘ba hamda 6 ovoza shashmaqomdan ilgari iste‘molda bo‘lgan maqom tizimidir.

Shashmaqom o‘z nomidan kelib chiqqan holda oltita maqomdan



iborat. Bular: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh hamda Iroq maqomlaridir, ya‘ni pardalaridir. “Maqom – muayyan lad-tonallikka mos keladigan kuy va ashulalar majmuasi” degan izohni aynan shu yerda tushunishimiz mumkin. Masalan, Buzruk maqomi. Ushbu maqom Buzruk lad-tonalligiga mos keluvchi kuy va ashulalar majmuasidir.

Shashmaqom olti maqomga bo‘linishidan tashqari har bir maqom ikki guruhga ham bo‘linadi. Bular, Mushkilot (cholg‘u bo‘limi), Nasr (aytim bo‘limi). Ushbu tartib shashmaqomning ijrosi bilan bog‘liq, ya‘ni shashmaqomdan bir maqomning to‘liq ijro etilishi rejalashtirilsa, dastavval mushkilot bo‘limi ijro etiladi va so‘ngra nasr bo‘limiga o‘tiladi. Bunda ham mantiqiy izchillikni ko‘rishimiz mumkin. Mushkilot, ya‘ni qiyinchiliklar(fors-arab tillaridan olingan) dan o‘tib, nasr – g‘alaba(arabchadan olingan) ga erishiladi.

Mushkilotning asosiy qismlari tasnif, tarje, gardun, muhammas, saqillardir. Nasr bo‘limi esa, o‘z navbatida ikki guruhga – birinchi guruh sho‘balari hammda ikkinchi guruh sho‘balariga bo‘linadi.

Biz o‘rganmoqchi va tahlil qilmoqchi bo‘lganimiz – talqinlar esa, aynan nasr bo‘limidan joy olgan. Nasr bo‘limidagi sho‘balar Iroqdan tashqari barcha maqomlarda ikki guruhga bo‘linadi. Bular birinchi hamda ikkinchi guruh sho‘balaridir. Birinchi guruh sho‘balariga Saraxbor, talqin, nasr sho‘balari hamda ularning taronalari va ufarlar kiradi. Taronalar saraxbordada 2 tadan 6 tagacha, talqinda har doim bitta, nasrda 2 tadan 3 tagacha bo‘ladi. Ufarda esa, taronalari mavjud emas. Ikkinchi guruh sho‘balari esa, Savt yoki mo‘g‘ulchalar va ularning shoxobchalaridan tashkil topgan bo‘ladi. Demak bu ikkala guruh sho‘balarini o‘zaro taronalari va shoxobchalari borligi bilan ham farqlashimiz mumkin.

Talqinlar – nasr bo‘limining birinchi guruh sho‘balarida Talqin, ikkinchi guruh sho‘balarida esa, talqincha nomi bilan keladi. Birinchi guruhdagi Talqin nomli sho‘balar butun shashmaqomda Iroqdan tashqari barcha maqomlarda uchraydi. Bular:

Buzruk maqomida – Talqini Uzzol

Rost maqomida – Talqini Ushshoq

Navo maqomida – Talqini Bayot

Dugoh maqomida – Talqini Chorgoh

Segoh maqomida – Talqini Segoh



Ikkinchi guruh sho'balaridagi Talqinchalar esa shoxobcha vazifasini bajarganligi uchun Iroqdan tashqari barcha maqomlarda mavjuddir. Chunki Iroq maqomida ikkinchi guruh sho'balarining o'zi yo'q.

Talqin so'zi arabchadan tarjima qilganda "nasixat etish", "tushuntirish" ma'nolarini beradi.

Bu haqda O'zbekiston milliy ensiklopediyaga qarasak.

Talqin (arab. – tushuntirish, nasihat) – 1) o'ziga xos (3/8+3/4 yoki 9/8 takt o'lchovidagi) doyra usuli (lang yoki oqsoq deb ham yuritiladi); 2) shu usul asosida yaratilgan kuy, ashula va maqom yo'llari. Talqin yo'lidagi ashulalar dastlab nasihat muz, ibratli mazmundagi she'rlar bilan ijro etilgani uchun shunday nom olgan. Talqin Shashmaqom ashula bo'limi tarkibida muayyan sho'ba bo'lib, Saraxbor va uning taronalardan keying o'rinni egallaydi. 3) badiiy asarlarning ijodkorona yondoshgan holda ijro etilishi [5, B.72]. Ko'rinib turibdiki O'zbekiston milliy ensiklopediyasida talqin atamasiga nisbatan 3 turli izoh berilgan. Talqinlardan biri bo'lmish talqinchalarga esa, shunday izoh beriladi. Talqincha – talqin doyra usuli asosida yaratilgan maqom ashula yo'li, talqin sho'basiga o'xshatma, nazira; Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'balaridan Mo'g'ulcha va Savtlarning muayyan shoxobchasi [5, B.72].

Boshqa talqinlardan farqli o'laroq Talqini Uzzol va Talqini Bayotlar taronasidan keyin maxsus suporishlar keladi. Qolgan talqinlar taronalari esa, o'zi suporishlar vazifasini o'taydi. Talqin sho'balarining taronalari saraxbor sho'balarining taronalari bilan vazifa o'laroq birday xususiyatga ega.

Shashmaqomdagi talqinlardan ikkinchisi bu 2-guruh sho'balarida keluvchi talqincha shoxobchalaridir. Ikkinchi guruh sho'balarida 4 tadan shoxobchalari mavjud. Bular, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufarlardir. Birinchi guruh sho'balaridagi Talqinlar bilan ikkinchi guruh sho'balarining shoxobchalaridagi talqinchalarning asosiy farqlari:

1. Nomida
2. Joylashuvida
3. Funksiyasida
4. She'r vaznida



Talqin ashula yo'llari xususida gap borganda ko'z oldimizda gavdalanuvchi Talqin hamda Talqinchalarning o'zaro asosiy farqi shulardan iboratdir.

Birinchi guruh sho'balarining barcha Talqinlariga va ikkinchi guruh sho'balarining Talqincha shoxobchalariga qisqacha izohlar berishga qaror qildik.

-Buzruk maqomi birinchi guruh sho'balaridan Talqini Uzzol. Tonalligi re-doriy, ja'mi yettita xatdan iborat. Navoiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Ushshoq hamda Muxayyari Chorgoh namudlari mavjud.

-Rost maqomi birinchi guruh sho'balaridan Talqini Ushshoq. Tonalligi sol-miksolidiy-ioniy-lidiy, ja'mi sakkizta xatdan iborat. Furqat so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Ushshoq, Uzzol hamda Muxayyari Chorgoh namudlari mavjud.

-Navo maqomi birinchi guruh sho'balaridan Talqini Bayot. Tonalligi si-bemol-lidiy-ioniy, ja'mi yettita xatdan iborat. Navoiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Bayot namudi mavjud.

-Dugoh maqomi birinchi guruh sho'balaridan Talqini Chorgohni keyingi o'zinlarda batafsil tahlilini keltiramiz.

-Segoh maqomi birinchi guruh sho'balaridan Talqini Segoh. Tonalligi dastlab fa-lidiy-ioniy, keyinchalik to'xtalma tarzida sol-doriy tonalligiga o'tgan, ja'mi sakkizta xatdan iborat. Hofiz so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Navo va Oraz namudlari mavjud.

-Iroq maqomi birinchi guruh sho'balarida Talqin nomli sho'ba mavjud emas.

Ikkinchi guruh sho'balaridagi shoxobchalardan bo'lmish Talqinchalar birinchi guruh sho'balaridagi taronalardan farqli o'laroq "Sho'ba shakli"ga egadir.

- Buzruk maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Mo'g'ulchai Buzruk shoxobchasi. Tonalligi re-miksolidiy-doriy, ja'mi yettita xatdan iborat. Bobir so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Uzzol hamda Muxayyari Chorgoh namudi mavjud.

- Buzruk maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Savti Sarvinoz shoxobchasi. Tonalligi re-doriy, ja'mi sakkizta xatdan iborat. Ogahiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Ushshoq namudi hamda Turk avji mavjud.

- Buzruk maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Iroq



shoxobchasi. Tonalligi ashulada si-bemol pardasini bir marta kelganligi uchun tasodifiy belgi sifatida olsak, re-doriy-miksolidiy, ja'mi yettita xatdan iborat. Atoiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Zebo Pari hamda Turk avjlari mavjud.

- Buzruk maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Rok shoxobchasi. Tonalligi lya-doriy, ja'mi yettita xatdan iborat. Uvaysiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Uzzol namudi mavjud.

- Rost maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Savti Ushshoq shoxobchasi. Tonalligi mi-frigiy-eoliy, ja'mi yettita xatdan iborat. Atoiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Ushshoq hamda Uzzol namudlari mavjud.

- Rost maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Savti Sabo shoxobchasi. Tonalligi do-ioniy-lidiy. Ogahiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Zebo Pari avji mavjud.

- Rost maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Savti Kalon shoxobchasi. Tonalligi re-doriy-eoliy-ioniy, ja'mi oltita xatdan iborat. Mahrab so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Zebo Pari avji mavjud.

- Navo maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Savti Navo shoxobchasi. Tonalligi fa-miksolidiy-ioniy, ja'mi yettita xatdan iborat. Ogahiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Navo namudi mavjud.

- Navo maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Mo'g'ulchayi Navo shoxobchasi. Tonalligi fa-ioniy, ja'mi oltita xatdan iborat. Atoiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Bayot va Oraz namudlari mavjud.

- Navo maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Mustaxzodi Navo shoxobchasi. Tonalligi fa-ioniy, ja'mi to'rtta xatdan iborat. Lutfiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Bayot va Oraz namudlari mavjud.

- Dugoh maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Savti Chorgoh shoxobchasi. Tonalligi fa-diyez-frigiy-lokriy, ja'mi oltita xatdan iborat. Zavqiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Muxayyari Chorgoh namudi mavjud.

- Dugoh maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Mog'ulchayi Dugoh shoxobchasi. Tonalligi re-miksolidiy, ja'mi yettita xatdan iborat. Uvaysiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida



Muxayyari Chorgoh namudi mavjud.

- Segoh maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan Talqinchayi Mog'ulchayi Segoh shoxobchasi. Tonalligi 4-xatda re-ioniy, qolgan joylarida re-eoliy. Do-diyez pardasi esa yetakchi tovush vazifasini o'tagan. Ja'mi oltita xatdan iborat. Ogahiy so'zlari bilan ijro etiladi. Avj qismida Segoh namudi hamda Turk avji mavjud.

Talqinlar ko'plab sho'balalar singari "Sho'ba shakli" ga asoslanadi. Ya'ni, cholg'u muqaddimasi, daromad, miyonxat, dunasr, avj, tushirim. Mazkur fikrimiz dalilini yuqorida va'da berganimizdek Dugoh maqomidan bo'lmish Talqini Chorgoh ashula yo'lining tahlili asosida isbotlashga urinib ko'ramiz. Nota namunasi uchun Yunus Rajabiy notaga olgan Shashmaqom to'plamining 3-jildidan foydalanamiz [6].

**ТАЛҚИНИ ЧОРГОҲ**

Aynan shu dastlabki 8 takt cholg'u muqaddimasidir. Asar 3/8 3/4 takt o'lehoivi asosida ijod etilgan. Ya'ni birinchi takt 3/8 ikkinchi takt esa, 3/4 o'lehoividadir. Va shu yo'sinda so'nggiga qadar davom etadi. Lad-tonallik jihatidan esa, fa-diyez lokriyni hosil qiladi. Mazkur lokriy ladi ikkinchi va beshinchi pog'onalar yarim tondan pasaygan minor ladir. Talqini Chorgohning pog'onalar ketma-ketligi fa-diyez, sol, lya, si, do, re, midir. Ashula umumiy hisobda 7 ta xatdan iborat:

- 1-xat Daromad
- 2-xat Miyonxad
- 3-xat Dunasr
- 4-6-xatlar Avj
- 7-xat Tushirim

Xat – maqom ashula yo'llaridagi bir bayt sh'erni o'z ichiga oladigan kuy tuzilmasi, bo'lagi.

Har bir xat ikki jumladan iborat. Bir jumla esa, o'zida bir bayt she'rni oladi. Bu jumlaning tarkibida bir bayt she'rdan tashqari hanglar ham bo'lishi mumkin. Ba'zi ashula yo'llarida bir joyda kelgan jumla keying o'rinda ham kelishi mumkin. Bunda ushbu takroriy jumla 1a va



yoki 2a tarzida belgilanishi mumkin.

ТАЛҚИНИ ЧОРГОҲ

Bu yerda daromad qismining tayanch parda sifatida fa tovushi hizmat qilmoqda. Buning sababi asosiy tonallikning asosiy tayanch pog'onasini ifoda etishdir. Aynan vaziyatimiz o'laroq daromad so'zining O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi izohi shunday: "Daromad – maqom sho'bası, shuningdek, uning shakliga mutanosib cholg'u va ashula asarlarining birinchi

boshlang'ich tuzilmasi, xati. Sarxat deb ham yuritiladi".

Ikkinchi xatni o'z ichiga olgan miyonxat qismi. Miyonxat – maqom ashula yo'llarining o'rtada ijro etiladigan bo'lagi.

Bu ikkinchi xatda esa, tayanch pog'ona sifatida si pardasi o'z aksini topmoqda.

3-xatni o'z ichiga oluvchi Dunasrning tayanch pog'onasini re tovushi egallamoqda.



Dunasr – maqomlarda boshlang'ich kuy yoki aytim tuzilmasini yuqori pardalarda takrorlanishi.

Bunga asosiy sabab etib kuy harakatining avjga qadar yuqorilab rivojlanishi tamoyilini keltirishimiz mumkin.


Dunasrdan so'ng Avj qismi boshlanadi. Talqini Chorgoh ashula yo'lining avj qismida eng keng tarqalgan va murakkab namudlardan bo'lmish Muxayyari Chorgoh namudini kuzatishimiz mumkin. 4 dan 6-gacha bo'lgan xatlarni o'z ichiga oluvchi avjning 4 va 5- xatlarini to'liqligicha Muxayyari Chorgoh namudi egallagan.

Mazkur namud hajmi jihatidan katta, ya'ni ashulaning 89-174 taktlarini o'z ichiga olganligi tufayli misol tariqasida ko'rsatish uchun faqatgina boshlanish qismini olishga majbur bo'ldik.



Namudi Muxayyari Chorgoh doimo musiqa cholg'ularida chalinadigan muqaddimasi bilan boshlanib, bu lavha Muxayyari Chorgoh boshlanishidagi kuy jumlaning xuddi o'zidir.

Avj qismining yakuniy xati – 6-xatning ikkinchi yarmidan boshlab esa, tushirimga tomon pog'onalarining sekin-astalik bilan pastlashishini kuzatishimiz mumkin. Aslida bu kuy harakati yo'nalishi "Sho'ba shakli"ning eng muhim asosiyatlaridandir.



So'nggi 7-xatni o'z ichiga olgan tushirim esa, aynan shunday boshlanadi.


Mazkur Talqini Chorgoh ashula yo'li Uvaysiyning "Aylasa" radifli g'azalida aytiladi.

O'zbek maqomotining durdonasi hisoblanmush Shashmaqom turkumi shu qadar boyki, uning har bir kuy yoki ashula yo'li to'g'risida soatlab fikr yuritish, baxs munozaralar olib borish mumkin. Shashmaqomdagi Talqinlar masalasini o'rganib chiqish va yoritish ko'plab fikrlarimiz, tushinchalarimiz o'z tastig'ini topdi.

Shashmaqomdan salmoqli o'rin egallagan Talqinlar borasida esa, ko'plab fikrlarni bayon etdik. Bularning hammasini bir joyga jamlagan holda shuni e'tirof etish joizki, o'zida ulug'vorlikni kasb etgan, pand-nasihat ruhi bilan yo'g'rilgan Talqin ashula yo'llari Shashmaqomning rivojlanish bosqichlarida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu musiqa "Saroy"niki, unda salobat bo'lmasdan iloji yo'q, unda mahobat bo'lmasdan iloji yo'q, unda falsafa bo'lmasdan iloji yo'q, unda ilm bo'lmasdan iloji yo'q, unda takomillik bo'lmasdan iloji yo'q. Har bir kuy va ashula yo'li bir olam, ularda ishqiy mavzular ham, diniy mavzular ham, pand-nasihat mavzulari ham mavjud.

So'z oxirida shuni zikr qilish kerakki, Shashmaqomda talqinlar – bu bepoyon mavzu. Bepoyonligi shundaki, uning mohiyati cheksiz. Aslida, maqomlar ham shundaydir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. Is'hoq Rajabov. Maqom asoslari. – Toshkent. Yangi asr avlodi nashri, 2019.

2. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent. Yangi asr avlodi nashri, 2019.

3. Rajabov I. Maqomlar, - Toshkent, "San'at" nashriyoti. 2006.

4. Ibrohimov O, Maqom asoslari, Turon-Iqbol nashriyoti, Toshkent, 2018.

5. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" D harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2004.

6. Notaga oluvchi. Yunus Rajabiy, Shashmaqom IV, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1972.



O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI: MUAMMO VA  
YECHIMLAR

O'ZBEK VA HIND MADANIY ALOQALARI SHASHMAQOM  
VA SO'FIYONA KALOM JANRLARI MISOLIDA

**Nilufar BOTIROVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
mustaqil izlanuvchisi.*

*Ilmiy rahbar: Soyibjon BEGMATOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI professori, s.f.n.,  
O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori.*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada Markaziy Osiyo va Hind madaniyatlarining tarixi, ularning uyg'unlashuvi, islom davri bilan yangi bosqichga ko'tarilishi haqida fikr yuritiladi. Ikki xalq diniy-falsafiy tafakkuri, ijtimoiy va siyosiy tarix jarayonida chuqur iz qoldirgan xind va musulmon an'alarining uyg'unlashuvidan tarkib topgan sinkretik madaniyat yuzaga kelishi xususida tarixiy ma'lumotlar berib o'tiladi. Asrlar davomida Kashmir madaniyatini shakllantirgan va Co'fiyona kalam va Maqom janrining turdosh xususiyatlari shakllanishiga zamin bo'lgan hindiy va islomiy manbalar tahlil qilinib, bugungi kunda o'zbeklarning ijtimoiy xayotida milliy musiqaning o'rni xususida fikrlar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, madaniy aloqalar, sinkretik madaniyat, shashmaqom, so'fiyona kalam, lad, parda, usul, shakl.

**Аннотация:** В данной научной статье рассматривается история среднеазиатской и индийской культур, их интеграция и выход на новый уровень с исламской эпохой. Дается историческая информация о возникновении синкретической культуры, состоящей из соединения индуистских и мусульманских традиций, что оставило глубокий след в религиозно-философском мышлении, социальной и политической истории двух народов. Приведены исторические сведения о возникновении

синкретической культуры, состоящей из соединения индуистских и мусульманских традиций, что оставило глубокий след в религиозно-философском мышлении, социальной и политической истории двух народов. Анализируются индийские и исламские источники, формировавшие культуру Кашмира на протяжении веков и послужившие основой для формирования сходных черт жанра Суфияна калам и шашмаком, высказываются мнения о роли национальной музыки в общественной жизни узбеков сегодня.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, культурные связи, синкретическая культура, шашмаком, суфияна калам, лад, ритм, форма.

**Abstract:** This scientific article examines the history of the Central Asian and Indian cultures, their integration and reaching a new level with the Islamic era. Historical information is given about the emergence of a syncretic culture, consisting of a combination of Hindu and Muslim traditions, which left a deep mark on the religious and philosophical thinking, social and political history of the two peoples. Historical information is given about the emergence of a syncretic culture, consisting of a combination of Hindu and Muslim traditions, which left a deep mark on the religious and philosophical thinking, social and political history of the two peoples. The Indian and Islamic sources that have shaped the culture of Kashmir over the centuries and served as the basis for the formation of similar features of the genre of Sufiana kalam and Shashmaqom are analyzed, opinions are expressed on the role of national music in the public life of Uzbeks today.

**Key words:** Central Asia, cultural relations, shashmaqom, sufyana kalam, syncretic culture, rithm, form.

Tarixdan ma'lumki Markaziy Osiyo va Hindiston jahon tamaddunining eng ko'hna madaniyat o'choqlaridandir. Bu ikki xalq madaniyatning o'q ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Geografik jihatdan bir biridan uzoq joylashmagan bu ikki mamlakatlar orasidagi madaniy, savdo sotiqlik, siyosiy aloqalar azaldan chambarchas bog'lanib kelgan. Madaniy aloqalar qatorida eng yorqin iz qoldirgan tomonlardan biri bu musiqiy munosabatlardir. Xind diyorining sehirli va havobaxsh makonlaridan biri Kashmir vodiysidir. Bu o'lka qadimdan

boy tarix va qadriyatlarini bilan alohida o'rin egallab kelgan. Insoniyat ma'naviy tafakkurining maxsuloti bo'lgan milliy musiqa – maqomot dunyosi doimo insonlar, tinglovchilarni hayratga solib kelgan. Uning ijodiyoti ham turfa ijodiy mezonlarni o'z ichiga oladi. Milliy musiqa, bizning nazarimizda, eng avvalo, falsafiy va musiqiy mantiq nuqtai nazaridan mukammal va murakkab tarkibdagi musiqiy asarlar yig'indisidir. Falsafiy tarafdin musiqa bu touch vositalari yordamida dunyoni idrok etish bo'lsa, uning negizidagi bosh g'oya esa - ma'naviy faollik, tovushlardagi go'zallikdan bahramand bo'lish tuyg'ularini uyg'otishga qaratilgan. Hind va o'zbek milliy musiqasining yorqin misolini biz "So'fiyona kalom" va "Maqom" musiqiy janrlarida kuzatishimiz mumkin.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bizning eramizdan bir necha asr oldin Hindiston va Markaziy Osiyoda yuksak darajadagi rivojlangan musiqa madaniyati yuzaga kelib, ular hattoki o'zga xalqlar musiqa san'atining rivojlanishiga ham salmoqli hissa qo'shganligi tarixchilar tomonidan yakdillik bilan qayd qilinadi. Hindiston, Markaziy Osiyo va Eron halqlari til, urug'-aymoqlik jihatdan bir birlariga qarindosh hisoblanadi [7:17]. Kashmir vohasining aholisining ko'rib, ularning liboslari, urf-odatlarini, hatto ko'rinishlari ham o'zbek va tojik xalqlariga juda yaqin ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lish mumkin. Bunday umumiylikning ilk davrlari eramizdan avvalgi VI-V asrlarda yuzaga kelgan Ahamoniylar davlati vaqtida yuzaga kelgan. Ma'lumki, Axamoniylar davlati tarkibiga Eron, Markaziy Osiyo bilan bir qatorda Xindiston yarim orolining shimoliy - g'arbiy qismlari ham kirgan. Eramizdan oldingi III-II asrlarda yuzaga kelgan Xarrappa madaniyati Osiyoning janubi va Shimoliy Hindiston aloqalari rivojlangan davr hisoblanadi.

Markaziy Osiyo va Hind madaniyatining yuksalish jarayoni Kushonlar davri (I-IV asrlar)ga to'g'ri keladi. Hind ummonidan deyarli Qora dengizgacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oluvchi Kushonlar davlati o'z davrida Rim imperiyasi bilan bir qatorda dunyodagi eng buyuk saltanatlardan hisoblangan. Uch asrdan ko'proq xukm surgan Kushonlar davlatining jahonshumul ahamiyati shundaki, Markaziy Osiyo yerlaridan topilgan qazilma yodgorliklarda Kushonlar davrining musiqa madaniyatiga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud. Ular musiqa san'atini ijtimoiy hayotning turli tomonlariga kirib borganligi, xilma-



xil va boy musiqa cholg'ularining yuzaga kelganligi, inson tafakkurining shohona talablarga javob beruvchi musiqa an'analari joriy etilganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo va Kashmir madaniyatlari uyg'unlashuvining yangi bosqichi islom davri bilan bog'liq. Islom zuhuri diniy-falsafiy tafakkur, ijtimoiy va siyosiy tarix jarayonida chuqur iz qoldirib, xind va musulmon an'analari **uyg'unlashuvidan** tarkib topgan madaniyat yuzaga kelganligi bilan ham xarakterlanadi. Hind - musulmon madaniyatining jahonshumul ahamiyati to'g'risida taniqli hindshunos olimlar bir qator asarlar yozib qoldirganlar.<sup>46</sup>

Hindistonga islom an'analari kirib kelishi murakkab va ko'p tomonlama jarayon. Bir tarafdin qonli urushlar kulfat yog'dirgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin ilm- fan va madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. O'rta Osiyo madaniyatini Hindistonga singdirgan shaxslardan biri Mahmud G'aznaviydir. Javoxirlal Neruning o'z xotiralarida yozishicha, "... Mahmud xarbiy yurishlar biln bir qatorda o'z mamlakatining madaniy hayoti yuksalishiga g'am katta e'tibor bergan; u o'z atrofiga to'plagan buyuk arboblarni qatorida mashhur "Shoxnoma"ning muallifi Firdavsiy, va qomusiy olim al-Beruniylar ham bor edi" [8].

Mashhur ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy o'z davrining yirik qomusiy olimlardan biri bo'lgan. U bir muddat Kashmirda yashab, sanskrit tili, hind falsafasi, ilmlari va san'atini o'rgangan natijada u kashmiriylarning hayit bayramlari, urf-odatlarini va falsafasi haqida ma'lumot beruvchi ulkan asar yaratgan [3].

XIII-XIV asrlarda Hindistonda Osiyo turklaridan chiqqan Dehli sultonligi hukmronlik qilgan. Bu davrda Hindistonda Fors tilini tarqalishi, muomalaga kirishi natijasida Markaziy Osiyo adabiy an'analari Hindistonga faol ta'sir ko'rsatgan. Ushbu vaqtda eng ko'zga ko'ringan shoir, musiqachi va bastakori Amir Husrav Dehlaviydir. Turk urug'idin bo'lgan Xusrav Dehlaviy arab, fors, hind, sanskrit tillarini mukammal egallagan va forsiy tilda "Xamsa" va benazir she'rlar yaratgan. Amir Xusrav nomi hind musiqasining muayyan uslublari bilan bog'liq bo'lib adabiyotlarda u qavalli, g'azal kabi janrlar va tabla cholg'usining asoschisi deb ham keltiriladi. Amir Xusrav

<sup>46</sup> A. I. Besham "The Wonder that was Indiya" Ачария Брхаспати "Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi" kabi asarlar ko'zda tutilmoqda.




yaratgan janrlarga mansub asarlar bugungi kunda ham ijro etilib kelinadi [3:23].

Kashmir madaniyati va Markaziy Osiyo aloqalari yuksalgan yana bir davr XVI asrda vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan Boburiylar sulolasi (Hindistonda Buyuk Mo'g'ullar sulolasi deb yuritiladi) bilan bog'liqdir. Bu davrda Markaziy Osiyo va Kashmir munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilib, O'rta Osiyolik olim, shoir va san'atkorlar Bobur davlatining markaziga qarab intilganlar. Iste'dodli shoir va san'atkor bo'lgan Boburning o'zi hamda uning ajdodlari nafis san'atlar, jumladan musiqaning xomiylaridan bo'lgan. Shu davrda ko'plab xonanda, sozandalar Hindistonga yo'l olganlar. Boburiylar saroyida xizmat qilgan Abul Rahim Xonhona, "Oynai Akbar" risolasining muallifi Abul Fazl Allomiy va taniqli shoir Mirzo Abulqodir Bedildek atoqli arboblarning ijodi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Markaziy Osiyo va Hindiston alokalari turli davrlarda yuksalib, chuqur tarixiy iz qoldirgan sahifalarga juda boy. Bu jarayonda musiqiy aloqalarning ham o'ziga hos o'rni bor. Mazkur magistrlik dissetartsiyamizda ikki davlatning mushtarak musiqiy aloqalarini o'zbek Shashmaqomi va Kashmir So'fiyona Kalomi misollarida ko'rib chiqish va tadqiq qilishni maqsad qilib qo'ydik.

Markaziy Osiyo va Hindiston madaniy aloqalari qatorida musiqiy rishtalar eng boy va mazmunli tomonlardan birini tashkil qiladi. O'z navbatida musiqiy - tarixiy aloqalarning o'zi ham serqirra va boy, ko'p asrlik tarix qarida yuzaga kelgan jarayonki, uni to'la tasavvur etish hamda o'zlashtirish qator ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Ana shu mulohazalarga e'tiboran, o'zbek va Kashmir musiqa aloqalaridan dalolat beruvchi muayyan manbalarni ko'rib chiqib mulohaza yuritishni maqsad qilib oldik.


Markaziy Osiyo va Hind musiqa aloqalari yo'nalashida musiqashunos olim Aleksandr Jumaev ham izlanishlar olib borgan. U Noiniyning "Zamzamai vahdat" risolasi ustida izlanishlar olib borgan [6]. Shu bilan birga O'rta Osiyo va Kashmir musiqa aloqalarini o'rganish borasida Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobidagi ushbu mavzuga oid bo'lgan muxtasar, ammo juda sermazmun mulohazalarning ahamiyatini ham alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Hindiston va O'rta Osiyo tarixi va madaniyatidan



yaqindan xabardor bo'lgan, hattoki bu sohada ilmiy va badiiy asarlar yaratgan Fitrat, hind va o'zbek xalqlarining musiqiy bog'lanishlari, o'zbek klassik musiqasi hamda uning tarixi munosabatlari bilan, ushbu mavzuga bir necha bor murojaat qilgan. U O'rta Osiyodan Hindistonga ko'zga ko'ringan san'atkorlar va guruhlar, cholg'u sozlari, qolaversa ayrim kuy va usullar ko'chib o'tganligi xaqida yozadi. Bu ko'chishlarning asl sabablari nimada? Fitrat keltirgan ma'lumotlarining eng qimmatli tomoni ham shundaki, ana shu ko'chishlarning ijtimoiy yoki diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan sabablarini ochib berishga harakat qiladi.

Ma'lumki, Temuriylar saltanati yemirilgandan so'ng Movarounnahr o'zbek urug'laridan bo'lmish Shayboniylar, Ashtarxoniyar va so'ngra Mang'itliklar qo'l ostiga o'tgan. Shayboniy va Ashtarxoniyar o'z davrida musiqaga xomiylik ko'rsatganlari sababli Hirot musiqasining yuksalishiga zamin bo'lgan san'atkor va fozillar, Hirotidan Buxoroga qarab yo'l olgan. Hukumat Mang'itliklar qo'lga o'tgandan so'ng esa, ularning diniy xurofotga berilganliklari sababli O'rta Osiyo madaniyatining ko'rki bo'lgan ko'plab shoir, san'atkor va olimlar o'z yurtlarini tark etganlar. Jumladan, Bobur Hindistonda asos solgan madaniyat va ma'rifatparvar saltanatdan boshpana axtarganliklariga sabab bo'lganligini Fitrat quyidagicha bayon etadi: *"Abul Fayzning o'zi ham (1159 h/y) Raximboy tomonidan o'ldirildi, honlik o'zbekning Ashtarxoniy sulolasidan Mang'it sulolasiga o'tdi. Mang'it honlari esa judayam johil, aldovchi kishilar edilar. Bu aldovchi yirtquvchilarning irodasida ezilgan el-ulusning go'zal san'atlar bilan mashg'ul bo'lurg'a vaqt toplmag'ani ham belgilidir. Shu yo'lsizliqlarning boshlanishi bilan biro'a (Imomquli zamonlaridan boshlab) O'zbekistondan Hindistonga safar masalasi chiqdi. Mashhur Bobur Mirzoning Hindistonga kirgoni mo'g'ul xoqonlig'i go'zal san'atlarining himoyasig'a bor kuchi bilan tirishar erdi. O'zbekistonning rassomlari, shoirlari, olimlari shunga qarab bora berdilar"* [17].

O'zbek milliy musiqaning yetuk kasbiy janri maqomlar asosan uch maxalliy uslubda tasniflanadi. Buxoro maqomlari (Shashmaqom), Farg'ona-Toshket maqom yo'llari va Xorazm maqomlari. XVIII asrda to'liq shakllangan Shashmaqom - o'zbek mumtoz musiqa namunalari orasida eng mukammali va murakkab tarkibda yuzaga kelgan o'zbek va



tojik xalqlarining monumental janridir. Uning tarkibi yirik va har biri ellikdan ortiq cholg'u kuylari va ashulalardan iborat olti maqomni tashkil etadi. So'fiyona Kalom janri Shimoliy Hindistonning Kashmir vodiysi va Pokistondagi Ozod Kashmirning milliy musiqa janri hisoblanadi. "So'fiyona kalom" iborasining o'ziyoq ushbu maqomlarning tasavvuf aqidalariga mansub ekanligidan dalolat beradi. Fors tilidan to'g'ridan to'g'ri tarjimai "So'fiyona (tasavvufiy) so'z" degan ma'noni anglatadi.

Musiqashunos olim Shayx Abdulazizning yozishi bo'yicha bu iboraning kelib chiqishi tasavvuf ilmi, ayniqsa "Chishtiya" tariqati bilan bevosita bog'liqdir.

So'fiyona Kalom hind musiqasidagi o'ziga hos janrlardan bo'lsada Markaziy Osiyo musiqasida yetakchi o'rinda bo'lgan maqom an'anasi bilan kosmopolitik aloqalarda yuzaga kelgan va undagi ko'plab unsurlarni o'zida mujassam etadi. Sharq mumtoz musiqasidagi boshqa kasbiy janrlar singari bu janr ham davrlar osha og'zaki tarzda, ya'ni ustoz-shogirdlik an'analari negizida avloddan avlodga o'tib kelgan.

XX asning boshlarida musiqashunos olimlar tomonidan maqom namunalarini notaga olish g'oyalari ilgari suriladi va O'zbek-Kashmir maqomlarining nota yozuviga olinib, abadiyatga muhrlanishi aynan shu davrga, ya'ni o'tgan asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Ma'lumki, Shashmaqom V.Uspenskiy va Yu.Rajabiy tomonidan notaga olingan [14]. Kashmir maqomlari esa Kashmirlik musiqashunos olim Shayx Abdulaziz tomonidan raqamli nota yozuviga olingan va 1960-yillarda kashmiriy kitob shaklida nashr qilingan.

Shashmaqom olti maqomdan tashkil topgan yirik ashula va cholg'u turkumi sifatida o'zbek maqomlarining gulto'ji hisoblanishi barobarida o'zbek-tojik xalqlari musiqa boyliklari asosida yaratilgan musiqiy qomusdir. XVIII asrda Kashmir vodiysida yashab ijod qilgan olim Daya Ram Kachru "Hushdil"ning "Taronai Surur" risolasida keltirilishicha Kashmir maqomlari ham nisbatan umumlashgan o'n ikki maqomdan tashkil topgan. Ular o'rta asrlardagi o'n ikki maqom majmuasiga hos bo'lgan nomlar bilan yuritiladi [9].

Bir qator Hindiston va chet el musiqashunoslari, jumladan Moxanlal Aima va Y. Paxolchik kabi olimlar So'fiyona kalom 36 ta maqom yo'llaridan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. Paxolchik o'z




izlanishlari davomida 40 dan ortiq maqomlar borligiga guvoh bo'lgani, lekin amaliyotda asosiy maqomlar soni 36 ta ekanligini qayd etib o'tadi va o'zining "Sufyana Musiqi" kitobida ularning nomlarini keltiradi [12:123]. Men uz izlanishlarim davomida 40 dan ortiq maqomlar borligiga guvoh bo'ldim, lekin amaliyotda asosiy maqomlar soni 36 ta ekanligini qayd etib, ularning nomlarini quyidagi tartibda keltirdim:

Araq	Lalit
Asavari	Naat kalyan
Ashiran	Nava
Bahar	Navro`z-e – ajam
Bayate(Rahavi)	Malhar
Behag (Hijaz)	Navro`z-e-` arab
Behbas	Nayriz
Bhairavi	Panjgah (rast-e-farsi)
Bilaval (Busalik)	Paraj
Buzurg	Purbi
Chargah	Rahavi (bastenigar)
Dhanasri	Ramkali
Divgandhar	Rast (Rast-e-kashmiri)
Dogah	Paraj
Gabri	Purbi
Husayni (Zarkash)	Panjgah (rast-e-farsi)
Jangla (mukhalif)	Saba (Navro`z-e saba)
Jazvanti	Sarang
Jinjoti	Segah
Kanada	Sendhuri
Khamanch(Isfahan)	Shahnaz (zango`la)
Kochak	Suhani
Kuhi (mubaraqqa)	Uzzal

Ushbu maqomlar nomlariga nazar solar ekanmiz, Hind ragalari va Maqomot dunyosida mavjud maqom nomlari aralash xolda ko'zimizga tashlanadi. Masalan "Asavari, Bxeirav, Lalit, Malhar, Ramkali, Todi kabi asarlar hind ragalarida mavjud bo'lsa, Buzurg, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Chorgoh, Roxavi, Zangula, Shahnaz, Bayot, Ushshoq kabi asardar o'n ikki maqom tizimi va shashmaqomda mavjud asarga hosdir." [2].

Guvohi bo'layotganimizdek Kashmir maqomlarning nomlarida nafaqat O'n ikki maqom, shashmaqom turkumiga oid maqomlar, balki



Xorazm, Farg'ona- Toshkent maqom yo'llari, shuningdek ularning tarkibiga kiruvchi sho'balar nomlari bilan bir biriga juda yaqin. *Panjgah* nomi Xorazm maqomlari tarkibida mavjud, *Shargah*, *Shahnaz*, *Bayate* nomlari aynan Farg'ona- Toshkent maqom yo'llariga mansub asarlarni eslatadi. Bundan tashqari Navro'zi ajam va Navro'zi Sabo kabi maqomlar o'zbek musiqasida alohida maqom sifatida bo'lmasada o'rta asrlarda O'n ikki maqom tizimiga kirgan va hozirgi vaqtda Segoh va Rost maqomlarining ashula bo'limidagi sho'balari sifatida namoyon bo'ladi.

So'fiyona kalom atamalarining o'ziyoq Markaziy Osiyo va Hindistonning juda yaqin musiqiy aloqalaridan darak beradi. Musiqashunos Farog'at Azizova Hind va Tojik madaniy aloqalarini o'rganishga bag'ishlagan ilmiy ishlarida "*hind-ajam sintezi*" [2:97]. degan iborani kiritadi. Yuqorida ko'rib chiqqan Kashmir maqomlari namunalari aynan hind-ajam sintezini yana bir kesimda idroklashimizga imkon beradi.

Shashmaqom va Kashmir maqomlarining ichki tuzilishlari birmuncha farq qiladi. Shashmaqom tarkibidagi har bir maqom aniq cholg'u(mushkilot) va ashula (nasr) bo'limlariga ajratilgan turkum tarzida keladi. Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil kabi qismlar maqomlarning cholg'u bo'limiga kiruvchi qismlar bo'lib, har bir maqomning ichki mantiqidan kelib chiqadi va yirik mushkilot bo'limini tashkil qiladi. Kashmir maqomlarining esa, har biri yagona tuzilma bo'lib gavdalanadi. Ya'ni uning shashmaqom kabi cholg'u va ashula shakliga bo'lingan joyi yo'q. Sharoitga qarab muayyan maqom to'laligicha yoki qisman cholg'u yo'li yoki ashula tarzida ijro etilishi mumkin.<sup>47</sup> Shunga ko'ra So'fiyona kalomning tarkibiy bo'laklarida nafaqat Shashmaqom, balki hind ragalari bilan ham uyg'unlik taraflari kuzatiladi. Raga maqomdan farqli o'laroq, muayyan musiqiy g'oyaning turli holatlarda namoyon bo'lganligini tasvirlovchi hamda uzil-kesil ijro etiladigan tuzilma (tasnif - kompozitsiya) bo'lib gavdalanishi bilan xususiyatlanadi.

So'fiyona kalomdagi har bir maqomning ijro etilishi shart sharoit hamda tinglovchilarning ehtiyojiga ko'ra bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan Kashmir maqomlarining audio



yozuvlarida ular o'rta hisobda yigirma daqiqadan yarim soatgacha mo'ljallangandir. Shu bilan birga, talabga qarab, maqom bir necha daqiqalarda ham ijro etilib o'tishi mumkin.

O'zbek va Kashmir maqomlari namunalarining umumiy hususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning tarkib topishida kuy yetakchi omil hisoblanadi.

Shashmaqom va Kashmir maqomlarining parda tuzilmalari orasida ma'lum yaqinlik ko'zga tashlanadi. Mazkur maqomlarning umumiyliigi xaqida gap borar ekan, shuni aytib o'tish lozimki, maqom tovushqatorlari o'rtasidagi o'xshashliklar qisman yoki to'la to'kis tarzda namoyon bo'lishi mumkin. O'zbek va Kashmir maqomlarida bir xil nom bilan kelib, aynan o'xshaydigan tovushqatorlar nisbatan kam uchraydi. Ularda ko'proq qisman o'xshashlik holatlari kuzatiladi. Tovushqatorlar o'rtasidagi birlikni esa faqat Rost ladida kuzatishimiz mumkin. Shashmaqom va So'fiyona kalom segohining tovushqatori "do" ioniy ladiga mansubdir.

Musiqada agar parda makon bo'lsa, usul zamon omili, vaqt oqimining tartiblashuvidir. Kuylar orasida o'tadigan vaqt "iyqo'" maqom ilmida odatda usul tushunchasida mujassamlashgandir. Kashmir maqomlarining vazn va usullari xususida so'z borganda ularning umumiy yo'nalishi, kuy bilan munosabatlari Shashmaqomga nisbatan birmuncha boshqacharoqdir. Kashmir maqomlarining usuli ko'proq raga janri tomonga tortadi. Raganing usul negizi "tala" bo'lib, u muntazam ravishda ijro etilib kuyga jo'r bo'ladigan vosita emas, balki kuy bilan doimiy musobaqaga kirishadigan, uni to'ldirib boradigan o'ziga xos yo'ldosh bo'lib gavdalanadi [5:17]. Aynan shu jihatdan O'zbek va Kashmir maqomlaridagi vazn va usullarning umumiy yo'nalishi farqlanadi. Shashmaqom usullari "bum", "baka", "bak", "ist" alomatlaridan tarkib topsa, Kashmir maqomlarida bu o'rinda "dish", "tun", "taka" deb nomlanuvchi bo'laklar ishlatiladi. Fitrat ma'lumotlariga ko'ra Shashmaqom asosini yigirma to'rt usul tashkil qiladi: saraxbor, tasnif, gardun, muxammas, saqil, samoi, chanbar, talqin, nasr, chapandoz, savt, qashqarcha, soqiynoma, ufar, mustaxzod va boshqalar[17:20]. Shayh Abdulaziz esa So'fiyona Kalomning 17 ta talasini ajratadi.: hijoz, saqil, nimsaqil, muhammas, gardun, duroya, yeka, setala, doeka, chapandoz, ravani, nimdur, durexafif, zarbeturki, ravani, durafzo, va boshqalar bo'lib, olim eng

<sup>47</sup> Shashmaqomning ijro amaliyotida ham bunday hol keng ommalashayotganini kuzatish mumkin. Jumladan ashula bo'limi cholg'uchilar tomonidan ijro etilib kelinadi.



ko'p qo'llaniladigan usullar sifatida faqat oltitasini ko'rsatadi [12:85]. Y. Paxolchik ham 6 asosiy usul xaqida o'z kitobida to'xtalib o'tadi. Duroya (14 zarbli), Hijoz (14 zarbli), Doeka (16 zarbli), Yeka (12 zarbli), Setal (12 ta zarbli), Chapandoz (6 ta zarbli).

Xalq mumtoz ijodiyoti janrlari cholg'u va aytim yo'llaridan iborat bo'lib muayyan tarkibga egadir. Shashmaqom cholg'u bo'limi tarkibiy tuzilish jihatidan xona-bozgo'y tamoyillariga asoslanib yaratilgan. Kashmir maqomlari ham "Stxai" va "Antara" tamoyiliga asoslanadi. Birinchi qismi "Stxai" ستهای deb nomlanib asosiy kuy materialini ifodalaydi va o'zgarimas (refren) qism hisoblanadi (bozgo'y kabi). Keyingisi esa yangi mavzuni namoyish etuvchi qismi, ya'ni "Antara"<sup>48</sup> deb nomlanadi. "Antara" انتره so'zi qaysidir ma'nosida urdu tilida rivojlanish degan ma'noni ham ifodalaydi. Paxolchik bu kislarni stabil va mobil deb nomlaydi [12]. Bundan ko'rinib turibdiki, stxai va antara kislari xona-bozgo'y tamoyillariga asoslangan.

Shashmaqom va So'fiyona Kalomni birlashtiruvchi omillardan yana biri fors tilida buyuk tasavvuf shoirlari Sa'diy va Hofizdan tortib to XX asrning boshlarida yashagan shoirlar yaratgan g'azallardir. Ikki janrning yana bir o'xshash jihati bu – ikki tillikdir. O'zbek maqomlari o'zbek va fors tilida yozilgan g'azallarga ijro etilsa, Kashmir maqomlari urdu va fors tilida yozilgan g'azallarga bog'lab ijro etiladi. Maqom bayozlaridagi ikkitillik ham shashmaqom so'fiyona kalom janrlarining umumiy jihatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Maqom kuylarining tinglovchilar ko'ngliga yetib borib, ularning qalb torlarini chertishida musiqiy cholg'ular muhim ahamiyat kasb etadi. Shashmaqomda yetakchi soz Tanburdir. Uning ohanglari, mungi, parda tuzilishi, zarb va bezaklari Shashmaqom tafakkuridan kelib chiqadi desak mubolag'a bo'lmaydi. So'fiyona Kalomda esa bu vazifani Santur cholg'usi bajaradi. Uning sadolari, shirasi So'fiyona Kalom ruhiyatiga juda mos.

Shashmaqom va So'fiyona Kalomni qiyosiy o'rganish, bu ikki an'ananing har birida o'ziga xos yorqin jihatlar mavjudligini yana bir bor isbotlaydi. Masalaning negiziga chuqurroq, nazariy xulosalar darajasida razm soladigan bo'lsak, o'ziga xos jihatlar bilan bir qatorda mushtarak jihatlar ham qo'p ekanligi ko'zga tashlanadi. Ularning

<sup>48</sup> Antara so'zining lug'aviy ma'nosi "aralash" degan ma'noni anglatadi. Ushbu jarayonda esa aralashish ma'nosiga to'g'ri keladi. Chunki, asarda Antara doimo Stxai'ga o'z ta'sirini o'tkazibroq-aralashib turib ijro etiladi.




negizida ba'zan madaniy xamkorlik samaralari yotgan bo'lsa, ba'zan uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaluvchi umumiylik namoyon bo'ladi. Shunday qilib, O'zbek va Kashmir musiqiy aloqalari Shashmaqom va So'fiyona Kalom jarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu janrlar ikki ulkan madaniyat markazlarining o'ziga hos musiqiy merosi negizida yuzaga kelgan musiqiy jarayondir. Shuning uchun ham Shashmaqom va So'fiyona Kalomni maqom xaritasidagi yorqin va mustaqil nuqtalar deyishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo va Kashmir musiqa aloqalaridan dalolat beruvchi manbalarga kichik hulosa qiladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki, bu jarayon ikki asosiy yo'nalishda o'z aksini topgan:

**1. Bevosita aloqalar:** Ya'ni muayyan tarixiy shart sharoitlarning taqazosini bilan ilmiy mafkuraviy an'analar, musiqiy g'oyalar bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tadi va yangi sharoit ehtiyojlariga moslashadi. XVI asrning oxirlarida Movarounnahrda musiqaga bo'lgan munosabatlar inqirozga uchrashi munosabati bilan ko'p san'atkorlar Boburiylar xomiyligi bilan, Hindistonga qarab yo'l oladilar. O'z davrida Samarqandda, keyinchalik Hirotda, so'ngra esa Buxoroda ravnaq topgan musiqa an'analari keyinchalik Hindistondagi Kashmir vodiysida o'z maskanini topadi.


**2. Bilvosita aloqalar:** Markaziy Osiyo va Hind madaniyatining umumiy ildizlaridan kelib chiquvchi rishtalar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bular orasida O'rta Osiyo va Hindistonda qadimdan mavjud bo'lgan musiqiy qarashlarni ham aytib o'tish o'rinlidir. Jumladan, ilmiy nujum (yulduzlar haqidagi ilm) bilan bog'liq bo'lgan ko'hna fazoviy qarashlar musiqashunoslikda ham keng o'rin egallagan bo'lib kuy va usullarning majoziy ma'nolarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etganligini qayd etishimiz mumkin. Kuy va usul holatlarining yil taqvimini va fasllar mavsumi, falak burjlari va quyoshning kunlik harakati bilan bog'liq aqidalar maqom va ragalarning ma'naviy ildizlarini tushuntirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hindistonda Islom madaniyati rivojlangandan so'ng maqom va raga negizlari mumtoz musiqaning yangi bir kurtagi, ya'ni So'fiyona kalom janrining yuzaga keldishi uchun zamin yaratdi. Shunday qilib Markaziy Osiyo va Kashmir musiqa aloqalarining bilvosita namoyon bo'lishini kuzatish mumkindir.



#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy. "Hindiston" asari. A.B. Xalidanov tomonidan 1995 –yil fors tilidan rus tiliga tarjima qilingan
2. Azizova F. Dissertatsiya. Исторические взаимосвязи Индо-Таджикских музыкальных традиций. Душанбе., 1988.
3. Ibrohimov O. Maqom asoslari. Toshkent, "Turon-Iqbol" 2018.
4. Achariya Brixaspati. "Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi" Urdu tilidan o'zbek tiliga muxtasar tarjima. Toshkent 2009.
5. Виноградов В. Индийская рага. Москва, 1976.
6. Джумаев А. Уникальный источник по истории среднеазиатско-индийских связей ( "Замзамаи Вахдат" Наини) XVII в. Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. Ташкент, 1986 г.
7. Kachroo, Daya, Ram "Khushdil". "Tarana-e-Sorur". Pushb 1962
8. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent, 2004.
9. Mohanlal Aima- The music of Kashmir/ Sangeet Natak academy II. Jan-March 1989.
10. Музыкальная культура древнего мира. "Музгис". 1937 йил.
11. Nasullaev "Amir Xusrva Dehlaviy asarlarida musiqa haqida ma'lumotlar". Toshkent 2010.
12. Pacholczyk. J.M. Sufyana Musiqi the classical music of Kashmir. Berlin 1996.
13. Rajabiy Yu. O'zbek xalq musiqasi. V jild. Buxoro maqomlari. Toshkent, 1959 y.
14. Успенский В. Шест музыкальных поем. Москва, 1925 г.
15. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent, 2006
16. Rajabov I. Maqom asoslari. Toshkent, 1992.
17. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1993.



#### SHARQ ALLOMALARINING MAQOMLAR NAZARIYASIGA OID QARASHLARI

**Jur'atbek SHERIMMATOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi"  
kafedrasi o'qituvchisi, 3-bosqich mustaqil izlanuvchi.*

*Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,  
O'zDK "O'zbek musiqa tarixi" kafedrasi mudiri,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maqomlarining nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlanib, sharq allomalarining musiqa ilmiga doir qarashlari va musiqiy-nazariy masalalarini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek musiqasi, maqom san'ati, maqom nazariyasi, sharq klassiklari, manbashunoslik, lad, parda, maqomot, shashmaqom.


**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению теоретических основ статуса, а также уделено внимание изучению музыкально-теоретических вопросов и взглядов восточных ученых на науку о музыке.

**Ключевые слова:** узбекская музыка, искусство макама, теория макама, восточная классика, источниковедение, lad, parda, maqomot, shashmaqam.

**Abstract:** This article is devoted to the study of the theoretical foundations of the status, and also paid attention to the study of musical and theoretical issues and the views of Eastern scientists on the science of music.

**Key words:** Uzbek music, art of maqam, theory of maqam, oriental classics, source study, fret, parda, maqamot, shashmaqam.

Ma'lumki, bir necha davrlar mobaynida mumtoz musiqa durdonalari o'z hajmi va ko'lamini kengaytirib, xalqimizning amaldagi musiqiy urf odatlarida o'zining yetakchi o'rniga ega bo'ldi. O'zbek maqomlari amaliyotda pishib yetgan mo'tabar urf-odat (mutaorif udum), nodir musiqiy majmua va ayni paytda "jonli musiqiy meros"dir.



Bu haqida Is'hoq Rajabovning quyidagi gaplariga e'tibor qaratsak: "Shashmaqom bir qolipda qotib qolmadi, jamiyatning badiiy estetik talablari va tarixiy sharoitiga qarab o'zgarib, rivojlanib, boyib, bir avloddan ikkinchisiga o'tib, takomillashib bordi"[1, 292] deydi.


Qayd etish kerakki, o'tgan XX asr davomida milliy musiqa shakllari, nota yozuvlari, sharq klassiklarining musiqaqaga bag'lishlangan ishlari, ulardagi musiqaning nazariy masalalariga oid ayrim tadqiqotlar va sharhlar haqida birlamchi ma'lumotlarni o'zbek va rus olimlarining ishlarida ko'rish mumkin. Shuningdek, maqomlar va xalq musiqasining audio yozuvlarining yuzaga kelishi, ilmiy ishlarning keng yozilishi mazkur sohada katta o'zgarishlarga olib keldi.

Xalq musiqasi, milliy mumtoz musiqa va zamonaviy musiqa madaniyati, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotini o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochish, o'tmish va zamonaviy musiqa o'rtasida muayyan ko'priklar hosil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Sharq olimlarning IX-XVI asrlar davomida yaratilgan turli tadqiqotlari va risolalarini Sharq xalqlari musiqasining rivojlanish tarixini yoritib berishda muhim manba sifatida qayd qilish mumkin. Ular o'z davrining musiqiy ilmi va san'atini aks ettiruvchi ma'naviy yodgorligi hisoblanadi. Xususan, Musulmon Sharqida musiqa ilmi riyoziyot ilm-fani tarkibiga kirgani va arifmetika, geometriya, astronomiya kabi fanlar bilan bir qatorda o'rganilgani ma'lumdir. Shu sababli, musiqiy tadqiqotlarda aynan musiqiy-nazariy hodisalar matematik usullar vositasida yoritilgan bo'lsa, musiqaning estetik jihatlari ham muhim omil sifatida ko'riladi.

Risolalardan shuni qayd etish mumkinki, musiqa ilmining mumtoz davri IX-XIII asrlar sanalib, [2,10] ushbu davrlarda musiqa ilmining asosan nazariy kategoriyalari – tovush, uning musiqiy va fizik xususiyatlari, nag'ma, bo'd, parda-jins tushunchalari, ularning hosil bo'lishi, sifatleri, o'zaro munosabati tizimi, cholg'u asbobida joylashuvi, shuningdek, iyqo' masalalari va h.k. ishlab chiqiladi.

Keyingi davr XIII-XVII asrlarda musiqa ilmida ko'proq maqom masalalari muhim ahamiyat kasb etgani bilan xarakterlidir. Bu davrda yaratilgan musiqiy risolalarda O'n ikki maqom (parda, advor) tizimi atroflicha yoritilganligi, [3, 211-212] uning o'sha asrlar musiqa san'atining kasbiy qatlamida muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.



Mazkur davrlardagi yaratilgan risolalarda musiqashunos olimlarning parda-lad tizimiga doir qarashlarida o'zaro o'xshashlik jihatlari mavjud. [4, 97]


Musiqaning ilmiy-nazariy tomonlari bilan taniqli sharq klassiklari – Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Faxriddin Roziy (1150-1209/1210), Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1311), Abdulqodir Marog'iy (1353-1435), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Zaynulobidin Xusayniy (1436-1512), Najmiddin Kavkabi (1470-y bosh. 1532-33 y.), Darvish Ali Changiy (1542-1649) va boshqalar shug'ullanishgan. Ularning asarlari maqomlar ilmining poydevorini tashkil etadi. Musiqiy qarashlari izchil an'analar asosida shakllanib, bir-birini to'ldiradi va mumtoz musiqaqaga nisbatan yagona ilmiy ta'limotni namoyon etadi.

O'rta Osiyoda musiqa san'atiga oid ilmiy-nazariy fikrlarning o'ziga xos xususiyatlari aynan ilk o'rta asrlarda paydo bo'la boshlagan. Ayniqsa, Sharq klassiklari buyuk yunon faylasuflarining izdoshlari sanalib, ular xuddi Aristotel, Pifagor, Aristoksen, Yevklid, Nikomax, Ptolemey va boshqalarning antik musiqa nazariyasini o'rganishgan va ularda ko'tarilgan ayrim nazariy masalalarga sharhlar keltirishgan.

J.Farmerning keltirishicha "o'z davrida Al-Kindiy Yevklid va Ptolemey asarlari bilan tanish bo'lganligi hamda o'zining "Kitab fi qismat qanun" asarida birinchilardan ularning nazariyasiga to'xtalib o'tganligi"ni tasdiqlaydi. [5, 65] Shuningdek, Forobiy ham o'zining "Katta musiqa kitobi" va bir qator asarlarida yunon olimlari fikrlariga qayta-qayta murojaat qiladi va ularning ayrim musiqiy-nazariy muammolari bilan bog'liq fikrlarini keltiradi. Yana bir olim Al-Xorazmiy, ehtimol, keyingi musiqiy-nazariy manbalarga asoslanadi. Chunki, Farmerning fikricha, uning asarlarida Vizantiya musiqa cholg'ulari tilga olinadi.

Arab tilidagi manbalarda antik davr musiqiy terminologiyasini izohlar ko'rinishida (musiqa san'atining turli tarmoqlariga ko'ra), to'g'ridan-to'g'ri (leksik) va bilvosita (ma'naviy-mazmunan) tarjimalarini ko'rish mumkin. Qadimgi yunoncha atama va tushunchalarning sharhlanishi musiqa fanining arab tilidagi terminologik tizimi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Sharqda klassik musiqaning nazariy masalalarini dastlab, "muallimi as-soniy" – Abu Nasr Muxammad Al-Forobiy o'zining qator




kitoblarida bayon qiladi. Mazkur risolalarda, asosan, musiqa san'ati ilmi, musiqiy tovushlar tizimi, ularning nisbati, ohangdosh va nohangdosh intervallar, lad tuzilishi qonuniyatlari, tovushqatorlar, kuy-ohanglar ta'rifi, vazn va iqo' masalalari, musiqiy cholg'ular haqidagi qarashlari keltiriladi.

Shuningdek, musiqa lad tomonini o'rganish yunon olimlarining qadimiy "garmonika" sida qayd etilgan bir qator masalalarni qamrab oladi. Antik lad nazariyasining umumiy tuzilishlariga asoslangan Forobiy shu bilan birga bir qator asl tushunchalar kiritadi va ularning tartibini tanlagan holda sharhlarini keltiradi.

Tabobat olamida mashxur bo'lgan "Shayx ur-Rais" – Abu Ali Ibn Sinoning serqirra ilmiy merosida musiqa ilmi muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z zamonida yunon faylasuflari va sharq olimlari Kindiy, Forobiy, Xorazmiylarning asarlarini keng o'rgandi hamda musiqa to'g'risidagi o'z ta'limotini yaratdi. Ibn Sinoning musiqiy ta'limotida nazariya va amaliyot, musiqa inson ruhiyatiga ta'siri, estetika kabi qator masalalar o'rin olgan. Shuningdek, musiqaga faqat amaliy jarayon sifatida qaramasdan, uni nafaqat matematika, balki, sotsiologiya, psixologiya, poetika, etika, fiziologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Forobiy va Ibn Sinoning musiqiy risolalarida asosan musiqiy cholg'ularni o'rganish bilan birga, ular vositasida ilmiy-nazariy masalalar (cholg'u asosida musiqiy tovushlar, tuzilmalar, jins va jamlarning yuzaga kelishi, ularning sifati va bir-biriga nisbati)ni yoritishda ham foydalanib kelganlar. XV asrgacha bo'lgan davr mobaynida yaratilgan nazariy risolalarning mavzusi va o'rganilish jarayoni bir-biriga juda ko'p masalalarda yaqin turadi.

O'rta asr olimlari musiqiy-nazariy masalalarda ko'proq al-Forobiy, Ibn Sino asarlarida berilgan ta'rifni asos qilib olganlar. Keyingi davrlarda musika nazariyasi Safiuddin Urmaviy, Mahmud Sheroziy, Xo'ja Abdulkodir Marog'iy, Zaynulobiddin Xusayniy, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi. Bu olimlarniig musika risolalarida makom masalasi musiqa nazariyasiniig eng yirik va tub masalalaridan biri sifatida qaraladi. XIII asrning o'rtalarida Safiuddin Urmaviyning "Kitob ul-advor" ("doiralari haqida kitob") musiqiy risolasida "maqomotning mazkur davrdagi



o'sib chiqishini birinchilardan nazariy jihatdan tizimlashtirdi. Mazkur asar, haqiqatdan, XVI asrgacha bo'lgan maqomot haqidagi ta'limotning taraqqiyotini belgilaydi. Maqomot musiqa madaniyatidagi alohida mavqeiga ko'ra musiqa ilmining markaziy masalasiga aylandi". [6, 16-24]

Musiqa ilmi rivojlanishining keyingi davri (XIII-XVI asrlar) aynan Safiuddin Urmaviy nomi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqqan maqomot (parda, sho'ba, ovoza) tizimi keyingi asrlar musiqa ilmi va amaliyotida keng quloq yozdi. XIII asrda O'n ikki maqom tizimining rivojlanish jarayoni Yaqin va O'rta Sharq bo'ylab kechdi.

Safiuddin Urmaviy asarlarida Forobiy ta'limotidagi nazariy mulohazalarning ayrim masalalari, xususan, musiqiy tovush ta'rifi va uning yuzaga kelish sabablarini tanqid qiladi. I.Rajabov tasdiqlashicha: "...bunday ixtiloflar, musiqa akustikasi, musiqa tovushi (savt yoki nag'ma), ritm (iyqo') ta'rifida, ud asbobidagi ayrim pardalarning o'rnini aniqlashda va boshqa masalalarda o'z ifodasini topgan". [1, 10]

Darhaqiqat, o'zbek maqomlarining nazariy tomoni hisoblanuvchi parda-lad va ritm asoslari, shakl va shakllanish xususiyatlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bilan birga, o'zbek milliy musiqa an'alarining nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish, zamon bilan hamnafas holda zamonaviy kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotini tahlil qilish, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar markazida turgan asosiy vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. –T., 1963.
2. Матякубов О.Р. Узбекская классическая музыка. – Ташкент.
3. Джумаев А. Трактат о музыке Мухаммада Нишапури – ранний источник по системе 12 парда: история изучения, проблемы датировки и атрибуции. // Иран-наме. №4, 2013.
4. Шамилли Г.Б.Классическая музыка Ирана: фундаментальные категории теории и практики. Дисс. док. искусств. Москва. 2009.
5. Farmer H.G. Historical facts for the Arabian musical influence.



6. Джумаев А. К проблеме эволюции эстетических учений о макамате// Вопросы эстетики, истории и теории монодии. – Т., 1987.

## TARIXDA ILK BOR SHASHMAQOMNING NOTALASHTIRILISHI

**Shahboz ABDUHOSHIMOV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
1-bosqich magistranti.  
Ilmiy rahbar: **Ravshan YUNUSOV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada avloddan avlodga o'tib og'zaki an'anada bizgacha yetib kelgan Buxoro Shashmaqomining tarixda ilk bora XX asrda Yevropa nota yozuviga tushirish ishlari bilan bog'liq masalalar hamda natijalar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maqom, Shashmaqom, turkum, nota, bastakor, kompozitor, etnomusiqashunos, nota to'plami.


**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с работой Бухарского Шахмака, дошедшей до нас в устной традиции из поколения в поколение, впервые в истории европейской нотации в XX веке, а также с результатами.

**Abstract:** This article deals with issues and results related to the work of Bukharian Shashmakom, who came down to us in the oral tradition from generation to generation, for the first time in history, to the European notation in the 20th century.

Ma'lumki, qadim davrlardagi musiqa namunalari og'zaki an'ana tarzida, ustozdan shogirdga o'tib bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ularni yozuvda ifodalashda maxsus musiqiy belgi – notani ixtiro etish uchun uzoq vaqt, musiqiy-amaliy tajriba va chuqur ilmiy izlanishlar talab etilganini tarixiy manbalar ko'rsatib turibdi.

Bugungacha ixtiro etilgan notasifat belgi-chiziqnlarni bugungi kunda qulay deb bo'lmaydi, albatta. Biroq, musiqiy yozuv ixtiro etilganligining o'zi tarixshumul ahamiyatga molik bo'lib, kelgusi tajribalarda boyib, takomillashib Sharq nota yozuvining yaratilishiga olib keldi.

Shu tariqa zamonlar almashib, vaqt o'tishi natijasida yuqorida qayd etilgan Sharq nota yozuvining noyob namunalari tarixga aylandi.



XIX asr oxirida vatanimizdagi rus istilosidan so'ng yangiliklar va o'z davri uchun rivojlangan muhit kirib kela boshladi. Bir qancha sohalaridagi yangilanishlar musiqaga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi albatta. Xususan, vatanimizga Yevropa nota yozuvining kirib kelishi va milliy musiqamizni o'sha yozuvga tushirish ishlari, uni o'rganish va xujjatlashtirish kabi tarixiy siljish musiqa san'ati va madaniyati uchun yangi bosqich bo'ldi.

Dastlab havaskor xalq musiqasi – folklor namunalari o'rganilib, zamonaviy Yevropa nota yozuviga tushirildi. Shu kabi ishlarni Rusiyadan kelgan maxsus musiqa mutaxassislari amalga oshirdilar. Keyinchalik, oddiy xalq orasidagi qobiliyatli kishilarga yangi nota yozuvini o'rgatish natijasida milliy musiqamiz ruhida tarbiya topgan, shu bilan birga, jahon standartlariga mos yangi nota yozuvini tushunadigan, o'qimishli san'atkorlar avlodi yetishib chiqa boshlaydi. Ammo ungacha rus musiqachilari bir qancha amaliy ishlarni bajarib ulgurgan edi. Bular sirasiga o'zbek xalqi musiqa merosining barkamol namunasi bo'lmish, asrlar davomida sayqallanib, og'zaki tarzda rivojlangan Shashmaqom turkumini nota yozuviga tushirilishi tarixshumul va soha rivoji uchun dastlabki omillardan biri bo'lgan ilk to'liq nota to'plamini kiritishimiz mumkin.

Mumtoz musiqamiz gultojisi bo'lmish Shashmaqom o'zining uzoq va qadim tarixiy yo'li davomida qiyin va murakkab dovonlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelishida bir qancha insonlar turli mushkulliklarni yengib matonat ila kelajak avlod uchun xizmat qildilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek o'sha tarixshumul Shashmaqom nota to'plamini zamonaviy Yevropa nota yozuviga tushirishdek mashaqqatli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani amalga oshirgan shaxs, O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, taniqli etnograf olim, kompozitor Viktor Aleksandrovich Uspenskiy bo'ldi.

V. A. Uspenskiy rus millatiga mansub bo'lishi bilan birga O'rta Osiyo musiqasiga, xususan, o'zbek milliy musiqasiga ham qiziqishi nihoyatda baland bo'lgan san'atkordir. Bu haqida u 1922 yilda Belyayevga yozgan maktubida: “Bu musiqa (O'rta Osiyo, xususan o'zbek musiqasi nazarda tutilyapti) juda qiziqarli va rang-barang” – deydi va yana shuni aytadiki: “Ish qiziqarli, lekin meningdek kichik

musiqachi uchun og'ir va men mutlaqo yolg'izman (ishda)”<sup>49</sup> – deb yozgan edi. U qancha qiyinchiliklarga qaramasdan, o'z sog'ligi, umri-yu vaqtini ayamay, hayotini O'rta Osiyo, ayniqsa, o'zbek musiqasini, jumladan Buxoro Shashmaqomini o'rganishga bag'ishlab, uni notalashtirishga hayiqmay bel bog'lagan yetuk etnomusiqashunosdir.

Ushbu ulkan ishda unga yaqindan yordam bergan, o'zining qimmatli maslahatlari ila uning juda og'ir vazifani ado etishiga yaqindan ko'maklashgan insonlar: Viktor Mixaylovich Belyayev kabi maslakdosh do'sti, Ota Jalol Nosirov hamda Ota G'iyos Abdug'ani kabi soha mutaxassislari va Abdurauf Fitrat kabi jonkuyar olimlar bo'lganlar.



Fitrat tomonidan rasman yozma yoki og'zaki tarzda berilgan taklif Peterburg konservatoriyasini tugatgan va Badiiy kengash qarori asosida xalq qo'shiqlarini to'plash va o'rganish uchun Turkistonga kelgan rus etnograf olimi Viktor Aleksandrovich Uspenskiy tomonidan qabul qilingan edi. Bu haqda V. A. Uspenskiyning “Классическая музыка узбеков” nomli maqolasida ham o'qish mumkin: “Fitrat tashabbusi bilan 1922 yili Buxoroda musiqiy-etnografik ishlar, Shashmaqom tarkibidagi 6 klassik musiqali poemalarni yozib olish boshlandi”<sup>50</sup>.

Natijada 1924 yili Moskvada “Шашмаком. Шесть музыкальных поэм (маком)” nomli nota to'plami 5000 nusxada chop ettirildi. 128 sahifadan iborat bo'lgan bu to'plamda har-bir maqom uchun alohida daftarlar nashr etilgan bo'lib, ular yaxlitlikda Shashmaqom nota kitobini tashkil etadi. Ushbu nota to'plami Abdurauf Fitrat va N. N. Mironov tahriri ostida chiqqan bo'lib, unga amir saroyida uzoq yillar mobaynida faoliyat olib borgan maqomdon ustozlar – hofiz Ota Jalol Nosirov hamda sozanda-tanburchi Ota G'iyos Abdug'ani ijrolari asos qilib olindi.

Ushbu Shashmaqom nota to'plami yaratilishi haqida Fitrat musiqa sohasidagi ilmiy asari – “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli risolasida quyidagi so'zlarni bitgan edi: “Mening fikrimcha bu to'g'rida to'la xizmatni Buxorodag'i Sharq musiqiy maktabi qildi. Bu maktab rus musiqiyshunoslaridan ozod san'atkor V. A. Uspenskiy bilan birga ikki yil tirishib, Shashmaqomni notag'a

<sup>49</sup> В. А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. Ташкент – 1980. 214-6.

<sup>50</sup> В. А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. Ташкент – 1980. 31-6.



oldirdi, ham maorif hisobida besh ming nusxa bostirishg'a muvaffaq bo'ldi"<sup>51</sup>. Fitrat e'tirof etgan Sharq musiqa maktabiga ham uning ulkan xizmatlari singgandir. Jumladan, 1921 yilda ochilgan Sharq musiqa maktabiga Fitrat o'z uyini (sobiq Дзержинский 8, hozirda buzilib ketgan) tuhfa etadi va unga o'zi mutasaddilik qiladi.

Uspenskiy Shashmaqomni notaga olish jarayonida Fitrat rahbarligida va uning maslahatlari ila bebaho xazinamizni yozib olish sharafiga muyassar bo'ldi. U Belyayevga yo'llagan maktublarida Fitratni o'zbeklar ichidan chiqqan eng e'tiborli olimlardan ekanligini ta'kidlaydi. Yana bir maktubda esa Uspenskiy Belyayevga: "(nota to'plamiga) Nozir Fitratning portretini joylashtirgin – bu juda muhim"<sup>52</sup> – deb yozgan edi. Bu V.A.Uspenskiy tomonidan Shashmaqom turkumining birinchi marotaba nota yozuviga tushirilishida A. Fitratning ulushi nechog'liq katta ekanligiga yana bir misol bo'la oladi.

Uspenskiy Shashmaqomni notaga yozib olish jarayonida o'zi uchun yangi va tushunarsiz bo'lgan ko'p voqealarga duch keldi. U bunday vaqtlarda Fitratdan tashqari do'sti, Moskva konservatoriyasining professori, taniqli etnomusiqashunos olim Viktor Mixaylovich Belyayevdan maslahat olgan. Uspenskiy Belyayevga o'zining amaliy ishlarini jo'natib, samimiy fikrini, maslahatlarini va notalashtirilgan kuy va ashulalarni tahrirlab berishini so'ragan. Ular o'z yozishmalarida asosan o'zbek, turkman va tojik musiqasi bo'yicha, qolaversa, o'zlari haqida va sodir bo'layotgan voqealar xususida juda qiziqarli, ayni vaqtda esa qimmatli ma'lumotlarni keltirishgan. Uspenskiy orqali Belyayev ham o'zbek musiqasiga, xususan, Shashmaqomga juda qiziqib qoladi: "Hozirda asosan Shashmaqom ustida juda ko'p ishlayapman. Bu juda ham qiziqarli (...) O'zbek tilini o'rganyapman. Fitrat kitobidan 15 ga yaqin betni tarjima qildim. Shashmaqom bo'yicha har-xil jadvallar tuzdim, uning tuzilishi aniq ko'rinib turibdi"<sup>53</sup> – deb yozgan edi do'sti Uspenskiyga.

V. A. Uspenskiy notalashtirgan Shashmaqom yana shunisi bilan ahamiyatliki u Buxoro maqomlarining bilimdonlari, amir saroyida uzoq vaqt ishlagan, tajribali maqomdonlardan bo'lgan Ota Jalol Nosirov

<sup>51</sup> Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1993. 51-52-betlar.

<sup>52</sup> V. A. Uspenskiy. Stati. Vospominaniya. Pisma. Tashkent – 1980. 227-b.

<sup>53</sup> V. A. Uspenskiy. Stati. Vospominaniya. Pisma. Tashkent – 1980. 249-b.




(1845-1928) hamda tanburchi Ota G'iyos Abdug'ani (1859-1927) ijrolaridan yozib olingan.

Ota Jalol – Shashmaqomning yirik bilimdoni, murakkab musiqiy usullar ustasi, mohir tanburchi, bastakor va shubhasiz benazir hofiz bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda 15-16 yoshidayoq Shashmaqomning olti saraxborini to'la o'zlashtirib, mohirlik bilan ijro etgan. Uning dovrug'i Buxoro amiri Muzaffarxon qulog'iga borib yetadi va 20 yoshlar atrofida bo'lgan ulkan iste'dod sohibi amir tomonidan saroy hofizi etib tayinlanadi. Keyinroq esa saroy xonanda va sozandalariga boshchilik qiladi. U uchta amir davrida (Amir Muzaffarxon, Abdulahadxon, Olimxon) saroyda xizmat qilgan va qadimiy bebaho yodgorlik – Shashmaqomni o'z xotirasida mukammal saqlab, notaga yozib olinishida asos bo'lib xizmat qilgan buyuk hofiz edi.

Ota G'iyos – Buxorolik mohir sozanda-tanburchi. 1924-yilda nashr etilgan Shashmaqom nota to'plamining Mushkilot bo'limi aynan Ota G'iyos boshchiligida yozib olingan. Bu ikki ulug' Shashmaqom ustozlarining yana bir ulkan xizmati shuki, ular o'zlaridan munosib izdoshlar, shogirdlar yetishtirib ko'hna va boy an'analarni rivojlantira oldilar. Shashmaqom nota to'plamini yaratish jarayonida ular boshchiligida hay'at komissiyasi tuzilib V.A.Uspenskiy notaga tushirgan mumtoz musiqamiz namunasi ustidan aynan Ota Jalol va Ota G'iyos hukm chiqarganlar.

Vaqt o'tib ustozlarning ustози bo'lgan ikki buyuk san'atkorlar ijrosidan yozib olingan Shashmaqom o'zining originallik xususiyati bilan katta ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan ular o'z davrlarida Shashmaqomning "jonli kitob"i bo'lib, saroy ahli va keyinchalik xalq uchun beminnat xizmat qildilar, bebaho merosni kelajak avlod vakillariga yetib borishida ulkan hissa qo'shdilar.

Biroq, bunday mashaqqatli va mas'uliyatli, murakkab va o'z davri uchun olamshumul bo'lgan vazifani amalga oshirish oson bo'lmadi, albatta. Shashmaqom nota to'plamining V.A.Uspenskiy tomonidan tayyorlangan ilk nashri kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, Shashmaqomning asosini tashkil etuvchi ikki muhim omil – parda hamda usul masalasi va boshqa bir qancha jihatlardan kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Unda Shashmaqomning Nasr deb atalmish ashula bo'limi tanbur ijrosida yozib olinib, she'r matni esa yozilmay qoldi.



Keyinchalik Shashmaqom nota to'plamining takomil nashrini yaratgan ulug' bastakor, mahoratli sozanda va hofiz, maqom xazinaboni deya yuksak e'tirof etiladigan, akademik Yunus Rajabiy o'zining "Музыка меросимизга бир назар" deb nomlagan kitobida Shashmaqomning ilk nashri xususida quyidagi so'zlarni bitgan edi: "Bu Shashmaqomni notaga olishdagi dastlabki qadam bo'lib, ba'zi kamchiliklardan xoli emas edi. Shunga qaramay, ushbu kitobning nashr etilishi o'zbek muzika madaniyatida muhim hodisa bo'ldi"<sup>54</sup>. Darhaqiqat, u kamchiliklariga qaramay ulkan ahamiyatga molik bo'lgan hodisa bo'lib, kelgusi nota to'plamlari uchun ham asosyo'riqnoma vazifasini o'tadi.

Nima bo'lgan taqdirda ham uzoq tarixiy murakkab yo'lni bosib o'tgan va ne-ne mashaqqatlar ila bugunda ham vojib bo'lib turgan Shashmaqom va u haqidagi har bir tarixiy aniq ma'lumot benihoya qimmatlidir. Tarixiy tajribani mukammal o'rganib, yaxshi o'zlashtirib, "bir yoqadan bosh chiqarib" Shashmaqomni rivojlantirishga harakat qilsak unga bo'lgan qiziqish va uni keng ko'lamda o'rganish nafaqat O'zbekiston va Tojikiston hududida, balki, xalqaro miqyosda ham amalga oshishiga umid bildiramiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В. А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. Составитель: И.А.Ақбаров. Ташкент, Издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1980.


2. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1993.

3. Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. ("O'zbek xalq muzikasi" (I-V tt.) va "Shashmaqom" (I-VI tt.) nashriga izoh va tuzatishlar). Toshkent, G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

4. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.

5. Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. Toshkent, "San'at", 2006.

<sup>54</sup> Yunus Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. Toshkent, 1978. 10-bet.



6. Народные музыканты Узбекистана. К.Алимбаева, М.Ахмедов. Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР. Ташкент, 1959.

7. O'zbekiston xalq sozandalari, II kitob. Tuzuvchi va muharrir K.Olimboeva. G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1974.

8. Rajabiyxonlik. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1-to'plam). Tuzuvchilar: A.F.Nazarov, O.A.Ibrohimov. Toshkent, 1993.

9. San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 1998.

10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi I-XII tt. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000-2006 yy.

11. O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar). "Sharq" nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2001.



## TALABALARGA MUSIQIY TA'LIM-TARBIYA BERISHDA MUMTOZ ASHULACHILIK SAN'ATINING AHAMIYATI

**Qobuljon TOSHTEMIROV,**

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

**Annatsiya:** Ushbu maqolada talabalarga musiqiy ta'lim – tarbiya berishda mumtoz ashulachilik san'atining ahamiyati, uning ilmiy mazmuni va o'rni, mohiyati yoritilgan. Talabalarga musiqiy ta'lim – tarbiya berishda mumtoz ashulachilik san'atining kasbiy mahoratini takomillashtirish bo'yicha zamon talabiga javob beradigan, har tomonlama keng bilim doirasiga ega bo'lgan, mustaqil fikr yuritadigan yuqori malakali ijrochi va o'qituvchi – mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mumtoz ashulalarning g'oyaviy ta'siri orqali talabalarni keng dunyo qarashli, ahloqli, yorqin tafakkurli, teran fikrli shaxs sifatida jamiyatda o'rin egallashlari haqida ilmiy qarashlar bayon etilgan. Maqolada ijrochilikni ushbu oqimini rivojlantirish uchun, bajarilishi zarur bo'lgan ilmiy – amaliy ishlar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mumtoz ashulachilik san'ati, xonandalik, musiqiy ta'lim - tarbiya, musiqiy did, musiqiy zavq, milliy madaniyat, g'azal.

**Аннотация:** В данной статье выделены значение искусства классического пения в музыкальном воспитании учащихся, его научное содержание, место и сущность. Подготовка высококвалифицированных исполнителей и педагогов, обладающих широким кругозором и самостоятельным мышлением, отвечающих требованиям времени, для повышения профессионального мастерства классического пения в музыкальном образовании и воспитании учащихся является актуальным вопросом на сегодняшний день. один из вопросов. Изложены научные взгляды на то, как через идеологическое влияние классической песни учащиеся могут завоевать место в обществе в качестве широко мыслящих, нравственных, светлых и глубоко мыслящих людей. В статье показана научная и практическая работа, которую необходимо провести для развития этого потока производительности.



**Ключевые слова:** Классическое певческое искусство, пение, музыкальное образование, воспитание, музыкальный вкус, музыкальное удовольствие, национальная культура, газель.

**Abstract:** In this article, the importance of the art of classical singing in the musical education of students, its scientific content, place, and essence are highlighted. The training of highly qualified performers and teachers, who have a broad range of knowledge and independent thinking, who meet the requirements of the time to improve the professional skills of classical singing in musical education and upbringing of students, is a topical issue today. Is one of the issues. Scientific views on how students can gain a place in society as a broadminded, moral, bright-minded, and deep-thinking person through the ideological influence of classical songs are stated. The article shows the scientific and practical work that needs to be carried out to develop this stream of performance.

**Key words:** Classical singing art, singing, musical education - upbringing, musical taste, musical pleasure, national culture, ghazal.

O'zbek mumtoz ashulachilik san'ati milliy madaniyatimizning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasi hisoblanadi. Uning kurtaklari uzoq o'tmish davrlardan boshlab vujudga kelgan. Dastlab insonlar asta-sekin turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr va mulohazalarini obrazli harakat, tovushli belgilar orqali tasvirlash, bayon etish ko'nikmalarini yarata boshlaydilar. Mehnat jarayonining rivoji, kishilar tajribasi va ongining taraqqiyoti musiqa san'ati rivojlanishi uchun zamin yaratgan.

Musiqiy tajribasining o'sishi, musiqiy did va zavqning takomillashib borishi xilma-xil musiqiy shakllarni, musiqiy janrlarni vujudga keltiradi. Shu tariqa o'zbek musiqa madaniyatida mumtoz ashulachilik san'ati shakl topdi va hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy hayotimizda ham rivoj topmoqda.

Ma'lumki, qaysidir xalq yoki millat to'g'risida ma'lum bir tuhuncha, tasavvurga ega bo'lish uchun, uning madaniy merosi, san'ati, adabiyotidan xabardor bo'lish kerakdir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, xalqning ma'lum tarixiy bosqichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy turmush tarzi, hayotiy qarashlari, orzu umidlari, urfodatlarini o'zida mujassam etgan xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom



ashulalarini o'rganish yetarlidir. Chunki xalq musiqa san'ati umuminsoniy g'oyalarni tarannum etishi bilan o'zida, milliy g'oya va mafkuraning eng muhim tendensiyalarini ifoda etadi.

O'zbek mumtoz ashulachilik san'ati, musiqa merosiga mansub turli janrlarda yaratilgan namunalarni o'rganish, g'oyaviy- badiiy mazmunini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki ularda Vatanparvarlik, tabiatni sevish, insoniy hislatlardan halollik, mehnatsevarlik, ona tabiatga, jamiyatdagi insonlarga mehr-muhabbat, tinchlikni qadrlashga, Vatan ravnaqi uchun o'zini yo'naltirishga targ'ib etish tarannum etiladi. Mana shunday badiiy, yetuk qiymatga ega san'at namunalari yosh avlodni milliy g'oya va milliy mafkura ruhida, qolaversa barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amal qilinayotgan ta'limning barcha bo'g'inlari va bosqichlarida, xususan musiqiy ta'lim-tarbiyaning eng asosiy shakllantiruvchi bosqichi, bo'g'ini bo'lmish yani oliy ta'limda talabarni milliy musiqa merosimizning eng noyob namunalari hisoblanmish - xalq qo'shiqlari, ashulalari, kuylari va xalq mumtoz musiqasining asosi bo'lgan maqom san'ati bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda yuksak madaniyat va ma'naviyatni shakllantirishga dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirilishi uchun, natijada quyidagi imkoniyatlarini oshirishga olib keladi:


1. Ta'lim - tarbiyani milliy o'zagini mustahkamlashga xizmat qiladi;

2. Yosh avlodni milliy o'zligini yorqin his etishlariga, tushinishlariga olib keladi;

3. Yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda mumtoz ashulachilik imkoniyatlarini oshirishga olib keladi.

"Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz" [1].

O'zbek mumtoz ashulachilik san'ati mohiyatan o'laroq inson omilini tadqiq qilish va dunyo qarashlarini badiiy o'zlashtirishning muhim tamoyillaridan hisoblanib, insonni ruhiy, axloqiy kamolotining shakllanishida, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida yetakchi tarmoqlardan biridir.



Mumtoz musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlar mavjudligi, qadim davrlardanoq musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga jalb etgan. Ular milliy mumtoz musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashgan.

Talabalarga musiqiy ta'lim - tarbiya berishda mumtoz ashulachilik san'atining ahamiyati - muhim, bugunning dolzarb jihatlaridan biridir. Sababi shundaki: Mumtoz ashulalarning aksariyatida foydalanilgan she'r va g'azallar insonni bir so'z bilan aytganda komillikka chorlovchi mazmunga egaligidir.

Jadal rivojlanayotgan zamonaviy ta'lim - tarbiya jarayonida, o'tmish milliy an'analarga tayanib yangicha qarash, fikrlash bilan bir qatorda ilg'or rivojlangan kompyuter texnologiyalardan munosib foydalanish hamda, komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

"Musiqiy ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti butun madaniyatimiz bilan chambarchas bog'liqdir. Insoniyat madaniyatining boshqa sohalarida bo'lgani kabi musiqada ham uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish jarayonida muhim xususiyat va qonuniyatlar yorqin namoyon bo'ladi" [2].

An'anaviy xonandalik fani "Musiq ta'limi" yo'nalishida ta'lim jarayonini tashkil etishda eng asosiy yetakchi fan hisoblanadi. An'anaviy xonandalik fani repertuarida asosan "Shashmaqom" tarkibidagi ashulalar, o'tmish bastakorlar ijodidan namunalari, mumtoz ashulalardan foydalanilgan. An'anaviy xonandalik fanida talabalar mumtoz ashulachilik san'ati orqali milliy ustozona qo'shiqchilik san'ati an'alarini chuqur o'rganadilar. Mazkur fanning maqsadi yoshlarga milliy qadriyatlarimizning eng noyob durdonasi sanalmish ustozona kasbiy ijrochilik mahoratini o'rgatish orqali talabalarda milliy an'alarimizga nisbatan mehr-muhabbat, vatanparvarlik, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Madaniyatning tarkibiy qismlaridan sanalmish musiqa san'ati - kishilarning ma'naviy - ahloqiy dunyo qarashini kengaytradi. Musiqa o'ziga xos sehri va mo'jizaviy ta'sirga egadir. Musiqa san'ati kishilarni yaxshilikka chorlaydi va yomon ishlardan qaytaradi. Musiqa san'ati albatta tarbiya vositasidir. Nafaqat musiqa, ayniqsa mumtoz ashulalar ana shunday xususiyatlarga egadir. Mumtoz ashulalarning so'zlari



kishiga ta'sirchan, pand - nasihat, tarbiyaviylikka, yaxshilikka chorlovchi bo'ladi. Shuni ham qo'shimcha qilib aytish kerakki, biror tarbiyaviy maqsad yoki nasihatimiz fikrini so'z bilan uqtirgandan ko'ra ashula orqali etkazish oson kechadi. Ushbu fikr musiqaning o'ziga hos ta'siri tufayli kishi ongiga tez etib boradi. Demak, mumtoz ashulalar har doim, har zamonda, yoshlarga ta'lim – tarbiya berishda zarur nazriyalardan biridir.

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi - bu sharsqona qarash, sharkona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so’zlarini eslayman. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so’zlari o’tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, horzirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko’ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Milliy mumtoz ashulalarda buyuk mutafakkir va faylasuflar, yaqin o’tmishda ijod etgan shoirlarning she’r va g’azallaridan keng foydalanilgan. Foydalanilgan g’azal va she’rlarning g’oyasi xususan ona vatanga sadoqatli bo’lishga, ustozni qadrlashga, ota-onani ulug’lashga, kattalarga hurmat – kichiklarga izzatda bo’lishga, aka va ukalar orasidagi mehr – oqibatni asrashga, do’stlik rishtalarini mustahkamlash va shu kabi ezguliklarga chorlashdan iboratdir.


Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga birinchi navbatda milliy an’analarimizdan hisoblanmish “Alla”ga murojaat etamiz. “Alla” shaxsning ma’naviy kamolotida etakchi o’rinni egallaydi. Chunki bolaning beshikdaligidayoq onalar tomonidan vatanni sevish, asrab – avaylash kabi bir qator ijobiy fikrlar bilan boyitilgan so’zlardan foydalaniladi.

“Allalarda onalarga xos bo’lgan bag’ri kenglik, quyoshday mehribonlik, mayin, dil qa’ridan sizib chiqqan kuylarda taraladi.”

Senga qo’ydim yaxshi ot, alla,

Yaxshi niyatdir murod, alla, Yurt-u elga suyansang, alla, Senga bo’lg’usi qanot, alla [4].

Bolaning ruhiyatiga, qalbiga qay darajada ezgu niyatlarni sola olsak, ularning kelajakdagi kamoli shunchalik bo’y ko’rsatadi. Buning uchun ona allasi beqiyos ahamiyat kasb etadi.



Milliy qadriyatlarimizni e’tiborli jihatlaridan yana biri “Oila”. Oila maktabida inson omili shakllanadi. Bunda oila boshliqlari hisoblanmish ota va onaning farzandiga bergan tarbiyasi beqiyosdir. Tarbiya berish bilan bir qatorda, zimmasida bir qancha vazifalari mavjud. Mavjud vazifalarni bajarar ekan – samimiylik, mehr – muhabbat, farzandi kamolini ko’rish asosiy maqsadi. Shu o’rinda farzandlarning ham bir qator mas’uliyatlarini aytish joiz. Farzandlar ota – onalarini har qachon hurmat qilishi, farzandlik burchlarini ado etishlari, keksaygan chog’larida ularga tayanch bo’lishlari muhimdir. Bu borada ko’plab hadislar, ibratli hikoyalar, hayotiy voqealar tasvirlangan filmlar, faylasuflar va mutafakkir olimlar hamda shoirlarning nasihatimiz hikmatlari, g’azallari va she’rlarini uchratishimiz mumkin.

Ota-onaga nisbatan hurmat va muhabbat, hech shubhasiz, muqaddas tuyg’udir.

*V.G.Belinskiy.*

...Ota-ona qalbi, bu eng olijanob hakam, eng yaxshi do’st, bu alangasi intilishlarimizning muqaddas majmuasini isitadigan muhabbat quyoshi!

*K.Marks.*

Ota-onaga muhabbat — barcha yaxshi fazilatlarining asosi.

*Sitseron.*

Biz hamisha qarzdor bo’lgan eng ulug’ zot onadir.

*N.A.Ostrovskiy.*

Ona qalbi bitmas-tuganmas mo’jizalar manbaidir. P.Beranje.

Boshni fido ayla ato qoshiga,

Jismni qil sadqa ano boshiga.

Tun, kuningga aylagali nurposh

Birsin oy ayla, birsin quyosh.


*A.Navoiy*

O’zbek milliy mumtoz ashularimizda ham bu borada ko’plab asarlar ijod etilgan.

O’zbekiston xalq hofizi Orifjon Hotamov ijro etgan “Ey o’g’il” (Salohiy g’azali) ashulasi ham tarbiyaviy, yoshlarga pand – nasihat beruvchi asarlardan biridir.

“Ey o’g’il haddingda tur otang seni sotganda ham,

In chunun mushfqi onangni so’zlari botganda ham”.



Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin-ki, mumtoz ashulachilik san'ati insonni axloqiy, madaniy-ma'rifiy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, ayniqsa ona yurtimiz mustaqillikka erishgan davrlaridan boshlab, jamiyatda mumtoz ashulachilik san'ati va uning taraqqiyotiga katta e'tibor berib kelinmoqda.

O'zbek mumtoz ashulachilik san'ati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, hayoti oliy insoniy faoliyatlari, badiiy ma'naviyati istiqloq va mustaqillik uchun kurashi, orzu umidlari aks etadi.

Talabalarga musiqiy ta'lim – tarbiya berishda mumtoz ashulachilik san'atining maqsadi yosh avlodni, maktab o'quvchilarini, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazib tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun talabalarlar mumtoz ashulachilik san'atining butun nafosati, go'zalligi bilan o'rganishlari, uni badiiy idrok etish, jamoaviy tarzda kuylash, ijrochilik malakalarini egallashlarida

“An'naviy xonandalik” darslarida keng foydalanish talab etiladi. Xullas, komil insonni tarbiyalashda mumtoz ashulachilik san'ati asarlarining ahamiyati juda kattadir. Bunday ijro asarlaridan samarali foydalanishimiz lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyevning Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi 07.09.2018-yil №185 (7143)

2. Ergashev M.I. (2021) Issues of use of uzbek traditional music culture in the educational process International Journal of Advanced Research in IT and Engineering.


3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. II-nashr T-2011.

4. Qodirov D. “An'anaviy qo'shiqchilik” o'quv qo'llanma T-2007.

5. Isroilova H. An'anviy hofizlik san'ati T – 2007.

6. Ortiqov “T. Musiqa va unga munosabatlar tarixi” T – 2015.

7. Umarov A., Mannopov S., I.Qirg'izboyev “Umr boqiy navolar va ularning ijro yo'llari” Farg'ona – 2012.



## O'ZMTRK TIZIMIDA AYOL XONANDALARNING IJRO IMKONIYATLARI HAQIDA

**Durdona SHODMONOVA,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI  
2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: **Oygul AXMEDOVA,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI  
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.

**Annotatsiya:** O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tarkibiga kiruvchi bir nechta telekanallar va radiokanallarda musiqa sohasini yorituvchi loyihalar tashkil etilgan. Aynan mana shu loyihalar orasida o'zbek mumtoz musiqa san'atiga, maqomlarimizga bag'ishlangan loyihalar ham mavjud bo'lib, ularda maqom san'atining tarixi, rivojlanish jarayonlari, ilmiy va amaliy o'rganilishi, xonandalarning faoliyati, jonli ijrosi va shu kabi ko'plab maqsadlarni amalga oshirishga intilgan loyihalar ham mavjud. Ushbu maqolada O'zMTRKda mavjud telekanallardagi musiqiy loyihalar va ulardagi ayol xonandalarning ijro imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ayol xonanda, ijro imkoniyatlari, maqom san'ati, loyiha, teleko'rsatuv.

**Аннотация:** Ряд телеканалов и радиоканалов, входящих в состав Национальной телерадиокомпании Узбекистана, организовали проекты, охватывающие музыкальную сферу. Среди этих проектов есть и проекты, посвященные искусству узбекской классической музыки, нашим макамам, которые включают в себя историю, процессы развития, научно-практическое изучение искусства макамов, деятельность певцов, живые выступления и так далее. также есть проекты, которые направлены на реализацию многих целей. В данной статье рассматриваются исполнительские возможности певиц в системе УзМТРК.

**Ключевые слова:** певица, исполнительские возможности, искусств маком, проект, телепередача.

**Abstract:** A number of TV and radio channels that are part of the National Television and Radio Company of Uzbekistan have organized



projects covering the music field. Among these projects there are also projects dedicated to the art of Uzbek classical music, our maqams, which include history, development processes, scientific and practical study of the art of maqams, the activities of singers, live performances and so on. there are also projects that are aimed at realizing many goals. This article discusses the performance capabilities of singers in the UzMTRK system.

**Key words:** singer, performance possibilities, poppy arts, project, telecast.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi - O'zbekiston televideniye va radio axborot tarqatuvchi tashkiloti sanaladi. 1957-yil O'zbekiston radioeshitirish va televideniye qo'mitasi sifatida tuzilgan. 1992-yil 7-yanvarda O'zbekiston Davlat Teleradioeshitirish kompaniyasiga, O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 7-mayidagi Farmoni bilan esa O'zbekiston Teleradiokompaniyasi (O'zteleradio)ga aylantirilgan. O'zbekistonda televizion ko'rsatuvlar 1956-yil 5-noyabrda Toshkentda boshlangan. O'zteleradiokompaniya teledasturlari sutkasiga o'rtacha 51,5 soat davomida asosan o'zbek, rus, shuningdek, qozoq, qirg'iz, tojik, uyg'ur, turk, koreys, nemis tillarida efirga uzatiladi. O'zbekiston radiosi 1926-yildan buyon eshittirish berib keladi. O'zteleradio 4 ta respublika kanallari orqali radioeshittirishlarni efirga uzatadi. Radioeshittirishlarning kundalik o'rtacha hajmi 91,7 soat.

O'zbekiston radio uyida faoliyatini bir necha yillar davomida olib borgan "Mahalla" radiokanali (Avval "Mash'al" deb nomlangan) xalqimizning eng sevimli radolaridan biri edi. Sababi aynan mana shu radiokanal orqali boshqa radiolarda taqdim etilmaydigan, kamyob musiqiy asarlar, o'zbek mumtoz musiqalari, maqomlar taqdim etiladi va ushbu asarlar hamda ularning ijrochilari haqida ham ma'lumotlar yebiriladi. Xususan, ushbu radiokanaldan bir necha yillardan beri taqdim etib kelinayotgan "Mumtoz navolar" eshittirishini olaylik. O'zbekiston radio uyining oltin fondida RV53407 raqami bilan saqlanayotgan sonida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nazira Yusupovaning ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ushbu eshittirishda bildirilishicha: "Nazira Yusupova 20 yoshida ya'ni 1944-yildan Xorazm viloyat teatriga ishga taklif etiladi. Shu davrdan boshlab



yosh xonanda konsertlarda o'zbek mumtoz ashulalaridan Feruz, Talqini Rost, Yorni guli galdi, Rost Faryodi Ushshoq kabi asarlarni kuylab muxlislar olqishiga sazovor bo'la boshladi. Nazira Yusupovaning jozibali "xalqumli" ovozi o'ziga xos bo'lib, hali u ijro etgan ashulalarni, ayniqsa "Feruz"ni boshqa ayol xonandalar u darajada maromiga yetkazib ijro qila olmaganlar."

Bundan tashqari "Mumtoz navolar" eshittirishining oltin fondagi RV53907 raqamli yozuvi O'zbekiston qahramoni Munojot Yo'lchiyevaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan. RV52650 raqamli yozuvda esa Munojot Yo'lchiyevaning "Farg'ona eshvoyi" ashulasini ijro etganligi haqida ma'lumot berilgan, ya'ni: "Atoqli sozanda va bastakor Shavkat Muhammedov asli Farg'ona vodiysida ham cholg'u kuyi sifatida ma'lum bo'lgan "Farg'ona Eshvoyi"ga she'r qo'yib, ijodiy izlanishlar qilgan hamda shogirdi, O'zbekiston xalq artisti Munojot Yo'lchiyevaga o'rgatgan.", deyilgan va bu borada O'zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovanning fikrlari ham keltirilgan: "Yetuk xonanda O'zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovanning ta'kidlashicha, bunday ijrochilik mahoratiga ega bo'lish maqsadida ustoz Shavkat Mirzayev shogirdi Munojat Yo'lchiyeva uchun o'z vaqtini ayamay soatlab mashq qilishar ekan. Hatto hozirgi kunda ham biror bir yangi o'rganilgan asarni xalqqa namoyish etishdan oldin oylab yillab tayyorlab yurib, meyyoriga yetganidan keyin konsertlarda ijro etadi. xonanda ijrosidagi aynan mana shu asarning oltin fondida saqlanayotgan nus'hasi eshittirilgan.". Ushbu fikrlardan so'ng munojot Yo'lchiyeva ijrosida "Farg'ona eshvoyi" asarining oltin fondida saqlanayotgan nus'hasi eshittirilgan.

"Mumtoz navolar" eshittirishining Berta Davidovanning ijodiga mansub soni ham bor. Bu eshittirish RV 54872 raqami bilan oltin fondida saqlanmoqda. Unda shunday deyilgan: "1943-yildan O'zbekiston radiosi qoshidagi xor jamoasidahizmat qilish birga milliy an'analarimizga xos ashulalarni o'rganib, ijro qildi. Bu ijrolarini dovrug'i O'zbekiston xalq artisti, Akademik Yunus Rajabiy nazariga tushdi. Shu kundan e'tiboran ustoz Yunus Rajabiy Berta Davidovani maqom ansambliga qabul qildi. Shu davrlarda Berta Davidovanning ijrosi mukammal va keng ko'lamlı ovozi shakillanib ulgurgan edi. Ayniqsa maqom ijrosida aniq talaffuz hamda keng ko'lamlı ovozlar muhim bo'lgan bir paytda Berta Davidova kabi mohir xonandalar



maqom ansambliga taklif etilishi ayni muddao bo'ldi. Berta Davidova keyinchalik Yunus Rajabiy rahbarligidagi maqom ansamblining yetakchi xonandasi sifatida Talqini Bayot, Nasri Bayot, Ufori Bayot, Orazi Navo, Saraxbori Oromijon, Oromijon, Munojot, Fig'on va boshqa mumtoz ashula va maqom yo'llarini nozik ta'blik bilan maromiga yetkazib ijro etgan. Uning ijro uslubiga maqomlarning asl parda va ohanglarini ijodiy o'zlashtirgan holda ovozga ortiqcha zo'r bermasdan, ravon va ta'sirli holatlarda talqin etgan. Xonanda ovozidan an'anaviy tanbur va dutor ijrochiligiga xos bo'lgan nafis uyg'unlik mavjud." bu fikrlarga hamohang ravishda Berta Davidova ijrosida "Sayri gulzor etgali", "Tomoshho qil", "Munojot", "Yor bilmading" kabi noyob yozuvlari taqdim etilgan. Umuman "Mumtoz navolar" eshittirishining ushbu soni boshqa loyihalardan tamoman boshqa uslubda tayyorlangan bo'lib, unda xonanda va uning ijodi, ijro etgan asarlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Berta Davidovanning ijodiga bag'ishlangan eshittirishdan keyingi son ya'ni oltin fondida RV54873 va RV54874 raqamlari bilan saqlanayotgan sonlarida O'zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovanning ijodi va milliy san'atimizga qo'shgan hissalar haqida so'z yuritilgan. Ushbu eshittirish orqali radio uyining oltin fondida Kommuna Ismoilovanning qaysi asarlari saqlanayotganini ham bilish mumkin. Ya'ni eshittirishda shunday ma'lumot berilgan: "1959-yildan boshlab Faxriddin Sodiqovning "Xumor", "Ey chexrasi tobonim", Bir go'zal", "So'lim bahor", Sayfi Jalilning "Yoshlik chog'imda", Sayidjon Kalonovning "Zebo o'lkam", "Do'ppi tikdim", Komiljon Jabborovning "Shifokorlar", Doni Zokirovning "Mirzacho'l qizlari", Fattox Nazarovning "Mehnat nashidasi", Sobir Safoyevning "Yor maktubi" va bir qator maqom namunalarini radioning oltin fondiga yozdirishga muvaffaq bo'ladi". Mening nazarimda bu ma'lumotlar ham juda qimmatli. Chunki bunday asarlar xalqimizning mulkiga aylangan va uni nafaqat radioto'lqinlar orqali, balki yoshlarning doimiy manziliga aylanib ulgurgan internet tarmoqlari orqali ham targ'ib etishimiz muhim.

"Mahalla" radiokanali orqali taqdim etilgan va yozuvlari arxivda saqlanayotgan "mumtoz navolar" eshittirishining yana boshqa sonlarida ham bir nechta ayol xonandalar haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shu o'rinda, "Yoshlar" radiokanalida taqdim etilgan "O'zbek mumtoz



musiqasi" nomli loyihasi haqida ham to'xtalamiz. Ushbu loyihaning yaratilish uslubi "Mumtoz navolar" eshittirishining uslubidan tubdan farq qiladi. "Mumtoz navolar" da bevosita ijodkorlar haqida gapirilib, so'ng asar taqdim etilsa, "O'zbek mumtoz musiqasi" loyihasining har bir sonida o'zbek mumtoz musiqasi namunalaridan biri, yoki birgina maqom asari haqida ma'lumot berish orqali uning ijrochilari bilan ham tanishish mumkin.

Milliy musiqa madaniyatini asrab-avaylayotgan xalq qo'shiqchilari va musiqachilarining ijodiy faoliyati katta g'oyaviy-badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ularning san'ati keng doiradagi tinglovchilar qalbiga yetib boradi va ko'pincha tinglovchilarni musiqaga oshno qilib qo'yadi. O'zbek musiqa tarixida ularning o'rni beqiyosdir. Musiqa san'atida yangi zamonaviy shakl va janrlar vujudga kelishi ham ko'p jihatdan ularning ijodi bilan bog'liq. Ko'pgina qo'shiqchi va musiqachi ayollarning nomlari, ularning, ularning ajoyib asarlari xalq o'rtasida mashhurdir. Ular xalq badiiy an'analarini yosh qo'shiqchi va musiqachilarga yetkazish bilan birga o'zlari ham Raxima Mazohidova, Lazokat Nurimova, Oyxon Yoqubova, Oylaxon Xasanova kabilarning ijrochilik an'analarini davom ettirdilar. Ularning doira jo'rligida ijro etgan to'y-marosim, lirik va maishiy qo'shiqlar, laparlar va yallalar keng ommalashib ketgan. Ular unitilgan ko'pgina qo'shiqlarga yangidan "jon" bag'ishladilar va taqdim etdilar.

Ana endi, televideniye ko'rsatuvlari orqali taqdim etilayotgan loyihalar, ko'rsatuvlar haqida to'xtalsak. "Navo" telekanali orqali musiqa olamiga taalluqli loyihalar taqdim etib borilmoqda. Ana shu loyihalar ichida "Zebo pari" ko'rsatuvi o'zbek mumtoz musiqalari, maqomlarimiz va ularning ijrochilari haqida ma'lumot beradi va jonli ijrolarni taqdim etadi. Ma'lumotlar esa mutaxassis ekspertlar tomonidan taqdim etiladi. Ekspertlar sifatida esa asosan Yu.Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom xonandaligi" va "Maqom ijrochiligi" kafedrasida ustozlari, dotsent va professorlari, O'zbekiston xalq artistlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar taklif etiladi. "Zebo pari" ko'rsatuvining sonlaridan birida rahmatli Mahmudjon Tojiboyev ekspert sifatida taklif qilinganlarida maqomga shunday ta'rif berganlar: "Agar Shashmaqomning umumiy ko'rinishini qal'aga qiyoslasak, har bir maqom turkumini uning olti darvozasiga o'xshatish mumkin. Bu darvozalar esa ikki kalit – parda va usul bilan



ochiladi. O'xshatishni davom ettirsak, qal'a ichidagi mahallalarni cholg'u, ashula va raqs bo'limlariga, ko'chalarini esa katta – kichik kuy va ashula yo'llari deb faraz etish mumkin. E'tibor beraylik, ikki kalit ham maxsus musiqiy tushunchalardir. Chunki "parda" she'riyat, naqqoshlik yoki boshqa san'at turlariga xos emas. Maqom usullari ham she'riy vaznlardan sezilarli farq qiladi. Bundan anglash mumkinki, maqom – o'ziga xos musiqiy mantiq asosida tarkib topgan.". Juda chiroyli o'xshatish, nazarimizda. Ustoz, aynan mana shu ko'rsatuvda ayol xonandalarning maqom ijrochiligidagi o'rni haqida ko'plab ma'lumotlarni berganlar va ko'rsatuv davomida ayol xonandalar ijrosida jonli ijrolar taqdim etilgan.

"Madaniyat va ma'rifat" telekanalida taqdim etilgan "Estradadan maqomgacha" deb nomlangan yirik loyiha haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Chunki bu loyiha estrada janrida ijod qilib yurgan erkak va ayol xonandalarga maqomdon ustozlar dars beradilar va ularga maqom janridagi asarlarni ijro etish o'rgatiladi. Bu juda qiziqarli loyiha bo'lib, unda ishtirokchilarni kuzatish bilan birga ularning ovozdagi, ijro uslubidagi, mahoratidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatuvdan ko'rsatuvga o'tish jarayonida kuzatib borish mumkin. Uning shu kunga qadar bir nechta mavsumi tasvirga olindi, bar nechta xonandalar ishtirok etib, maqomlarimizdan, ularni ijro etish uslubidan bahramand bo'ldilar. Uning 3-mavsumiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu loyida Yu.Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom xonandaligi" kafedrasida dotsent va o'qituvchilari mentor sifatida ishtirok etganlar. Ulardan dotsentlar Nodira Pirmatova, Shavkat Matyoqubov, katta o'qituvchi Mohichehra Shomurotovalarning mehnatini alohida tilga olib o'tish joiz. Aynan mana shu loyihada mentor sifatida ayol xonandalarning ishtirok etishi har qanday tinglovchi va tomoshabinni xursand qiladi. Loyihada asosan ayol xonandaga ayol ustoz mentorlik qiladi va maqom san'atiga taalluqli bo'lgan biror asarning ijrosini o'rgatadi.

Loyiha O'zbekiston madaniyat va turizm vazirligi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" telekanallari bilan hamkorlikda tayyorlangan yirik loyiha sanaladi.

O'zbek xalqining musiqiy merosi mahalliy an'analarga ega bo'lib janrlarga boy. Ayollar ansambli musiqi shakli ham o'ziga xos. Bu



Farg'ona vodiysining yallachilari, Buxoro sozandalari, va Xorazm xalfalari an'analariida yaqqol namoyon bo'ldi. Uncha kata bo'lmagan ayollar ansambllari musiqiy ijodni saqlab qolish va targ'ib qilishda muxim vazifani bajarmoqdalar. Yallachi, sozanda va xalfalarning repertuarlari qo'shiq janrlarining rang-barangligi bilan e'tiborni tortadi. Ularda to'y-marosim va lirik qo'shiqlar, ashula, lapar va yallalar bir an'anaviy ansamblga uyushadi. Ular doira jo'rligida ashula aytadilar. Xalfalar ijrochilik ansamblida doira bilan birga asr yarmida garmon ham qo'llana boshlagan. Xalfalar repertuarlarida qo'shiq bilan birga, dostonlardan parchalar ham muhim o'rin tutadi. Musiqa folklori namunalari, xalq urf-odatlar, raqslari va o'yinlarini saqlab qolishda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Gulyor", Toshkent shaxri Bektemir tumanidagi "Gavhar", Qo'qon shaxridagi "Yor-yor", Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi "Onaxonlar", singari ayollar folklor ansambllarining xizmati kattadir.

Tadqiqotimiz uchun ma'lumotlar to'plash maqsadida, televideniyeining arxiviga ham murojaat etdik. U yerda bir nechta raqamlar bilan belgilangan G'anijon Toshmatov tashkil etgan ayol ijrochilardan iborat ansambl ijrosidagi konsert dasturi saqlanmoqda. O'zteleradiokompaniya "Dutorchi qizlar" ansambli chiqishlari xalq to'ylari yoki bayramlarini yodga solidi. Ijro etilayotgan milliy qo'shiqlar, raqslar, laparlar, libos va harakatlar o'zbek xalqining tafakkuri va tantiligidan dalolat beradi."Qizlar majlisi"ning ajoyib saxna ko'rinishlari O'zbekiston Xalq artisti, bastakor G'anijon Toshmatov tomonidan folklor materiallari asosida tashkil etilgan. Bu an'analarni uning shogirdi Zamira Suyunova davom ettirmoqda. Ansambl repertuarida "yor-yor" yoki "Omon yor" kabi qo'shiqlar o'zbek ayollarning to'y marosimlarining o'ziga xos jihatlari ochib beradi.

XX asrda ayollar maqom ijrochiligi rivojlandi. Munojot Yo'lchiyeva, Maryam Sattarova, Matluba Dadaboyeva, Nasiba Sattorova, Hurriyat Isroilova, Zamira Suyunova kabilarning ijodi o'zbek maqom san'atining hozirgi taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. Ularning san'ati xorijda ham mashxurdir.

Fazilat Shukurova (chang), Malika Ziyoyeva, (dutor) kabilarni an'anaviy ijrochilik san'atini rivojlantirmoqdalar. Ularning mahorati turli repertuarlarda ijro qilish imkonini bermoqda. Komila Aminova



(qo'shiq) va Malika Ziyoyeva (dutor) singari duetlarning chiqishlari an'anaviy ijrochilikning zamonaviy ko'rinishi hisoblanadi. Ularning repertuarlarida qalbga yaqin maqom asarlari anchagina.

“San'atkor o'zini xalqning vakili deb xisoblashi, ommaning tuyg'ularini aks ettirishi lozim. O'zini xalq vakili deb xisoblagan va uning orasidan o'sib chiqqan, musiqachi xozirgi davrda xalq orzu-umidlari jarchisi ifodachisi bo'lib qolishinlozim”, - deb yozadi XX asrning yirik musiqachisi Zoltan Koday.

Musiqqa ijrochisining kasbi ajoyib va sirlidir. Artistning vazifasi faqat notalarda jamlangan muallif g'oyasini yetkazib berishdan iboratdek tuyuladi. Deyarli barcha ijrochilar bastakor matni asosida ijro qiladi. Ammo ayrim ijrochilar qo'lida bu matn jonsiz narsa bo'lsa boshqalar unga jon baxsh etadi va hayajonli tovushlarga aylantiradi. Ba'zi artistlar bastakor va tinglovchi orasidagi vositachi bo'lib qolmasdan, o'zlari ham ijodkor darajasiga ko'tariladilar. Ularning shaxsiyati muallif shaxsiyati bilan uyg'unlashib, musiqani yangi, yuqoriroq pog'onaga ko'taradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. X.Isroilova-Qosimova. An'anaviy hofizlik san'ati (Yakkaxon qo'shiqchilik). Toshkent. 2007.

2. Ziyomuhamedov B. Ilm hikmati (Olim bo'lish sirlari). – Toshkent: Ibn Sino, 1999.

3. Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot / “Ma'naviyat asoslari” darsi asosida ishlangan uslub. qo'll. – Toshkent: Ibn Sino, 2001.

4. <https://konservatoriya.uz/musiqqa-jurnali/>

5. [www.maqomfund.uz](http://www.maqomfund.uz)



## BASTAKORLIK SAN'ATIDA KOMILJON JABBOROVNING SAMARALI IJODI

**Nargiza FOZILJONOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Soibjon BEGMATOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI professori, s.f.n.,*

*O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mohir sozanda va bastakor, O'zbekiston xalq artisti Komiljon Jabborovning ijodiy faoliyati yoritilgan. Komiljon Jabborovning bastakorlik asarlarini milliy musiqqa merosimizdagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Uning ijodiy merosida turli janrlarda ijod qilganligini ko'ramiz.*

**Kalit so'zlar:** *Mumtoz musiqqa, bastakor, ashula, ijro, janr.*


**Аннотация:** *В данной статье рассказывается о творчестве великого музыканта и бастакора, народного артиста Узбекистана Комилжона Джаббарова. Изучена роль и значение творчества Комилжона Джаббарова в нашем национальном музыкальном наследии. В его творческом наследии мы видим, что он творил в различных жанрах.*

**Ключевые слова:** *Классическая музыка, бастакор, песня, исполнение, жанр*

**Abstract:** *This article tells about the work of the great musician and bastakor, People's Artist of Uzbekistan Komiljon Jabborov. The role and significance of the work of Komiljon Jabborov in our national musical heritage has been studied. In his creative heritage, we see than he worked in different genres.*

**Key words:** *Classical music, bastakor, song, execution, genre.*

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mohir sozanda va bastakor, o'zbek musiqqa san'ati ijrochiligida o'ziga xos betakror g'ijjak uslubini yaratgan, zabardast san'atkor Komiljon Jabborov o'zbek an'anaviy musiqqa tarixidagi yorqin nomoyandalardan biridir. Bastakor Komiljon Jabborovning ijodidan chuqur o'rin olgan jihatlar, o'zining haqiqiy xalqchilligi, ona vatan tuyg'usi bilan sug'orilganligi, vatanga




bo'lgan muhabbati, yaratgan ohanglarida ifodalanishi bilan dilga yaqindir. Shu bois bo'lsa kerak yaratgan bir qator nozik va betakror asarlari mana necha yildir kim radio va televideniya to'liqlari orqali doimiy yangrab ramziy ohanglar sifatida gavdalanib kelinmoqda.

Komiljon Jabborov bastalagan asarlar davr ruhini yorqin ranglar bilan ifoda etganligi uchun xozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Bastakorning ijodiga mansub bo'lgan asarlar o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Uning aytim yo'lida yaratilgan ashulalari avvalo xonandalikda keng ommalashgan bo'lsada, bevosita sozlar tarannumida ham ijro etish xalq sozandalari an'anasida keng rasmga aylangan. Xususan, ashula sifatida yaratilgan asarlarni musiqiy cholg'u asboblarida kuy sifatida nay yoki g'ijjakda, tanbur yoki dutorda bo'lsin o'zining mutanosib ohangini topganligini guvohi bo'lamiz. Qolaversa, bu asarlarga murojaat etgan har bir sozanda, qalban sevib ijro qiladi va aynan "ijro etilayotgan cholg'u soz" uchun maxsus bastalangandek yoki shu asbob uchun moslashtirilganday tuyulaveradi. Zero, asar xarakterida milliy musiqiy cholg'ularimizga xos ijroviy bezaklar va sadolanishlarga moyillik jihatlar milliy va xalqona uslublar bilan sug'orilganligini e'tirof etish o'rinli bo'ladi.

Bu jarayonda avvalo asarning xalqona va mukammalligi bo'lsa, ikkinchi muhim jihati, ijrochi sozandalarimizning mahorati hamda professionallik darajasi yuksakligidan dalolat beradi. Komiljon Jabborov ijodi va ijrosini tinglagan inson tasavvurida, avvalo millatimiz o'tmishi va tarixi gavdalanadi. Bastakor ijodining o'ziga xos betakror xususiyatlaridan biri uning yaratgan durdona asrlari, kuy qo'shiqlarida xalqning milliy ohanglari ila sug'orilganligi va kuylariga yaqinligidadir.

Musiqashunos Soibjon Begmatov Komiljon Jabborovning ijodiy faoliyati haqida quyidagilarni keltiradi: "Bastakorlik ijodining ikki o'ziga xos xarakterli tomoni mavjud. Ijodining shakllanish jarayonida yetakchi ahamiyat kasb etgan – xalq musiqasi merosi namunalari va ohanglariga asoslangan asarlar. Ikkinchisi, milliy ohanglarda bastalangan original asarlar. Ularning mukammalligi o'zbek bastakorlik an'anasiga tayanganligida nomoyon bo'ladi". [2.92] Darhaqiqat, Komiljon Jabborov tomonidan yaratilgan kuylar o'zining xalqchilligi va mukammal shakl-shamoyiliga ega ekanligi bilan ijro amaliyotidan o'rin olgan. Buning zaminida bastakor Komiljon



Jabborovning bevosita sozandalik san'atidan xalq mohirlikda elga tanilgan ustozlarning ijro uslu muvaffaq bo'lganligi bo'lsa ajab emas.


Ma'lumki, bastakorning ijodiy merosida qilganligini guvohi bo'lamiz. Komiljon Jabborov qatorda Andijon dutor ijrochiligi maktabining k va mohir ijrochi namoyondalaridan biri ham uslubi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ijodini ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, zero u chang cholg'ularining har birini mahorat bilan marom uslubiga ega bo'lgan. Ayniqsa, g'ijjak va dutor ijrolari, mohirona va jozibali asarlari mumto asosida yaratilganligi tahsinga sazovordir taralayotgan kuylar ohanglari jozibador, dillarni singib borsada, ijro uslubidagi murakkabligi bila

G'ijjak ijrochiligining yuqori darajali egallagan san'atkor asarning badiiy mazmunini tovushlarning tabiiy tarovat kasb etishiga aso Tovush va ifodaviy xossasi, betakror "nola" va g'ijjak san'atidagi bosh tamoyilni belgilaydi. [3.

Bastakorning o'z iborasi bilan aytganda: qo'shiq xalqchil bo'lishi kerak. Chunki k e'tiboridadir. San'atkorning vazifasi xalq x sevinch va g'amini, sevgisini to'laligicha ij iborat". [6.4]

Komiljon Jabborovning bastakorlik uslubi ta'sirchanlik ohanglar boyligi, Farg'ona m yo'llariga moslashtirilganligi bilan ajralib tur faoliyati alohida ta'rifga ega bo'lib, "Dugoh "Iroq", "Navo" kabi kuylarni g'ijjakda, "Nim "Kurd", "Giryra I-II" singari o'nlab kuylarn yo'llarini, "Shahnoz", "Gulyor", "Beboqcha" as katta mahorat bilan ijro etgan. [4.195]

Shu bilan bir qatorda g'ijjak ijrosida "Y Tanovar" xalq kuylarini va ijodkor tomonida "Diyorimsan" asarlari o'zbek milliy san'timiz Uning dutor ijrosidagi kuy tarovati go'yo moz




tinglovchining qalbini rom etib hayolot dunyosiga boshlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, Komiljon Jabborov uchun dutor va g'ijjak sozlarida ijod qilish alohida bir maktab edi. Bu sozlar faqat sahnalarda ijro etilibgina qolmay, balki ushbu sozlar asosida ijodkorning bir qancha kuy, qo'shiq va ashulalar yaratish jarayoni amalga oshirilishi yangi asarning dunyoga kelishida xizmat qilardi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, Komiljon Jabborovning o'zbek musiqasi san'atida turli janrlarda ijod qilib kelganligi bilan e'tiroflidir. Uning ijodi uchun yangi yo'nalishdagi bir qator hamkorlikda yaratilgan musiqiy-sahnaviy asarlari va simfonik asarlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Rus kompozitori professor Shteynberg bilan hamkorlikda yaratilgan "O'zbek kuylari mavzusidagi rapsodiya – simfoniya", professor Arapov bilan hamkorlikda yaratilgan "Oratoriya" hamda betakror yaratilgan yuzga yaqin kuy qo'shiqlari ijodiy mahsulidir.

Komiljon Jabborov aksariyat bastakorlaridan farqli o'laroq, musiqali teatrlar bilan ham faol hamkorlik qila boshladi va bir qancha musiqali dramalarga kuylar yaratdi. Alisher Navoiyning shoir Xurshid tomonidan sahnalashtirilgan "Layli va Majnun" asari, Sanjar Tillaning "G'ulja ustida nur"i, 1960 yilda S.Hayitboev hamkorligida "Nodira", 1970 yilda S.Abdullaning "Mening jannatim", T.Qosimovning "Cho'lponoyning allasi", "Dilnavozning dili mavsumi", H.G'ulomning "Qo'shiq", Turg'un Halilovning "Chorgoh" kabi musiqiy dramalar, telepostanovkalarga kuy bastaladi. Bular orasida T.Qosimovning "Zebuniso" asariga yozgan kuylari o'z originalligi, xalqqa yoqimliliigi bilan ajralib turadi.[5.3]

Bastakorning aksariyat mumtoz va zamondosh shoirlarining g'azallariga murojaat etgani bois ashulalari milliy ohanglarga boy va nihoyatda go'zalligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, "Senga", "Nazzora qil", "Ey pari", "Mubtalo bo'ldim senga" (A.Navoiy), "Assalom" (Muqimiy), "Aylanay" (Furqat), "Tokay" (Uvaysiy), "Kel" (E.Oxunova), "Shifokorlar", "Toshkent piyolasi" (P.Mo'min), "Birma-bir", "Ko'rgim kelur" (T.To'la), "Yor keladi" (S.Zununova), "Oromijon", "Yaxshiroq", "Diyorimsan" va "Jonim otam" (Habibiy) kabi bir qancha mumtoz va zamondosh shoirlar nazmiga bastalangan ashula va qo'shiqlari hali hanuz tillarda doston. Bastakor Komiljon Jabborovning ushbu aynan lirik uslubda yaratilgan ashulalari mumtoz



bastakorlik an'analarini davom ettirgan har bir xonanda va sozandalarning ijro repertuarlaridan o'rin egallagan.


Bastakor o'zbek mumtoz musiqasining yetakchi janrlaridan hisoblanmish maqomlarni yaxshi bilgan. Va maqom ohanglaridan namuna andazasi sifatida samarali foydalana olgan betakror bastakor. Shuni teran anglagan holda ijodkor o'z asarlarida maqomlardan unumli foydalana oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bulardan uning ijodiga mansub bir qancha asarlari masalan, "Etmasmidim" Navo ohanglari, "Bu ko'ngil" Dugoh Husayniy, "Ey ko'zim" Nasri Segoh, "Assalom"- "Oromijon" Farg'ona ashulasi negizlarida, "Jafo qilmish" – Bayot 2 va Bozurgoniy, "Lutf" Qalandar ohanglarini eshitishimiz mumkin.

Ushbu mumtoz ashulalarni hozirgacha radio va oynai jahon orqali bir qator mashhur hofizlar tomonidan jumladan, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliev, Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Eson Lutfullaev, Orif Alimaxsumov, G'ulomjon Hojiqulov, Nuriddin Hamroqulov, Mahmudjon Yo'ldoshev, Mahmudjon Tojiboev, Kommuna Ismoilova, Saodat Qobulova, Malohat Dadaboeva, Farog'at Rahmatova, Barno Isoqovalar ijrolarida jarang sohib kelinmoqda.

Komiljon Jabborovning bastakorlik ijodini o'rganar ekanmiz, uni sermahsul ijodkor bo'lishida birinchidan, butun ijodiy faoliyati davomida zamonasining san'atkorlari bilan hamnafas bo'lganligi, ikkinchidan xalqonaligi, oddiyligi, soddaligi va albatta uning asarlarini xalq tomonidan iliq kutib olinganligiga guvoh bo'lamiz. Benazir bastakor o'zbek musiqasi san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan hamda kelajak avlod uchun so'nmas asarlar yaratib qoldirgan hassos bastakorlar qatoridan joy oldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov.S. Bastakorlar ijodi. NISO POLIGRAF. Toshkent, 2017.
2. Gofurbekova.H. Bastakor Komiljon Jabborov. Musiqasi ijodiyoti masalalari. Toshkent, 1997.
3. Mannopov.S. Navobaxsh ohanglar. IJOD-PRESS. Toshkent, 2018.
4. Razzoqov.H. Dilrabo kuylar bastakori. Kommunist gazetasi. №41 27/02. 1973.



5. Xalilov.T. Bastakor baxti. O'zbekiston madaniyati. 1969, №6, 21/1.

## HAMROQUL QORI TO'RAQULOVNING HAYOTI VA IJODI

**Mo'minjon SADIRDINOV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2- bosqich magistranti.  
"Nihol" mukofoti sovrindori.  
Ilmiy rahbar: **Sardor TOJIBOYEV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasi  
katta o'qituvchisi.



**Annotatsiya:** Katta ashulaning mohir ijrochisi, el sevgan mashhur xalq xofizi Hamroqul qori Muhammadrasul o'g'li To'raqulov o'tgan asrning 20-30 yillarida Markaziy Osiyoda dong taratgan xofizlardan biri, juda katta hayot va ijod yo'lini bosib o'tgan, u xalq orasidan chiqqan haqiqiy xofiz edi. Uning o'tkir, jarangdor nafasi, patnisaki katta ashula ijrosiga moyil bo'lganligi sababli ko'proq qo'shiqlarni ijro etgan. Ushbu maqolada Hamroqul qori To'raqulovning hayoti va ijodiy faoliyati ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq hofizi, mohir ijrochi, Farg'ona, Beshariq, ovoz, "Katta ashula".

**Аннотация:** Хамрокул Кори Мухаммадрасул оглы Торагулова, искусный исполнитель большой песни, популярный народный хафиз, один из известных хафизов Средней Азии 20-30-х годов прошлого века, прожил большую жизнь и творчество. настоящий хафиз из народа. Он исполнял больше песен из-за своего резкого, звучного дыхания и склонности играть большие песни. В данной статье научно анализируется жизнь и творческая деятельность Хамрокула Кори Торакулова.

**Ключевые слова:** народный хафиз, искусный исполнитель, Фергана, Бешарик, голос, "Катта ашула".

**Abstract:** Khamrokul Qori Muhammadrasul oglu Toragulova, a skilled performer of a great song, a popular folk hafiz, one of the famous hafiz of Central Asia in the 20-30s of the last century, lived a great life and creativity. a real hafiz from the people. He performed more songs due to his harsh, resonant breath and his tendency to play big songs.



*This article scientifically analyzes the life and creative activity of Khamroqul Kori Torakulov.*

**Key words:** folk hafiz, skilled performer, Fergana, Besharik, voice, "Katta ashula".

Hamroqul qori kim bo'lgan?


Shu haqda eshitganmisiz?

Katta ashulaning mohir ijrochisi, el sevgan mashhur xalq xofizi Hamroqul qori Muhammadrasul o'g'li To'raqulov o'tgan asrning 20-30 yillarida Markaziy Osiyoda dong taratgan xofizlardan biri edi.

Ilmiy ishim yuzasidan shu yilning yanvar oyida Hamroqul qori To'raqulov tug'ilib o'sgan Farg'ona viloyati Beshariq tumaniga safar qildim. Xofiz haqidagi ma'lumotlarning juda kamligi, bor ma'lumotlarning ham yuzakiligi sababli u kishining avlodlari va tumanning yoshi ulug'lari bilan ko'plab suxbatlar, surishtiruv ishlari o'tkazishga to'g'ri keldi. Hamroqul qori To'raqulovning hayoti va ijodi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi, hamda xofizning ham qishlog'i marhum Sobirjon Asqarov ning esdaliklaridan topdim.

Beshariq tongi gazatasining arxiv ma'lumotlarini o'rganish jarayonida esa ushbu esdaliklar 1995-yilda xuddi shu gazetada "O'zbekiston bulbuli" tarixiy ocherki ko'rinishida chop etilganligiga guvoh bo'ldim.

Keltirilgan ayrim eski ma'lumotga ko'ra, Hamroqul qori To'raqulov 1872-yilda Farg'ona viloyatining Beshariq qishlog'ida tug'ilgan va 1943-yilda vafot etgan. Ocherkda shunday yozilgan: "Shoberdi qishlog'idagi Maraimjon Ibrohimov bilan o'tkazilgan suhbatga ko'ra, mo'ysafidlarning yil qaytarib hisoblashiga ko'ra Hamroqul qori To'raqulov 1872-yilda emas, balki 1873-yilda tug'ilgan. Yili "sak" ya'ni it yili bo'lgan. Bundan tashqari Beshariq qishlog'ida emas, Beshariq tumanidagi Shoberdi qishlog'ida tug'ilgan." Shu o'rinda, Hamroqul qori To'raqulovning tug'ilgan yili haqida ozroq fikrlasak. Agar Hamroqul qori To'raqulovning tug'ilgan yili "sak" ya'ni it yili bo'lsa, u holda uning haqiqiy tug'ilgan yili 1872 yil ham emas, 1873 yil ham emas. Chunki milliy taqvimimizga ko'ra 1874-yilning 20-martidan 1875-yilning 19- martiga qadar "It yili" bo'lgan. Agar ocherkda tilga olingan mo'ysafidlarning Hamroqul qorining "sak"




yilida tug'ilgan, degan fikriga ishonadigan bo'lsak, qahramonimiz 1874-yilning 20-martidan 1875-yilning 19-martiga qadar bo'lgan oraliqda tavallud topganlar.

Agar ocherkda keltirilgan 1873-yilda tug'ilganligi haqidagi ma'lumotni to'g'ri desak, Hamroqul qori To'raqulov "Xo'roz yili" da tug'ilgan bo'lib chiqadi.

Xofiz qo'yilgan eski qabr 1967-yilda topilgan. Qabrni topish ham oson bo'lmagan. Shu yili Respublika plastinka firmasining rahbari Habibullo Najbullayev Beshariq tumaniga kelib, Hamroqul qorining qabrini ko'rsatishlarini so'raydi. Qishloqda hech kim qori boboning qabrini topib bera olmaydi. Chunki, xofiz vafot etgan 1943-yil urushning eng og'ir davri edi. Hamroqul qorining jasadini laxadga qo'ygan shu qishloqlik Shukur bobo Xoliqov yordamida qabr topildi. Qabr ochib ko'rilganda Shukur bobo qabr og'ziga o'zi qo'ygan eski eshik qanotini va uning temir xalqasini taniydi. Xofizning qadr don hamqishlog'i, Ahmadjon Shukurov lahadga tushib qorining ustaxonini avaylab oldi va oldindan tayyorlab qo'yilgan yangi qabrga qo'yishdi. Shu tariqa azim daraxtlar soyasida xofizning yangi qabri tiklandi. Qabr ustiga qo'yilgan marmar toshga quyidagi bitiklar o'yilgan: "Mashhur o'zbek xalq xonandasi, katta ashulaning mohir ijrochisi Hamroqul qori Muhammadrasul o'g'li (1873-1943).

Hamroqul xofiz juda katta hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. U xalq orasidan chiqqan xaqiqiy xofiz edi. Uning o'tkir, jarangdor nafasi, patnisaki katta ashula ijrosiga moyil bo'lganligi sababli ko'proq qo'shiqlarni shu uslubda ijro etardi. Xofiz bu o'yin uslubda ijro etishni Qo'qon atroflarida dong taratgan mashhur Xolqori xofizdan o'rgandi (Xolqora xofiz 107 yosh umr ko'rib 1967-yilda vafot etgan). Xofizning asosiy qo'shiqlar dasturi Navoiy, Miskin, Xislat, Muqimiy, Xaziniy, Furqat va Qo'qon she'riyati muhitida toblangan shoirlarning g'azallaridan tuzilgan bo'lib, "Bir kelib ketsun", "Kelibman dargohingga", "Muncha ham", "Yo hayotannabiy", "Ey, dilbari jononim", "Kolxozchilar davronidir", "Bu gulshan soz" kabi katta ashulalarni moxirlik bilan ijro etgan.

Xofizning mashhur shoir Xaziniy bilan yaqin ijodiy va do'stlik aloqasi bo'lganligini Xaziniy asarlari to'plamining muqaddimasidagi quyidagi satrlar ham tasdiqlaydi: "Xaziniy taniqli xofizlardan Hamroqul qori, Erka qori, Mulla To'ychi, Sodirxon, Umarxonlar bilan



yaqin do'st bo'lgan". Bu do'stlik rishtalari tufayli ular o'zaro tez -tez uchrashib turib, ijodiy kechalarni tashkil etganlar. Bu kechalarda albatta bir biridan go'zal va betakror asar namunalari yaratilgan.

Jahoni bevaftodan oxir bir kun, ketar bordir,

Bu dunyo bir rabot, har kim qo'nib bir-bir o'tar bordir.


Shoirning ushbu mashxur g'azalini Hamroqul xofiz katta ashula yo'lida ijro etib, davralarda juda katta muvaffaqiyat qozonardi. Bundan tashqari xofiz o'zi g'azal to'qib ashula qilib aytish qobiliyatiga ega edi. Bunga misol tariqasida Sobirjon Asqarovning ushbu so'zlarini keltirish mumkin: "O'sha davrda ko'cha changitib yurgan yosh bola edim. Xofizning yakkayu yolg'iz qizi Nishonbibini poyezd bosib ketganida, Qori bobo uning jasadini aravaga ortib, qishloqqa yetib borguncha faryod urib, yo'l-yo'lakay o'zi to'qigan mungli, dardli qo'shiqlarni aytib hammani yig'latgan edi. Rahmatli dadam, qori ashulalarini o'zi to'qib aytaveradi, deyishardi". Hofizning yana bir o'g'li ham dunyodan bevaft ko'z yumdi. Natijada xofiz ijodida tushkunlikka tushish, ko'proq mahzun qo'shiqlarni ijro etish davri shakllandi. Hamroqul qorining xalq orasida mashxur bo'lib ketganini ko'rolmagan kimsalar, uning diniy ashulalar aytishini ro'kach qilib, 1937-yilda qamoqqa oldirishadi. Xofizning qamoqda yotib aytgan alamli qo'shiqlari devorlar osha Toshkent ko'chalariga taralardi:

Yotaman mahbus bo'lib, yurt behabar tokaygacha?

Yuragim qonga to'lib, yutgum zahar tokaygacha?

Hamroqul qorining chevarasi, ya'ni Hamroqul qorining Nabijon ismli nevarasining o'g'li Komiljon Ibragimov keksalardan eshitganlariga tayangan holda shunday gapirib berdi: "Qori buva jahongashta inson bo'lgan, va bir yerda o'tirish uning uchun juda azob bo'lgan. Qamoqda yotgan vaqtida ichiga sig'may "Yotaman mahbus bo'lib" deb boshlanadigan ashulani aytadi. So'zlarini ham o'zlari yozgan ekanlar. Aslida, qori buva shoirlikda ham juda benazir edilar.

Uning bu ashulasini eshitgan qo'riqchi, juda ta'sirlanadi va qamoqxona boshlig'iga u yerda yotgan mahbus aslida diniy ulamo emas "xofiz" ekanligini aytadi. Boshliq esa bu holat bilan qiziqib qoladi va Hamroqul qorini o'z qabuliga chaqirtiradi. Ahvol bilan tanishgach, shu yerning o'zida xofiz ijrosida bir ikki ashula eshitadi va unga har kuni bir vaqtda qamoqxonaning hovlisiga chiqib, ashula aytishga ruhsat beradi. Hamroqul qori bu imkoniyatdan xursand bo'ladi



va har kuni bir vaqtda hibsxona hovlisida bor ovozi bilan ashulalarni ijro etib yuradi. Uning ovozi yon atrofdagi mahallalarga ham taraladi. Aholi esa bu imkoniyatdan foydalangan holda, har kuni o'sha vaqtda qamoqxona devori atrofiga to'planishar va Hamroqul qorining ijrolarini miriqib tinglashar ekan." Qalbi majruh xofizning dard to'la nolalari respublika rahbarlarigacha yetib boradi.

Hamroqul qori buvaning "Yangi qishloq"da Ibodatxon(1890-1996) ismli xolavachchasi bo'lgan deb hikoyani davom ettiradi Komiljon aka. Ana shu rahmatli Ibodat momodan eshitganlarim bor.

Ibodot momo hikoyasi: Men chamasi 45 yoshlar atrofida edim. "Hamroqul qori haqida "falon kuni ozod bo'larmish" degan turli mish-mishlar tarqalgandan so'ng, Hamroqul qorini Qo'qondagi qamoqxonaga ko'chirishadi. Buni eshitgan xalq va xofizning muxlislari o'sha kuni qamoqxona oldida to'planishdi. Shu joyda men ham bor edim, chunki u yerga jigarim Hamroqul qori keltirilgan va rahbarlar bilan suhbatdan o'tgach ozod qilinishi arafasida edi. Tashqarida esa ko'pchilik qatori men ham intiqlik bilan kutib turardik. Bir payt Hamroqul qorini qo'lida kishan bilan tashqariga xalq oldiga olib chiqishdi. Shunda yonidagilar: "Qarang Qori buva xalq sizning oldingizga kelibdi, sizni qo'llab turibdi. Ularga bir narsa demaysizmi?" deb so'rganida, Hamroqul qori bor ovozi bilan ashula ijro etib yubordi. Uning bu ashulasini tumonat xalq, hatto qo'riqchilar ham ko'zida yosh bilan tinglashdi. Shu yerning o'zida Hamroqul qorining qo'llari kishanlardan yechilib ozod qilindi. So'ngra Hamroqul qori onasi tug'ilib o'sgan Janjal qishlog'iga ketdi".

Beshariqning Dexqonto'da qishlog'ida yashovchi mulla Orifjon boboning xotiralari ham g'oyat qiziqarli: "30-yillarda Toshkentning Eski shaxaridagi Janggoh degan bog'ida xalq sayllari bo'lib turardi. Men Toshkentga borganimda, ana shu sayllardan biriga ro'para keldim. "Janggoxga Hamroqul qori kelarmish" degan ovozarlar tarqalgani uchunmi, odamlar xar qachongidan ko'p to'planibdi. O'sha davrdagi respublika rahbari Akmal Ikromov ham keldi. Keng davra atrofida san'atkorlar guruh -guruh bo'lib o'tirishardi. Ashulachilar navbati bilan chiqib davrani aylanib yalla qilardilar. Konsert uzoq davom etdi. Hamroqul qori o'rta har chiqanida, tomoshabinlar shodlikdan qiyqirishib yuborishardi. Yangi so'z, yangi ohang bilan ashula aytish shart qilib qo'yilgan ekan. Boshqalarning ashulasi tugab qoldi shekilli,




davraga chiqolmay qolishdi. Hamroqul qori esa qo'liga tutib turgan chinni likobchani chertib, yangi-yangi ashularini aytardi. Shinavandalar g'olib chiqqan Hamroqul qorini quchoq ochib tabriklashdi. Davra xakamlari bu iste'dod sohibiga turli sovg'a salomlar topshirishdi. Men butun respublika bo'yicha to'plangan atoqli xofizlarning hammasidan ustun kelgan hamyurtimiz borligidan quvonib ketdim". Hamroqul xofizning muborak ovozi plastinkalarga va tasmalarga ham tushirilgan bo'lib, mashxur san'atkor Tamaraxonimning shohidlik berishicha, 1935-yilda Londonga borgan bir guruh O'zbekistonlik san'atkorlarni Britaniya muzeyiga taklif qilishib, Hamroqul qorining ovozi yozilgan plastinkani qo'yib eshittirishibdi. Naql qilishlaricha, bir ingliz boyi xofizning qo'shiqlari yozilgan plastinkalarni sotib, bir million fund-sterling foyda topgan ekan. Afsuski, biz ana shu mashxur xonandamiz haqida to'liq ma'lumotga ega emasmiz.

Izlanishlarim davomida xatto O'zbekiston teleradiokompaniyasining "oltin fondidan" ham xofiz ijro etgan ashulalarni topish imkoni bo'lmadi. Izlagan imkon topar deganlar dono xalqimiz.

Xofiz xonadonidan topilgan juda eski taxminan 1905-1907 yillarda Riganing "Pishushiy Amur" firmasi tomonidan yozilgan siniq plastinka topildi. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tamirlash va tozalash ishlari natijasida Hamroqul qori To'raqulovning ikki noyob ijod namunasi "Ashulayi Buxoro" va "Yangi Ushshoq" O'zbekiston konservatoriyasi fonoteka fondiga o'tkazildi. Eskilarda "Yaxshilik o'lmaydi" degan gap bor. Umid qilamizki ushbu noyob topilma ko'p yillar milliy mumtoz musiqamizning rivojiga va yetishib kelayotgan yosh xofizu xonandalarga katta ashula "pir"laridan biri deb tilga olinuvchi Hamroqul qori To'raqulovning hayoti va ijodini yanada chuqurroq o'rganish va tahlil etishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Uboidulloev S. Sog'inganimda (Monogirafiya). – Toshkent. "Adast poligraf", 2022.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodi, Toshkent – "Niso poligraf" – 2017.



3. Sultonov A. "Mumtoz ashula va qo'shiqlar ijrochilari va bastakorlari. Toshkent – "Innovatsiya-Ziyo" 2021.

4. Sultonov A. "Maqom xonandaligi ansambli" Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2022.

5. Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli foto albom. Toshkent – 2019.

6. Jabborov A. O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari "Musiq" nashriyoti. Toshkent – 2018.

7. Shashmaqom saboqlari, Toshkent – 2017.

8. Bastakorlar ijod yo'li, Notalar to'plami; Toshkent – 2012.

9. G'ofurbekov T. Bastakorlar ijodiyoti: tarixi tahlili, taqdiri, Toshkent – 2019.

10. uz.m.wikipedia.org.



## TALABALARDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI ASRASHGA DOIR AKSIOLOGIK BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH USTUVORLIGI

*Nigoraxon MANSUROVA,*

*Farg'ona davlat universiteti*

*"Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqiy merosi va unga oid bo'lgan bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy musiqiy meros, ustuvor yo'nalishlar, milliy ruh, qadriyatlar, mumtoz musiqa, musiqa madaniyati, musiqiy qadriyatlar, musiqiy did


**Аннотация:** В данной статье были разработаны приоритеты, направленные на совершенствование и развитие узбекского национального музыкального наследия и связанных с ним знаний и умений

**Ключевые слова:** Национальное музыкальное наследие, приоритеты, национальный дух, ценности, классическая музыка, музыкальная культура, музыкальные ценности, музыкальный вкус

**Abstract:** In this article, priorities aimed at improvement and development of Uzbek national musical heritage and related knowledge and skills have been developed

**Key words:** National musical heritage, priorities, national spirit, values, classical music, musical culture, musical values, musical taste


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF -6000-sonli Farmonlari, 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli,



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi "Maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida"gi 940-sonli, 2020 yil 2 sentabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 536-sonli Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Musiqa ta'limi talabalariga ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, ularning musiqiy dunyoqarashini, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda ularda milliy musiqiy qadriyatlarni qadrlash tuyg'usini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Milliy musiqiy qadriyatlar talablardagi san'at va badiiy ijodkorlikka shunchaki faoliyat turi emas, balki qadriyat sifatida baho berish vazifalarini yuklaydi. Zero, san'at, bir tomondan, davrning "ijtimoiy-tarixiy voqealari ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan, ikkinchi tomondan, milliy madaniyat va har bir san'atkorning aksiologik ehtiyojlarini aks ettiruvchi"[1,94] idealni gavdalandirishning asosiy sohasi bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning mohiyat-mazmunini o'zlashtirish, ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilash maqsadlariga xizmat qiladi. Milliy musiqiy qadriyatlarni idrok etish kuchli g'oyaviy-emotsional ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lib, talabalarning olamni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. San'at talabalarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini butun borlig'i va sohalari bilan yaxlit aks ettirish orqali g'oyaviy tarbiyaning muhim omiliga ham aylanadi. Demak, talabalarda milliy musiqiy qadriyatlarni qadrlash tuyg'usini shakllantirish, ularga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmasini rivojlantirish kerak bo'ladi.

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini takomillashtirish uchun ularda avvalo milliy musiqiy merosga aksiologik ehtiyojni shakllantirish, ularda milliy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan qadriyatli faoliyatni takomillashtirish talab etiladi. Umuman olganda, har bir inson hayotida ehtiyoj bilan qobiliyat uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qadriyatli faoliyat sub'ektining ehtiyoji kabi uning qobiliyati ham nafaqat fiziologik, shu bilan birga, ijtimoiy mohiyatga egadir. Binobarin, bu qobiliyatlar ijtimoiy hayot jarayonida shakllanadi, o'zgaradi va taraqqiy etadi. Demak, aksiologik faoliyat sub'ekti insonning aksiologik ongi, shu bilan birga, uning aksiologik



ehtiyojlarini qondirish borasidagi tasavvur va qarashlarini ham o'z ichiga oladi. Modomiki, aksiologik faoliyatning maqsadi inson ehtiyojlarini qondirishdan iborat ekan, inson bu faoliyatning nafaqat sub'ekti, balki ob'ekti ham sanaladi. Demak, talaba milliy musiqiy merosga oid qadriyatlarni ob'ekt sifatida idrok etadi, ehtiyojlarini qondiradi, qobiliyatlarini aksiologik ongning sohibi tarzida ro'yobga chiqaradi.

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni takomillashtirishning ustuvorlik ahamiyatini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, jamiyatni rivojlanib borishi ijtimoiy-ma'naviy sohalarida yangicha dunyoqarashni shakllantirmoqda. Bu jarayonda talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni tadqiq etish, jamiyatda erishilgan yutuqlar asosida mavzuni ilmiy-nazariy o'rganish hamda umumlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, bugungi kunda yosh avlod dunyoqarashida vatanga bo'lgan muhabbat, istiqbolga ishonch tuyg'ularini shakllantirish muhim masala qilib belgilangan. Bunda ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash dolzarb masalalar sirasiga kiradi. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonunda mohiyati jismonan va aqlan sog'lom, boy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga doir vazifalar alohida ko'rsatib o'tilganligi talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish masalalarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Uchinchidan, bozor munosabatlari jarayonida jamiyatda sog'lom muhitning yaratilishi, uning yoshlar ongida aks etishi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy qarashlarning milliylik ruhida shakllantirishga ham olib kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, yangi taraqqiyot bosqichiga mos keladigan, ma'naviy yuksak avlodni voyaga yetkazishni ko'zda tutadi.

To'rtinchidan, talalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida uning musiqiy madaniyatini sog'lom ma'naviy muhit negizida kamol toptirish, ilmiy-pedagogik faolligini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish o'z-o'zidan ro'y beradigan jarayon emas.



Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni qadrsizlashga urinuvchi, yangicha ommaviy qadriyatlarni shakllantirishga urinuvchi harkatlar va g'oyaviy ta'sir vositalarining qudratli bo'lib borishi sharoitida bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa ta'limining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga asoslandi:

– har bir darsni aksiologik nuqtai nazardan aniq maqsadga qaratilgan holda tashkil etish;

– dars uchun musiqiy materiallar, o'rgatish uslub va vositalarni to'g'ri tanlay olish;

– talabalarda musiqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy va maqsadga yo'naltirilgan uzluksizlikni ta'minlash;

– musiqiy tarbiyada ta'lim bilan tarbiyaning mushtarak bo'lishligi o'quv jarayonni tashkil etishda ta'limning ilmiyligi, ko'rgazmali, tushunarli, o'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish lozim.


Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Birinchidan, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida talabalarining milliy musiqiy madaniyatini takomillashtirish yangi taraqqiyot strategiyasi asosida mamlakatimizda yashayotgan millat va elatlarning ezgulikka yo'naltirilgan musiqiy dunyoqarashini, yangi taraqqiyot bosqichidagi ma'naviy yuksalishini o'zida ifoda qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning tarixi, dini, ma'naviy merosi va an'analarni tiklash va rivojlantirish asosida talabalarda milliy musiqiy madaniyat va uning negzida milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratishni talab etadi.

Uchinchidan, talabalarda milliy musiqiy merosni saqlab qolish va rivojlantirishda tarixiy xotira, jamoaviy yakdillik, hamdardlik, Vatan tuyg'usi, milliy musiqiy faoliyat buyuk tarbiyaviy va ibrat omillari bo'lib xizmat qila boshladi.

To'rtinchidan, xalqimizning musiqiy madaniyatini va ma'naviy qiyofasini yangi taraqqiyot strategiyasi talablari darajasida rivojlantirishda milliy musiqaning o'rni beqiyos. Shuning uchun yangi jamiyat qurish va yangicha yashash tarziga asoslangan jamiyatda,



odamlarning yangicha tafakkuri va dunyoqarashi shakllanayotgan zamonda milliy musiqaning ijtimoiy mavqei hamda vazifalari o'zgaradi.

Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni yuksak darajada takomillashtirishda ta'lim tizimining samarali yo'lga qo'yilishi, o'qituvchi-murabbiylarning pedagogik tajribasi, dars mashg'ulotlarida innovatsion usullardan o'z o'rnida samarali foydalanilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi-murabbiylarning shaxsiy namuna ko'rsatishi, mashg'ulotlar va tarbiyaviy tadbirlarni ijodiy yondashuv va yuksak mas'uliyat asosida tashkil etishi talab etiladi.

Barkamol avlod kamolotida musiqa tarbiyasini amalga oshirishda musiqa sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalarida «Musiqqa o'qitish metodikasi» fani katta ahamiyat kasb etadi. Bu fan maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinfi, o'rta va yuqori sinflarida musiqa o'qitish metodikasi orqali singdirilib boriladi. "Musiqqa o'qitish metodikasi" fan sifatida o'zining tizimiga mansub bo'lib, musiqiy fanlar tarmog'ida o'zining mustaqil o'rniga ega. Unda musiqiy tarbiya mazmuni, metodlari, sifat va samaradorlikka erishish yo'llari, qonuniyatlari bilan birga musiqaga nisbatan didni shakllantirish jarayoni o'rganiladi[2,137].

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilim va ko'nikmalar orqali keyinchalik pedagogik faoliyatda o'z o'quvchilariga ta'lim beradi, tarbiyaviy funksiyani amalga oshiradi. Musiqa o'qituvchilari o'quvchilarni musiqa mashg'ulotlari asosida tarbiyalashda nafasat, musiqa fiziologiyasi, musiqiy psixologiya kabi qator fanlarning tajribalariga tayanish lozim. Chunki musiqa inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, unga eng oson ta'sir etuvchi kuch hamdir[3,25].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini takomillashtirish uchun ularda avvalo milliy musiqiy merosga aksiologik ehtiyojni shakllantirish, ularda milliy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan qadriyatli faoliyatni takomillashtirish talab etiladi.

Musiqiy tarbiyada ta'lim bilan tarbiyaning mushtarak bo'lishligi o'quv jarayonni tashkil etishda ta'limning ilmiyligi, ko'rgazmali,




tushunarli, o'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish talab etiladi[4,95,96,97].

Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish – musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir[5,283,285].

Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni takomillashtirish maxsus kursning amaliy mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara beradi. O'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni oshirish mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mahmudov T., Olimov Ya. O'zbekiston san'atida inson omili. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988.
2. Sharipova G. Musiqa va uning o'qitish metodikasi. – Toshkent.: 2006.
3. Rustamjonovna M. N. Globallashuv Sharoitida Musiqa Xalq Diplomatiasining Etakchi Vositasi // Conference Zone. – 2022.
4. Rustamjonovna M.N. Musiqiy ta'lim estetik tarbiya tayanchi // Uzbek Scholar Journal. – 2022.
5. Mansurova N.R. Zamonaviy oliy ta'limda aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari va ijtimoiy ahamiyati // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10-2.



## “TOHIR VA ZUHRA” MUSIQALI DRAMASINING YANGI SAHNA TALQINI

**Gulxumor ABDUSAMATOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Ravshan YUNUSOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI professor, s.f.n.*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Sobir Abdulla va atoqli bastakor To‘xtasin Jalilov tomonidan 1939 yili yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi hozirgi kundagi talqini musiqa hamda dramaturgiya jihatidan tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** musiqali drama, maqom, sho‘ba, ashula, bastakor, doston, uvertyura.


**Аннотация.** В статье анализируется современная интерпретация с точки зрения музыки и драматургии музыкальной драмы “Тохир ва Зухра”, созданной народным поэтом Узбекистана Сабиром Абдуллои и известным композитором Тохтасином Джалиловым в 1939 году.

**Ключевые слова:** музыкальная драма, маком, шуба, песня, бастакор, эпос, увертюра.

**Abstract:** The article analyzes the history of the creation of the musical drama “Tahir va Zuhra” created by the national poet of Uzbekistan Sabir Abdulla and the famous composer Tokhtasin Jalilov in 1939 and its current interpretation in terms of music and dramaturgy.

**Key words:** musical drama, maqom, shuba, song, composer, epic, overture.

Musiqali dramalar “otaxoni”, atoqli bastakor, sozanda va ustoz To‘xtasin Jalilovning ijodiy merosi xalq musiqasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan holda, aynan ushbu janrning gullab-yashnashiga ulushi katta bo‘ldi. 1940-50 yillarda hassos bastakor respublikadagi qator musiqali teatrlarda badiiy rahbar bo‘lib xizmat qilgan ekan, qirg‘qa yaqin sahnaviy asarlari bilan san‘at olamini boyitishga muvaffaq bo‘ldi. Xususan, tarixiy mavzulardagi “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”,




“Tohir va Zuhra” singari spektakllar uzoq yillarga repertuar bisotida saqlanib qolgani bejiz emas. Ayniqsa, Sobir Abdulla bilan To‘xtasin Jalilov hamkorligida yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi tez orada o‘zbek xalqining eng sevimli sahna asarlaridan biriga aylandi. Binobarin, To‘xtasin Jalilovning qoyilmaqom tarzda bastalagan maftunkor musiqasi orqali pesadagi qahramonlar siyosi yorqinlashib, ularning qaynoq his-tuyg‘ulari va orzu-umidlari jonlandi.

“Tohir va Zuhra”ning ilk sahna taqdimoti 1939-yilda Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrida o‘tkazilgani ma‘lum[1]. O‘sha kezlarda spektakl namoyishi tomoshabinlar tomonidan qizg‘in kutib olingani sabab, keyingi yili ushbu asar Andijon va Qo‘qon musiqali teatrlari repertuaridan o‘rin egalladi. Masalan, “Tohir va Zuhra”ning musiqiy ifodaviyligini tomoshabinga mohirona yetkazib bergan qo‘qonlik Valijon Hamroyev (Tohir rolida), Saboxon Karimova (Zuhra rolida), Qurbon Nazarov (Boboxon rolida) va boshqa iqtidorli aktyorlarning xizmati katta bo‘ldi. Mazkur musiqali dramani tomosha qilishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib, Namangan va Samarqand teatrlarida ham namoyish etiladi. 1941-yil 23-mart sanasida esa Muqimiy nomidagi poytaxt musiqali drama teatri sahnasiga olib chiqildi. Nihoyat, ijodiy va ijroviy muvaffaqiyatlar cho‘qqisini zabt etgan “Tohir va Zuhra”ning dong‘i respublikamizdagina emas, balki, qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistondagi teatrlarda qizg‘in kutib olindi. “Tohir va Zuhra”ning u yerdagi musiqali teatrlarda mohirona sahnalashtirilgani mahalliy aholi uchun quvonarli voqea bo‘ldi.

O‘sha davrda teatrdan ishlagan ustoz san‘atkor, mohir sozanda Turg‘un Alimatovning kuzatuvlariga ko‘ra: “Yangi milliy asar – “Tohir va Zuhra”ning namoyishiga yaqin shahar va qishloqlardan kelgan muhlislar 10-15 kun davomida kutib musiqali dramani tomosha qilishga erishganlar”. [2]

O‘z davrida mashhur san‘at ustalaridan, - Jo‘raxon Sultonov va Ma‘murjon Uzoqov, Mashrabjon Yunusov va Mahmudjon G‘ofurovlar Tohir rolini, Tursunxon Ja‘farova, Shahodat Rahimova, E‘tibor Jalilova, Farog‘at Rahmatovalar Zuhra rolini maromiga yetkazib ijro etganlar. Baralla aytish joizki, ularning bunday mahorati tufayli spektaklning umri uzaygan.[3]


Sahna yuzini qayta-qayta ko‘rgan davrlardan boshlab to bugungi kunga qadar “Tohir va Zuhra” respublikamizning deyarli barcha




musiqali teatrlarida navbati bilan yangidan sahnalashtirilib, ozmi ko'pmi o'zgartirishlar bilan namoyish etilgani sir emas. Quyidagi jadvalda tegishli ma'lumotlar keltiriladi:

**“Tohir va Zuhra”ning Respublika musiqali drama teatrlarida  
qo'yilishi xronologiyasi**


T/r	Musiqali drama teatrlarining nomi	Sahnaga qo'yilgan yil	Ijodkorlar nomi
1	Yu.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatri	1939	Sahnalashtiruvchi rejissyor Mamadali Xaydarov Bosh qahramonlar: Nodira Inog'omova, Yulduz Xo'jaeva, Qanoatxon Xotamova, Mamadali Dadajonov, Abdurahmonqori Tojiboev
2	Y.Ohunboboev nomidagi Andijon musiqali drama teatri	1940	Sahnalashtiruvchi rejissyorlar: Abdurahob Azimov, Abbas Bakirov Bosh qahramonlar: Fotima Xo'jaeva, Qamara Burnasheva, Mashrab Yunusov
3	A. Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatri	1940	Sahnalashtiruvchi rejissyor Razzoq Hamroev Bosh qahramonlar: Tursunxon Ja'farova, S.Rahmonov
4	Hamza nomidagi Qo'qon shahar musiqali drama teatri	1940	Sahnalashtiruvchi rejissyor Salimjon Jo'raboev Bosh qahramonlar: Murodjon Ahmedov, Valijon Hamroev, Saboxon Karimova
5	Muqimiy nomidagi	1941	Sahnalashtiruvchi rejissyor Abdurahob Azimov



	musiqali drama teatri		Bosh qahramonlar: Tursunxon Ja'farova, Shahodat Rahimova, E'tibor Jalilova, Farog'at Rahmatova, Mashrabjon Yunusov, Mahmudjon G'ofurov, Jamolqori G'iyosov, Ma'murjon Uzoqov
6	H.Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali drama va komediya teatri	1941	Bosh qahramonlar: Halima Zufarova, Zohid Sodiqov
7	Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri	1941	Bosh qahramonlar: Onabibi Ochilova, H.Boltaev
8	S.Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1944	Sahnalashtiruvchi rejissyor Mirobid Musaeov Bosh qahramonlar: Nazokat Ne'matova Ahmad Fayziev
9	Yu.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatri	1944	Sahnalashtiruvchi rejissyor Muzaffar Muhammedov Bosh qahramonlar: Murodjon Ahmedov, E'tibor Jalilova
10	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1946	Sahnalashtiruvchi rejissyor Muzaffar Muhammedov Bosh qahramonlar: Shahodat Rahimova, E'tibor Jalilova, Mashrabjon Yunusov, Mahmudjon G'ofurov, Ma'murjon Uzoqov



11	M.Uyg'ur nomidagi Yangiyo'l musiqali drama teatri	1946	Sahnalashtiruvchi rejissyor Kamtar Otaboev Bosh qahramonlar: Fazliddin Shamsiddinov
12	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1950	Sahnalashtiruvchi rejissyor Muzaffar Muhammedov Bosh qahramonlar: Shahodat Rahimova, E'tibor Jalilova, Mashrabjon Yunusov
13	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1953	Sahnalashtiruvchi rejissyor Viktor Yakovlevich Golovichner Bosh qahramonlar: E'tibor Jalilova, Mashrabjon Yunusov
14	Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri	1953	Sahnalashtiruvchi rejissyor Armug'on Muhamedov Bosh qahramonlar: San'at Devonov, Sultonposhsha Raximova
15	S.Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1953	Sahnalashtiruvchi rejissyor R.Botirov Bosh qahramonlar: Nazokat Ne'matova, Sattor Yarashev
16	A.Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatri	1954	Sahnalashtiruvchi rejissyorlar: Albert Xachaturov va Mirzajon Dadaboev
17	Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri	1954	Sahnalashtiruvchi rejissyor Armug'on Muhamedov Bosh qahramonlar: San'at Devonov, Sultonposhsha Raximova



18	S.Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1973	Sahnalashtiruvchi rejissyor Aminjon Akobirov Bosh qahramonlar: Nazokat Ne'matova, A.Fayziev
19	S.Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatri	1977	Sahnalashtiruvchi rejissyor Ubaydulla Baqoev Bosh qahramonlar: Nazokat Ne'matova, Muxammad Rafiqov
20	A.Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatri	1977	Bosh qahramonlar: Onaxon Tojiboeva, M.Isomiddinov
21	Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya teatri	70-80 yillar	Sahnalashtiruvchi rejissyor Aliqul To'laev Bosh qahramonlar: Oygul Xalilova, Jabbor Toshev
22	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	1984	Sahnalashtiruvchi rejissyor Baxtiyor Ixtiyorov Bosh qahramonlar: Mexri Bekjonova Abdushoir Salimov
23	Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri	2016 yildan buyon	Sahnalashtiruvchi rejissyor Ahad Farmonov Bosh qahramonlar: Omon Yo'ldoshev, Zulfiya Umerova, Durdona Nosirova

Hozirgi vaqtga kelib teatr shinavandalari tomonidan tarixiy spektakllarni tomosha qilishga bo'lgan qiziqish yana orta boshlangani seziladi. Nihoyat, 2016-yildan e'tiboran Muqimiy nomidagi



O'zbekiston davlat musiqali drama teatrida "Tohir va Zuhra" tomoshabinlar e'tiboriga havola etila boshladi. Tajribali rejissyor Ahad Farmonov tomonidan endigi spektakldagi yetmishdan ortiq ariya, duet, xor namunalari soni biroz kamaytirilib, zamondosh tinglovchilarimiz uchun moslashtirildi. Shuningdek, teatrdagi faoliyat olib borayotgan dramaturg, ayni paytda O'zbekiston San'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi Oltinoy Tojiboeva mazkur musiqali dramaning matniga muayyan o'zgartirishlar kiritdi. Jumladan, spektaklning ichki dramaturgiyasi kuchaytirilib, Vazirning qora niyatli rejasi, Qorabotirning saroyda uyushtirgan fitnasi kabi yangi sahnalar kiritildi. Kompozitor O.Komiljonov tomonidan esa uvertyura, xoral va final qismi musiqasi bastalandi.

Odatdagidek, "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi ham uvertyura bilan boshlanadi. Uning og'ir-vazmin sur'ati, minorli ma'yus jarangi bosh qahramonlarning armonli muxabbati haqida tinglovchiga hikoya qilgandek bo'ladi. Jo'rlik ostida sahnada paydo bo'lgan raqqosalar xarakati orqali farishtalar siymosi gavdalantiriladi. Raqs xarakati uchun uvertyura fakturasining akkordli davomiyligi mos keladi. Avvaliga violonchellarda yangragan kuyning sokin ohanglari go'yoki tomoshabinga pichirlab "diqqat" deyayotgandek taassurot qoldiradi. So'ngra, royal cholg'usida tanish ohanglar tarala boshlaydi. Uvertyuraning bosh kuy mavzusi uchun To'xtasin Jalilov bastalagan mashhur "Otmagay tong" dueti ohanglari zamin bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi musiqiy sahnalar orasida xalqchil mavzudagi - "Jarchilar", "Qutlug' bo'lsin" qo'shiqlari tinglovchilarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi. Raqsop "Duchava"[4] kuyi ohanglari ham shod-xurramlik kayfiyatini aks ettiradi. O'zbek halqi oilaviy marosimlaridan biri - go'dakni beshikka solish udumida yangrovchi nog'ora sadolari urma-zarbli cholg'ular guruhi ijrosida yanada jonlanadi.

Musiqali dramadagi yorqin sahnalardan biri - Zuhraning "Qalamlar tavsifingda madhlar doim taloshingda..." deb boshlanuvchi ariyasidir. Mazkur ariya Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan mashhur "Qalandar chapandozi" ashulasi negizida bastalangan. Bog' sahnasida Tohirni orziqib kutayotgan Zuhra hayajoni uning jozibador ariyasi orqali ifoda etiladi. Doira zarblari hamda kamonli-torli cholg'ularda taralayotgan nafis kuy qahramonning his-tuyg'ularini ochib berishda hamnafaslik qiladi.



Yana kanizlar ijrosida "Xush kelibsiz" nomli ommabop qo'shig'i hamda Tohirning "Har qachon" nomli ariyasi sho'x-raqsonga xarakterli musiqiy sahnalardir. Shuningdek, To'xtasin Jalilov bastalagan va o'zbek halqining sevimli qo'shig'iga aylangan Tohir ijrosidagi "To'ylar muborak" finalda yangraydi. Uning barcha musiqiy sahnalar ichida eng jozibalisi ekanligi tomoshabinlarning qarsaklari bilan o'z tasdig'ini topadi.

Bugungi kunda mazkur asar biroz o'zgacha talqinda namoyish etilayotir. Zamondosh san'at ustalari ijrosidagi jozibali ariya, duet hamda xor namunalari jarangi tomoshabin qalbini sof tuyg'ularga to'ldirganini his qilish mumkin. Albatta, bunda nafaqat aktyor-xonandalarni, balki, orkestrning ulushi ahamiyatli. Dirijor Akmal To'raev rahbarligidagi "Kichik simfonik" orkestri nafaqat kamonli-torli, klavishli hamda damli va zarbli cholg'u guruhlardan tashkil topgan, balki, uning tarkibiga qashqar rubobi, nay, doira kabi milliy cholg'ular ham kiritilgan. Yevropa va milliy sozlarning hamohang sadolanishi uyg'un tushgan holda tinglovchiga ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi.

Shuningdek, sahnadagi voqealarning ishonarli tarzda namoyon bo'lishida tajribali aktyorlar hamda yosh iste'dod sohiblari jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Bular:

Omon Yuldashev (Tohir rolida)  
Durdona Nosirova (Zuhra rolida)  
Iqbol Oshiqov (Boboxon rolida)  
Qobil Umirov (Bohir rolida)  
Umid Shodmonov (Qorabotir rolida)  
Mehmonali Salimov (Shoir Nozim rolida)  
Aleksandr Bekjonov (Vaziri a'zam rolida)  
Turg'un Beknazarov (Xorazm xoni rolida)  
Feruza Mustafoeva (Mohim rolida)  
Gulnoza Saidova (Yulduz rolida)lardir.

Bugungi "Tohir va Zuhra" musiqali spektaklining ko'plab yutuqli tomonlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham yo'q emas. Masalan, ikkinchi ko'rinishda Tohir bilan Qorabotirning qilich o'ynatish mashg'uloti litavra cholg'usining gumburlagan sadosi ostida o'tadi. Bu vaziyatda litavra zarblarining noo'rin ishlatilganini hamda uning sahnadagi harakatlar bilan aytarli qovushmaganini aytish joiz.




Yana, bosh qahramonlar qatori tomoshabinga yaxshi tanish bo'lgan ishtirokchilarning yo'qligi seziladi. Aniqrog'i, avvalgi sahna talqinlarida muayyan o'rin egallagan xalq yo'lboshchisi bo'lmish Sardor, Zuhraning eng yaqin dugonasi, kanizi bo'lmish Qamar singari ishtirokchilar spektakldan umuman olib tashlangan. Aynan Qamar siymosini o'z davrida noyob ovoz sohibasi Saodat Qobulova yuksak mahorat bilan ochib berganini keksa musiqa ixlosmandlari eslaydi. Ehtimol, aytib o'tilgan ushbu kamchiliklar rejissyorlik yechimi bilan tuzatilar deya umid bog'lab qolamiz.

Muxtasar qilib aytganda, durdona sahna asari bo'lmish "Tohir va Zuhra" yana ko'p yillar davomida nafaqat tomoshabinlarga estetik zavq bag'ishlovchi spektakl bo'lib qoladi, balki, undagi jozibali, yorqin kuy, qo'shiq va ashulalar kelajakda zamondosh san'atkorlarning ijroviy bisotini boyitib borishiga ishonchimiz komil.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Matyoqubov O. Andijon samosi. // Jannatmakon jurnali, fevral, 2011 yil.
2. Karimov N. Tohir va Zuhraning ijodkori. // Yangi O'zbekiston. 30 yanvar, 2021-yil, 21-son.
3. Urfon Otajon. San'at mening quyoshimdir. Yangi asr avlodi, T., 2006.
4. Duchava forschada "ducho'ba" – "ikki cho'p" ma'nosini anglatuvchi an'anaviy o'zbek nog'ora va doira usullaridan biridir. Ayrim turlarini Usta Olim Komilovdan Ilyos Akbarov notaga yozib olgan. "Katta o'yin" raqslar turkumidagi asosiy raqslardan bo'lib, unda nog'ora cho'plari dambadam urilgani uchun shu nomni olgan. // <https://qomus.info>.



## **"MUSIQA ADABIYOTI" FANINING O'QITISH MUAMMOLARI**

(Farg'ona viloyatidagi BMSMlar misolida)

**Gulhayo SOBIROVA,**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi.

Ilmiy rahbar: **To'xtasin G'OFURBEKOV,**

san'atshunoslik fanlari doktori, professor.


**Annotatsiya:** Maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida "Musiqqa adabiyoti" fanining o'qitilishida zarur bo'lgan maxsus adabiyot (o'quv qo'llanma va darslik)lar, nota matnlari (xrestomatiya, klavir) va mono – stereo – audio, video yozuvlar hamda pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash maqsadida Farg'ona viloyati bolalar musiqa va san'at maktablaridagi "Musiqqa adabiyoti" dars jarayonlari tahlil qilinib, mazkur fanning o'qitilishidagi kamchilik va muammolar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** BMSM, musiqa adabiyoti, audio va video yozuvlar, fan dasturi, kompozitor, tinglash qobiliyati, musiqiy janrlar, partitura, xrestomatiya, klavir, fonoteka, darslik, o'quv qo'llanma.

**Аннотация:** Целью данной статьи является определение уровня обеспеченности специальной литературой (учебным пособием и учебниками) ночным текстом (хрестоматия, клави́р) и моно-стерео-аудио, видеозаписями, также педагогическим кадром, востребованных для преподавания предмета музыкальной литературы в детских школах музыки и искусства, были проанализированы процессы организация уроков музыкальной литературы в детских школах музыки и искусства Ферганской области, и выделены недостатки и проблемы в преподавания предмета.

**Ключевые слова:** ДШМИ, нотная литература, аудио- и видеозаписи, научная программа, композитор, аудирование, музыкальные жанры, партитура, хрестоматия, фортепиано, фонотека, учебник, учебное пособие.

**Abstract:** In the article, in order to determine the level of provision of special literature (study guide and textbook), sheet music (chronology, clavir) and mono-stereo-audio, video recordings and



*pedagogical personnel necessary for the teaching of "Musical literature" in children's music and art schools. "Music literature" lesson processes in children's music and art schools of Fergana region were analyzed, shortcomings and problems in the teaching of this subject were highlighted.*


**Key words:** CHMAS, music literature, audio and video recordings, science program, composer, listening ability, musical genres, score, chrestomathy, piano, phonotheque, textbook, study guide.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda barcha yo'nalishlarga hafta davomida bir marotaba 45 daqiqa "Musiqqa adabiyoti" fani guruh dars sifatida olib boriladi. Ushbu o'quv kursi 4 yilga mo'ljallangan bo'lib, 7 yillik ta'lim yo'nalishlariga 4-sinfdan, 5 yillik ta'lim yo'nalishlariga esa 2-sinfdan boshlab o'qitiladi.

Birinchi o'quv yilida "Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti", ikkinchi o'quv yilida "Rus musiqa adabiyoti", uchinchi hamda to'rtinchi o'quv yillarida esa "O'zbek musiqa adabiyoti" darslari fanning dasturiga muvofiq ravishda belgilangan o'quv reja asosida olib boriladi. Farg'ona viloyati shahar va tumanlarida joylashgan jami 30 ta bolalar musiqa va san'at maktablaridagi vaziyatni o'z kuzatuvlarimiz orqali o'rganib, "Musiqqa adabiyoti" kursining o'qitilishidagi birqancha muammolarni tahlil qildik. Bular quyidagilar:


1. "Musiqqa adabiyoti" kursida dars mazmunini bayon etishga oid bolalar uchun yaratilgan o'zbek tilidagi darsliklar (xorijiy mamlakatlar, rus va o'zbek musiqa adabiyoti) yetishmovchiligi, ayniqsa "O'zbek musiqa adabiyoti"dan BMSMlari o'quvchilari uchun o'zbek tilida darslik mavjud emasligini, viloyatdagi barcha musiqiy – tarixiy va nazariy fanlar o'qituvchilari qayta – qayta ta'kidlashdi.

2. Tinglash uchun musiqiy asarlar video va audiotekalari jamlanmasi shakllantirilmagan. Kuzatuv olib borilgan (1, 2, 16, 21, 26, 29...) bolalar musiqa va san'at maktablarining barchasida anashunday holatga guvoh bo'ldik. Bu vaziyatning asosiy sababi pedagoglar izohiga ko'ra, xorijiy va rus kompozitorlarining asarlarini har qanday vaqtda, har qaerda topib eshitish imkoni mavjud. Kompyuter va telefonlarda ham mashhur asarlarning video va audio formatdagi



yozuvlari borligi aytilmoqda. Ulardan dars jarayonlarida zarurlarini topib foydalanishadi. Ammo "O'zbek musiqa adabiyoti"dan dasturda keltirilgan ayrim asarlar yozuvlari (mr3, mr4)ni internet orqali ham topishning imkoni yo'q. Shu sabab, o'quvchilarga asar haqidagi tarixiy va nazariy ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklanilmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, o'qituvchi bu – ijodkor, yaratuvchi va o'z navbatida atrofda qilarga ilmi–ziyo tarqatuvchi ulug' kasb egalari. Yuqoridagi holatdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugun ko'plab o'qituvchilarimizning ham kasbiga nisbatan ma'suliyatsizligi va e'tiborsizligi tufayli dasturdagi asarlarning tayyor audio va video yozuvlari biror – bir lazer diskka mavzular ketma – ketligi asosida jamlanib, audio yoki videotekalari shakllantirilmagan. Shuningdek, dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar ijrosidan foydalanish orqali maqsadga to'laqonliroq erishish yo'llarini ham izlab topish mumkin. To'g'ri, "O'zbek musiqa adabiyoti"dan tinglash uchun dasturda keltirilgan asarlarining ko'plari internet saytlariga joylanmagan. Bu borada O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi fonotekalari bolalar musiqa va san'at maktablariga ushbu asarlarning audio va video yozuvlari bilan ta'minlanishida amaliy yordam berishi orqali muammoni xal etish mumkin.

"Musiqqa adabiyoti" kursini o'rganishda biz duch kelgan yana bir muammolardan biri asarlarning nota matni (xrestomatiya, klavir yoki partitura) nashrlarining musiqa maktabi kutubxonalariga yetkazilmaganligidir. Viloyat musiqa va san'at maktablari kutubxonalarini ko'zdan kechirish natijasida, Farg'ona shahri Qirguli mavzeida joylashgan 2 - sonli BMSM kutubxonasida xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti bo'yicha xrestomatiya, ayrim chet el (Gaydn, Mosart) va rus kompozitorlari (Glinka, Chaykovskiy) asarlarining klavir va partituralarini uchratdik. Shuningdek, mazkur kurs bo'yicha turli yillarda nashr etilgan rus tilidagi darslik va o'quv qo'llanmalar ham talaygina ekan. Bolalarni mustaqil o'qib o'rganishlari uchun o'quv zallari ham hozirlangan. Shu bois boshqa maktablarga nisbatan bu yerda ishning samarali natijalari kuzatilmoqda. "Musiqqa adabiyoti" kursi dars mashg'ulotlari orqali o'qituvchilar aytarli natijalarni qo'lga kiritganliklarini ham qayd etib o'tdik. Farg'ona shahridagi



1 - sonli BMSMning musiqa nazariyasi bo'limi o'qituvchisi 38 yillik ish tajribasiga ega Sobirova Dilorom Abduljalilovanning so'zlariga ko'ra darslik va o'quv qo'llanmalarda matnlarni jonlantirish uchun berilgan musiqiy parchalar notalarini fortepianoda bolalarga cholib berish orqali ularning diqqatini nota matnlariga qaratishadi. Asarlar ovozli yozuvlarini nota matnlarini kuzatish orqali tinglash imkoniyati yo'qligi aytiladi. Buning natijasida bolalarda tinglanayotgan musiqaning nota matnini kuzatish ko'nikmasi shakllanmay qolib ketmoqda.

Bugun texnika va ijtimoiy tarmoqlarning jadallashuvi shuni ko'rsatmoqdaki, yangrayotgan musiqaning nota matnini kuzatish orqali tinglash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqning "YouTube" kanali orqali ba'zi musiqa asarlarining ana shunday formatdagi ijrolari joylanganligini ko'rib qolamiz. Bu jarayonda diqqatning 100% tinglanayotgan musiqaga qaratilishi va bolalar uchun juda qiziqarli jarayon ekanligi tajribalarimiz natijasida o'z isbotini topdi. Anashunday kompleks (Nota matni + mr3) formatni dars jarayoniga tadbiiq qilish yo'li haqida bosh qotirish vaqti keldi nazarimizda. Bu borada ham O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyuushmasi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi fonotekalari hamda Madaniyat vazirligi tasarrufidagi turli ovoz yozish studiyalari ko'magiga muhtojmiz.


3. Kuzatuvlarimiz natijasi o'laroq dars mashg'ulotlari olib boriladigan sinflarning texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi ham qoniqarli emas. Imkon doirasida o'qituvchilar mobil telefon va kompyuterlardan, turli ko'rgazmali qurollar (foto suratlar, chizma, jadvalli grafiklar), sinf doskasi kabilardan foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borishmoqda. Ammo, XXI asr bolalarining bugun qiziqishlari qay tomonga ketmoqda? Ularning diqqatini dars jarayoniga jalb qilishning o'zi mushkul ish bo'lib borayotganligini inkor etolmaymiz. Shuning uchun pedagoglardan kasbga bo'lgan ma'suliyatni yanada kuchaytirilishi va zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy uslublarni qo'llash orqali yoshlarning ta'lim tarbiyasida yaxshi natijalarga erishilishi davlat rahbari tomonidan ham ta'kidlanmoqda. "Musiqqa adabiyoti" sinflariga hajmni kattalashtiruvchi ekranlarni o'rnatish va o'qituvchi mavzuga aloqador taqdimot, konsert dasturi, ijodkorlarning intervyulari, asar ijrosi haqidagi mutahassislarining fikr mulohazalari aks etgan video va audio



lavhalarini, ma'ruzalar orasida qo'yib eshittirish orqali darslarni qiziqarli va muhimi o'quvchilar yodiga muhrlashga qaratilgan maqsadni amalga oshirilishida eng samarali yo'lni topa bilishi zarur. To'g'ri, bu jarayon o'qituvchidan katta mehnat va mahorat talab etadi. Shu bois ham ishimizda mutaxassis kadrlar masalasiga alohida to'xtaldik.

4. Farg'ona viloyatida joylashgan 30 ta BMSM maktablarida ayni vaqtda 160 dan ziyod musiqiy – nazariy va tarixiy fan o'qituvchilari faoliyat yuritmoqda. 2020 yil yanvar oyidagi to'plagan ma'lumotlarimiz ya'ni kadrlar haqidagi jadvalimizga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, 160 nafar o'qituvchidan 10 nafarigina oliy ma'lumotli musiqashunoslar bo'lib, soha mutaxassislari sanaladi. 50 nafardan ziyodroq kadrlar "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida tahsil olgan va hozirda ham sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan mutaxassislardir. Kadrlarning 3 dan 2 nafari o'rta maxsus ma'lumot bilan ishlab kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki oliy ma'lumotli musiqashunos kadrlarga bo'lgan talab yuqori darajada. Ushbu muammoga Farg'ona vodiysi (Andijon, Namangan, Farg'ona)da biror pedagogika instituti, universitetida yoki O'zbekiston davlat madaniyat va san'at institutining Farg'ona mintaqaviy filialida musiqashunoslik soxasi vakillarini tayyorlashni yo'lga qo'yilishi orqali munosib yechim topish mumkin.

Ko'rib chiqilgan masalalar dars jarayonining to'laqonli tashkil etilishi va fanning mazmuni, darsning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar bo'lib, bu borda kuzatilayotgan muammolarni aniqladik. Shu o'rinda hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan "Musiqqa adabiyoti" fani dasturidagi kamchiliklar ham muhokamalarimiz markaziga aylandi. "Musiqqa adabiyoti" kursining birinchi va ikkinchi o'quv yili uchun ishchi o'quv dasturini tuzishda Rossiya ish tajribalariga tayangan holda tizimlashtirilgani ko'rinmoqda. Biroq, uchinchi va to'rtinchi o'quv yili "O'zbek musiqqa adabiyoti" ishchi dasturida mavzularni tizimlashtirish, o'rganilish ketma ketligi ya'ni izchillik, qabul qilinishidagi murakkablik darajasiga ko'ra soatlarning yillik taqsimoti o'rinli hal etilmagan. Har bir dars, chorak, yarim yillik uchun aniq maqsad va vazifalar belgilab olinmagan. Shu bois, "O'zbek musiqqa adabiyoti" bo'yicha o'quvchilarga yetarli bilimlar berilmayotganligi amalda o'z isbotini tasdiqlab turibdi. Vaziyatni o'rganish jarayonida muammolarning barchasi deyarli darslik bilan bog'liq bo'ldi. Ammo



darslik muammosini hal etishdan avval fan dasturining mukammalligini ta'minlash birlamchi o'rinni egallaydi. Shu bois uchinchi va to'rtinchi o'quv yili uchun "O'zbek musiqa adabiyoti" dan namunaviy mavzular rejasini qayta tuzib chiqdik va ayni vaqtda sinov, tajriba sifatida Farg'ona viloyatidagi 21 – sonlibolalar musiqa va san'at maktabining "Fortepiano" bo'limi 6– sinf o'quvchilariga ushbu ishchi dasturimiz asosida dars mashg'ulotlarini olib bormoqdaman. Tajribalarimizdan olingan natijalarga qarab, yaqin yillar ichida darslik muammosini hal etishga qaratilgan harakatlarimizni ham boshlash niyatidamiz.

Maqolamizda darsning an'anaviy uslubi uchun zarur me'zonlarni ta'kidlagan holda muammolarni ko'rsatdik. XXI asrda har bir fan taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi, yangi bir sifat darajasini qayd etdi. Bunda tajriba usul va uslublari o'zgardi. Musiqiy – tarixiy fanlarni o'qitishda ham ushbu tajriba usul va uslublarni tadbiq etish zarur. Ushbu ishimiz bolalar musiqa va san'at maktablarida "Musiqa adabiyoti" fanining ahamiyatini oshirish maqsadidagi izlanishlarimiz bo'lib, kelgusida BMSMlari uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishga o'z hissamizni qo'shish istagidamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. "Madaniyat va san'at soxasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish – chora-tadbirlari to'g'risida" 6000-son Farmoni. Toshkent sh., 2020 – yil 26 – may.
2. Karimov I. "BMSMlarning moddiy – texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 – 2014 – yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida" 910-son Qarori. Toshkent sh., 2008-yil 8-iyul.
3. Лагутин А.. Методика преподавания музыкальной литературы в детской музыкальной школе. М., Планета музыки, 2016.
4. Agaeva M.B., Sivaya I.Yu., Kaplina Ye.M., Demidova L.L., Xalimova N.D., Djalolova Sh.X.. BMSM uchun "Musiqa adabiyoti" fani dasturi. Toshkent., 2019.
5. Mamajonova E. Musiqiy – tarixiy fanlarni o'qitish metodikasi. T.: Musiqqa, 2020.



#### **ABDUHOSHIM ISMOILOV IJODIGA CHIZGILAR**

**Maftuna SAIDOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Komila BO'RIYEVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI dotsenti,*

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*


**Annotatsiya:** *Abduhoshim Ismoilov hozirgi zamon o'zbek musiqa ijodiyoti sohasida o'z o'rniga ega bo'lgan sermahsul san'atkordir. Uning serqirra ijodiy uslubida xilma-xil manbalar o'zaro uyg'un holga kelganligini ko'ramiz. Bunda bir tomondan, o'tmish bastakorlik an'analari, ikkinchi tomondan esa XX asrdan boshlab qaror topa boshlagan yangi an'analar mushtarak aks etadi. Ushbu maqolada ustoz san'atkor, mohir sozand, bastakor Abduhoshim Ismoilovning hayoti va ijodiy faoliyati xususida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ijro uslubi, "ustoz-shogird", qo'shiqchilik san'ati, maqom, an'ana.*

**Аннотация:** *Абдухошим Исмаилов – плодovitый артист, занимающий видное место в сфере современной узбекской музыки. Мы видим, что различные источники стали гармоничными в его творческом стиле. В этом, с одной стороны, отражаются общие прежние традиции композиции, а с другой стороны, новые традиции, начавшие находить решение с XX века. В данной статье рассматривается жизнь и творчество мастера-художника, мастера-музыканта, композитора Абдухошима Исмаилова.*

**Ключевые слова:** *исполнительский стиль, "устоз-шогирд", певческое искусство, маком, традиция.*

**Abstract:** *Abdukhoshim Ismailov is a prolific artist who occupies a prominent place in the field of modern Uzbek music. We see that various sources have become harmonious in his creative style. This, on the one hand, reflects the common old traditions of composition, and on the other hand, new traditions that began to find a solution from the 20th century. This article discusses the life and work of the master artist, master musician, composer Abdukhoshim Ismailov.*



**Key words:** *performing style, "ustoz-shogird", singing art, makom, tradition.*

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" unvonlari sohibi, "Mehnat shuhrati", "El-yurt hurmati" hamda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordenlari sazovori sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov 40 yildan ziyodroq vaqt davomida Respublikamizning eng nufuzli jamoalaridan biri bolgan Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansamblida faoliyat olib borib, bu davrning aksariyat qismida ushbu jamoaga rahbarlik qilib kelmoqda. Aytish joizki, Abduhoshim Ismoilov badiiy rahbarligida maqom ansambli o'ziga xos tarzda faoliyat olib borib, Shashmaqom namunalarining zamonaviy talqinini yaratishga muvassar bo'ldi. Avvalo, maqomlarni ijro amaliyotida ustozlardan meros qolgan ijrochilik an'analarni saqlab qolgan holda zamonga xos va mos tarzda boyitishga intildi.

Abduhoshim Ismoilov hozirgi zamon o'zbek musiqa ijodiyoti sohasida o'z orniga ega bo'lgan sermahsul san'atkordir. Uning serqirra ijodiy uslubida xilma-xil manbalar o'zaro uygun holga kelganligini ko'ramiz. Bunda bir tomondan, o'tmish bastakorlik an'analari, ikkinchi tomondan esa XX asrdan boshlab qaror topa boshlagan yangi an'alar mushtarak aks etadi.

Farg'ona vodiysining eng go'zal musiqiy an'analari og'ushida tug'ilib voyaga yetgan bastakorning ijodiy uslubi ashula, yalla, maqom va katta ashulalar tarovati hamda sozandalik an'alaridagi eng nozik xislatlar ta'sirida shakllandi. Uning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan Abduhoshim Ismoilovning torli kamonli cholgusi bo'lmish g'ijjak sozi ijrochiligini mukammal egallaganligi bilan ham belgilanadi.<sup>55</sup>

Abduhoshim Ismoilov 1952-yili Farg'ona viloyatining Quva tumanida tavallud topgan. U musiqa san'atiga bolaligidan qadam qo'ydi. Uning bobosi usta Jumarasul Xojayev oz davrining yirik musiqachilaridan bo'lgan. Skripka va nay cholg'ularining mohir ijrochisi, Xorazm maqomlari, Uygur muqomlari, Buxoro Shashmaqomi va ayniqsa Fargona Toshkent maqom yo'llarini puxta o'zlashtirgan.

<sup>55</sup> Ulug'bek Mamdjanov maqolasi 24-29 betlar.



Ustozning o'zi bu borada - "Bilmadim, bizga bu "dard" validamizning "Alla"siyu, "nolishlaridan" yuqqandir," - deb ta'kidlaydi.

"Onam Faxriniso Sofiyeva Juma buvamning birinchi farzandlari bo'lgan. Buvam o'z uyida shogirdlari bilan mashq qilgan paytlarida onam hovli supurib, ularga dasturxon yozib, choy berib yurganlar va quloqlariga maqom kuylari kirib o'rnatib qolgan.

Birinchi ustozim - onam. Negaki, men g'ijjak chalganimda: "Bu yeri kam bo'ldi, mana bu joyini cho'zib yubording" - deb tanbeh berib turar edilar. Onamiz o'zlari aslida san'atkor bo'lmaganlar, lekin kuyohanglarni yoddan bilganlar va xirgoyi qilganlar".

Yosh bastakorni yuqori darajadagi musiqiy qobiliyatini ko'rgan amakisi Abdulalom Umarov uni 6-sinflik paytida paytida Quva tumanidagi markaziy madaniyat uyiga olib kelgan. Ushbu maskaning qizg'in san'at o'chog'iga aylanishiga sababchi bo'lganlar.

Bo'lg'usi sozanda va bastakor sakkizinchi sinfni o'z qishlog'idagi 33-sonli va to'qqizinchi hamda hamda o'ninchi sinflarni Farg'ona shahridagi 1-sonli umumta'lim maktablarida o'qib tahsil oladi. Quva tumanida Abduhoshim Ismoilovga musiqa sirlarini asosan amakisi Abdulalom Umarov o'rgatgan bo'sa, Farg'onada o'z zamonasing mashhur sozandalari, rubobchi Muxtorjon Muxtorov va Yoqubjon Solievlardan bilim ola boshlagan.

Abduhoshim Ismoilovning musiqa bilim yurtidagi birinchi ustozlari rus millatiga mansub skripkachi mutaxasis Aleksandr Lapshin bo'lgan. Garchand g'ijjakchi mutaxasis bo'lmasa-da, bu mohir pedagog o'zidagi bor barcha mahoratini ishga solib yosh ijrochiga g'ijjak cholg'usini o'zlashtirishdagi ilk qadamlarini tashlashga o'rgatgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Rahmiddin Qipchoqov boshqarar edi. Ma'lumki, orkestrda cholg'ular guruhlariga bo'lingan bo'lib, har bir guruh o'z partiyasini ijro etadi. Aynan mana shu ko'povozlik musiqiy muhit Abduhoshim Ismoilovga o'zining ijobiy ta'sirlarini o'tkazadi. O'sha kezlarda orkestr uchun milliy kuylar kamligi sababli Rahmiddin Qipchoqov xalq kuylarini orkestrga moslashtirish orqali repertuarini ancha boyitgan. Darhaqiqat, uning ijodiy ishlaridan hozirgi kunga qadar ham respublikamizdagi ko'plab ta'lim muassasalarida foydalaniladi va bir qator asarlari tanlovlarning shartli asari sifatiga ham ro'yxatga kiritilgan. Yosh, izlanuvchan va bir oz sho'x sozanda Abduhoshim Ismoilov orkestrda o'z partiyasini ijro



etish paytida asarlarga ijodiy yondoshib, u yer-bu yeriga “nola” va “qochirim” lar qo‘shib ustozimdan tanbeh olgan kunlarim ham bo‘lgan. Aynan shu davrlarda Abduhoshim Ismoilov ustozlaring saboqlari va qimmatli o‘g‘itlari bilan professional san‘atga kirib keldi.

Shu o‘rinda aytish joizki, yosh sozandaning kelajakdagi ijodiy faoliyati uchun asosiy mezonlardan biri bo‘lgan ko‘povozlik tafakkurning shakllanish jarayoni ham aynan bilim yurtida kechgan. Ushbu davrda bu o‘quv maskaning Xalq cholg‘ulari orkestri sinfini mohir, talabchan pedagog va ijodkori O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Rahmiddin Qipchoqov boshqarar edi.

Abduhoshim Ismoilov 1967-yili Farg‘ona san‘at bilim yurtiga g‘ijjak mutaxassisligi bo‘yicha tahsil ola boshlagan. O‘qish davrida Abduhoshim Ismoilov Farg‘onadagi ipak yigiruv (tekstil) kombinatiga qarashli “Madaniyat saroyi”dagi havaskorlar ansamblida sozandalik faoliyatini yuritadi va har bir ijrosida albatta yangilikka intilish, asarlarni yangicha talqin etish o‘ziga xos an‘anaviy bezaklar bilan bezash, ohanglarni milliy nolalar bilan boyitish va albatta ijodiy yondashish, izlanish va uslubiy yangiliklar qidirishga harakat qiladi. Bu esa uning keyingi ijodiyotining o‘ziga xos tarzda shakllanishini ta‘minlab berdi. Bugina emas, Abduhoshimga Ismoilovga bilim yurtida sozandalargina emas, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari ham puxta bilim beradilar. Ularning sabog‘i natijasida she‘riyat sirlarini ham o‘rganadi, mumtoz she‘riyatga mehr qo‘yadi.

Farg‘onada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Tavakkal Qodirov bilan hamkorlik qilib, uning sozandalari safida xizmatda bo‘ladi, elga taniladi. Kelajagi porloq shogirdining oliy ma‘lumotli bo‘lishini xohlagan ustoz Tavakkal Qodirov uni poytaxt muhitida ta‘lim olishi uchun oq fотиha berdi.

Armiya safiga chaqirilganda ham unga omad kulib boqadi. Boshqarmasi Toshkentda joylashgan O‘rta Osiyo harbiy okrugi madaniyat va ma‘rifat bo‘limi qoshida tashkil etilgan mill ashula va cholg‘ular ansamblida sozanda bo‘lib xizmat qiladi. Ansambl badiiy rahbari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ikromjon Bo‘ronov unda bastakorlik iste‘dodi borligini payqab, zamonaviy shoirlar she‘rlariga yangi kuylar yaratishga undaydi. Shunday qilib harbiylar ansamblida u ham sozanda, ham bastakor sifatida taniladi.



Armiya safiga chaqirilganda ham unga omad kulib boqadi. Boshqarmasi Toshkentda joylashgan O‘rta Osiyo harbiy okrugi madaniyat va ma‘rifat bo‘limi qoshida tashkil etilgan milliy ashula va cholg‘ular ansamblida sozanda bo‘lib xizmat qiladi. Abduhoshim Ismoilov hozirgi zamon o‘zbek musiqa ijodiyoti sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sermahsul san‘atkordir. Uning serqirra ijodiy uslubida xilma xil manbalar o‘zaro uyg‘un holga kelganligini ko‘ramiz. Bunda bir tomondan, o‘tmish bastakorlik an‘analari, ikkinchi tomondan esa XX asrdan boshlab qaror topa boshlagan yangi an‘analar mushtarak aks etadi.

Farg‘ona vodiysining eng go‘zal musiqiy an‘analari og‘ushida tug‘lib voyaga yetgan bastakorning ijodiy uslubi ashula, yalla, maqom va katta ashulalar tarovati hamda sozandalik an‘analaridagi eng nozik xislatlar ta‘sirida shakllandi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘p jihatdan Abduhoshim Ismoilovning torli kamonli cholg‘usi bo‘lmish g‘ijjak sozi ijrochiligini mukammal egallaganligi bilan ham belgilanadi.

Ansambl badiiy rahbari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ikromjon Bo‘ronov unda bastakorlik iste‘dodi borligini payqab, zamonaviy shoirlar she‘rlariga yangi kuylar yaratishga undaydi. Shunday qilib, harbiylar ansamblida u ham sozanda, ham bastakor sifatida taniladi.

Harbiy xizmat muddati tamom bo‘lgandan keyin Abduhoshim Ismoilov 1975-yili Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat Konservatoriyasining “Sharq musiqasi” kafedrasiga g‘ijjak mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilinadi. Yana shu yilning o‘zida u Respublika Davlat teleradiokompaniyasi qoshidagi “Maqomchilar ansambli”ga ishga taklif etiladi. Maqom ustozlari faoliyat olib boradigan, haqiqiy Sharq san‘ati ustaxonasi bo‘lgan bu dargoh Abduhoshim Ismoilov uchun muqaddas bo‘lib, bu jamoadagi buyuk insonlar bilan bir safda ishlash doimo uning orzusi bo‘lib kelgan edi. Bu orzular ostida, avvalo maqom ijrochiligini puxta egallash bo‘lsa, ikkinchidan o‘zbek xalqining eng mukammal musiqa merosi bo‘lgan maqomlarni har tomonlama o‘rganish, ustozlar rahnamoligida o‘zlashtirish, amaliy va nazariy jihatlarini idroklash, o‘z barmoqlari bilan sirli sadolarni maromiga yetkazib tarannum etish edi.




Abduxoshim Ismoilov ansamblda milliy musiqamiz bilimdonlari, benazir sozandalar, taniqli, atoqli bastakorlar, mug'anniylar, mutriblar va hofizlar - Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Muhammedov, Orif Alimaxsumov, Turg'un Alimatov kabi maqom san'at darg'alaridan maqom sirlarini o'rganadi. Bastakor aynan shu muhitda tarbiyalanishi uning ijrochilik faoliyati va bastakorlik mahoratining o'sib rivojlanishiga poydevor bo'lgan.

Abduhoshim Ismoilovni benazir ijodkor deb bejizga aytilmagan chunki, bastakor har tomonlama mukammal ijodkordir. Uni sozanda, xonanda, bastakor, ustoz va bir qancha nomlar bilan tariflash mumkin. Qolaversa ijodkorni juda ham kuchli xotira egasi deb atashimiz mumkin. Ustozni bir marta aytgan ashulasi bo'ladi, chalgan kuyi bo'ladimi har doim yodlarida bo'ladi.

Abduhoshim Ismoilovni davlat tadbirlaridagi jonbozligi, jonkuyarligi haqida gapiradigan bo'lsak, ustoz har bitta davlat tadbirlarini risoladagidek o'tishi uchun bor kuch-g'ayrati bilan xalqimizga xizmat qilib kelmoqda. Yana shuni alohida takidlash kerakki Abduhoshim Ismoilovdek bugungi kundagi vertiyoz chaladigan sozanda juda ham kam deb hisoblayman. Hozirgacha bitta ham davlat tadbirlari Abduhoshim Ismoilovsiz o'tmaydi. Tantalali Sharq taronalari, Navruz bayrami, Mustaqillik bayrami, Maqom festivallari, Hunarmandlik festevali, O'qituvchilar kuni, Vatan himaoyachilari kuni va bir qancha davlat tadbirlarida beminnat xizmat qilib, ham musiqahambar ham o'zining ansambli bilan qatnashadi va hu o'tkazilayotgan tadbirlarda juda ko'plab kuy va qo'shiqlarni yozgan. Bastakor haqiqiy fidokor, jonkuyar deyishimiz mumkin. Shaxsan o'zim ustoz ham 2019-yildan beri ustozni qo'l ostilarida talim olib kelmoqdaman. Biz shu yili 70 dan ortiq talabalar bilan birgalikda yigirma ikkinchi "Sharq taronalari" festevalini birgalikda o'tkazganmiz. Bizlar o'sha paytlari institutning 1-yoki 2-bosqich talabalari bo'lganmiz. Ustoz Abduhoshim Ismoilov bizga katta ishonch bildirib, qariyb to'rt oy mobaynida biz bilan tinimsiz shug'ullanib bizga juda ham ko'p ashulalar o'rgatganlar va ustozni say harakatlarining mahsuli bo'lmish butun boshli tadbir juda ko'tarinki ruhda o'tgan.

Ustoz Abduhoshim Ismoilov Sharq taronalari festevalini marhum rejissor Bahodir yo'ldoshev bilan birgalikda hamfikir bo'lib o'tkazishgan. Bunga shaxsan o'zim qatnashgan festival misol bo'la



oladi. Bu haqida gapirar ekanman, birinchi navbatda bu ikki ijodkorning bir-birini so'zsiz tushunishini, bir-biriga nisbatan o'zaro xurmatini ko'rib juda ham ta'sirlanganman. Bu ikki ijodkor juda ko'p yillar mobaynida birgalikda ijodiy hamkorlik qilishgan. Ularning uzoq yillab ijod qilishining asosiy sababi ham qalban bir birlariga musiqahambar orqali bog'langanligi deb aytishimiz mumkin. Abduhoshim Ismoilovni yana bir eng o'rnak oladigan tomoni shundaki ular birovni xurmat qilsa chin ko'ngildan xurmat qiladi, hech qachon o'rganishdan, izlanishdan to'xtamaydi.

Ustoz san'atkorning davlat tadbirlaridagi faoliyatiga yana bir misol qilib, 2018-yili bo'lib o'tgan Shahrizabz shahridagi "Maqom san'ati anjumani" ni aytishimiz mumkin. Bu festival juda katta tayyorgarlik va ustoz Abduhoshim Ismoilovning say harakatlari bilan ko'ngildagidanda ziyoda ravishda o'tkazildi.<sup>56</sup>

O'zbekiston musiqashunosligining taniqli vakili, san'atshunoslik fanlari doktori Oqilxon Ibrohimovning "Sohibqiron Amir Temur va maqom" deb nomlangan ma'ruzasi bilan yalpi majlis boshlandi. Bunda Temuriylar davrida maqomga bo'lgan e'tibor, xalqaro aloqalarning ham aynan shu davrda rivojlangani takidlandi.

O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori, professor Soibjon Begmatov ham maqom tashkiloti zimmasidagi vazifalar to'grisida fikr yuritdi. Shundan so'ng chet elda ilmiy izlanishlar olib borgan fan doktori Dilorom Karomat Ingliz tilida tayyorlangan ma'ruzasi bilan qatnashdi. Bundan tashqari Shaxnoza Oyxo'jayeva, Aziz Zokirov, Baxtiyor Ashurov va bir qancha konferensiya ishtirokchilari chiqishlar qilishdi.

Ozarbayjonlik fan doktori Sanubar Bagirova, Lola Huseynova konferensiyaning saviyasini ko'tarishga o'z hissalarini qo'shishdi.

Janubiy Koreyaning Yonsey universiteti professori Ban Boxi Gim xonim O'zbek maqomi va Koreys an'anaviy musiqahambar janrlarining qiyos hamda ham Hindistonlik Shabir Ahmad Mir Kashmir so'fiylarning kamyob musiqahambar marosimi haqida so'zlashdi. Bu esa tinglovchilarga katta qiziqish uyg'otdi. Konferensiya ishi yakunida quyidagi yangi nashrlarni taqdimoti e'lon qilindi.

<sup>56</sup> "San'at" jurnali, R. Yunusov Mumtoz maqom san'ati: yuksalish yo'lidan, Toshkent - 2018.



O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori sohibi, tadqiqotchi olim Otanazar Matyoqubov qalamiga mansub "Buxoro shashmaqomi" hamda "Xorazm dutor maqomlari va Oltin yarim maqomi" kitoblari, san'atshunoslik fanlari nomzodi professor Ravshan Yunusovning O'zbek, rus va ingliz tilida chop etilgan "O'zbek maqomlari" ilmiy ommabop kitobchasi shuningdek, O'zbek maqom simfonizm asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Mirsodiq Tojiyev hayoti va ijodini yoritishga bag'ishlangan monografiya katta qiziqish uyg'otdi.

Anjuman doirasida faol ijrochilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'sis etilgan "Eng yaxshi maqom ustoz", "Eng yaxshi maqom targ'ibotchisi", "Eng yaxshi maqom bastakori" kabi nominatsiyalarda g'oliblar munosib taqdirlandi.

Xulosa qilib aytganda go'zal diyorimizga bayramlar, go'zal kuy qo'shiqlar yarashadi. Shunday ekan yurtimizda shu kabi milliy maqom san'atimizga oid festivallar sonini yanada ko'paytirish orqali nafaqat yurtdoshlarimiz balki, chet davlatlarda ham qiziquvchilar sonini ortishiga sababchi bo'lamiz.

Keyingi anjumanlarni navbatma-navbat maqom an'analari o'choqlaridan sanalgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon kabi ko'xna shaharlarda o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'lardi deb yurtboshimiz ta'kidladilar.

Bastakorning davlat tadbirlaridagi jonbozlik qilishi haqida bir muncha so'z yuritdim. Bunga yana qo'shimcha qilib, 2019-yilda bo'lib o'tgab "Xalqaro hunarmandlar festivallari aytib o'tish joiz. Bu festivalga tayyorgarlik jarayoni ham qaryib bir oydan oriq davom etgan. Ustoz bu tadbirda ham marhum rejissor Bahodir Yo'ldoshev bilan hamfikirlikda ish olib borishgan. Bu tadbirdan biroz oldin Sharq taronalari festivallari o'tkazib anchagina charchaganiga qaramasdan bastakor to'g'ridan-to'g'ri Xalqaro Hunarmandlar festivallari qanday o'tkazish va unda qanday ashulalar aytilishidan tortib, ashulalar ketma-ketligini joy-joyiga qo'yishni ham risoladagidek amalga oshirgan. Festivalga tayyorgarlik mobaynida har bir ishtirokchiga alohida e'tibor va mehr berib, hofizlarning ovoz imkoniyatiga moslab ashulalar ham tanlab berganlar.

Ustoz tadbirlardagi bilan tayyorgarlik jarayonlarida xonanda va sozandalarga rahbar sifatida emas balki, do'st sifatida yondashadilar.



Xonandalar ham ustozni juda ham yaqin olishadi va birgalikda ishlash jarayoni juda ham maroqli o'tadi. Bu tadbirda shaxsan o'zim ham ishtirok etganman va hech qachon esimdan chiqmaydigan voqea ham aynan shu jarayonda sodir bo'lgan. Tinimzsiz ishlash v charchoqlar oqibatida meni to'satdan konsert boshlanishiga yarim soat qolganida tobim bo'lmay qolgan vaqtda ustoz Abduhoshim Ismoilov shunchalik jonkuyarlik qilib meni sog'ligim haqida qayg'urib xuddi otalarga g'amxo'rlik qilganliklari meni butun umr yodimda turadi. Ustoz uchun o'sha paytda ahamiyatga ham ega bo'lmasligim mumkin edi lekin, ustoz menga xuddi otalarcha mehribonlik qilganlar. Shu kabi yaxshiliklarini sanasak son sanog'i yo'q.<sup>57</sup> Abduhoshim ismoilov san'atkor sifatida orttirgan tajribalaridan kelib chiqib shunday deydi: "Inson hech qachon zo'rligini bilmasligi kerak, san'atkor qanchalik darajada kamtarin bo'lsa shunchalik uzoq vaqt davomida ijodning yuqori cho'qqilarini egallaydi. Anashunday kamtarin inson timsolini bastakor Abduhoshim Ismoilovda ko'rishimiz va ulardan qanchalik odobni, axloqni, san'atni, madaniyatni o'rgansak kam. Bastakor aytadiki: men qachon biror davraga yoki sahnaga chiqib kuy chaladigan bo'lsam, birinchi marta chalayotgandek his qilaman o'zimni. Maqomni ijro qilish, mukammal ijro qilish uchun har bir san'at vakili anashunday his tuyg'uni ya'ni men bugun birinchi marta sahnaga chiqayabman va albatta yaxshi chalishim kerak deb ixlos qilishi zarur" deb xisoblaydi bastakor.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uboidulloev S. Sog'inganimda (Monografiya). – Toshkent. "Adast poligraf", 2022.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodi, Toshkent – "Niso poligraf" – 2017.
3. Shashmaqom saboqlari (maqola va ma'ruzalar to'plami) Toshkent – 2007.
4. Sulonov A. "Mumtoz ashula va qo'shiqlar ijrochilari va bastakorlari. Toshkent – "Innovatsiya-Ziyo" 2021.
5. Yunusov R. "San'at" jurnali, Mumtoz maqom san'ati: yuksalish yo'lidan, Toshkent – 2018.

<sup>57</sup> Abduhoshim Ismoilov bilan suhbatdan.



## YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTINING TASHKIL TOPISHI

*Malika QURBONOVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Komila BO'RIYEVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI dotsenti,*

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Respublikamiz tomonidan maqom san'atini yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati (maqom) institutining tashkil topishi va uning faoliyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maqom va baxshichilik, Madaniyat va san'at sohasi, xalq ijodiyoti, "ustoz-shogird" an'analari.

**Аннотация:** В этой научной статье нашей Республики В нем рассказывается о создании Узбекского национального института музыкального искусства (макома) имени Юнуса Раджаби, созданного в целях дальнейшего развития макомного искусства, и его деятельности.

**Ключевые слова:** статус и благотворительность, культура и искусство, народное творчество, традиции "устоз-шогирд".

**Abstract:** In this scientific article by our Republic It talks about the establishment of the Uzbek National Music Art (Maqom) Institute named after Yunus Rajabi, which was established in order to further develop the art of maqom, and its activities.

**Key words:** status and welfare, culture and art, national creativity, "ustoz-shogird" tradition.

Maqom va baxshichilik san'ati sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 2-sentabr kuni Vazirlar Mahkamasining 536-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



"Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat konservatoriyasining "O'zbek maqom san'ati fakulteti" hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari negizida maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi - Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilgan.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutiga O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidan o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar ro'yxati ham tasdiqlandi.


Institut yuridik shaxs maqomiga, o'z ustaviga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida shaxsiy g'azna hisobvarag'iga ega bo'lgan, bir nechta ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Bir qancha xalqaro ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlariga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'limning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga idoraviy jihatdan bo'ysunadi.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari haqida ham to'xtalib o'tamiz. Bular:

- madaniyat sohasi ehtiyojlaridan kelib chiqib maqom ijrochiligi va baxshichilik san'ati bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish;

- maqom ijrochiligi va baxshichilik san'ati bo'yicha fundamental, amaliy va ijodiy izlanish hamda tadqiqotlar olib borish, sohada shakllangan ijodiy maktablarning o'ziga xos ijro uslublari va an'analarini qayta tiklash va rivojlantirish;

- milliy musiqa san'ati va xalq ijodiyoti yo'nalishlarida o'quv-metodik adabiyotlar yaratish, atoqli bastakorlar, hofiz va sozandalar,



baxshi va oqinlarning ijodiy merosini chuqur o'rganish va qayta tiklash, shuningdek, mumtoz musiqa san'ati namunalarini notaga ko'chirish;

- milliy musiqa san'ati va xalq ijodiyoti yo'nalishlarida xorijiy ta'lim muassasalari va markazlari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

- o'quv jarayonining amaliyot bilan uzviylikini ta'minlash maqsadida madaniyat muassasalari va badiiy jamoalar bilan talabalar amaliyotini tashkil etish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash bo'yicha maqsadli hamkorlikni yo'lga qo'yish;


- milliy musiqa san'ati va xalq ijodiyoti yo'nalishlarining ijodiy, ilmiy-metodik va ijro an'alarini puxta o'zlashtirish maqsadida madaniyat va san'at sohasidagi ta'lim muassasalari tegishli o'quv dasturlarining uzluksizligi va uzviylikini ta'minlash, ta'lim muassasalariga taniqli san'atkorlarni birlashtirish va shu asosda "ustoz-shogird" an'alarini keng joriy etish;

- respublikadagi bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktablari, maktab-internatlar hamda musiqa va san'at kollejlari ta'lim olayotgan, turli ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan iqtidorli yoshlarning seleksiyasini amalga oshirish va ularni Institutga o'qishga jalb etish tizimini ishlab chiqish;

- maqom va baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim olayotgan o'quvchilar, "Xalqaro maqom festivali" va "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali" doirasida tashkil etiladigan ko'rik-tanlovlarda iste'dodli yoshlarning seleksiyasini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga keng joriy etish, xususan, yoshlarni musiqa va san'atga keng jalb qilish, ularda estetik did va kasb odob-axloqini tarbiyalash maqsadida madaniyat, musiqa va san'at yo'nalishida turli tanlovlar, ko'rgazmalar, ansambllar va to'garaklar tashkil etish.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida o'quv jarayoni 2020/2021 o'quv yilidan boshlandi. 2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga bir nechta yo'nalishlar (mutaxassisliklar) bo'yicha o'qishga qabul qilingan, shuningdek, ushbu



yo'nalishlar (mutaxassisliklar)da tahsil olayotgan talabalar o'qishlarini Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida davom ettirdilar.

2021/2022 o'quv yilidan boshlab Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutiga talabalarni bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul qilish soni har yili belgilangan tartibda tasdiqlanadigan respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish parametrlaridan kelib chiqqan holda belgilandi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab Institutda maxsus sirtqi ta'lim tashkil etildi hamda unga madaniyat va san'at ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga va ta'lim yo'nalishiga muvofiq soha, kasb, lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga (pedagogika yo'nalishlari uchun pedagogik stajga) ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan berilgan tavsiyanomaga ega, test sinovlaridan (kirish imtihonlari yoki kasbiy suhbatdan) muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar qabul qilindi.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutiga quyidagi huquqlar berildi:


- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda o'quv rejaları va dasturlarini, bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash;

- kredit-modul tizimini o'quv jarayoniga joriy etish borasida professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasini mustaqil me'yorlashtirish, shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan olib borilayotgan o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini, "ustoz-shogird" an'analari joriy qilinishini rag'batlantirib borish;

- o'quv rejalaridagi nazariy ta'lim ulushini qisqartirish hisobiga amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish.

2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan professor-o'qituvchilarning ijodiy faoliyati natijalari quyidagilarga tenglashtirildi:

- "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi", "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti", "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi", "O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi" faxriy unvonlari - professor ilmiy unvoniga;



- “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist”,  
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”  
faxriy unvonlari - dotsent ilmiy unvoniga;

- ijodiy ishlar (sahnalashtirilgan musiqiy spektakl, musiqiy asarlar, konsertlar, badiiy, hujjatli, qisqa metrajli va animatsion filmlarga yozilgan musiqalar) muallifligi - ilmiy, o‘quv-metodik ishlarga.


Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda ilg‘or xorijiy tajribani atroflicha o‘rgangan holda, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘quv reja va o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayoni sifatli tashkil etildi.

Institutning ilmiy-pedagog kadrlari tarkibini oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan, shu jumladan, xorijiy ta’lim va ilmiy muassasalarda malakasini oshirib kelgan professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar, shuningdek, sohadagi salohiyatli amaliyotchi mutaxassislar orasidan shakllantirildi. O‘zbek milliy musiqa san’ati va xalq ijodiyotining ijodiy, ilmiy-metodik va ijro an‘analarini puxta o‘zlashtirish va munosib davom ettirildi, bunda ta’lim muassasalariga maqom va baxshichilik san’ati hamda xalq musiqasi ustalarini jalb etildi.

Respublikadagi mavjud bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maktab-internatlar hamda madaniyat, musiqa va san’at kollejarida o‘zbek milliy musiqa san’ati va xalq ijodiyotini o‘qitish tizimining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlandi.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida 2021-yildan boshlab respublikadagi bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maktab-internatlar hamda madaniyat, musiqa va san’at kollejariga Institutning yetakchi professor-o‘qituvchilarini birlashtirish orqali “mahorat maktablari” yo‘lga qo‘yildi hamda iqtidorli talabalarning mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan nufuzli



tanlov, festival va ilmiy-ijodiy tadbirlarda muntazam ishtirok etishlarini ta’minlash yuzasidan zarur choralar ko‘rildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

6. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli / “Xalq so‘zi”, 2019-yil 22-oktabr, №2 18;

7. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollarga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.



## MILLIY O'ZBEK OPERA SAN'ATIGA AYOL VOKAL XONANDALARINING QO'SHGAN HISSASI

*Nilufar PARDAEVA,*

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
"Akademik xonandalik va opera tayyorlovi"  
kafedrasida o'qituvchisi, doktorant (PhD).*

*Ilmiy rahbar: L.M.G'ANIYEVA,  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.*

**Annotatsiya:** *O'zbek opera san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan opera xonandalari va ularning ijodi haqida ma'lumotlar. Ular tomonidan ijro etilgan, yangi talqinga ega bo'lgan obrazlar tasnifiga to'xtalib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kompozitor, opera, libretto, vokal, maqom, dirijor, rejissyor, xonanda, ariya.*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются вопросы узбекского оперного искусства. На материале анализа оперного жанра и их исполнителей женских голосов в творчестве узбекских композиторов выявляются выразительные средства, направленные на воспитания подрастающего поколения посредством оперного искусства.*

**Ключевые слова:** *опера, театр, искусство, традиции, процесс развития, вокал, композитор, воспитание, возвышенные патристические чувства.*

**Abstract:** *The article considers the issues of uzbek opera art. On the material analysis of the operatic genre in the works of contemporary uzbek composers revealed expressive means, aimed at educating the younger generation through the art of opera.*

**Keywords:** *Opera, theater, art, tradition, development, vocals, composer, education, exalted patriotic feelings.*

Hozirgi kunda ayollarga e'tibor siyosati darajasida qaralmoqda, ayniqsa, ularning san'tga qo'shgan hissasi doimiy ravishda juda yuksak bo'lgan. Bu asrlardan asrlarga o'tib ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Ko'plab buyuk va juda ham ziyrak, ilmiy ayollarimizning siymolari katta sahnalarda turli qiyofalarda




gavdalantirilib, ular bosib o'tgan hayot yo'llari va o'rnak bo'la oladigan sharaflari teatr sahnasida ham yorqin tarzda aks etib kelmoqda.

Prezidentimiz o'zlarining 2019 yil 7 aprel kuni Termiz shahrida bo'lib o'tgan birinchi Xalqaro baxshichilik festivalida takidladilar: "Folklor san'ati bu- insoniyatning bolalik qo'shig'idir", "Baxshichilik nafaqat xalq o'tmishining aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovoqidir"<sup>58</sup> deb aytdilar. Aynan shu yo'nalishda ijod qilayotgan xonanda va ijrochilarni qo'llab quvvatlash xaqida takidladilar. Festivalni har ikki yilda bir marotaba o'tkazilishi aytib o'tildi. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda bizgacha bo'lgan ijodkor va xonandalarning ijro yo'llarini o'rganish, yoshlarga singdirish, rivojlantirish, qayta tiklash va saqlab qolish san'anning musiqashunlikning dolzarb masalalariga kiradi. Shu o'rinda opera janri bevosita o'zbek folklor na'munalari bilan ham bog'liqligi, shundan kelib chiqqan xolda ularni ijro etishda opera xonandalari bu yo'nalishni ham o'zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir.

Musiqashunlik san'ati sohasida turli jabhalarda o'zbek ayollarning faol ishtirokini ko'ramiz. Bunda soz cholg'u ijrochiligi, yakkanavozlik, ilm sohasini o'rganishda musiqashunoslik, katta jamoalar rahbarligi, ya'ni murakkab yo'nalishlardan – dirijorlik, xormeysterlik sohalaridagi faoliyatlari taxsinga loyiqdir. Shu sohalar sirasiga o'zining jozibadorligi va serqirraligi bilan go'zal ovoz sohibalari –opera sohasi xonandalari ham kiritish mumkin. Turli obrazlar, yo'nalishlarni o'zida jam qila olgan opera janridagi faoliyati bilan san'at sohasiga xissa qo'shgan, opera janrining serqirra imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda ko'plab akademik ijroda ayol xonandalari ushbu obrazlarni moxirona talqin etdilar va etib kelmoqdalar.

Birinchi qatorida iste'dodli opera artisti, o'zbek qo'shiq san'atining yirik namoyondasi Halima Nosirovani (1913-1986) aytib o'tish joiz. Tabiat bergan kuchli va yoqimli ovoz sohibasi, opera ijrochilik san'atini puxta egallagan iqtidorli aktrisa, liriko –drammatik soprana ovoz sohibasi, xonandasi Halima Nosirova o'z faoliyatini O'zbek Davlat namuna truppassi (hozirgi O'zbek Davlat Milliy akademik drama teatri)da boshladi va faoliyatini 1939 yildan boshlab

<sup>58</sup> O'zbekiston yangiliklari, Xalqaro baxshichilik festivali xalq ijodining nodir na'munalari avlodlarga bezavol yetkazadi. 07.04.2019.



uzoq yillar Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatrining yetakchi yakkaxoni sifatida faoliyat ko'rsatib, o'nlab to'laqonli obrazlar yaratdi, betakror san'at sohibasi sifatida shuhrat qozondi.

Ye.Brusilovskiyning "Er-Targ'in" operasidagi asosiy Oqjunus ayol obrazi, H.Nosirovaning birinchi opera partiyasi bo'ldi. Keyinchalik u birinchi o'zbek operalari: S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Bo'ron" operasida - Norgul, R.G. Glier va T.Sodiqov "Layli va Majnun" operasida- Layli obrazlarini yaratdi. Halima Nosirova ikkinchi jahon urushi davrida va urushdan keyingi yillarda V.Kozlovskiyning "Ulug'bek" operasida Sin Dun Fan, J.Bize "Karmen" operasida - Karmen obrazi, T.Jalilov, B.Brovsinning "Tohir va Zuhra" operasida Zuhra, R. Glier va T.Sodiqovning "Gulsara" operasida asosiy obrazni yaratdi.

Halima Nosirovaning ovoz imkoniyatlari va diapazonining kengligi tufayli messo-soprano ovozi uchun muljallangan Maysara obrazini "Maysaraning ishi" operasida birinchi marta hajviy talqinda yarata oldi. Bundan tashqari Halima Nosirova qo'shiqchilik san'atini puxta egallagan edi. Akademik ijro bilan bir qatorda uning milliy kolorit bilan uyg'un xolda ko'plab o'zbek obrazlarini takrorlanmas xolda talqin etdi. Xususan, ovoz tembri navo xususiyatlariga ega bo'lgan holda bir qator quyidagi mumtoz musiqiy asarlarni ijro etdi. Shu jumladan, "Ushshoq", "Dugoh", "Kel ertaroq", "Munojot", "Chaman ichra", "Feruz", "Gulyor", "Tanovar", "O'zgancha", "Fig'on", "Men o'zbek qiziman", "Mehnat ahli" kabi mumtoz, xalq yo'lidagi va zamonaviy qo'shiqlar hamon o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, san'at muxlislariga olam-olam quvonch baxsh etdi.

Halima Nosirovaning yarim asrlik serqirra va sermazmun ijodiy faoliyati yuksak taqdirlandi. Unga "O'zbekiston xalq artisti" unvoni berildi. San'atkor 1940, 1951 yillarda ikki marta Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 9 yilligi munosabati bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi uchun Halima Nosirova "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

Yana bir o'zbek vokal opera san'ati rivoji uchun hissa qo'shgan aktrisa va xonanda - Nazira Ahmedova (1913-1964).

N.Ahmedova O'zbek ishchi yoshlar teatri (1930 yil), Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatri (1931 yil), Respublika



radiosi (1932 yil), O'zbek musiqa teatri (1935 yil)da hamda A.Navoiy nomidagi O'zbek Davlat Opera va balet teatrida faoliyat ko'rsatadi.

N.Ahmedova ijodiy faoldiyati davomida xalqimiz orasida mashhur bo'lgan bir qator drama va operalarda bosh rollarni ijro etib, hayotiy yorqin va jozibali obrazlar yaratdi. Nazira Axmedova yuksak maxoratli, juda mehnatsevar, vatanparvar kolorotur-soprano ovoz sohibasi edi.

Aktrisa ko'plab operalardagina emas balkim musiqali drammalarda ham sermaxsul ijod qildi. Shu jumladan opera asarlarida R. Glier va T.Sodiqov "Gulsara" operasida- Asal Layli ("Layli va Majnun"), Tatyana (P.I.Chaykovskiy, "Yevgeniy Onegin"), Norgul (M.Ashrafiy, S.Vasilenko, "Bo'ron"), partiyalarini ham shunday yuksak iste'dod bilan ijro etgan.

N.Ahmedova iste'dodli aktrisagina emas, balki nafis mayin va yoqimli ovozga ega bo'lgan xonanda ham edi. Nazira Axmedova xalq kuylarini yuksak maxorat, jonkuyarlik bilan katta sahnalarga olib chiqdi. Hozirgi kunda aynan milliy folklor san'atiga ham e'tibor qaratilib muxtaram Yuqorida keltirilgan fikrimizning yorqin ijodkori Nazira Axmedova shular qatorida edi. U aytgan klassik va xalq ashulalari, zamonaviy qo'shiqlar, operalardan ariyalar hozirga qadar qo'shiq muxlislarining yodidan ko'tarilgani yo'q. Ayniqsa xonandaning "Ko'rmadim", "Ishqida", "Tong qo'shig'i", "Jonim mening", "Obod o'lkam", "Ra'no bo'lmasam", "Ishonma", "Hayolim senda", "Dilbarimo", "Mevaram" kabi qo'shiqlari yuksak bahoga sazovardir. N.Ahmedovaning nozik va yoqimtoy ovozda aytgan bu qo'shiqlarini eshitganlar beixtiyor uni O'zbekiston bulbuli der edi. Tabiat unga shunday noyob ovoz va katta iste'dod bergan edi.

Opera xonandalarining yana bir milliy ijro qadriyatlarini o'tish davrida saqlab qolgan va o'zbek opera san'atiga o'z rivojini qo'shgan, ustoz shogird an'alarini olib borgan ustoz Saodat Qobulova (1925-2006).

O'zbek musiqa merosi va milliy ashula san'atining asl na'munalarini To'xtasin Jalilov, G'anijon Toshmatov va Jo'raxon Sultonovlardan o'rgangan bo'lsa, Moskvada Belyavskaya, Gol'dman kabi ustozlardan o'zbek operasi negizlarini, qo'shiqchilik san'atini, aytim vokal yo'llarini o'rgandi va katta sahnada moxirona ko'rsata oldi.



Sodat Qobulova 1954 yilda Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatriga yakkaxon qo'shiqchi sifatida ishga o'tib, dastlab T.Sodiqov, R.Glierning "Layli va Majnun" operasida Layli partiyasini ijro etadi.

Keyinchalik Masha (M.Ashrafiy, S.Vasilenko, "Ulug' kanal"), Zuhra (T.Jalilov, B.Brovsin, "Tohir va Zuhra"), Huri (T.Sodiqov, B.M.Zeydman, D.Zokirov, Yu.Rajabiy, "Zaynab va Omon"), Sanobar (S.Boboev, "Hamza"), Dilorom (M.Ashrafiy, "Dilorom"), Asal (T.Sodiqov, R.Glier, "Gulsara"), Oyxon (S.Yudakov, "Maysaraning ishi"), Gulnor (R.Hamroev, "Zulmatdan ziyo") partiyalarini muvafaqiyatli ijro etib, yetakchi opera artistlari safidan o'rin oladi. Ayniqsa, aktrisa ijro etgan Dilorom, Oyxon, Huri partiyalari har tomonlama mukammalligi bilan unga shuhrat keltiradi.


S.Qobulova o'zbek opera artistlaridan birinchi bo'lib, chet el klassik operalarida bosh rollarni rus tilida mohirona ijro etdi. J.Bizening "Marvarid izlovchilar" operasidagi Layli, J.Puchinning "Chio-Chio-San" operasidagi Bateriaflyayxonim, J.Rosinining "Sevilya sartaoshi" operasidagi Rozina, Verdining "Rigoletta" asaridagi Jilda, P.Chaykovskiyning "Iolanta" operasidan Iolanta va boshqa partiyalar uning ijrosida rusiyzabon tomoshabinlarga ham manzur bo'ldi.

O'zbek klassik maqom va zamonaviy ashulalar S.Qobulova repertuaridan mustaxkam o'rin olgan. Ularning ovoz ijro talqinida: milliy melizmatika (nola, qochirim) ustasi, keng badiiy tasavvur egasi, o'zbek va yevropa bel canto ijrosining sintezini yaratgan ijodkor.

U maqom san'atiga ham katta xissa qo'shgan ijodkor. Hozir kunda milliy o'zbek san'atini yuqoriga ko'tarish va rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan maqom san'ati bo'yicha qarorlar qabul qilinmoqda.

Sodat Qobulova kuylagan va magnit tasmlari tushirilgan aynan maqom san'ati durdonalari: "Bayot 1, 2, 3, 4", "Talqini bayot", "Saraxbori oromijon", "Samarqand ushshog'i", "Chapandozi navo", "Dugoh", "Iroqi Buxoro", "Etmasmidim", "Bu ko'ngildir" kabi o'nlab ashulalar, Alisher Navoiy g'azallari bilan aytiladigan bir necha qo'shiqlar, o'zbek bastakorlarining romanslari hech qachon o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

S.Qobulova Yevropa va Osiyo xalqlari – rus, ukrain, chex, tojik, ozarbayjon, arman, mug'ul va boshqa xalqlarning qo'shiqlarini o'am



maroq bilan ijro etgan. U Hindiston, Birma, Kampuchiya, Tailand, Afg'oniston, Polsha, Kanada, Mongoliyada ijodiy safarda bo'lib, o'zbek qo'shiq san'atining nodir namunalarini zavq-shavq bilan ko'ylab, milliy qo'shiq san'atimizni targ'ib etdi.

Sodat Qobulova 1970-yildan beri Toshkent Davlat konservatoriyasida pedagoglik qilib, professor lavozimida ishlab, yosh talantlarni tarbiyalashda faol ishtirok etdi. Saodat Qobulova vokal san'atida o'z maktabini yarata oldi. Uning vokal san'ati maktabida ikki yo'nalish teng olib borildi. Xususan, milliy maqom aytim yo'li va akademik vokal ijrochilik san'ati bir biriga o'zviy xolda olib borildi. Buning natijasida o'z xos o'zbek milliy vokal ijrochilik san'ati yo'lga qo'yildi. Bu maktabni davomchilari ifatida shogirtlari: M.Razzoqova, T.Boyjonova, M.Mamatova, N.Parpieva kabi iste'dodli xonandalar davom ettirmoqdalar.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasini mudiri, professor Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet akademik Katta teatriga opera solistkasi Muyassar Razzoqova 1964 yilda Qoraqalpog'istonning Beruniy shahrida tug'ilgan. M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasining opera bo'limida Rozalinda Laut va Saodat Qobulovalar ustozligida tahsil oladi. 1988 yilda Alisher navoiy nomidagi opera va balet akademik Katta teatrida yakkaxon ijrochi sifatida mehnat faoliyatini boshlaydi.

Muyassar Razzoqova teatrdan sahnalashtirilgan o'zbek va jahon klassik operalarida asosiy partiyalarni ijro etadi. Oyxon (S.Yudakov, "Maysaraning ishi"), Feruza (M.Bafoev, "Umar Xayyom"), Dilorom (M.Ashrafiy, "Dilorom"), Layli (R.Glier va T.Sodiqov, "Layli va Majnun"), Violetta (J.Verdi, "Traviata"), Jilda ("Ritoletta"), Oskar ("Bal maskarad"), Rozina (Dj.Rossini, "Sevilya sartaoshi"), Lyuchiya (L.Donitsetti, "Lyuchiya di Lammermur") kabi partiyalar yosh opera solistkasi Muyassar Razzoqovaning qisqa davrdagi mehnati natijasida yuzaga keladi.

Muyassar Razzoqova dillarga orom beruvchi dilbar qo'shiqlari bilan ham keng madaniy jamoatchilikning nazariga tushdi. Ashula aytishda u avval ustoz Saodat Qobulova yo'lidan borib "Bir qamar", "Dugonalar", "Oq kaptar", "Sevimli yorim" kabi lirik qo'shiqlarni



maroq bilan aytdi. keyinchalik o'z ijod yo'lini tanlab, "Vatan", "Iftixor", "Men o'zbek qiziman", "O'lkam", "Vatan azizdir", "Gullar valsi", "Bahor nafasi", "Vatan madhi", "Sevgi izhori", "Mehring bilan yashaymiz, Vatan", "Jahonda O'zbekiston", "Millat bayrog'i", "O'zbek Davlati", "Nurli orzular" kabi Mustaqil O'zbekistonni madh etuvchi, ona – Vatanni qadrlash, uni e'zozlash, mustaqillikni mustahkamlash kabi mazmunga ega bo'lgan optimistik ruhdagi ashulalarni aytib el yurt o'rtasida qadr topdi.

Jumaniyoz Jabbarov, Normurod Narzullaev, Abdulla Oripov, Omon Matchon, Husniddin Sharipov kabi shoirlar, Mustafo Bafoev, Rustam Abdullaev, Anor Nazarov kabi bastakorlar hamda Muyassar Razzoqova ijodiy hamkorligida yaratilgan, mustaqillik davri bilan hamnafas bu lirik qo'shiqlar 90-yillar qo'shiq san'atining eng nodir durdonalari bo'lib qoldi. Ushbu qo'shiqlarning tinglovchilar ko'nglidan chuqur joy egallashida shubhasiz ijrochining – yoqimli ovoz sohibasi Muyassar Razzoqovaning ham xizmati kattadir.

Muyassar Razzoqova Germaniya, Fransiya, AQSh, Ispaniya, Italiya, Vengriya, Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, jahon klassik operalaridan ariyalar ijro etdi., o'zbek milliy qo'shiqlarni mohirona kuylab chet ellik san'at muxlislarining ham e'tiboriga sazovar bo'ldi.

San'atkor Respublika va Xalqaro tanlovlarda qatnashib yuqori darajali sovrinlarga va mukofotlarga loyiq deb topilgan. U 1989 yilda o'tkazilgan Respublikamiz opera artistlari tanlovida qatnashib, tanlov g'olibi bo'ldi. 1989 yilda M.Glinka nomidagi Xalqaro yosh opera artistlari tanlovida uchinchi mukofot, 1990 yilda Vengriyada bo'lgan vokal ijrochilari tanlovida ikkinchi mukofot sohibasi bo'ldi. 1997 yilda Italiyada bo'lib o'tgan kuchli opera ijrochilari musobaqasida o'ttizlik guruhiga kiritilib, laureatlar safidan joy oldi.

Iste'dodli opera solistkasi va xushovoz xonanda Muyassar Razzoqovaning ijodiy mehnati munosib taqdirlandi. 1998 yilda u "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'ldi. Oliy Majlis deputatligiga saylandi.

Ularni izdoshlari va davomchilari sifatida iqtidorli opera ijrochisi O'zbekistonda ximat ko'rsatgan artist, "Nihol" mukofoti sovrindori Ma'suma Boltaboeva, Aziza Muxamedova, Shirin Mamatova va ko'plab istedadli yosh opera ayol xonandalarni aytish mumkin.



Ular ijodini o'rganish hozirgi kunda ham bu dolzarb masala bo'lib, insoniyatning milliy qadriyatlarini yuqoriga ko'tarish va saqlab qolish, musiqiy tarixni bir bo'lagi sifatida o'rganish dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan barcha opera san'atiga ayol vokal xonandalarining qo'shgan hissasi ulkan bo'lib, ular tomonidan ijro e'tilgan, qayta talqin etilgan opera obrazlari yoshlar ma'naviyatini yanada o'stirish, ular ijrosini kuzatish orqali komillik sari o'sishida yana bir qadam bo'ladi deb o'ylashmiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Пеккер Я. Узбекская опера - М.: Музыка, 1984.
2. Ашрафи М. Музыка в моей жизни – Т.: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1975.
3. Плунгян В. Прodelки Майсары С.Юдакова - Т.:Издательство Фан, 1992.
4. Мурадова Д. Опера и музыкальная драма: к проблеме взаимоотношений жанров. Часть 2. Выпуск 1 - М.: Прогресс, 1996.
5. Янов-Яновская Н. Муталь Бурханов: Время, жизнь, творчество Ташкент.: MEDIALAND, 1999.



## SODIRXON HOFIZ BOBOSHARIFOVNING MUSIQIY MEROSDAN O'RIN OLGAN ASARLAR TAHLILI

**Salohiddin ABDOFATTOYEV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Nodira PIRMATOVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI dotsenti,*

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*

**Annotatsiya:** *Sodirxon hofiz Bobosharifov XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan mashhur xonanda va bastakor, o'z zamonasining yetuk san'at namoyandasi tarixda yorqin iz qoldirgan san'atkordir. O'z ijodi bilan Sodirxon hofiz mumtoz musiqa merosiga katta xissa qo'shgan va bir qator mumtoz asarlar yaratgan ijodkordir. Ushbu maqolada Sodirxon hofiz Bobosharifovning musiqiy merosdan o'rin olgan asarlar tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq, hofiz, musiqa ijrochiligi, xonanda, ustoz, faoliyat.*

**Аннотация:** *Содирхан Хафиз Бобошарифов – известный певец и композитор, живший и творивший во второй половине 19 века и начале 20 века. Своим творчеством Содир Хан Хафиз внес большой вклад в наследие классической музыки и создал ряд классических произведений. В данной статье анализируются произведения Содирхана Хафиза Бобошарифова, являющиеся частью музыкального наследия.*

**Ключевые слова:** *народ, хафиз, музыкальное представление, певец, педагог, деятельность.*

**Abstract:** *Sodir Khan Hafiz Bobosharifov is a famous singer and composer who lived and worked in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. With his work, Sodir Khan Hafiz made a great contribution to the heritage of classical music and created a number of classical works. This article analyzes the works of Sodir Khan Hafiz Bobosharifov, which are part of the musical heritage.*

**Key words:** *people, hafiz, musical performance, singer, teacher, activity.*



Sodirxon Bobosharifov xofizlik san'atini ustozlarga xos, mukammal egallagan, o'zining ijrochilik faoliyatida o'z ijro uslubini yaratgan va bir qator shogirdlarni tarbiyalagan san'at namoyondalaridan biri bo'lgan. "Sodirxon xush ovoz egasi, moxir sozanda va xonanda edi. Buyuk tojik shoirlarining baytlariga o'zi kuy bastalab o'zi ijro etar edi. U yaratgan g'azalu-ashulalar kishi xissiyotini to'liqlantirib maftun etar edi. Shu zayl u o'zbek va tojik xalqlari orasida keng tanildi". U Farg'ona vodiysining musiqa ijrochiligi an'analari asosida tarbiyalanib o'rgangan. Avvalo Shashmaqom an'alarini yaxshi egallagan va o'zini ijodida namuna sifatida ularga itoat qilgan. Qo'qonda ko'p yashagani va shu yeddagi xofizlarni ko'p eshitgani va ular bilan birga ijro etib yurganlari uning uslubining shakllanishiga katta ta'sir etgan. Biz Sodirxon hofizni asarlarini taxlil qilishimiz uchun uning uslubini yaxshi bilishimiz kerak. Uning ijro uslubi ilmiy ishlarda mavjud. "Sodirxon ijrochilik uslubining xarakterli jixatlari-deb yozadi S.Begmatov o'zing dissertatsiyasida, - quyidagi umsirlarda namoyon bo'ladi.

a) avvalo so'z talqiniga kata e'tibor bilan qarab, uning mazmunini asosida, rukni doirasida burro, tushunarli ifoda etgan.

b) kuy tuzilmalari, jumllariga har tomonlama ijodiy yondoshadi. Xanglar xisobiga uzaytirish uslubini xar junlada kutish va ko'rish mumkin.

Aynan ana shu qo'shimcha zanglar ham ma'lum darajada Sodirxon uslubining xarakterlovchi omil sifatida muximdir. Kuy tuzilmalarining ichki simmetriyasi, ularning jumllar hajmi jihatidan o'zgaruvchan;

v) ijro jarayonida keng ko'lamli uzun nafasdan foydalanadi. So'lar bo'linishida faqat kuy rivojiga emas, balki so'z vaznlariga xam katta e'tibor berib, so'z bo'linishiga imkon bermasdan talqin etadi. Kuy tuzilmalari ko'p qollarda bir bayt g'azal ijrosi hisobidan to'rtga bo'linadi.

g) Sodirxon hofiz ijro yo'li erkin talqinga mansub, bu hususiyat asar talqinidagi metro-ritmik jixatlarida xam yorqin ifodasini topadi"<sup>8</sup>. O'zining dissertatsiyasida Sodirxon xofizning shogirdi Ma'rufxo'ja Bahodirovning so'zlarini keltiradi "...Sodirxon ustoz-nixoyatda usulga pishiq, Shashmaqom sho'bxalarini Buhoro uslubida ham ijro etishga



sazovor bo'lgan san'atkor. Lekin o'z asarlarini Shashmaqomdan farqli o'laroq holda ijod etadi va ijro qiladi.<sup>9</sup>

Sodirxon hofizning ijodiga Qo'qon ijodkorlar muhitining ta'sir etganligini san'atshunoslik nomzodi Sultonali Xudoyberiyev xam ta'kidlab o'tadi. "Sodirxonning Qo'qondagi faoliyatiga shu vohaning an'analari o'z ta'sirini ko'rsatadi. U bir qancha katta ashula ustozlarining ijodi bilan tanishadi. Shashmaqom ijrochilik mahoratini o'zlashtiradi.

Ijrosida Qo'qon ijro uslubiga tayanish va unga asoslanish, keyinchalik ularni umumlashtirish jarayonlari namoyon bo'ladi. U o'z zamondoshlari Erka Qori, Madumar hofiz, Karimqulbegi, Ismoil naychi, Rustam hofiz, Ashurali hofiz, Zebo pari, Xudoybergan ustoz, Mulla To'ychi kabi zabardast ijrochi maqomdon ustozlar bilan yaqindan tanishdi, ijodiy xamkorlik qildi".<sup>1</sup>

Sodirxon xofiz Shashmaqomni yaxshi bilgan, lekin o'zi Shashmaqomlarga o'xshatib ko'p narsalar ijod etgan. Ustozning yaratgan asarlari mumtoz musiqamizning merosidan joy olgan janrlar va asarlarga o'xshaganligini ko'rishimiz mumkin. Ularni ko'proq nomlari o'xshaganligini ko'ramiz. Masalan Ushshoq, Segoh, Shaxnoz, Chorgoh, ularning shaxobchalari - Talqinchai Ushshoqi Sodirxon, Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon, Savti Chorgoh, Savti Ufor va x.k.

"Sodirxon hofiz ijro jarayonida cholg'u sozini asosan ikki maqsadda qo'llaydi. Birinchidan ashulaning ovoz talqinidagi qismlarda jo'rnavoqlik qilib ovoz vositasidagi sadoni tanburdan taralgan ohang bilan boyitish. Va so'z bo'g'inlari munosabatidagi keskinlikni (harakatini) sadolanish nuqtai nazaridan yumshatish. Ikkinchidan, asardagi xar bir o'zgaruvchan tonikani kuy usulida ifoda etish, ya'ni doimiy ijroni o'ziga xos tarzida kuzatib turish vazifasidir... Bu jarayonda u yuqorida ko'rsatganimizdek badixago'ylik usuli asosida "shaxd" va "hang" ijro uslubidan keng foydalanadi".<sup>11</sup>

Sodirxon xofizning ijodida shashmaqom tarkibiga xos asarlardan tashqari klassikuslubda yaratilgan asarlar ham keng o'rin olgan. Ulardan "Dilxiroj", "Sinaxiroj", "Mazdar", "Karimqulbegi" va x.k.lar. Bu asarlar aynan xalq orasida keng ommalashgan va o'zing ommaviyligi bilan hozirgacha xalqimizning dilidan joy olib kelgan klassik kuylarga o'xshatma qilib yozgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun biz musiqani tahlil qilishimizda Sodirxon xofizning "Dilxiroj"



asarini xalq yo'lidagi "Dilxiroj" bilan, "Karimqulbegi" asarlarini tanlab oldik. Bu asarlarni ijrosini ustozlar talqinidagi namunalariga tayanib, va o'zim ijro etib tahlil etishga xarakat qildim.


Dilxiroji Sodirxon hofiz va Dilxiroj

Bu asar Sodirxon xofiz tomonidan xalq yo'llariga yaqin qilib yaratilgan. Uni ashulalar shakliga juda xosligini ko'rish mumkin. Buni biz asarni ichki tarkibiy qismlaridan bilib olamiz. Shuni aytish kerakki, asar ijroda turlicha aytilishi mumkin.


Sodirxon Dilxiroji 10 misrali vay bilan aytiladi. Hofiz Sheroziy she'ri bilan aytiladi. Ashulani tarkibiy qismlariga xos bo'lgan miyonxat, avjlar va furovard qismlarida ijro etiladi.

Ashulaning avj qismlari juda xam o'ziga xos qilib yaratilgan. Ashulada aytiladigan xar bir misradan keyin kichil xanglar mavjud. Ashula re notasidan boshlanadi. Ashulaning xanglari xanglardan iborat. Ular rez bilan erkin xolda ijro etiladi. Bu asarning o'ziga xosligi xam mana shu avj joylarini rez bilan aytiladigan joylaridadir.


Farg'ona-Toshkent yo'llariga mansub "Dilxiroj" ashulasi, o'zbek xalq kuyi bo'lib necha asrlardan beri ijro etilib kelinadi. Bu asar xam o'zbek fors tillarida aytiladigan so'zlar bilan aytib kelingan. Ijro yo'llari deyarli bir xil. Faqat xanglarda o'zgarishlarni ko'rish mumkin.



Dilxiroj 12 misradan iborat bo'lib Fuzuliy murabباسi bilan aytiladi. Sodirxon Dilxiroji 10 misrani tashlil etadi. Aytilishida Sodirxon Dilxiroji re pardasidan aytilsa, Dilxiroj asosan fa diyez pardasidan ijro etish rasm bo'lgan. Asarni ijro etish uchun shu parda juda qulay.



Farg'ona Dilxirojining yana bir o'ziga xos tomoni, har to yettinchi misradan keyin o'ziga xos "Raxim qil davlatli sulton" so'zlari takrorlanadi. Va avj pardalarida "Zebo pari" avjidan foydalanilgan.



Sodirxon Dilxirojida esa avj paradalari erkin usulda ijro etish uchun mo'ljallangan. Usulga tayanmagan xolda erkin ijro etiladi. Asarning o'ziga xos jixatlari xam shunda namoyon bo'ladi. Sodirxon xofizning barcha asarlarida uchryadigan bu usul uning ijro uslubiga xosdir.

Misol:



Ijro etiladi, xarakter jixatdan bir-biriga juda yaqin. Mening fikrimcha ustoz Sodirxon xofiz Farg'ona Dilxirojidan ilxomlanib o'zining asarini yozgan bo'lishi mumkin. Ustozlardan Mulla To'ychi



hofiz, Orifxon Xotamov, Xalima Nosirova, Barno Isoqova, Jo'rabek Nabiyeu, Matluba Dadaboyeva, Maxbuba Xasanovalar ijro etganlar.



Shashmaqom tarkibida o'zgacha nomlar bilan atalgan asarlar ko'p uchraydi.

Ularning biri Karimqulibegidir. Shashmaqomning Segoh maqomi tarkibidan joy olgan bu asar o'zining shu maqom an'alarida, lad asosida yaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shashmaqomning ushbu asariga nazira sifatida Sodirxon hofiz ham o'zining shunga mos asarini yaratgan va uning nomini xam Karimqulibegi deb nomlagan. Karimqulibegi Sodirxon hofiz asari ko'proq xonaqoiy uslubda yozilganligini aytish mumkin. Asar Shashmaqomdagi Karimqulibegi kabi Segoh pardalari asosida yaratilgan. Asarning Shashmaqomdagi namunasi asosiy farqi Sodirxon Karimqulibegisi erkin ijro etilishi bilan ajralib turadi. Uning musiqiy shakli ashulaga xosdir. Faqat avj qismlaridagi erkin usulda ishlatiladigan xanglari bilan ajralib turadi. Asarning tarkibi, rivojlanish jarayonlari darxaqiqat Segoh maqomidagi Karimqulibegi asos bo'lganligini ko'rsatadi. Shashmaqomdagi Karimqulibegi ikkinchi guruh sho'balari asosida turkumlantirilgan.

Uning tarkibida Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, va Ufor qismlari mavjuddir.

Misol:



Sodirxon Bobosharifov o'zining zamonasini mohir xonandasi darajasiga erishgan va zamon hofizi nomiga erishgan san'atkordir. Xonandalikda hammaga ibrat bo'lishga erishgan. U o'zini ijodini shakllantirishda Shashmaqomni va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini mohir ustozlarini an'anasini asos qilib olgani uning ijrosida ko'rinib turadi. Sodirxon hofiz xonandalikda mohirlikka erishib bastakorlikda xam ko'p asarlar yozgan. U o'zining ijodini Shashmaqomga qiyoslab yaratdi. Eng xalqona yo'llarga xos asarlar



yaratdi. Ushshoq, Segoh, Chorgoh, pardalarida ko'p ijod etadi. Sodirxon xofizning ijodiga mansub asarlarining eng mashhuri "Ushshoqi Sodirxon" o'zbek va tojik xalqining merosiga aylangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir T.: "Fan" 1963.
2. Rajabov I. "Maqomlar" T., 2007.
3. Mamadaliyev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari". T.: "Yangi asr avlodi", 1998.
5. G'ofurbekov T. "Bastakodlil ijodiyoti", Musiqa ijodiyoti masalalri to'plami, I qism. T.: 1997.
6. Sodirxon. Bobosharifov tanlangan asarlari. Kirish so'zi. Stalinobod, 1946.
7. Xudoyberganov S. Tojik xalq hofizlari. Toshkent-Xo'jand 2000.
8. Begmatov S. "Xofizlik san'ati" T.: "Musiqa" 2008.
9. Begmatov S. "Farg'ona vodiysi xofizlik an'analari" (Sodirxon hofiz, Jo'raxon Sultonov va Rasulqori Mamadaliyev), nomzodlik dissertatsiyasi (qo'lyozma 1995.)
10. "Musiqa ijodiyoti masalalari", Birinchi jild. T.: 1991.



**MATBUOTDA AYOL XONANDALARINING IJROCHILIGI  
MASALASI**

**Durdona SHODMONOVA,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: **Oygu AXMEDOVA,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.


**Annotatsiya:** Ayol xonandalarning ijro uslubi, ularning maqom san'atidagi ahamiyati, o'zbek mumtoz musiqasi targ'ibotidagi o'rni kabi ko'plab shunga o'xshash masalalar O'zbekiston Respublikasida chop etilayotgan bir nechta ilmiy, ilmiy – amaliy jurnallarda ham yoritilgan. Ushbu maqolada matbuotda, ilmiy jurnallarda nashr etilgan ayol xonandalarning ijro imkoniyatlari haqidagi maqolalar ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ayol xonanda, ijro imkoniyatlari, maqom san'ati, matbuot, gazeta, jurnal.

**Аннотация:** Многие подобные вопросы, такие как исполнительский стиль певиц, их значение в искусстве статуса, их место в пропаганде узбекской классической музыки также освещаются в ряде научных, научно-практических журналов, издаваемых в Республике Узбекистан. В данной статье научно проанализированы статьи об исполнительских возможностях певиц, опубликованные в прессе и научных журналах.

**Ключевые слова:** певица, исполнительские возможности, статусное искусство, пресса, газета, журнал.

**Abstract:** Many similar issues, such as the performing style of singers, their significance in the art of status, their place in the promotion of Uzbek classical music are also covered in a number of scientific, scientific and practical journals published in the Republic of Uzbekistan. This article scientifically analyzes articles about the performing abilities of singers published in the press and scientific journals.



**Key words:** *singer, performance possibilities, status art, press, newspaper, magazine.*

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach ko'p sohalar qatori musiqa madaniyati jabhalarida ham hayotbaxsh o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Mamlakatimizda musiqa san'atini keng ko'lamda rivojlantirish va ijtimoiy-musiqiy madaniyatni yanada yuksaltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi, mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda xalqchil va yuksak mumtoz professional musiqa namunalarini asrab-avaylash, ularni yangi zamon ruxiga moslashtirib, nafaqat respublikamiz, balki jahon sahnalari uzra keng targ'ib qilish imkoniyati yuzaga keldi. Bu borada, ayniqsa, 1997-yildan buyon ko'hna Samarqand shahrida har ikki yilda bir marta o'tkazib kelingan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining ahamiyati beqiyosdir. Chunki mazkur bayramona tadbir bois bebaxo milliy musiqamiz xalqaro sahnalar sari dadil odimladi va jahon hamjamiyati e'tirofiga sazovor bo'ldi. Maskur festival bois o'zbek mumtoz professional musiqasi (kuy, ashula, suvvora, katta ashula, maqom) namunalarining targ'ibiga keng yul ochildi. Xususan, O'zbekiston xalq artisti Munojot Yulchiyeva 1997-yili, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dilnura Qodirjonova esa 2005-yili o'tkazilgan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 1999-yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nasiba Sattorova "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalining bosh sovrini "Gran-Pri"ga sazovor bo'ldi.

O'zbek milliy musiqa san'atida o'zining takrorlanmas ijro uslubiga ega bo'lgan Ayol xonandalar yashab ijod etishgan, hozirgi kunda ham bunday oltin ovoz sohibalari ko'plab topiladi. Bularga misol qilib: Zaynab Polvonova, Berta Dovidova, Halima Nosirova, Nazira Yusupova, Fotima Baratova, Farog'at Raxmatova, Barno Isoqova, Komuna Ismoilova, Saodat Qobulova, Shaxodat Raximova, Mahbuba Xasanova, Olmaxon Hayitova, Onabibi Ochilova kabi oltin ovoz sohibalarini keltirish mumkun. Hozirgi kunda ham bunday hushovoz, maqom san'atiga o'zining beqiyos xissasini qo'shib kelayotgan ayol xonandalarimizni e'tirof etish joiz bular: Komila Bo'riyeva, Munojat Yo'lchieva, Matluba Dadaboyeva, Nodira Pirmatova, Zamira Suyunova, Muhabbat Solihova, Mohichexra Shomurodova va hokazo.



Bizning vatanimizda milliy musiqamizni yuksak darajada ko'rsatib bergan shunday ayol honandalarimiz bor.

Ayol xonandalarning ijro uslubi, ularning maqom san'atidagi ahamiyati, o'zbek mumtoz musiqasi targ'ibotidagi o'rni kabi ko'plab shunga o'xshash masalalar O'zbekiston respublikasida chop etilayotgan bir nechta ilmiy, ilmiy – amaliy jurnallarda ham yoritilgan. Ana shunday jurnallardan biri "Oriental Art and Culture" ilmiy-uslubiy jurnali bo'lib, undagi barcha kontent foydalanuvchilar va tashkilotlar tomonidan bepul yuklab olinishi mumkin. Foydalanuvchiga jurnal yoki muallifdan oldindan ruxsat olmasdan turib maqolalarni o'qish, yuklab olish, nusxa olish, tarqatish, chop etish, maqolaning to'liq matniga havola qilish yoki boshqa har qanday qonuniy maqsadlarda foydalanish huquqi beriladi. Ushbu ilmiy-uslubiy jurnal internet global tarmog'i orqali tarqatiladigan ommaviy axborot vositasi bo'lib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali muassisligida faoliyat yuritadi. Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tilida nashr qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2021-yil 31-iyuldagi №303/6-sonli qaroriga asosan "Oriental Art and Culture" ilmiy-metodik elektron jurnali San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Ushbu jurnal faoliyat yurita boshlaganidan beri minglab ilmiy maqolalarni o'quvchilar e'tiboriga havola etdi. Ana shu maqolalardan biri 2022 yilning iyun oyidagi sonida chiqqan Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti, "Maqom xonandaligi" kafedراسi mudiri, dotsent Nodira Pirmatovanning "Ayol san'atkorlarining ijrochilik vositalari" deb nomlangan maqolasi chop etilgan.<sup>59</sup> Ushbu maqolada Xorazm, Buxoro va Samarqand, Farg'ona va Toshkent ijrochilik yo'nalishlarida ayol san'atkorlarining ijrochilik vositalari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada xususan shunday deyiladi: "Ma'lumki, qadimda milliy ashularimizni erkagu ayol xonandalar birdek ijro etgan va tinglagan. Islom dini madaniyati kirib kelishi bilan

<sup>59</sup> "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022



ichkari va tashqari ijrochilik madaniyati vujudga keldi. Ya'ni tashqarida erkaklar, xalq orasida ularni baxshi, hofiz, xonanda, aytimchi va xokazo nomlar bilan ataganlar, ichkarida esa ayol san'atkorlar o'z san'atlaridan baxramand etganlar. Qoraqalpog'istonda qiz baxshilar, Xorazmda xalfalar dostonlar va laparlarni ijro etganlar. Buxoro va Samarqandda mavrigixonlar, Farg'ona vodiysi va Toshkentda yallachilar, ayol shinavandalarni o'z san'atlaridan bahramand etganlar.”. Shu bilan birga N.Pirmatova ushbu maqolada ayol ijrochilik san'atining ijro vositalari orasida eng asosiy musiqiy cholg'u bu dutor ekanini alohida ta'kidlab o'tganlar. Qadimda ayol xonandalar ba'zan doira cholg'usida, kichikroq davralarda esa qo'l barmoqlarini shaqqillatib, piyolalarni bir biriga urishtirib, chanqovus, qayroq chalib, angishvona bilan likopchani urishtirib usul berib o'z qo'shiqlarini ijro qilishganini qiziqarli ma'lumotlar yordamida boyitganlar.

Bu maqolada 1939-yilda O'zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova tomonidan tuzilgan “Garmonchilar” ansamblining faoliyati haqida to'xtab o'tilgan. Ushbu ansamblida faqat qizlar ishtirok etib ularga ansambl boshchilari Madrahim Sheroziy va Onajon Sobirovalar ashulalarni kuylash bilan birga garmon chalishni ham o'rgatganliklari ta'kidlangan. Ushbu ansamblning faoliyati shunisi bilan muhimki, uning negizida keyinchalik turli janrdagi ansambllar tashkil etilgan.

Yana bir jurnallardan biri “Musika” ilmiy – uslubiy jurnali. U OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy nashrlardan biri sanaladi va O'zbekistonda musiqa madaniyatiga oid ma'lumotlarni yoritib boradi.

Musiqa san'atiga oid ilmiy-uslubiy, ma'rifiy, adabiy-badiiy maqolarni chop etishga qaratilgan ushbu jurnal bir yilda 4 son (har uch oyda bir marta o'zbek-rus-ingliz tillarida) chop etilishi belgilangan.<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3178-sonli qarori hamda “O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida” 2006-yil 11-oktabrdagi 214-son qaroriga muvofiq O'zbekiston davlat konservatoriyasi muassisligida “Musika” ilmiy-

uslubiy jurnali tashkil etilgan. Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2017-yil noyabrda №0858 raqam bilan ro'yxatga olingan. Ushbu jurnalda musiqa bilan bog'liq barcha ma'lumotlar, yangiliklar, tanlovlar, festivallar, musiqa tarixi va nazariyasi bilan bog'liq ma'lumotlar, ijrochilik san'ati, yosh olimlarning tadqiqotlari va musiqa san'atining aspektlari yoritiladi. Jurnalda chop etish uchun yo'llangan maqolalar taniqli san'atshunos olimlar, kompozitorlar, professorlardan iborat tahrir hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va nashrga ruhsat etiladi. “MUSIQA” ilmiy – uslubiy jurnali OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy nashrlardan biri sanaladi va O'zbekistonda musiqa madaniyatiga oid ma'lumotlarni yoritib boradi.

“Musika” ilmiy-uslubiy jurnalining 2019-yil 1-sonida chop etilgan O'zDK o'qituvchisi N.Amanovning “Hozirgi o'zbek estradasining tuzilishi va rivojlanish dinamikasining janr va uslubiy xususiyatlari” nomli maqolasiga to'xtalib o'tishni ham lozim topdik. Sababi, bu maqolada garchi ayol xonandalar ijrosi, ovozi haqida ma'lumotlar keltirilmagan bo'lsada, dissertatsiyamiz mavzusiga aloqador bo'lgan internet tarmog'i va OAV bilan bog'liq ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Ya'ni ushbu maqolada yurtimiz musiqa madaniyatining bir jabhasini yillar davomida kuzatib, ilmiy tahlili keltirilganini ko'rishimiz mumkin. Maqolada qisqacha shunday deyiladi: “Tadqiqot zamonaviy o'zbek estradasining janr-uslubiy tuzilishi va rivojlanish dinamikasiga bag'ishlangan. Strukturani aniqlash jarayoni 1991-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davrda FM radiostansiyalarining “pleylist”lari va “Internet chatlari” bo'yicha 1893 ta rotatsiyalangan musiqa kompozitsiyalarini matematik tahlil qilish yo'li bilan amalga oshirildi. O'zbekiston zamonaviy estrada musiqasining uch bosqichi mavjud, bu o'zbek estradasining janr va uslublari dinamikasini aks ettiradi va ularning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi. Birinchi (moslashish, 1991-1998) davr pleylistlar materiali bo'yicha o'rganildi, 1997-1998 yillar uchun 362 ta kompozitsiya aylantirildi.<sup>61</sup> Bu bizning tahlilimiz uchun kalit, chunki u mamlakatdagi o'zgarishlar jarayonlarini aks ettiradi va moslashish va ba'zida ijrochilar va tinglovchilarning qiziqishlarining xaotik o'zgarishi davridir. Ikkinchi davr (shakllanish)

<sup>60</sup> <https://konservatoriya.uz/musika-jurnali/>



<sup>61</sup> “Musika” ilmiy – uslubiy jurnal 1-son, 2018 y.




1999-2008 yillar. 2007-2008 yillarda 626 ta kompozitsiyani aylantirilgan pleylistlar materiali bo'yicha keyingi o'n yillikni o'rganar ekanmiz, biz o'zbek platformasining janr va stilistik tuzilishini tartibga solish va barqarorlashtirish jarayonini kuzatishga harakat qildik. Uchinchi davr (rivojlanish) 2009-2018 yillarni qamrab oladi. 2017-2018 yillarga mo'ljallangan 905 ta qo'shiq, o'zbek internet jadvallari materiallari asosida ushbu o'n yillikni o'rganar ekanmiz, biz o'zbek sahnasining janr va uslub tuzilishining integratsiyalashuvi va rivojlanishi jarayonini kuzatishga harakat qildik".<sup>62</sup> Ushbu maqoladan O'zbekiston musiqiy madaniyatining eng og'riqli nuqtalaridan biri ilmiy tadqiq qilinishi natijasida o'zbek estradasi sohasidagi yuzaga kelgan kamchiliklar, muammolar o'rganilgan va ularning tahminiy yechimlari ham keltirilgan. Xuddi shu uslubni o'zbek mumtoz musiqasi, xususan maqomlarimizning targ'iboti dinamikasini o'rganish uchun andoza sifatida qabul qilishimiz ham mumkin.

Bizning e'tiborimizni, jurnalning 2020-yildagi 2-sonida X.Xaydarov muallifligida chop etilgan "O'zbek musiqasi madaniyati tarixini o'rganishda bayozning o'rni" nomli maqolasi jalb etdi. Musiqashunoslikning ko'pgina sohalarida, ayniqsa, maqom masalasiga oid ma'lumotlarni yoritishda asosan ilmiy asarlar, risolalar, turli qo'lyozma manbalardan foydalaniladi. E'tiborlisi, bugungi kunda to'ylar ham musiqani, ayniqsa, an'anaviy musiqamizni o'rganishda zarur manba bo'lib xizmat qilmoqda. Qolaversa, bayoz "Ustoz – shogird" ta'lim tizimida samarali qo'llanilib, o'quv dasturini shakllantirish, ashula ijrochiligida alohida o'rin tutayotganini alohida ta'kidlash lozim. Maqolada yuqoridagi fikrlar muhokama qilinadi.


Yurtimiz musiqasi madaniyati rivojiga o'zining xissasini qo'shib kelayotgan ijodkorlar orasida kompozitorlar ham talaygina. Ana shunday iste'dodli ayol kompozitorlarning uch nafari haqida "Musiqasi" ilmiy – uslubiy jurnalining 2021-yil 1-sonida muallif L.Kabduraxmonova tomonidan chop etilgan "O'zbekistonda bastakor ayollarning uch avlodi" nomli maqolasidan o'qish mumkin. Unda O'zbekistonning uch nafar bastakor ayolining (Dilorom Saidaminova, Oydin Abdullayeva va Zarina Xodieva) ijodi va ular orqali dunyoga bo'lgan qarashlarini ifodalashga urinishlari ko'rib chiqiladi.

<sup>62</sup> <https://konservatoriya.uz/musiqajurnali/>



2022-yilning yanvar oyida Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqasi san'ati instituti muassisligida "Maqom" ilmiy – uslubiy musiqiy jurnalining birinchi soni chop etildi. Unda bir qancha ilm ahllarining 15 ta maqolasi chop etilgan. Albatta bu maqolalar maqom san'atiga oid bo'lgan dolzarb masalalar, ularning yechimlari borasida talab va takliflar berilgan. Mana shunday qimmatli ma'lumotlar berilgan maqolalar orasida "Maqom mening taqdirimda" rukni ostida "San'atim xalqimga baxshida" nomli maqola chop etilgan. Bu maqolaning jurnalidagi boshqa maqolalardan farqi shundaki unda O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston xalq artisti Munojot Yo'lchieva bilan ilmiy muloqot olib borilgan.<sup>63</sup> Unda Munojot Yo'lchievaning ijodiy faoliyati bo'yicha matbuotda yoritilgan maqolalar mazmuni tasnif etilib, madaniy, estetik va ijtimoiy jihatdan tahlil etilgan. Aynan mana shu maqola orqali biz Munojot Yo'lchieva haqida yillar davomida chop etilgan maqolalar, unga qahramonimizning shaxsiy munosabatlari va ilmiy qarashlari bilan tanishishimiz mumkin. Aslida ushbu chop etilgan maqolalar maqom ijrochiligining yorqin namoyondasi Munojot Yo'lchieva misolida o'zbek mumtoz musiqasi targ'ibotida ayol ovozi o'rni va ahamiyati qanchalik muhim ekanini bilishimiz mumkin bo'ladi. "Munajatxon kuylayotganda O'zbekistonning barcha kengliklari ko'zga ko'rinaveradi. Daryolar buralib–buralib oqadi, sahrolar tebranadi, tog'lar to'lg'onadi, mudrayotgan daraxt shoxlaridan qorlar to'kiladi – bog'lar uyg'onadi. Ko'tarinki bir nido tilga keladi: Bu olamda she'ru qo'shiq bo'lmasa edi, hol ne kechar edi, ey ko'ngil! Klassik ashulalarni aytish uchun ovozi o'zi yetarli emas, hofiz nazmni teran tushunmog'i, so'z qudratini dildan his etmog'i kerak. Munajatxon Yo'lchievani "O'zbek xalq musiqasi"ning jild-jild kitoblari ko'milgan taronalarga yor etgan barcha ustozlariga tashakkur aytmoq lozim!" bu e'tiroflar, tashbehlar o'zbek ayol ovozigacha berilgan bebaho sifatlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Dunyoni qo'shiq bilan zabt etish, yurak dunyosini ovoz bilan egallash baxti hammaga ham nasib etavermaydi, deyiladi maqolada va Halimaxonim, tamaraxonim, Mukarramxonim, Yulduzxonim, Muyassarxonim va Nasibaxonim deya dunyoni maftun etgan ayol san'atkorlarning nomlari ham tilga olingan. Maqolada, yana

<sup>63</sup> [www.maqomfund.uz](http://www.maqomfund.uz)




O'zbekiston xalq shoiri Oydin Hojievanning 1999-yil "Saodat" jurnalining 5-sonida chop etilgan "Hofizaning dunyosi" maqolasi haqida gap ketadi. Unda shunday so'zlarni bitgan ekanlar: "Munojatxonning shiddatkor, avji baland, tog' nasimiday mayin, jarangdor ovozida dunyoviy va ilohiy ishq taronalari yangraydi. Bu maftunkor ovoza rubob, dutor, g'ijjak, chang va nay ergashadi, uchqun sochadi. Ovozning ipakday chiylanib, kumushday nur sochib, chinniday jarang berib, ud kabi nola qilishini, otashin baytlarga bu ovoz ziynat berishini, so'zni olovlantirishini his etadi tomoshabin - tinglovchi."

"Oila davrasida" gazetasining "Fikrbazm" sahifasida Munojatxon Yo'lchieva bilan muxlislar savol-javobi jamlangan maqola berilgan. U 2014-yili 13-mart kuni bosilib chiqqan. Bu maqola haqida Munojat Yo'lchieva shunday eslaydi: "Mumtoz musiqa chalajon hujayrani tiriltiradi" deb nomlangan. O'shanda namanganlik bir talaba "Bilishimcha 80 detsibeldan ziyod ovoz (tovush) quloq pardasi uchun juda shovqin hisoblanadi va tirik hujayralarni o'ldiradi. Ovoz kuchaytirgich yordamida tarqalgan tovush tunggi klublarda 110 detsibeldan ham oshadi. Hech ovozingiz necha detsibel ekanligini o'lchab ko'rganmisiz?" deb savol bergan ekan. Bu savolga "Yo'q, ovozim necha detsibel ekani bilan qiziqib ko'rmaganman. Tovush kuchi 100 detsibeldan oshgan kuy tirik hujayrani o'ldirsa, taralishi maromida ta'minlangan mumtoz kuyimiz chalajon hujayrani ham tiriltiradi. Fikrimcha, yoqimli ohang necha detsibel bo'lishidan qat'iy nazar odamlarning miyasiga rohatbaxsh ta'sir etadi"<sup>64</sup> deb javob bergan ekan.

Yuqorida sanab o'tilgan maqolalardan ko'rinib turibdiki, ayol xonandalarning ovozi o'zbek mumtoz musiqasi, xususan maqomlar ijrochiligida juda katta ahamiyatga ega. Chunki bu ovozlarning san'atimizning betakrorligini, go'zalligi, nafosatini, nazokatini yanada oshiradi. O'zbek mumtoz musiqasi targ'ibotida esa, ayniqsa ayol xonandalar ovozi juda muhim sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

<sup>64</sup> www.maqomfund.uz




1. Amanova N. "Hozirgi o'zbek estradasining tuzilishi va rivojlanish dinamikasining janr va uslubiy xususiyatlari" "Musiqqa" ilmiy - uslubiy jurnal 1-son, 2018.

2. <https://konservatoriya.uz/musiqqa-jurnali/>

3. [www.maqomfund.uz](http://www.maqomfund.uz)

4. Pirmatova N. "Ayol san'atkorlarining ijrochilik vositalari" // "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022.



## FOLKLORSHUNOS (ETNOMUSIQASHUNOS) RUSTAM ABDULLAYEV IJODIGA BIR NAZAR

**Bahodir QO'LDASHBOYEV,**

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
"Musiqiy pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola folklorshunos (etnomusiqashunos) olim Rustam Abdullayevning folklorshunoslikdagi ilmiy ijodi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Maqola musiqa san'ati soha vakillari, musiqashunoslar, san'atshunoslar, folklorshunoslar hamda musiqa sohasi gaqiziquvchi omma uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** Folklor, etnomusiqashunoslik, maqom, xalq musiqa ijodi


**Аннотация:** В данной статье представлена краткая информация о научной деятельности ученого-фольклориста (этномузыковеда) Рустама Абдуллаева. Статья предназначена для представителей области музыкального искусства, музыковедов, искусствоведов, фольклористов и широкой публики, интересующейся музыкальной сферой.

**Ключевые слова:** фольклор, этномузыкология, статус, народное музыкальное творчество.

**Abstract:** This article provides brief information about the scientific work of folklorist (ethnomusicologist) scientist Rustam Abdullayev. The article is intended for representatives of the field of musical art, musicologists, art historians, folklorists, and the general public interested in the field of music.


**Key words:** Folklore, ethnomusicology, status, creation of folk music.

Folklorshunoslik – xalq ijodi haqidagi fan bo'lib, u ma'lim bir xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyatini qamrab olgan musiqiy namunalarni ilmiy-nazariy va tarixiy o'rganuvchi maxsus fan soxasi sifatida qabul qilinadi. Folklorshunoslik sohasi bilan bir qatorda bir qancha fan sohalar rivojlanib keladi: etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya, sotsiologiyavahokazolar. Bular o'z navbatida bir birini to'ldirishga hizmat qiluvchi fan sohalaridir.



O'zbekistonda folklorshunoslikning (etnomusiqashunoslik) kirib kelish tarixi XIX asrning 70 yillariga to'g'ri keladi. Dastlabki folklorshunoslik ilmiy ijodiy izlanishlarni August Eyxgorn, Leysik, Viktor Uspenskiy, Nikolay Mironov, Yelena Romanovskaya, Fayzulla Karomatov, Ilyos Akbarov, Karima Olimboyeva kabi bir qancha musiqashunos, folklorshunoslar boshlab berishgan. Hozirgi kunda mazkur fan sohasi bilan chuqur izlanishlar olib borayotgan folklorshunos Rustam Abdullayev ko'zga ko'rinarli yirik folklorshunos olimdir.


O'zbekiston hududida qariyb yarim asr mobaynida musiqashunoslik, folklorshunoslik yo'nalishida samarali ijod qilib kelayotgan etnomusiqashunos, folklorshunos, san'atshunoslik fanlari doktori, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori Rustam Samigovich Abdullayev yoshligidan musiqa san'at sohasiga qiziqadi. Ota-onasi bolaligidan uni bolalar musiqa san'at maktabiga berishadi, Shunday qilib folklorshunos olim 1958-65 yillarda R.Glier nomidagi respublika musiqa maktab – internatida xalq cholg'ulari bo'limida, 1965-1970 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasining tarixiy-nazariy fakultetida tahsil olgan. 1975-yilda mazkur dargohning aspirantura bosqichini tamomlagan. Rustambek Abdullayev talabalik yillaridayoq pedagoglik faoliyatini boshlagan yetuk musiqashunos olimdir. Ularning ilmiy faoliyati Markaziy Osiyo, xususan o'zbek xalqining musiqiy madaniy merosini ilmiy-nazariy hamda tarixiy o'rganish, targ'ib qilish, to'plash va notalashirishdan iborat bo'ldi. Rustam Abdullayev "Katta ashula janri va uning ijrochiligi" mavzuyida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Aytib o'tish joizki Rustam Abdullayevga qadar hech qaysi musiqashunos olim hali katta ashula janrini ilmiy darajada o'rganmagan edi. Mazkur nomzodlik dissertatsiyasini yoqlash uchun Rustam Samig'ovich Abdullayev Farg'ona viloyatida folklore ekspeditsiyalarini uyushtirib, katta ashulani ijrochi xonandalardan magnitafonga yozib oldi, uni ilmiy nazariy izohlashga harakat qiladi. Ushbu nomzodlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilinganidan so'ng doktorlik dissertatsiyasini yozishga kirishib ketadi hamda "Markaziy Osiyo xalqlari marosim musiqasi" mavzusini doktorlik ishi uchun tanlaydi. Doktorlik ishi mukammal bo'lishi maqsadida O'zbekiston hududida bir qancha folklore ekspeditsiyalari o'tkazib, xalq hayotidagi marosimlarda faol



qatashadi, ilmiy asoslab beradi. Rustam Abdullayevning folklore ekspeditsiyalari 1975-80 yillarda Fayzulla Muzaffarovich Karomatli rahbarligidagi san'atshunoslik institutida, 1980-yildan o'z rahbarligi ostida, 1985-yildan Toshkent konservatoriyasi talabalari bilan, 1987-yilda O'zbekiston-Amerika qo'shma shtatlarida folklor ekspeditsiyasida, 1989-yilda O'zbekiston-Germaniya folklore ekspeditsiyalaridan iborat. Ushbu ekspeditsiyalar natijasida ko'plab xalq qo'shiq va kuylari magnit tasmlarga yozildi shu bilan birga notalashtirildi. Folklor ekspeditsiyalari materiallari asosida "O'zbek an'anaviy musiqasi" (Fayzulla Karomatov bilan hamkorlikda), "Katta ashula", "Farg'ona hofizlari", gramafon plastinkalar chop ettirildi. Rustam Abdullayev folklorshunoslik yo'nalishi bo'yicha qator ilmiy ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1969-yildan e'tiboran folklore ekspeditsiyalarini tashkil qilib, O'zbekistonning bir qancha viloyatlarida hamda Markaziy Osiyo hududlarida istiqomat qiluvchi o'zbek millatiga mansub aholining musiqiy merosini yozib olishga muvaffaq bo'ldi. Shu jumladan turli marosimlar bilan bog'liq kuy va qo'shiqlar, bolalar folklor qo'shiqlari, diniy va ibodat musiqasi namunalari, zikrlar va h.

Ijodkor olim, yirik musiqashunos Rustam Abdullayevning yakka mualliflikda "O'zbek mumtoz musiqasi", "Обрядовая музыка Центральной Азии" (1994), "Boysun tarixi va an'analari" (2005) "Обряд и Музыка" (2006), "Fayzullo Karomatli" (risola) singari bir qancha mualliflik asarlarini yozib qoldirgan bo'lsa, hammualiflikdagi "O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya" (ikkinchi muallif - T.Ye Solomonova), "История музыки народов Средней Азии Казахстана" to'plamida "Музыка для оркестра народных инструментов" nomli bo'limi (1987), "История узбекской музыки" maqolalar to'plamining uchinchi jildidagi "Фольклор и профессиональная музыка устной традиции" bo'limi, "Nomoddiy madaniy meros" (atlas) kabi kitoblarini sanab o'tish joizdir. Bundan ko'rinib turibdiki Rustam Samig'ovichning butun Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududida olib borgan etnomusiqashunoslik faoliyati bo'yicha ilmiy izlanishlari sarmazmun bo'lgan.

Yunesko xalqaro tashkiloti homiyligi ostida o'tkaziladigan "Boysun Bahori" keyinchalik "Asrlar sadosi" nomli xalqaro folklor festivallari Rustam Abdullayevning tashabbusi, bevosita ishtiroki va



ularning ko'plab beradigan takliflari asosida o'tkazilgan. Shuni aytish joizki, ushbu festivallarni tashkillashtirish hamda o'tkazishda etnomusiqashunos olimning o'rni beqiyosdir.

Rustam Abdullayev folklorshunos, etnomusiqashunos bo'lish bilan bir qatorda musiqasi san'ati yo'nalishining turli mavzularida ilmiy izlanishlar olib borgan va borayotgan shogirdlarga ustozdir. Ularning ilmiy rahbarliklari ostida bir qator musiqashunoslar, jumladan Baxtiyor Ashurov, Gulchehra Ergasheva, M.Abdukarimov doktorlik dissertatsiyalarini yozishga muvaffaq bo'lishgan,<sup>65</sup> hozirgi kunda ham ustoz sinfida tahsil olayotgan talabalar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Rustam Samigovich Abdullayev O'zbekiston davlat konservatoriyasining barcha yo'nalishlarida o'tiladigan "An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari" fanidan o'zbek va rus tillarida ta'lim beruvchi yetakchi ustozlardan biridir. Mazkur fan sohasi o'qitilishdan asosiy maqsad, talaba yoshlarni milliy musiqiy merosimiz bilan yaqindan tanishtirish, millilikni saqlab qolish, manaviy tafakkur doirasini kengaytirish hamda o'zbek milliy musiqiy merosiga e'tiborni kuchaytirishdan iborat.

Rustam Abdullayevning ko'p yillik ilmiy izlanishlariga nazar soladigan bo'lsak unda nafaqat o'zbek balki Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzidagi turli marosim va unda ijro etiladigan musiqiy namunalarni qay tarzda rivoj topganligi, shu bilan birga bizgacha yetib kelinish tarixiga guvoh bo'lamiz. Olimning ijodiy faoliyati davomida to'plagan materiallari, o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari faqatgina dissertatsiya ko'rinishida emas, balki kelgusi avlod uchun aynan kitob shaklida o'z qiyofasini topgan. Jumladan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek yakka muallifliklaridagi yozilgan kitoblaridan "O'zbek mumtoz musiqasi", "Обрядовая музыка Центральной Азии", "Boysun tarixi va an'analari", "Обряд и Музыка", "Fayzullo Karomatli" ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan risolalarni sanab o'tadigan bo'lsak, bularning aksariyat adabiyotlari yoki yozgan qo'llanmalari odatiy hayot tarzida amalga oshiriladigan jarayonlardagi marosimlar va ularda ijro etiladigan kuy hamda qo'shiqlar tahlili bilan bog'liq ekani e'tiborga molik jihatlardandir. Hozirgi kunda Rustam Samig'ovich Abdullayev tomonidan

<sup>65</sup> Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.



“An’anaviy o‘zbek musiqa asoslari” darsligi nashr yuzini ko‘rdi. Bu esa o‘z navbatida milliy boyligimiz haqidagi o‘zbek tilida bayon qilingan noyob ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu qo‘llanma batafsil yoritilgan ilmiy, tahliliy ma’lumotlarga boy asar bo‘lib, nainki konservatoriyaning, balki barcha musiqiy o‘quv muassasalarda ta’lim olayotgan talabalar va an’anaviy o‘zbek musiqa san’atiga qiziquvchilar uchun kerakli manba sifatida xizmat qilishi begumon. Kitob “Musika” nashriyoti tomonidan Toshkentda 2022-yil chop ettirildi.

Ushbu darslik tarixan shakillangan an’anaviy o‘zbek musiqasi asoslarini tashkil etgan folklor va mumtoz musiqa hamda ularning namunalarini umumiy ildizlariga mansub an’anaviy madaniyat tizimi sifatida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tub masalalarni keng madaniy-tarixiy va ilmiy-amaliy jarayonlari bilan uzviy bog‘langan holda ko‘rib chiqishga asoslangan.<sup>66</sup>


Kitobda bir qancha asrlar davomida sozanda va xonandalar tomonidan ijro qilingan, bastakorlar tomonidan ijod etilib kelinayotgan an’anaviy o‘zbek musiqa namunalari o‘rin egallagan. Jumladan allalarni turli xil qo‘shiqlar, marosim musiqalari (har qanday marosim), cholg‘u kuylari, ashula yo‘llari, katta ashula, doston, maqomlar va hokazo. Umuman olganda xalqning turmush tarzidagi har bir kuy qo‘shiqlarning ilmiy izohi o‘rin olgan. Shuni takidlash joizki avval nashr qilingan “Обрядовая музыка Центральной Азии”, “Обряд и Музыка” kitoblariga nisbatan ushbu “An’anaviy o‘zbek musiqa asoslari” keng qamrovligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Rustam Samigovich Abdullayev nafaqat o‘zbek, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzidagi barcha marosim va ulardagi musiqalarni chuqur ilmiy - nazariy o‘rganib, mazmun va mohiyatini ifodalab bergan zabardast folklorshunos (etnomusiqashunos) olimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.H.Jabborov “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” T.2002.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.2008

<sup>66</sup> Abdullayev R. An’anaviy o‘zbek musiqa asoslari. T., 2022.



3. “Nomoddiy madaniy meros” (atlas). T.2018
4. R.S.Abdullayev “O‘zbek mumtoz musiqasi” T.2008
5. R.S.Abdullayev “Обрядовая музыка Центральной Азии” T.1994
6. R.S.Abdullayev “Boysun tarixi va an’analari” T.2005
7. R.S.Abdullayev “Обряд и Музыка” T.2006
8. R.S.Abdullayev “An’anaviy o‘zbek musiqa asoslari” T.2022



## ТВОРЧЕСТВО КОМПОЗИТОРОВ УЗБЕКИСТАНА В ФОРТЕПИАННОЙ АНСАМБЛЕВОЙ ПЕДАГОГИКЕ

*Нозима МИРЗАЖОНОВА,  
педагог УзНМИИ института им. Юнус Ражабий*

**Annotatsiya:** *O'zbek opera san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan operalar va ularni fortepiano cholg'usida ansamblda ijro etish haqida ma'lumotlar. Ijro etilgan, yangi talqinga ega bo'lgan asarlar, obrazlar tasnifiga to'xtalib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *opera, teart, san'at, an'analar, jarayon, vokal, kompozitor, tarbiya, vatanparvarlik.*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются вопросы узбекского оперного искусства и их исполнение в фортепианном ансамбле. На материале анализа оперного жанра в творчестве узбекских композиторов выявляются выразительные средства, направленные на воспитание подрастающего поколения посредством оперного искусства.*


**Ключевые слова:** *опера, театр, искусство, традиции, процесс развития, вокал, композитор, воспитание, возвышенные патриотические чувства.*

**Abstract:** *The article considers the issues of Uzbek opera art. On the material analysis of the operatic genre in the works of contemporary Uzbek composers revealed expressive means, aimed at educating the younger generation through the art of opera.*

**Keywords:** *Opera, theater, art, tradition, development, vocals, composer, education, exalted patriotic feelings.*

Фортепианный ансамбль в Узбекистане как жанр имеет длительную историю развития. Он начал своё становления в 40-е годы XX века. В последние годы интерес к этому жанру возрастает больше. Изучение на уроках фортепианного ансамбля переложений симфонических, оперных и камерных произведений формирует необходимые навыки слаженной игры.

Большое значение в узбекской ансамблевой фортепианной музыке имеют транскрипции. Транскрипция – переработка музыкального произведения, в отличие от обработки имеет



относительно самостоятельное художественное значение. Причинами бытования транскрипций являются с одной стороны, стремление музыкантов - исполнителей к популяризации общеизвестных сочинений симфонической, музыкально-сценической и камерно-ансамблевой музыки. Их роль часто познавательная [2, с.81].

Такие специалисты в области фортепианного ансамблевого искусства как А.Готлиб, Р.Кедрова, Т.Давыдова отмечают познавательное значение транскрипций.

Эти и другие транскрипции оперных сцен имеют важное историческое значение в музыкальной педагогике. Остановимся подробнее на операх.

История национальной оперы в музыкальной культуре Узбекистана начата операми “Бурани” М. Ашрафи и С. Василенко в 1939, «Лейли и Меджнун» Р.Глизра и Т.Садыкова в 1940 году. Бурный подъем в развитии оперного искусства произошел в 50-60-е годы XX века. Открытие Государственного большого академического театра оперы и балета имени Алишера Навои, Государственной филармонии, оперной студии при консерватории подняли на небывалую высоту уровень исполнительского мастерства. Выдающиеся композиторы М.Ашрафи, С.Юдаков, М.Бурхонов, И.Акбаров, позже М.Бафоев, Р.Абдуллаев и другие написали оперные произведения которые стали национальным достоянием. Сцены из опер, в частности, арии, каватины, дуэты звучат на сценах театров, фестивалях, конкурсах. Вышеперечисленные жанры и их ансамблевые переложения вошли в учебные репертуары [1, с.56].

В Узбекистане на начальных этапах развития оперного искусства были так же популярны музыкальные драмы. В частности, «Повесть о сестрах» и «Зафар» Х.Рахимова, переложены Т.Давыдовой.

В целях изучения особенно интересна опера «Лейли и Меджнун» (1940) Р.Глизра и Т.Садыкова на одноименный сюжет поэмы Навои. Это лирико-эпическая опера в которой разнообразно использованы фрагменты из макамов «Шахноз-Гульёр» (часть-«Гирья»). «Сегох» передает плач матери (переложение А.Бертексона). Ариозо Лейли в последней картине




построено на основе ташкентского макама «Чоргох». В раскрытии образа Омара использован отрывок из макама «Баёт 4» [1, с.100]. В партиях двух фортепиано он звучит насыщенно, ритмично. Пианистам при исполнении следует обратить внимание на усуль узбекской музыки, а ансамблисты на фортепиано должны создать наво, нола.

Еще одна опера «Фархад и Ширин» (1957) Виктора Успенского и Георгия Мушеля – на одноимённый сюжет поэмы «Хамса» Навои. Опера героико - эпическая. Лейтмотив арии Фархада звучит жизнеутверждающе, мелодия «Мискин 2» пронизывает оперу от начала до конца. Она становится лейттемой героических деяний. Ария Фархада построена на основе макама «Дугох Хусаини 1». Мелодия народной песни «Фаргонача» звучит в первой картине. Лейтмотив арии главной героини Ширин - тема народного танца «Найларам». Она уступает место «Гульуин». Дуэт влюбленных Фархада и Ширин создан на тему макама «Баёт» [ 6, с. 345]. (Переложение Т.Давыдовой).

Опера «Проделки Майсары» (1959) Сулаймана Юдакова - первая узбекская комическая опера. В ней использованы подлинная наманганская свадебная «Хай, хай, улан джон улан», народно-танцевальная «Дутар баят», как традиционные формы и жанры. И в опере, и в переложении преобладают веселые, оживленные, четкие ритмические напевы, плавные, танцевальные движения: «Лаъли Бадахшон», «Олма атиржон». Все они относятся к популярным бытовым песням. Речевая выразительность вокала передана через специфику шуточно-игровых песен-лапаров: «Бола-бола», «Қорақош», «Қорасоч» [3, с.89]. Такие сцены как «Танец девушек и хор гостей», сцена «Финала» сделана мастерски, использована аккордовая структура (переложение Т.Давыдовой). Всё это даёт большой простор для творческой фантазии пианистам.

Для пианистов ансамблевое исполнительство открывает увлекательные грани мира музыки через возможность приобщения к совместному созданию звуковых образов. В высших учебных заведениях фортепианный ансамбль становится необходимой лабораторией творческого общения для студентов. Молодые пианисты получают возможность обмениваться




накопившимся исполнительским опытом и одновременно учиться у своих ровесников.

Предмет фортепианного ансамбля составляет единый педагогический комплекс специальных дисциплин «Оперная подготовка», «Специальное фортепиано», «Общее фортепиано», «Преподавание методики фортепиано». Он способствует развитию интонационного гармонического слуха, вокального слуха, метро-ритма, музыкальной памяти. Игра в ансамбле воспитывает культуру звукоизвлечения, развивает тембровое слышание, умение выявлять различные фактурные пласты. Владение разнообразной нюансировкой, наличие развитого переключения, быстрота реакции — вот те задачи, освоение которых расширяет профессиональный и выразительно-технический потенциал исполнителя и является незаменимой школой фортепианной игры.

Изучение на уроках фортепианного ансамбля переложений симфонических, оперных и камерных произведений мировой классики, а так же оперных сцен композиторов Узбекистана формирует навыки грамотного чтения с листа. Познавательным для музыкантов является либретто, стиль, драматургия оперных сцен. Оперные сочинения развивают художественное мировоззрение исполнителей. В ариях, хоровых сценах, а также во фрагментах опер, через слово можно раскрыть художественную драматургию произведения. В таких переложениях следует вырабатывать у ансамблистов ощущение единого «дыхания», чувство цельности слова и инструмента. В данном случае исполнителям полезно (в четырехручном дуэте зачастую необходимо) сыграть не только свою партию, но и ознакомиться с вокальными образами опер. Это способствует более чуткому ощущению специфики оперного жанра в ансамблевом исполнительстве.

При исполнении оперных переложении и транскрипции ансамблистам следует слышать и слушать музыку более тонко, чувствовать локоть партнёра.

При интерпретации оперных сцен, и исполнители должны обратить внимание на следующие методические рекомендации: создание единого образа;




обладать технической сноровкой;  
единая драматургия;  
единая координация четырех рук;  
динамические оттенки;  
единое дыхание.

Обобщая вышеуказанное, следует отметить, что опера - театральная форма искусства. Она соединяет в себе литературу, музыку, работу режиссера. Поэтому исполнителям полезно было бы играть оперу более глубоко. В частности, анализировать изнутри, более точно передавать слушателю сценическое действие.

Все это вызывает большой интерес у слушателей аудитории, молодежи. В последнее время все больше слушателей интересуются оперным искусством. Потому как театральное искусство, как никакой другой жанр воздействует на эстетическое воспитание молодого поколения, формирует художественное мировоззрение и вкус. Таким образом, музыканты через предмет фортепианного ансамбля, (переложения и транскрипции) более глубоко постигают секреты оперного искусства.

#### Литература:

1. Ганиева Л. Фортепианный дуэт в Узбекистане: вопросы интерпретации.-Т.: Baktria press, 2013.
2. Ганиева Л. Методология изучения фортепианно-ансамблевого искусства Узбекистана.- Т.: Нишон Ношир, 2016. 120 с.
3. Готлиб А. Основа ансамблевой техники - М.: Музыка, 1971.



## MUXTOR ASHRAFIYNING MUSIQIY ME'ROSI

**Sitora IBRAGIMOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** O'zbek opera san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan kompozitor va uning ijodi haqida ma'lumotlar. U tomonidan ijro etilgan, yangi talqinga ega bo'lgan, asarlar va obrazlar tasnifiga to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** kompozitor, opera, libretto, vokal, maqom, dirijor, rejissyor, xonanda, ariya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы узбекского композитора. На материале анализа его творчества. Выявляются выразительные средства, направленные на воспитания подрастающего поколения посредством искусства.

**Ключевые слова:** опера, театр, искусство, традиции, процесс развития, вокал, композитор, воспитание, возвышенные патриотические чувства.

**Abstract.** The article considers the issues of Uzbek composer. On the material analysis of the operatic genre in the works of contemporary Uzbek composers revealed expressive means, aimed at educating the younger generation through the art of opera.

**Ke ywords:** Opera, theater, art, tradition, development, vocals, composer, education, exalted patriotic feelings.

O'zbek milliy musiqa madaniyatining asosiy juda ko'p uchraydigan qismi bo'lmish qo'shiqchilik, kuylash san'ati uzoq o'tmishdan va asrlardan davomida yurtimizda rivojlanib kelmoqda. Kuylash san'ati deyarli hamma xalqlarning butun turmush hayoti bilan qadim zamonlardan buyon bog'liq bo'lib kelgan. Ma'lumki, an'anaviy marosim xalq qo'shiqlari u yoki bu marosim munosabati bilan qo'shiqchi, kuylovchi tomonidan ijro etilgan va ular hozirgi davrgacha bizga yetib kelgan.

XX-asrga kelib qo'shiqchilik san'at turi vokal, akademik xonandalik yo'nalishlarini 20-30 yillaridan kirib kelishi bilan o'ziga xos bo'lgan janrlarda davom etdi. Dastlab yakka kompozitorlik ijodining yakkaxonlar uchun yozilgan qo'shiq, romans ko'rinishidagi asarlari bo'lsa, keyingi o'rnlarda u musiqali drama, opera, operetta,



oratoriya va kantata, messa va rekviem kabi yirik janrlarda rivojlandi va mustaxkamlandi. Bular o'zbek akademik xonandalik, vokal ijrochiligining rivojiga katta hissa qo'shdi. Shu o'rinda kompozitorlik ijodiyoti ham muhim rol tutadi. Xususan shu o'rinda vokal san'ati, opera janrida keng qamrovli ijod qilgan kompozitor, dirijor O'zbekiston xalq artisti, Davlat va Xalqaro mukofotlar sovrindori, professor Muxtor Ashrafiy o'rni beqiyosdir. Ijodkor xaqida so'z yuritar ekanmiz, u 1928 yilda u Samarqand shaxridagi musiqa va xoreografiya institutiga o'qishga kiradi. Bu yerda u ajoyib rus musiqa bilimdoni, etnograf va kompozitor Nikolay Nazarovich Mironovdan kompozitorlik va dirijorlik san'ati sirlarini o'rganadi. Yosh bo'lishiga qaramay, u kompozitor sifatida qator qo'shiqlar va ko'p ovoz uchun xor asarlarini yaratadi. Jumladan soprano ovoz sohiblari tomonidan sevib kuylanadigan asarlar sirasiga Furqat she'ri bilan yozilgan "Kashmirida" romansidir. Ushbu romans men tomonidan juda sevib ijro etiladigan romanslar sirasiga kiradi. Unda keltirilgan o'zbek milliy ohang va melizmatikasi, vokal yo'nalishi- so'z uyg'unligi va ichki kechinmalar bilan birgalikda mustaxkam bog'langan bo'lib, bu asarning ijro etuvchi va tinglovchiga nisbattan emotsional ta'sir kuchini oshiradi.

Dirijor sifatida birinchi bor 1929-yilda Samarqand shahrida tashkil topgan simfonik orkestr bilan yaqindan tanishib, konsertlar uyushtiradi. Bundan tashqari u, Samarqand shahri radiokomitetida badiiy rahbar, hamda o'zbek musiqali teatrda dirijor lavozimida mehnat qiladi. Shuning uchun ham u, institutni 1930-yili tugatgandan so'ng, Toshkent shahridagi O'zbek Davlat musiqali teatrga badiiy rahbar va bosh dirijor etib, tayinlanadi. Bu yerda uning kompozitorlik va dirijorlik faoliyatining rivojiga katta imkoniyatlar tug'iladi. Yosh kompozitor o'zining birinchi asari bo'lmish "Qurilish marshini" simfonik orkestr uchun 1932 yilda yaratadi. Bundan ilhomlangan kompozitor Komil Yashinning "Ichkarida" dramasiqa musiqa bastalaydi. Buning mohiyati shunda ediki, M.Ashrafiy o'zbek musiqali drama teatri tarixida birinchi bo'lib odatdagi xalq cholg'u ansambli o'rniga simfonik orkestrni ishlatdi. Kompozitor bu ishlar bilan cheklanib qolmay, balki yirik musiqa janrlarida ham asarlar ijod etdi. O'zining nazariy bilimini yanada oshirish va kompozitorlik ilmini mukammallashtirish niyatida, u Moskva konservatoriyasi qoshida




ochilgan opera studiyasiga o'qishga kiradi. Bu bilim maskanida 4 yil davomida taniqli kompozitor va ajoyib pedagog Sergey Nikiforovich Vasilenko rahbarligida murakkab musiqa janrlarini puxta egallaydi.

1939-yili M.Ashrafiy o'zbek opera tarixida ilk marotaba opera janrida o'zining sevimli ustozlari S.Vasilenko bilan hamkorlikda birinchi o'zbek milliy "Bo'ron" nomli operasi tugatib, sahnada o'zi dirijorlik qilib, keng xalq ommasiga havola etadi.

1950-chi yillarda M.Ashrafiy, o'zining asosiy ishi bilan baravariga pedagoglik faoliyatini Toshkent konservatoriyasida opera sinfida dirijor-pedagog bo'lib ish boshlaydi. Shu bilan birgalikda shu yillar davomida M.Ashrafiy rahbarlik qilgan konservatoriyaning "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida opera tayyorlovi sinfida Dj.Rossining "Sivilskiy siryulnik", K.M.Veberning "Волшебный стрелок", Dj.Puchchinining "Madam Batterflyay" kabi operalar sahnalashtirilgan edi. Bundan tashqari ustoz rus klassik operalariga murojat qilib, A.Dargomijskiyning "Русалка", M.Musorgskiyning "Борис Годунов" operalaridan parchalarni ishlab chiqaradi. M.Ashrafiy talabalarda-bo'lajak opera yakkaxonandalarida badiiy nozik didning rivojlanishiga katta e'tibor berib, asarni ijro etish sifatiga va badiiy timsolni ifodalanishiga juda talabchan edi. U ansambl tovushlarini tozaligiga, orkestr ijrochiga, templarga va ijro etish shakillariga a'lo darajada bo'lishlariga, astoydil xarakter qilar edi. Ustoz M.Ashrafiy kamdamkam uchraydigan noyob musiqachi va ajoyib, artistlarga xos didga ega bo'lgan. Keng va chuqur ma'lumotli, aql-zakovatli inson bo'lib, qog'ozda yozilgan nota chiziqlarini ustalik bilan xayajonli go'zal asarga, haqiqiy real jaranglagan musiqiy timsolga aylantirar edi.

1953-yilda M.Ashrafiy sharaflil pedagogik faoliyati uchun professor unvoniga sazovor bo'ladi. Lekin kompozitor o'zining asosiy kompozitorlik burchini unutmas edi. S.N.Vasilenko bilan hamkorlikda Katta Farg'ona kanali ishtirokchilariga bag'ishlangan "Ulug' kanal" operasini, ikkinchi taxriri bilan "Baxtlar vodiysi" operasini yaratib, katta taxsinlarga sazovor bo'ladi.

1958-1959 yillar mobaynida M.Ashrafiy o'zining uchinchi operasi "Dilorm" ni yaratadi. Uning musiqiy ijodiy yetuklik davri shu operadan boshlanadi. Bu opera kompozitor tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan birinchi opera ekanligini unutmaslik kerak, chunki



bungacha yaratilgan ikkita sahna asarlari S.N.Vasilenko bilan hamkorlikda yozilgan edi. Asarning mazmuni ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga kirgan "Yetti sayyora" poemasi asosida yaratilgan. Libretto mualliflari K.Yashin va M.Muxamedovlar bo'lgan. Asar markazida bir-birini jon dilidan sevuvchi, bu yo'lda jondan ham kechishga tayyor ikki yosh, xonanda Dilorom va musavvir Moni timsollari yoritilgan.

M.Ashrafiyning so'nggi "Shoir qalbi" operasi o'zbek xalqining sevimli va ajoyib demokrat shoiri Furqatning hayoti va u yashagan davrni aks ettiruvchi asardir. "Shoir qalbi" operasi 1962-yilda yozilgan bo'lsa, uning premerasi 1964 yilda Samarqand shahrida yangi ochilgan opera va balet teatr sahnasida, muallif rahbarligida muvoffaqiyat bilan ijro etildi.

Ustozning pedagogik faoliyatiga qaytaylik. Yuqori malakali mutaxassislarni chifartirish uchun konservatoriyaga opera studiyasi kerakligini M.Ashrafiy juda yaxshi tushunar edi. U kadrlar va boshqa tashkiliy masallarni yechib, ularning yechimidan opera-studiyaning kelajagi bilan bog'liq ekanligini yaxshi bilar edi.

Toshkent davlat konservatoriyasining opera-studiyasi 1964-yilda tashkil etilgan. Uning tuzilishiga ko'p kuch saflab mehnat qilgan va bir necha yillar davomida badiiy rahbar bo'lib kelgan. Opera-studiyasining asosiy masalasi-bu talabalar uchun ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish uchun sharoitlarni tuzib berishdan iborat edi. Xonandalar, dirijorlar, xormeysterlar o'zining mustaqil birinchi qadamlarini shu opera-studiyaning sahnasida qilishmoqda edi. Studiyaning jamoasi, konservatoriyaning rahbaryati va pedagoglari kelajak mutaxassislarni Oliy maqsadiga yo'naltirishar edi.

M.Ashrafiyning opera san'atining chuqur bilimlarini kelajak musiqiy teatr artistlarini tarbiyalashga yo'naltirdi. Talabalarning musiqiy-sahnaviy qobilyatini rivojlantirishga butun kuchini berishi, ustozning g'ayratli va tashabbuskor pedagog sifatida ko'rsatadi. Ustoz, talabalarni mustaqil ishiga tayyorlab borardi, ularni spektaklda qatnashishlarini qo'llab-quvvatlab, ijodiy sharoitlarini yaratib berar edi, chunki talabalarning spektakllari ular uchun katta ijod maktabi bo'lar edi.

Qizg'in e'tibor, chuqur bilimga asoslangan yuksak talabchanlik M.Ashrafiyning ijodiy va pedagogik faoliyatini ta'riflaydi. Musiqiy



teatr sa'atiga sadoqat bo'lib, u har bir sahna timsolining ustida chuqur ishlab, talabalarda musiqiy-sahnaviy fikr yuritishni rivojlantiradi.

Shunday qilib Muxtor Ashrafiyning kompozitorlik ijodi, dirijorlik mahorati bilan bir qatorda pedagogik faoliyati ham yuksak darajada bo'lib, u jamoat ishlarida ham katta vazifalarni bajarib kelar edi. U Toshkent davlat konservatoriyasi rektori, opera kadrlarini tayyorlash kafedrasining mudiri va pedagogi, Samarqand opera va balet teatri direktori, A.Navoiy nomidagi DAKT badiiy rahbari va bosh dirijori bo'lib ishlab keldi.

So'ngi yillarda opera janrida yangi yaratilgan, qaytadan tiklangan o'zbek va jahon klassik opera asarlari yangi talqinda katta sahnalarda, jumladan A.Navoiy nomidagi DAKT sahnasida namoyish etilayotgani quvonarli xoldir. Bu kabi asarlar insonlarning ichki dunyosini boyitadi va hayotini go'zallik sari chorlaydi. Shu o'rinda Muxtor Ashrafiy ijod na'munalari ham albatta.

Ijodkor 1975-yilda Toshkentda vafot etdi. Lekin uning ijodiy ishlari vafot etgani yo'q. Kelajakda yana ko'pdan ko'p ijod na'munalari, opera xonandalari uning operalarida, tanlov va festivallarda vokal asarlari yangidan yangi marralar zab etishiga katta umid borligidan dalolat beradi. Muxtor Ashrafiyning ijodi xamisha o'zbek musiqa san'atida yorqin sahafalardan biri bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Пеккер Я. Узбекская опера - М.: Музыка, 1984.
2. Ашрафи М. Музыка в моей жизни - Т.: Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1975.
3. Мурадова Д. Опера и музыкальная драма: к проблеме взаимоотношений жанров. Част 2. Выпуск 1 - М.: Прогресс, 1996.



## SODIRXON HOFIZ BOBOSHARIFOV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI HAQIDA

**Salohiddin ABDUFATTOYEV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: **Nodira PIRMATOVA,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI dotsenti,  
"Maqom xonandaligi" kafedrasini mudiri,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

**Annotatsiya:** Sodirxon hofiz Bobosharifov XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan mashhur xonanda va bastakor, o'z zamonasining yetuk san'at namoyandasi tarixda yorqin iz qoldirgan san'atkoridir. O'z ijodi bilan Sodirxon hofiz mumtoz musiqa merosiga katta xissa qo'shgan va bir qator mumtoz asarlar yaratgan ijodkoridir. Ushbu maqolada Sodirxon hofiz Bobosharifov hayoti va ijodiy faoliyati ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq, hofiz, musiqa ijrochiligi, xonanda, ustoz, faoliyat.

**Аннотация:** Соди́рхан Хафиз Бобоша́рифов – известный певец и композитор, живший и творивший во второй половине 19 века и начале 20 века. Своим творчеством Соди́р Хан Хафиз внес большой вклад в наследие классической музыки и создал ряд классических произведений. В данной статье научно анализируется жизнь и творческая деятельность Соди́рхана Хафиза Бобоша́рифова.

**Ключевые слова:** народ, хафиз, музыкальное представление, певец, педагог, деятельность.

**Abstract:** Sodir Khan Hafiz Bobosharifov is a famous singer and composer who lived and worked in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. With his work, Sodir Khan Hafiz made a great contribution to the heritage of classical music and created a number of classical works. This article scientifically analyzes the life and creative activity of Sodir Khan Hafiz Bobosharifov.

**Key words:** people, hafiz, musical performance, singer, teacher, activity.



Sodirxon Bobosharifov XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan mashhur xonanda va bastakor, o'z zamonasining yetuk san'at namoyandasi tarixda yorqin iz qoldirgan san'atkoridir. O'z ijodi bilan Sodirxon hofiz mumtoz musiqa merosiga katta xissa qo'shgan va bir qator mumtoz asarlar yaratgan ijodkoridir.

Farg'ona vodiysining Xo'jand xududida tavallud topgan Sodirxon yoshligidan mumtoz musiqaga mexr qo'yadi. 8 yoshidan yetim qolgan bola o'z qishlog'ining obro'li kishilaridan bo'lmish Poshsho oxun qo'lida tarbiya oladi. Keyinchalik Xo'jandning taniqli arboblardan biri qozi Said Buzrukxo'ja xonadonida tarbiyalanadi. Tabiiy iste'dodga ega bo'lgan Sodirxon bir necha yillar davomida Said Buzrukxo'ja ustozligida diniy va musiqiy savodini oshiradi. Turli ilmlardan saboq oladi. Said Buzrukxo'ja o'z zamonasining ilimli va obro'li kishilaridan biri, qattiqqo'l va shogirdlarga o'ta talabchan inson edi. Shu bilan birga maqom ilmidan xabardor, sozandalikdan esa dutorda yaxshi yo'llarni cherta oladigan moxir sozanda edi. Sodirxon qattiqqo'llik bilan bu ilmlardan saboq beradi.

Said Buzrukxonning yosh bolani o'z tarbiyasiga olishining o'ziga xos sabablari bo'lgan. Chunki, Sodirxon latif, kuchli va ta'sirli ovoza ega bo'lgan. Shu bilan birga tug'ma istedodi va cheksiz qobiliyati mavjud edi. Said Buzrukxon boladagi bu jixatlarni uning xonishidan ko'rsatgan muomalasidan anglab oladi va bolaning kelajagini tasavvur qila oladi. Ilmu ma'rifatning qadrini bilgan Said Buzrukxo'ja Sodirxonning tarbiyasiga alohida e'tibor bilan yondoshadi va nafaqat musiqa, balki boshqa bir qator ilmlarni o'rgatadi.

Iste'dodli Sodirxon o'z ustozidan soz chalish sirlarini, maqom ijrochilik san'atini va namunalarini qunt bilan o'rganadi. Xonandalik bilan bog'liq bo'lgan barcha amallarni hofizlik an'analari asosida o'zlashtirishga xarakter qiladi. Eng avvalo Qur'oni karimni qiroat bilan o'qishni mukammal egallaydi. Bu uslublarni muqam ijrochiligida qo'llashga harakat qiladi. 20 yoshga yetganda maqom ijrochiligida xofizlik san'atini ma'lum darajada egallagan xonanda sifatida taniladi.

Said Buzrukxo'ja ustozini vafotidan so'ng birinchi ustozini Poshsho Oxunning ta'limiga keladi va u bilan xalq anjumanlari, ziyolilar davrasida ishtirok eta boshlaydi. Shu bilan birga Sodirxon o'z ustozini Poshsho Oxun bilan birga tez-tez Qur'onga maxsus tashkil etiladigan



“korxon”, “xonaqox” lardagi turli yig‘inlarda ishtirok etish uchun borib turadi. Xonaqoxiy o‘tirishlarda maqom yo‘llari, zikr yo‘llaridan baytlar o‘qib muxlislar orttiradi.

Tez orada u o‘zining jozibali xonishlari, latif ovozi, jiddiy xarakteri bilan nafaqat Qo‘qon yoki Xo‘jand balki Farg‘ona vodiysida taniladi.

Sodirxon o‘zining ijrochilik amaliyotida ko‘proq zikrona ashulalarga e‘tibor qaratgan va “xonaqox”larda tashkil etilgan davralarda ishtirok etgani va shu davralarga mos ashulalar aytganligi sababli “xonaqoiy hofiz” nomni oladi. Qolaversa, shu paytlarda mumtoz musiqa namunalari ko‘proq tasavvufiy mazmundagi baytlar bilan ijro etilib kelinganligi kitoblarda bayon etilgan.

Uning ijro repertuarida ko‘proq zikrona janridagi na‘dlar, masnaviyalar, marsiya va didaktik mazmundagi ashulalar o‘rin egallagan. Xonaqoiy hofiz deyishlarining asosiy sababi ana shu repertuar bo‘lsa ajab emas. Chunki, shu davrlarda maddoxona ashulalar xalq orasida ko‘p aytilgan va didaktik mazmunga ega bo‘lgan munojotlar, hamd va zikr ashulalari xalqning ma‘naviy tarbiyasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Sodirxon hofiz o‘zining ijro repertuarida Axmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Shams Tabriziy, Maxtumquli, So‘fi Olloyor, Mashrab kabi shoirlarning g‘azallariga ko‘p murojaat etgan.

Aytish kerakki, Sodirxon hofizning Qo‘qondagi ijodiga shu makon, ya‘ni vohaning an‘analari o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Chunki, Sodirxon Qo‘qonda bir qator mohir katta ashulachilar ijodi bilan tanishadi.

Shashmaqom ijrochilik mahoratlarini o‘zlashtiradi. Bu saboqlar va tanishuvlar uning ijodiga ta‘sir etmay qolmaydi. Uning ijkidini kamol topishida Qo‘qon ijrochilik muhiti, an‘anasi Katta ashula va maqom ijrochilik an‘analari o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Chunki u o‘z ijrosida Qo‘qon ijro uslubiga tayanish va unga asoslanishga harakat qiladi. Bu uning ijodi shakllangandan so‘ng yaqqol o‘zini namoyon etadi. U bu muhitda Erka Qori Karimov, Madar hofiz, Karimqulibegi, Ismoil naychi, Rustam hofiz, Ashurali hofiz, Zebo pari, Xudoybergan hofiz, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov kabi ustoz san‘atkorlar bilan yaqindan tanishadi, ijodiy xamkorlik qiladi. Shashmaqomni



o‘zlashtirishda Xoji Abdulaziz Abdurasulov va Domla Xalim Ibodovlar bilan qilgan xamkorligi o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Aytish lozimki, “Sodirxon hofiz garchan xalq orasida xonaqoiy hofiz sifatida tanilgan bo‘lsada, ijodining eng samarali davri, rivojlangan paytlari aynan maqom yo‘llaridagi asarlarni yaratish, bastakorlik ijodi bilan bog‘liq ekanligini e‘tirof etish lozimdir”.

Darhaqiqat yozadi Tojikiston vazorati qoshidagi musiqiy ilmiy tadqiqot kabineti xodimlari - “Sodirxon xush ovoz egasi, mohir sozanda va xonanda edi, buyuk forsiy tilda ijod etgan shoirlarning baytlariga o‘zi kuy bastalab o‘zi ijro etadi. U yaratgan g‘azalu-ashulalar kishi xissiyotini to‘lqinlantirib maftun etar edi. Shu zayil u o‘zbek va tojik xalqlari orasida keng tanildi”.

Sodirxon hofiz Farg‘ona vodiysining musiqiy an‘analarini juda mohirlik bilan o‘zlashtiradi. Maqom va maqom yo‘llarini qunt bilan o‘rganganligi uning ijodiga katta ta‘sir etadi. Aynan bastakorlik ijodida bu jixatlar yorqin namoyon bo‘ladi. Avvalo aytish lozimki, har bir xofiz yoki xonanda ustozlar sabog‘ida shakllanadi. Ularning ijrosini, ijro an‘analarini, talqin sirlarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. Agar o‘z iste‘dodi bunga qodir bo‘lsa, xar bir pishib yetilgan asarlarini o‘z talqiniga solib ijro etadi. Buning uchun zukko va musiqiy bilimdonlik darajasiga erishish lozim. Lekin, talqin masalasida xonandalar juda extiyotkorlik bilan yondoshganlar. Chunki, maqom san‘ati uning ijrochilik an‘analarida yillar davomida shakllangan va muxirlangan qonun-qoidalar, meyorlar tarkibi qaror topganki, ularni hech qanday ustoz ham buzishga jur‘at etolmagan.

Shu bois bo‘lsa kerak Sodirxon hofiz o‘zining bastakorlik ijodida maqom tarkiblaridan farqli o‘laroq Farg‘ona vodiysi musiqiy an‘analariga tayangan xolda ijod etadi. Bunda u avvalo Qo‘qon ijrochilik maktabi an‘analari, Isfata hofizlik an‘analari, katta ashula ijrochiligi va maqom san‘atining tarkibiy an‘analariga, katta e‘tibor beradi va o‘z ijodida ham unimli foydalanadi. Buni biz yaratgan asarlarida, xattoki ularning nomlanishlarining o‘zida xam yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Sodirxon hofizning ijodi asosan maqom yo‘llariga xosligi bilan ajralib turadi. Ijodining mundarijasiga e‘tibor qaratsak Farg‘ona vodiysi an‘analarida mavdul turkimlarga e‘tiborni, maqom namunalari e‘tiborni va xalq musiqasidagi maqom yo‘llariga



tayanishlarini ko'rishimiz mumkin. Ijodining yorqin namunasi sifatida quyidagilarni misol qilish mumkin. Mumtoz musiqa merosimizdan katta o'rin olgan Ushshoqlarga nazira sifatida "Ushshoq" asarini yaratadi. Va bu asar alohida qolmay unga Shashmaqom ikkinchi guruh sho'baloriga xos tarzda uning shaxobchalarini yaratgan. Ya'ni "Talqinchai Ushshoqi Sodirxon", "Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon". Farg'ona vodiysida Segoh maqomi va unga xos yo'llar keng ommalashgan. Shunga xos Sodirxon hofiz ham beshta segoh namunalaridan yaratadi va ular Segoh yakko'm, duyum, seyo'm, choro'm va panjo'm deb nomlardi.

Farg'ona-Toshkent maqom turkumlari Negizida "Chorgoh", "Shaxnoz", "Gulyor", ya'ni Gulyori Sodirxon" va x.k kabi mumtoz yo'nalishidagi musiqiy namunalarni yaratgan. Sodirxon hofiz o'zining ijodida xalq orasida keng ommalashgan va mumtozlik hususiyat kasb etgan namunalariga xam katta e'tibor bilan yondoshgan. Ularni ijodida o'ziga xos tomonlarini namoyish etish uchun, o'zining "Sinahurush", "Dilxiroj", "Ufor" kabi asarlarini yaratdi.

Qayd etish joizki, Sodirxon hofiz o'z zamonasida maqom yo'llariga mos, o'ziga xos ijro maktabini yaratishga muyassar bo'lgan ustoz san'atkordir. U nafaqat ijrochilik yo'lini yaratdi, balki shunga xos asarlar yaratib uni kelajak avlodning kamoloti uchun meros qilib qoldirdi. Har bir yaratilgan asar o'zida mumtozlik xususiyat kasb etsa, albatta avlodlar tomonida e'tirof etilishi begumondir. Sodirxon xofizning ijodi, maktab davomchilarining xozirgi davrda xam amalda qo'llayotganligi yorqin dalil sifatida xizmat qiladi.

Sodirxon hofiz ana shunday, ya'ni o'z ijrochilik mahorati va izlanishlarining mahsulida alohida ijrochilik yo'lini yaratgan san'atkordir. Bu ijrochilik uslubi Xo'jand va Qo'qon ijro maktablarining xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi bilan alohida ajralib turadi. Sodirxon hofiz umrining oxirgi daqiqalarigacha ustozona mumtoz ijro va ijodni tark etmagan. Musiqa merosni ravnaqiga munosib xissasini qo'shib kelgan yorqin namoyondalardan biri sifatida tarixga muxirlangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir T.: "Fan" 1963.
2. Rajabov I. "Maqomlar" T., 2007.



3. Mamadaliyev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari". T.: "Yangi asr avlodi", 1998.

5. G'ofurbekov T. "Bastakorlik ijodiyoti". Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami, 1 qism. T.: 1997.

6. Sodirxon. Bobosharifov tanlangan asarlari. Kirish so'zi. Stalinobod, 1946.

7. Xudoyberganov S. Tojik xalq hofizlari. Toshkent-Xo'jand 2000.

8. Begmatov S. "Hofizlik san'ati" T.: "Musiqa" 2008.

9. Begmatov S. "Farg'ona vodiysi hofizlik an'analari" (Sodirxon hofiz, Jo'raxon Sultonov va Rasulqori Mamadaliyev), nomzodlik dissertatsiyasi (qo'lyozma 1995.)

10. "Musiqa ijodiyoti masalalari", Birinchi jild. T.: 1991.



## XORAZM URFIY MAQOMLARINING TO'PLANISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Furqat OMONKELDIYEV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI

2-bosqich magistranti

"Nihol" mukofoti sovrindori.

Ilmiy rahbar: **Nodira PIRMATOVA,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI dotsenti,

"Maqom xonandaligi" kafedrasini mudiri,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

**Annotatsiya:** Xorazmiy tanbur chizg'ilari ustida ishlagan maqom ustozlari ayni chog'da musiqashunoslik ilmlarini ham puxta o'zlashtirgan allomalar bo'lgan. Shuning uchun ham ular xatga tushirgan matnlar har tomonlama yetuk, yozgan nota to'plamlari faqatgina matn emas, balki o'ziga xos musiqashunoslik risolalari vazifasini ham bajaradi. U mushtarak ilmiy-amaliy bilimlar manbai va sharq musiqiytafakkurida burilish yasagan yozuv tizimidir. Ushbu maqolada Xorazm urfiy maqomlarining to'planishi haqida ayrim mulohazalar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom, Xorazm urfiy maqomlari, dutor, tanbur, xalq, "ustoz-shogird".

**Аннотация:** Преподаватели макамов, работавшие над строками хорезмийского танбура, были в то же время учеными, досконально освоившими науку музыковедения. Именно поэтому написанные ими тексты во всех отношениях зрелы, а написанные ими нотные своды являются не только текстами, но и служат своеобразными музыковедческими трактатами. Это источник общих научных и практических знаний и система письма, которая стала поворотным пунктом в восточной музыкальной мысли. В данной статье рассматриваются некоторые соображения о сборе хорезмских урфийских статусов.

**Ключевые слова:** шашмаком, хорезмийские традиционные статусы, дутор, танбур, народ, "устоз-шогирд".

**Abstract:** Maqam teachers who worked on the lines of the Khorezm tanbur were at the same time scientists who thoroughly

mastered the science of musicology. That is why the texts written by them are mature in all respects, and the music books written by them are not only texts, but also serve as original musicological treatises. It is a source of general scientific and practical knowledge and a writing system that has become a turning point in Eastern musical thought. This article discusses some considerations about the collection of Khorezm Urfi statuses.

**Key words:** shashmaqom, Khorezmian traditional statuses, dutor, tanbur, people, "ustoz-shogird".

Musiqiy merosimizdan bahramand bo'lgan har bir inson bu ulug'vor hikmat olamining tarixi, nazariyasi shuningdek nav, shakl ijod va ijrochilik hamda boshqa ko'plab sohalariga oid qomus ekaniga ishonch hosil qiladi. Bu mumtoz qadriyatlarimizning ayrim bo'laklari musiqaning ilmiy asoslari nuqtai nazaridan hali yetarlicha o'rganilmagan. Xorazm maqomotida dutor maqomlari, olti yarim maqom bilan egizak bo'lib kelayotgan qadriyatlar qatorida Urfiy maqom yo'l-yo'liqlari tizimlari alohida o'rin tutadi.

Xorazm maqomotida olti yarim maqom bilan zotan bir-biriga yaqin bo'lib kelayotgan maqom navlaridan biri el orasida urf-odat etilgan Urfiy maqomlar hisoblanadi. Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzodalarning "Xorazm musiqiy tarixchasi"da shunday ma'lumotlar qayd etilgan: "Muhammad Rahimxon Soniy musiqiy ilmiga cho'ng darajada havosli bo'lib, musiqiy ishlari muning zamonasidan butun butunina boshqa bir xol kasb etadur. Burundan xalq orasida ozroq istanilgan musiqiy ishlar ortiqmoch bir sur'atda tarqaladur va milliy nag'malarni vujudga chiqmaqina imkoniyat yaraladur. Xususi mutaxassis musiqashunoslar durab (yaralib), Shashmaqom nag'malarining mushkilot, tasnif qismlari ayriча аhamiyat kasb etib, mushkulot bila tasnif qismlarina taalluqli shashmaqom nag'malari burungi holidan hiylichа o'zgarib, necha qo'shimchalar qo'shulib, yomaladur"<sup>67</sup>. ("Burundan xalq orasida" so'zi Xorazm shevasida "avvaldan el orasida urf-odat etilgan degan ma'noni anglatadi" - izoh B.Raximov).

<sup>67</sup> Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi", "Yozuvchi" nashriyoti, Toshkent, 1998y. 2-nashr.



Bugungi kunda biz mazkur jarayonlar haqida bir muncha aniq taassurotlarga egamiz. Xivada deyarlik 47 yil (1864-1910) hukmronlik qilgan sozparvar va san'atparvar Muhammad Rahimxon Soniy (adabiy taxallusi Feruz)ning ko'rsatmalari asosida xalq orasida keng tarqalgan Urfiy maqomlardan andoza olinib, lining kuy va ohang tuzilmalari tartibga solinib kobplab yangi nom, kuy va ashulalarni ijodiy o'zlashtirib yangi tizilmasi yaratilgan. Bu tizilma olti yarim maqom deb nomlangan. Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yusuf Bayoniy, Matyoqub Xarrot va boshqa maqomdon ustozlar tomonidan olti yarim maqom tanbur chizg'ilariga tushirilgan.

Sharq xalqlarining musiqa madaniyati o'z tabiatiga ko'ra rasm rasm, tartib va nazmlari, parda va usul asoslari avloddan - avlodga bevosita og'zaki ravishda o'tib boradigan urfiy musiqa toifasiga mansub. Urf- odat, albatta, faqat o'tmish mahsuli uning g'oyasi emas, balki kelajakni ilhomlantiruvchi yangi yo'l yo'riqlarga boshlovchi, izchil rivojlanishlarga zamin bo'luvchi zamondir. Urfiy musiqa taraqqiyoti o'zining o'tmish yutuqlariga sadoqat, yangi ufqlarga muntazam intilish, harakatlanib va o'zgarib turuvchi ichki qonuniyatlariga asoslanadi.

Urf- odat rishtasi uzilmasligi uchun mohir ustozlar o'z san'atlarini yangi avlodga uqtirib, millat merosiga mehr-muhabbat uyg'otib kelganlar. San'atda ustoz - shogird munosabatlari bir tomonlama bo'ladigan oddiy narsa emas. Vorislik musiqa sharoitida ustozdan ta'lim olish, uning iziga ergashish bevosita tajribadan, har bir alohida vaziyatda o'z qonunlarini taqozo qiladigan amaldagi hayotiy maktabni tashkil etadi.

Ustoz - shogird munosabatlarini san'atda biron qolipga tushirib bo'lmaydi. Bu jarayon san'atning o'zidek tor andozaga sig'maydigan hol, cheksiz ijodiy jarayon. Xorazmlik mashhur maqomdon ustoz Mullo Muhammadsharif Xudaybergan muhrkan tomonidan o'g'li Matpano Xudayberganga meros qoldirgan dastakda quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Xorazmda Dilorom changiy degan sozanda bo'lgan. Xiva qal'asining kun chiqish tarafidagi bir bog'da yashagan. Dilorom soz chalib odamlarni behush qilur erdi. Shu qiz shu bog'da mumkin qadar yuzini nomahramga ko'rsatmas ekan. Chodraning oldiga parda tortib, (o'zi pardaning ichida o'ltirgan) olarga ta'lim




berganlar. Shundan beri Xorazm maqomlari taraqqiy qilg'on". Polvonboy, Yoqub dorichi, O'smonjon, Abdujabbor, Abdurahmonbek degan ustozlar yetishgan. Ulardin bir necha shogirdlar lili'lim olganlar, Mullo Yoqub dorichidan Avaz dorichi, Xudaybergan maxdum, Bobojon bola ularning shogirdlari Mullo Muhammadsharif Xudaybergan muxrkan bo'lgan". Namlari zikr etilgan ustozlarning har biri Xorazm urfiy maqom yo'l-yo'riqlarini yaxshi bilgan, Matpona otagacha ustoz - shogird urf odatlarini samimiy ehtirom bilan saqlagan ilg'or ustozlar hisoblanadilar.

Matpona ota o'zlari ham uzoq yillar davomida ko'plab ashulachi va san'atkorlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan, yuqori mahoratli, o'z kasbining ulkan namoyandasi bo'lgan san'atkordir. O'lgan asrning 30-yillaridan e'tiboran milliy musiqiy qadriyatlarimizdan bo'lgan maqomlarimizning yo'llari to'silib, ular bilan bog'liq tushuncha va atamalar ham keskin ravishda iste'moldan chiqarilgan va bu san'at davr talabidan tashqarida qolib, ijrochilik an'analari uzilishlar sodir bo'la boshlagan edi.

Ushbu davrlarda musiqiy merosimiz qadimiy namunalari maqomdon ustozlar xotiralarida og'zaki (ya'ni xatga yozilmagan) tarzda saqlab kelganlar. Ana shunday bilimdonlardan biri Matpano ota Xudoyberganov hisoblanadi. Uzoq yillar viloyat teatrida rahbarlik lavozimlarida ishlagan Yunus Yusupov tashabbusi bilan Matpano ota rahbarligida 1943-yilda Urganchda viloyat teatri qoshida o'ziga xos konsert guruhi ("estrada teatri") tashkil etilib, unda xalq orasida saqlanib qolingan Urfiy maqomlarni yoshli san'atkorlarga o'rgatish hamda ommaviylashtirishga qaratilgan ijodiy uyushma yuzaga kelgan edi.

Uyushmada atoqli san'atkorlar Razzoq ota Omonov, Hojixon Boltayev bilan bir qatorda Nurmuhhammad Boltayev, Nazira Yusupova, Ollanazar Hasanov, Matniyoz Yusupov, Sayidnazar (Majanov kabi yoshlar ham ishtirok etganlar. Komiljon Otaniyozov ana shu ijodiy uyushmaning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan, fidokor, uyushmaga moddiy va ma'naviy homiylik qilgan.

1949-yilda O'zbekiston San'atshunoslik ilmiy-tekshirish institutining ish rejasiga muvofiq uning ayrim xodimlari ijodiy uyushma a'zolari Komiljon Otaniyozov, Karimjon Ismoilov,



Abdusharif Otajanovlar fidoyiligida Xorazm maqomlari ijrolarining magnit yozuvlarini yaratish borasida rejali ish olib borilgan.

Ijrochi sozandalar sifatida Komiljon Otaniyozov, Karimjon Ismoilov, Abdusharif Otajanov va Matniyoz Yusupovlar bu ishga jalb qilingan. Matpano ota nazoratida Hojixon Boltayev va Komiljon Otaniyozov talqinida institut xodimlari tomonidan “Rost” va “Segoh” maqomining ashula bo‘limlari yozib olinadi.

Matniyoz Yusupovning Xorazm maqomlarini to‘plash va notaga olish masalalarini o‘rganishda qilgan ishlari (I.Akbarov bilan hamkorlikda) 1958-1962 yillari “O‘zbek xalq muzikasi” (Xorazm maqomlari)ning VI tomida, “O‘zbek xalq muzikasi” (Xorazm ashulalari)ning IX tomida nota yozuvida nashr etilgan. M.Yusupov to‘plagan katta hajmdagi musiqa materiali o‘sha davr uchun qimmatli manba va yangilik bo‘lgan. 1982-1985 yillari bu to‘plamlar M.Yusupov tomonidan Xorazm maqomlari (3 tomlik) nomi bilan qayta nashr qilingan.

Matpano ota Xudayberganovdan olingan Urfiy maqomlarni keyingi avlodlarga o‘rgatish maqsadida 1964-yilda Hojixon Boltayev rahbarligida Urganch madaniyat uyi qoshida maqom ansambli tuzilgan. Bu ansambl badiiy havaskorlik to‘garagi darajasida faoliyat ko‘rsatgan. Ansamblning ishi rasmiy, ya‘ni ilmiy reja asosida bo‘lmaganligi sababli jamoaga ixtiyoriy ravishda maqom o‘rganuvchi ixlosmandlar taklif qilingan. Maqomlarni o‘z ijro amaliyotida qo‘llab yurgan, katta san‘atga endi kirib kelayotgan Ro‘zmat Jumaniyozov (ansambl a‘zosi) ustoz Hojixon Boltayevdan Urfiy maqomlarni o‘zlashtirib oladi.

Xorazm televideniyesi qoshida 1988-yilda maqom ansambli tashkil qilinib unga Ro‘zmat Jumaniyozov rahbarlik qilgan. Hojixon Boltayev va Ro‘zmat Jumaniyozovlar maktabiga xos maqom ijrolari, ansamblning musiqa rahbari Bozorboy O‘rinov nota olish va so‘z matnlarini to‘ldirishga xarakter qildi. Ansambl jamoasi tomonidan Xorazm Urfiy maqomlari ijrolari magnit tasmlariga yozib olindi.

XIX asrda shakllangan Xorazm maqomotining ilmiy – nazariy o‘rganish ishlari keyingi asrlarda ham maqomdon ustozlar va musiqashunoslar tomonidan davom etgan. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li hamda Muhammad Yusuf Devonzoda, Matpona Xudayberganov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov va Otanazar Matyoqubovlar tomonidan yaratilgan tadqiqot, nota matnlari, magnit yozuvlari Xorazm




maqomoti tarixi va nazariy asoslarini o‘rganishda asosiy manbalar bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

2014-yili Xorazmda Maqom markazi ochilishi munosabuti bilan bu jamoa markaz qoshidagi “Namunaviy maqom ansambli” deb yuritila boshlandi. Maqom markazi jamoasi bilan Urganch davlat universiteti professor-o‘qituvchilari hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, Xorazm Urfiy maqomlari, tanbur chizig‘larida bitilgan olti yarim maqomi va dutor maqomlarining noyob ijro variantlarini yaratish ustida izlanishlar olib borildi.

Urfiy maqom ijrochilik qanchalik murakkab bo‘lmasin, qanday yozma (jumladan nota yozuvlari: masalan, mashhur “tanbur chizig‘i” zamonaviy nota yozuvlari) va boshqa “xotiraga soluvchi vositalar” ishlatilmasin bu ijrochilik ichki mazmun-mohiyatiga ko‘ra og‘zakidir. Urfiy maqom ijrolari bizning davrimizga yetib kelgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov O. “Sahih suvoriylar” Toshkent 2004.
2. Suyundikov J.I. (2020).TARIXNI O‘QITISH METODIKASI RIVOJLANISHI TARIXIDAN. Fan va ta‘lim, 1 (5), 195
3. K.Avaz “Olis ohanglar” – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 1997.
4. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – M.: 1925.
5. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda “Xorazm msusiqiy tarixchasi”, “Yozuvchi” nashriyoti, Toshkent, 1998. 2-nashr.
6. Matyoqubov O. Maqomot. – T.: - Musiqa, 2004.
7. Matyoqubov O. Og‘zaki an‘anadagi o‘zbek professional musiqa asoslariga kirish. – T.: O‘qituvchi, 1983.
8. Matyakubov O. Uzbeksкая klassicheskaya muzika. Kniga 1: Istoki: uchebno-literaturnoye. – T. Yangi asr avlodi, 2015.
9. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Книга 2: Теоретические основы: учебно-литературное. – T. Yangi asr avlodi, 2015.
10. Yusupova M., Ibrohimov O., E.Yafasova “Sharq taronalari” Maqolalar to‘plami T.: 2007.



11. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. - Yangi asr avlodil, - T.: 2004.

## “SHUKRONA” PROFESSIONAL DUTORCHILAR ANSAMBLINING TASHKIL QILINISHI VA UNING FAOLIYATI

**Dildora SAMATOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqichi magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Ilyos ARABOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
“Maqom cholg'u ijrochiligi” kafedrasini mudiri,  
dotsent, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti. “Maqom cholg'u ijrochiligi” kafedrasini Profressori, dutor cholg'usining mohir sozandasi Malika Ziyoyeva asos solgan “Shukrona” professional dutorchilar ansambli tashkil qilinishi, dastlabki va hozirgi faoliyati haqida so'z boradi.


**Kalit so'zlar:** professional, dutorchilar, faoliyat, san'atkor, an'ana, mohir sozanda.

**Аннотация:** В данной научной статье речь пойдет о создании ансамбля профессиональных дутаристов под названием “Шукрона”, основанный заслуженным артистом Узбекистана, профессором института узбекского национального музыкального искусства имени Юнуса Раджаби, кафедры “Макомного инструментального исполнительства”, мастер дутора Маликой Зиевой.

**Ключевые слова:** профессионал, дутарчи, деятельность, традиция, искусный музыкант.

**Abstract:** This scientific article will focus on the creation of an ensemble of professional dutarists called “Shukrona”, founded by the Honored Artist of Uzbekistan, professor of the Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi, Department of “Maqom Instrumental Performance”, master of the dutor Malika Ziyoeva.

**Key words:** professional, dutarchi, activity, tradition, skillful musician.



Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy



an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit bo'lishi lozim. Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimizning san'at namoyondalari va ularning yuksak ijod an'alarini e'tirof etish joiz.

Shukrona professional dutorchilar ansambli 2005-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Professor, ustoz sozanda Malika Ziyoyeva rahbarligida tashkil etilgan. Ushbu ansamblni tashkil etishdan asosiy maqsad, ajoyib san'atkor, mohir sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqovning dutor ijrochilik an'anasini yanada rivojlantirib, yetishib chiqayotgan yangidan-yangi ijrochilar orasida ana shu ijrochilik an'anasining targ'ibotini kuchaytirishdan iborat edi.

Ansamblga "Shukrona" deb nom berilishiga sabab, an'anaviy ijrochilik, ya'ni maqom san'atimizga berilayotgan e'tibor, undan tashqari yildan-yilga dutorchi sozandalar safi kengayib, ular orasidan yuksak mahorat egalari ko'payayotganiga shukronalik tuyg'usi sifatida berildi.

Mazkur ansambl dastavval, 4 nafar talaba dutorchilardan tarkib topgan edi. Ansamblning dastlabki 4 nafar a'zolari Ilyos arabov, Bekzod Safarov, Feruza Ochilova va Farangiz Mahmudovalar bo'lib,



Ushbu dutorchilar ustoz Malika Ziyoyevaning eng fidoyi va "ustozining etagini mahkam tutgan" shogirdlardan edilar. Vaqtlar o'tib, ular ustozning eng ko'zga ko'ringan va qator ilmiy-ijodiy muvafaqqiyatlarga erishgan shogirdlardan bo'lib yetishdilar.

Aynan shu ijodiy jarayonlar vaqtida Malika Ziyoyevaning sevimli shogirdi Ilyos Arabov 2003- yilda Yunus Rajabiy nomidagi 6-maqom ijrochilari ko'rik-tanlovida an'anaviy dutor ijrochiligi bo'yicha 1-o'ringa sazovor bo'ldi. 2008-yilda An'anaviy xonandalik yo'nalishi bo'yicha "Nihol" mukofotini qo'lga kiritdi. 2011-yilda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida ishtirok etib, Yunesconing maxsus sovriniga ega bo'ldi. 2014-yilda yilning eng yaxshi an'anaviy xonandasi nominatsiyasi bo'yicha "E'tirof" milliy mukofotini qo'lga kiritdi. 2018-yilda Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o'tkazilgan 5-xalqaro mug'om olami festivalida ishtirok etib, 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Shu yilning o'zida yilning eng yaxshi an'anaviy qo'shiqlar ijrochisi nominatsiyasi bo'yicha "Ehtirom" mukofotini qo'lga kiritdi. 2021-yilda davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan holda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni va aynan shu yilda "dotsent" ilmiy unvoniga ega bo'ldi. 2022-yilda yilning eng yaxshi an'anaviy xonandasi nominatsiyasi bo'yicha "E'tirof" mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilyos Arabov hozirgi vaqtda Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutining "Maqom cholg'u ijrochiligi kaedresi" datsenti va rahbari sifatida talabalarga saboq bermoqda va ustoz Malika Ziyoyeva bilan birgalikda ansambl faoliyatiga ham ko'mak berib kelmoqda.

Ustoz Malika Ziyoyevaning qadrdon va mehnatsevar shogirdlaridan biri aynan shu ansamblida uzoq yillar ijodiy faoliyatini yuritgan sozanda Bekzod Safarov 2003- yilda Yunus Rajabiy nomidagi 6-maqom ijrochilari ko'rik-tanlovida an'anaviy dutor ijrochiligi bo'yicha 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Hozirgi vaqtda ustozlik maqomini olib, Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutida talabalarga saboq bermoqda.

Ustoz Malika Ziyoyevaning yana bir fidoyi va suyuqli shogirdlaridan biri Farangiz Mahmudovadir. Farangiz Mahmudova ham ansambl tashkil etilganidan buyon uning rivoji uchun sitqi dildan mehnat qilib kelmoqda. Qizg'in ijodiy jarayonlar vaqtida Farangiz Mahmudova ham qator ilmiy-ijodiy yutuqlarga erishdi. Jumladan,



2015-yilda Yunus Rajabiy nomidagi maqom ijrochilari ko'rik-tanlovida an'anaviy dutor ijrochiligi bo'yicha I-o'ringa sazovor bo'ldi. Farangiz Mahmudova ham hozirgi vaqtda Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutining "Maqom cholg'u ijrochiligi kafedrası"da katta o'qituvchi sifatida faoliyat olib borish bilan birga ansamblda Malika Ziyoyevaga rahbarlikda yordam berib, barcha konsertlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Ansamblda faoliyat yuritgan va hozirgi vaqtda yuritayotgan dutorchi sozandalar orasida yana ko'plab lauriyatlar shuningdek, "Zulfiya Davlat mukofoti" sovrindorlari, "Nihol" davlat mukofoti sovrindorlari, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ijrochilari ko'rik tanlovi g'oliblari va qator ko'rik-tanlovlar g'oliblari bor.

Shogirdlarning bunday yuksak darajalarga erishishi avvalo ustoz Malika Ziyoyevaning sa'y harakatlari va shogirdlariga sarflagan vaqti, mehnati va mehr-muhabbati natijasidir.

Yildan-yilga ansambl safi kengayib, hozirgi vaqtda bu ansamblda 50 ga yaqin dutorchilar o'z mahoratlarini oshirmoqdalar. Ansambl tashkil qilingan ilk vaqtlardagi talabalar hozirda ustoz darajasiga yetishishdi va ularning shogirdlari ushbu ansamblda faoliyat yuritayabdi.

XX asr oxiri dutor ijrochilik maktabi mohir ijrochilari Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Komiljon Jabborov, Nurmuhammad Boltayev, Turg'un Alimatov, Ismatilla Raxmatillayev va XXI asr dutor ijrochiligi maktabi namoyondalari Shuhrat Boltayev, Abdurahim Hamidov, Obidjon Odilov, Akrom To'ychiyev kabi ustozlarning ijro yo'llarini, ijro etgan asarlarini va bastalagan kuylarini ushbu ansamblda chaldirish maqsadi oldinga qo'yilgan.

Hozirgi vaqtga kelib ansambl repetuari ham ancha kengayib, ansamblda o'rganilgan kuylar Malika Ziyoyeva va Ilyos Arabov muharrirligidagi nota to'plamlariga kiritildi. Bular: "Sarahbori buzruk", "Rok", "Savti kalon", "tasnif navo, gardun navo", "Segoh, Nasri Segoh, Ufari nasri segoh", "Chorgohlar", "Nimcho'poniy", "Ado bo'ldim", "Sanamo", "Shafoat", "Cho'li Iroq", "Duchova", "Papuri", "Ilg'or", "Bo'z yigit", "Zulayho bo'lsang", "Qo'shtor", "Norim-norim", "Aliqambar" va yana qator kuylar bo'lib, barchasi "Shukrona" professional dutorchilar ansambli tomonidan ijro qilib kelinmoqda.





Har bir sozanda iqtidori har xil bo'lganligi sababli, ansamblga jalb etilgan talaba dutorchilar bir-birining kamchiliklarini bartaraf etib, ijrolarini to'ldiradi. Ansambl boshqarish, unga rahbarlik qilish murakkab jarayon hisoblanadi, ayniqsa, ansambl tarkibi bir xil sozlardan iborat bo'lsa, bu jarayon yanada murakkabroq tus oladi. Ma'lumki, har bir sozandaning faqat o'zigagina tegishli, o'ziga xos qarashi, ijro uslubi bor. Shu sabab ijrochilar o'z yuragi bilan ijroga yondoshadi. Ana shunday yuraklarni bir xil sadolarga moslash esa faqatgina ansambl rahbari zimmasiga tushadi. Ustoz sozanda Malika Ziyoyeva ana shunday murakkab vazifani ado eta olgan ustozlardan hisoblanadi.

"Yuqorida ta'kidlaganimizdek Shukrona professional dutorchilar ansambli tashkil etilganida unchalik katta ansambl bo'lmagan. Shunday bo'lsada 2005-yildan boshlab televideniye orqali efirga uzatiladigan teleko'rsatuvlarda ijod namunalari bilan ishtirok etib kelmoqdalar. Jumladan, ilk bor "jonli ijro" ko'rsatuvida va shu yilning o'zida ketma-ket "Ohangrabo" va "Tarannum" ko'rsatuvlarida ham o'z ijrolari bilan xalqimiz e'tiboriga tushishdi. Yil bo'yi ansambl shunday ko'rsatuvlar va konsertlarda ishtirok etib, ijodini yanada jadallashtirdi va ijro repertuarini ham yildan yilga kengaytirdi.<sup>68</sup>

Undan tashqari ansambl tashkil etilgandan buyon hozirgi vaqtgacha O'zbekiston davlat konservatoriyasida o'tkazilgan nazm va

<sup>68</sup> Ilyos Arabov bilan bo'lgan jonli suhbatdan yozib olingan.




navo kechalarida, turli hisobot va sinf konsertlarida, ustoz sozanda va xonandalar qolaversa, buyuk shoirlar tavalludiga bag'ishlangan ijodiy kechalarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. Bundan tashqari 2010-yildan boshlab respublikamizning turli viloyatlari: Farg'ona, Namangan, Buxoro va Samarqand viloyatlari bo'ylab ansambl ijrosida katta-katta konsertlar qo'yildi.

2018-yil sentabr oyida, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida o'tkazilgan 1-xalqaro maqom festivalining ochilish marosimida ishtirok etib, tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo'ldilar.

Respublikamiz bo'ylab keng nishonlanadigan navro'z bayrami, mustaqillik bayrami, til bayrami, konstitutsiya kuni va 8-mart bayramlari uchun o'tkaziladigan davlat tadbirlarida ishtirok etib, nafaqat davlatimiz e'tiborini balki xalqimiz e'tiborini ham qozonmoqdalar.

2021-yil dekabr oyida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutiga Fransiya Respublikasi Parij shahri Filarmoniyasi direktori bir qancha fransuz musiqachilar bilan tashrif buyurdi. Ansambldagi ba'zi sozanda qizlarning ijrosi Fransiyalik mehmonlarga juda manzur bo'ldi va ular boshqa musiqa bo'limida tahsil oluvchi talabalar qatorida ansambl a'zolaridan 3 nafari: katta o'qituvchi Farangiz Mahmudova, talaba dutorchilar: Iroda Sobirova va Nilufar Sodirboyevalarni ham Fransiya poytaxti Parij shahriga taklif qilishdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zga millat vakillari uchun notanish ammo juda qiziq bo'lgan o'zbek milliy kuy ohanglarini va cholg'ularini tanishtirish, ijrolaridan bahramand etishdan iborat edi. Shu maqsadda 2022-yil 12-sentabr kuni institutdan saralab olingan barcha san'atkorlar Fransiyaga yo'l olishdi va Institutdan borgan barcha san'atkorlar ishtirokida 2 hafta mobaynida Parijning katta filarmoniyasida konsert qo'yildi. Dutorchi qizlar ham bu konsertlarda qatnashib, "Nolish I-II", "Qashqarchai rok, soqiynomai rok, ufari rok", "Aliqambar", "Ilg'or" va yana ko'plab o'zbek xalq kuylari, bastakorlik asarlari va maqomlardan namunalar ijro qilishdi. Dutorchi qizlarning har bir chiqishi tomoshabinlar e'tiboridan chetta qolmadi. Ularni olqishlar bilan kutib olib, ijrolarini zavq bilan tinglashdi.



Ansambl faoliyati yildan yilga jaddalashib, Respublikamizda o'tkaziladigan nufuzli davlat tadbirlari bilan bir qatorda xorij mamlakatlaridagi konsertlarda ham ishtirok etib, o'zbek milliy dutor cholg'usining butun dunyoga tanilishiga hissa qo'shayotganliklari tahsinga sazovordir, albatta. Bularning barchasi ustoz Malika Ziyoyevaning mehnatlari natijasi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ziyoyeva M. "Dutor" Faxriddin Sodiqov ijro uslubi. "Musiq" nashriyoti Toshkent 2011.
2. Arabov I. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi (Dutor)" Toshkent 2018.
3. Arabov I. bilan bo'lgan jonli suhbatdan yozib olingan.



## ABDUHOSHIM ISMOILOV IJRO USLUBI VA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI

**Maftuna SAIDOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI  
2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Komila BO'RIYEVA,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSSI dotsenti,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*


**Annotatsiya:** *Abduhoshim Ismoilovning o'zbek va tojik klassik qo'shiqchilik san'ati rivojiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Abduhoshim Ismoilovning ijodidan o'rin olgan asarlari mazmunan falsafiy boy bo'lib, Vatan, ona diyor, mehr-muhabbat, yoshlik, sadoqat, ezgulikni madh etuvchi, lirik mavzuli ashulalar alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada ustoz bastakor, Abduhoshim Ismoilovning ijod yo'li va faoliyati, ijro uslubi va ustoz-shogird an'anasi ilmiy tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijro uslubi, "ustoz-shogird", qo'shiqchilik san'ati, maqom, an'ana.*

**Аннотация:** *Вклад Абдухошима Исмаилова в развитие узбекского и таджикского классического певческого искусства значителен. Произведения Абдухошима Исмаилова богаты философским содержанием, и особое место занимают песни с лирическими темами, прославляющими Родину, любовь, молодость, верность, добро. В данной статье научно анализируются творческий путь и деятельность мастера-композитора Абдухошима Исмаилова.*

**Ключевые слова:** *исполнительский стиль, "устоз-шогирд", певческое искусство, маком, традиция.*

**Abstract:** *The contribution of Abdughoshim Ismailov to the development of the Uzbek and Tajik classical singing art is significant. The works of Abdughoshim Ismailov are rich in philosophical content, and a special place is occupied by songs with lyrical themes glorifying the Motherland, love, youth, loyalty, kindness. This article scientifically analyzes the creative path and activities of the master composer Abdughoshim Ismailov.*




**Key words:** *performing style, "ustoz-shogird", singing art, maqom, tradition.*

Abduhoshim Ismoilov Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining badiiy rahbari sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Uning bastakorlik faoliyatining an'analarga mos shakllanishi, davrga xos sayqal topishi va zamon ruhi bilan kuylanishining zaminida xalqimiz tafakkurining gultoji bo'lgan maqom san'atining an'anasi va ijrochilik mezonlari turganligini e'tirof etish lozim.

Ushbu jarayonda u davrining har bir ustozlarining ijro uslublarini egallashga, ularning ijro maktablaridagi ijroviy omillarni idrok etishga intildi. O'zining shaxsiy ijro uslubini shakllantirdi, ana shu uslub doirasida ijod etishga muvaffaq bo'ldi.

Iste'dodli bastakorning shunga mos sozandalik talqini go'zal uyg'unligi va albatta, sharqona tafakkurining ohanrabodek taralishi natijasida yuzlab asarlarni yaratishga muyassar bo'ldi. Yaratgan 500 dan ortiq kuy, qo'shiq va ashulalari xalq musiqa san'atining turli janrlariga xosdir. Oddiy xalqona "Alla"dan tortib, maqom yo'llariga xos bo'lgan kuy va ashulalar bastakorning ijodidan munosib o'rin olgan. Yaratgan har bir namunasining o'z mavzusi (temasi), asarning milliy an'analarga asoslanganligi (shakli), shakliy rivojlanishi (rivojlovi), sharqona (milliy) usullarga tayanishi (metro-ritm) va albatta, uslubga xosligi namoyondir. Namunalarning rang-barangligi va o'ziga xosligi ularning bastakorlik an'anasida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Xalq musiqasi mavzusiga, janriga va namunasiga asoslangani, jahon klassik musiqasidan ilhomlangani, nazira va savt bog'lashlar kabi ijod usullarining barchasini ko'rish bilan birga original mavzular, ohanglar va shakliy nuqtayi nazardan yondashishlarni kuzatamiz. E'tirofga loyiq jihatlardan biri, ijod namunalarning har biri original va falsafiy teran ma'no kasb etishidadir.

Abduhoshim Ismoilovning ijodidan o'rin olgan asarlari mazmunan falsafiy boy bo'lib, Vatan, ona diyor, mehr-muhabbat, yoshlik, sadoqat, ezgulikni madh etuvchi, lirik mavzuli ashulalar alohida o'rin tutadi. Mohirlik bilan o'tmish an'anasi va hozirgi zamon ijodining go'zal uyg'unligiga erishadi. Uning ijodiy an'anasida yuzaga kelgan jarayonda ikki ulkan tamoyil asos sifatida xizmat qilishini e'tirof etish lozimdir. U ham bo'lsa, birinchidan, bastakorning Farg'ona-




Toshkent cholgʻu yoʻllari va maqom anʼanalariga ijodining asosi sifatida tayanishi. Ikkinchidan, oʻzbekona qadriyatlar bilan bir qatorda, zamonaviy umumbashariyat badiiy anʼanalarini ijod etishi. Bu, albatta, asarning badiiy mukammalligini taʼminlab beradigan omillar sifatida xizmat qiladi. Shu bois boʻlsa kerak bastakorning yaratgan asarlari oʻzining jiloga boy ohanglari, rang-barangligi va jozibali ruhi bilan ajralib turadi.

Bastakor deyarli milliy musiqa ijodiyotining barcha yoʻnalish va usullarida ijod etgan. Bastakorlik anʼanalarini cholgʻu musiqasida va aytim asarlarida alohida ifodalab bergan. Janr nuqtayi nazaridan ular uch guruhga boʻlinadi. Yaʼni cholgʻu kuylar, qoʻshiqlar va ashulalar. Har bir janrli yoʻnalish oʻz tarkibidagi barcha turlarni qamrab olganligi uning ijodiy namunalarida namoyondir. Xususan, ijodining cholgʻu musiqasi misolidagi namunalarda quyidagi manzaraning guvohi boʻlamiz:

– yakka cholgʻu uchun kuylar: “Gullola”, “Nargiz”, “Dil nolasi”, “Holim soʻrma”, “Kamon nidosi”, “Qalb sadosi”; – kamer ansambl uchun kuylar: “Toʻyona”, “Hayronaman”; “Visol”, “Mustaqillik”, “Hayoli qiz”, “Al-Fargʻoniy” va hokazolar.

Cholgʻu asarlarining boshqa sozlar yoki turli tarkibdagi cholgʻu guruhlari ijrosidagi talqinlari ham oʻziga xos ifodasini topishi muqarrardir. Bastakorning aytim yoʻllarida yaratgan asarlari keng qamrovli, janr nuqtayi nazaridan rang-barangdir. Aksariyat asarlari yakkaxon xonandalar ijrosi uchun moʻljallangan boʻlsa-da, ularning mavzular koʻlamining boy va kengligini alohida eʼtirof etish lozimdir.

Bastakorning har bir asarining yaratilish tarixi va oʻziga yarasha sabablari bor. Ularga gʻoyibdan inom etilgan isteʼdodni hech qaysi bir ijodkorda uchramaydigan oʻziga xoslikni koʻrish mumkin. Ularni serqirra ijodkor deyishimiz ham bejizga emas chunki, uning ijodini bir nechta yoʻnalishlarda koʻrish mumkin. Bunga misol qilib gʻijjak sozini mukammal chalishlaridan tashqari boshqa bir qancha sozlarni mohirona ijrochisi. Yuqorida takidlab oʻtganimizdek ikki mingdan ortiq ashulalar muallifi, bir qancha musiqiy kompozitsiyalar-kuyarning bastakori, bundan tashqari Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom ansambli” badiiy rahbari, Oʻzbek milliy maqom sanʼati instituti Professori, Oʻzbekiston xalq artisti, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan murabbiy va bularni sanashda davom etadigan boʻlsam hali



uzoq taʼriflashimizga toʻgʻri keladi. Har bir davlat tadbirlarida oʻzining yaratgan ashulalari bilan beminnat xizmat qilib kelmoqdalar. Bastakor har bir asarning tugashiga moslab asarlar ketma-ketligini uzmasdan asarlarni bir-biriga shunchalik ustalik bilan bogʻlaydilarki xuddi shu asarning oxirida anashu kuy bordek oʻylaysan kishi. Buning oʻzidan koʻrinib turibdiki basrakorning bilimlari, biz hali bilmagan qirralari juda koʻp.

Ustoz sanʼatkor har bir hofiz yoki xonandaga oʻz ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda asar yaratadi yoki yaratilgan asarni berishi mumkin. Ular ataylab biror xonanda uchun maxsus bastalagan asari albatta mashhur boʻlib, xalqning koʻnglidan tezda joy oladi. Shaxsan oʻzim ustozni bir necha yillardan beri qoʻl ostilarida ishlab kelmoqdaman. Ularning asarlarni yaratishini koʻrib har doim hayrata qolaman, chunki ular jim boʻlib qolganlarida bilamizki bir asar dunyoga kelish arafasida. Birdaniga rubobni oladilarda kuyni chalib, sheʼr yoki gʻazalga qarab ashula aytadilar va sozandalar ham bir ikki marta bu asarni chalishgandan soʻng bir goʻzal asar yaratiladi.

Bastakor oʻzining ijro uslubi va juda ham murakkab nola qochirimlari bor. Bu nola qochirimlarni faqatgina professional xonandalar yoki ustozning yonida koʻp yillar davomida yurgan shogirdlariga qila olishlari mumkin. Boshqa bir chetdan kelsan ijodkorlar ustoz uslubining murakkabligidan koʻpincha dovdirab qolishadi. Yana ijodkor toʻgʻrisida shuni aytish mumkinki: ular kattani ham kchikni ham birday xurmat qiladi va har doim qoʻlidan kelgancha birovlariga beminnat yordam qilishga intiladi.

Bastakorga asarlarini yaratilishi haqida shunday deydi:

Har bir yaratgan asarlarimni farzandimdek yaxshi koʻraman va bu asarlar meniki emas yaratganniki. Hattoki kechalari uxlamasdan bir nechta qoʻshiqlar bastalashim mumkin. Ashula miyyamni keyin esa butun vujudimni egallab oladi va fikru hayolim asarga sheʼr topib uni yaratishda boʻladi. Insonni musiqani chin dilidan sevishi, oʻzi chalayotgan kuyi yoki ashulasidan oʻzi rohatlansagina boshqa muxlislar yuragiga ham tezda yetib boradi. Sanhaga chiqib chalayotganimda har doim ashulani oʻrtasida iprevizatsiya qilgim keladi va beixtiyor solo chalgim keladi va ichimdagi ohang bilan imrevizatsiyalar qilaman.



Ijodkor bilan birgalikda ijod qilib asarlar yaratganimda har bir asarlarimning negizida maqom tuaradi va maqom yo'lidan kelib chiqqan holda asarlar yarataman, chunki maqomni bilgan, uni hirgoyi qila oladigan kishi boshqa yo'nalishlarda bemalol kulay oladi.

San'at shunaqangi go'zal narsaki buning egasi bo'la olishlikning o'zi balandikdir. Men shu paytgacha nechta asar yaratganimni bilmayman va asarlarim uchun hech qachon hech kimdan haq olmaganman va asarlarimni ijro qilgan ijodkorlardan birdan bir iltimos qiladigan narsam o'sha yaratgan asarimni ijro qilganimda ziyoda aytishsa shuning o'zi men uchun eng katta mukofot hisoblanadi" deydi.

Ustoz-shogird an'anasi deganda birinch navbatda ustoz san'atkorning birinchi ustoz haqida gapirish joiz deb o'ylayman. Yuqorida takidlaganimizdek Abduhoshim Ismoilovning birinchi ustozining onasi ekanligini bilib oldik. Bastakor ustozlari haqida shunday deydi: "Endilikda meni nafaqat o'zim balki musiqa shinavandalari ham meni g'ijjak sozisiz tasavvur qilisha olishmaydi. Menda bu sozga muhabbat uyg'onishining o'ziga yarasha tarixi bor. Bolaligimda daraxtni ustida o'rik yeyayotgan paytimda radiodan G' ulomjon Hojiqulov chalgan Azim daryo deb nomlangan kuyni eshitganman. Bu kuy meni shunchalik darfajada o'ziga maftun qilib qulog'imga yoqqanidan o'sha paytda meni san'at o'ziga sehirlab qo'ygan va bu asbobning nomi g'ijjak ekanligini bilib, keyin bobomning g'ijjaklarini olib kelib chalishni o'rganganman". Keyin Farg'ona musiqa bilim yurtiga o'qishga kirganimda akam Sharofiddin Ismoilov aytganki: "Abduhoshim rubobni zo'r chakasan, bobom g'ijjak chalganlar sen ularni yo'llarini davvpom ettir" deganlar va Tavakkal Qodirov nomidagi Musiqa bilim yurtiga g'ijjak mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirgizganlar.

Bastakorning Farg'ona musiqa bilim yurtida o'tgan yillari ham ancha qizg'in kechgan. Hattoki o'sha paytlari shinavandalar tiliga ham tushib ulgurgan. Meni sozanda bo'lib yetishishim va o'z yo'limni to'g'ri tanlashimga akam Sharofiddin Ismoilovning hissasi juda katta va men akamdan butun umr minnatdorman deydi.

Akam Sharofiddin Ismoilov men, o'qib yurgan paytlarimdayoq to'yga, xalq xizmatlariga har kuni olib ketardi va o'sha yerda menga o'rgatardi: yonimizda ustozlar o'tirishibdi ular bilan so'rashgin ,xol-ahvol so'ragin, ularni oldilarida qattiq chalmagin, ularni duolarini ol



deb juda ko'p aytardilar. Akamning o'gitlarini olib shu paytgacha kam bo'lmadim.

Yoshligimizda bog'imizda ikkita teragimiz bo'lar edi va biz bu ikkita rekka oq bo'zni mixda qoqib, cho'pni olib men televezorda chiqyabman deb o'sha yerda kuy chalardik. Shundan so'ng ollohni qudrativ niyatimning sofligi tufayli g'ijjak chaladigan sozanda ham bo'lganman. Men hozir o'ylab o'tmishga nazar soladigan bo'lsam yoshligimdan faqat yaxshi niyat qilganman va hozirgacha yaxshiliklarni o'ylashdan to'xtamayman.

Abduhoshim Ismoilovni ustozlar juda ko'p. Uning hayotini tubdan o'zgartirgan buyuk san'atkor Akademik Yunus Rajabiy hisoblanadi. Yunus Rajabiy bastakorning yorqin iste'dodini payqab, maqom ansambliga ishga taklif qiladi va Abduhoshim Ismoilov 1974-yili armiyani tugatib, aka-uka Vahobovlar bilan birgalikda Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom ansambli"ga ishga keladi va unga bu yerda Mamasiddiq Madaliyev, Omon Lutfullayev, Abduvohid Majidovlar unga ustozlik qilishgan. O'sha paytda Mamasiddiq majidovning uyida behosdan oq sochli changchi odamni rasmini ko'rgan va bundan oldin bu insonni musiqa chalishini televezorda ko'rib, lol bo'lib qolgan. Mamasiddiq aka bu odam kim deb so'rganida, bu inson meni ustozim Faxriddin Sodiqov bo'ladi degan. Shunda bastakor ustoz meni duo qiling va men shu insonni qo'lga borib ishlay degan va niyati amalga oshib, Faxriddin Sodiqov bilan birgalikda Maqom ansamlida ishlash baxtiga muyassar bo'lgan.

Bastakor haqida Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Nabiyev shunday deydi: "Abduhoshim Ismoilovning hammaga ham nasib qilmaydigan bitta odati bor, buni san'at tilida imprevizatsiya deyiladi. Men hayotim davomida juda kamchilik san'atkorlarda bu hislatni ko'rganman. Abduhoshim kuy chalib turgan paytida unga o'sha kuy yoki ashula maqul kelsa o'sha yerni o'zida bir yoqimli va juda ham chiroyli bezaklar berib, ashula yoki kuyga yanada joziba bag'ishlaydi. Men bu juda ham kamyob mahoratni marhum san'atkorlar ya'ni, Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov, Mamurjon Uzoqovlarda va undan keyin Abduhoshim Ismoilovda ham bu fazilatni sezganman".

Bastakor 1974-yili Maqom ansamlida sozanda sifatida ishlagan bo'lsa, 1985-yili musiqa rahbari lavozimiga ko'tarilgan. 1987-yilga kelib, uni Maqom ansambлга badiiy rahbar etib tayinlashdi. Ularning



Ijodkor bilan birgalikda ijod qilib asarlar yaratganimda har bir asarlarimning negizida maqom tuaradi va maqom yo'ldan kelib chiqqan holda asarlar yarataman, chunki maqomni bilgan, uni hirgoyi qila oladigan kishi boshqa yo'nalishlarda bemalol kulay oladi.

San'at shunaqangi go'zal narsaki buning egasi bo'la olishlikning o'zi balandikdir. Men shu paytgacha nechta asar yaratganimni bilmayman va asarlarim uchun hech qachon hech kimdan haq olmaganman va asarlarimni ijro qilgan ijodkorlardan birdan bir iltimos qiladigan narsam o'sha yaratgan asarimni ijro qilganimda ziyoda aytishsa shuning o'zi men uchun eng katta mukofot hisoblanadi" deydi.

Ustoz-shogird an'anasi deganda birinch navbatda ustoz san'atkorning birinchi ustози haqida gapirish joiz deb o'ylayman. Yuqorida takidlaganimizdek Abduhoshim Ismoilovning birinchi ustози uning onasi ekanligini bilib oldik. Bastakor ustozlari haqida shunday deydi: "Endilikda meni nafaqat o'zim balki musiqa shinavandalari ham meni g'ijjak sozisiz tasavvur qilisha olishmaydi. Menda bu sozga muhabbat uyg'onishining o'ziga yarasha tarixi bor. Bolaligimda daraxtni ustida o'rik yeyayotgan paytimda radiodan G' ulomjon Hojiqulov chalgan Azim daryo deb nomlangan kuyni eshitganman. Bu kuy meni shunchalik darfajada o'ziga maftun qilib qulog'imga yoqqanidan o'sha paytda meni san'at o'ziga sehirlab qo'ygan va bu asbobning nomi g'ijjak ekanligini bilib, keyin bobomning g'ijjaklarini olib kelib chalishni o'rganganman". Keyin Farg'ona musiqa bilim yurtiga o'qishga kirganimda akam Sharofiddin Ismoilov aytganki: "Abduhoshim rubobni zo'r chakasan, bobom g'ijjak chalganlar sen ularni yo'llarini davvpom ettir" deganlar va Tavakkal Qodirov nomidagi Musiqa bilim yurtiga g'ijjak mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirgizganlar.

Bastakorning Farg'ona musiqa bilim yurtida o'tgan yillari ham ancha qizg'in kechgan. Hattoki o'sha paytlari shinavandalar tiliga ham tushib ulgurgan. Meni sozanda bo'lib yetishishim va o'z yo'limni to'g'ri tanlashimga akam Sharofiddin Ismoilovning hissasi juda katta va men akamdan butun umr minnatdorman deydi.

Akam Sharofiddin Ismoilov men, o'qib yurgan paytlarimdayoq to'yga, xalq xizmatlariga har kuni olib ketardi va o'sha yerda menga o'rgatardi: yonimizda ustozlar o'tirishibdi ular bilan so'rashgin ,xol-ahvol so'ragin, ularni oldilarida qattiq chalmagin, ularni duolarini ol



deb juda ko'p aytardilar. Akamning o'gitlarini olib shu paytgacha kam bo'lmadim.

Yoshligimizda bog'imizda ikkita teragimiz bo'lar edi va biz bu ikkita rekka oq bo'zni mixda qoqib, cho'pni olib men televezorda chiqyabman deb o'sha yerda kuy chalardik. Shundan so'ng ollohni qudrativ niyatimning sofligi tufayli g'ijjak chaladigan sozanda ham bo'lganman. Men hozir o'ylab o'tmishga nazar soladigan bo'lsam yoshligimdan faqat yaxshi niyat qilganman va hozirgacha yaxshiliklarni o'ylashdan to'xtamayman.

Abduhoshim Ismoilovni ustozlar juda ko'p. Uning hayotini tubdan o'zgartirgan buyuk san'atkor Akademik Yunus Rajabiy hisoblanadi. Yunus Rajabiy bastakorning yorqin iste'dodini payqab, maqom ansambliga ishga taklif qiladi va Abduhoshim Ismoilov 1974-yili armiyani tugatib, aka-uka Vahobovlar bilan birgalikda Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom ansambli"ga ishga keladi va unga bu yerda Mamasiddiq Madaliyev, Omon Lutfullayev, Abduvohid Majidovlar unga ustozlik qilishgan. O'sha paytda Mamasiddiq majidovning uyida behosdan oq sochli changchi odamni rasmini ko'rgan va bundan oldin bu insonni musiqa chalishini televezorda ko'rib, lol bo'lib qolgan. Mamasiddiq aka bu odam kim deb so'rganida, bu inson meni ustozim Faxriddin Sodiqov bo'ladi degan. Shunda bastakor ustoz meni duo qiling va men shu insonni qo'lga borib ishlay degan va niyati amalga oshib, Faxriddin Sodiqov bilan birgalikda Maqom ansamlida ishlash baxtiga muyassar bo'lgan.

Bastakor haqida Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Nabiyev shunday deydi: "Abduhoshim Ismoilovning hammaga ham nasib qilmaydigan bitta odati bor, buni san'at tilida imprevizatsiya deyiladi. Men hayotim davomida juda kamchilik san'atkorlarda bu hislatni ko'rganman. Abduhoshim kuy chalib turgan paytida unga o'sha kuy yoki ashula maqul kelsa o'sha yerni o'zida bir yoqimli va juda ham chiroyli bezaklar berib, ashula yoki kuyga yanada joziba bag'ishlaydi. Men bu juda ham kamyob mahoratni marhum san'atkorlar ya'ni, Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov, Mamurjon Uzoqovlarda va undan keyin Abduhoshim Ismoilovda ham bu fazilatni sezganman".

Bastakor 1974-yili Maqom ansamlida sozanda sifatida ishlagan bo'lsa, 1985-yili musiqa rahbari lavozimiga ko'tarilgan. 1987-yilga kelib, uni Maqom ansambлга badiiy rahbar etib tayinlashdi. Ularning



o'zlari bu haqda shunday deydi: "Ko'pchilik ustozlarimizdan Berta Davidova, Komuna Ismoilova, Orifxon Hotamov, Eson Lutfullay, Shokirjon Ergashevlar birgalikda meni ansamblga badiiy rahbar bo'lsin deb rayiga tavsiya qilishgan ekan, men esa bundan bexabar edim. Men ertalab ishga kelsam Ubay Burxonov degan director o'rinbosarimiz siz bugun ansamblga badiiy rahbarsiz dedi va men o'sha paytni o'zidayoq bu taklifni rad qildim va bu yerda buyuk ustozlar Berta Davidova, Turg'un Alimatovlar, Eson Lutfullayev va boshqa bir qancha ustozlarim bor joyda men ustozlarimdan o'tib rahbar bo'lolmayman degan javobni berganman. Shunda boshlig'imiz o'sha siz aytayotgan ustozlaringizni o'zlari sizni badiiy rahbar bo'lishingiz haqida taklif berishdi va ustozlaringizni iltimoslarini inkor qilolmaymiz, siz bugundan boshlab Maqom ansambliga musiqa rahbarsiz deb chiqib ketdi. Men esa bu gaplardan uyalib yana har doimgi joyimga o'tirdim. Shunda ustoz "Oltin qo'l" unvoni sohibi Turg'un Alimatov mulla Abdulhoshim dedi: "To'xtasin Jalilovni bir gapi bor edi - cho'p bo'lsa ham boshlig'ingni aytganini qilgin degan. Biz ishni boshlashimiz kerak joyizga o'tib ishni boshlang deganlar". Men o'sha payti ustozlarimdan eng katta hayotiy tarbiyani olganman ya'ni, kibrdan qochisni, siniqlikni, barcha haqiqiy insonga xos fazilatlarini o'rganganman. Shundan so'ng ustozlarimning qo'llab quvvatlashlari tufayli badiiy rahbarlikni boshlaganman" deydi

Abduhoshim Ismoilov yoshlidagi diliga tugib qo'ygan eng katta orzularidan yana biri bir qancha zabardast ustoz san'atkorlarni bebaho ovozlari radio fondida yozish bo'lgan va ustozlardan Fattoxon Mamadaliyev, Kamoliddin Rahimov, Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov, Orifxon Hotamovlarni ovozlari to'liq qilib, butun maqom ansambl jo'rligida yozish niyatini amalga oshirgan. Chunki, o'sha paytlarda bu ustozlar faqatgina bitta tor va doira jo'rligida ashulalar ijro etishgan. Bunaqangi yetuk ustozlarni ovozini ikki yoki uchta musiqa asboblari jo'rligida ijro qilinishidan ko'ngli to'lmaganligi sababli to'la to'kis tutun ansambl jo'rligida ustozlardan Fattoxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, Komuna Ismoilova, Beta Davidova, Saodat Qobilova, Ochilxon Otaxonov, Sherali Jo'rayev, G'ulomjon Yoqubov, Ortiq Otajonov, Kamoliddin Rahimov, Jo'rabek Nabiyev, Jo'rabek Murodov, Bahodir Bakirov, Salohiddin Muhiddinov, Mahmudjon Azimov va bir qancha ustozlarni ovozlari 1976-yilda to'liq holda




radio fondiga yozishga muvaffaq bo'lgan. Ustozni tinimsiz mehnatlari orqali yozilgan zapislari soni bir yarim milliondan ortib ketgan va Maqom ansambl o'n bechta kumush plastinka hamda oltin disk bilan taqdirlangan. Buni o'zini juda ham katta fidoiylik desa bo'ladi.

Abduhoshim Ismoilovni haqiqiy ustoz sifatida bemalol takidlash mumkin. Bastakorni juda ham ko'plab shogirdlari bor va ular hozirda qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar ustozni ijro uslubini davom ettirib kelishmoqda. Bunga misol qilib Saydulla Ubaydullovni ham keltirish mumkin. Saydulla Ubaydullov Xo'jand davlat universiteti dotsenti hisoblanadi. U Abduhoshim Ismoilovning ijodi to'g'risida butun boshli "Sog'inganimda" deb nomlangan kitob yozdi va uning taqdimoti Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida bo'lib o'tdi. Kitob taqdimoti tantanali ravishda bir qator san'atkorlar, shoirlar, musiqashunoslar ishtirokida bo'lib o'tdi. Kitob taqdimotini O'zbek milliy Maqom markazi direktori Soyibjon Begmatov o'z nutqi bilan ochib berdi va ustozga bir qancha o'xshatish va ta'riflar berdi. Shundan so'ng kitob muallifi Saydulla Ubaydullov bastakor haqida shunday deydi:

"Ustoz san'atkor nafaqat O'zbekiston, balki butun jahonda o'zining sozi va serqirra ijodi-yu navolari orqali taniqli bo'lgan sozanda, bastakor, har tomonlama komil inson Abduhoshim Ismoilovdir. Abduhoshim Ismoilov san'atda betakror ijro maktabi va o'z uslubini yarata olgan ustozlarning buyuk vakillaridandir. Bunday baxt har kimga ham nasib qilmagan va har bir mashhur ustozlarga berilgan ulug' ne'matdir. Biz bilganimiz va ko'rib yurganimizdek ustoz Abduhoshim Ismoilov O'zbekistonda ko'p yillardan beri katta tantanali konsert dasturlarida musiqa musiqa rahbari sifatida faoliyat olib bormoqdalar.

Qilinayotgan ijodiy yondoshishlarning mahsulini butun Tojikiston san'at shinavandalari ham butun san'at shaydolari qatorida, bayram dasturi tantanalari, festival, simpoziumlar, mustaqillik bayramlari va davlat tadbirlarining ochilish marosimlarini ko'rib tomosha qilib guvohi bo'lib turganligimiz so'zlarimizning isboti albatta. Men bir shinavanda, bir kichik san'at vakili sifatida har bir konsert dasturlarini ochiq osmon ostidagi jonli "Opera" – degan bo'lar edim. Chunki har bir janrdagi san'at namunalari, viloyatlar san'at namunalariidan uyg'unlashgan bir yagona bir asar durdonasiga



aylantirib bir-biriga mohirona bog'lab yagona bir dastur tayyorlashlari va hatto bir necha qo'shiq va ohanglarni bir guldasta (popuri) qilib xalqqa manzur qilishlarini, sayqallashtirishlari boshqa san'atkorlar ijodiga yanada ijodiy yondoshib, yanada joziba va sehirli fikrlarda uyg'unlashtirishlari betakror talent sohibi ekanliklaridan talolatdir. Ustoz o'zlariga berilayotgan bu ijod ummonidagi nasibalarini xolisalilloh ulashishdan na qizg'anadilar va na hasislik qiladilar. Bu bilan ijodlari yanada "qaynar buloq" singari boyib go'zallashib jozibador bo'lib bormoqda.

Ustozning ijodiy faoliyatlari tinglovchilarga keng yoritilib, mutahasislar tomonidan baland baholanib kelmoqda, biz esa bir shogird va mutahasis sifatida tinglovchi shinavandalarga, shogirdlarga ustoz ijod namunalaridan nota orqali yaqinlashtirishni maqsad qildik. Ustozning kuy-qo'shiqlarini va ijodiy namunalarini aniqlash va bexato his qilish mumkin., zero ustozning ijod namunalari o'z ijro va ijro maktabining sohibining mahsuli sifatida o'zini yaqqol tanitib turadi. Biz bu uslubni xoh o'ng qo'lda kamon yuritishda bo'lsin, hoh chap qo'l barmoqlarining nolish va xonishidagi mahoratida bo'lsin, yorqin misollar tariqasida his etamiz. Ovozxonaga jo'rovozlik qilsalar, ovozxon bilan birga nafas olishib, bo'sh joylarini nolalar bilan to'ldirib hamnafaslik qilishlari so'zlarimizning isboti"- deya ta'kidladi.


Ustoz ijodining yana bir muhim Tomoni bir musiqada turli musiqas asboblarini milliy cholg'u yo'lida ishlata bilish va milliy ansambl tarkibida sado berishidan foydalanish mumkin ekanligini isbotlaganliklari va bu borada unumli foydalana olganliklari mumkin ekanligini isbotlaganliklari va bu borada unumli foydalana olganliklari milliy musiqamizda yana bir yangilik bo'lmoqda, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu mumtoz san'atkorning o'zbek va tojik klassik qo'shiqchilik san'ati rivojiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Bastakorni yana jahonning turli joylarida muxlislari va shinavandalari talaygina va ustoz hard doim shogirdlar ardog'ida. Yana shuni aytish joizki, bastakor ustoz san'atkor hech qachon yaratgan asarlari uchun haq olmagan va asarlarini beminnat o'z ijrochilariga beradi. Ustoz har bir yaratgan asarini ijrochilarga berishdan oldin ularni ovoz imkoniyatiga moslab beradi va ustozni shogirdlariga aynan atab yozgan asarlari xalq orasida tezda ommalashib o'z muxlislari ko'nglidan tez joy egallaydi.



#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Uboydulloyev S. Sog'inganimda (Monogirafiya). – Toshkent. "Adast poligraf", 2022.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodi, Toshkent – "Niso poligraf" – 2017.
3. Shashmaqom saboqlari (maqola va ma'ruzalar to'plami) Toshkent – 2007.
4. Sultonov A. "Mumtoz ashula va qo'shiqlar ijrochilari va bastakorlari. Toshkent – "Innovatsiya-Ziyo" 2021.
5. Jabborov A. O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari "Musiq" nashriyoti. Toshkent – 2018.
6. Bastakorlar ijod yo'li, Notalar to'plami; Toshkent – 2012.
7. G'ofurbekov T., Bastakorlar ijodiyoti: tarixi tahlili, taqdiri, Toshkent – 2019.



## MUSIQA YO'NALISHIDAGI UY-MUZEYLAR FAOLIYATI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH TAMOILLARI

**Munisa YARASHOVA,**

*Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI,  
Muzei menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi  
3-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Feruza XASANOVA,*

*Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI  
Xotin qizlar kengashi raisi,  
"Muzeyshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi.*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistondagi musiqa yo'nalishida uy muzeylar faoliyati haqida so'z boradi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan musiqa yo'nalishidagi uy-muzeylar, xususan, Yunus Rajabiy uy-muzeyi, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi, Komiljon Otaniyozov uy-muzeyi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Musiqa yo'nalishidagi muzeylarning boshqa turdagi muzeylardan farqi va o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** muzeylar, uy-muzeylar, muzey fondi, san'at, ekspozitsiya, milliy madaniy meros, milliy qadriyat, kolleksiya

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о деятельности дом-музеев в Узбекистане в музыкальном направлении. Дана краткая информация о работающих в Узбекистане домах-музеев музыкального направления, в частности, о доме-музее Юнуса Ражаби, доме-музее Мухтара Ашрафи, доме-музее Комилджона Отаниязова. Выделены отличия и отличительные черты музеев музыкального направления от музеев других типов.

**Ключевые слова:** музеи, дом-музей, музейный фонд, Искусство, экспозиция, национальное культурное наследие, национальная ценность, коллекция.

**Abstract:** This article will talk about the activities of home museums in the direction of music in Uzbekistan. There is a brief overview of the music-oriented house-museums operating in Uzbekistan, in particular the Yunus Rajabiy House-Museum, Mukhtar Ashrafi House-Museum, Komiljon Otaniyozov House-Museum. The



*difference and peculiarities of museums in the direction of music from other types of museums are covered.*

**Keywords:** museums, house-museums, Museum Foundation, Art, Exposition, national cultural heritage, national value, collection.

Muzeylarni bir necha turlarga, tarmoqlarga ajratish mumkin. Har bir muzeyning o'z vazifasi, jamiyat madaniyati, tarixi, ma'rifati, yosh avlod tarbiyasida o'z o'rni bor. Bu borada uy - muzeylarining o'z salmog'i bo'lib, u yerda biror shaxs ijodi, hayotiy faoliyatidan hikoya qilishi bilan ahamiyatlidir. Yana bir jihati bunday muzeylar aynan o'sha shaxsning yashab ijod qilgan uyida tashkil etilishidir. Bu ham muzeyga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Har bir uy - muzeyi o'zining boshqaruv tizimi, kolleksiyasi va tartib - qoidalarga ega. Masalan adabiy uy - muzeylarida ko'proq adabiyot sohasida ijod qilgan shaxslar hayoti aks ettirilsa, undagi eksponatlar ham joylashuvi, namoyishga qo'yilishiga ko'ra adabiy muhitni o'zida mujassam etadi. Bu turdagi uy - muzeylarida nafaqat ijodkor hayoti va faoliyati bilan tanishish imkoni bo'ladi, shu bilan bir qatorda adabiy janrlar, o'sha davr adabiyoti tarixi, ijodkorlari faoliyatidan ham bohabor bo'lish imkoni tug'iladi.<sup>69</sup> Bu esa adabiyot ihlosmandlari uchun juda ma'qul keladi. Ammo musiqa san'at yo'nalishidagi uy - muzeylarida esa biroz boshqacha muxitni sezish mumkin. Unda ijodkor faoliyati foto va arxiv materiallari bilan bir qatorda u yaratgan asar namunalari bilan ham namoyish etiladi. Bunda ijodkor faoliyati kengroq tanishtiriladi. Musiqiy asarlar, kompozitsion ko'rinishlar esa har bir tomoshabinda alohida qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun bu kabi muzeylar ekspozitsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerga tashrif buyurganlar, musiqiy chiqishlarni tinglashlari, mutaxassis fikrlarini bilishlari mumkin bo'ladi. Musiqa yo'nalishidagi uy muzeylarga bugungi kunda e'tibor kuchaymoqda. Zero, musiqa har bir soha bilan bog'lanadi. Ilk musiqa yo'nalishidagi uy-muzeylarining tarixi Yevropada o'rta asrlarga borib taqaladi. Musiqa ixlosmandlarining shaxsiy muzeylari bunga yaqqol misol. Bu kabi muzeylarda turli musiqa asboblari saqlangan. Keyinchalik esa


<sup>69</sup> Шмидт Е.О. Меориальные музеи в системе развития наука и общественного сознания// Музееведение. Музей мира.-М.:1991.-С.98-110.-(Сб.науч. тр. НИИ культуры).С-29.



musiqa yo'nalishidagi muzeylar ichidan alohida yana bir muzey, memorial musiqa muzeylari ajralib chiqqan.<sup>70</sup>


Musiqiy yo'nalishdagi uy-muzeylar bizning yurtimizda ham bir nechta bo'lib, quyida shu kabi muzeylar bilan tanishamiz. Yunus Rajabiy uy-muzeyi. Akademik Yunus Rajabiyning yashab o'tgan xonadoni hukumat qarori bilan 1989-yilda Davlat uy - muzeyiga aylantirildi. Ushbu xonadonda Y. Rajabiy 1957 yildan to umrining oxirigacha, ya'ni 1976 yilning bahorigacha yashab ijod qilgan. Bu uning hayotidagi eng sermaxsul ijod yillari edi. Uy - muzeyning oltita xonasi ham ko'rgazma zallariga aylantirilgan. Ularning har biri ma'lum mavzuga bag'ishlangan: "Yoshlik va o'smirlilik davri", "Memorial xona", "O'zbek xalq musiqasi", "Shashmaqom", "Abadiyat", "Musiqing tinglash va filmlar ko'rish xonasi" va hokazo. Muzey fondida 6000 mingga yaqin ko'rgazma ashyolari, osori-atiqalar saqlanadi; shulardan 847 tasi muzey ekspozitsiyalariga qo'yilgan. Uy - muzeyda "O'zbek xalq musiqasi"ning II-III-IV-V- jildlari, 6 jilddagi "Shashmaqom" va "Musiqing merosimizga bir nazar" nomli kitoblarining qo'lyozmasi saqlanadi. Ekspozitsiyadan joy olgan Yunus Rajabiyning 12 jildli kitobi, qo'lyozmalari, cholg'u sozlari, kiyim-boshlari, kontsert kiyimlari, o'zbek xalq cholg'u sozlari kolleksiyasi, oilasi, ustozlari, shogirdlari va safdoshlarining moybo'yoqda ishlangan portretlari, yuzlab fotosuratlari ijodkor olimning hayotiy yo'lini aks ettiradi. XIX asrning ikkinchi yarmida tanburda ijro etish uchun mo'ljallangan va nota yoziladigan chiziq'larga o'xshash qilib joylashtirilgan nota (nuqta) yozuvlarining qo'lyozma kitobi (Kamil Xorazmiy), G'ulom Zafariyning XIX asr va XX asr boshlarida yashab ijod etgan buyuk musiqachilar "Shajarasi" va u tuzgan "Olti maqom" (Shashmaqom) jadvalining qo'lyozmasi, deraza oynasiga vitraj uslubida O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzo ishlagan rasmlar, Usta Usmon sovg'a qilgan dutor va sato (1937), shogirdlari Is'hoq Rajabiyning tanburi, Faxriddin Sodiqov chalgan changi va boshqa yodgorliklar ham diqqatga sazovor. Muzey xonalarining har birida doimo ko'rgazmalarga hamoxang, mayin yangrab turadigan milliy mumtoz kuylar ziyoratchilarga zavq bahsh etadi. Aynan shu jihati bilan ham Toshkentdagi boshqa uy-muzeylardan alohida ajralib turadi. Har yili

<sup>70</sup> Большая советская энциклопедия. — М.: Советская энциклопедия. 1969—1978.  
<https://meos.uz/ru/wonder>



poytaxtimizning aholisi va mehmonlari, maktab o'quvchilari, institut va kollej talabalari, horijiy mamlakatlardan kelgan sayyoxlar, musiqa shaydolaridan iborat 5000ga yaqin ziyoratchilar tashrif buyuradi.

Yunus Rajabiy uy - muzeyi haqiqiy musiqa qasriga, o'zbek va sharq xalqlarining mumtoz musiqa asarlari, maqomlari markaziga, qadamjo joyga aylandi. Muzey musiqa ihlosmandlariga ma'kul joy bo'lib, unda deyarli barcha milliy musiqa asboblari joy olgan. Muzeyga tashrif buyurgan tomoshabin nafaqat Yunus Rajabiyning ijodi bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar, shu bilan birga o'zbek milliy musiqa tarixi bilan tanishish imkoniga ham ega bo'ladilar.



Muzey kelajakda zamonaviy texnika jihozlari bilan ta'minlansa, (ya'ni ekspozitsiyaga qo'yilgan 20 dan ortiq cholg'u asboblarning har biri qanday ovozga ega ekanligini ziyoratchilar bilishlari uchun ma'lum bir kuyni chalayotgan sozandani tele ekranda ko'rish imkoniyatlari va hokazo), internet xizmatlaridan foydalanilsa, chet-el muzeylari bilan tajriba almashilsa, yana ham yuqori natijalarga erishish mumkin.

Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi 1976-yil 22-iyulda tashkil topgan. Mustaqil tashkilot sifatida 1980-yilning 1-yanvaridan faoliyat yurita boshlagan. Muzeyning rasmiy ochilishi 1982-yil 1-iyunda bo'lib o'tgan. Muzey fondi asosini bastakorning boy arxivi tashkil etadi. Arxiv materiallari o'zbek musiqiy madaniyatining 40 yillik rivojlanish jarayoni, bastakorning hayotiy va ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi xujjatlarni qamrab olgan. Ekspozitsiya 5 ta zal bo'ylab namoyish etilgan. Ikkinchi qavatda muzeyning memorial qismi joylashgan. Bu yerda Ashrafiy asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi. Binoning yer to'la qismida musiqiy salon jixozlangan va 40 o'rinli kontsert zaliga moslashtirilgan. Mazkur zalda M. Ashrafiy xotirasiga bag'ishlangan adabiy va xotira kechalari, konferensiya, Milliy konservatoriya va



musiqiy kollej ijodiy to'garaklari yig'ilishlari, tematik kechalar, konsert va ko'rgazmalar o'tkaziladi. Maqsad esa, respublikada professional kompozitorlik san'ati asoschilaridan biri, birinchi o'zbek dirijori, yirik jamoat arbobi, pedagog, publitsist Muxtor Ashrafiy ijodini targ'ib etish, shuningdek, O'zbekistonning musiqa va teatr san'ati paydo bo'lishi va rivoji haqida. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyida ilmiy tadqiqot ishlari muzeyning yillik rejasiga ko'ra olib boriladi. Shahar kutubxonalarining materiallari hamda Muxtor Ashrafiy va uning zamondoshlari E.Tomatov, I.Galushenkolarining shaxsiy arxivlari asosida "Muxtor Ashrafiyning simfonik ijodi", "O'zbek kompozitorlarining professional musiqasi va o'zbek maqomlari", "Muxtor Ashrafiy va A.Xachaturyan" kabi leksiya mavzularini qayta ishlash ustida ish olib borilgan. Muzey kolleksiyalari kompyuter inventarizatsiyadan o'tkazilgan. Doimiy saqlanishga mo'ljallangan asosiy fond predmetlariga dalolatnoma yozilib, yangi kelib tushuvchi eksponatlar kirish kitobiga kiritiladi. Ilmiy bayon kartolari hozirda mavjud emas. Muzeyda ilmiy-o'qituv ishlari faol olib boriladi. Maktab, gimnaziya, milliy konservatoriya, musiqa kolleji, Uspenskiy va Glier nomidagi musiqa litseylari bilan bolalarni muzeyga kelib tanishishi bo'yicha shartnomalar tuzilib doimiy hamkorlikda bo'linadi.<sup>71</sup>



Bundan tashqari Ashrafiy muzeyining konsert zalida konsert, badiiy uchrashuv va kechalar muntazam o'tkazib kelinadi. Innovatsion metodlarni qo'llab, tadbirlarga milliy-madaniy markaz hamda elchixonalar vakillari jalb qilinadi. Bugungi kunda muzeyda tinimsiz tadbirlar natijasida doimiy tinglovchilar auditoriyasi shakllangan. Muzeyda tashkillashtiriladigan barcha tadbirlar ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib boriladi. Ilmiy-ekspozitsiya va ko'rgazmaviy faoliyat ham faol yo'lga qo'yilgan. Muzeyda tashkil etiladigan sanalarga bag'ishlangan ko'rgazmalar qatorida muzeydan


<sup>71</sup> www.News.uz




tashqarida ham ko'chma ko'rgazmalar tashkil etilib turiladi. Bu esa muzeyning targ'ibot-tashviqot borasida amalga oshirgan ishlaridan dalolatdir. Shunday bo'lsada, muzey kolleksiyalari asosida ko'rgazmalar tashkil qilinmaganligini ta'kidlab o'tish joiz. Muzeyning doimiy ko'rgazma ekspozitsiyasiga o'zgartirishlar kiritilmagan.

2000-yil davomida YuNESKOning "O'zbekiston muzey ekspertlarini o'qitish", "Zamonaviy muzeylar: kamolot izidan" kabi loyihalari doirasida o'tkazilgan treninglarida muzeyning katta ilmiy xodimi N.K.Gunova muntazam qatnashib kelgan. Muxtor Ashrafiy uy - muzeyi xodimlarining 20 yillik izlanishlari va sa'yi-harakatlari bilan 2009-yilda bastakorning hayoti va ijodi to'liq ask ettirilgan "Muxtor Ashrafiy" nomli kitob nashrdan chiqdi. Bungacha 2004-yilda Ashrafiy uy-muzeyi direktori Feruz Ashrafiy shaxsiy mablag'i evaziga "Bolshoy teatr O'zbekistana" kitobi chop etilgan. Mazkur kitob Parijda "So'nggi o'n yillikdagi san'at bo'yicha eng yaxshi nashr" nominatsiyasida Gran-pri sovrindori bo'lgan.

Shunday uy-muzeylaridan biri O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov uy-muzeyidir. 2017-yil Prezidentimiz farmonlari bilan Komiljon Otaniyozov tavalludining yuz yilligiga bag'ishlab san'atkorning uy-muzeyi, tug'ilgan qishlog'ida joylashgan musiqa maktabi, Xorazm viloyati davlat xalq filormoniyasi, Urganch shahridagi musiqa maktabi va asosiy ko'chalardan biriga Komiljon Otaniyozov nomi berildi. Hofiz nomida yangidan musiqa uyi va haykali tashkil etildi. Komiljon Otaniyozov uy-muzeyi Urganch shahrida joylashgan bo'lib bugungi kunda faol ish yuritmoqda. Muzey doimiy ekskursiyalar olib boradi, tadbirlar o'tkazadi. Muzey binosi Urganch shahri Komiljon Otaniyozov nomidagi katta shoh ko'chadagi Avesto mahallasida joylashgan. Muzey asosiy beshta xonadan iborat bo'lib, tashqi tarafda Komiljon Otaniyozov byusti o'rnatilgan. Kiraverishga qo'yilgan yo'g'och o'ymakorligi naqshlari bilan bezatilgan eshikni 2012-yili hofizning 95 yilligi munosabati bilan muhlislari tomonidan o'rnatilgan. Darvozadan kiraverishda, birinchi xonada asosan muzey to'g'risda Prezident qarorlari, tabriklari va tashakkurnomalari joylashtirilgan stent, Komiljon Otaniyozov shogirdlari tomonidan ustozga bildirilgan tilaklar, o'zining portreti, shogirdlari va oila a'zolari bilan tushulgan qadimiy fotosuratlar joylashgan Muzey hofizning o'zi yashab o'tgan




uyida ochilgan. Asosiy ekspozitsiya san'atkor foydalangan tor, doira, garmonika cholg'ulari va o'zi foydalangan buyumlar, suratlar, yaratgan asarlarining asl nusxalaridan iborat. Vitrinada XVIII asrga oid qadimiy kitob va qo'lyozmalar qo'yilgan. Bu qo'lyozma kitoblar hofizning bobosiga tegishli bo'lib Komiljon Otaniyozovning bobosi Ohun Niyoziy Xiva xonligi davrida Muhammad Rahimxonning kotibi bo'lib ishlagan. Ziyoli oila boshlig'i arab, fors, turk tillarida asarlar yaratgan hattot bo'lgan. Arab tilida yozilgan devonining bir nusxasi bizgacha yetib kelgan qolganlari turli sabablarga ko'ra yo'q yilingan. Bu devonning yana bir nusxasi bugungi kunda Angilyada kutubxonada saqlanadi. Stentlar orasida birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'nievich Karimov tomonidan hofizning nomini abadiylashtirish va hofizni "Buyuk Hizmatlari" uchun orderi bilan taqdirlagani haqidagi 2000-yil 25-avgustdagi farmoni ham o'rin olgan. Farmonda: "Betakror istedodi va o'lmas merosi bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, butun hayotini vatan, xalq, millat taraqqiyotiga bag'ishlagan vatandoshlarimizning hotirasini yod etib, el-yurt oldidagi unutilmas xizmatlarini inobatga olib, "O'zbekiston xalq artisti" (marhum hofiz) Komiljon Otaniyozov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlansin.", -deb tasdiqlangan. Medal va hujjatlari ham vitrinadan o'rin olgan. Ammo muzeyga yanada yangilik kiritish, ekspozitsiya qilish va unga katta auditoriyani jalb qilish dolzarb masala. Bu mavzuda bugungi kunda xam ko'plab ishlar amalga oshirilib o'rganilib borilmoqda. Ammo amaliyotga tadbiiq qilinishi sust. Muzeyga yangi texnologiyalarni kiritish, xususan Komiljon Otaniyozov asarlari va u haqida chop etilgan kitoblarni yangidan ko'rib chiqish, ularni elektronlashtirish, internetga joylashtirish muhim masala bo'lib bormoqda. Mavzuni nafaqat nazariy o'rganish, balki uni amaliyotga tadbiiq qilish, muzeyni yanada rivojlantirish va uni ommaga namoyish qilish lozim. Komiljon Otaniyozov uy-muzeyi asosan tor auditoriyada qiziqish uyg'otadi. Shu sababli muzeyga ko'proq tomoshabin jalb qilinishi kerak va muzey targ'ibotini kuchaytirish lozim. Komiljon Otaniyozov uy-muzeyi ekspozitsiyasidagi deyarli hamma ekspонатlar asl nusxa va ular ma'naviy qiymati bebaho hisoblanadi. Har bitta kolleksiyaga alohida to'xtalib o'tish va kolleksiyani o'rganib chiqish, muzeyga yangi texnologiyalarni jalb qilish lozim. Hofizning yotoqxonasi bo'lib o'zi foydalangan holicha saqlangan. Yotoqxonadagi



ekspонатlar asosan karavat, televizor, soat, ikkita divan, portret, ayoli qizi hamda o'zining fotosurati, rang-tasvir asari, ko'zgu, sevant va xontaxta Komiljon Otaniyozov kitoblari joylashgan kitob javondan iborat. Kitoblar orasida qadimiy arab tilida yozilgan qo'lyozmalar ham bor. Hofizning ijod xonasi bo'lib bu xonadagi ekspонатlar divan, xontaxta, hofizning o'zi ishlatgan magnitafon, kitob javoni, XX asr boshlariga tegishli pianino, oila davrasida 1960-yillarda olingan fotosurat, akasining fotoportreti, devorga osilgan gilamda hofizning o'zi ishlatgan doira, tor, tanbur va qashg'ar rubobi joylashtirilgan. Stentlarda esa chet davlatlarda qo'yilgan konsert dasturlaridan olingan fotosuratlar, muhlislari va shogirdlari bilan ishlangan suratlar o'rin olgan. Keyingi xona esa ekspонатlar soni jihatdan asosiy xona bo'lib bu xonada vitrinada joylashtirilgan Komiljon Otaniyozov tori, potifon, Ozarbayjon rubobi, hofizning to'ylar uchun kiyiladigan milliy libosi, va kiyim, oyoq kiyimlari, harbiy xizmat kiyimi, cho'girma, do'ppi (tahya) si alohida vitrinada qo'yilgan. Shogirdlari bilan tushgan fotosuratlar va ularning ustozini haqida bildirgan fikrlari ketma-ketlikda joylashtirilgan. Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov, Otazar Abdulniyozov, Otajon Xudoshukurov xotiralari o'rin olgan. Maqolada muzeyni reyokspozitsiya qilishda eng maqbul variantlar berilgan, hamda muzeyni yanada rivojlantirish maqsadida uni internet saytlarida targ'ibot qilish masalalariga alohida to'xtalangan. Shu masalada yangi izlanishlar olib borildi hamda yangi g'oyalar berildi. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, asosiy xulosa va tavsiyalar uy-muzeylari faoliyatini takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan Komiljon Otaniyozov uy-muzeyni reyokspozitsiya qilishda, muzey saytini tashkil qilishda, muzey yo'l ko'rsatkichini yaratishda va muzeyga mahalliy turizmni jalb qilishda foydalanish mumkin.

Vitrinada kitoblar va she'riy asarlari qo'lyozmasi qo'yilgan. Keying vitrinada tanbur, XIX asrlarga tegishli radio, tasmali magnitafon, va plastinka asbobi, va devor bo'ylab joylashtirilgan stentlarda hofizning qo'shni davlatlarga qilgan gastrol safarlari, urush davrida front ortida o'z shogirdlari bilan qilgan konsert dasturlari, "Chorjo'y qo'ng'iroq" qurilishidagi ishtiroki, tartib bo'ylab fotosuratlarda izohi bilan qo'yib chiqilgan.






Teatr sahnasida o'ynagan rollari asosida chizilgan rang tasvir asarlari, chet davlatlarida qilgan konsert dasturlaridan olingan va moy bo'yoqda chizilgan rang-tasvir asarlari o'rin olgan. Oxirgi xona mehmonlarni kutib olish xonasi bo'lib unda Komiljon Otaniyozov hayoti va ijodi haqida mustaqillik davrida chop etilgan kitoblar va to'plamlar joylashgan kitob javoni mavjud. Bir so'z bilan aytganda muzey eksponatlari aslida joylashtirilgan. Muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinlarda Komiljon Otaniyozov hayoti va ijod faoliyati to'g'risida to'laqonli tassurot uyg'ata oladi. Muzey vitrinalari va umumiy holati talabga to'laqonli javob beradi. Tashrif buyurgan tomoshabinlar iliq munosabat va buyuk hofiz hayoti haqida ma'lumot olish imkoniga ega bo'lishadi. Uy-muzeyi bilan bir tashkil etilgan Komiljon Otaniyozov nomidagi musiqa markazi ham hofiz hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi.

Yana uy-muzeylaridan biri kampakzitor va sozanda Sulaymon Yudakov uy-muzeyi. Musiqiy uy-muzeylari qatorida Yudakov uy-muzeyi ham o'zining nodir esponatlari va bastakorning asarlarini o'zida jamlagan. Muzeyda Sulaymon Yudakovning 6 qisimdan iborat "Mirzacho'l" syutasi va yana ko'plab eksponatlari joy olgan. Yana Tamaraxonim uy-muzeyi va boshqa musiqa yo'nalishidagi uy-muzeylari faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muzeylar bu jamiyatning asosiy bo'g'ini. Muzey sohasiga, ayniqsa uy-muzeylarga e'tiborni kuchaytirish lozim. Sababi uy-muzeylar turli sohalardan kelib chiqqan holda yaratilgan va tomoshabin uchun u amaliyot vazifasini o'taydi. Ushbu bo'limda aynan uy-muzeylarning rivojlanish tarixi, musiqiy yo'nalishdagi uy-muzeylar va ularning faoliyati yoritilgan. Uy-



muzeylarni turistik mashrutlar chizig'iga kiritish ham muhim hisoblanadi. Sababi aynan bu kabi muzeylar O'zbekiston haqida to'la taassurot olishga yo'l ochib beradi. Bu kabi uy-muzeylar jamiyat hayotida qanchalik rol o'ynashi, ularning jamiyatda tutgan o'rni va kelajak avlodga qay darajada ta'sir o'tkazishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jahon tajribasidan ma'lumki taniqli shaxslar uchun barpo etilgan uy-muzeylari doimo qiziqish uyg'otgan. Shuning uchun uy-muzeylari rivoji boshqa muzeylardan farqli ravishda ajralib turad. O'zbekistondagi uy-muzeylarda nafaqat ijodkorning shaxsiy buyumlari, ijodiy hayoti, faoliyati ham aks ettiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шмидт Е.О. Меориальные музеи в системе развития науки и общественного сознания // Музееведение. Музей мира. - М.: 1991. - С. 98-110. - (Сб. науч. тр. НИИ культуры).
2. Джаббаров А, Саламонова Г., Композиторы и музыковеды Узбекистана. - Т.: 1975.
3. Jumaniyozov R. Komiljon Otaniyozov zamondoshlari xotirasida. Toshkent. G'ofur G'ulom nashriyoti - 1998.
4. Org/O'zbekiston xalq hofizlari./uz
5. [www.TripAdvisor.ru](http://www.TripAdvisor.ru)
6. [www.museum.ru](http://www.museum.ru).



## BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI O'QUVCHILARIDA MAQOM IJROCHILIGINI SHAKLLANTIRISH

**Dilmurod QURBONOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI  
2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Salohiddin AZIZBOYEV,  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI professori.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktabi g'ijjak sinfi o'quvchilarida ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish borasida so'z boradi. Shuningdek yosh soha pedagoglariga ushbu jarayonlarni amalga oshirishda maslahat va takliflar ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** G'ijjak, o'quvchi, Bolalar musiqa va san'at maktabi, pedagog, dastur, dars o'tish, tayyorlov.


**Аннотация:** В данной статье говорится о формировании исполнительских навыков у учащихся детской музыкально-художественной школы. Также советы и предложения по реализации этих процессов будут даны педагогам молодежного сектора.

**Ключевые слова:** Гиджак, ученик, Детская школа музыка и искусство, педагог, программа, уроки, подготовка.

**Abstract:** This article deals with the formation of performance skills in students of the first grade of the children's music and art school. Young pedagogues like Suning will be given advice and suggestions on implementing these processes.

**Key words:** Gijjak, student, Children's music and art school, pedagogue, program, lessons, preparation.

O'zbek milliy musiqa san'ati juda boy va o'ziga hos uslubiga ega bo'lgan nodir san'at turi hisoblanadi. Ayniqsa milliy cholg'u sozlarining bir birini takrorlamas turlari ham o'tmish qaridan hozirgi kunga qadar rivojlanib, uning yoqimli sadolari milliy qadiryatlarimiz, o'tmish an'analarimiz, boy tariximiz, urf-odatlarimizdan hikoyalar aytayotganday.



Prezidentimiz tomonidan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PQ-112-son Qarorida ta'kidlanganidek, istiqbolda "Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash" ustuvor vazifa etib belgilandi. Qabul qilingan qarorda aynan bolalarga maktab davrida bir milliy musiqa cholg'u sozini o'rganib maktabni tamomlash ko'zda tutilgan. Qolaversa madaniyat tizimiga tegishli qaror va farmonlarda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga to'xtalib o'tilmoqdaki, unda tarbiya topgan yosh avlod qay sohada faoliyat olib bormasin uning ijodiy yuksalishiga katta xizmat qiladi. Shu tufayli bugungi kunda boshlang'ich musiqa ta'limni o'rgatishda mukammal, sodda va ilg'or texnologiyaga aylanish turli darslik, o'quv qo'llanmalar va video darsliklarga extiyoj seziladi. Bu esa soha mutaxassislaridan katta ma'suliyat va mehnat talab etadi. Bu borada yosh mutaxassislar zamonaning ilg'or yoshlari bilimlariga tayanish va ularga ishonch bildirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki XXI asr texnologiya va axborotlar davrida yoshlarni qarashi zamonaviyligi jihatdan ajralib turadi. Bu dunyoqarashni to'g'ri yo'naltira olish vatan taqdiriga aloqadorligini his ettirish va ularga motivatsiya berish yuksak natijalarga erishishimizga sabab bo'la oladi.

Xozirgi kunda minglab yosh iqtidorlar san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha taxsil olib musiqa sirlarini o'rganishmoqda. Ularni kelajakda yetuk san'at ustalari bo'lib yetishishlarida madaniyat sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa maqom san'atini yosh avlodga o'rgatish ustozlardan anchagina mashaqqat talab etadi. Chunki qadimdan bu san'at saroy musiqasi hisoblangan bo'lib, uni tinglash, o'rganish faqatgina zodagonlargagina nasib etgan. Shu tufayli maqom san'atini bugungi kunda ham asl shinavandalari tor doiralarda saqlanib qolgan.

O'zbek milliy sozlar guruhiga kiruvchi g'ijjak, sato, qobuzlar, o'z tuzilishi, ijro imkoniyatlari ovoz tembri jarangdorligi va boshqa xususiyatlari bilan rang-barangdir.

G'ijjak - O'rta Osiyo xalqlari, xususan o'zbek va tojik xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg'u asbobi bo'lib, uning eng qadimiy namunalari ikki simli



bo'lgan. Keyinroq olti, yetti simli g'ijjaklar ham ishlatilgan. Hozir xalqimiz orasida keng tarqalgan to'rt simli g'ijjak sozi o'zining ijro imkoniyati bilan ma'lum darajada yevropaning skripka soziga yaqindir.

G'ijjak sozida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishning ahamiyatini alohida tadqiqot sifatida o'rganib, bu borada amalga oshirish lozim bo'lgan nazariy va amaliy faoliyat yuzasidan barcha mavjud uslubiy materiallarni to'plash, tizimga solgan holda amaliy ijrochilikda qo'llashning samarali yo'l va usullarini ilmiy asosda ko'rsatib berish zarur. Bu esa, o'z navbatida g'ijjak ijrochiligini o'rganishni yangi sifat bosqichiga ko'tarishga shart-sharoit yaratadi. Aynan bu amalga oshirilishi lozim bo'lgan dasturlar ixtisoslashtirilgan maqom maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablarida namuna sifatida qo'llab, keyinchalik uni o'rta maktablarda ham keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu pedagogik jarayonda nafaqat maqom va milliy ijrochilik san'ati o'rgatiladi balki milliy oxanglarga muhabbati baland kelajakdagi tinglovchilar auditoriyasi shakllanishiga turtki bo'ladi.

Asosiy masalaga e'tibor qaratsak yosh o'quvchilarning g'ijjak cholg'usida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilish asosiy vazifa etib belgilangan. Uning uchun ushbu ko'nikmalarni hosil qilishda pedagoglar quyidagi vazifalarga ahamiyat qaratishlari lozim.

Maqom cholg'u ijrochiligi tarixiga oid materiallar bilan tanishish;

G'ijjak ijrochilik maktablari tarixiga oid tadqiqot ishlari bilan tanishish;


Yillar davomida rivojlanib kelgan Farg'ona vodiysi g'ijjak ijrochilik maktablari vakillari borasidagi materiallarni to'plash va o'rganish;

Farg'ona vodiysi g'ijjak ijrochilik maktablari vakillari ijodiga doir materiallar bilan tanishish;

Farg'ona vodiysi g'ijjak ijrochilik maktablari vakillari tomonidan takomillashtirilgan ijro uslublarini o'rganish.

Mazkur masalalar keng va atroflicha tahlilga jalb etilgan bo'lib, keltirilgan holatlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini yana bir bora tasdiqlaydi. Chunki yetarlicha dasturlar bazasi shakllantirilmagan, o'quvchilarga dars jarayonini boshlash samarasizdir.

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari tomonidan g'ijjak cholg'usida maqom ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilish borasida



ta'limiy-ijroviy tadbirlarni yanada jonlantirish, ushbu ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda imkoniyatlarini nazarda tutgan holda ular bilan ijrochilik faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularga maxsus dastur sifatida quyidagilar tavsiya etiladi. Avvalo jarayonda birinchi o'rinda o'quvchining sinfi, istedodi va orttirgan ko'nikmalarini inobatga olish lozim. Bu taqsimot ularga asar tanlash jarayonida katta ahamiyatga ega. Dastlabki sinflarda o'quvchiga g'ijjak tuzilishi, dastada tovushlar joylashuvi, sozning umumiy jihatlari bilan tanishtirish qolaversa sozga bo'lgan mehrini oshirish maqsadida texnik vositalardan foydalangan holda mohir sozandalar tomonidan ijro etilgan asarlarni eshittirish va video yozuvlarini namoyish etish (G'.Xojiqulov, A.Imoilov, O'.Qodirov audio va video yozuvlari) maqsadga muvofiqdir. Agarda namuna sifatida ko'rsatilgan mashxur sozandani o'quvchi o'zi tanisa nur ustiga a'lo nur. Albatta jarayonda bevosita o'qituvchi tomonidan ijro etib berilgan go'zal va mohirona asar o'quvchida katta taasurol qoldiradi va qiziqishi ortadi. Bunda asarlarning oddiy, o'rta va murakkablik darajasi pedagog tomonidan to'g'ri tanlanishi lozim.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida asosan g'ijjak sinfiga o'rta maktabning 3 va 4- sinfida o'qiyotgan o'quvchilarni qabul qilinishini hisobga olib, dasturlarni sinflarga taqsimlab chiqamiz.

1-sinf: g'ijjak tuzilishi, tarixi, ijrochining o'tirish holati, kamon ushlar, applikator, ochiq simlarda kamon tortish bilan tanishtiriladi. Bir oktaval gammlar chalish o'rgatiladi.

2-sinf: Shashmaqom cholg'u bo'limidan Tasnif va Tarjelarning xonalaridan parchalar. Oddiy usulda ijro etiladigan maqom, xalq va bastakorlar asarlaridan namunalar.

3-sinf: Bu bosqichda o'quvchiga avval chalgan asarlarini to'liq shakllarini berib, ijro texnikasi va asarning ruxiyatini ko'rsatib berish boshlanadi. Bundan tashqari turkumli asarlardan namunalar berish tavsiya etiladi. Xalq va bastakor asarlarining el ichida mashhur bo'lgan asarlarini dastur sifatida tanlash, bu sinf yoshidagi o'quvchilarga yangi ilhom bag'ishlaydi. Misol Sharob 1,2 Malaksan, Qo'shchinor, Tanovorlar vb.

4-sinf: Bu sinfda nisbatan murakkabroq Gardun, Qashqarcha, Soqiynoma kabi maqom usulidagi asarlar bilan tanishtirish maqsadga



muvofig. Bular bilan bir qatorda o'quvchining texnik mahoratini oshirishga qaratilgan turli mashqlar, 2 oktavali 4 ta belgigacha bo'lgan major va minor gammalari, uchtovushliklar va ularning aylanmalarini ijro ettirish yonma-yon olib boriladi.

5-sinf: Bu sinf bitiruvchi hisoblanib, Shashmaqomning murakkab asarlari bo'lmish 16 taktli Muxammas, 24 taktli Saqil kuylari beriladi. Undan tashqari Shashmaqomning Nasr yo'liga murojat etish tavsiya etiladi. Nasr yo'lidagi ashullarning o'quvchi tanlovi asosida tanlash orqali amalga oshiriladi. Misol Muxammasi Bayot, Saqili Rak-rak, Mug'ulchai Navo, Savti Chorgoh vb.

Shuni aytish kerakki, o'quvchi bilan dars jarayonida har bir asarning nazariy tahlili, tarixi va asarga hos voqeliklar bilan tanishtirish o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, bilimni oshiradi xamda darsning qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Qolaversa zamonaviy interfaol metodlar, innavotsion taxnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash, yangi zamonaviy ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda dars olib borish, ta'lim sifat darajasini ko'taradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish judda dolzarb va ma'suliyatli vazifa hisoblanadi. Shu sababli pedagoglar nafaqat kasbiy mahorati, balki bola psihologiyasi, ustoz-shogird an'analari, sohadagi xorij tajribasi va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib faoliyat olib borishi talab etilmoqda. Maqolada keltirib o'tilgan tafvsiyalar soha pedagoglari uchun foydali bo'lishi va yosh ijrochilarni tarbiyalashdagi sharaflari faoliyatlarida oz bo'lsada xizmat qilishiga ishonaman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bastakorlar ijodiyoti. Notalar to'plami. (Xrestomatiya). "Nurstar shines". Toshkent, 2022.
2. Begmatov.S. Bastakorlar ijodi. NISO POLIGRAF. Ташкент, 2017.
3. Gofurbekova.H. Bastakor Komiljon Jabborov. Musiqa ijodiyoti masalalari. Toshkent,1997.
4. Mannopov.S. Navobaxsh ohanglar. IJOD-PRESS. Toshkent, 2018.



5. Razzoqov.H. Dilrabo kuylar bastakori. Kommunist gazetasi. №41 27/02. 1973.

6. Xalilov.T. Bastakor baxti. O'zbekiston madaniyati. 1969, №6, 21/I.



## MUSTAFO BAFOYEV IJODIDA ALISHER NAVOIY SIYMOSI

**Zavqiddin SHUKUROV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Chinora ERGASHEVA,*

*O'zDK dotsenti, san'atshunoslik fanlari bo'yicha*

*falsafa doktori (PhD).*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy siymosi va uning badiiy merosi asosida kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlar ko'lami, atoqli kompozitor Mustafu Bafoevning ijodi misoliga yoritilgan. Kompozitorning Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq asarlari haqida fikr yuritilib, "Xamsa" va "Alisher Navoiy" operalarida milliylik va mumtoz ohanglar hususida izlanishlar olib borilgan.


**Kalit so'zlar:** Xamsa, Alisher Navoiy, opera, maqom, mumtoz ashula, munojot, cho'li iroq, milliylik

**Аннотация:** В данной статье описывается круг произведений, созданных композиторами на основе образа и творческого наследия великого мыслителя Алишера Навои, на примере творчества известного композитора Мустафо Бафоева. Обсуждены произведения композитора, связанные с творчеством Алишера Навои, проведено исследование национализма и классических мелодий в операх "Хамса" и «Алишер Навои».

**Ключевые слова:** Хамса, Алишер Навои, опера, маком, классическая песня, Мунужот, Чули Ироқ, национальность.

**Abstract:** This article describes the range of works created by composers based on the image and creative heritage of the great thinker Alisher Navoi, using the example of the work of the famous composer Mustafu Bafoev. The composer's works related to the work of Alisher Navoi are discussed, a study of nationalism and classical melodies in the operas "Hamsa" and "Alisher Navoi" is carried out.

**Keywords:** Hamsa, Alisher Navoi, opera, maqom, classical song, Munojot, Cho'li Iroq, nationality.



O'zbek kompozitorlari ijodida buyuk mutafakkir, davlat arbobi, g'azal mulkingning sultoni, o'zbek davlat tili asoschisi, turkiy tillarda "Navoiy", forsiy tilda "Foniy" taxallusi bilan ijod qilgan, sharqda "nizomi millati va din" (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'langan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari siymolariga va ular yaratgan mumtoz, benazir meroslariga muhabbat bilan juda keng ko'lamlil asarlar yaratilgan va yaratilmaqda.

Behisob ashulalar, o'nlab romanslar, bir qancha opera va baletlar, qator simfoniyalar hamda simfonik asarlarda bir tomondan, – Alisher Navoiy obrazi izchil talqin etilsa, ikkinchi tomondan, – uning boy badiiy merosi asosida gavdalangan.

"O'zbek san'atkorlari, qolaversa, turkiy xalqlar san'at namoyandalari orasida besh yarim asrdan ko'proq davom etib kelayotgan ijodiy "Navoiynoma"ga salohiyati va samarasi bo'yicha tenglasha oladigan o'zga noma bo'lmasa kerak. Zero, hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub umrboqiy satrlar asosida shu kunga qadar bitilgan yoki daho siymosini gavdalandirgan asarlarning ko'lami behad keng, shakl va toifasi nihoyatda rang-barangdir." [5.80 bet]

Jumladan, G'ulom Zafariy bilan Viktor Uspenskiy hamkorligida "Farxod va Shirin", Tolibjon Sodiqov va Reyngold Glierning "Layli va Majnun", Mutavakkil Burxonovning "Alisher Navoiy", Yunus Rajabiy va Sayfi Jalilning "Navoiy Astrobodda" musiqali dramalari, G.A.Mushelning ikkinchi simfoniyasi, Mirsodiq Tojiyevning "Shoir muhabbati" nomli simfonik poemasi, Ikrom Akbarovning "Xamsa" saxifalaridan vokal-simfonik poemasi, V.Uspenskiyning "Alisher Navoiy xotirasiga lirik poema"si, U.Musayevning Xamsa asosida "Poetik miniantyuralar", Mutal Burxonovning Abdulla Oripov so'ziga "Alisher Navoiyga qasida"si hamda "Alisher Navoiy" operasi, Muxtor Ashrafiyning "Dilorom" operasi, shunugdek, Manas Leliyevning "Suxayl va Mehri" baleti va Nurli Abbosxonning "Navoiy" maqom-spektakli shular jumlasidandir.

Mustafu Bafoev ijodida ham Alisher Navoiy obrazi alohida o'rin tutadi. Buyuk shoir va mutafakkir siymosi hamda uning bebaho merosi kompozitorni deyarli butun ijodiy faoliyati mobaynida qiziqtirgan va turli janrlarda asarlar yaratishga undagan. 1974-yili talabalik davridanoq Navoiyga murojijat etib, ovoz va kamer orkestr uchun



Navoiy buboiylariga yozgan “Besh ruboiy” turkumini yozgan bo‘lsa, 2022 yil oxirida “Alisher Navoiy” operasi sahna yuzini ko‘rdi.

Shu bilan birga 1991-yil Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag‘ishlangan “Movaraunnahr” nomli 4-simfoniyasi va “Holoti Alisher Navoiy” nomli 5-xor-simfoniyasi, 1998-yili Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni parchalari asosida o‘zbek xalq cholgulari uchun “Bahrom va Dilorom” musiqiy dostoni, 1998-yili kompozitorning do‘sti Bahodir Yo‘ldoshev g‘oyasi asosida “Yil fasllari” (“Alisher Navoiy xotirasiga”) turkum simfonik asari, “Lison ut-tayr” opera feeriyasi, 2017-yil “Xamsa” operalari yuqorida keltirilgan ro‘yxat salmog‘ini yanada boyitdi va kengaytiradi.

Bundan tashqari Navoiyning “Foniy” taxallusi bilan yozilgan bir nechta g‘azallariga ovoz va orkesrt uchun asarlar yozgan, “Vasbi muhabbat”, “Nigoriy turk” shular jumlasidandir. Navoiyga bag‘ishlangan Izzat Sulton sheri asosida “Navoiy monolog‘i”, Xurshid Davron so‘zi bilan “Ko‘xna Turon” kabi romanslar xozirda radio arxivida saqlanib kelinmoqda.

Kompozitor Navoiy merosi va uning ahamiyati hususida “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusida shunday deydi: “Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Ulug‘ shoir o‘zining she‘riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egalladi. Shu nuqtai nazardan, biz har doim Alisher Navoiy merosiga murojaat qilib, nafaqat adabiyot namunalaridan zavq olamiz, balki hayot falsafasini o‘rganamiz, teran axloqiy fazilatlariga ega bo‘lamiz. Aslida ham shunday bo‘lishi kerak.” [4]

“Men yoshligimdan hazrat Navoiy nazmining maftuniman” – deya so‘zda davom etarkan, ijodkor Navoiy nazmi, u xoh to‘rtlik yoki g‘azal bo‘lsin, xoh doston bo‘lsin, ravonligi, so‘zlarining jarangdorligi, ma‘nodorligi bilan tayyor ohangga o‘xshashi va ul buyuk zotning taxallusi ham bejiz Navoiy bo‘lmagan, zero “navo” so‘zining asl ma‘nolaridan biri “ohang”, “qo‘shiq”dir deya takidlaydi. [4]



Mustafo Bafoyevning Navoiy ijodiga murojaatini kuzatadigan bo‘lsak, yil sayin uning salmog‘i ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Dastavval talabalik yillarida “besh ruboiy” asari yozilgan bo‘lsa, kompozitor yetuklik davridagi Navoiy bilan bog‘liq ijodi musiqa san‘atining gultoji, eng yirik va eng murakkab janrlardan bo‘lmish opera san‘atidagi to‘g‘ri keladi. “Xamsa” operasi va Navoiy siymosini gavdalandiruvchi “Alisher Navoiy” operalari buning yaqqol misolidir.

Ikki parda besh ko‘rinishdan iborat “Xamsa” opera-baleti, “Xamsa”ning besh dostonini o‘zida birlashtirgan ilk sahna asardir. Operasining ilk namoyishi musiqiy rahbar va dirijyor B.Xudoyqulov, sahnalashtiruvchi rejissyor N.Slonim, baletmeyster Z.Nurimbetov va boshqalar hamkorligida 2017 yilning 28 may kuni Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri sahnasida qo‘yildi.

Asarning etiborli jihati shundaki uning dramaturgiya rivojida badiiy o‘qish, musiqa va raqs muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u mumtoz maqom ohanglari orqali ko‘rsatgan.

“Hayrat ul-Abror” dostoni “Navo” maqomiga, “Farxod va Shirin” ishqiy dostoni “Dugoh” maqomi, “Layli va Majnun”ning ishq maydonidagi ichki kechinmalari, ruhiy holatlarning chuqur tasviri “Segoh” maqomi, to‘rtinchi ko‘rinish “Sab‘ai Sayyor”dostoni “Rost” maqomi va hajman eng yirik “Saddi Iskandariy” dostoni esa ulug‘vor “Buzruk” maqomiga asoslangan.

Mustafo Bafoyevning “Alisher Navoiy” operasi ham anashunday mumtoz va milliy ohanglar tasirida yaratilgan, hamda milliy opera sifatida sahna yuzini ko‘rgan operalardan biridir.

Filologiya fanlari doktori, professor Shuhrat Sirojiddinov, Oleg Uzoqov librettosi asosida yaratilgan ushbu opera, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Haydarali Qosimov tomonidan sahnalashtirildi. Musiqiy rahbar va dirijyor O‘zbekiston san‘at arbobi, professor Fazliddin Yakubjonov.

Asar premyeraga qadar soha mutaxassislariga jumladan: musiqashunoslar, kompozitorlar, teatrshunoslar va navoiyshunoslar namoish etilib, muhokama qilindi, fikr va mulohazalari bilan o‘rtoqlashishdi. Unda so‘z olgan Madaniyat va turizm vazirining birinchi o‘rinbosari Bohodir Majidovich Axmedov mazkur operani davlat buyurtmasi ekanligi, uning milliy opera sifatida nafaqat



yurtimizda, balki butun dunyoga o'zbek milliy operasi sifatida namoish eta oladigan va shuhrat qozona oladigan darajada mukammal bo'lishi kerakligini takidlab o'tdi. [2]

Operaning ilk premyerasi 2022-yilning 4-dekabr sanasida, ikkinchi primyerasi 2023-yil 9-fevralda Navoiy tavalludining 582 yilligiga bag'ishlanib Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida o'tkazildi.

Asosiy mazmun mavjud qahramonlarning ikki guruhga bo'linishi, ya'ni ijobiy va salbiy obrazlar orqali gavdalandiriladi. Ijobiy obrazlar: Alisher Navoiy (tenor), Husayn Boyqaro (bas), Abdurahmon Jomiy (bariton), Muysafid (tenor), Hofiz Muhammad (tenor), Ahliy Sheroziy (bariton). Salbiy obrazlar: Xadichabegim (mezzo soprano), Majididdin (bariton), Nizomul mulk (tenor).


Operada uch xil dramaturgik tamoyillar birlashganini qayd qilish mumkin. Bular lirik, dramatik va epik yo'nalishlardir.

Hususan, lirik tamoil – Navoiyning ijodkorini tarannum etilgan sahnalarda batafsil ko'rsatiladi. Dramatik holatlar sirasiga saroydagi fitna-ig'volar, xalq g'alayoni va Mo'min Mirzoning o'limi sahnalarini keltirishimiz mumkin. Hikoyaviy-epik ruh esa Muysafid chol obrazi orqali ko'rsatiladi.

Kompozitor usbu asarni yozarkan, maqsadi va o'ziga qo'ygan talablari xususida shularni takidladi: "Navoiy ijodining ayrim nuqtalarini, musiqa orqali ko'rsatish, uning shoirligini, mutaffakkurligini, davlat arbobi ekanligini, marifatparvarligini va xalqparvarligini musiqiy tilda ifodalash. Buning uchun xalq ichida mashhur, Navoiy g'azallari bilan bog'liq milliy ohanglar va shu bilan birga milliy usullarga murojaat qildim. Chunki maqsadim Navoiy obrazini milliy yo'lda yaratish, milliy operani yaratish edi". [3]

Mustafo Bafoyev operani yozishda Munojot, Savti Munojot, Ufari Munojot, Cho'li Iroq, Samarqand Ushshog'i, Toshkent Ushshoq, Bozurgoniy, Samoi Dugoh va shunga o'xshash maqom va maqom yo'llarida yaratilgan mumtoz ashulalar va ularning cholg'u kuyi ohanglaridan maqsadli va unumli foydalangan.

"Men o'zim ham yozishim mumkin edi, lekin, xalq qulog'ida qolgan, ular orasida mashhur bo'lgan ohanglar ularga yaqin, bu ohanglar asarning xalqchilligi va milliyligini yanada boyitadi, ko'nglidan tez joy oladi" deya so'zida davom etarkan Mustafo Bafoyev



ustozi Mutal Burxonov ham milliylikka, so'zga juda talabchan bo'lganini, milliy bo'lishi kerak, so'zi ravon bo'lishi kerak deya ko'p ta'kidlaganlarini eslab o'tdi. So'zining xulosasi sifatida, milliylik operada ham, simfoniyalarda ham, umuman, qaysi janr bo'lmasin ufurib turishi kerak, bo'lmasi bizni boshqa mamlakat kompozitorlaridan farqimiz qolmaydi. Shunga yarasha ohanglarda milliylik bo'lishi kerak va usul ham katta ahamiyatga ega ekanligini takidladilar. [3]


Opera muqaddima, 2 parda va 7 ta ko'rinishdan iborat bo'lib, unda Navoiyning xalqparvarligi, marifatparvarligi, shoirligi, ulug'vorligi tamnum etilib, shu bilan birga o'sha davrdagi ayrim tarixiy lavhalar gavdalandirilgan.

Operadagi markaziy obraz bo'lmish Alisher Navoiy-deyarli barcha sahnalarda ishtirok etadi. Birinchi parda birinchi ko'rinishda Navoiy saroy ayoni va Boyqaroning do'sti sifatida, ikkinchi ko'rinishda uning xalqparvarligi, uchinchi ko'rinishda ijodkorligi ya'ni, shoir sifatida, beshinchi ko'rinishda Husayin Boyqaroning do'sti va yelkadoshi, oltinchi ko'rinishda vatanparvarligi va marifatparvarligi hamda ettinchi ko'rinishda uning ulug'vorligi tasvirlangan.

Kompozitor Navoiyning bu qiyofalarini musiqada uch xil leyt mavzu asosida gavdalandirilgan. Ular ichida "Cho'li Iroq" va "Munojot" ohanglari alohida ahamiyatga ega va asar boshidan oxirigacha qahramonlarga hamrohlik qiladi. Uning ohanglari operaga milliylik baxsh etish bilan bir qatorda, uni xalqqa yaqinlashtirishda, sevimli qilishda ahamiyati katta. Zero, bu kuy xalq nolasi, dardi, shodligi o'laroq yaratilgan va ular qalbida choqur joy olgan. Navoiyning shoirligi, ziyoli shaxs sifatlarini kompozitor o'z qalamiga mansub ohanglar orqali tarannum etadi. Uning ohangi dastlab opera boshida bir musiqaiy parcha sifatida berilib, asar davomida rivojlanib, kengayib, Navoiy ariyasi darajasigacha ko'tariladi.

Navoiy leyt mavzularidan yana biri bu "Cho'li Iroq"dir. Uning ohanglari nafaqat Navoiy balki xalq uchun ham leyt mavzusi sifatida xizmat qiladi va butun opera davomida tembr doirasi kengayib rivojlanib boradi. Asar boshida nayda, keyin rivojlantirilib klarnet, arfa, goboy, surdina yordamida trubada hamda vibrafonda ijro etiladi.

Operada "Munojot" ham qo'llanilgan bo'lib, asosiy leyt mavzu sifatida xizmat qiladi. "Munojot" operani boshidan to oxirigacha, xar



xil ko'rinishlarda goh ashula yo'li, goh cholg'u kuyi bo'lib, goh ayol ovozi tembrida hang sifatida ifoda etiladi.

Mazkur opera milliy opera sifatida nafaqat yurtimiz balki jahon sahnalarida munosib o'rin egallab, o'z muxlislariga ega bo'ladi. O'z asarlarida milliy qadriyatlarni, milliy ohanglar va milliy ijro uslubi orqali tarannum etib kelayotgan, o'zbek musiqa san'atiga o'zining anashunday benazir asarlari bilan salmoqli hissa qo'shgan, hamda bugungi kunda ham ana shu faoliyatni davom ettirib kelayotgan O'zbekiston san'ar arbobi, atoqli kompozitor, mohir dirijor, mahoratli pedagog Mustafo Bafoyev ijodini o'rganishda davom etgan holda, yangi muvaffiqiyatlar tilab qolamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev Rustam. "Узбекский макомат и композиторское творчество" - "O'zbek milliy maqom san'atining tarixiy va nazariy asoslari" Respublika ilmiy-amaliy anjuman 2019.

2. "Alisher Navoiy" operasi ijodkorlari bilan suhbat.

3. Kompozitor Mustafo Bafoyev bilan suhbat.

4. Salimov Shoqahhor. "Buyuk shoir nazmining navosi" – Yangi O'zbekiston. 2020-yil. 13-dekabr. 241-son.

5. Yunusov Ravshan. "Mirsodiq Tojiev" – Toshkent: "Musiqqa", 2018.



## O'ZBEK MILLIY CHOLG'ULARI VA ULARNING IJROCHILIGI TARIXI

**Umida ASOMIDDINOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI*

*2-bosqichi magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Ilyos ARABOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI*

*"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası mudiri, dotsent,*

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada o'zbek milliy cholg'ulari va ularning ijrochilik tarixi, shu bilan bir qatorda ularning kelib chiqish asoslari nazariy tomondan yoritib beriladi, shuningdek cholg'ushunoslik ilmi haqida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqiy cholg'ular, mumtoz ijodiyot, milliy meros, Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti, xalq ijrochilik amaliyoti.

**Аннотация:** В данной научной статье будет освещаться, узбекские национальные музыкальные инструменты и их история исполнения, также теоретические основы их возникновения, а также будет несколько слов о науке инструментальной музыки.

**Ключевые слова:** музыкальные инструменты, классическое искусство, национальное достояние, современное композиторское творчество, народно-исполнительская практика.

**Abstract:** This scientific article, uzbek national musical instruments and their performance history, as well as theoretical foundations of their origin will be covered, as well as a word about the science of instrumental music goes.

**Key words:** musical instruments, classical art, national heritage, modern composer's creativity, folk performing practice.

Ma'lumki, musiqiy cholg'ular xalqlarning moddiy hamda ma'naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o'z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an'alarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan amaliy san'at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg'u asboblarga egadirlar.




O'zbek musiqiy cholg'ular olami bu xususda ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati buyuk, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, arslar osha rivojlanib kelgan. O'tmish allomalari Al-Farobiy (IX) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV) "Jami al-alhon film al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV) "Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) "Musiqiy risola"sida, Amuliy (XVI) "musiqa risola"sida, Darvesh Ali Changiy (XVII) "Musiqiy risola"larida musiqiy cholg'ularning o'rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrlarining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoiri o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, o'z ijodi bilan ma'rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg'u berib o'tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ularni o'rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u asboblarning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbadd, ud, rud, qobuz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar turli darajadagi ma'lumotlar bilan keltirilgan.

Al Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'u sozlariga



katta e'tibor bilan yondoshib, ularni amaliyotdagi tutgan o'rmi, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manba'larda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi, kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rmi oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog'liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalar yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholg'ularning turli yo'nalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda an'anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qo'llanilmoqda.

Qayd etish joizki, cholg'ular, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal - azaldan bir-birini to'ldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaratib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholg'ular ko'lamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan. Kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholg'ular bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularni rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq




O'zbek musiqiy cholg'ular olami bu xususda ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati buyuk, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, arslar osha rivojlanib kelgan. O'tmish allomalari Al-Farobiy (IX) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV) "Jami al-alhon film al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV) "Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) "Musiqiy risola"sida, Amuliy (XVI) "musiqa risola"sida, Darvesh Ali Changiy (XVII) "Musiqiy risola"larida musiqiy cholg'ularning o'rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrlarining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoiri o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, o'z ijodi bilan ma'rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg'u berib o'tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ularni o'rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u asboblarning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbadd, ud, rud, qobuz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar turli darajadagi ma'lumotlar bilan keltirilgan.

Al Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'u sozlariga



katta e'tibor bilan yondoshib, ularni amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manba'larda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi, kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rni oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog'liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalar yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholg'ularning turli yo'nalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda an'anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qo'llanilmoqda.

Qayd etish joizki, cholg'ular, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal - azaldan bir-birini to'ldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaratib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholg'ular ko'lamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan. Kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholg'ular bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularni rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq



musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Cholg'ushunoslik ilmi fanda "organologiya" deb yuritiladi va cholg'u sozlarning shakllanishi, amaliyotda qo'llanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanni rivojida bir qator Sharq va G'arb olimlari qatorida o'zbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholg'ular ko'proq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan.


Cholg'ularning ilk tasvirlari qadimgi odamlarning istiqomat joylari g'orlarda, qoya tashlashda o'yib chizilgan imoratlarning peshtoqlari, saroylarning devoriy suratlari sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan. O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlarida Afrosiyob Dalvorzin tepa (Surxandaryo), Varaxsha (Buxoro), Ayritom, Zartepa, qo'y qirilgan va qo'zi qilingan tepalar (Ko'xna Urganch), Panjikent<sup>72</sup> kabi qadimiy joylar qazilmalaridan topilgan chizma surat va haykalchalar shular jumlasidandir.

Qadimiy suratlarda arfa, ud, naysimon hamda urma cholg'ular aks ettirilgan. Musiqiy cholg'u ijrochiligiga bo'lgan ehtiyojni aynan ushbu suratlardan ko'rish ham mumkin. Chunki, suratlarda nafaqat yakka ijrochilar yoki cholg'u asbobining o'zi aks ettirilgan, balki, ayritom qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda qadimgi Sug'd madaniyatiga xos ansambl, ya'ni bir qator musiqachilarni dasta bo'lib ijro etayotgan cholg'uchilarining aksi tushirilgan<sup>73</sup>.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi, ya'ni shakl-tuzilishlari tarkibiy jihatlari, nomlariga xos ijrochilari bilan bog'liq a'lumotlar, asosan O'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritila boshlanadi. Demak, O'rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq balki olimlar e'tiborini qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov "Maqomat" kitobida quyidagicha bayon etadi. "Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zaminida musiqiy asboblarning ijrochilik faoliyatining obyektiv

<sup>72</sup> Qazilmalar va qazilmalardan topilgan ash'yolar xususida T.S.Vizgoning "Muzikalnie instrumenti Sredney Azii" istoricheskiye ocherki M., Muzika, 1980. kitobida batafsil yoritilgan.

<sup>73</sup> Ko'rsatilgan manba.



aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi. Farobiy ta'biri bilan aytganda, cholg'u asboblarning shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi. Ularning tembr-akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shundan so'nggina cholg'ular olimlar kuzatuv va umumlashmalariga zamin bo'lishi mumkin"<sup>74</sup>.

XIX asrning 2-yarmiga kelib o'zbek an'anaviy cholg'ularini o'rganishga alohida ahamiyat berila boshlanadi. O'rta Osiyo madaniyatiga qiziqish G'arb mamlakatlarida ortib boradi va uni o'rganish maqsadida mutaxassislar kela boshlaydilar. Marko, Polo, Vamberi, Ankomin, Leysek, Eyxgorn kabi sayohatchi etnograflar, tarixchilar, kopelmeysterlarning kundaliklarida zikr etilgan ma'lumotlar keyinchalik yirik-yirik maqolalar va kitob tarzida nashr yuzini ko'radi. Eyxgornning o'zi butun O'rta Osiyo Respublikalarini aylanib chiqib, olamshumul muvaffaqiyatga erishadi. Ilk bor cholg'ular kolleksiyasini yig'adi va bir qator shaharlarda namoyish etadi<sup>75</sup>.

XX asrga kelib xalq ijrochilik amaliyotida ommalashgan cholg'ularni o'rganib tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Buni Abdurauf Fitrat<sup>76</sup> o'zining ijodida boshlab berib, qimmatli ma'lumotlarni bayon etadi. Shundan so'ng musiqashunos olimlar cholg'ushunoslik ilmini rivojida bir qator samarali tadqiqotlar olib boradilar. V.Belyayev<sup>77</sup>, F.Karomatli<sup>78</sup>, T.S.Vizgo, A.Malkeyevalar shular jumlasidan bo'lib, O'rta Osiyo musiqa cholg'ushunosligi sohasining rivojiga samarali hissa qo'shdilar. Manba'larda an'anaviy cholg'ular musiqiy madaniyatning asoslaridan biri ekanligini va xalq ma'naviyatini go'zal an'alarini o'zida mujassam etib kelayotganini tasniflab berganlar.

XX asrning 30-40 yillariga kelib cholg'ularni takomillashtirish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Bu jarayon O'zbekistonda kompozitorlik ijodiyotining jahon andozalariga mos rivoji bilan bog'liq edi. Ijrochilik amaliyoti ham shunga moslashib, simfonik orkestr rsumi doirasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini iste'molga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Amaliyotda mavjud cholg'ularni orkestr


<sup>74</sup> O.Matyoqubov Maqomat. T., Musiqa, 2004 y., 272 b.

<sup>75</sup> A.Eyxgorn 1870 yilda O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy cholg'ularini yig'ib kolleksiya yaratgan. Eyxgornning musiqiy cholg'ular kolleksiyasi Glinka nomidagi Davlat musiqa madaniyati muzeyida saqlanadi.

<sup>76</sup> A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. M., 1926 y, T., 1993.

<sup>77</sup> V.Belyayev. Muzikalnie instrumenti Uzbekistana. M., Gos.iza. 1933.

<sup>78</sup> F.Karomatov. Uzbekskaya instrumentalnaya muzika. T., G'G'ulom, 1972.



tarkibiga moslash ishlari negizida bir qator cholg'ularning oilaviy namunalari yaratildi. Natijada, simfonik orkestrga muqobil xalq cholg'ulari orkestri yaratildi. Orkestrning rang-barang ovozi tarannumini ta'minlash uchun rubobning- prima, alt, tenor; dutorning- prima, bas, kontrabas; g'ijjakning-alt, qo'biz bas, qo'biz kontrabas; changning-bas, tenor, alt namunalari yaratildi. Ushbu cholg'ular zamonaviy musiqa ijrochilik jarayonida nafaqat orkestr, balki kamer va turli (duet, trio, kvartet, kvintet, oktet) cholg'ular tarkibidan tuzilgan garuhlarni tuzishga imkon yaratadi. Qolaversa o'zbek musiqa san'atining umumbashariyat andozalariga xos tarzda rivoj topishida hamda dunyoga chiqishlariga katta yo'l ochib beradi.

Cholg'u ijrochiligi asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Har bir millatning musiqa ijrochiligida o'ziga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari mavjud. Milliy musiqa cholg'ulari ijrolari va sadolanishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Cholg'u asboblarining sadolanishi va unda ijro etiladigan musiqiy asarlarning ijrosi hamda ohangi uni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Shu o'rinda bu amallarni cholg'u asbobida amalga oshiruvchi sozanda hisoblanadi.

“Soz”<sup>79</sup>anda – quruvchi, yaratuvchi, cholg'uchi<sup>80</sup> milliy musiqa cholg'ularidan birida mashq qiluvchi musiqachi; mashshoq, navozanda degan ma'nolarni anglatadi. Sozandalik – musiqa ijrochiligi san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, insoniyat hayoti, ma'naviyatimiz ruhiyati va rivojiga beqiyos madad beruvchi omildir. Sozandalik sohasida shu boisdan ham uzoq o'tmishdan o'ziga xos an'analar vujudga kelgan. Bu an'analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko'rinish, uslub va yo'nalishlarda rivojlanib, avloddan-avlodga o'tib, o'z ma'naviy salohiyatini saqlab kelmoqda. Musiqiy janrlar ichida eng murakkabi, ammo inson qalbiga tez yetib bora oladigani, sozanda tomonidan mohirlik bilan cholg'u sozida ijro etiladigani kuy hisoblanadi. Sozanda ijro etayotgan har bir kuy-ohang o'zining ma'lum bir mazmun mohiyatiga ega bo'lib, u tinglovchiga tovush orqali ta'sir etadi va badiiy obraz yaratadi. Kuyning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki,

<sup>79</sup> Soz — musiqa cholg'ularining (mas., dutor, tanbur, g'ijjak) umumiy nomi.

<sup>80</sup> Cholg'uchi – cholg'u chaluvchi sozanda; musiqachi.



so'z beoqibat qolganda kuy yordamida ko'ngilni eng hilvatli joylarini ham zabt etish imkoniyatiga egadir.

Cholg'u asbobi bu o'ziga xos uskuna. Cholg'uchi unga jon beruvchi, uni ijro etuvchi shaxs. Cholg'uchi tor ma'no, ijrochi keng ma'nodagi tushuncha. Cholg'uchi bir joyda turib ijro qilaveradi. Ammo ijrochi bironing g'oyasini, masalan, “Munojot”, “Aliqambar”ni ijro qilib beradi. Sozanda cholg'u sozini chaluvchi, jonlantiruvchi shaxs. Ijrochi musiqiy g'oya, uning ma'nosini fikrini ado ijro etish, ijro etuvchi, yuzaga chiqaruvchi, eshittiruvchi. Sozandaning mahorati va ilhomi tufayli ijro qilingan kuy jonli san'at voqeligiga aylanadi.

Musiqa ijrochiligi – ijodning bir turi, musiqa asarlarini xonanda yoki sozanda tomonidan badiiy talqinda ijro etilishi. Sozanda va xonandalar musiqa ijrochiligi an'analarini ustoz-shogird munosabatlari orqali avlodan avlodga maxsus bilim va qoidalarga bo'ysungan holda saqlab, rivoj toptirib kelganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya bilan Turkiston xalqlari o'rtasida juda katta tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan munosabatlar yo'lga qo'yilib savdo sotiq ishlari olib borilgan. O'sha davrda paydo bo'lgan savdo mahsulotlari qatorida organun, skripka va garmon kabi musiqa cholg'ulari bor edi. Bu cholg'ularni kirib kelishi qisqa davr ichida o'zbek xalqi madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va ular xalq sozandalari orasida ommalasha boshladi.

Bu davrda ijrochilik uchta asosiy turga bo'linib, milliy cholg'ularimiz ijrochiligida yakkanavozlik, jo'navozlik va orkestr ijrochiligi tushunchasi yangilik sifatida namoyon bo'ldi. Xalq cholg'ulari ansambllarining turli xillari shakllandi. Ayni paytda, o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berib, yangidan yangi shakllar paydo bo'ldi. Bu davrga kelib maqom ijrochiligida xonandalar bilan bir qatorda, tarkibi turlicha bo'lgan cholg'u ansambllari ham ishtirok etdi. Bu jamoalarga Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa dutor, g'ijjak, bulomon, doira yoki tanbur, tor-doira, Farg'ona – Toshkent uslubida dutor, g'ijjak, tanbur, qo'shnay va doira cholg'ularidan iborat bo'lgan ansambllar shakllandi. Buxoro, Xorazm va Qo'qon ustozlarining ijro maktablari saqlab qolindi.


XX asrning 20-yillariga kelib musiqa va san'at sohasining zamonaviy talablari asosida cholg'u ijrochiligi ikkita yo'nalish – xalq an'anaviy ijrochiligi san'ati va akademik ijro san'atiga bo'lindi. Ayni



chog'da, milliy cholg'ular ovro'pacha yo'nalishdagi ko'povozli musiqa uslubi o'quv dargohlari va konsert muassasalarida joriy etila boshlandi. Radio va televideniya qoshida turli ijodiy jamoalar – maqom ansambli, estrada ansambli, xor jamoasi, milliy cholg'ular orkestri, kamer orkestri, kvartet va boshqa guruhlar tuzilib, mustaqil faoliyat olib bora boshlashdi. Chang, g'ijjak kabi cholg'ularga qo'shimcha torlar qo'shilgach (qo'yilgach), ularning ohang doirasi anchagina kengaydi. 1930-yillarning boshlarida musiqiy cholg'ulardan dutor, tanbur, rubob va g'ijjaklarning turdosh oilasi yaratildi. Kichik diapazon va diatonik tovush qatorga ega bo'lgan changning yuqori registrlariga qo'shimcha torlar va xarraklar qo'yildi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qazilmalar va qazilmalardan topilgan ash'yolar xususida T.S.Vizgoning "Музыкальные инструменты Средней Азии" исторические очерки М., "Музыка" 1980.
2. Matyoqubov O.. "Maqomot" Т., "Musiqqa" 2004.
3. A.Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" М., 1926 у, Т., 1993 у.
4. Беляев В. "Музыкальные инструменты Узбекистана" М., "Гос.изд" 1933.
5. Кароматов Ф. "Узбекская инструментальная музыка" Т., Г.Гулом, 1972.



## **XALQ CHOLG'ULARI TAKOMILLASHTIRILISHI: JARAYON VA MAQSAD**

*(Chang cholg'usi misolida)*

**Sirojiddin USMANOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI*

*2-bosqich magistranti.*

*Ilmiy rahbar: Abdurahmon XOLTOJIYEV,*

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent.*

**Аннотация:** *O'zbek xalqi ham boshqa millat va davlatlar kabi o'zining milliy ohanglariga va milliy cholg'ulariga ega. Xalq cholg'ulari yillar davomida bugungi kunga qadar yetib keldi. Bu yillar davomida bir qancha xalq cholg'ulari takomillashtirildi. Bu takomillashtirish jarayonining o'ziga xos bir qancha sabablari mavjud bo'lib, bu haqda ushbu maqolada ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ushbu maqolada, chang cholg'usining takomillashtirilishi haqida ham ma'lumotlar taqdim etilgan. Bugungi kundagi ko'rinishga ega bo'lgan, takomillashtirilgan chang cholg'usida maqom ohanglarini ijro etishdagi o'ziga xos muammolar haqida fikr yuritilgan.*

**Калит so'zlar:** *xalq cholg'ulari, chang cholg'usi, takomillashtirish, ansambl, musiqa, orkestr.*

**Аннотация:** *У узбекского народа, как и у других народов и стран, есть свои национальные мелодии и национальные инструменты. Народные инструменты дошли до наших дней с годами. За прошедшие годы несколько народных инструментов были усовершенствованы. Есть несколько уникальных причин для этого процесса улучшения, которые подробно описаны в этой статье. Кроме того, в этой статье также содержится информация об усовершенствовании пылевого прибора. Обсуждаются уникальные проблемы воспроизведения тонов макама на усовершенствованном пылевом инструменте в его современном виде.*

**Ключевые слова:** *народные инструменты, инструмент чэнг, реконструкция, ансамбль, музыка, оркестр.*



**Abstract:** *The Uzbek people, like other nations and states, have their own national intonations and national instruments. Folk instruments have appeared over the years to this day. Over the years, a number of folk instruments have been improved. There are several specific reasons for such an improvement process, which are described in this article. In addition, this article also contains information about the improvement of the chang instrument. The improved dust tool, which has a modern appearance, warns of problems inherent in the reproduction of sound makoms.*

**Keywords:** *folk instruments, cheng instrument, reconstruction, ensemble, music, orchestra.*

O'zbek mumtoz musiqa san'ati dunyo musiqa san'ati ichida eng betakror va mukammal san'atlardan biridir. Mumtoz asarlarimizning betakrorligi asosida esa albatta milliy cholg'ularimizning mukammalligi yotadi. Albatta, milliy cholg'ularimiz ham yillar davomida shakllanib, rivojlanib, bir qancha o'zgarishlarga duch kelib, bugungi kundagi ko'rinishga kirdi. Aslida bu borada har bir musiqiy cholg'umizning o'z tarixi va rivojlanish bosqichlari mavjud. Biroq, ushbu maqolada aynan chang cholg'usiga to'xtalib o'tsak. Chang cholg'usi bir necha yuz yillar davomida takomillashib, ustoz san'atkorlardan bugungi yoshlar qo'liga yetib kelgan. Tarixga chuqurroq kirib boradigan bo'lsak, changsimon cholg'ular juda qadim zamonlardanoq mavjud bo'lgan bo'lib, turli xalqlar o'zining sharoiti, musiqa san'atining talablaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos o'zgarishlarni kiritganlar. Yillar davomida bu cholg'ular yanada takomillashib, mukammallashib, bugungi zamonaviy ko'rinishga kirgan. Shu tariqa ko'plab xalqlarning o'z "chang"i o'z nomi bilan mavjud.

Sharqshunos olim va tadqiqotchi Nil Sergeevich Likoshinning taxminiga ko'ra, O'zbekistonga changga o'xshash chyong' cholg'usi Qashqar tomondan kirib kelgan. Avvaliga ushbu bu cholg'uning xajmi taxminan 1,5 metrni tashkil qilgan. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Abdurauf Fitrat bergan ta'rifga ko'ra, "...bu cholg'u bir juft qamish cho'pda chalingan, o'n ikki qator tori bo'lib, har qatorda uchtadan tor bo'lgan." [2, B.33] Ya'ni cholg'u qopqog'ining ustiga



oltitadan ikki qator xarraklar o'rnatilgan. Har bir parda olti maqom turkumlarining nomlari bilan yuritilgan.

Chang cholg'usiga kiritilgan dastlabki o'zgarishlardan biri bu tovushqator tizimi va sadolantirish uslublarining o'zbek an'alariga moslashtirilishi, ya'ni cholg'uning tovushqatori yetti pog'onali diatonik tovushqator tizimiga o'tkazilib, ustki qopqog'i bo'ylab ikki qator yahlit xarraklar joylashtirilgan. Bundan tashqari, 1925-yilgacha chang torlari yalang g'arrov cho'plarda, so'ng uchiga mato o'ralgan cho'plarda sadolantirilgan, 1935-yildan keyin cho'p uchiga rezina naychalar taqib ijro qilingan.

O'zbek xalqining chang cholg'usi ham yillar davomida, hayot va zamon taqozosi bilan takomillashtirilish jarayonining ishtirokchisiga aylandi. Masalan, 1940-yillarda mashxur sozanda Usta Ro'zmat Isaboevning chang cholg'usini takomillashtirish borasida olib borgan ishlariga qisqacha to'xtalib o'tsak. Bu inson Namanganda faoliyat olib borgan va o'sha vaqtda sozandalar tomonidan keng foydalanilib kelgan yarim xromatik chang cholg'usining bir nechta nus'halarini yasagan.

Xorazmda ham o'sha vaqtlarda chang cholg'usiga e'tibor yetarli darajada bo'lgan. Ayniqsa, sozanda va bastakor Matyusuf Xarratovning bu borada olib borgan ishlarini alohida e'tirof etmoq joiz. Sababai, Matyusuf Xarratov chang cholg'usini takomillashtirish borasida izlanar ekan, chang cholg'usining yuqori pardalarini qo'shimcha torlar va xarraklar bilan kengaytirdi. Bir oktava ko'tarib sozlashga moslashtirilishi orqali esa chang cholg'usining ixchamlashishiga erishildi. Bu jarayonda Matyusuf Xarratov bilan birgalikda uning o'g'li Fozil Xarratov, sozandalar Faxriddin Sodiqov va Ahmad Odilovlar ham faol ishtirok etdilar. Aynan mana shu ko'rinishdagi chang cholg'usi ijrochilik amaliyotiga tadbiiq etildi. Toshkent shahrida ham bu borada bir muncha izlanishlar mashhur usta va sozanda Usta Usmon Zufarov tomonidan ham olib borilgan va chang cholg'usining yangi yangi nus'haları yaratilgan. Ya'ni Usta Usmon Zufarov chang cholg'usining tovush ko'lamini kengaytirish maqsadida uning tovushqatorini yigirmata pardaga yetkazganlar. Bir oz avvalroq esa mashhur doira va chang cholg'usi sozandasi Usta Olim Komilov chang tovushqatorini 16 taga yetkazgan holda takomillashtirgan edi.

Keyinchalik sozandalar Po'latjon Rahimov, Faxriddin Sodiqovlar ham yo'q pardalarni qo'shishga muvaffaq bo'ldilar. Bu davrga kelib



chang hajmi nisbatan ixchamlashdi. Torlarni ko'tarib turuvchi yaxlit xarraklar o'rnini, alohida yasalgan xarraklar egalladi. Changga uchta maxsus 25 santimetr uzunlikdagi kalta oyoqchalar o'rnatildi va cholg'u tovushqatori deyarli temperatsiya qilinmagan xromatik tovushqatorga yetkazildi.

O'tgan asrimizning 30-yillarida ko'povozli orkestr va ansambllarning kirib kelishi kuzatila boshlandi. Bu vaqtda kompozitorlik ijodiyotining shakllanishi va notaga qarab asarlarni ijro etish tizimining joriy qilinishi munosabati bilan o'zbek milliy cholg'ularini takror ko'rib chiqilishi zarurati tug'ildi. Bu vaqtda esa chang cholg'usining navbatdagi takomillashtirish ishlari yangicha yo'nalishda kechdi, ya'ni ushbu cholg'uga barcha milliy cholg'ularimiz qatorida o'n ikki ravon temperatsiyaga asoslangan teng yarim pardali xromatik tovushqator joriy qilindi. Zamonaviy chang cholg'usining ilk namunasi 1946-yilda konstruktorlar A.Petrosyans, S.Didenko va xalqimizning sozgar ustasi Usmon Zufarovlar hamkorligida yaratildi. Chang cholg'usining tovush ko'lami "g" kichik oktavadan "e" uchinchi oktava oralig'ida bo'lib, uning tovushqatori yangi tartibda joylashtirildi va bir oktava ko'tarib sozlandi. Bu cholg'uning keyingi takomillashtirish ishlari asosan tajriba laboratoriyasida olib borildi. Natijada, unga temperatsiya qilingan xromatik tovushqator joriy qilindi, turli diametrdagi sifatli torlar taqildi. Chang uchun maxsus uchta uzun oyoqlar, chang sadolarini vaqt-vaqti bilan so'ndirib turish uchun tepki mexanizmi o'rnatildi va chang cholg'usining oiladosh turlari yaratildi.

Shu o'rinda o'sha davrda amalga oshirilgan cholg'ular takomillashtirilishining asosiy yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz:

1. *Tembrlar unifikatsiyasi ("sadolanishini kuchaytirish", "musiqaga oid bo'lmagan tovushlarni bartaraf etish")*;

2. *Cholg'u tayyorlash materiallarining va texnologiyasining unifikatsiyasi*;

3. *Orkestrlashtirilgan cholg'ular oilasini yaratish (masalan, dutor sekunda, dutor prima, dutor alt va shu kabi)*.

Ishning avvaliga keladigan bo'lsak, musiqiy cholg'ular takomillashtirilishining ilk ob'ekti sifatida rus garmoni tanlangan. Bu ishlar 1920-yillarda boshlangan bo'lsa 1930-yilning o'rtalariga kelib bu jarayon avjiga chiqdi. Ushbu takomillashtirish ishlarining natijalari



1937-yilning dekabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan 1-umumsoyuz musiqiy cholg'ular ko'rgazmasida namoyish etildi. [1, B.47] Ushbu ko'rgazmada turli xalqlardan jamlangan 800 dan ortiq cholg'ular namoyish etilgan bo'lsa, ular orasidan o'zbek, oyrot, buryat, chuvash, osetin, chechen, ingush, xakas xalqlarining takomillashtirilgan va "mukammallashtirilgan" xalq cholg'ulari asosiy o'rinlarni egalladi.

Ko'rgazmada eng asosiy e'tibor o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, arman xalqlarining orkestrga mos bo'lgan torli – tirnovchi va damli cholg'ular "to'plami"ga qaratildi.

"Takomillashtirish" g'oyasining targ'ibotchilari 1930-yillarda xalq cholg'ularining g'uyoki "chegaralangan imkoniyatlari" haqida bong urar edilar. Aslida esa o'sha davrdagi musiqiy cholg'ularning takomillashtirish ishlari xalq cholg'ulari orqali odamlarni "qayta yasash", fiklash asosini o'zgartirishga yo'naltirilgan yirik urinish bo'lgan.

1938-yilda "Xalq ijodiyoti" ("Народное творчество") jurnali shunday yozgan edi: "Musiqiy madaniyatning jadal rivojlanishi sharoitida ko'plab xalq cholg'ulari ijrochilar va tinglovchilarni qoniqtirmay qo'ydi. Avvallari ikki cholg'u bir yerda chalinmagan joylarda milliy ansambllar va orkestrlarning tashkil etilishi, minglab yangi muhlislarning paydo bo'lishi, yirik yirik konsert zallarining qurilishi, yangi xalq qo'shiqlarining yuzaga kelishi, kompozitorlarning asarlari – bularning barchasi bir qancha sevimli xalq cholg'ularini yaxshilash va mukammallashtirish ehtiyojini uyg'otdi". [3, B.56] Bundan ko'rinib turibdiki, o'sha vaqtlarda stalincha siyosat ortida go'yoki "qoloq" xalqlarni dunyo madaniyat tamaddunining cho'qqisiga olib chiqish masalasi mavjud edi. O'sha davrda avtonom respublikalarda musiqiy teatrlar, ansambllar bilan bir qatorda davlat xalq cholg'ulari orkestrlari va ansambllari tashkil etildi va ularga professional rus kompozitorlari rahbar etib tayinlandi. Masalan O'zbekistonda N.Mironov, Qirg'izistonda P.Shubin, Tojikistonda A.Lenskiy va boshqalar. Bu orkestrlarda takomillashtirilgan, "mukammallashtirilgan" xalq cholg'ularining virtuoz ijrochilari jamlangan bo'lib, maqsad ushbu cholg'ularni xalq ichiga olib kirish va singdirish bo'lgan.



Shulardan kelib chiqib chang cholg'usining takomillashtirilishini umumiy tarzda ko'rib chiqadigan bo'lsak, shunday xulosa qilishimiz mumkin:

- torli-urma chang cholg'usi O'zbekistonga XIX asrning ikkinchi yarmida Qashqardan kirib kelgan va mahalliy sozandalar tomonidan o'zbek kuylariga moslashtirilgan;

- ko'povozli ijro jamoalari va kompozitorlik ijodiyotining shakllanishi natijasida barcha musiqa cholg'ularimiz qatorida chang cholg'usi konstruksiyasiga o'zgartishlar kiritildi;

- yangicha takomillashgan chang cholg'usida nafaqat milliy kuy-qo'shiqlarni, balki kompozitorlar ijodiyotini o'zlashtirish, jahon mumtoz namunalari va qardosh xalqlarning nodir asarlarini ijro etish imkoni yaratildi;

- boshqa xalqlarning chang cholg'usiga o'xshash cholg'ularidan farqli ravishda, o'zbek chang cholg'usi ham an'anaviy ijrochilikda, ham ko'povozli ijrochilikda birdek qo'llanilib, yakka ijroda, ansambl va orkestrda jarangdor cholg'u sifatida qaror topdi.

Ana endi, bugungi kundagi muhim masalalardan biri chang cholg'usini bizning milliy boyligimiz, ma'naviyatimiz durdonasi sanalgan maqomlarimizga moslashtirishdir. Bugungi kunga qadar chang cholg'usi bilan bog'liq olib borilgan o'zgarishlar, mukammalshtirish, takomillashtirish ishlari tufayli, chang cholg'usida maqomlarimizning asl ohanglarini ijro etishda murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Ya'ni changda berilib asar ijro qilib turgan vaqtda birdaniga sozining o'zgarishi, sozandaning asabiga tegib, hatto ijroni davom ettirishdan bosh tortish xollari ham uchraydi. Bu ayniqsa, chang cholg'usida maqom asarlarini ijro etishni o'rganayotgan yoshlarning ko'ngli qolishiga sabab bo'ladi. Ansamblda boshqa cholg'ular ichida solist emas balki tovushlar poydevorini belgilab beruvchi soz sifatida ko'riladi. Bundan tashqari changing bir pardadagi uchta simi bir-biriga soz bo'lmay, maroq bilan chalish o'rniga chang chalish azobga aylanadi. Bunday sabablardan yana bir nechtasini sanash mumkin. Ammo shuni aytish muhimki, hozirgi chang cholg'usiga o'zgartirish kiritish juda muhim. Albatta bu o'zbek milliy sozandaliqi olamida alohida bir dolzarb va ko'plab jiddiy tadqiqotlarga sabab bo'ladigan mavzu sanaladi.




#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Румянцев С.Ю. Сталинская "Реконструкция" народных музыкальных инструментов: миф и реальность // Миф. Восток. XX век. СПб., 2006.

2. А.Фитрат "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti., Toshkent, 1993.

3. "Народное творчество" ежемесячный массовый журнал., год издания второй, 10-11, 1938 г.



## QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING O'ZIGA XOS MILLIYLIGI

**Shirin NAURIZBAYEVA,**

*O'zbekiston san'at va madaniyat instituti  
Nukus filiali talabasi.*

**Annotatsiya:** Qadimiy va boy tarixga ega qoraqalpoq folklorining asosini lirik va epik asarlarning barcha turlari tashkil etadi. Lirik janrli asarlarga xalq, marosim qo'shiqlari (yor-yor, xaujar, joklau, ramazon, gulapsan, badik va b.) Aytishlar (maqolalar, qo'shiq tanlovlari), maqol va matallar, masallar, tez gaplar kiradi. Epik janrdagi asarlarga ertaklar, she'rlar, dostonlar kiradi.

**Kalit so'zlar:** teatr san'ati, spektakl, milliy rang, rejissyor, bezak, musiqa, tarixiy elementlar, xalq qo'shig'i, og'zaki xalq san'ati.

**Аннотация:** Все виды лирических и эпических произведений составляют основу каракалпакского фольклора с древней и богатой историей. Лирические жанровые произведения включают народные, обрядовые песни (ёр-ёр, хажсар, жоклау, рамазан, гулапсан, бадик и т.д.), Айтмысы (поговорки, песенные конкурсы), пословицы и поговорки, притчи, быстрые поговорки. Произведения эпического жанра включают в себя сказки, стихи, эпосы.

**Ключевые слова:** театральное искусство, перформанс, национальный колорит, режиссер, декорация, музыка, исторические элементы, народная песня, устное народное творчество.

**Annotation:** All types of lyrical and epic works form the basis of Karakalpak folklore with its ancient and rich history. Lyrical genre works include folk, ceremonial songs (yor-yor, khaujar, joqlov, ramazan, gulapsan, badik, etc.), aytis (sayings, song-contests), proverbs and sayings, parables, quick sayings; works of epic genre include fairy tales, tales, folk tales, epics.

**Key words:** theater art, performance, national color, director, decoration, music, historical elements, folk song, oral folk art.



Qadimiy va boy tarixga ega qoraqalpoq folklorining asosini lirik va epik asarlarning barcha turlari tashkil etadi. Lirik janr asarlariga xalq, marosim qo'shiqlari (yor-yor, xao'jar, jo'qlov, ramazon, gulapsan, badik va b.), aytis (aytishuv, qo'shiq-bellashuvlar), matal va maqollar, masallar, tez aytishlar; epik janr asarlariga ertak, to'lgov, terma, dostonlar kiradi.

Dostonlar qoraqalpoq folklorining asosiy janri bo'lib, 4 tur (qahramonlik, lirik, ijtimoiy-maishiy, tarixiy dostonlar)ga bo'linadi. Qoraqalpoqlarda keng tarqalgan doston "Alpamis" dostoni. Shuningdek, "Yedige", "Qoblan", "Qirq qiz" dostonlari mashhur [1, B.42].

Qoraqalpoq tilida, boshqa ko'pchilik turkiy tillarda bo'lganidek, umumturkiy so'zlardan tashqari, arab, eroniy, rus tillaridan o'zlashgan so'zlar xam anchagina.

Qoraqalpoq tili yozuvi isloh qilingan arab grafikasi asosida 1924 yilda shakllantirilgan. 1929-40 yillarda lotin grafikasiga asoslangan qoraqalpoq yozuvi amalda bo'lgan bo'lsa, 1940 yildan rus grafikasi asosidagi yozuv joriy etilgan. 1999 yildan lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tish ishlari amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpoq mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi shoir Jien Jirovning (1730-1784) faoliyati muhim ahamiyatga ega. O'zining "Ulug' tog'", "Posqan yel" dostonlarida qoraqalpoqlarning Xorazmga ko'chib kelish tarixini yozgan. Qoraqalpoqlarning Turkistondan ko'chib kelishiga shoirning yana bir "Xush bo'ling, do'stlar" she'ri bag'ishlangan. Yana bir shoir Kunxoja she'rlarida o'zi yashagan davrdagi xalq hayotini tasvirlagan. Ajiniyazning ijodi XIX asrda ijod qilgan qoraqalpoq shoirlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Uning asarlari alohida to'plamlar sifatida qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va rus tillarida chop etilgan. Berdaq shoirning lirik, satirik, didaktik she'rlari, tarixiy dostonlari diqqatga sazovor.

Shuningdek, Otesh Alshinbay o'g'li (1828-1902), Qolmurot Qurbosh o'g'li (1841-1926). Omar Sug'irimbet o'g'li va boshqa shoirlarning she'r, doston va boshqa asarlari qoraqalpoq adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaydi [2. B.152].

XX asr boshlarida qoraqalpoq adabiyotida she'riyat yetakchilik qildi. Hozirgi zamon qoraqalpoq adabiyotining asoschilari A.Musaev, S.Majitov, K.Avezov, K.Yormanov,



I.Fozilov, N.Dovqoraev, A.Begimov, J.Aymurzaev, D.Nazberganov, M.Daribaev, A.Shomuratov, S.Qurboniyozov va boshqalarning ijodida madaniyat va ma'rifat, ta'lim, mehnat, tabiat, xalqlar do'stligi, ayollar tengligi va boshqa umuminsoniy masalalar asosiy mavzulardan bo'ldi.

Hozirgi zamon qoraqalpoq she'riyatini g'oyaviy-mavzuli badiiy-estetik jihatdan boyitishga I.Yusupov salmoqli hissa qo'shdi. 1980-yillarning 2-yarmida K.Mambetovning "Xujdan", O.Abdurahmonovning "Bo'sag'a", A.Otepbergenovning "Do'zah ichida", K.Rahmonovning "Oqibat", Sh.Seytovning "Xalqobod" romanlari yaratildi. She'riyatga o'z ovozigacha ega bo'lgan K.Karimov, K.Reymov, N.Toreshova, M.Jumanazarova, O.Seytaev, O.Satbaev, J.Xo'shniyozov, X.Dauletnazarov, J.Izboskanov, X.Ayimbetov kabi iste'dodli ijodkorlar kelib qo'shildi [3, B.90-91].

Qoraqalpoqlar san'atining sarchashmalari Sharqiy Yevropa va Osiyo qadimiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpoq ornamentlari Kiev yaqinidan topilgan-kumushdan yasalgan tamg'ali belbog' qadamlari, fibullar va chakka halqalarida ham uchraydi. Chirikrabotda topilgan zargarlik buyumlaridagi motivlarni qoraqalpoq ornamentining timsoli deb hisoblash mumkin. Korakalpoqlarda xalqning o'ziga xos etnik xususiyatlari gilam va kashta buyumlarida yaqqol aks ettirilgan. Ularga qo'shni bo'lgan xalqlar orasidan qoraqalpoqlarda ko'proq turkman ornamenti va naqshlariga yaqinlik seziladi. Koraqalpoq kigiz va namatlaridagi bezaklar juda qiziqarli bo'lib, ularga naqsh tushirish texnikasi o'ziga xos, qozoqlarnikidan farqli o'laroq, applikatsiya yo'li bilan tushiriladi. Ularda bezaklar to'lqin ko'rinishida bo'ladi, bu juda qadimiy ornament bo'lib, suv ramzini bildiradi. Chunki qoraqalpoqlar qadimdan daryo va ko'l bo'ylarida yashab kelganlar. Ularda qadimdan movut va fil suyagi bilan qadama naqshli yog'och o'ymakorligi rivojlangan. Koraqalpog'iston hududida antik, o'rta asr va yangi davrlarga oid me'morlik yodgorliklari mavjud.

Tasviriy san'at shakllari rivoj topdi (I.Saviskiy, K.Soipov, J.Izentaev, J.Kuttimurodov va boshqalar). Nukusda Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'lkashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Qoraqalpoq san'ati an'anaviy shaklga, chuqur tarixiy o'tmishga ega. Qoraqalpog'iston san'atda o'ziga xos



milliylik saqlanib qolgan mintaqadir. Xalq orasida o'tov, hovli an'anaviy yashash joylari hisoblanadi. Bugungi kunda ham san'atdagi an'anaviylik hamda milliy o'ziga xoslik saqlanib qolgan va o'z rivojlanishiga ega.

Qoraqalpoq musiqa madaniyati uzoq tarixga ega bo'lib, hozirgi kunda boy musiqiy folklor, og'zaki an'anadagi professional musiqa va shuningdek, rivoj topgan kompozitorlik ijodiyoti namunalariga egadir.

Musiqiy folklor shakllar asosini qo'shiqlar tashkil etadi. Xalq marosimlari bilan bog'liq bir qancha janrlar (mavsum marosim qo'shiqlardan "Aydar-aydar" — shamolni chaqirish, diniy marosim - "Yaramazan", oilaviy marosim va maishiy qo'shiqlardan "Yar-yar", "Haujar", "O'len", "Sinsio", "Joqlao" va b.) uning eng qadimgi qatlamini tashkil etadi. Badiiy mazmuniga ko'ra xalq qo'shiqlari ishqiylirik, tarixiy, marosim, ayollar (qizlar), bolalar qo'shiqlaridan iborat. Ularning aksariyati diatonik ladlarga asoslanib, ohanglari melizmatik bezaklarga boy kuychanlik xususiyatlarga ega. Koraqalpoqlarda islomdan oldingi madaniyat hisoblanuvchi ruhlarni chaqirish, ular yordamida bemorlarni davolash uchun porxay (parixon)lar tomonidan ijro etilgan aytimlar ham saqlangan ("balik", "gulapsan"). Folklor musiqasida ayollar (qizlar)ning changqo'biz musiqasi, yigit-qizlarning teatrlashgan o'yinqo'shiqlari, laparlari ("yag'li baxar") mavjud [4, B.55].

Qoraqalpoqlarning og'zaki an'anadagi professional musiqasining markaziy qismini doston musiqasi egallaydi. Koraqalpoq doston ijrochilari 3 turga bo'linadi: jirovlar, baxshilar va qissaxonlar. Ularning har biri o'ziga xos ma'lum ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga kelgan bo'lib, bir-biridan repertuaridagi dostonlar mazmuni, ijro uslubi, doston aytim kuylari hamda musiqiy cholg'u jo'mavozligi jihatidan farq qiladi.

Jirovlar faoliyati an'anaviy ijodning eng qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, qahramonlik dostonlarni ("Qoblan", "Sharyar", "Yedige", "Alpamis", "Maspatsha"), tarixiy to'lg'ovlarni ichki ovozda qo'biz jo'rligida ijro etishadi. Baxshi (baqsi)lar ishqiylirik va qahramonlik dostonlarni ("Yusuf-Zulayha", "Zaure-Tayir", "Yusuf-Ahmet", "Go'ro'g'li") hamda mumtoz she'riyati asarlarini ochiq ovozda, dutor va g'ijjak jo'rligida (gohida bo'lamon ham qo'shiladi) ijro etishadi.




Kuylar murakkabligi, ifoda vositalar boyligi bilan jirovdan farq qiladi. Qissaxonlar ko'pincha savodxon shaxslar bo'lib, xalq yig'inlarida doston qo'lyozmalarini o'qib yoki yoddan aytib berishadi. Ular she'rlarni faqat o'ziga xos, nutq intonatsiyasiga yaqin aytim kuy (nama)larga solib, musiqiy cholg'u jo'rlligisiz ochiq ovozdagi ijro etishadi.

Milliy musiqa cholg'ulari qatoriga dostonchilarning cholg'ulari bo'lmish qo'biz, dutor, g'ijjak (girjek) va bo'lamondan tashqari changqo'biz, qamish surnay va bolalar xushtagi ("iskirau-ik") kiradi. O'tmishla qoraqalpoqlarda chindovul, surnay, karnay, nog'ora, dap (doira) kabi cholg'ularning mavjudligi haqida qaxramonlik dostonlarida ma'lumotlar saqlangan. Bulardan qo'biz va dutor keng tarqalgan, ularda mohir sozandalar tomonidan qoraqalpoq mumtoz cholg'u kuylari chalinadi. Ayniqsa, dutor kuylari orasida "Muxalles", "Nalish" kabi turkumiy kuylar shaklan murakkab va ifoda vositalarining boyligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq an'anaviy musiqa rivojlanishiga XX asrda Nurabullo jirov, Yerpo'lat jirov, Ho'qiz jirov, Jumaboy jirov, Qiyos baxshi Hayratdinov, Japaq baxshi Shomurotov, Yesjan baxshi Qospo'latov, Kenjaboy baxshi Tilevmurotov, Qoraqalpog'iston xalq artisti T.Qurbonov va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar [5].

Shu vaqtlarda milliy bastakorlik ijodiyoti shakllana boshladi. Musiqali dramalar, kichik simfonik asarlar, xorlar, kamer asarlar va hokazolar yozildi. Bu sohaga Japaq baxshi Shomurotov va O.Halimovlar salmoqli hissa qo'shdilar.

Drama va teatrning asosini qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini o'yinlari, xalq dostonlari, xalq ustalarining ijodiyoti, professional so'z ustalarining san'ati (Omirkbek laqqi, Kampakal-Kampir, Davlat Laqqi, Tinimqiz) mujassamlashgan. XIX asrda masxarabozlarning san'ati keng tarqalgan. XX asr boshlariga kelib teatr professional san'at darajasida shakllandi. 1930 yil To'rtko'lda musiqali drama teatri tashkil etildi, keyinchalik unga K.S.Stanislavskiy, 1990 yilda Berdaq nomi berildi [6, B.112].


Teatrlar o'ziga xos tarixiy yo'lni bosib o'tdi va faoliyatda davom etmoqda. Bu ish jarayonida yutuqlarga erishildi, kamchiliklar ham o'ziga yarasha. Eng muhimi, Behbudiy bobomiz aytganidek, "Teatr –



ibratxonadir", bu maqsaddan uzoqlashmaslik teatrning ertangi kunini va kelajagini belgilaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alieva N. San'at – mening hayotim – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
2. Bayandiev T. "Qoraqalpoq teatri tarixi" T.: O'zDSMI 2011 y. 152-bet
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2006
4. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XVII bob, 70-moddasi.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 11-tom.



## MUNDARIJA

Tabrik so'zi	<i>O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori O.A.Nazarbekovning konferensiya ishtirokchilariga tabrigi</i>	4
--------------	---	---

### I-SHO'BA

#### O'ZBEK MAQOM SAN'ATINING IJROCHILIK MASALALARI

Ma'ruffjon RASULOV	<i>Ufar usulining maqom yo'llari va xalq musiqasi tarkibidagi shakllari va o'ziga xoslik jihatlari</i>	8
Nodira HAYDAROVA	<i>O'zbek mumtoz musiqamizning ommalashishi: "Shashmaqomning nasr bo'limi birinchi guruh sho'basi Saraxbori Dugoh misolida"</i>	27
Orifjon EGRASHEV	<i>Maqom san'ati fidoiysi</i>	33
Sarvar ALIMOV	<i>Maqom ijrochiligida g'ijjak sozida jo'rnnavozlik</i>	40
Zeboxon NABIYEVA	<i>Quvvai hofizasi kuchli sozanda</i>	45
Dilmurod QURBONOV	<i>Maqom maktabi o'quvchilarida maqom ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish</i>	51
Umidjon PARDAYEV	<i>Maqomga bag'shida qilingan umr</i>	57
Muxlis QURBONOV	<i>Navo maqomida aruz vazni</i>	65
Husniddin XUSANOV	<i>Xonandalik san'atida ustoz-shogird an'anasi va malakalarini rivojlantirish</i>	74
Islam MURATBAEV	<i>O'zbek aholi sozanda yakka-yolg'iz va jamoa bo'lib ijro qilishining kreativ</i>	80




### kompetentligi metodlari

Mehrixon MO'MINOVA	<i>Mahalliy uslublar asosida vujudga kelgan dutor ijrochilik maktablarining qiyosiy tahlili</i>	
Nasibaxon IBROHIMOVA	<i>Mustaqillik yillarida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati</i>	92
Furqat OMONKELDIYEV	<i>Maqom san'atida xorazm maqomlari (Dutor maqomlari)</i>	98
Suhrob JUMAYEV	<i>An'anaviy xonandalikda bariton ovozining o'rni</i>	107
Muhiddin USMONOV	<i>Cholg'u ijrochiligida ustozlar maktabi, amaliy tajribalar (G'ijjak misolida)</i>	113
Nodirjon SOBIROV	<i>To'xtasin Jalilov bastalagan asarlarning maqom manbalari</i>	119
Nargiza BEKBOYEVA	<i>O'zbek milliy musiqasida namudlar masalasi</i>	124
Дилрабо АБДУРАШИДОВА	<i>Об изучении ритмики стихосложения аруз приёмами игры на дутаре</i>	129
Muxlis QURBONOV	<i>Navo maqomida so'z va bo'g'inlarning ishlatilishi</i>	140
Eldor SHONAZAROV	<i>O'zbek maqomlari etnografiyasi</i>	148
Malika QURBONOVA	<i>Maqom ta'limida ustoz-shogirdlik an'anasining qadimiy ko'rinishi</i>	154
Murodjon ERGASHALIYEV	<i>Shashmaqom turkumida talqin sho'balari (Talqini Chorgoh misolida)</i>	162


### II SHO'BA

#### O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Nilufar BOTIROVA	<i>O'zbek va Hind madaniy aloqalari Shashmaqom va So'fiyona Kalom janrlari misolida</i>	172
Jur'atbek SHERIMMATOV	<i>Sharq allomalarining maqomlar nazariyasiga oid qarashlari</i>	185



Shahboz	Tarixda ilk bor shashmaqomning	191
ABDUHOSHIMOV	notalashirilishi	
Qobuljon	Talabalarga musiqiy ta'lim-tarbiya	198
TOSHTEMIROV	berishda mumtoz ashulachilik san'atining ahamiyati	
Durdona	O'z MTRK tizimida ayol xonandalarning	205
SHODMONOVA	ijro imkoniyatlari haqida	
Nargiza	Bastakorlik san'atida Komiljon	213
FOZILJONOVA	Jabborovning samarali ijodi	
Mo'minjon	Hamroqul qori To'raqulovning hayoti va	219
SADIRDINOV	ijodi	
Nigoraxon	Talabalarda milliy musiqiy merosni	226
MANSUROVA	asrashga doir aksiologik bilimlarini takomillashtirish ustuvorligi	
Gulxumor	"Tohir va Zuhra" musiqali dramasi	232
ABDUSAMATOVA	yangi sahna talqini	
Gulhayo	"Musiqqa adabiyoti" fanining o'qitish	241
SOBIROVA	muammolari	
Maftuna SAIDOVA	Abduhoshim Ismoilov ijodiga chizgilar	247
Malika	Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy	256
QURBONOVA	musiqqa san'ati institutining tashkil topishi	
Nilufar	Milliy o'zbek opera san'atiga ayol vokal	262
PARDAEVA	xonandalarining qo'shgan hissasi	
Salohiddin	Sodirxon hofiz Bobosharifovning musiqiy	270
ABDUFATTOYEV	merosdan o'rin olgan asarlar tahlili	
Durdona	Matbuotda ayol xonandalarining	277
SHODMONOVA	ijrochiligi masalasi	
Bahodir	Folklorshunos (etnomusiqashunos)	286
QO'LDASHBOYEV	Rustam Abdullayev ijodiga bir nazar	
Нозима	Творчество композиторов	292
МИРЗАЖОНОВА	узбекистана в фортепианной ансамблевой педагогике	
Sitora	Muxtor ashrafiyning musiqiy me'rosi	297
IBRAGIMOVA		



Salohiddin	Sodirxon hofiz Bobosharifov hayoti va	302
ABDUFATTOYEV	ijodiy faoliyati haqida	
Furqat	Xorazm urfiy maqomlarining to'planishi	308
OMONKELDIYEV	haqida ayrim mulohazalar	
Dildora	"Shukrona" professional dutorchilar	315
SAMATOVA	ansamblining tashkil qilinishi va uning faoliyati	
Maftuna SAIDOVA	Abduhoshim Ismoilov ijro uslubi va	322
	ustoz-shogird an'anasi	
Munisa	Musiqqa yo'nalishidagi uy-muzeylar	332
YARASHOVA	faoliyati va ularni rivojlantirish tamoillari	
Dilmurod	Bolalar musiqqa va san'at maktabi	342
QURBONOV	o'quvchilarida maqom ijrochiligini shakllantirish	
Zavqiddin	Mustafo Bafoyev ijodida alisher navoiy	348
SHUKUROV	siy mosi	
Umida	O'zbek milliy cholg'ulari va ularning	355
ASOMIDDINOVA	ijrochiligi tarixi	
Sirojiddin	Xalq cholg'ulari takomillashtirilishi:	363
USMANOV	jarayon va maqsad (Chang cholg'usi misolida)	
Shirin	Qoraqalpog'iston san'atining o'ziga xos	370
NAURIZBAYEVA	milliyligi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM  
VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI  
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA  
SAN'ATI INSTITUTI

**“O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATINING  
YANGI TENDENSIYALARI”**

*mavzusidagi Respublika yosh tadqiqotchi va magistrnlarning  
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*

Adadi 50 nusxa. Bichimi 60x84 1/16.  
Bosma tabog'i 11,25. «TimesNewRoman» garniturasida.  
“BOOKMANY PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

